Ona tili - 2018

1. “Sening o‘g‘ling ham ancha ulg‘ayib, kap-katta yigit bo‘lib qolibdi”, - dedi Karim bobo ayol ko‘nglini ko‘tarib. Ushbu gapda nechta tovuh tushish hodisasi sodir bo’lgan? ***/// **4 ta**
2. 1) afg’on; 2) avtomobil; 3) faqir; 4) shafqat; 5) afzal; 6) abgor. Berilgan so’zlarning qaysilarida jarangsiz undosh jarangli jufti kabi talaffuz qilinadi**?** ***/// **1,4,5**
3. **1)** bajarmoq; 2) qo‘llamoq; 3) bildirmoq; 4) ko‘rilmoq; 5) turlamoq; 6) belgilamoq Berilgan qaysi so‘zlarda unlilarning og‘iz ochilish darajasiga ko‘ra barcha turi bor? ***/// **4, 6**
4. 1) g’ijjak; 2) saranjom; 3) jirafa; 4) jurnal; 5) gijda; 6) jiyda; 7) janob. So’zlarning qaysilarida jarangsiz "ch" undoshining jarangli jufti qatnashgan? ***/// **1, 2, 6, 7**
5. 1) sanog‘i; 2) tilagi; 3) tarog‘i; 4) o‘rtog‘i; 5) so‘rog‘i; 6) tuprog'i; 7) sovug'i. Berilgan so’zlarining qavsilarida 2 tadan fonetik hodisa kuzatiladi? ***/// **3, 5, 7**
6. 1) tinmay; 2) o'n besh; 3) qamchin; 4) qantarmoq; 5) manmanlik; 6) sunbul. Berilgan qaysi so'zlarda n tovushi m tarzida talaffuz qilinmaydi? ***/// **3, 4**
7. **1)** yig‘lamoq; 2) taranmoq; 3) chorlamoq; 4) anglamoq; 5) chanqamoq; 6) qaynoqroq; Berilgan so‘zlarning qaysi biri fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan? ***/// **1,4,6**
8. a unlisi o unlisi kabi aytiladigan so’zlar qaysi javobda berilgan? ***/// **savob, zamon, bahor**
9. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. Ushbu gapda nechta so‘z fonetik o‘zgarishga uchragan? ***/// **2 ta**
10. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. Ushbu gapda asos va bo’g’in teng keladigan so’zlar sonini aniqlang. ***/// **2 ta**
11. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan.Ushbu gapda nechta yasama so‘z fonetik o‘zgarishga uchragan? ***/// **2 ta**
12. Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili esa yuragidadir. Berilgan gapda fonetik yozuv asosida yozilgan nechta so‘z mavjud? ***/// **3ta**
13. Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili esa yuragidadir. Berilgan gapdagi nechta so‘zda tovush almashishi yuz bergan? ***/// **2ta**
14. Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili esa yuragidadir. Berilgan gapdagi nechta so‘zda tovush tushishi yuz bergan**?** ***/// **1ta**
15. Asosdosh so’zlar berilgan qatorni aniqlang. ***/// **baobro’, beobro’, obro’siz**
16. Avliyolar, daholarning beshigisan, Naqshbandlar topgan jannat eshigisan.

Tiriklikning navosi ham qo‘shig‘isan,

Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh. Ushbu parchada undalma tarkiba qanday undosh mavjud emas? ***/// **sonor undosh**

17. Axloqiy fazilatlaring, yuqori estetik diding bilan uyg'unlashgandagina husningga husn qo'shiladi. Ushbu gapda chuqur til orqa undoshlari soni nechta? ***/// **5 ta**
18. b, p, m undosh tovushlarining hosil bo’lish o’rni qaysi javobda to’g’ri berilgan? ***/// **lab lab undoshlari**
19. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, boʻyim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim. Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi? ***/// **tovush tushishi**
20. Berilgan juftliklarning qaysi biridagi so'z xato yozilgan? ***/// **had-xad**
21. Berilgan soʻzlarning qaysi birida faqat til oldi, sirgʻaluvchi undoshlar ishtirok etgan? 1) muvozanat; 2) larza; 3) faylasuf; 4) shoira; shovul; 6) salla. ***/// **2, 4, 6**
22. Berilgan so'zlardan qaysi biri fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan? ***/// **ulg'aymoq**
23. Berilgan so'zlarning qaysi birida nuqtalar o'rnida bo'g'iz tovushi ishlatiladi? 1) xo..lovchi, 2) sa..ifa, 3) mi..lamoq, 4) xush..ol ***/// **1, 2, 4**
24. Berilgan so'zlarning qaysi birida nuqtalar o'rnida i yoziladi? ***/// **muj..moq**
25. Bir mahal bola yigʻladimi yo tashqarida shamolning gumllashi orasida dahshatli bir faryod qulog’iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Ushbu gapdagi fonetik o’zgarishlarning turini koʻrsating. ***/// **bitta tovush tushishi, uchta tovush ahnashinishi**
26. Birikmagan birlashmas. Ushbu gapda qo'llanilgan soʻz yasovchi morfema tarkibidagi portlovchi tovushni aniqlang. ***/// **k**
27. Birovning narsasini soʻroqsiz ravishda olish gunoh sanaladi. Berilgan gap tarkibidagi soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida qanday fonetik oʻzgarish roʻy bergan? ***/// **tovush almashishi**
28. Birovning narsasini so'roqsiz olish kechirilmas gunoh sanaladi. Ushbu gapda nechta so'z tovush o'zgarishiga uchragan? ***/// **3**
29. Bitta til orqa undoshini ifodalaydigan harflar birikmasi qaysi javobda berilgan?. ***/// **ng**
30. Boʻgʻinlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng keladigan qatorni toping. ***/// **tongga, bog'da**
31. Boʻgʻinlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng kelmaydigan qatorni toping. ***/// **fikrim, baxtim**
32. Bo’g’iz undoshlari bilan boshlanuvchi ochiq bo’g’inli so’zlar qatorini toping. ***/// **..imoya, ..ujayra, ..omuza**
33. Bo'g'iz undoshi bilan boshlanishi kerak bo'lgan so'zlarni aniqlang. 1) ..atti-harakat, 2) ..org'in, 3) ..urram, 4) ..adik. ***/// **2, 4**
34. Bosh harflarning ishlatilish qoidalari tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi? ***/// **orfografiyada**

35. Buyrug’ngiz so’zida tovush o’zgarishlarining qaysi turi mavjud? ***/// **tovush tushishi va almashishi**
36. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo‘lmaydi. Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida nechta tovush o'zgarishi yuz bergan? ***/// **2**
37. Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo’lsang, uning eng yaxshi ko‘rgan narsasini so‘ra, shunda hamma narsa ayon bo‘ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog‘ini solmasa, bunday do‘stni boshga ko‘tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Ushbu matnda fonetik o'zgarishlar soni haqidagi to‘g‘ri javobni belgilang. ***/// **tovush tushishi1, tovush ortishi-2, tovush almashishi-2**
38. Faqat jarangsiz undoshlardan tashkil topgan so’zni toping. ***/// **huquq**
39. Faqat lab undosharidan tashkil topgan ochiq bo'g'inli so'zlarni belgilang. ***/// **vabo, vafo, mavo**
40. Faqat lablangan unlilar qatnashgan qo’shma yasama so‘zni belgilang. ***/// **xushbo'y**
41. Faqat sirg‘aluvchi undoshlardan iborat qatorni toping. ***/// **f, z, y**
42. Faqat talaffuzda bir tovush ortadigan tor va keng unli qator kelgan so‘zlar qaysi javobda berilgan? ***/// **tabiat, shariat, shior**
43. Farzand ona nasihatlarini jon qulog’i bilan eshitishi, to’g’ri yo’lga targ’ib etsa, qarshilik qilmasligi, ota yoki onadan birortasi ish buyursa, shu buyurilgan ishda xatolik borligini sezsa ham, qattiq gapirmasligi, kulib turib, bu ishda xatolik borligini yumshoqlik bilan isbot qilib, ularni ko’ndirishi lozim. Ushbu gapda nechta fonetik hodisa bor? ***/// **7 ta**
44. Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi. Ushbu gapda qanday fonetik o’zgarish ro’y bergan? ***/// **tovush tushishi va almashishi**
45. Fonemalar yordamida farqlanmagan so’zlarni belgilang. ***/// **sur’at-surat, she'r-sher**
46. Fonetik yozuv asosida yozilgan so’z qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Temir qo’rg’on ichida qizil toychoq o’ynaydi**
47. Hammamiz so'zida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi? ***/// **1**
48. Har qanday go'zallik zamirida mehnat yotadi. Ushbu gapda nechta til undoshlari ishtirok etgan? ***/// **18 ta**
49. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda qanday fonetik o'zgarishlar kuzatilmoqda? ***/// **1 ta tovush orttirilishi va 2 ta tovush almashishi**
50. Hosil bo’lish usuliga ko’ra bir guruhga kiruvchi undoshlardan va unlilardan iborat so’zlarni toping. ***/// **vafo, bid’at, soy**
51. Hozirgi o’zbek adabiy tilida jarangsiz juftga ega jarangli undoshlar soni nechta? ***/// **7ta**
52. Ikki xil keng unli qator kelgan so'zlarni toping. 1) soat; 2) muallif; 3) oila; 4) matbaa; 5) saodat; 6) sharoit; 7) zoomagazin; 8) maosh; 9) taom; 10) tamoil ***/// **1, 5, 8, 9**

53. Ikkinchi bo'g'inida u yoziladigan so'zlar qaysi javobda berilgan? ***/// **mushk..l, mug..z**
54. Imlo qoidalariga ko'ra noto'g'ri yozilgan birliklar qatorini toping. ***/// **Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Madaniyat va Sport ishlari vazirligi, Nuroniy jamg'armasi**
55. Imlo qoidalariga muvofiq keladigan ikkita fonetik o'zgarish kuzatilgan gaplarni toping. 1. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi. 2. Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi. 3. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'in ko'rmaysan. 4. O'zbekistonning xalqaro obro'yi kundan kunga oshib bormoqda**.** ***/// **1,2**
56. Imlo qoidasiga ko'ra berilgan so'zlarning qaysi birida ikki undosh orasidagi i tovushi ortiqcha qo'llangan? 1. matin. 2. xiroj. 3. faqir. 4. jazim. 5. zig'ir. 6. muhir. ***/// **1,4,6**
57. Imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan so'zlarni toping. 1) yutiq; 2) badiiy; 3) ukrayin; 4) tassurot; 5) mone; 6) ehtirom ***/// **1, 3, 4**
58. Imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'zni toping. ***/// **mone'lik**
59. Imlo qoidasiga oid xato berilgan fikrni toping. ***/// **Muhim tarixiy sanalar va**

**bayramlar nomidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi.**

60. Imloda tor va keng unli ketma-ket kelgan, tor unli talaffuz qilinmaydigan so'zlar qatorini toping. ***/// **muovin, muallim**
61. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlang. 1) shavqat; 2) tagcharm; 3) tussiz; 4) aftomat; 5) tavsif; 6) afzal; 7) avg'on; ***/// **2,3,5,6**
62. Insoniyat baxti yo'lida ter to'kmay turib, haqiqiy go'zallikka erishib bo'lmaydi. Ushbu gapda nechta protlovchi undosh ishtirok etgan? ***/// **20 ta**
63. Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo, Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Majnun. Ostiga chizilgan so'zlarda urg'u qaysi bo'g'inga tushadi? ***/// **sénsan, ménman,**

**Májnun**

64. Jalil qo'yin cho'ntagidan gazetaga o'ralgan pulni olib sanamoqchi edi, yamoqchi urishib berdi. Ushbu gapda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang. ***/// **3 ta**
65. Jarangli jufti yo'q jarangsiz undosh tovush bilan tugagan yopiq bo'g'inli so'zlar qatorini toping. ***/// **dehqon, charxlanmoq, xohlamoq**
66. Jarangli juftiga ega bo'lgan til orqa undoshi qaysi javobda berilgan? ***/// **g**
67. Jarangsiz jufti yo'q jarangli undoshlar berilgan qatorni toping. ***/// **l, m, n, r, ng, y**
68. Javoblarning qaysi birida -ma qo'shimchasi urg'u olgan holatda qo'llanishi mumkin bo'lgan so'z berilgan? ***/// **burama**
69. Kamtar bo'l, barchani etgil bahramand, Sening ham martabang bo'lg'usi baland.

Urug‘ aralashib avval tuproqqa, So‘ngra bo‘y cho‘zadi osmon-falakka.
Ushbu she’riy parchada nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?
***/// **3 ta**

70. Kamtar bo’l, barchani etkil bahramand,
Sening ham martabang bo’lg’usi baland.
Urug’ aralashib avval tuproqqa,
So’ngra bo’y cho’zadi osmon falakka.Berilgan she’riy parchada jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo’g’inlar nechta? ***/// **19ta**

71. kav..sh; 2) kib..r; 3) kir..m; 4) fah..m; 5) moy..l. Yangi imlo qoidalariga ko‘ra nuqtalar o‘rnida i unlisi qo‘yilishi kerak bo‘lgan so‘zlarni belgilang. ***/// **3, 5**

72. Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim. Ushbu gapda qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang. ***/// **1 ta qator undoshli so'z**

73. ko'ngil, singlisi, kongress so‘zlarining ikkinchi bo‘g‘ini qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

***/// **ko'ngil so'zida yopiq, singlisi so’zida ochiq, kongress so'zlarida yopiq bo'g'in**

74. Ko'nikma so‘zida ishtirok etgan undoshlar haqidagi qaysi fikr(lar) noto‘g‘ri? 1) so‘zda faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan; 2) so'zdagi barcha undoshlar til tovushlari; 3) so‘zdagi barcha undoshlar hosil bo‘lish usuliga ko'ra portlovchi ***/// **1, 2**

75. Ko'p ishlovchi ko'p yashaydi. Ushbu gapda fonetik hodisalarning qanday turi mavjud? ***/// **tovush almashishi**

76. Lablanmagan unlilar berilgan javobni toping. ***/// **a, e, i**

77. Lotin alifbosiga asoslangan yangi yozuvga ko‘ra qaysi so‘zda tutuq belgisi qo'yilmaydi? ***/// **mo..jaz**

78. Malika opaning o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib yana bag'riga qaytdi. Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida fuziyaning qanday turlari mavjud? ***/// **tovush tushishi**

79. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'ini ko'rmassan. Ushbu gapda qanday fonetik o'zgarish kuzatilmoqda? ***/// **tovush almashishi**

80. Men parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko‘rgan bolalar, unga havas qilishdi. Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar vujudga kelgan? ***/// **tovush almashishi va orttirilishi**

81. Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko’nglim pisand etmas. Baytda qo'llanilgan “ichi bo‘sh so'zlar” tarkibida unlilarning qaysi turi ishtirok etmagan? ***/// **quyi keng unli**

82. Mening orzularim bir olam, ularning barini amalga oshirishga harakat qilish kerak. Berilgan
gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar vujudga kelgan?
***/// **tovush tushishi**

83. mo'tadil, mo'jiza kabi so'zlarda tutuq belgisining tushirib qoldirilishi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi? ***/// **fonetikada**
84. Musavvirning bo‘yog‘ida hayot chizgilari aniq ifodalangan edi. Ushbu gap tarkibida qanday fonetik hodisalar yuz bergan? ***/// **tovush almashishi**
85. n harfi so'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelganda ba’zan m tarzida talaffuz qilinadi? ***/// **f, m**
86. Nosiruddin Rabg‘uziyning "Qissasi Rabg‘uziy" asariga ko‘ra, "Ilohi, man o'zimni dono bilib yurur erdim, Maning bilganim bu mo‘rchaning oldida hech nimarsa ekan", - deb tavba qilgan zot nomini aniqlang. ***/// **Sulaymon**
87. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zni toping. ***/// **maxliyo**
88. Noto’g’ri yozilgan so’z qaysi gapda ishtirok etgan? ***/// **Tursin tomda tursun.**
89. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini ko'rsating. ***/// **hukumron, alyuminiy, vakum**
90. Nuqtalar o'rnida u unlisi yoziladigan so‘zlarni aniqlang. 1) junj...kish; 2) juld...r; 3) zug'...m; 4) ibratom...z; ***/// **2, 4**
91. Nutq tovushlari haqidagi noto‘g‘ri izoh qaysi javobda berilgan? ***/// **Unli tovushlarni talaffuz qilganda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida qisman to‘siqqa uchrab o‘tadi.**
92. Nutqning ohangini nimalar tashkil etadi**?** ***/// **urg’u, to’xtam (pauza), nutqning emotsional bo’yog’i**
93. O‘z tilini unutgan xalqning  Mozorida ajdodlar qabri

Uzra qo‘yar bolalar tikan. Ushbu gapdagi qator undoshli so'zlar sonini aniqlang. ***/// **1**

94. O‘zakka qo'shimcha qo‘shilganda, o'zakning tarkibida vujudga keladigan tovush o‘zgarishlarining asosiy turlarini belgilang. ***/// **tovush almashishishi va tovush tushishi**
95. O‘zbek tilidagi sof o‘zbekcha so‘zlar oxirida quyida berilgan qo‘sh undoshlardan qaysi birining kelishi kuzatiladi? 1) rg; 2) st; 3) lt; 4) xt; 5) rt; 6) sht ***/// **2, 3, 5**
96. O’zbek tilida undoshlarning ketma-ket kelishi va talaffuzi haqida berilgan noto’g’ri hukimni toping. ***/// **so’z boshida ketma-ket kelgan undoshlarning biri tushirilib talaffuz qilinadi**
97. Ochiq bo‘g‘in qo‘llangan so‘z qaysi javobda berilgan**?** ***/// **barzangi**
98. Odamlarni zudlik bilan o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi. Berilgan gap tarkibidagi necha so'zda tovush tushishi hodisasi ro'y bergan va ular qaysi tovushlar? ***/// **3 so'zda; i va u**
99. Og‘zaki nutq qanday birliklardan tashkil topadi? ***/// **segment va ustsegment birliklardan**
100. Oktava – insonning hayotda o‘z o‘rnini topishga bo'lgan intilishi. Bu intilish kuchqudratingizni, buyukligingizni, yoshligingiz va salomatligingizni qanday timsolda ko‘rsangiz o‘shanday bo'lishga

intilishdir. Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv bo'yicha yozilgan? ***/// **5**

101. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini indirar. Ushbu maqoldagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang. ***/// **2 ta**
102. Ona - u, bag'rida millat beshigi,
Qalbida yopilmas qadr eshigi,
Allasi oromdir – hayot qo'shig'i,
Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir. (Mahmud Toir) Ushbu she'riy parchada qanday fonetik o'zgarishlar uchraydi? ***/// **tovush almashishi, tovush tushishi**
103. Ona tili – bu millatning ruhidir. Undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra miqdori to'g'ri berilgan qatorni belgilang. ***/// **10 ta til oldi, 2 ta lab-lab, 1 ta til orqa, 1ta bo'g'iz**
104. O'rik guli, uy tomi birliklaridagi fonetik hodisa qaysi qatorda ko'rsatilgan? ***/// **bu birikmalarda fonetik hodisa mavjud emas**
105. q va g' qaysi jihatdan farqlanmaydi? ***/// **tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra**
106. Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtitmoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu gapda jarangli undosh bilan tugagan nechta yopiq bo'g'in bor? ***/// **9 ta**
107. Qarigan cho'da halovat istasang, yoshlikda ilm olish payida bo'l. Berilgan gapda munosabat shakllari tarkibidagi undoshlar haqida bildirilgan qaysi hukmlar to'g'ri? 1) barchasi portlovchi; 2) barchasi hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhda; 3) barchasi jarangli; 4) barchasi tarkibiga ko'ra sof ***/// **2, 4**
108. Qator undoshlar ifodalangan so'z berilgan javobni belgilang. ***/// **estrada**
109. Qator undoshli so'zlar berilgan javobni belgilang. ***/// **traktor, paxta, chaqqon**
110. Qaysi gapda faqat yuqori tor unlilar ishtirok etgan sodda ot kesim mavjud**?** ***/// **Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik Sening ziyoratingga keldim, sultonim.**
111. Qaysi gapda noto'g'ri yozilgan so'z qo'llangan**?** ***/// **Zulxumor bozordan kech qolib kelayapti.**
112. Qaysi gapda qo'shimchalar ta'sirida bir so'zning tovush tarkibida ikki xil fonetik o'zgarish yuz bergan? 1. Inson o'z umrining hisobli bo'lishini hamisha kech anglaydi. 2. Jo'jalarning sanog'ini bilmadim. 3. Davr qiynoqlari vaqtincha – hali hammasi oldinda. 4. Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi. ***/// **3,4**
113. Qaysi gapda unlilarning o'rni almashinishi bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan? ***/// **Qisqa muddat ichida sanaoti rivojlangan mamlakatga aylandi.**

114. Qaysi gapdagi so‘zda tovush almashinish hodisasi yuz bergan? ***/// **Son-sanoqni bildiruvchi so'zlar sanoq sonlar deyiladi.**

115. Qaysi gapdagi undalmada til oldi, portlovchi, jarangli tovush mavjud? ***/// **Shahzoda, men sulh barpo kayfiyatida keldim.**

116. Qaysi gaplardagi xatolik imlo bilan bog’liq? 1. Onasi sirti butun, ichi tutun ayollardan edi. 2. Dugonajon, bugun menikiga tashrif buyurarsan? 3. Boqqa chiqsam, maylimi? Gullar tersam, maylimi? 4. Bu tarixiy voqea 1991 yil sodir bo’ldi. ***/// **3, 4**

117. Qaysi hosil bo’lish o’rniga ko’ra bir guruhga mansub, ammo hosil usuliga har xil guruhga kiruvchi undoshlar flektiv so’zda qator undoshni tashkil etgan? ***/// **Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma.**

118. Qaysi jarangli undoshlar sirg‘aluvchilarga mansub emas? ***/// **b, n**

119. Qaysi javobda jarangli jufti bor bo'lgan til oldi sirg‘aluvchi undoshi berilgan? ***/// **s** 120. Qaysi javobda jarangli jufti yo'q jarangsiz sirg'aluvchi undosh qatnashgan so'zlar berilgan? ***/// **no'xat, taxminan, hilol**

121. Qaysi javobda jarangsiz jufti bo‘lmagan til orqa jarangli undoshi berilgan? ***/// **ng** 122. Qaysi javobda jarangsiz jufti bor bo'lgan til orqa undoshi berilgan? ***/// **g**

123. Qaysi maqolda asos va qo’shimchaga ajratish bo’ginlarga ajratish bilan teng kelmaydigan yasama so’z ishtirok etgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

124. Qaysi maqolda beshta tovushni o’zida birlashrirgan guruhga kiruvchi undoshlar mavjud emas? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

125. Qaysi maqolda faqat hosil bo’lish o’rniga ko’ra bir guruhga kiruvchi tovushlar ishtirok etgan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

126. Qaysi maqolda hosil bo’lish o’rniga va usuliga ko’ra bir guruhga kiruvchi undoshlar so’z yasovchi morfema tarkibida kelgan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

127. Qaysi maqolda ikki xil nomlanuvchi fonetik hodisa mavjud? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

128. Qaysi maqolda qator undoshli ikkita so’z ishtirok etgan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

129. Qaysi maqoldagi barcha so'zlarning asosi bir bo'g'inli so'zlardan iborat? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

130. Qaysi qatorda berilgan so‘zlar tarkibidagi jarangli undoshni jarangsiz juftiga almashtirsa, yangi ma’no anglatadi**?** ***/// **eg, beg, tug, yog‘**

131. Qaysi qatorda faqat bir bo'g'ini bir tovushdan iborat bo'lgan ko'p bo'g'inli so'zlar berilgan? ***/// **muomala, ijodiy, mudofaa**

132. Qaysi qatorda faqat keng unlilar ishtirok etgan yasama otlar berilgan? ***/// **olmazor, tanlov**

133. Qaysi qatorda ng tovushi ishtirok etgan so‘zlar berilgan? ***/// **chang, qaytingiz, tonggi** 134. Qaysi qatorda quyi keng unlilardan so‘ng talaffuzda

tovush orttirilishi kuzatiladigan so‘zlar ko’rsatilgan? 1) radio; 2) said; 3) okean; 4) saodat; 5) doimo; 6) taajjub; 7) shoira ***/// **2, 5, 7**

135. Qaysi qatorda til oldi undoshi berilgan? ***/// **ch**
136. Qaysi qatorda uchta lab-lab undoshi ishtirok etgan? ***/// **ochko'z, sho'rtumshuq, balandparvoz**
137. Qaysi qatorda yonma – yon kelgan undoshlar orasida bir unli orttirilsa, yangi so’z hosil bo’ladi? 1) aql; 2) asl; 3) ahil; 4) qalu; 5) asr; 6) qurt; ***/// **2,3,5,6**
138. Qaysi qatordagi barcha so’zlarda “ng” tovushi qo’llangan? ***/// **tongga, mingga, zangga**
139. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rnida f harfi qo'yiladi?' ***/// **sha...qat, a...g‘on, ta...tish**
140. Qaysi qatordagi gapda imlo xatoga yo’l qo’yilgan? ***/// **Bog’ingni zog’dan saqlamoqchi bo’lsang unga e’tiborda bo’l.**
141. Qaysi qatordagi gapda imloviy jihatdan xato qo’llangan so‘z berilgan? ***/// **Erkinboy ishni birinchi bo'lib nihoyasiga yetqazdi.**
142. Qaysi qatordagi gapda imloviy xatolik mavjud? ***/// **Chanoqdagi paxta quyoshda yarqirab, kumushdek toblandi.**
143. Qaysi qatordagi so‘zlar xato yozilgan? ***/// **foto-apparat, yildan-yilga, tele tanlov**
144. Qaysi qatordagi so‘zlarda "ch" tovushining jarangli jufti bor? ***/// **jajji, jarroh**
145. Qaysi qatordagi so‘zlarda “ng” bir tovushni ifodalamagan? ***/// **kongress, menga, singil**
146. Qaysi qatordagi so‘zlarda “ng” bir tovushni ifodalamoqda? ***/// **jarang, ingichka, attang**
147. Qaysi qatordagi so‘zlarda i tovushi bilinar-bilinmas talaffuz etiladi? ***/// **bilan, tilim, sira**
148. Qaysi qatordagi so‘zlarda til oldi, jarangli undoshni lab tovushi bilan almashtirganda lug‘aviy ma’no o‘zgaradi? ***/// **qaynoq, doni, koni**
149. Qaysi qatordagi so‘zlarda til oldi, jarangli undoshni lab tovushi bilan almashtirganda lug‘aviy ma’no o‘zgaradi? ***/// **qaynoq, doni, koni**
150. Qaysi qatordagi so‘zlarda tovush tushishi sodir bo‘lgan? ***/// **pasay, yarmi, burni**
151. Qaysi qatordagi so‘zlarning ma’nosi urg‘u yordamida farqlanadi? ***/// **etik, akademik, bog‘lar**
152. Qaysi qatordagi so’z imlo qoidalariga ko’ra to’g’ri yozilgan? ***/// **tomosha**
153. Qaysi qatordagi so’zda sirg’aluvchi jarangli undosh sirg’aluvchi jarangsiz undosh sifatida talaffuz qilinadi? ***/// **Cho’ntagimga yuz so’m solib ko’chaga chiqdim**
154. Qaysi qatordagi so’zlarda faqat tor unlilar qatnashgan**?** ***/// **muqim, uyushiq**

155. Qaysi qatordagi so’zlarning undoshlari jarangli lab tovushlaridan iborat? ***/// **beibo, beva, vabo**
156. Qaysi qatordagi so'z talaffuzida ikki o‘xshash tovush bir so‘zda kelganda, ulardan birining noo‘xshash tovushga almashinishi uchraydi? ***/// **birorta**
157. Qaysi qatordagi so'z to'g'ri yozilgan? ***/// **ma’yus**
158. Qaysi qatordagi so'z xato yozilgan? ***/// po'sh-po'shtlamoq
159. Qaysi qatordagi so'zda qo'sh undosh xato qo'llangan? ***/// **Libbretto**
160. Qaysi qatordagi so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan bo‘lib, ularning jarangsiz tovushini jarangli jufti bilan almashtirilganda lug‘aviy ma’no o‘zgaradi? ***/// **bosh, tong, tup**
161. Qaysi qatordagi so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan? ***/// **avtomat, iztirob**
162. Qaysi qatordagi so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan? ***/// **parfumeriya, simpozium**
163. Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan? ***/// **hoyhoylamoq, xushmuomala**
164. Qaysi qatordagi so'zlar unli va jarangli lab undosh tovushlaridan iborat? ***/// **bobo, bibi, bomba**
165. Qaysi qatordagi so'zlarda bir sirg‘aluvchi til tovushi o‘rnida ikkinchisi aytilsa-da, asliga muvofiq yoziladi? ***/// **bo‘..chi, i..tirob**
166. Qaysi qatordagi so'zlarda ikki undosh tovush o'rtasida unli tovush orttirilib talaffuz qilinadi? ***/// **ilm, fahm**
167. Qaysi qatordagi so'zlarda nuqtalar o'rniga jarangli, til orqa, portlovchi undosh yoziladi? ***/// **ta..charm, bar..simon**
168. Qaysi qatordagi so'zlarda pastki lab bilan yuqori tishlar orasida hosil bo'ladigan tovush ishtirok etgan? ***/// **avtomashina, faqat**
169. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi? ***/// **obraz, kofe, traktor** 170. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi? ***/// **kinoda, radioga**
171. Qaysi so‘z talaffuz qilinganda, keyingi tovush oldingi tovushni o‘ziga moslashtiradi? ***/// **yozsin**
172. Qaysi so‘z talaffuzida jarangsiz tovush o‘zidan keyingi jarangli tovushni o‘ziga moslashtiradi? ***/// **ketdi**
173. Qaysi so‘zda ikki marta tovush o‘zgarishi yuz beradi? ***/// **o‘ynoqi**
174. Qaysi so‘zda tutuq belgisi noo‘rin qo‘llangan? ***/// **ta’qiqlamoq**
175. Qaysi so‘zda urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushadi? ***/// **leksiya**
176. Qaysi so‘zda yonma-yon kelgan jarangli undoshlarning oldingisi boshqa jarangli tovush sifatida talaffuz etiladi? ***/// **tanbal**
177. Qaysi so‘zlarda qo‘sh unli xato qo‘llanilgan? ***/// **taaqib, tajoovuz**
178. Qaysi so‘zlarning jarangli tovushini jarangsiz jufti bilan almashtirganda lug‘aviy ma’no o‘zgaradi? 1) abzal; 2) bosh; 3) tog’; 4) mard; 5) sut; 6) sot; 7) dod; 8) tub. ***/// **3, 4, 7, 8**

179. Qaysi so’zda nuqtalar o’rniga jarangli, sirg’aluvchi lab-tish tovushi yozilsa ham, jarangsiz jufti talaffuz qilinadi? ***/// **a..tomat**
180. Qaysi so’zlarda qator kelgan undoshlar til oldi jarangli undoshlardan iborat? ***/// **farzand, darz, ranj**
181. Qaysi so’zlarning aytilishida tovushlarning o’rni almashishi mumkin? ***/// **ahvol, la’nat**
182. Qaysi so'z tarkibida bitta tovush tushishi, bitta tovush almashishi hodisasi yuz bergan**?** ***/// **yig'loqi**
183. Qaysi so'z tarkibida faqat tilning quyi ko'tarilishiga ko'ra farqlanuvchi unlilar ishtirok etgan? ***/// **toshbaqa**
184. Qaysi so'z tarkibida portlovchi undosh mavjud? ***/// **tabib**
185. Qaysi so'zda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan? ***/// **tilshunos**
186. Qaysi so'zda portlovchi undoshlar yonma-yon kelgan? ***/// **iqtisod**
187. Qaysi so'zda til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi? ***/// **o'n bir**
188. Qaysi so'zda tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib aytilishi uchun xizmat qilgan? ***/// **in’om**
189. Qaysi so'zda urg'u ma’no farqlash vazifasini bajargan? 1) yangi; 2) toza; 3) asil; 4) hisobchi; 5) moslama; 6) gullar. ***/// **1,2,5,6**
190. Qaysi so'zdagi til oldi undoshi og'zaki nutqda boshqa til oldi undoshi sifatida talaffuz qilinadi? ***/// **uchta**
191. Qaysi so'zlar tarkibidagi qo‘sh udoshlardan biri tushirib qoldirilsa, so‘z ma’nosi o'zgaradi?
1) tilli; 2) qattiq; 3) ellar; 4) qissa; 5) sodda; 6) ushshoq; 7) karra ***/// **1, 2, 3, 5, 6**
192. Qaysi so'zlarda bo'g'iz undoshi qo'llanmaydi? ..omsemiz; 2) ..alqparvar; 3) ..ar kim; 4) kam..osil; 5) ..ushbichim ***/// **1, 2, 5**
193. Qaysi so'zlarda n va g alohida tovush hisoblanadi? 1) onangga; 2) shudring; 3) menga; 4) tutunga; 5) ko'ngil ***/// **3, 4**
194. Qaysi so'zlarda urg‘u ma’no farqlash uchun xizmat qiladi? ***/// **qatlama, atlas**
195. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi? 1) allanima; 2) munis; 3) ba’zan; 4) bari; 5) otamday; 6) ahil ***/// **2, 5, 6**
196. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi? 1) muhim; 2) obraz; 3) mudir; 4) muqim; 5) rektor; ***/// **1, 3, 4**
197. Qaysi so'zlardagi jarangli undoshni jarangsiz juftiga almashtirganda yangi so'zlar hosil bo'ladi? ***/// **bayt, band, dori, dog'**
198. Qaysi so'zlarning ikkinchi bo'g'inida u yoziladi? 1) kul..shmoq; 2) yug..rmoq; 3) bur..lmoq; 4) ulg..rmoq**.** ***/// **2, 4 `**
199. Qaysi tovush talaffuzida havoning bir qismi burun bo‘shlig‘idan chiqadi? ***/// **m, n, ng**

200. Qaysi unli(lar)ni talaffuz qilganda og‘iz ozgina ochilib, tilning o’rtaisi yuqori tanglayga qarab ko‘tariladi? ***/// **i, u**
201. Qizining chug'urlab biyron-biyron gapirayotganini ko'rgan Sabohat opa unga mamnun jilmayib qo'ydi. Gapdagi sodda yasama fe’llar tarkibidagi yasovchi qo'shimchalarning undoshlari qaysi jihatdan bir guruhga mansub emas? ***/// **har jihatdan bir guruhga mansub**
202. Qo‘sh undosh xato qo‘llangan so‘zlar qatorini aniqlang. ***/// **dramma, ushshatmoq**
203. Qo’sh undoshlardan biri tushirilganda so’zning lug’aviy ma’nosi o’zgaradigan qatorni toping. ***/// **ellar, sodda, nonning**
204. Qornimga emas, qadrimga yig‘layman. 2. Odamning ko‘ngli nozik. 3. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, to‘rtovlon tugal bo'lsa, ko‘kdagini undirar. Berilgan gaplardagi qaysi so'zlarda tovush o’zgarishi hodisasi ro‘y bergan? ***/// **qornimga, yig'layman, ko'ngli, oltovlon, og'zidagin**
205. Qo'sh undosh noto'g'ri qo'llangan so'zni toping. ***/// **hiqqichoq**
206. Qo'sh undosh xato qo'llangan qatorni aniqlang. ***/// **yakkandoz**
207. Quyida berilgan gapdagi fonetik o‘zgarishlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? Bolaning ko‘ngli o‘ksimasin deb yumshoq o‘rindiqqa o‘tqazdi. 1) tovush tushishi; 2) tovush almashishi; 3) tovush ortishi ***/// **1,2**
208. Quyida berilgan so‘zlardan qaysi biri to‘g’ri yozilgan? ***/// **baynalminal**
209. Quyida berilgan so‘zlarning qaysi biri imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan? 1) taqsim; 2) taxsim; 3) taxlit; 4) taqlid; 5) ta’qirlamoq; 6) taqozo etmoq; ***/// **2,5,6**
210. Quyida berilgan so‘zlarning qaysilarida uig’u birinchi bo‘g‘inga tushadi? 1) bordi; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) vodorod ***/// **2, 4, 5**
211. Quyidagi berilgan gapdagi so’zlar imlosida nechta fonetik o’zgarish bor? Ayrim paytda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolaligimning o’ynoqi damlarini eslayman; meni o’tloqlarda dumalatgan, chang ko’chalarda o’ynatgan damlarni aslo unutmayman. ***/// **7 ta**
212. Quyidagi gapda asosi bir bo‘g‘indan iborat so‘zlar sonini toping. Eldan ketib el bo‘lganni kim biladi? ***/// **6**
213. Quyidagi gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta? Ayrim paytlarda ko'nglim onamni qo‘msaydi-da, qanotim qayrilganini sezib, nafasim bo'g'zimga tiqiladi**.** ***/// **4 ta**
214. Quyidagi gapda necha so‘z fonetik qoida asosida yozilgan? Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig‘lab uyga keldi. ***/// **3 ta**
215. Quyidagi qaysi gap tarkibida ikkita fonetik hodisa yuz bergan? ***/// **Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi.**
216. Quyidagi qaysi maqolda ochiq bo‘g‘in eng ko‘p ishtirok etgan? ***/// **Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozur.**
217. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga “o” yoziladi? 1) m..bodo; 2) s..mon; 3) t..mosha; 4) j..hongir; 5) h..mon; 6) s..vob ***/// **2,3**

218. Quyidagi qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi? 1) olma (meva), bo'lma (joy oti); 2) to'qima, ulama (harakat); 3) yigitcha, paxtaday (ravish); 4) yangi, hozir (ravish) ***/// **1, 2, 3**

219. Quyidagi so‘zlarning qaysi biri imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan? ***/// **ma’suliyat**

220. Quyidagi so‘zlarning qaysilari urg‘u tushishi o‘rniga ko‘ra ma’nosi farqlanadi? 1) suzma;
2) bog'lar; 3) juda; 4) hozir; 5) etik; 6) fonetik; 7) yangi ***/// **1, 2, 4, 5, 7**

221. Quyidagi so'zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlining cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi? 1) mo'..jiza; 2) san..at; 3) mo‘..tadil; 4) ma..no; 5) e..tiroz. ***/// **4, 5**

222. Quyidagi so'zlarning qaysi birida 2 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari mavjud? ***/// **dengiz**

223. Quyidagi so'zlarning qaysi birida birinchi bo'g'in ochiq bo'g'in hisoblanadi? 1)dengiz; 2) shtanga; 3) singlim; 4) ko'ngil ***/// **1, 4**

224. Quyidagi so'zlarning qaysi birida jarangli undosh talaffuzda jarangsizlashadi? ***/// **yarim avtomat**

225. Quyidagi so'zlarning qaysi birida nuqtalar o'rnida bo'g'iz tovushi ishlatiladi? 1) musho..ada; 2) qabi..lik; 3) xo..ish; 4) mu..lis; 5) al.azar; 6) gul.ayri; 7) ala..simoq; 8) ala..siramoq; 9) ta..lika; 10) ya..ob. ***/// **1,2,3,5,8,9**

226. Quyidagi so'zlarning qaysi birida ochiq bo’g’in mavjud emas? ***/// **bug'doy rang** 227. s tovushi qaysi unlilardan oldin kelganda yumshoq talaffuz etiladi? ***/// **e, i**

228. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko’p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo’lgan ne’mat - Tinchlik bayrog’i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog’iga talpinyapmiz. Ushbu gapda nechta so’z fonetik o’zgarishga uchragan? ***/// **5 ta**

229. Sh tovushi qanday hollarda yumshoq talaffuz etiladi? ***/// **til oldi undoshlari bilan kelganda va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda**

230. Sharifa xolaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qib,

ulg‘ayib yana bag‘riga
qaytdi. Ushbu gapdagi
fonetik o'zgarish necha
yasama so'z doirasida
kuzatiladi? ***/// **1 so‘zda**

231. Shovulladi tun bo’yi shamol
Qaldiroqlar ko’chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
“Yana kelding, do’stginam, bahor”. (A.Oripov) Ushbu parchada til undoshlari bilan boshlanuvchi ochiq bo’g’inlar sonini aniqlang. ***/// **15**

232. Shovulladi tun bo’yi shamol,
Qaldiroqlar ko’chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
“Yana kelding, do’stginam, bahor”.(A. Oripov) Ushbu parchada til undoshlari bilan boshlanuvchi bo’g’inlar sonini aniqlang. ***/// **30**

233. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada nechta til oldi undoshi qatnashgan? ***/// **7**

234. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchadagi lab undoshi bilan tugagan bo’g’inlar sonini aniqlang? ***/// **2**

235. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchadagi jarangli tovush bilan tugagan bo’g’inlar sonini aniqlang? ***/// **14**

236. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchadagi ochiq va yopiq bo'g'inlar soni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **18 ta ochiq, 18 ta yopiq bo‘g‘in**

237. Shovulladi tun bo'yi
shamol, Qaldiroqlar
ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor". (A.Oripov) Ushbu parchada lab undoshlari bilan boshlanuvchi bo'g'inlar sonini aniqlang? ***/// **5**

238. Shovulladi tun bo'yi
shamol, Qaldiroqlar
ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada hosil bo'lish o'rniga ko'ra ikki guruhga kiruvchi nechta undosh qatnashgan? ***/// **6**

239. Shovulladi tun bo'yi
shamol, Qaldiroqlar
ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov). Ushbu parchaning nechanchi misrasida faqat til undoshlari qatnashgan? ***/// **2**

240. Shovulladi tun bo'yi
shamol, Qaldiroqlar
ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada burun tovushi bilan tugagan yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang**?** ***/// **4**

241. Shovulladi tun bo'yi
shamol, Qaldiroqlar
ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol: "Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada til oldi undoshlari necha marta qatnashgan? ***/// **35** 242. Ichida may bo'lsa qadrli shisha.

Mayi tugagach, otishar hamisha.

Achinmayman ichidagi may zavoliga,

Hech kim tushmasin shisha holiga. Ushbu gapda nechta harfiy birikma mavjud? ***//// **10 ta** 243. Shundan so'ng ikkovi shunchalik qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aytib tamom qildi. Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan? ***/// **4ta**

244. Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizligiga olib keladi. Ushbu gapda necha marta tovush almashish fonetik hodisasi yuz bergan**?** ***/// **2**

245. Sog'lom va zehnli bo'lib ulg'aygan bola hayotda qiynalmaydi. Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar sonini aniqlang. ***/// **2ta**

246. Sovuqdan mening qulog‘im, burnim qizarib ketdi. Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so‘zlar miqdorini aniqlang? ***/// **4ta**
247. Sovuqni sovuq saqlar, Issiqni issiq. (Termos) Ushbu topishmoqda qanday fonetik o'zgarish yuz bergan? ***/// **tovush ortishi, tovush almashishi**
248. Sovuqni sovuq saqlar, Issiqni issiq. (Termos) Ushbu topishmoqda nechta so'z fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan? ***/// **4**
249. So'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelgan n harfi m holida o'qiladi, lekin n yoziladi? ***/// **b va m**
250. So'z urg'usi olma, gullar so'zlarining birinchi bo'g'iniga tushsa qanday ma’no anglashiladi?

***/// olma - bo'lishsizlik (fe’l); gullar - gullashi mumkin (fe’l)

251. Talaffuz va imloda farqlanadigan so'zlar ko'rsatilgan qatorni toping. 1) tonna; 2) avtomat;

3) bahor; 4) okean; 5) kollej; 6) ishlov; 7) tovuq; 8) yasha; 9) bilan ***///
**1, 2, 3, 4, 5, 7, 9** 252. Tarixing bitmakka, xalqini, Mingta Firdavsiy kerak.

Chunki bir bor chekkan ohing,

Mingta doston, o'zbegim. Ushbu misralarda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar nechta**?** ***/// **3 ta**

253. Tarkibida faqat til orqa undoshlari qatnashgan so'zlarni belgilang. ***/// **egik, go'ng, kakao**
254. Tarkibida unli tovushlar bilan birga faqat jarangsiz undoshlar ishtirok etgan so'zlar qatorini aniqlang. ***/// **puchuq, hiqichoq, xohish**
255. Til oldi undoshi va yuqori tor unlilardan tashkil topgan so‘zlar qatorini toping. ***/// **tutun, tuzsiz, tinch, shirin**
256. Til va lab undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlarni belgilang. 1) blok; 2) drama; 3) sabr; 4) fransuz; 5) boks;6) aft; 7) psixolog; 8) barcha; 9) baxsh; 10) dafn. ***/// **1, 3, 4, 6, 7, 10**
257. Tilning eng orqa qismida hosil bo‘ladigan undoshlarni belgilang. ***/// **q, g‘, x**
258. Tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini qaysi olim farqlagan? ***/// **F. de Sossyur**
259. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatoriai toping. ***/// **tatqiqot, tadbiq, afv**
260. Tovush ikkilanishi yuz bergan gapni toping. ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
261. Tovush tushish hodisasi yuz bergan gapni toping. ***/// **Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.**
262. Tushib, bilan, tilim, sira, qiziq. so'zlarida i tovushiga xos takrorlanadigan umumiy belgini aniqlang. ***/// **torlik va qisqalik**
263. Tutuq belgisi (’) noto‘g‘ri ishlatilgaт so'zlar qatorini toping. ***/// **af’yun, voqe’, had’ya**
264. Tutuq belgisi barcha so’zlardagi unlini cho’ziqroq aytilishiga xizmat qilgan qatorni aniqlang. ***/// **da’vo, ta’na, ne’mat**

265. tutuq belgisi orqali undoshning unlidan ajratib aytilishi qaysi so'zlarda uchraydi**?** ***/// **qit’a, in’om**
266. Undosh tovushlarning hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan nutq a’zolarini aniqlang**.** ***/// **bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i, til**
267. Undoshlar qaysi xususiyatiga ko‘ra til, lab va bo‘g‘iz undoshiga bo‘linadi? ***/// **hosil bo'lish o'miga ko'ra**
268. Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig‘lab uyga keldi. Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar mavjud? ***/// **tovush almashuvi, tovush tushishi va tovush orttirilishi**
269. Unim yo‘q, bunim yo‘q, Uyimda unim yo‘q.

Ishimda unum yo‘q,

Aytishga unim yo‘q. Ushbu misralarda nechta so‘zda tovush o‘zgarish hodisasi ro‘y bergan? ***/// **3 ta**

270. Unlilarni talaffuz qilganda asosiy vazifani qaysi nutq a’zolari bajaradi? ***/// **og'iz bo'shlig'i, bo'g'iz, un paychalari**
271. Urg‘u ma’no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni belgilang. 1) hozir; 2) qurilma; 3) yo'llar; 4) ko'chirma; 5) yangi ***/// **1, 3, 4, 5**
272. Urg‘u so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushgan qatorni belgilang. ***/// **avtobus, fonetika, teatr**
273. Urg’u yordamida ma’nosi farqlanadigan so’zlar qatorini toping. ***/// **toshma, toza, etik**
274. Urg’uning o’rni o’zgartirilganda so’z ma’nosiga ta’sir qiladigan o’rinlarni aniqlang. 1) ko’zla; 2) bog’lar; 3) harakat; 4) yigitcha; 5) qo’llar; 6) ko’mir; 7) ishlar; ***/// **2,4,5, 7**
275. Urg’uning o’rni o’zgartirilganda so’z ma’nosiga ta’sir qiladigan so’zlarni aniqlang. 1) so’zlar; 2) tonna; 3) surma; 4) atlas; 5) doim; 6) mexanik; 7) fizik; 8) olma ***/// **1,3,4,6,7,8**
276. Urg'u yordamida ma’no farqlash mumkin bo'lgan so'zlarni ajrating. 1) surma; 2) mexanik; 3) yo'llar; 4) yangi; 5) bog'cha ***/// **1, 2, 3, 4, 5**
277. Ushbu so’zlardan qaysi biri bo’g’iz undoshi bilan boshlanishi kerak? 1. xo’plam 2. xattot

3. xalovat 4. xandalak 5. xaloyiq 6. xurpaymoq ***/// **1,3,4,6**

278. x undoshiga to’g’ri tavsif berilgan qatorni toping. ***/// **chuqur til orqa, sirg’aluvchi, jarangsiz undosh tovush**
279. x va h harflarining imlosi qaysi qatorda noto‘g‘ri berilgan? ***/// **halqob, maxsi, hushnud**
280. Yangi imlo qoidasiga ko'ra qaysi qatordagi so`zlar tutuq belgisiz yoziladi? ***///

**mo‘jiza, mo‘tabar**

281. Yangi imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri xato yozilgan? ***/// **orzuyim**
282. Yo‘llar (fe’l), yo‘llar (ko‘plikdagi ot) kabi shakldosh (omonim) so‘zlarning ma’nolarini qaysi vositalar orqali farqlash mumkin? 1) gapdagi boshqa

so‘zlar bilan bog‘lash orqali; 2) so‘z urg‘usi orqali; 3) grammatik qo‘shimchalarni qo‘shish orqali; ***/// **1,2,3**

283. yod - yot, sut - sud paronim so'zlardagi d va t undoshlarning farqlovchi belgisini toping. ***/// **jarangli yoki jarangsiz tovush**
284. Yonma-yon kelgan tovushlarning o’rin almashishi tilshunoslikda qanday ataladi? ***/// **assimilatsiya**
285. Yuqori tor unlilarning o'zaro almashishi yangi ma’no anglatmaydigan so‘z qaysi gapda kuzatiladi? ***/// **Shafaq qon rangida lovullar, go’yo u yuragim parchasi.**
286. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov) Ushbu gapda tovush o’zgarishiga uchragan so’zlar qaysi turkumga tegishli? ***/// **fe’l, olmosh**
287. Zamon, jangovor, daromat, mahsulot, dasyor, savsata, komol. Nechta so’z xato yozilgan? ***/// **5**
288. Quyida berilgan so’zlardan qaysilarida talaffuzda tovush orttirilishi to’liq kuzatiladi? ***/// **shariat, toifa, Noila**
289. "Do‘ppisini osmonga otmoq" iborasiga sinonim bo‘lgan so‘zni toping. ***/// **xursand**
290. "Hayratlanmoq" so‘ziga ma’nodosh bo'lgan iborani aniqlang. ***/// **yoqasini ushlamoq**
291. "Ilonning yog'ini yalagan" iborasiga zid bo'lgan so'zni toping. ***/// **sodda**
292. "Rossiya"ga qanday borsam bo’ladi? Ushbu gapda ma’no ko’chishining qaysi turi sodir bo’lgan? ***/// **metonimiya**
293. "Yer tagida ilon qimirlasa biladi" iborasiga zid bo'lgan so‘zni toping. ***/// **beparvo**
294. Cho‘loqqa achinish bilan qaramoq birikmasidagi ma’no ko'chish usulini aniqlang. ***/// **sinekdoxa**
295. “E, sizlar hukumat emasmi?” – deb yana shovqin soldi. Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang. ***/// **metonimiya**
296. “Ilonning yog‘ini yalagan” iborasiga ma’nodosh bo‘lgan so‘zni toping. ***/// **mug‘ombir**
297. “Qalandar” muvaffaqiyat qozondi, hatto alohida yozuvchilar, tanqidchilar orasida bahsmunozaralarga sabab bo‘ldi. Gapda ostiga chizilgan so’zda ma’no ko‘chishining qaysi turi mavjud? ***/// **metonimiya**
298. “Shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi, zarurat tug‘ilganda sug‘urtachiga qarshi da’vo qo‘zg‘atib zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat”. Ushbu izoh qaysi so‘zga tegishli? ***/// **polis**
299. “Tulki qiziga to‘y berdi” iborasi haqidagi to’g‘ri fikrni aniqlang. ***/// **Laylak qor yog‘ib, yerda esa qordan nishon bo’lmaganida ishlatiladi**
300. **1)** chiroqni o'chirmoq; 2) yong'inni o'chirmoq; 3) ovozni o'chirmoq; 4) yozuvni o'chirmoq

Ushbu birikmalardagi o'chirmoq so'zi haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **1-, 2-, 3birikmalardagi so'z 4-birikmadagiga nisbatan shakldosh**

301. **1)** nash'a - nasha; 2) sava - sa'va; 3) ta'na - tana; 4) qal'a – qala. Berilgan paronimlarning qaysilari bir so'z turkumi doirasida kuzatiladi? ***/// **1,3**
302. shakldoshlik; 2) ma'nodoshlik; 3) zid ma'nolilik; 4) paronimlik. Berilganlardan qaysi birini turli so'z turkumlariga oid so'zlarning o'zaro ma'no munosabatida kuzatish mumkin? ***/// **1, 4**
303. **1.** Birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan. 2. Bu gap chuqur ma'noga ega. Berilgan gaplardagi chuqur so'zlari o'zaro ma'no va shakl munosabatiga ko'ra qanday so'z? ***/// **shakldosh so'z**
304. 1. Kishilar o'rtasidagi iliq inunosabat kamayib ketmoqda. 2. Mustaqillik tufayli millatning g'ururi, obro'-e'tibori o'sdi. 3. Zamira bugun darsga kech qolib keldi. 4. Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo'l ochadi. Ushbu gaplarning qaysilarida ko'chma ma'noli so'zlar qo'llangan? ***/// **1, 2, 4**
305. Achchiq xotiralar birikmasidagi achchiq so'zida qanday ma'no ko'chishi kuzatiladi? ***/// **metafora**
306. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan. Ushbu gapdagi antonim so'zlar qaysi so'z turkum(lar)iga tegishli? ***/// **ot, fe'l**
307. Ahli suxanlar ko'p juda lekin bahsi mazmundan judo. Ushbu gapda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llanilgan? ***/// **paronim**
308. Antonim so'zlar qo'llangan gapni toping**.** ***/// **Bir no'noqni bir epchil eplaydi.**
309. Aylamang bekaslig'imni ta'na, bir kun bor edi,

Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar. Ushbu gapda keltirilgan "chobuksuvor" so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan? ***/// **chavandoz**

310. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday ataladi? **paremiologiya** 311. Barqaror birikmalarning xarakterli belgilari qayd etilgan javobni belgilang. 1) nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik; 2) ba'zan nutq jarayonida hosil bo'lishlik; 3) nutqqa tayyor holda olib kirishlik; 4) ma'no butunligi; 5) tuzilishi va tarkibining barqarorligi. ***/// **1, 3, 4, 5**
312. Beparvo, beg'am so'zlariga sinonim bo'ladigan iborani belgilang. ***/// **do'ppisi yarimta**
313. Berilgan baytda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

Sajda aylar zohid ul mehrob aro,

Men qilurman sajda egma qoshima. (Mashrab) ***/// **sinekdoxa**

314. Berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud? Eshitgan quloq nima deydi? ***/// sinekdoxa
315. Berilgan gaplardagi o'tkir so'zi ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z? 1. Qo'lida o'tkir boltasi bor edi. 2. Ariqlar bo'yida o'tkir hidli yalpizlar o'sgan.

316. Berilgan qaysi gapda paronimlar bilan bog'liq xato mavjud? ***/// **Shahrimiz nufuzi ikki milliondan oshdi.**
317. Berilgan so'zlarning qaysi birida shakldoshlik uch so'z turkumi doirasida yuz beradi? 1) oshiq; 2) tik; 3) uch; 4) kez; 5) qoq; 6) o'ch ***/// **1, 2, 3, 5, 6**
318. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga ... so'zlar deyiladi. ***/// **ma'nodosh**
319. birlik (ibora) qo'llangan gapni toping. ***/// **Karima imtihondan dili siyoh bo'lib qaytdi.**
320. Biror predmet belgisining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish asosida nom ko'chishi nima deb yuritiladi? ***/// **metafora**
321. Bo'lak orqali butunni ifodalash ma'no ko'chishining qaysi turiga xos? ***/// **sinekdoxa** 322. Bobur Hindistonni egallagach, adolatli qonunlar chiqardi, juzyani bekor qildi. Juzya nima?

***/// **g'ayridinlik solig'i**

323. Bo'ri so'radi: "Hoy qizil shapkacha, qayerga ketyapsan?" "Buvimnikiga", - javob berdi u. Gapdagi ko'chim turini aniqlang. ***/// **metonimiya**
324. Dog' so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan? ***/// **Oyda ham dog' bor.**
325. Dominanta nima? ***/// **sinonimlik qatoridagi uslubiy xoslanish va so'zlovchi bahosidan xoli bo'lgan so'z**
326. Ehtiyot bo'lib gapir, bo'tam, axir oramizda quloqlar yo'q emas. Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang. ***/// **sinekdoxa**
327. Frazeologik birlik qo'llangan gapni aniqlang. ***/// **Bunday tilyog'lama odamlarni jinim suymaydi.**
328. G'o'za uyasiga birlashadigan so'zlar berilgan qatorni aniqlang. ***/// **paxta, ip, moy, kunjara**
329. gapda sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chgan? ***/// **Dunyoda tashvishlarni ko'p chekdi boshim.**
330. Har odamning gullagan fasli bo'ladi – umrning gurkiragan davri! Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi ifodalangan? ***/// **metafora**
331. Hayot shu ekan-da: yog'du va zulmat, Qish-u yoz, o'ng-u tush, tirik va o'lik. Shusiz bo'lmas ekan tugallik sira,

Hatto qush na'masi: go'zal va xunuk. (Asqad Muxtor) Berilgan she'riy parchada nechta zid ma'noli so'zlar juftligi bor? ***/// **5**

332. Ibora qatnashgan gapni toping. ***/// **Hoji xola ko'zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi.**
333. Ibora qo'llanmagan gapni aniqlang. ***/// **Sukutda hikmat ko'p, Bulutda himmat.**
334. Ibora qo'llangan gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Boshi shuncha mashmashalardan g'ovlab ketdi.**
335. Iboraga xos bo'lmagan xususiyat berilgan qatorni toping. ***/// **ibora tarkibidagi mustaqil so'zlar alohida-alohida gap bo'lagi vazifasida keladi.**

336. ifor so'zining ma’nodoshi qaysi javobda berilgan? ***/// **hid**
337. Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi. Ushbu maqolning ma’nodoshi berilgan qatorni toping. ***/// **Yolg'iz baloga indamasang, ko'payadi.**
338. Ikki kundan beri tuz totmagan edi. Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang. ***/// **metonimiya**
339. Ildizimizning tiriklik zamiriga chuqur ketishi shu davrda, yoshlikda gullashimiz, qanday gullashimiz bilan bog‘liq hodisa. Ushbu gapda qo‘llangan ma’no ko‘chish turini belgilang. ***/// **metafora**
340. Ishqingda qora boshim oqardi, Bir boqmadi ko’z qarog‘i birla. Ajratib ko‘rsatilgan so’zda qanday ma’no ko‘chishi mavjud? ***/// **sinekdoxa**
341. Javoblarning qaysi birida takrori qo'llanganda "g‘iybat" ma’nosi yuzaga chiqadigan so'z berilgan? ***/// **dedi**
342. Javoblarning qaysi birida tasviriy ifoda ma’nosi noto'g'ri berilgan? ***/// **Makkajo'xori – oltin boshoq.**
343. Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?Jiyron tog‘dan tog‘ga o‘tib, qayerga borishini bilmasdi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan**?** ***/// **jayron – ohuning bir turi, jiyron – qizg‘ish malla tusli ot**
344. Juftlashganda "faqat" ma’nosini ifodalay oladigan so'zlar qatori qaysi javobda? ***/// **bor, yo'q**
345. Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar,

Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman. Ushbu baytda so‘zlarning shakl va ma’no

munosabatiga ko‘ra qaysi turi qo'llangan? ***/// **zid ma’noli so'zlar**

346. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti. (A. Qahhor). Mazkur gapda qo‘llangan ko‘y so‘zining ma’nodoshini toping. ***/// **holat**
347. Ko‘p ma’noli so‘zlar haqida berilgan noto‘g‘ri hukmni aniqlang. ***/// **Ko‘p ma’noli so‘zlar yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni, kasbiy atamalarni o‘z ichiga oladi.**
348. Ko'chma ma’noli so'z berilgan gapni aniqlang. ***/// **Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o’rgangan.**
349. Kumush choyshab yopib dalalar qor qo’ynida uxlab yotadi. Ushbu gapdagi kumush choyshab birikmasida ma’no ko’chishining qaysi turi qo’llangan? ***/// **metafora**
350. Lekin san’atimiz hozir o‘smirlik chog‘idayoq qudratli qanot paydo qilyapti. Ushbu gapda ma’no ko'chish hodisasi turini aniqlang. ***/// **metafora**
351. Lermontovni tashlamadim hech,

So‘ngra qo‘lga oldim Hofizni.

Pushkin menga ko‘rsatdi har kech,

Yig‘lab turgan bir cherkas qizni.Ushbu parchada ma’no ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan? ***/// **metonimiya**

352. Matal qo'llangan javobni toping**,** ***/// **Qimirlagan qir oshar.**

353. mengzamoq so’zining ma’nosi qaysi javobda to’g’ri berilgan? ***/// **qiyoslamoq** 354. Mening bir jaydari falsafamdir shu:

Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A.Oripov) Ushbu she’riy parchadagi jaydari so’zining ma’nosini aniqlang. ***/// **sodda**

355. Metafora usulida ma’no ko‘chishi mavjud gapni toping. ***/// **Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko’ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan. (Cho‘lpon)**
356. Metonimiya asosida ma’nosi ko‘chgan so‘z qaysi qatorda berilgan? ***/// **Mehmon kirishi bilan za1 oyoqqa turdi.**
357. Muqimiyni bir-bir varaqlab ichimda o‘qiy boshladim. Ushbu gapdagi ma’no ko‘chishini aniqlang. ***/// **metonimiya**
358. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chishi qanday nomlanadi? ***/// **metonimiya**
359. Normatni bunchalik cho‘kib qolgan deb o‘ylamagandim. Ushbu gapdagi ma’no ko‘chish turini aniqlang. ***/// **metafora**
360. Nutq tarkibida so'zning boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladigan ma’nosi qanday ma’no hisoblanadi? ***/// **ko'chma ma’no**
361. Nutqimizda eng keng tarqalgan ma’no ko‘chish usuli qaysi? ***/// **metafora**
362. O’quvchilarimizning birlashishi uchun ularga bir bosh kerak bo‘lib qoldi. Ushbu gapda ma’no ko‘chish usulini aniqlang. ***/// **sinekdoxa**
363. Omonim so'zlar qatorni aniqlang. ***/// **bog'li, bo'sh, arz, qayt**
364. Omonim so'zlar qo'llash orqali qanday san’atlar hosil qilinadi? 1) tajnis; 2) tuyuq; 3) iyhom; 4) tanosub. ***/// **1, 3**
365. Omonim tasviriy ifodani toping. ***/// **bahor elchisi**
366. O'n qo'li o'n hunar. Berilgan iborada ma’no ko'chishining qaysi turi uchraydi? ***/// **sinekdoxa**
367. Ona unga faqat kiydirish, yedirish uchun ona, xolos. Gapda atash ma’nosiga ega bo’lmagan so‘zlar soni nechta? ***/// **3 ta**
368. Ot (ism), ot (hayvon), ot (fe’l) so'zlari noto'g'ri tavsiflangan javobni toping. ***/// **bir xil shaklga ega bo'lgan ko'p ma’noli so'z**
369. Oyoq kiyim tor bo’lsa, ... Maqolni davom ettiring.

***/// **dunyoning kengligidan ne foyda**

370. O'z va ko'chma ma’nolarga ega bo'lgan so'z ... deyiladi. ***/// **ko'p ma’noli so'zlar**
371. O'zaro bir so'z turkumi doirasidagina shakldoshlik hosil qiluvchi so'zni belgilang. ***/// **sir**
372. Paronim juftiga ega bo'lmagan so'zlar qatorini toping. ***/// xafa, shoir, xonadon
373. Paronim so'z noto'g'ri qo'llangan gapni toping. ***/// **Qadr bilmas qarindoshdan qadr qilgan yod yaxshi.**

374. Paronimlar bilan bog'liq uslubiy xato mavjud bo‘lgan gapni toping. ***/// **Hirotda talaygina adiblar, mashshoqlar, rassomlar chiqibdi.**
375. Paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq xato mavjud gapni toping. ***/// **Adl teraklar qishloqning husniga husn qo'shadi.**
376. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lmagan gapni belgilang. ***/// **Mashhur bog'bon Darvesh hoji shaftoli, olxo'ri ko'chatlarini o'tqazdi**.
377. Predmetlar o'rtasidagi joylashgan o'rniga nisbatan o'xshashlik asosida ma’no ko'chgan qatorni aniqlang. ***/// **samolyot dumi**
378. Predmetlar o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida ma’no ko'chgan qatorni aniqlang. ***/// **qozon qulog'i**
379. Predmetlarning joylashish o'rniga ko'ra so'z ma’nosi ko'chgan qatorni toping. ***/// **varrak dumi, samolyot dumi**
380. Qaysi gapda ibora ishtirok etgan? ***/// **Hammamiz bir yoqadan bosh chiqaraylik.**
381. Qaysi gapda ibora qo‘llanmagan? ***/// **Usta o'tkir asbob bilan simni qirqdi.**
382. Qaysi gapdagi ibora “darhol orqangga qayt” degan ma’noni beradi? ***/// **Bosgan izingni chang chnag bosmasin.**
383. Qaysi gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanmagan hayvon nomi mavjud? ***/// **O’zbekistonda zaharli ilonlarning ko‘p turlari bor.**
384. Qaysi gapda omonim (shakldosh) qo’shimchali tub va yasama so‘zlar mavjud? ***/// **Olimjonga gapim ta ’sir qildi, shekilli, terim vaqti kiyadigan kiyimlarini ko'zdan kechirdi.**
385. Qaysi gapda oyoq so‘zi vazifadoshlik asosida ko‘chma ma’noda qo‘llangan? ***/// **Stol oyog'i pishiq yog‘ochdan ishlangan**
386. Qaysi gapda sinekdoxa usulida ma’no ko‘chgan? ***/// **Halima o‘tkir pichoq bilan qo‘lini kesib olibdi.**
387. Qaysi gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xato mavjud? ***/// **Shahrimiz nufuzi uch milliondan oshdi.**
388. Qaysi gapda xatolik ham imloviy, ham paronimlarni qo’llash bilan bog‘liq? ***/// **Boshimga tushgan ayrilik azobidan yuragim to’kilib borayapti.**
389. Qaysi javobda “qildan qiyiq topmoq” iborasining ma’nodoshi berilgan? ***/// **tirnoq ostidan kir qidirmoq**
390. Qaysi javobda leksik omonimlar berilgan? ***/// **chang, zang**
391. Qaysi javobda paronimlar berilgan? ***/// **jodi - jodu**
392. Qaysi javobda Soyaga qarab to'n bichma maqolidagi to'n bichmoq iborasining ma’nosi to'g'ri izohlangan? ***/// **baho bermoq**
393. Qaysi maqolda bitta so’z ham o’z ma’nosida, ham ko’chma ma’noda kelgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
394. Qaysi maqolni ham majozan, ham to’g’ridan to’g’ri o’z ma’nosida qo’’llash mumkin? ***/// **Bolta tushguncha, to’nka dam oladi.**

395. Qaysi qatorda faqat lug'aviy ma'no anglatadigan so'zlar keltirilgan? ***/// **chekmoq, ot, uxlamoq, aziz, aft**
396. Qaysi qatorda ibora qo'llanmagan? ***/// **Har qanday temirni zang chiritadi.**
397. Qaysi qatorda iboraning ma'nosi noto'g'ri berilgan? ***/// **qulog'idan kun ko'rinadi- xafa**
398. Qaysi qatorda iboraning ma'nosi noto'g'ri berilgan? ***/// **do'ppisi yarimta – bechora**
399. Qaysi qatorda kuchli so'ziga ma'nodosh bo'lgan frazeologik birlik berilgan? ***/// **tog'ni ursa talqon qiladi**
400. Qaysi qatorda metafora usulida ma'no ko'chishi mavjud? ***/// **Ilm cho'qqilarini egallang.**
401. Qaysi qatorda omonim so'zlar berilgan? ***/// **tuz, kadr**
402. Qaysi qatorda paronimlar berilmagan? ***/// **a'zo-azo**
403. Qaysi qatorda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud? ***/// **Tamburimning ovozi — yorimning sho'xchan nozi.**
404. Qaysi qatorda sinonim iboralar berilgan? ***/// **Hafsalasi pir bo'ldi, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urdi**
405. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xato mavjud? ***/// **Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solayapti.**
406. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud emas? ***/// **Nodirjon o'yinga alaxsib ketganidan kech kirganini bilmay qoldi.**
407. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud? ***/// **Shahidbek maxdumning mahalla ahillaridan bo'lib, Xudoyorxon zakotchilarining biridir.**
408. Qaysi qatordagi gapda paronimlarning qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xato mavjud? ***/// **Yaxshiga yondash, yomondan qoch.**
409. Qaysi qatordagi gapda sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'z mavjud? ***/// **– Xudovando! Bu na ko'rgilik. Endi netaman? To'qqiz og'izni qanday boqaman? (S.Siyoyev)**
410. Qaysi qatordagi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud? ***/// **Chanoqdagi paxta quyoshda yarqirab, kumushdek toblandi.**
411. Qaysi qatordagi gapda so'z qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilgan? ***/// **Ot afzalin shayladi, o'q-anjomin boyladi.**
412. Qaysi qatordagi gapda xursand so'zining sinonimi turg'un birikma orqali ifodalangan?

***/// **Abrorjon og'zi qulog'iga yetib, uydan otilib chiqdi.**

413. Qaysi qatordagi lug'aviy birlik frazeologiyada o'rganiladi? ***/// **ko'ngli bo'sh**
414. Qaysi qatordagi lug'aviy birlik frazeologiyada o'rganiladi? ***/// **qamchisidan qon tomadi**
415. Qaysi qatordagi lug'aviy birlik frazeologiyada o'rganiladi? ***/// **do'ppisi yarimta**

416. Qaysi qatordagi so'zlar ikki xil so'z turkumi vazifasida kelishi mumkin? ***/// **boyi, oqish**
417. Qaysi qatordagi uslubiy xato paronimlarni qo'llash bilan bog'liq? ***/// **Tanbalga ish buyursang, otangdan yaxshi maslahat beradi.**
418. Qaysi qo'shma gapdagi yasama so'z paronimiga ega? ***/// **Atrof jimjit, go'yo borliq uyquga ketgan.**
419. Qaysi qo'shma gapda ko'chma ma'noda sinonimlik hosil qilgan so'zlar mavjud? ***/// **Meni yomon ranjtiding, sendan qattiq xafaman.**
420. Qaysi so'zlar ham metafora, ham vazifadoshlik asosida ko'chma ma'noda qo'llana oladi? ***/// **chiroq, quloq, etak**
421. Qaysi so'zlarda ikki o'rinda til orqa undoshi qatnashgan? ***/// **ko'ngil, go'llik**
422. Qaysi so'zlar ham ko'chma ma'no, ham shakldoshiga ega? 1) ko'z; 2) oltin; 3) og'iz; 4) tom; 5) uch; 6) oq ***/// **4, 5, 6**
423. Qaysi so'zlar ham metafora, ham vazifadoshlik asosida ko'chma ma'noda qo'llana oladi? ***/// **chiroq, quloq, etak**
424. Qaysi xalq maqolida antonimdan foydalanilgan? ***/// **Do'sting ming bo'lsa ham oz, dushmaning bir bo'lsa ham ko'p.**
425. Qismlari yasama so'zlardan tashkil topgan antonim juftliklarni belgilang. 1) katta-kichik; 2) yaxshi-yomon; 3) issiq-sovuq; 4) mehnatkash-ishchan; 5) so'zladi-gapirdi; 6) achchiqchuchuk ***/// **3, 6**
426. Quyida berilgan birikmalarning qaysi birini so'z birikmasi va turg'un bog'lanma sifatida qo'llab bo'lmaydi? ***/// **ko'ngli joyiga tushdi**
427. Quyida berilgan birliklarning qaysilari ham so'z birikmasi, ham turg'un birikma sifatida qo'llanishi mumkin? 1) boshiga yetmoq; 2) qulog'iga quymoq; 3) o'z yog'iga qovurilmoq; 4) yaxshi ko'rmoq; 6) to'nini teskari kiymoq; 6) ko'nglidan o'tkazmoq ***/// **1, 2, 3, 4, 5**
428. Quyida berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud? Bir kosani simirdim. ***/// **metonimiya**
429. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan? Bo'ston qishlog'iga **<u>og'ir-vazmin</u>** qadamlar bilan kuz kirib keldi**.** ***/// **metafora**
430. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud? **G'amgin** qoyalar qilib qo'ygan gunohidan o'zi qo'rqib ketganday ingrab yubordi**.** ***/// **metafora**
431. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ina'nosi qaysi usulda ko'chgan? Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. ***/// **metafora**
432. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan? Havoda ananas hidi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi **gurkiradi.** ***/// **metafora**
433. Quyida berilgan gaplarda qo'llangan iboralarning sintaktik vazifasi qaysi javobda to'g'ri izohlangan? 1. Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalibchayqalib chiqib keldi. 2. Shu payt ko'cha

darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib Alijon kirib keldi. 3.Mehmon joyiga o‘tirdi-yu, ammo ko‘ngli joyiga tushmadi. 4.

Chol asta cho‘kkaladi-da, sharti ketib, parti qolgan itning boshini siladi. 5. Og'ziga talqon solganday jim o‘tirdi. 6. Mana shu tirranchalarni deb boya rosa po‘stagimni qoqishgandi. kesim; b) aniqlovchi; c) ravish holi ***/// **1,4- b; 2, 5 - c; 3, 6 - a**

434. Quyida berilgan gaplardagi qirq so‘zi haqidagi to‘g’ri hukmni aniqlang. 1. Andozani aniq qilib qirq. 2. Go‘ro’g‘lining qirq yigiti bor edi. 3. Motam marosimlari uch, yetti, qirq, yil kabi turlarga bo‘linadi. ***/// **1-gapda fe’l, 2-gapda son, 3-gapda ot**
435. Quyida berilgan she’riy parchadagi ajratib ko’rsatilgan so‘zlarda ma’no ko’chishiuing qaysi turi mavjud? Lermontovni tashlamadim hech, So‘ngra qo‘lga oldim Hofizni. ***/// **metonimiya**
436. Quyida berilgan she’riy parchadagi ajratib ko'rsatilgan so‘zda ma’no ko'chishlning qaysi turi mavjud? Tong otar chog‘ida juda sog‘inib,

Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob. (G‘.G‘ulom) ***/// **metonimiya.**

437. Quyida berilgan so’zlardan qaysilari ham omonimlik, ham polisemantik xususiyatga ega?

1) tor; 2) tomoq; 3) yengil; 4) bel; 5) gul; 6) o’ch; 7) dunyo ***/// **1, 2, 4, 6,**

438. Quyida berilganlar orasidan barcha omonim so‘zlarni ko'rsating. 1) ivimoq; 2) qiyiq; 3) bog‘li; 4) zarb; 5) gul ***/// **2, 3, 4**
439. Quyida berilganlardan ham omonimlik, ham ko’pma’nolilik xususiyatiga ega bo’lgan barcha ko’rsatilgan javobni toping. 1) yosh; 2) tom; 3) bel; 4) tor; 5) gul; 6) quloq; 7) to’la; 8) nafis ***/// **1,2,4,7**
440. Quyida berilganlarning qaysilarida sinekdoxa usuli bilan ma’no ko‘chishi mavjud? 1. Besh qo‘lini og'ziga tiqmoq; 2. Besh qo‘l barobar emas. 3. Ko‘zlar, yuzlar boqar edi biz tomon. 4.Keling, mehmon, eshikka kiraylik. ***/// **1, 2**
441. Quyidagi baytda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qaysi turi mavjud?

Visoli lazzatidan zavq topmoqliq erur dushvor,
Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur. ***/// **zid ma’noli so‘z**

442. Quyidagi birikmalardagi tutmoq so'zining shakl va ma’no turini aniqlang. 1) qochoqni tutmoq; 2) parda tutmoq; 3) ro'za tutmoq; 4) suv tutmoq ***/// **1, 2, 3 — ko'p ma’noli so'z; 4 — shakldosh so'z**
443. Quyidagi birliklarning qaysi birida har ikkala so‘zning ham shakldoshi mavjud? ***/// **o‘t och**
444. Quyidagi gapda bosh so‘zining qaysi ma’nosi ifodalangan? Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan. ***/// **aql**
445. Quyidagi gapda ko'chma ma’nodagi so'zni aniqlang. Mungli kuy yurakni tirnaydi. ***/// **tirnaydi**

446. Quyidagi gapda ma’no ko'chishning qaysi turi mavjud? Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solardi. (A.Qahhor) ***/// **metafora**

447. Quyidagi gapda qanday ma’no ko'chishi mavjud. Haybatli sharsharalar sochar kumush zarralar. ***/// **metafora**

448. Quyidagi gapda qo'llangan ko‘lanka so'zining ma’nodoshini toping. Abduvahob ayvondagi ko‘lankaga o'tirdi, o‘g‘ilchasini tizzasiga olib peshonasidan o‘pdi. ***/// **soya**

449. Quyidagi gaplarning qaysi birida so'z qo'llashga oid uslubiy xato mavjud? ***/// **Go'zal qiz Oysuluvning basharasida ter ko'rindi.**

450. Quyidagi juftliklardan qay birini o‘zaro bir- biridan farqlamaslik, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatoga olib keladi? 1. borlik-borliq, 2. kabutar-kaptar, 3. baravar-barobar, 4. qism-qisim, 5. obro‘talab-obro‘ytalab ***/// **1,4**

451. Quyidagi qaysi gapda sinekdoxa asosida ma’no ko‘chgan so‘z mavjud? ***/// **Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting.**

452. Quyidagi so‘zlarning qaysi birida shakldoshlik (omonimlik) ot va fe’l turkumi o‘rtasida vujudga kelmaydi? ***/// **to‘r**

453. Quyidagi so'zlardan qaysilarida paronimlik ot turkumi doirasida yuzaga kelgan? 1) darsdarz; 2) barmoq-bormoq; 3) yod-yot; 4) sut-sud; 5) urish-urush; 6) qars-qarz; 7) da’vo-davo; 8) sof-sop; 9) palak-falak; 10) sa’va-sava? ***/// **1, 4, 7, 9**

454. Quyidagilardan metonimiya asosida ma’no ko'chgan birliklarni aniqlang. 1) olmaning afrosiyob navi; 2) rentgen apparati; 3) elektr chirog'i; 4) stol oyog'i; 5) Hojimatov damlamasi; 6) Bedil asari ***/// **1, 2, 5, 6**

455. Rahim amakining uyi olti tomdan keyin joylashgan. Ushbu gapdagi tom so'zida qanday ma’no ko'chishi kuzatiladi? ***/// **sinekdoxa** 456. Rahmi kelib bulutning

Yig‘lab to'kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol

Ko'taradi boshini. (E.Vohidov) Ushbu misralarda ma’no ko'chishining qaysi turi mavjud? ***/// **metafora**

457. Rentgen apparati, volt, amper kabi so'z va so'z birikmalarida ma’no ko'chishining qaysi usuli mavjud? ***/// **metonimiya**

458. Rost aytasiz, Maxsum aka, men axir maktabda ishlayman, boshlang‘ich sinflar uchun

“G’uncha” yaxshi. Ushbu gapda ma’no ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan? ***/// **metonimiya** 459. Sabo lutf et, mengo ul yor payg’omin ravon keltur,

Visoli mujdasidin notavon jismimg’a jon keltur. (Amiriy) Ushbu baytda so’zlarning ma’no va shakl jihatdan qaysi turi ishtirok etgan? ***/// **ma’nodosh so’zlar**

460. Saida o‘n yillikni bultur tugatgan edi. Ushbu gapdagi ma’no ko‘chishini aniqlang. ***/// **metonimiya**

461. Sarvixon daromadning buromadini eshitib gangib qoldi gapidagi buromad so‘zining lug'aviy ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **sarf, chiqim**

462. Shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra darra- dara so‘zlari o‘zaro qanday so‘zlarga mansub? ***/// **paronimlar**

463. Shakldosh (omonim) so'zlar berilgan qatorni toping. ***/// **adash, to'q, dasta** 464. Shakldosh (omonim) so'zlar berilgan qatorni toping. ***/// **yot, yoq, yon**

465. Shartmi ichmak har bir qadahni yo'q demay.Ushbu gapdagi ma’no ko'chish turini aniqlang**.** ***/// **metonimiya**

466. Shaxs va predmet nomi o‘rnida biror a’zo, bo‘lak orqali o‘sha tushunchaning berilishi nima deb yuritiladi**?** ***/// **sinekdoxa**

467. Shaxs yoki predmetni unga bog‘liq bo‘lgan boshqa bir nom bilan ifodalash nima deb yuritiladi? ***/// **metonimiya**

468. Shunday qilib majlis qaror qabul qildi. Ushbu gapdagi ma’no ko'chish turini aniqlang. ***/// **metonimiya**

469. Sinekdoxa yo‘li bilan ma’nosi ko‘chgan so'z qatnashgan gapni aniqlang. ***/// **Yig'ilishga mo'ylovni ham chaqirib kelishdi.**

470. Sinonimlar qatoridan shakl belgisidan tashqari xususiyat belgisini ham ifodalaydigan so'zlarni belgilang. 1) katta; 2) ulug‘; 3) ulkan; 4) buyuk; 5) gigant. ***/// **2, 4**

471. So‘z ma’nosi vazifadoshlik asosida ko‘chgan so‘z birikmasini belgilang. ***/// **samolyot dumi**

472. So‘z nutq tarkibidan ajratilganda uning qaysi ma’nosi anglashiladi? ***/// **bosh ma'nosi** 473. Sovuq qish, sovuq odam kabi birikmalardagi sovuq so‘zi ma’nosiga ko‘ra qanday so‘z?

***/// **ko'p ma’noli so‘z**

474. So'z ma’nosi metonimiya asosida ko'chgan javobni belgilang. ***/// **Navbatim sumka ko'targan "jinsi"dan keyin.**

475. So'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lgan gapni toping**.** ***/// **Qadr bilmas qarindoshdan, qadr qilgan yod yaxshi.**

476. So'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni toping? ***/// **Yo'lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tqazdi.**

477. So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma’nosi qanday ma’no sanaladi? ***/// **o'z (bosh) ma’no,**

478. Tashqarida o'tlab yurgan qo‘y-qo‘zilarni ko'rib: "Qiziq, bu yerdagi tuyoqlar soni nechta ekan-a?" — deb qoldi. Ushbu gapda ma’no ko'chish usulini aniqlang. ***/// **sinekdoxa**

479. Til, tuz, qop, osh so'zlari qaysi turkumlar doirasida o'zaro omonimlikni hosil qila oladi?

***/// **ot va fe’l**

480. Tilshunoslikning qaysi bolimlarida so'z o'rganiladi? ***/// **leksikologiyada va morfologiya**

481. To‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmaydi. Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so'zdagi ma’no ko'chish turini aniqlang. ***/// **metafora**

482. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi? Ushbu jumla xalq og'zaki ijodining qaysi janriga mansub? ***/// **tez aytish**

483. Ul oyki, kula-kula qirog'latdi meni, Yig‘latdi meni demayki, siqtatdi meni. Ushbu baytdagi

"ul oy" so‘zi orqali qaysi ma’no ko‘chishi sodir bo'lgan? ***/// **metafora**

484. Uni boshiga ko'tarib yuraman deganlar son mingta. Ushbu gapdagi ibora shakl va ma’no munosabatiga ko'ra qanday ibora bo'la oladi? ***/// **omonim ibora**

485. Unim yo‘q, bunim yo‘q, Uyimda unim yo‘q.

Ishimda unum yo‘q,

Aytishga unim yo‘q. Ushbu she’riy parchada asosi shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkum(lar)ga tegishli? ***/// **ot, fe’l**

486. Unim yo‘q, bunim yo‘q,

Uyimda unim yo‘q.

Ishimda unum yo‘q,

Aytishga unim yo‘q. Ushbu she’riy parchada asosi shakldosh bo'lgan nechta so‘z mavjud?

***/// **4 ta**

487. Uzoq yurdim keksa tog’ sari, Goh odimlab, gohida chopdim.

Nuragan tosh, qoya tagidan

Go‘yoki tog’ ko‘zlarin topdim. (Shavkat Rahmon) Berilgan she’riy parchadagi ma’no ko‘chish turini aniqlang. ***/// **metafora** 488. Uzun sochingdan uzmasman ko’ngulni,

Ayog’ing qanda bo’lsa, boshim anda. Ajratib ko’rsatilgan so’zlardagi ma’no ko’chish turini belgilang. ***/// **metafora**

489. Voy, manavi bolaning shirinligini! Ushbu gapdagi ma’no ko‘chishini aniqlang. ***/// **metafora**

490. Xudoyo, tavba qildim, bu qanday kun? Yo qudratingdan, bu qanday odam? Butun orqali bo‘lakni ifodalash ma’no ko'chishining qaysi turiga xos? ***/// **sinekdoxa**

491. Yanvarning o‘n beshlarida butun qishloq to‘g‘on qurishga otlandi. Ushbu gapda ostiga chizilgan so'zda ma’no ko'chishining qaysi turi mavjud? ***/// **metonimiya**

492. Yunoncha "qayta nomlash" ma’nosini ifodalovchi atamani belgilang. ***/// **metonimiya**

493. Yuz so‘zining salbiy baho bildiruvchi ma’nodoshlaridan qaysi birida salbiy bo‘yoq hammasidan kuchliroq**?** ***/// **turq**

494. Yuz so'zining salbiylik baho darajasi kuchayib borishi to'g'ri berilgan qatorni toping. ***/// **bet, aft, bashara, turq, nusxa**

495. Yuzingni oftobini ko‘rub hayron bo‘lib qoldim, Falakg'a qo‘l uzotib shamsi anvarni olib bo'lmas. (Mashrab) Ushbu baytda qo'llangan ma’nodosh so'zlarni toping. ***/// **oftob, shams**

496. "Davlat tili" haqidagi qonunning qaysi moddasida O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi berilishi qayd etilgan? ***/// **6-moddada**

497. "Devonu lug’otit-turk" asaridagi ma’lumotlarga ko’ra eski turkiy tilda gaplashuvchi turkiy qabilalar nomi keltirilgan javobni belgilang ***/// **o’zbek, qarluq, no’g’ay, uyg’ur**

498. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdagi tor unli tushib qoladi va shunday yoziladi? ***/// **qorin, o'g'il, singil**

499. "Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir". Ushbu ta’rif kimning qaysi asaridan olingan? ***/// **A.Avloniy, "Turkiy Guliston yoxud axloq"**

500. “O'zbek” atamasi ilk bor kimning qaysi asarida tilga olingan? ***/// **XII asrda**

**“Mo'g'illar tarixi”' asarida**

1) bog’ (bir bog’ piyoz); 2) bog’ (bog’ni aylanmoq). Ushbu omonimlar qaysi tilga xos ekanligi haqidagi to‘g‘ri fikrni belgilang. ***/// **1- o‘zbekcha so‘z; 2- tojikcha so‘z**

501. Agglutinativ tillarning flektiv tillardan farqli xususiyatlari to’liq ko’rsatilgan javobni aniqlang. 1. Nechta grammatik ma’no bo‘lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo‘llaniladi. 2. Grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi. 3.

Grammatik ma’noning ko‘payishi bilan, so‘zning grammatik shakllari ham chapdan o‘ngga qarab cho‘zilib boradi. 4. Grammatik qo‘shim¬chalarning qo‘shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o‘zgartirmaydi. ***/// **1,2,3,4**

502. Agglyutinativ tillarga xos xususiyatlar to‘g‘ri aks etgan javobni belgilang. 1) nechta grammatik ma’no bo'lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo'llaniladi; 2) grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi; 3) grammatik shakllar asos qismiga birikib, chegaralanmaydigan bo‘lib qoladi; 4) grammatik ma’noning ko‘payishi bilan, so'zning grammatik shakllari ham chapdan o‘ngga qarab cho‘zilib boradi; 5) grammatik qo`shimchalarning qo'shilishi asos qismining fonetik tuzilishini o‘zgartirmaydi. ***/// **1, 2, 4, 5**

503. Antroponimlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **Bobur, Bekzod, Mavluda**

504. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini belgilang. ***/// **mo'min, havo, vujud**

505. Berilgan qaysi atamalarning o‘zbek tilida muqobili mavjud? ***/// **aksioner, kanselariya**

506. boyligimizga tojik-fors tillaridan o'zlashgan so'zlar qatorini aniqlang. ***/// **chorpoya, olov, kissa, oftob**

507. Eski o‘zbek adabiy tilidagi “pesha” so’zining ma’nosiui aniqlang. ***/// **kasb, hunar**

508. Eski o‘zbek adabiy tiliga xos "qopungda" so'zining ma’nosi to‘g‘ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **eshigingda**

509. Eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan behbud so‘zining ma’nosini aniqlang. ***/// **sog‘lomlik**

510. Eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan huvaydo so‘zining ma’nosini aniqlang. ***/// **ayon, ravshan**

511. Eski o‘zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalami aniqlang. 1) Qul Ali, "Qissayi Yusuf";

2) Qutb, "Xusrav va Shirin"; 3) Xorazmiy, "Muhabbatnoma"; 4) "O‘g‘uznoma"; 5) Sayfi

Saroyi, "Guliston"; 6) Rabg‘uziy, "Qissasi Rabg‘uziy"; 7) "Tafsir" ***/// **2, 3, 4,5,7**

512. Eski o‘zbek tiliga xos o‘ko‘sh, talim so'zlarining ma’nosini aniqlang. ***/// **o'ko'sh - ko'p, talim - bir qancha**

513. Eski o'zbek adabiy tiliga xos "kilk" so'zining ma’nosi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **qamish qalam**

514. Eski o'zbek tiliga xos butradi fe’lining ma’nosi to‘g‘ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **tarqaldi, ketdi**

515. Eski turkiy tilda qo‘llangan ko‘kramak so‘zining ma’nosi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **na’ra tortmoq**

516. Eski turkiy tilda qo‘llangan qarg‘ilach so‘zining ma’nosi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **qaldirg‘och**

517. Eski turkiy tilda qo‘llangan sandilach so‘zining ma’nosi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **sa’va**

518. Eski turkiy tilda qo‘llangan sandug‘ach so‘zining ma’nosi yaqsi javobda keltirilgan? ***/// **bulbul**

519. Eski turkiy tilda qo’llangan “apqara” so’zining ma’nosini aniqlang. ****/// **tomorqa yerning bir qismi**

520. Eski turkiy tildagi "art" so'zi **qanday** ma’noni ifodalaydi? ***/// **tepa, dovon**

521. Eski turkiy tildagi "batsiq" so‘zining hozirgi kundagi sinonimini toping. ***/// **g’arb**

522. Fan va texnika, kasb- hunarga oid so‘z va birikmalar nima deb yuritiladi? ***/// **atama**

523. Faqat ma’lum sotsial guruh hamda ma’lum bir hudud doirasidagina qo‘llanib, umumxalq tiliga xos bo‘lmagan so‘zlarni bildiruvchi atama qaysi javobda ko‘rsatilgan? ***/// **chegaralangan so'zlar**

524. Filologik lug’atlar haqida barcha to’g’ri ma’lumotlarni belgilang 1) ularda so‘zlar alifbo asosidajoylashtiriladi; 2) ularda so‘zlar mazmuniy guruhlar asosida joylashtiriladi; 3) ular izohli va tarjima lug’atlarga bo’linadi; 4) ular

ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi; 5) unga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o’z ichiga oladi**.** ***/// **1,2,3,4**

525. G‘arbiy til an’anasida yozilgan "Qissayi Yusuf" dostoni kimga tegishli? ***/// **Qul Ali** 526. Ko‘hak suyi shimolidan oqar,

Samarqanddin ikki kuruh bo‘lg‘ay.“Boburnoma”dan olingan ushbu parchada ajratilgan so‘z qanday so‘z hisoblanadi. ***/// **tarixiy so‘z**

527. Kurash, yonbosh, chala, halol so‘zlari qaysi guruhdagi so‘zlarga mansub? ***/// **atamalar**
528. Leksikografiya nazariyasining predmeti nimadan iborat? ***/// **lug’at tuzish tamoyillari va usullari**
529. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilining asosiy qoidalari qachon tasdiqlangan? ***/// **1995 yil 24 avgustda**
530. M. Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari necha qism bo‘lgan? ***/// **2 qism**
531. Mufassal so'zining lug'aviy ma’nosi qaysi javobda to'g'ri izohlangan? ***/// **to'liq, batafsil**
532. Noto‘g‘ri hukmni belgilang. ***/// **Qozoq tili turkiy tillar oilasining qorluq guruhiga mansub.**
533. O‘tmishda qo‘llanilgan “ko‘ch” so‘zi hozirgi kunda qaysi ma’noda ishlatiladi? ***/// **urug’, zot**
534. O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunining 2-, 4-, 6-, 10-, 4- moddalarida nima haqida so‘z yuritiladi? ***/// **boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoyalanishi haqida**
535. Oftob, osmon so'zlari qaysi tilga mansub? ***/// **fors-tojik**
536. Qadim bir rivoyatga ko‘ra, dushman turklarni urushga tortish uchun bahona izlaydi. Elchi dastlab turk hukmdorining sevgan otini so‘raydi. So‘ngra sevgan xotinini so‘raydi. Ammo uchinchi narsadan so‘ng turk hukmdori rozi bo’lmaydi, urush ochadi. Uchinchi narsa nima? ***/// **hosilsiz, elatsiz, yaylov, quruq yer**
537. Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan batsiq so‘zining ma’nosi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **g‘arb**
538. Qadimgi turkiy tilda qo'llangan art so'zining ma’nosi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **toza, musaffo**
539. Qaysi gapda narsa otini anglatgan so'z ko'chma ma’noda qo'llanmagan? ***/// **Jamilam, mening oltin-kumushlarim, dur-u javohirlarim yo'q.**
540. Qaysi olimlar O’rxun Enasoy yozuvlarini o’qishga kirishgan? ***/// **Radlov, Tomsen, Melioranskiy**
541. Quyidagi maqollarning qaysi biri "senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil" ma’nosida ishlatiladi**?** ***/// **"Suv ichirmasga sut ber".**
542. Quyidagi tillardan qaysi biri turkiy tillar nilasining qorluq guruhiga mansub? ***/// **uyg ur**
543. Quyidagi tillardan qaysi biri turkiy tillar oilasining o‘g’uz guruhiga mansub emas?D**)** ***/// **boshqird**

544. Quyidagi to’rtlik kirnning qalamiga mansub? Qaysi erda bo’lsa uqush birla o’g, Ani er atagil, necha o’gsa o‘g.

Uqush, o‘g, bilig kimda bo‘lsa tugal,

Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o‘g**.** ***/// **Yusuf Xos Hojib**

545. Shevada qo‘llanadigan inak, uy so'zlari adabiy tilda qanday ma’no anglatadi**?** ***/// **sigir**

546. Sof o’zbekcha so’zlarni toping. ***/// **yilt, turt**

547. Sog‘lomlik ma’nosini anglatuvchi eskirgan so'zni belgilang. ***/// **behbud**

548. So'zning kelib chiqishini bilish uchun qanday lug'atdan foydalanish kerak? ***/// **etimologik lug'atdan**

549. Til bilan nutqning o‘ziga xos xususiyatlari noto‘g‘ri berilgan javobni belgilang. ***/// **Til doim harakatda, o’zgaruvchan bo‘lib, nutq nisbatan turg’un va barqarordir.**

550. Til va nutqning farqi noto‘g‘ri izohlangan javobni belgilang. ***/// **Til-voqelik, nutqimkoniyat.**

551. Tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlagan holda "qiyosiy-tarixiy tilshunoslik" deb nomlanuvchi yo'nalishga asos solgan shaxsni aniqlang. ***/// **Mahmud Qoshg‘ariy** 552. To'g'ri hukmni belgilang. ***/// **Ayrim argolar umumtil leksikasidan olinadi.**

553. Tojik tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini belgilang**.** ***/// **chopon, olov, oftob**

554. Tojik tilidan so‘z qabul qilish natijasida hosil bo‘lgan qo'shma so'zlarni belgilang. ***/// **shirinso'z, yalangbosh**

555. Turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim kim**?** ***/// **Mahmud Koshg‘ariy**

556. Urug', zot ma’nosini anglatuvchi eskirgan so'z qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **ko'ch**

557. XIII asrga oid kimning qaysi dostoni g'arbiy til an’anasi asosida yozilgan? ***/// **Qul Ali, "Qissayi Yusuf"**

558. Xorazm shevasida qo’llanadigan "uchak" so’zi adabiy tilda qanday ma’no anglatadi? ***/// **tom**

559. “eslaganlik” so‘zida qo'shirnchalur asosga, qay tarzda qo'shilgan**?** ***/// **asos + so'z yasovchi +lug’aviy shakl yasovchi+ so'z yasovchi**

– choq qo'shimchasi haqidagi to'g'ri fikrni toping. ***/// **lug'aviy shakl yasovchi, ot va sifat yasovchi**

560. "O‘ktamxon" o‘quv markazi tikuvchilik, astarli kostyum-shim, pardalar, oqshom liboslari, modellash va malaka oshirish kurslariga o‘qishga taklif etadi. Gapdagi yasama so'zlar miqdorini toping. ***/// **6 ta**

561. "o‘ynatdim" so’zida nechta ko'makchi morfema bor? ***/// **4 ta**

562. "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko‘ra chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini toping. ***/// **unda bunda, uyma uy**

563. "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko'ra jo‘nalish kelishigi qo'shimchasi qo‘shilganda fonetik o'zgarish kuzatiladigan so'zlar qatorini toping. ***/// **koptok, qishloq**

564. "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (1995) ga ko‘ra qaysi qatordagi so‘zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo‘shilganda o‘zakdan so‘ng tovush qo‘shib aytiladi va yoziladi? ***/// **parvo, obro', mavqe**

565. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko'ra jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda fleksiya hodisasi kuzatiladigan so'zlar qatorini toping? ***/// **Barchasida fleksiya hodisasi kuzatilmaydi**

566. “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari” nechta banddan iborat? ***/// **82**

2) boshlandi; 2) achitdi; 3) boyidi; 4) gapirdi; 5) qaltiradi; 6) siltatdi; 7) eslashdi; 8) chizildi; 9) tushuntirdi; 10) tashlandik. Ushbu so'zlarning qaysilarida asosdan keyin so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan? ***/// **1, 3, 4, 5, 7**

1) chiziq-tiniq; 2) bosqin-sotqin; 3)yutuq-quruq; 4) qirg‘in-so‘lg‘in; 5)chirik-ko'rik; 6) istakelak. Berilgan juftliklarning qaysilarida qo‘shimchalar orasida shakldoshlik ro‘y bermagan? ***/// **3, 5, 6**

1) chiziq-tiniq; 2) bosqin-sotqin; 5) yutuq-quruq; 4) qirg‘in-so‘lg‘in; 5) chirik-ko'rik; 6) istak-
tilak. Ushbu berilganlardan qaysilarida qo‘shimchalar omonimlik hosil qilgan? ***/// **1, 2, 4**

1) idrok; 2) terak; 3) ishtirok; 4) chok; 5) bolalik. Berilgan so‘zlarning qaysilariga egalik qo'shimchasi qo‘shilganda, asos qismda fonetik o‘zgarish bo‘lmaydi? ***/// **1, 3, 4**

1) olaqarg‘a; 2) tillaqo‘ng‘iz; 3) oshpichoq; 4) oltingugurt; 5) tekintomoq; 6) oqqush; 7) shirinso‘z. Berilganlardan narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali yasalgan qo‘shma so‘zlarni ajrating. ***/// **2,4,7**

1) olaqarg'a; 2) tillaqo'ng'iz; 3) oshpichoq; 4) oltingugurt; 5) tekintomoq; 6) oqqush; 7) shirinso'z. Berilganlardan narsaning o'zida bor belgisi asosida yasalgan qo'shma so'zlarni ajrating. ***/// **1, 5, 6** 1) qulog‘i; 2) bo‘yog‘i; 3) tomog‘i; 4) tilagi; 5) yuragi; 6) ko'zoynagi; 7) tarog'i; 8) kuragi.
Berilgan so‘zlar qatoridan egalik qo‘shimchasi qo'shilganda tovush almashish hodisasi sodir bo‘lgan yasama so'zlarni toping. ***/// **2, 4, 6, 7, 8**

1) to'lat (fe’l) – to'lat (fe’l); 2) kechik (ot) – kechik (fe’l); 3) oqish (fe’l) – oqish (sifat); 4) yasama (fe’l) – yasama (sifat). Ushbu shakldosh so'zlarning qaysilarida asoslar ham o'zaro shakldosh so'zlar sanaladi? ***/// **2, 3**

1) yosh; 2) qirq; 3) uch; 4) tom; 5) oshiq; band. Berilganlardau qaysilari uch turkum doirasida omonimlik hosil qila oladi? ***/// **3, 4, 5**

567. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so'zlarning qaysi biri qo‘shib yoziladi? ***/// **kir sovun**

568. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so'zlarning qaysi biri ajratib yoziladi? ***/// **janubi g‘arb**

569. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra qaysi javobdagi barcha so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, u asliga ko'ra yoziladi? ***/// **bug', sog‘**

570. Adabiy me’yor saqlangan so‘zlar qatorini belgilang. ***/// **yarmi, bag'ri, ayrilmoq, ikkala**

571. Agar bir qo'shimcha har xil yozilsa (yozuvga) bu qoidaga... ***/// **fonetik qoida deyiladi**

572. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan. Ushbu gapdagi mustaqil so'zlar miqdorini toping. ***/// **7 ta**

573. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar qaysi so‘z turkumlariga tegishli? ***/// **ot, fe’l**

574. Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili esa yuragidadir. Berilgan gapda qanday qo‘shimcha qatnashmagan? ***/// **so'z yasovchi**

575. Amr qildimki, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh va el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda bir tovushdan iborat qo‘shimchalar sonini aniqlang. ***/// **5**

576. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimcha ishtirokida hosil qilingan nechta yasama so'z mavjud? ***/// **6**

577. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? ***/// **13**

578. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda bir tovushdan iborat qo'shimchalar haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang. ***/// **fe’lning munosabat shakli**

**— 1 ta, ismlarning munosabat shakli — 2 ta, so'z yasovchi qo'shimcha — 2 ta**

579. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda tarkibida ikkita so'z yasovchi qo'shimcha bo'lgan nechta so'z mavjud? ***/// **3**

580. Aqldan g’amginlik, shodlik, o’ktamlik,

Aqldan borlig-u yo’qlig-u kamlik. (Abulqosim Firdavsiy) Ushbu baytda nechta yasama so’z mustaqil so’z turkumidan hosil qilingan? ***/// **4 ta**

581. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini. Ushbu gapdagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdorini aniqlang. ***/// **3ta**

582. Aqlli va bilimdon vazir shunday bo‘ladiki, bir to‘g‘ri tadbir qo‘llab g‘animni parokanda qilib yubora oladi, murosa- yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o‘ziga rom qiladi. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar qaysi so‘z turkumlariga mansub**?** ***/// **sifat, fe’l, ot**

583. Aqlli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo'ladiki, bir to'g'ri tadbir qo'llab g'animni parokanda qilib yubora oladi, murosa-yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o'ziga rom qiladi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha bor? ***/// **6**

584. Asosdosh so'zlar berilgan qatorni toping. ***/// **osh, oshipaz, oshxo‘r**

585. Asosida faqat jarangsiz undosh qatnashgan, yetakchi morfemasi ham, ko'makchi morfemasi ham omonim xarakterda bo’lgan sifatni toping**.** ***/// **ochiq**

586. Asosida jarangsiz undoshlar ishtirok etmagan murakkab qo’shimchali otlarni belgilang. 1) ovoragarchilik; 2) chilangarlik; 3) ezmalik; 4)zargarlik; 5) loygarchilik ***/// **1, 5**

587. Atrofdagi xovlilardan ko‘tarilgan tutunlar ko‘kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq xavoda suzadi. Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo'shimcha mavjud va nechta so‘z imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan? ***/// **2 ta; 2 ta**

588. Ba’zilar bor go‘yo ho‘l o‘tin,

Tutab yotar ko‘rmaysan
o‘tin, Yangilikka
qayishmas sira,
Xoh buyur- u, xoh ming bor o‘tin.

Ushbu parchadagi ostiga chizilgan so‘z qaysi qatorda to‘g‘ri tahlil qilingan? ***/// **tub so‘z bo‘lib, ma’noli qismlarga ajralmaydi**

589. Ba’zilar tananing og‘irligi va mutanosibligini ham sog'liq va go'zallik bilan belgilashadi. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang. ***/// **5**

590. Berilgan gapda lug‘aviy shakl yasovchilar tarkibidagi undoshlar haqida bildirilgan qaysi hukm to‘g‘ri? Qarigan chog‘da halovat istasang, yoshlikda ilm olish payida bo’l. ***/// **barchasi til undoshlari**

591. Berilgan gapda nechta ko‘rnakchi morfema mavjud? Xalqimiz doimo uyatning o‘limdan yomonligini uqtirgan. ***/// **9**

592. Berilgan gapda nechta so’z yasovchi qo’shimcha mavjud? Ikki yasharli o’g’lini shifokor ko’rigiga olib kelgan ekan. ***/// **4 ta**

593. Berilgan gapda qo'llanilgan so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdorini aniqlang. Tuyalar suvsizlikka chidamliligi bilan boshqa cho‘l hayvonlaridan ajralib turadi. ***/// **5**

594. Berilgan gapda yasama so'zlar soni nechta? Dunyoviy bilimga ega, odobli, ilmli, barkamol va shijoatli farzandlarni tarbiyalash bosh vazifadir. ***/// **7 ta**

595. Berilgan gapdagi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarda portlovchi undoshlar soni nechta? Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko’tarib kelayotgan yosh nihollarni silkitardi. ***/// **7 ta**

596. Berilgan gapdagi so‘z yasovchi qo’shimchalarni aniqlang. Gullab yotgan o'rikzor xira pardaga burkandi**.** ***/// **-la, -zor**

597. Berilgan gapdagi so‘zlar tarkibida necha so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud? Ushbu to‘plamda tinchlik haqida she’rlar bor. ***/// **4**

598. Berilgan gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarning sonini aniqlang. Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi. ***/// **3**

599. Berilgan gapdagi so'zlar tarkibida qo'llangan so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. Birdan osmon guldurab, sharros yomg'ir quydi-yu, tinchidi. ***/// **4**

600. Berilgan gapdagi yasama so'zlar miqdorini aniqlang. Men uning bu uyda yolg'izlikda qiynalib yashaganligini angladim. ***/// **4 ta**

601. Berilgan gapdagi yasama so'zlar miqdorini aniqlang. Tog‘ balandligi sovuq edi, shuning

uchun kuzatuvchilar harorat pasayishi bilan o‘z ishlarini to‘xtatishga qaror qilishdi. ***/// **5**

602. Berilgan gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang. Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi**.** ***/// **3 ta**

603. Berilgan gaplarning qaysi birida 3 ta so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan? 1.To’g’ri so’z qilichdan o’tkir, shuning uchun hamisha rost so’zlashga odatlan. 2. Kamtar bo’l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi. 3.O’z fikrini o’ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi**.** ***/// **1,2**

604. Berilgan gaplarning qaysi birida nuqtalar o‘rniga -li (I) yoki -lik (II) qo‘shimchalari qo‘yilishini mos ravishda belgilang. 1) Bilim olishning bosh yo‘li - moyil.. .dir. 2) Yaxshi odam beg‘ubor, keng fe’l... bo'ladi. Ko‘plarning baxtiga o‘z... ni jamlab shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo'ysang bas. 4) Umrdan o‘tajak har lahza uchun Qudrat... qo’l bilan qo'yaylik haykal. 5) Ayniqsa, qiz bola uchun hayo..., iffat.. ., sir... -sehr..., ibo... va ochiqchehra... bo‘lishdan ham ulug’roq husn yo‘q. ***/// **I-2, 4, 5; II-1,3,4**

605. Berilgan gaplarning qaysi birida so‘z yasovchi qo‘shimcha lug‘aviy shakl yasovchi qo'shimchadan keyin qo'shilgan**?** ***/// **Boboxon goh o'chirg'ichga, goh bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga qarab hang-mang bo’lib qolgan edi.**

606. Berilgan juft sifatlarning qaysi biri yangi imlo qoidasiga ko‘ra noto‘g‘ri yozilgan? ***/// **katta-yu kichik**

607. Berilgan misralarning qaysi birida sodda yasama so’z ishtirok etgan? ***/// **Chiqdi, g'unchaladi, kuldi — to‘kildi.**

608. Berilgan qaysi gapda noto‘g‘ri yozilgan so‘z qo'llangan? ***/// **Ayovsiz jangda dushman ko'p talofat ko'rdi.**

609. Berilgan qaysi javobdagi gaplarda ishtirok etgan shakldosh so'zlardagi qo'shimchalar tarkibi bir xil emas? ***/// **Bu ko'zlar nimani ko'zlar.**

610. Berilgan qo‘shimchalarning qaysi biri omonim xarakterga ega bo‘lib, -chi qo‘shimchasi bilan ma’nodosh bo‘la oladi? 1) -shunos; 2) -kash; 3) -kor ***/// **2, 3**

611. Berilgan so‘z ma’noli qismlarga to‘g‘ri ajratilgan qatorni toping. ***/// **muvofiq- lash- tir- il- gan**

612. Berilgan so‘zlarning qaysilariga ot yasovchi -lik, qaysilariga sifat yasovchi -li qo‘shimchasi qo‘shiladi? 1) tashna.., 2) kuch.., 3) ohangdor.., 4) moyil.., 5) aql.. ***///

**1,3,4 - so‘zlarga -lik, 2,5 - so‘zlarga -li**

613. Berilgan so'zlarning qaysi birida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan? l) sarg'aymoq; 2) qiynamoq; 3) anglamoq; 4) o'tkazmoq; 5) chanqamoq; 6) qaynoqroq. ***/// **1, 2, 3, 6**

614. Berilgan so'zlarning qaysilari tarkibida ikkita so'z yasovchi qo'shimcha mavjud emas? 1) yig'loqi; 2) sayroqi; 3) o'ynoqi; 4) qichitqi ***/// **2, 4**

615. Berilgan so'zlarning qaysilariga ot yasovchi -lik, qaysilariga sifat yasovchi -li qo’shimchasi qo‘shiladi? 1) sodda..; 2) yog‘..; 3) chiroy..; 4) ravshan..; 5) xayr..; 6) ezgu**..**

***/// **4, 6-so‘zlarga -lik. 2, 3, 5-so‘zlarga -li**

616. Bilimli biladi, zakovatli uqadi, bilimli va zakovatli tilakka yetadi. Ushbu gapda nechta o‘rinda so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘llanilgan? ***/// **7**

617. Bilimli biladi, zakovatli uqadi, bilimli va zakovatli tilakka yetadi. Ushbu gapda nechta yasama so'z mavjud? ***/// **5**

618. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb. Ushbu gapda nechta qo'shimcha bor? ***/// **8 ta**

619. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi qo'shimchalar soni va turi qaysi qatorda keltirilgan? ***/// **17 ta: lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi**

620. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi so’z yasovchi qo'shimchalar soni nechta? ***/// **2 ta** 621. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi lug’aviy shakl yasovchi qo’shimchalar sonini aniqlang? ***/// **6 ta**

622. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar soni qaysi qatorda keltirilgan**?** ***/// **9 ta**

623. Bir umr ezgulikni izlab, boshqalarga ma’rifat-u ma’naviyat ulashayotgan insonlarning hayot yo'llari ibratli bo'lishini ko'pam sezavermaymiz. Ushbu gapdagi sodda yasama so'zlar

qaysi so'z turkumlariga tegishli ekanligini toping. ***/// **ot, sifat, fe’l**

624. Bo‘yoqchi so‘zining tarkibi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **bo‘ya q chi**
625. -bon qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **lug'aviy shakl yasovchi, so'z yasovchi**
626. Bor so‘zni so‘z sanab tebranmasin til
627. Bugungi kunda milliy g'urur tuyg'usi haqida ko'p gapiriladi. Ushbu gapdagi yasama so'zlar yuzasidan xato hukmni belgilang. ***/// **otdan sifat yasalgan**
628. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir. Ushbu gapda qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turi va sonini aniqlang. ***/// **lug'aviy shakl yasovchi 6 ta, sintaktik shakl yasovchi 4 ta, so'z yasovchi 2 ta**
629. Bulbul gulzorni izlaydi, boyo‘g‘li esa hamisha vayronani ko‘zlaydi. Berilgan gapdagi yasama so‘zlar qaysi so‘z turkumiga mansub? ***/// **ot, fe’l**
630. Bulbul to‘qayzor, butazorlarda, suvi ko‘p bo’lgan bog’ va o’rmonzorlarda yashaydi. Ushbu gapda necha o‘rinda yasama so’z ishtirok etgan**?** ***/// **5**
631. Buni anglay olish uchun odamda mantiq qudrati bor. Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so'zda qanday undosh ishtirok etmagan? ***/// **lab undoshi**
632. Changitib so'zi tarkibida qanday ko'makchi morfemalar ishtirok etgan? ***/// **1 ta so'z yasovchi, 2 ta shakl yasovchi morfema**
633. Chet ellarda vatandoshlar ona yurt haqida ko‘zida yosh, titroq hayajon bilan gapirishlari, bir siqim tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilishlari haqida o‘qigan, eshitgan edik. Ushbu gapdagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida yasalgan so’zlar haqidagi noto‘g‘ri hukmni belgilang. ***/// **sifatdan fe’l yasalgan**
634. Chet ellarda vatandoshlar ona yurt haqida ko’zida yosh, titroq hayajon bilan gapirishlari, bir siqim tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo qilishlari haqida o‘qigan, eshitgan edik. Ushbu gapdagi so’z yasovchi qo’shimchalar sonini aniqlang**.** ***/// **4 ta**
635. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **uyma//uy, kiyim//kechak, dam//badam**
636. Do‘stimga dedim: “Senga sir emaski, gul bebaho, guliston bevafodir”. (Sa’diy) Ushbu gapda nechta yasama so'z ishtirok etgan? ***/// **4 ta**
637. -don qo'shimchasi haqidagi to'g'ri fikrni toping. ***/// **ot va sifat yasaydi**
638. Donolik ramzi – so'z, bilib so'zlansa,
639. Dunyoning yarmini zabt etgan hukmdor og‘ir xastalik oldida ojizlik qildi. Ushbu gapda nechta yasama so'z qo'llangan**?** ***/// **4**
640. Ekinlar sovuqdan qovjirab qolgan edi. Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so‘zlar miqdorini aniqlang**?** ***/// **1ta**
641. Eng gullagan yoshlik chog'imda,

Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda. Ushbu gapdagi yasama so'zlarda qanday til undoshlari ishtirok etgan? ***/// **til oldi, til o'rta, til orqa**

642. Ertalabki kuchli shamol maktab bog‘idagi daraxtlarning mevalarini to‘kib yubordi.Ushbu gapda nechta yasama so’z bor? ***/// **3 ta**
643. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. ***/// **4**
644. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlardan nechtasining asosi bir bo'g'indan iborat. ***/// **3**
645. Fe’lning o’zlik nisbat qo’shimchasi -in qaysi qo’shimchalar bilan shakldoshlik hosil qiladi? 1) ot yasovchi; 2) sifat yasovchi; 3) ravish yasovchi; 4) fe’lning majhul nisbat shaklini yasovchi ***/// **1, 2, 3**
646. Fe’lning o’zlik nisbat qo’shimchasi -in qaysi qo’shimchalar bilan shakldoshtik hosil qiladi? 1) ot yasovchi; 2) sifat yasovchi; 3) ravish yasovchi; 4) fe’lning majhul nisbat shaklini yasovchi ***/// **1, 2, 3**
647. Fikrsiz aqlning zangi bo’ladi,

Ilm-la egovla, yangi bo’ladi,

Oynadan ibrat ol, bir kun artmasang,

Ustida bir enlik changi bo’ladi. (Bedil) Ushbu she’rda nechta so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan? ***/// **3 ta**

648. Gapdagi yasama so'zlar miqdorini aniqlang. Birdan osmon guldurab, sharros yomg‘ir quydi-yu, tinchidi. ***/// **3 ta**
649. Garchi ularni qoralash uchun tirnoqcha asosi bo‘lmasa-da, oqlashnil ham istamas, ko'ngliga hech narsa tasalli bermasdi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud? ***/// **2 ta**
650. Giyohvandlik - insoniyat kushandasi, shu tufayli unga qarshi dunyo xalqi ommaviy kurash olib bormoqda. Berilgan gapda nechta so‘z yasovchi qo‘shimcha qo'llangan? ***/// **5 ta**
651. Giyohvandlik - insoniyat kushandasi, shu tufayli unga qarshi dunyo xalqi ommaviy kurash olib bormoqda. Berilgan gapda nechta yasama so‘z mavjud**?** ***/// **4 ta**
652. Gulchehraning “sen-sen” degani Hafizaga juda yoqdi - bu juda yaqinlik belgisi. Tilning barcha o'rinlarida hosil bo'luvchi undoshiargina ishtirok etgan so'zning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang. ***/// **sodda so'z**
653. Ham ot, ham sifat, ham ravish yasovchi qo'shimchalar berilgan javobni toping. ***/// **-in**
654. Ham so‘z yasovchi, ham shakl yasovchi qo’shimchalarni aniqlang. 1) -siz; 2) -dir; 3) -m; 4) -im; 5) -a; 6) -lik; 7) -cha; 8) -i ***/// **1, 3, 4, 5, 7, 8**
655. Ham so'z yasovchi, ham lug'aviy shakl yasovchi shakldosh qo'shimchalarni aniqlang. 1) chak; 2) -m; 3) -ik; 4) -lab; 5) -xon; 6) -b; 7) -lik; 8) -in ***/// 1, 4, 5, 8

656. Har bir farzand ona nasihatlarini jon qulog'i bilan eshitishi, to'g'ri yo'lga targ'ib etsa, qarshilik qilmasligi, ota yoki onadan birortasi ish buyursa, shu buyurilgan ishda xatolik borligini sezsa ham, qattiq gapirmasligi, kulib turib, bu ishda xatolik borligini yumshoqlik bilan isbot qilib, ularni ko'ndirishi lozim. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping. ***/// **9 ta**

657. Har doimgi xushkayf, xushchaqchaq suhbat davom etar edi. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar miqdorini aniqlang. ***/// **4 ta**

658. Har ikkala qismi ham lug‘aviy ma’no anglatmaydigan juft so‘zlar berilgan javobni aniqlang. ***/// **qaqir-ququr, uvali-juvali, aji-buji**

659. Har ikkala so'z tarkibidagi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan qatorni belgilang. ***/// **to'kin, yashirin**

660. Hayotdan ham qadrliroq narsa bor bo‘lsa, bu — sog‘liq, o‘limdan ham qo‘rqinchliroq narsa bor bo‘lsa, bu — kasallik, hayotga teng narsa — boylik, o‘lim bilan barobar narsa — faqirlik. Ushbu gapda so‘z yasovchi qo‘shimchalar soni nechta? ***/// **9**

661. Hayotdan ham qadrliroq narsa bor bo‘lsa, bu — sog‘liq, o‘limdan ham qo‘rqinchliroq narsa bor bo‘lsa, bu — kasallik, hayotga teng narsa — boylik, o‘lim bilan barobar narsa — faqirlik. Ushbu gapdagi yasama sifatlar tarkibida nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? ***/// **3**

662. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda nechta fonetik o‘zgarish kuzatilmoqda? ***/// **3 ta**

663. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda egalik qo'shimchasi bilan bog'liq qanday fonetik o'zgarishlar kuzatilmoqda? ***/// **1 ta tovush almashishi**

664. Hind elida bir ajib daraxt borki, kimki uning mevasidan yesa, hech qachon qarimaydi va o‘lmaydi. Ushbu gapda vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimchalar qo‘llanmagan? ***/// **so‘z yasovchi**

665. Ikki xil munosabat shakli vazifasini bajaradigan omonim qo‘shimchalarni belgilang. ***/// **-di, -sa**

666. Ikkinchi qismi jarangli va jarangsiz undoshlardan tarkib topgan sodda yasama so'z bo'lgan qo'shma so'zni belgilang. ***/// **tishkovlagich**

667. Ikkita so'z yasovchi morfemasi bor yasama so‘z ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **Semizlikni qo‘y ko'tarar deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi.** 668. Illat izlaganga illatdir dunyo, G'urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo,

Kim neni izlasa topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (E.Vohidov) Ushbu she’riy parchada so'z yasovchi qo'shimcha necha o‘rinda qo'llangan? ***/// **5**

669. Imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini belgilang. ***/// **terakka, bilakka, so‘roqqa, sog‘ga**

670. Imlo qoidasiga ko‘ra qaysi so‘z ajratib yoziladi? ***/// **tarjimai hol**

671. –in qo‘shimchasi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri? ***/// **lug‘aviy shakl yasovchi, so‘z yasovchi**

672. in qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **lug'aviy shakl yasovchi, so'z yasovchi**

673. -in qo'shimchasi qaysi turkumga oid so‘zlarni yasashi mumkin? 1) ot; 2) sifat; 3) ravish ***/// **1, 2, 3**

674. Inson umri davomida o'ziga sodiq do‘stlar ortdiradi. Gapda qaysi qo‘shimcha turi bilan bog‘liq xato bor? ***/// **lug'aviy shakl yasovchi**

675. Insoniyat qadimdan go‘zallikni ulug‘lab kelgan. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimchalar soni nechta? ***/// **4**

676. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lgan, o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasl-nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo'tabar voqelikdir. Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. ***/// **7**

677. Insoniyat yaralgandan buyon davom etib kelayotgan surunkali odatlardan biri bu komil inson qadr-qimmatini vaqtida baholay olmaslik, qadriga yetmaslik, iliq nafasiga quloq tutmay g'animat damlarni o'tkazishdir. Berilgan gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini toping. ***/// **5**

678. Isitkichni so‘zining ma’noli qismlari joylashuvi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? ***/// **asos lug‘aviy shakl yasovchi so‘z yasovchi sintaktik shakl yasovchi** 679. Iymon nuri oqib turar, bir gavhar bor qonimizda,

Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda. Ushbu parchada so’zlar nechta sintaktik shakl yasovchi qo’shimcha bilan shakllangan? ***/// **8**

680. Jala sharros quyadi, chaqinlar chaqib, momaqaldiroq guldiraydi. Ushbu gapda nechta yasama so‘z qo'llangan**?** ***/// **3**

681. Javoblarning qaysi biri uchta ma’noli qismga bo‘linadigan so‘z berilgan? ***/// **suyanch**

682. Javoblarning qaysi birida -in qo’shimchasi bilan yasalgan sifatlar berilgan? ***/// **to‘kin, erkin**

683. Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha bor? ***/// **5 ta**

684. Kemtik oy cho‘qqilar orasidan mo'ralaydi. Ushbu gapdagi yasama so'z haqidagi to'g'ri hukmni belgilang. ***/// **fe’ldan sifat yasalgan**

685. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do‘stlashmaydi. Ushbu gapda so‘z yasovchi qo‘shirnchalar necha o‘rinda qoilangan? ***/// **4 ta**

686. Kishilar o‘rtasidagi iliq munosabat, mehr-oqibat tuyg‘usini tarbiyalaydi. Ushbu gapda nechta yasama so‘z mavjud? ***/// **4 ta**

687. Ko'cha changitib o'ynab yurgan bolalar menga salom berishdi-yu, yana chug'urlashib, birbirini quvlab bedazor tomon yugurishdi. Ushbu gapda nechta yasama so'z mavjud? ***/// **5 ta**

688. -la qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **lug'aviy shakl yasovchi, so'z yasovchi**

689. Lekin ko‘ngilchan ona: "O’g‘lim qo’lini qavartirib qiynalib yurmasin", deya eridan o‘g‘rincha unga pul beradi. Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo'shimcha bor? ***/// **3** 690. Leksema nima? ***/// grammatik ma’nosiz, faqat leksik ma’no bildiruvchi til birligi

691. -lik qo‘shimchasi sifat yasovchi qo‘shimcha vazifasini bajargan so‘zlar qatorini toping.

***/// **qishlik, ko‘ylaklik**

692. -lik qo'shimchasi haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang. 1) -lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi; 2) -lik qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi; 3) -lik qo'shimchasi mavhum otlar yasaydi; 4) -lik qo'shimchasi faoliyat-jarayon otlarini yasaydi. ***/// **1, 2, 3, 4**

693. Loyqalantirmoq so'zi tarkibidagi qo'shimchalar vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha hisoblanadi? ***/// **lug‘aviy shakl yasovchi, so‘z yasovchi**

694. Ma’nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma’noli asoslardan tarkib topgan so'zlar ... so'zlardir**.** ***/// **juft**

695. Maqoldagi so‘z yasovchi qo'shimchalar miqdorini belgilang. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsizdo‘stini. ***/// **3 ta**

696. Mashhur qora qashqa ayg’irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. Berilgan gapda yasama fe’llar qaysi turkum(lar)dan hosil qilingan? ***/// **ot**

697. Masturaning sevgisi, chidami, hijron alami, uning o‘ziday pok, chiroyli,samimiy, ehtimol, shungadir, Mashrab vafosizlik haqida yozilgan kitoblarni o‘qisa, yo erkaklar og‘zidan xotinqizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, hamisha Masturani eslab, butun vujudi isyon ko‘tarsa ham, bu kabi gaplarning birortasiga ishonmagan. Ushbu gapda bir tovushdan iborat ko‘makchi morfema ishtirok etgan so'zlar sonini toping. ***/// 6 ta

698. Mavsum boshlanishi bilan ko'p ishlab, kam dam olishingiz, turli bekorchi narsalarga vaqt sarflamasligingiz kerak. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping. ***/// **6 ta**

699. Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko‘zlari katta ochildi. Ushbu gapdagi birgina tovushdan iborat bo‘lgan so‘z yasovchi qo‘shimchalarning sonini aniqlang. ***/// **3ta** 700. Men davlatimiz tomonidan maktablarga katta e’tibor berilayotganini, chiroyli, hashamatli maktablar qurilayotganini ta’kidlamoqchiman. Ushbu gapda nechta yasama so‘z ishtirok etgan? ***/// **4 ta**

701. Millatni sevmoqlik - baxt, kurashib yashamoq - saodat. Ushbu gapdagi so‘z yasovchi qo'shimcha lug‘aviy shakl yasovchi qo'shimchadan keyin qo’shilgan so‘z tarkibida qanday til undoshi mavjud emas? ***/// **til o’rta**

702. Moddalar tarkibining doimiyligi kimyoning asosiy qonunidan biridir. Ushbu gapdagi qo’shimchalar sonini aniqlang. ***/// **12 ta**

703. –moq qo‘shimchasiga xos xususiyat qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan? ***/// **–moq so‘z yasovchi va shakl yasovchi shakldosh (omonim) qo‘shimcha hisoblanadi.**

704. -moq shakldosh (omonim) qo'shimcha sifatida ishlatilgan so'z berilgan javobni toping. ***/// **chaqmoq**

705. Morfelarning joylashuv o’rni buzilgan so’z qaysi gapda mavjud? ***/// **Onam mehribon-u jafokash edi.**

706. Morfologiya bo‘limi so‘zning qaysi jihatlarini o‘rganadi? ***/// **so‘zning grammatik ma’nosini, bu ma’nolarni ifodalovchi vositalarni**

707. Morfologiyada so'zning qaysi ma’nosi o'rganiladi? ***/// **grammatik ma’nosi**

708. Murakkab qo‘shimchalar berilgan qatorni toping. 1) temirchilik; 2) kosibchilik; 3) so‘zlash; 4) o‘zlash; 5) terlama; 6) bir yoqlama; ***/// **2,4,6**

709. Mustaqillik bayramining quvnoqlik, shod-u xurramlik ila nishonlanishida shu yosh avlodning munosib hissasi bor. Ushbu o’rinda nechta so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan**?** ***/// **5 ta**

710. Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan “Guliston” nomli kitob yozishim mumkin. (Sa’diy) Ushbu gapda nechta yasama so’z ishtirok etgan? ***/// **3 ta**

711. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham qo‘shiqlar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagi qushlar — birortasi uni qiziqtirmadi. Ushbu gapda nechta yasama so‘z bor? ***/// **4 ta**

712. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so’rang buni, Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. (Sirojiddin Sayyid) Ushbu she’riy parchada shakldoshlik qaysi birliklar o’rtasida yuz bergan? ***/// bog’lama va nisbat qo’shimchasi

713. Namgarchiliklarda so‘zi nechta ma’noli qismga ajraladi? ***/// **4**

714. Narsa oti yasovchi va sifat yasovchi qo'shimchalar shakldoshligini qaysi javobda kuzatish mumkin? ***/// **chizg’ich - yulg‘ich**

715. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo‘shma so‘zlar haqidagi qaysi hukm xato? 1) qo‘shma ot hisoblanadi; 2) qo‘shib yoziladi; 3) qo‘shma sifat hisoblanadi; 4) ajratib yoziladi; 5) ot bo‘lsa qo‘shib, sifat bo‘lsa ajratib yoziladi ***/// **4, 5**

716. Narsani boshqa narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qanday yoziladi? ***/// **qo'shib yoziladi**

717. Nega menim qulog‘imda tun va kun Boyqushlarning shumli tovushi baqirar? Parchada kompozitsion usul bilan yasalgan so‘z haqida berilgan hukmlarning qaysi biri noto‘g‘ri?

***/// **kompozitsion usul bilan yasalgan so'zning tarkibi “ot+ot” ko'rinishida**

718. Negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan e’tibor susaydi. Ushbu gap tarkibidagi so'zlarda qanday fuziya ko'rinishlari kuzatiladi? ***/// **tovush tushishi va almashishi**

719. Nodonning o'zi ham so'zi qo'lansa. Ushbu she’riy misralardagi yasama so'zlar sonini toping ***/// **2 ta**

720. Noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o‘ralgan kishi his etish, jamiki narsadan lazzatlanish, bahramand bo’lish qobiliyatini yo‘qotadi. Ushbu gapda nechta yasama fe’l ishtirok etgan? ***/// **4**

721. Noto‘g‘ri hukmni belgilang. ***/// **Ma’lum ma’no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi leksema sanaladi.**

722. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zni ko'rsating ***/// **dar-badar**

723. Noto‘g‘ri yozilgan so'z qaysi qatorda berilgan? ***/// **netron**

724. Noto’g’ri hukmni aniqlang. ***/// **Asos tarkibida unli tovush tushishi egalik qo’shimchalari qo’shilgandagina kuzatiladi.**

725. Noto'g'ri hukmni belgilang. ***/// **So'zning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanmaydi.**

726. O’z fikrini o’ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi. Ushbu gapda nechta so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan? ***/// **4**

727. O’z tarixini bilmasdan o‘zlikni anglash mumkin emas. Ushbu gapdagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar sonini aniqlang. ***/// **2**

728. O’zakka soz yasovchi qo’shimcha qo’shilishi bilan tovush tushish hodisasi yuz bergan so’zlar qatorini belgilang. ***/// **ulg’ay, o’yna, susay**

729. O’zaro sinonim qo‘shimchalardan iborat bo‘lgan qatorni aniqlang. ***/// **-ser, -ba, -li, dor**

730. O’zingni yig‘ishtir, ularni noumid qilma, shu ikki buyuk zot uchun baxtli yashab bergin, o‘g‘lonim! Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. ***/// **3**

731. Og‘ushimda zangori sezgi,
Kiprigimda suyuq
hayajon, Ko‘zlarimda
yumaloq sevgi,
Salomatman men ham,
onajon.
Ushbu parchada nechta yasama so‘z mavjud? ***/// **4ta**

732. Oktava – bu ishonch, sobitlik, qat’iylik, kuch-qudrat bilan nazokat, mehr-muhabbat, parvoz va quvonch tuyg'usining uyg'unligidir. Ushbu gapda yasama so'zlar qaysi so'z turkumlaridan yasalgan? ***/// **fel, sifat**

733. Oktava – bu ishonch, sobitlik, qat’iylik, kuch-qudrat bilan nazokat, mehr-muhabbat, parvoz va quvonch tuyg'usining uyg'unligidir. Ushbu gapda qo'llangan so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang. ***/// **6**

734. Oktava – bu ishonch, sobitlik, qat’iylik, kuch-qudrat bilan nazokat, mehr-muhabbat, parvoz va quvonch tuyg'usining uyg'unligidir. Ushbu gapda nechta yasama so'z qo'llangan**.** ***/// **6**

735. Olimlar haddan ziyod saodatga intilish saodatni qo‘lga kiritishga to‘sqinlik qilishligini aytganlar. Ushbu gapda nechta so’z yasovchi qo’shimcha mavjud? ***/// **3 ta**

736. Ona – u, bag‘rida millat beshigi,
Qalbida yopilmas qadr eshigi,
Allasi oromdir – hayot qo‘shig‘i,
Ayol omon bo‘lsa, dunyo go‘zaldir. (Mahmud Toir) Ushbu she’riy parchada fonetik hodisaga uchragan so‘zlar soni nechta? ***/// **4 ta**

737. O'rinsiz uyalib, maqsadni ro'yobga chiqara olmaslik – noshudlikdir. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. ***/// **2ta: -siz, -lik**

738. Oshpichoq, qiymataxta, ko'zoynak kabi yasama so'zlarning qo'shib yozilishi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan? ***/// **nimaga mo'ljallanganligini bildirgani sababli**

739. Osmonning bir burchida oq bulut parchalari ko‘rinadi. Gapda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar soni nechta? ***/// **6 ta**

740. Ot va sifat yasovchi shakldosh qo‘shimchali so'zlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **ovunchoq-maqtanchoq**

741. Ot va sifat yasovchi sifatida shakldoshlik hosil qiladigan qo'shimchalarni aniqlang. 1) -oq; 2) -ki; 3) -ik; 4) -lik; 5) -siz; 6) -xon; 7)-qin ***/// **1, 2, 3, 4, 7**

742. Otdan fe’l yasovchi va fe’ldan sifat yasovchi qo'shimcha qo‘shilishi natijasida tovush tarkibida 2 ta fonetik hodisa bo‘lgan so‘zlarni toping 1) qiynoq; 2) yig’loqi; 3) o’ynoqi; 4) sayroqi ***/// **2,3**

743. Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan, ko‘pchilik nomdor insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg'uborlik bilan opaning gaplarini tasdiqladi.Ushbu berilgan gapda nechta yasama so‘z bor. ***/// **7 ta**

744. O'z gunohingni so'rab eldin o’tin(l),
Nafrat o’ti(2) ichra bo'lmasdin o’tin(3). Ushbu parchadagi asosdosh so'zlarni belgilang. ***/// **asosdosh so'zlar ishtirok etmagan**

745. Qadriyat atamasi keng bo‘lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu gapda nechta sodda yasama so‘z bor? ***/// **4 ta**

746. Qadriyat atamasi keng bo’lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu gapda nechta sodda yasama so'z bor? ***/// **4 ta**

747. Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoly va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu gapdagi yasama so'zlar qaysi turkumga mansubligi qaysi javobda to’liq ko’rsatilgan? ***/// **ot, sifat, fe’l**

748. Qarigan chog’ingda halovat istasang, yoshlikda ilm olish payida bo‘l. Berilgan gapda munosabat shakllari tarkibidagi undoshlar haqida

bildirilgan qaysi hukmlar to'g'ri? 1) barchasi portlovchi; 2) barchasi hosil bo'lish o'rniga ko‘ra bir guruhda; 3) barchasi jarangli;

4) barchasi tarkibiga ko‘ra sof ***/// **2, 4**

749. qatorda yasama so'z berilgan? ***/// **iliq**

750. Qaysi birikmalar tarkibida -li va -lik qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan? ***/// **O'zbekistonlik sportchilar, yog'li palov**

751. Qaysi gap tarkibida ikkita yasama so‘z mavjud? ***/// **Inson o‘z umrini hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi.**

752. Qaysi gap tarkibida sintaktik shakl yasovchi shakldosh qo‘shimchalar ishtirok etgan? ***/// **Gul emas, taqsam chakkamda**

753. Qaysi gapda affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar bor? ***/// **Muhtaram ustoz menga: "O'z xalqingning tarixiy o'tmishiga nazar sol!" - dedilar.** 754. Qaysi gapda birgina portlovchi tovushdan iborat so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

***/// **Murodga yetmog'ing uchun, avvalo, tilak xolis bo‘lsin.**

755. Qaysi gapda birgina sonor tovush so‘z yasovchi qo‘shimcha vazifasini bajargan**?** ***/// **Tashvishlar inson umrini yanada qisqartirishi bor gap, do‘stim.**

756. Qaysi gapda faqat so’z yasovchi morfema qatnashgan? ***/// **Ekin ek, bog‘ yarat.**

757. Qaysi gapda fe’l yasovchi va sifat yasovchi qo'shimcha ta’sirida ham asos, ham qo‘shimcha qismining tovush tarkibida o‘zgarish ro‘y bergan so'z ishtirok etgan? ***/// **Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi.**

758. Qaysi gapda fonetik o‘zgarish lug'aviy shakl yasovchi ta'sirida paydo bo'lgan so‘z qatnashgan? ***/// **Sevganidan ayrilgan bag‘ri pora oshiqman.**

759. Qaysi gapda fonetik o’zgarish sintaktik shakl yasovchi ta’sirida paydo bo’lgan so’z qatnashmagan? ***/// **Sevganidan ayrilgan qalbi pora oshiqman.**

760. Qaysi gapda ham tub, ham yasama sifatlar qatnashgan? ***/// **Soydan sovuq, shishadek tiniq, zilol suv shovullab oqardi.**

761. Qaysi gapda ikkita affiksatsiya, bitta kompozitsiya usulida yasalgan fe’l bor? ***/// **Chin do’st uldirkim do’stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.**

762. Qaysi gapda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha bilan omonim bo‘la oladigan so‘z yasovchi qo‘shimcha bor? ***/// **Chaqin bo‘lma, bo‘lma guldurak.**

763. Qaysi gapda lug'aviy shakl yasovchi qo‘shimcha bilan shakldoshlik hosil qiladigan so‘z yasovchi qo'shimcha qatnashgan? ***/// **Yigit haftalab uyiga kelmas edi.**

764. Qaysi gapda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ta’sirida asos fonetik o'zgarishga uchraydi? ***/// **Endi qayrilish bilmasin bu qanot.**

765. Qaysi gapda qo‘llangan sifat yasovchi qo'shimcha ham ot yasovchi, ham ravish yasovchi, ham fe’lning nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha

bilan shakldosh bo'la oladi? ***/// **Shahzoda qizni o'z huzuriga yashirin yo’llar orqali olib kelishlarini buyurdi.**

766. Qaysi gapda sifat va ot yasovchi bitta omonim qo‘shimcha qatnashgan? ***/// **Jo'shqin xotiralar xayolimni olib ketdi.**
767. Qaysi gapda sifat va ot yasovchi omonim qo‘shimcha qatnashmagan? ***/// **Hasharga yig'ilganlar erkakcha ishladi.**
768. Qaysi gapda sifat va ot yasovchi uchta omonim qo‘shimcha qatnashgan? ***/// **Bilimdon va tadbirkor, raqobatbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi hisoblanadi.**
769. Qaysi gapda sifat va ravish yasovchi hamda lug‘aviy shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonim bo‘la oladigan ot yasovchi qo'shimcha qatnashgan so'z bor? ***/// **Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.**
770. Qaysi gapda tarkibidagi barcha qo’shimcha shakdoshlik xususiyatiga ega bo’lgan soz’ mavjud? ***/// **Semizlikni qo‘y ko'tarar deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi.**
771. Qaysi gapda uchta shakldosh qo’shimchasi bor so‘z qatnashgan? ***/// **Bu uchrashuv**

**“Qizingiz yozdi'' she'riy to'plami bosilguncha bo’lib o‘tgan edi.**

772. Qaysi gapda uchta yasama so’z va ikkita so’z yasovchi qo’shimcha bor? ***/// **Oqsoqol kirib, yig'in boshlanganini e’lon qildi.**
773. Qaysi gapda yasama so’z yo’q**?** ***/// **Chashmalar, buloqlar, maftunman sizga.**
774. Qaysi gapdagi barcha so‘z yasovchi qo’shimchalarni ma’nodoshiga almashtirsa bo’ladi? ***/// **Muqanna mardona kurashib, tiriklay o’tga kirdi.**
775. Qaysi gapdagi fonetik hodisa faqat yasama so‘zda yuzaga kelgan? ***/// **Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang.**
776. Qaysi gapdagi ot yasovchi qo'shimcha sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'ladi? ***/// **Hunar ado bo'lmas boylikdir.**
777. Qaysi gapdagi qo‘shimcha to’rtta o’rinda omonim bo’la oladi? ***/// **Ekin ek, bog‘ yarat.**
778. Qaysi gapdagi so’zlarda fonetik o’zgarish faqat so’z yasovchilar ta’sirida paydo bo’lgan?

***/// **So’nggi paytlarda juda injiq, yig’loqi bo’lib qolganlar.**

779. Qaysi gapdagi yasama so‘zda yuqori tor unli sintaktik shakl yasovchi vazifasini bajargan? ***/// **Kissasida yarimta o’chirg'ichi bilan kecha ochgan qalami bor ekan**
780. Qaysi gaplarda 3 ta yasama so’z ishtirok etgan? 1. To’g’ri so’z qilichdan o’tkir, shuning uchun hamisha rost so’zlashga odatlan. 2. Kamtar bo’l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi. 3. O‘z fikrini o’ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi. ***/// **1, 2, 3**
781. Qaysi ibora tarkibida fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan ikkita so’z mavjud? ***/// **og'zi qulog’iga yetmoq**

782. Qaysi javobda -choq qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan? ***/// **ovunchoq, o'yinchoq**
783. Qaysi javobda ham sifat, ham ravish yasovchi shakldosh qo’shimchalar berilgan? ***/// **-siz, be-**
784. Qaysi javobda ikki xil munosabat shakli vazifasini bajaradigan omonim qo‘shimchali so‘zlar berilgan? ***/// **otam, ukang**
785. Qaysi javobda ikkita so'z yasovchi qo'shimchali so'z berilgan? ***/// **bog'lam**
786. Qaysi javobda jarangsiz tovush bilan boshlanuvchi ham lug‘aviy shakl yasovchi, ham so’z yasovchi qo’shimchalar berilgan? ***/// **-cha, -choq, -chak**
787. Qaysi javobda morfemik tahlil to‘g‘ri berilgan? ***/// **sir- li- lik- cha**
788. Qaysi javobda ot, sifat, fe’l so‘z turkumi vazifasida qo'llanishi mumkin bo‘lgan shakldosh so‘z berilgan? ***/// **terma**
789. Qaysi javobda qo'shma so'zlar berilgan? ***/// **erksevar, asalari, xushfe’l, olib kelmoq**
790. Qaysi javobda so‘z yasovchi qo‘shimcha bilan sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha orasidagi shakldoshlik kuzatiladi? ***/// **qo‘nim, qo‘lim**
791. Qaysi javobda so’z ma’noli qismlarining umumiy tartibi buzilgan**?** ***/// **ko’kishroq** 792. Qaysi javobda so'z yasovchi qo'shimchalar berilgan? ***/// **-dor,-be-,-zor,-cha,-xo‘r** 793. Qaysi javobda talaffuzi va imlosi farqlanadigan so'z yasovchi qo'shimchalar berilgan? ***/// **-boz, -bon**
794. Qaysi javobda tarkibida birgina qo'shimcha mavjud bo'lgan so'z berilgan? ***/// **taroq**
795. Qaysi javobdagi barcha so'zlarga egalik qo’shimchasi qo'shilsa, fleksiya hodisasi tufayli o’zgaruvchi til orqa tovushi o’zgaradi? ***/// **eshik, teshik**
796. Qaysi juftlikda so'zlar xato yozilgan? ***/// **nasha, nash’a**
797. Qaysi maqolda asos+so'z yasovchi qo'shimcha+shakl yasovchi qo'shimcha qolipidagi so'z ishtirok etgan? ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**
798. Qaysi maqolda bir xil so’z turkumidan yasalgan ikki xil so’z turkumiga oid so’z mavjud? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
799. Qaysi maqolda ikkita o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**
800. Qaysi maqolda otning sintaktik shakl yasovchi qo’shimchasi bilan shakldoshlik qiluvchi so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
801. Qaysi maqolda yangi ma’no beruvchi morfemadan keyin qo’shimcha ma’no beruvchi morfema qo’shilgan? ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**
802. Qaysi maqoldagi so’zda ko’makchi morfema o’z o’rniga nisbatan oldinga o’tgan**?** ***/// **Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma**

803. Qaysi qatorda asos+so'z yasovchi+so'z yasovchi qolipida yasalgan so'zlar berilgan? ***/// **bo'yoqchi, tilakdosh, epchillik**
804. Qaysi qatorda juft so'zlar berilgan? ***/// **savol/javob, do‘st-u/dushman, keldi/ketdi**
805. Qaysi qatorda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladigan ot yasovchi qo'shimchalar berilgan? ***/// **-xon, -ma, -in**
806. Qaysi qatorda mustaqil so‘z turkumlarining barchasiga mansub so‘zlar berilgan? ***/// **changimoq, jizza, yorug‘, ikki, birdan, men**
807. Qaysi qatorda ot va sifat yasovchi omonim qo'shimchalar berilgan? ***/// **-oq, -ik, -ki, in**
808. Qaysi qatorda quyidagi gapda qo‘llangan ko‘makchi morfemalar haqida noto’g‘ri hukm berilgan? Dadam kunduzi g’ozani chopiq qilib juda charchadi. ***/// **to'rtta ko'makchi morfema sintaktik munosabat ifodalaydi**
809. Qaysi qatorda ravish yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi omonim qo'shimchalar berilgan? ***/// **-lab, -cha, -in**
810. Qaysi qatorda sifat va ravish yasovchi omonim qo'shimcha(lar) berilgan? ***/// **-siz, -in**
811. Qaysi qatorda sodda yasama so‘z berilgan? ***/// **yashang**
812. Qaysi qatorda so'z asosida fuziya hodisasi ro‘y bergan? ***/// **Hatto eng baland tog‘ ham quyoshni to‘solmas.**
813. Qaysi qatorda so'z yasovchi qo'shimcha sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qilgan so'zlar berilgan? ***/// **to'plam, bordim**
814. Qaysi qatorda so'z yasovchi va shakl yasovchi omonim qo'shimchalar berilgan? ***/// **-i, -m, -k, -lab, -xon**
815. Qaysi qatorda tub so‘z berilgan? ***/// **kambag‘al**
816. Qaysi qatorda tub so‘z berilgan? ***/// **so‘lak**
817. Qaysi qatorda tub so'z berilmagan? ***/// **yamoq**
818. Qaysi qatorda tub so'zlar berilgan? ***/// **kunduzi, suyuq**
819. Qaysi qatorda yasama so’z berilgan? ***/// **oqim (ot)**
820. Qaysi qatordagi gapda kesim tarkibi asos+so‘z yasovchi+lug'aviy shakl yasovchi+sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalardan tashkil topgan? ***/// **Seni hur va ozod kuylaymen.**
821. Qaysi qatordagi gapda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ishtirok etmagan? ***/// **U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botirdir.**
822. Qaysi qatordagi so‘zlar o‘zbek tilining yangi imlo qoidalariga asosan to‘g‘ri yozilgan? ***/// **suvilon, Uchqo‘rg‘on, orzum**
823. Qaysi qatordagi so‘zlarda shakldosh qo‘shimchalar qo'llangan? ***/// **tonnalabminglab**

824. Qaysi qatordagi so‘zlarda tovush almashishi sodir bo'lgan? ***/// **so'rog'i, keragi, tilagi** 825. Qaysi qatordagi so'zda chiziqcha noto'g'ri qo'llangan? ***/// **toshdan-toshga**
826. Qaysi qatordagi so'zda ma’noli qismlarining umumiy tartibi buzilgan hol kuzatiladi? ***/// **eslaganlik**
827. Qaysi qatordagi so'zda tor unli yasovchi qo'shimcha bo'lib kelgan? ***/// **boyimoq**
828. Qaysi qatordagi so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan? ***/// **tussiz, avtomat, supurgi**
829. Qaysi qatordagi so'zlar imloviy jihatdan xato yozilgan? ***/// **radio to’lqin, yildanyilga**
830. Qaysi qatordagi so'zlar tarkibida 2 ta ko'makchi morfema bor? ***/// **yig'loq, qayrilish**
831. Qaysi qatordagi so'zlarda qo'shimcha qo'shilganda so'zning asosida tovush almashishi yuz bergan? ***/// **tirgagi, atoqli, kiprigim**
832. Qaysi qatordagi so'zlarda so'z yasovchi shakldosh qo'shimchalar qatnashmagan? ***/// **chaqin-tiqin**
833. Qaysi qatordagi so'zlardan -q qo'shimchasi bilan so'z yasalganda, o'zakda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi**?** ***/// **sana**
834. Qaysi so‘z –oq qo‘shimchasi bilan yasalgan? ***/// **qoloq**
835. Qaysi so‘z tarkibida fe’l yasovchi va ot yasovchi qo‘shimchalar ta’sirida ikkita fonetik hodisa kuzatilgan? ***/// qiynoq
836. Qaysi so‘z tarkibida ikkita so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud**?** ***/// **qaltiroq**
837. Qaysi so‘z(lar) tarkibida birgina jarangsiz tovushdan iborat qo'shimcha mavjud? 1) ozaymoq; 2) qizarmoq; 3) dumaloq; 4) yig‘loqi; 5) gapirmoq ***/// **faqat 3**
838. Qaysi so‘zda morfemalar soni boshqalariga nisbatan ko‘p? ***/// **notinch**
839. Qaysi so‘zdagi yasovchi qo‘shimcha ko’makchilar bilan sinonim bo‘la oladi? ***/// **yovuzlarcha**
840. Qaysi so‘zlarda so‘z yasalish jarayonida tovush ikkilanishi yuz bergan?1) qo‘llar; 2) achchiq; 3) issiq; 4) yellar; 5) sassiq. ***/// **2, 3, 5**
841. Qaysi so‘zlarga ikkitadan shakldosh qo‘shimcha qo‘shilgan? 1) yashang; 2) bilimli; 3) o‘zbekchilik; 4) to‘plam; 5) kiyinmoq; 6) tinchi; 7) qo’lyozma ***/// **1, 4, 5, 6**
842. Qaysi so’z uchta morfemaga ajraladi? ***/// **ko’zlar (fe’l)**
843. Qaysi so’z(lar) asosiga ikkita omonimlik xususiyatiga ega bo’lgan qo’shimcha ketma-ket qo’shilgan? 1) o’ynoqi; 2) qiynoq; 3) chidamli; 4) bilimdon; 5) tinchlik**.** ***/// **1,2,4,5**
844. Qaysi so'z ma’noli qismlarga ajralmaydi? ***/// **bemor**
845. Qaysi so'zda 4 ta ko'makchi morfema bor? ***/// **muzlatgichni**

846. Qaysi so'zlar chiziqcha bilan yoziladi? 1) yangidan yangi; 2) dum dumaloq; 3) dam
badam; 4) ochiqdan ochiq. ***/// **2, 3**

847. Qaysi so'zlar imlo jihatidan xato yozilgan? 1) avf; 2) tadbiq; 3) taqazo; 4) talofat; 5) muvaffaqiyat; 6) tamosha ***/// **1, 2, 3, 4, 6**

848. Qaysi so'zlarda -be, -siz qo'shimchalarini ma’nodosh sifatida qo'llab bo'lmaydi? ***/// **chora, bosh**

849. Qaysi yasama so‘zlarda morfemalarning agglutinativ tabiati buzilganini kuzatish mumkin?
1) yasha; 2) o‘ymakor; 3) parvoyim; 4) o’rnat; 5) yuragi; 6) quvnoq; 7) baodob ***/// **1, 4, 6, 7**

850. Qaysi yasama so'z tarkibida sirg'aluvchi tovush mavjud? ***/// **sarg'aymoq**

851. Qaysi yasama so'z tarkibidagi birinchi qo'shimcha sintaktik shakl yasovchi bilan, ikkinchi qo'shimcha ot yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi? ***/// **bilimdon**

852. Qaysi yasama so'zda lab undoshi ishtirok etgan? ***/// **tanlov**

853. Qismalari bir xil so’z turkumiga mansub bo’lgan kompozitsiya usulida yasalgan qo’shma otlarni belgilang. 1) oqqush; 2) toshbaqa; 3) kinoyulduz; 4) oshpichoq; 5) bodomnqovoq; 6) sheryurak ***/// **2,3,4,5,6**

854. Qizdirsang ishlar, Kiyim tekislar. (Dazmol) Ushbu topishmoqdagi yasama so‘zlar qaysi so‘z turkumlaridan hosil bo‘lgan? ***/// **ot, fe’l, sifat**

855. Qizdirsang ishlar,
Kiyim tekislar. (Dazmol) Ushbu topishmoqdagi yasama so'zlar haqidagi noto'g'ri hukmni belgilang. ***/// **sifatdan ot yasalgan ,**

856. Qizlar nimani o'ylaydilar va nima to‘g‘risida ma’yuslanadilar, bu esa qizlarning bizga noma’lum bo'lgan ichki sirlaridir. (A.Qodiriy) Gapda faqat sonorlardan iborat yasama so'zlar soni nechta? ***/// **1 ta**

857. Qo’shimcha qo’shilishi bilan tovush almashinishi yuz beradigan so’zlar qatorini toping**.** ***/// **o’rdak, qishloq, qoshiq**

858. Qo’shimcha qo’shilishi natijasida tovush tushishi yuz berib, ochiq bo’g’inlarning yopiq bo’g’inga aylanishi qaysi qatordagi so’zlarda kuzatiladi? ***/// **sariq, singil, dengiz, ko’zlar**

859. Quyida berilgan gapda qanday qo‘shimcha yo‘q? Yaxshilik insonning umrini ziyoda qiladi. ***/// **lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha**

860. Quyida berilgan gapdagi bir tovushdan iborat qo’shimchalar sonini ko‘rsating. Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan ko’chalar, olisda sadafdek chaqnab turgan cho’qqilar ko‘ngliga taskin berar-ku! ***/// **5 ta**

861. Quyida berilgan gapdagi nechta so‘zda bir tovushdan iborat qo‘shimchalar shakldoshlik xususiyatiga ega? Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan ko'chalar ko'ngliga taskin berar-ku! ***/// **3 ta**

862. Quyida berilgan gapdagi so'zlarda so’z yasovchi qo‘shimchalar soni nechta? ... Sharq olamida, jumladan, o‘zimizning O‘rta Osiyo sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg'usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo‘llabquvvatlab hayot kechirishga zamin tug‘diradi. ***/// **5**

863. Quyida berilgan gapdagi yasama so'zlarni toping. Cholning qo‘lidagi miltiqning uchi unga to‘g‘rilangan, cholning ikki ko‘zidan o‘t chaqnardi. ***/// **qo'lidagi, to’g’rilangan**

864. Quyida berilgan qaysi gapda bir tovushdan iborat til oldi, jarangli tovush so’z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib kelgan? ***/// **Kunlar qisqarib, havo soviy boshladi.**

865. Quyida berilgan qo'shimchalardan qaysilari uch o'rinda shakldoshlik qila oladi? ***/// **dir, -ar**

866. Quyida berilgan so‘zlarning qaysilarida -li, -kor qo‘shimchalarini sinonim sifatida qo‘llash mumkin? 1) go'sht; 2) gunoh; 3) yurak; 4) kuch; 5) jafo. ***/// **2, 5**

867. Quyidagi gap haqidagi to‘g‘ri hukmlarni belgilang. O‘z fikrini o‘ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi. 1) so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida yasalgan 3 ta yasama so‘z mavjud; 2) so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirokida yasalgan 4 ta yasama so’z mavjud; 3) otdan yasalgan 2 ta yasama fe’l ishtirok etgan; 4) otdan yasalgan 1 ta yasama fe’l ishtirok etgan; 5) tarkibi asos + so'z yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha tuzilishidagi 1 ta so'z mavjud; 6) tarkibi asos+ so'z yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha tuzilishidagi 2 ta so‘z mavjud ***/// **1, 3, 5**

868. Quyidagi gapda nechta o‘rinda sodda yasama so‘z mavjud? Mard bo’lgan kishida qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof; mard bo’lmagan kishilarda yolg‘izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin**.** ***/// **7 ta**

869. Quyidagi gapda nechta so‘z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? O’zbekning mungli ko‘zlariga shodlik, qadoq qo‘llariga qut-baraka, bezovta qalbiga orom, osmoniga tinchlik ulashgan shu so‘zlar, eng avvalo, Istiqlol emasmi? ***/// 4

870. Quyidagi gapda sodda yasama so'zlar soni nechta? Gulnorning yuragi kuchli to'lqinlandi, butun gavdasini totli bir titroq bosdi**.** ***/// **4**

871. Quyidagi gapda sodda yasama so'zlarning qaysi so’z turkumlaridan yasalish holatiga ko'ra, ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan javobni toping Barchamizga ma’lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bhilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib ulg'aya boradi. 1) ot; 2) sifat; 3) fe’l; 4) olmosh ***/// **4, 1 3, 2**

872. Quyidagi gapda so'zga qaysi qo‘shimcha(lar) qo‘shilishi natijasida tovush almashinishi yuz bergan? So‘zning yumshog’i g‘azabni so‘ndiradi, so’zning qattig‘i esa odamni o‘ldiradi. 1) so‘z yasovchi qo'shimcha; 2)

lug‘aviy shakl vasovchi qo'shimcha; 3) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha ***/// **1,3**

873. Quyidagi gaplarning qaysi birida jarangli undoshlardan tashkil topgan yopiq bo’g’indan iborat so’z yasovchi qo’shimcha mavjud? ***/// **bog’ jamoli bog’bondan**

874. Quyidagi qaysi juftlikdagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘rtasida shakldoshlikni kuzatish mumkin? ***/// **yulg‘ich-so‘rg‘ich**

875. Quyidagi qaysi maqolda antonim qo’shimchalar ishtirok etgan? ***/// **Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor.** 876. Quyidagi qaysi qo’shimchalar qo’shilganda so’z imlosida fonetik o’zgarish bo’ladi? 1) fel’yasovchi; 2) sifat yasovchi; 3) birgalik nisbat shakli; 4) bo’lishsizlik shakli; 5) chama son shakli ***/// **1,2,4**

877. Quyidagi qaysi qo’shimchalar qo’shilganda so’zda fonetik o’zgarish yuz beradi?1) shaxs oti yasovchi qoshimcha; 2) narsa oti yasovchi qoshimcha; 3) o’rin-joy oti yasovchi qoshimcha; 4) ot tarkibidagi turlovchi qo’shimchalar ***/// **1,2,4**

878. Quyidagi qaysi qo’shimchalar qo’shilganda soz’ asosida tovush tushishi kuzatiladi? 1) -q; 2) -ay; 3) - a; 4) - im; 5) -t; 6) –il ***/// **2,3,4,6**

879. Quyidagi qaysi qo'shimchalar ayir so'ziga qo'shilsa tovush tushishi vujudga keladi? 1) -ish; 2) -il; 3) -ma; 4) -i; 5) –im ***/// **2,4,5**

880. Quyidagi qaysi yasama so‘zlarda tovush ortishi hodisasi kuzatiladi? ***/// **issiq, sassiq, achchiq**

881. Quyidagi qaysi yasama so'zda lab undoshlari ishtirok etgan? ***/// **bilimdon**

882. Quyidagi so‘zlarning qaysi biri tub va yasama so’zlardan tashkil topgan? ***/// **lang ochiq**

883. Quyidagi so'zlardan qaysilari fe’ldan hosil qilingan yasama so'zlar hisoblanadi? 1) tiqin; 2) yig'in; 3) yashirin; 4) erkin; 5) ko'rin ***/// **1, 2, 3**

884. Raqamli rebusni to'liq yeching va javoblardagi oltita so'zdan tarkib topuvchi maqolni aniqlab bizga qo‘ng‘iroq qiling. Berilgan gapdagi yasama so'zlar va yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang. ***/// **yasama so'z 5 ta, yasovchi qo'shimcha 3 ta**

885. Saidiy talabalik vaqtida ko‘p she’rlar yozgan, bularning ko‘pchiligi devoriy gazetalarda bosilgan. Ushbu gapdagi yasama so’zlar miqdorini aniqlang**.** ***/// **3 ta**

886. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko’p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo’lgan ne’mat - Tinchlik bayrog’i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog’iga talpinyapmiz. Ushbu gapdagi yasama so’zlar yuzasidan bildirilgan noto’g’ri hukmni belgilang. ***/// **sifatdan fe’l yasalgan**

887. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko’p, ammo ulni orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo’lgan ne’mat, - tinchlik bayrog‘i bilan yangi asrning, issiq, nurli quchog‘iga talpinamiz. Ushbu gapda nechta so‘z so‘z

yasovchi qo’shimcha qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan? ***/// **2 ta**

888. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Ushbu gapda qo'llanilgan so'z yasovchi morfema tarkibidagi jarangli sirg'aluvchi tovushni aniqlang. ***/// **v**

889. Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan xalos bo'lding. Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang. ***/// **5**

890. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas,
Seni xato baholagan - kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo‘lmay qolmas. Ushbu she’riy parchaning nechanchi misrasida ikkita so‘z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? ***/// **3**

891. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas,
Seni xato baholagan - kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo‘lmay qolmas.Ushbu she’riy parchaning nechanchi misrasida ikkita so’z yasovchi qo‘shimcha ishtirok etgan? ***/// **3**

892. Sening tug'ilib o‘sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim. Berilgan gapdagi tovush tushish hodisasi to‘g‘ri izohlangan javobni toping. ***/// **1 o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida, 1 o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida**

893. Serdavlat, mansabdor, hurmatli bo‘lgan onlarda sadoqatli qadrdonlarni yodga oling, ularni noumid qilmang. Ushbu gapdagi ko’makchi morfemalardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega? ***/// **6**

894. Shakldosh qo‘shimchalar berilgan qatorni ko‘rsating. ***/// **-a, -gi, -ki, -don**

895. Shakldosh qo'shimchalar qatnashgan so'zlar qatorini toping. ***/// **kiyinmoq-ekinlar**

896. Shaxs-son qo‘shimchalari bilan shakdoshlik qiluvchi egalik qo‘shimchalarini toping. 1) m; 2) -im; 3)-imiz, 4) -man; 5) -ng; 6) –ngiz ***/// **1, 5, 6**

897. Shaxs-son qo’shimchalari bilan shakldoshlik qila olmaydigan egalik qo'shimchalarini toping. l)-m; 2) -im; 3) -imiz; 4) -man; 5) -ng; 6) –ngiz ***/// **2, 3**

898. Shaxs-son qo'shimchalari bilan shakdoshlik qiluvchi egalik qo'shimchalarini toping. 1) -m; 2) -im; 3) -imiz; 4) -man; 5) -ng; 6) –ngiz ***/// **1, 5, 6**

899. Shaxs-son qo'shimchalari bilan shakdoshlik qiluvchi egalik qo'shimchalarini toping. 1) -m; 2) -im; 3) -imiz; 4) -man; 5) -ng; 6) -ngiz ***/// **1, 5, 6**

900. Shiroq shohning ishonchsizlik ko’zi bilan qarayotganini fahmlab, o’z so’zining to’g’riligini isbot qilishga kirishdi. Ostiga chizilgan so’z tarkibida nechta yasovchi qo’shimcha mavjud? ***/// **3 ta**

901. Shovulladi tun bo'yi shamol,

Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada nechta yasama so’z mavjud? ***/// **5** 902. Shu boisdan yutuqlarimizni sen bilan o‘rtoqlashish, dard-hasratimizni senga aytib, ko‘nglimizni bo‘shatish uchun doim bag‘ringga oshiqamiz. Ushbu gapda ishtirok etgan so'z yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang. ***/// **-uq, -lash, -a**

903. Sifat oldidan kelib belgining ortiq yo kamligini bildiradigan so‘zlarning qaysilari qo‘shib, qaysilari ajratib yoziladi? 1) eng 2) g‘oyat 3) tim 4) juda 5) sal 6) och. ***/// **hammasi ajratib yoziladi**

904. Siz borliqning mo‘jizakor qudratini, shiddatkor sevgi bo'ronini, bunyodkorlik, ijodkorlik girdobini, intiqlik bilan kutganingiz: poklanishni, bardamlik, yangilanish, yengillik, saxiylik va mehrni o‘zingizga singdirasiz. Ushbu gapda nechta yasama so'z qo'llangan? ***/// **12**

905. Siz borliqning mo‘jizakor qudratini, shiddatkor sevgi bo'ronini, bunyodkorlik, ijodkorlik girdobini, intiqlik bilan kutganingiz: poklanishni, bardamlik, yangilanish, yengillik, saxiylik va mehrni o‘zingizga singdirasiz. Ushbu gapda qo'llangan so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang? ***/// **14**

906. So‘zga qo'shilib yangi lug‘aviy ma’no hosil qiluvchi qo'shimchalar qaysi qatorda ko’rsatilgan? ***/// **old qo’shimchalar**

907. So’z va leksema haqida bildirilgan qaysi fikr to’g’ri? ***/// **so’z morfologiya birligi, leksema leksikologiya birligi**

908. Sovuqni sovuq saqlar, Issiqni issiq. (Termos) Ushbu topishmoqda nechta yasama so'z mavjud? ***/// **4**

909. So'z yasalish jarayonida so'z yasash asosiga qaysi yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda asos qismning tovush tarkibida o'zgarish ro'y beradi? ***/// **-a, -q, -qi, -ar, -ay, -la**

910. So'zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar ... ***/// **orfoepiya qoidalari deyiladi**

911. So'zning lug'aviy ma’nosiga ta’sir etmaydigan qo'shimcha qatnashgan so'zlar qatorini toping. ***/// **qalamim, onamiz, hovlida, o'qiding**

912. Suvoqchilarni so'zida nechta ko'makchi morfema bor? ***/// **4 ta**

913. Taraqqiy topgan ma’rifatli dunyo bilan birga yashashimiz, hamkorlikni kuchaytirishimiz, hamdo’stlik rishtalarini mustahkamlashimizni hayotning o’zi taqozo etmoqda. Ushbu gapda necha o’rinda yasama so’z ishtirok etgan? ***/// **8**

914. Tarixni o‘rganishdan asosiy maqsad – milliy o‘zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapdagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar sonini aniqlang. ***/// **3**

915. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimcha qo‘shilishi natijasida nechta so‘zda tovush almashishi yuz bergan? ***/// **1**
916. Tarixning barcha bosqichlarida ular dunyoga o‘zining borligini goh mardlik, jasorat bilan, goh tadbir-u oqilalik bilan, goh she’riyat bilan bildirib, tanilib, tan oldirib kelganlar. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar sonini aniqlang. ***/// **5**
917. Tarkibi asos + so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi+sintaktik shakl yasovchi tartibida joylashmagan so‘z berilgan qatorni aniqlang. ***/// **isitkichlarni**
918. Tarkibida birgina qo‘shimcha mavjud bo‘lgan so‘zni toping. ***/// **boradigan**
919. Tarkibida faqat keng unli ishtirok etgan yasama ravishni toping. ***/// **mardlarcha**
920. Tarkibida ikkita sintaktik shakl yasovchisi bor so'zlarni belgilang. 1) yangichasiga; 2) singlisi; 3) birdaniga; 4) borayotir; 5) ketsam; 6) yarmiga ***/// **2, 5, 6**
921. Tarkibida yasama so‘z qo'llangan barcha iboralarni belgilang. 1) arpasini xom o'rmoq; 2) gullab qo‘ydi; 3) tuyog‘ini shiqillatmoq; 4) taqdirga tan bermoq. ***/// 2, 3
922. Tasviriy insholar o’quvchilarning fikrini o‘stiradi, kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Ushbu gapdagi qaysi yasama so‘z fonetik o’zgarishga uchragan? ***/// **fe’ldan yasalgan ot**
923. Tezlataylik so’zida nechta morfema bor? ***/// **4 ta**
924. Tilshunoslikning imlo sohasiga oid atama (termin) lari berilgan qatorni toping. ***/// **fonetik yozuv, qo‘shib yozish, ajratib yozish**
925. Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo‘l ochadi. Ushbu gapda nechta yasama so‘z mavjud? ***/// **4 ta**
926. Tinchlik, barqarorlik bugungi yutuqlarimizning asosi bo‘lmoqda. Ushbu gapda necha o'rinda so‘z yasovchi qo'shimchalai ishtirok etgan? ***/// **5**
927. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping. ***/// **oynayi jahon, tarjimayi hol, nuqtayi nazar**
928. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping. ***/// **farzand, mulohaza, zamon**
929. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping. 1) munojat; 2) mutoala; 3) matbaa; 4) taalluq; 5) murojat; 6) zahira; 7) avf ***/// **3,4**
930. To‘rt o‘rinda omonimlik hosil qila oladigan qo'shimchalar berilgan qatorni toping. ***/// **-a, -in**
931. To’g’ri hukmni aniqlang. 1) ot va sifat yasovchi qo’shimcha -q qo’shilganda asosda tovush almashishi mumkin; 2) ot va sifat yasovchi qo’shimcha -qi qo’shilganda asosda tovush almashishi mumkin; 3) -ay fe’l yasovchi qo’shimcha qo’shilganda asosda bir emas 2 xil fonetik hodisa bo’lishi mumkin; 4) -a fe’l yasovchi qo’shimcha ta’sirida asosda tovush

almashishi yoki tovush tushishi mumkin; 5) -ar fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganda asosda fonetik hodisa kuzatilmaydi ***/// **1, 3, 4**

932. To'rtta yasama so'z ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchi bo'lganday keskin gapirdi.**
933. Tog'lar bag'ridan o'ynab oqib tushayotgan shalola unga zavq berar edi. Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar miqdorini aniqlang. ***/// **3 ta**
934. to'kinchilik yasama otining so'z yasalish tuzilishi to'g'ri berilgan javobni toping. ***/// **to'k-in-chilik**
935. to'quvchilik so'zida nechta ko'makchi morfema bor? ***/// **3 ta**
936. to'quvchilik so'zining yasalish asosini aniqlang. ***/// **to'quvchi**
937. Tub so'z berilgan javobni toping. ***/// **taqamoq**
938. tub so'zni toping. ***/// **bemor**
939. Tunning sokinligini chigirtkalarning chirillashi buzardi. Berilgan gapda yasama so'z nechta? ***/// **2 ta**
940. Tuzilishiga ko'ra sodda so'zlar ... hisoblanadi. ***/// **tub va affiksatsiya usuli bilan yasalgan so'zlar**
941. U o'z fikrlarini jo'shib, to'lqinlanib majlis ahliga bayon qildi.Ushbu berilgan gapda nechta so'z mavjud**?** ***/// **7 ta**
942. U qalbini to'zonday vayronaga aylantirgan g'am to'lqinini butunlay chiqarib tashlash uchun qadrdon cholg'usini qo'liga oldi-yu, uchqun sochayotgan gulxan yoniga bordi. Ushbu gapdagi ism asosli yasama so'zlarning nechtasida omonim qo'shimcha mavjud? ***/// **3**
943. Uchta yasama so'z ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **Ha, bu yurtlar chiroyli, daraxtzor bo'lgani bilan sovuq.**
944. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi. Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan**?** ***/// **4 ta**
945. Unim yo'q, bunim yo'q, Uyimda unim yo'q.

Ishimda unum yo'q,

Aytishga unim yo'q. Ushbu she'riy parchada sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar necha marta qo'llangan? ***/// **9 ta**

946. Unim yo'q, bunim yo'q, Uyimda unim yo'q.

Ishimda unum yo'q,

Aytishga unim yo'q. Ushbu she'riy parchada nechta yasama so'z qatnashgan? ***/// **1 ta**

947. Unli tovushlardan qaysi biri so'zga qo'shilib, uning shaklini o'zgartiradi? ***/// **i,a**
948. Ushbu birikmalarda jami nechta qo'shimcha mavjud? 1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go'zal; 5) o'qishda ilg'or; 6) osmon beg'ubor**.** ***/// **11 ta** 949. Ushbu birikmalarning qaysi birida lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha mavjud? 1) gulday chiroyli; 2)

choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go‘zal; 5) o'qishda ilg‘or; 6) osmon beg'ubor. ***/// **1, 2, 3**

950. Vijdonli kishini ta’qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas. (F.Volter) Ushbu gapda nechta yasama so‘z ishtirok etgan? ***/// 3ta
951. Xalq (tabobat) qulupnay (meva) terlatuvchi, bezgak (xuruj) qarshi omil sifatida tavsiya etiladi. Qavs ichidagi so'zlarga qo'shilishi kerak bo'lgan sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar soni nechta? ***/// **5 ta**
952. Xastalik hukmdorni to‘shakka mixlab qo'ydi. Ushbu gapda qo'llangan so‘z yasovchi qo‘shimchalar miqdorini aniqlang**.** ***/// **4**
953. Xato hukmni belgilang. ***/// **So‘zlarni qisqartirish yordamida yangi so’z mumkin.**
954. Xunobgarchilik so‘zi ma’noli qismlarga to‘g‘ri ajratilgan qatorni aniqlang. ***/// **xunob- garchilik**
955. Yasama so‘zlar qatorini toping. ***/// **xushchaqchaq, sotib oldi**
956. Yasama so'z berilmagan javobni toping. ***/// **hamma vaqt**
957. Yaxshi so'zlash degani o'zining gaplarini maqol-u matallar, she’riy parchalar bilan bezab gapirish degani emas, balki ko'ngliga kelgan gaplarni o'rinli va foydali tarzda, yumshoqlik hamda bosiqlik bilan so'zlash deganidir. Ushbu gapda nechta so‘z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan? ***/// **10**
958. yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan.Ushbu gapda nechta yasama so‘z qatnashgan? ***/// **2 ta**
959. Yetakchi morfema ham, so'z yasovchi ko‘makchili morfema ham omonim xarakterga ega bo’lgan yasama fe’l qatnashgan gapni aniqlang. ***/// **Ish doirasi toraydi.**
960. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o’zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I. Karimov) Ushbu gapda so‘z yasovchi qo‘shimcha necha o’rinda qo’llangan**?** ***/// **3**
961. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I. Karimov) Ushbu gapdagi yasama fe’llar sonini aniqlang. ***/// **2 ta**
962. Zid ma’noli qo'shimchalar qatorini aniqlang. ***/// **-li, be-; ba-, -siz**

– Qani, bolalar, yozamiz, - dedi o'qituvchi. Ushbu gapda I shaxs ko'plikdagi shaxs-son qo'shimchasi qaysi shaxs-son qo'shimchasiga sinonim bo'lgan? ***/// **@II shaxs ko'plik**
– Sabr qil, Mirsalim, sabr. Beparvo ham bo'lma, otingni qamchila, oldini ol! - shunday mulohazalardan keyin Mirsalim Qodir bilan uchrashish fikriga keldi.

Ushbu gapda II shaxs birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi qaysi shaxs-son qo'shimchasiga sinonim bo'lgan? ***/// **I shaxs birlik**

– Yo‘q demang, aka. Biz ham tushunadigan odammiz. Xafa qilmaymiz,- Alimardonning o‘ylanib turganini o‘zicha tushundi. Ushbu gapda I shaxs ko‘plikdagi shaxs-son qo‘shimchasi qaysi shaxs-son qo‘shimchasiga sinonim bo‘lgan? ***/// **I shaxs birlik**

963. . Nigora yigitga ma’noli qarab gapirdi. 2. Yigit otasiga qarab yura boshladi. 3. Mardon olislarga qarab turardi. Ushbu gaplar tarkibida berilgan qarab so'zi haqidagi qaysi hukm to'g'ri? ***/// **1-gapda mustaqil fe’l, 2-gapda ko’makchi, 3- gapda ko'makchi fe’lni ergashtirib kelgan yetakchi fe’l**
964. ; 2) achitdi; 3) o'qitishdi; 4) uxlatishdi; 5) ashlandik; 6) ilitildi; 7) tashidi; 8) tirmashdi;

Ushbu so'zlarning qaysilarida birdan ortiq fe’l nisbatlari qo'llangan? ***/// **1, 3, 4, 6**

3) ko‘makchi; 2) yuklama; 3) undov so‘z –la yasovchi qo‘shimcha ushbu berilganlardan qaysi biri bilan omonimlik hosil qiladi? ***/// **1,2**
1) ko'makchi; 2) yuklama; 3) undov so'z. -la fe’l yasovchi qo'shimcha ushbu berilganlardan qaysi biri bilan omonimlik hosil qiladi? ***/// **1, 2**
1) kul; 2) qiyna; 3) ayir; 4) yayra; 5) so'ra; 6) ishla. Ushbu fe’llarning qaysilaridan o'zlik nisbat hosil qilib bo'lmaydi? ***/// **1, 3, 4, 6**
1) olib kelmoq; 2) sotib olmoq; 3) javob bermoq; 4) sotib yubormoq. Berilgan birliklardan qaysilari ham qo'shma fe’l, ham ko'makchi fe’l bo'lib kela oladi? ***/// **faqat 1**
1) pishirmoq; 2) uchmoq; 3) o‘tirmoq; 4) to‘g‘ramoq; 5) eritmoq; 6) to‘xtamoq. Berilgan fe’llarning o‘timli- o‘timsizligi haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri? ***/// **1,4,5 – o‘timli, 2,3,6 – o‘timsiz**
1) xo‘rsindi; 2) tirmashdi; 3) tortdi; 4) ortdi; 5) havaslandi; 6) taltaytirdi; 7) chizildi; 8) tinglashdi; 9) bo'lindi; 10) tinglandi. Ushbu fe’llardan qaysilari aniq nisbat shaklini hosil qilgan? ***/// **1, 2, 3, 4, 5**

965. -a, -ay, -illa fe’l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda, qanday tovush hodisasi ro'y beradi? ***/// **tovush tushishi, tovush almashinishi**
966. -a, -ay, -illa fe’l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda, qanday tovush hodisasi ro'y beradi? ***/// **tovush tushishi, tovush almashinishi**
967. Abdulla Avloniy o'z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, darsliklar yozdi, kitoblar bostirdi. Berilgan matndagi fe’l nisbatlari soni va turini aniqlang. ***/// **5 ta: 3 ta aniq, 2 ta orttirma**
968. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. Ushbu gapda yasama so’zlar qaysi turkumdan hosil qilingan? ***/// **fe’l**
969. Ahmoq yolg‘onga to‘n kiygizdi boplab, bor-yo‘g‘i bir hamroh etmish-a, qaysi nodon ishonar bunga. Ushbu gapda o’timli fe’lning qaysi nisbat shakli qo'llangan? ***/// **orttirma.**
970. aniqladim-aniqlandi, qildim-qilindi. Berilgan ma’nodosh juftliklarning ikkinchi so'zida qanday uslubiy ma’no ifodalangan? ***/// **hurmat, kamtarlik**

971. Anvar yugurib borib, Alimardonning yelkasidan ushlab, o'ziga qaratdi: - Shunaqa narsa bilan hazil qiladimi odam? Ushbu gapda III shaxs birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi qaysi shaxs-son qo'shimchasiga sinonim bo'lgan? ***/// **II shaxs birlik**
972. Aqliy faoliyat fe’llari qaysi qatorda keltirilgan? ***/// **ijod qilmoq, tushunmoq, o‘ylanmoq**
973. Aqlliga aytdim, angladi-bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi. Ushbu maqolda nechta fe’l yasovchi qo'shimcha qo'llangan? ***/// **2 ta**
974. Asosi belgi bildiradigan so'zlar qatorini aniqlang. ***/// **yangila, tekisla, sekinla**
975. Atash ma’nosiga ega bo’lmagan so’z qatnashgan gapni toping. ***/// **Hamma bo’layotgan voqealardan tang ahvolda qoldi.**
976. Avvalo, shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o‘z kuchimiz bilan, o‘zaro keng muhokama qilish yo‘li bilan bartaraf qiladigan bo‘ldik. (A.Qahhor) Ushbu gapda nechta qo‘shma fe’l ishtirok etgan**?** ***/// **4 ta**
977. Avvalo, shuni ta’kidlab o’tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch, jalb qilmasdan o’z kuchimiz bilan, o’zaro keng muhokama qilish yo’li bilan,bartaraf qiladigan bo’ldik. (A.Qahhor) Ushbu gapda nechta yasama fe’l ishtirok etgan? ***/// **5 ta**
978. Aytmagan so‘zni ayttirib bo‘lmas, aytgan so‘zni qaytarib bo‘lmas. Ushbu gapda qaysi nisbat fe’llari ishtirok etgan? 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat ***/// **1,3, 4**
979. Berilgan fe’llardan o'timlilarini toping. ***/// **sog‘inmoq, keltirmoq, to‘plamoq**
980. Berilgan fe’llardan qaysi biri taqlid so‘zlaridan yasalmagan**?** ***/// **dag‘allashmoq**
981. Berilgan juftliklardan harakat va holatning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra farqlanadigan javobni toping. ***/// **oqardi – oqarinqiradi**
982. Berilgan juftliklardan salbiy va ijobiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra farqlanadigan javobni toping. ***/// **oqardi – bo‘zardi**
983. Berilgan juftliklardan uslubiy xoslanishga ko‘ra farqlanadigan javobni toping. ***/// **yedi - tanovul qildi**
984. Berilgan misralarning qaysi birida qo'shma fe’l ishtirok etgan? ***/// **Saboga hikoyat qildi — to'kildi.**
985. Berilgan parchadagi fe’llar qaysi zamon ma’nosini ifodalagan? Ibrohimjonning ovozida zarracha shikoyat ohangi yo‘q edi. Aksincha, u alohida g‘urur bilan gapiradi. ***/// **o‘tgan zamon**
986. Berilgan qaysi sodda fe’l tarkibidagi -la fe’l yasovchisini qil, et, de singari fe’llarining birortasi bilan sinonimik munosabatda qo'llab bo'lmaydi? ***/// **tezla**

987. Berilgan qo'shma gaplardan qaysi binning kesimi fe’lning o'zlik uisbati qo'shimchasini olgan? ***/// **Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotib edim, bir to‘da uloqchi chavandozlar kelib qo‘shildilar.**

988. Bilib bilmagandan, bilmay bilgan yaxshiroq. Fe’lning vazifa shakllari nechta? ***/// **4**

989. Bilib bilmagandan, bilmay bilgan yaxshiroq. Ushbu gapda fe’lning qaysi vazifa shakllari ishtirok etgan**?** ***/// **sifatdosh, ravishdosh**

990. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo‘yniga olmaslik ayb. Ushbu gapda fe’lning qanday vazifa shakllari bor? ***/// **2 ta harakat nomi, 1 ta sifatdosh**

991. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb. Ushbu gapda fe’lning vazifa shakllari nechta? ***/// **3 ta**

992. Bir kun ko’zlarimdan qochdi uyqular,

Bir kun yuragini ochdi tuyg’ular...

Men seni esladim entikib, yonib,

Men seni izladim baridan tonib... (Nazira as-Salom) Ushbu she’riy parchada ishtirok etgan o’timli hamda o’timsiz fe’llar sonini mos ravishda aniqlang. ***/// **3 ta; 4 ta**

993. Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzilgan kosani tushirib sindirdi, buni ko‘rgan kelini nordon so‘zlar aytib, uning ko‘nglini vayron qildi. Ushbu gapdagi fe’llar sonini va qaysi nisbatdaligini aniqlang. ***/// **7 ta; 4 ta aniq, 1 ta majhul, 2 ta orttirma**

994. Bir mahal bola yig’ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog’iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Ushbu gapdagi fe’llarning sintaktik vazifasini ko‘rsating. ***/// **kesim, aniqlovchi**

995. Birdan ortiq to‘liqsiz fe’l ishtirok etgan gapni toping. ***/// **O’jarni urmay-so‘kmay yo‘lga sol deganlari bejiz emas ekan.**

996. Birgalik nisbatdagi fe’l ishtirok etgan gapni toping**.** ***/// **Berilgan barcha gapda birgalik nisbatbatdagi fe’l ishtirok etgan**

997. Biror mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar adolat o’rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotishi lozim. Ushbu gapda nechta yasama fe’l qatnashgan? ***/// **3 ta**

998. Biz ona yurt, aziz Vatan debon sog'inch va orziqishlarda yashaymiz. Ushbu gapdagi fe’llar qaysi vazifa shakllarida kelgan? ***/// **harakat nomi, sof fe’l**

999. Bo‘lishli fe’llar qatorini aniqlang. ***/// **ayta ko‘rma, bormay qolma, o‘qigani yo‘q**

1000. Bo‘lishlilik shakli orqali bo‘lishsizlik mazmuni ifodalangan gapni aniqlang. ***/// **Yordam bersangiz, kolxozni ko‘tarish uchun kuch-qudratimni ayarmidim?!**

1001. Bo‘lishsizlik shaklidagi ravishdosh ishtirok etgan gapni toping. ***/// **O’jarni urmayso‘kmay yo‘lga sol deganlari bejiz emas ekan.**

1002. Bo'lishsizlik ma’nosi emas va yo‘q so'zlari bilan ifodalanganda shaxs-son qo'shimchalari fe’lga qanday qo'shiladi? ***/// **Bo'lishsizlik ma’nosi**

**emas so'zi bilan ifodalanganda shaxs-son qo'shimchalari undan so'ng, yo'q so'zi bilan ifodalanganda undan oldin qo'llanadi.**

1003. Bo'lishsizlik qo'shimchasi ham ko'makchi, ham yetakchi fe’lga qo'shilsa qanday ma’noni anglatadi? ***/// **bo'lishlilik**

1004. Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur. Ushbu maqoldagi topilur, chopilur fe’llari qaysi nisbatda**?** ***/// **topilur, chopilur – majhul nisbatda**

1005. Bozorda tushga yaqin oldi-berdi boshlanib ketdi. Ushbu gapda nechta fe’l ishtirok etgan? ***/// **1 ta**

1006. Bu borada ham kamina uzr so‘raydi. Ushbu gapda kesim mazmunan nechanchi shaxsni ifodalaydi? ***/// **I shaxs birlik**

1007. Bulbul gulzorni izlar, boyo‘g‘li esa hamisha vayronani ko‘zlardi. Berilgan gapda fe’lning vazifasiga xoslangan qanday shakli qo‘llangan? ***/// **fe’lning vazifaga xoslangan shakli qo‘llanmagan**

1008. Buyruq-istak maylidagi fe’llar qatorini aniqlang. ***/// **o‘rganding, uxlaylik, aytsin, ko‘rgin, o‘qisin**

1009. Chol labini tishlagancha o‘ylanib qoldi. Berilgan gapdagi o‘ylanib fe’li qaysi nisbat shaklida**?** ***/// **o‘zlik nisbat**

1010. Chollar kulgudan qotib qoldilar, ularning burishgan yuzlari ruhlanib, ko’zlarini kulgu namladi. Ushbu gapda nechta fe’l yasovchi qo’shimcha bor**?** ***/// **2ta**

1011. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va — takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy – siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. (O’zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonunining 7moddasi) Ushbu gapda nechta yasama fe’l ishtirok etgan**?** ***/// **6**

1012. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va — takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy – siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. (O’zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonunining 7moddasi) Ushbu gapda nechta qo'shma fe’l ishtirok etgan? ***/// **2**

1013. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. (O’zbekiston Respublikasi “Davlat tali haqida” gi Qonunning 7-moddasi). Ushbu gapda nechta fe’l so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yasalgan? ***/// **4**

1014. Dilga elning ishqin solib,
Hunar izlab, bilim olib,
Bo'lib dono ilmi tolib,
Asragaymiz biz VATANni,
Fido aylab jon-u tanni. (A.Sobirov) Ushbu she’riy parchada felning ravishdosh shakli necha marta ishtirok etgan? ***/// **5**

1015. Do'simboy ota uyga kirib ketganda hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid so'radi: –

Hotamjon borib keldimi? Ushbu gapdagi fe’llar haqidagi ro’g’ri hukmni aniqlang. ***/// **1 ta mustaqil fe’l, 1 ta qo’shma fe’l, 2 ta ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasi**

1016. Ey inson, har bir so‘zni o‘ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gapda nechta yasama fe’l bor? ***/// **3**

1017. Fe’l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadigan maylni belgilang. ***/// **xabar**

1018. Fe’l o’zagidan ifodalangan harakatga da’vat qilingan shaxs ma’nosini bildirgan fe’llarni belgilang. ***/// **qoldirdi, keltirdi, qaytardi**

1019. Fe’l so'z turkumidan -iq qo'shimchasi orqali yasalgan yasama so'zlar qatorini aniqlang. ***/// **chopiq, qavariq**

1020. Fe’l va fe’l qo'shiluvidan yasalgan qo'shma fe’llar qatori berilgan javobni toping. ***/// **olib chiqmoq, sotib olmoq, olib kelmoq**

1021. Fe’llarda kelasi zamon ma’nosi qanday hosil qilinadi? 1) fe’lning - a ravishdosh shakliga - yotir qo’shimchasini qo’shish bilan; 2) fe’lning -jak ravishdosh shakliga - jak qo’shimchasini qo’shish bilan; 3) fe’l asoslariga -ar, -ur qo’shimchalarini qo’shish bilan; 4) fe’l asoslariga gusi qo’shimchasini qo’shish bilan ***/// **2, 3, 4**

1022. Fe’llarning harakat-holat ma’nosini ifodalashiga ko‘ra farqlari to‘liq berilgan javobni toping. 1) harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra; 2) ijobiy yoki salbiv bo‘yog‘iga ko‘ra; 3) uslubiy xoslanishiga ko‘ra ***/// **1, 2, 3**

1023. Fe’llarning harakat-holat ma’nosini ifodalashiga ko’ra farqlari to’liq berilgan javobni toping. 1) harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko’ra; 2) ijobiy yoki salbiy bo’yog’iga ko'ra; 3) uslubiy xoslanishiga ko’ra ***/// **1, 2,3**

1024. Fe’llarning vazifa shakli qo'shimchalari fe’lning qaysi lug'aviy shaklini hosil qilganda, bir unli tovush boshqasiga aylanishi mumkin? ***/// **harakat nomi**

1025. Fe’lning harakat nomi qaysi gapda qo‘llangan? ***/// **Yaxshiliq qilish, yomonlarni qo‘llamaslikka odatlan.**

1026. Fe’lning harakat nomi shakli qaysi gapda qo‘llangan? ***/// **Biror xalqning axloqini bilmoq uchun uning adabiyoti bilan tanish.**

1027. Fe’lning kelasi zamon ma’nosini hosil qiladigan shakllarni toping. 1) -y; 2) -(a)r; 3) -di; 4) -moqda; 5) -gandi; 6) –a ***/// **1, 2, 6**

1028. Fe’lning kelasi zamon shaklini hosil qiluvchi quyidagi qo‘shimchalar haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri? 1) -ar; 2) -jak; 3) -gay; 4) -ur ***/// **1-uslubiy betaraf, 2,3,4 - uslubiy xoslangan**

1029. Fe’lning orttirma nisbatini hosil qiluvchi -gaz, -kaz. -qaz qo'shimchalari o'tmoq fe’liga qay tarzda qo‘shilishi mumkin? ***/// **o'tkaz, o'tqaz tarzida**

1030. Fe’lning qaysi vazifa shakllari kelishik shakli bilan turlangan so‘zni boshqara oladi? ***/// **fe’lning barcha vazifa shakllari**

1031. Fe’lning qaysi vazifa shakllari orasida so'z yasovchi qo'shimcha bilan shakldoshlik hosil qiluvchi qo'shimchalar bor? ***/// **sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi**

1032. Fe’lning zamon shakllaridan uslubiy betaraflari qaysi javobda to'g'ri berilgan? ***/// **-di, -gan, -yapti, -ar**

1033. Fe’lning zamon shakllaridan uslubiy xoslanganlarini ajrating. ***/// **-yotir, -moqda, -**
**ur, -gusi, -gay**

1034. Fe’lning zamon, shaxs-son qo'shimchalarisiz qismi .. ***/// **II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi**

1035. Fonetik yozuv asosida yozilgan fe’l ishtirok etgan qatorni aniqlang. ***/// **Aqlliga aytdim, angladi – bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi.**

1036. Fonetik yozuv asosida yozilgan yasama fe’l qaysi gapda berilgan? ***/// **Salimjon qo'ylarini erinmay birma-bir sanadi.**

1037. gapdagi fe’llar qaysi javobda to'g'ri izohlangan? Bu gapni eshitib, Bahromning ko'zi charaqlab ketdi. ***/// **1 ta ravishdosh shaklidagi mustaqil fe’l, 1 ta yetakchi, 1 ta ko'makchi fe’l**

1038. Gul bargini nasim qildi - to‘kildi,
Saboga hikoya qildi - to‘kildi.
Falak ishiga boq: bar
haftada gul Chiqdi,
g‘unchaladi, kuldi -
to‘kildi
Ushbu parchada nechta fe’l so‘z turkumiga oid so‘z ishtirok etgan? ***/// **9 ta**

1039. Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug:urlashib bahs qilishardilar, gullar Nargisga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab, Bamburni Gullar bog‘iga chaqirardilar. Uahbu gapda nechta qo'shma fe’l ishtirok etgau? ***/// **2 ta**

1040. Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug‘urlashib bahs qilishardilar, gullar Nargisga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab, Bamburni Gullar bog'iga chaqirardilar. Ushbu gapda nechta yasama fe’l ishtirok etgan? ***/// **5 ta**

1041. Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug’urlashib bahs qilishardilar, gullar Nargisga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab Bamburni Gullar bog’iga chaqirardilar. Ushbu gapda fe’l yasovchi qo‘shimcha necha o’rinda qo’llangan? ***/// **3**

1042. Harakat nomi qo‘shimchasi nisbat qo‘shimchalaridan keyin kelgan so‘z qatnashgan gapni toping. ***/// **Bilim, ma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim.**

1043. Harakat nomi qo'shimchasi so‘z yasovchi qo‘shimchadan keyin kelgan gapni toping. ***/// **Millatni sevmoqlik - baxt, kurashib yashamoq - saodat.**

1044.Harakat nomiga xos bo'lmagan xususiyatni belgilang**.** ***/// **shaxs-son va zamon ko'rsatkichiga ega**

1045.Harakatga da’vat qilingan shaxs ma’nosini bildiruvchi fe’l nisbatini aniqlang. ***/// **orttirma nisbat**

1046.Harakatning bosqichini bildiruvchi qaysi ko'makchi fe’l(lar) ravishdoshning -a,-y shakliga qo'shiladi? ***/// **olmoq, boshlamoq**

1047.Harakatning tarzini bildiruvchi qaysi ko'makchi fe’l(lar) ravishdoshning -a,-y shakliga qo'shiladi? ***/// **olmoq, boshlamoq**

1048.Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan shamni o’zi bilan narigi xonaga olib chiqmoqchi edi. (A.Qodiriy) Ushbu gapdagi fe’llar qaysi nisbatda? 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirrna nisbat; 5) birgalik nisbat. ***/// **1, 2, 3, 4**

1049.Hozirgi o’zbek tilida eng faol fe’l yasovchi qo‘shimcha qaysi? ***/// **-la**

1050.Hozirgi zamon aniq mayli shakllari bilan keladigan shaxs-son qo’shimchalarini aniqlang**.** ***/// **-man, -san, -miz, -siz**

1051.Hozirgi zamon shakllaridan qaysi birining talaffuzi va imlosi o‘zaro muvofiq emas? ***/// **yap**

1052.Ijobiy va salbiy bahoga ega bo'lishiga ko‘ra farqlanuvchi fe’llar qatorini belgilang. ***/// **so'zlamoq - to'ng'illamoq - ming'irlamoq**

1053.Ikkita nisbat qo‘shimchasi olgan yasama fe'lni aniqlang. ***/// **tiklatildi**

1054.Istiqlol tufayli chekka qishloqlarda ham havaslansa arzigulik korxonalar yaratildi. Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so‘z qaysi nisbatda? ***/// **aniq**

1055.Izohli lug‘atlarda fe’llar qanday shakllarda beriladi? ***/// **harakat nomi shaklida beriladi**

1056.Jahon ichra tole izlab,
Xalq nomidan dadil so‘zlab,
Obod yurtning taxtin ko‘zlab
Asragaymiz biz VATANni,
Fido aylab jon-u tanni. (A.Sobirov) Ushbu she’riy parchada nechta yasama fe’l ishtirok etgan? ***/// **4**

1057.Jarangsiz undoshlar ishtirok etmagan yasama fe’llarni tanlang. 1) boyi; 2) borar; 3) yangila; 4) ulamang; 5) o’rnat; 6) ezg’ila; 7) ozma ***/// **1, 3**

1058.Javoblardan o'timli fe’l ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Biz tomosha qildik.**

1059.Javoblarning qaysi birida ravishdosh payt ma’nosini ifodalagan? ***/// **Bahor kelib, ariqlarda suvlar oqa boshladi.**

1060.Jismoniy holat fe’llari qo‘llangan javobni belgilang. ***/// **isitma qilmoq, kuchaymoq**

1061.Juft fe’l berilmagan qatorni toping. ***/// **bordi-keldi**

1062.Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda, Zuhro yulduz miltirab xira xanda otganda. Ushbu she’riy parchadagi sodda yasama fe’llarning gapdagi vazifasini ko‘rsating. ***/// **kesim**

1063. Kelasi zamon aniq mayli shakli bilan qo’llanadigan shaxs-son qo’shimchalari qaysi zamon shakliga ham qo’shilishi mumkin? ***/// **o'tgan zamon aniq maylining shakliga**

1064. Kelasi zamon fe’llarini hosil qiluvchi -jak, -gay, -ur, -gusi shakllari qaysi uslub(lar)ga xos? ***/// badiiy uslub

1065. Kelib-la ketibdi birikmasidagi -la qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **yuklama**

1066. Ko‘makchi fe’l harakatning to'la va tez bajarilishini bildirgan gapni toping. ***/// **Qiz dilidagini qosh-ko‘zing demay aytib tashladi.**

1067. -la fe’l yasovchi qo‘shimchasi otlarga qo‘shilib fe’l yasaganda qanday ma’nolarni bildiradi? 1) yasashga asos qismdan aiiglashilgan narsa-predmet bilan ta’minlash; 2) asos qismda ifodalangan asbob bilan harakatni bajarish; 3) asosdan aiiglashilgan narsani yuzaga keltirish; 4) asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish ***/// **1, 2, 3, 4**

1068. -la fe’l yasovchi qo‘shimchasi qaysi so‘zda asos qismda ifodalangan asbob bilan bajariladigan harakatni bildirgan? ***/// **egovla**

1069. -la fe’l yasovchi qo’shimchasi qaysi so’z turkum(lar)idan fe’l yasaganda asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi? 1) otdan; 2) sifatdan; 3) ravishdan; 4) undov so’zdan; 5) taqlid so’zdan ***/// **2, 3**

1070. -la fe’l yasovchi qo'shimchasi qaysi qatorda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi? ***/// **silliqla, tozala**

1071. -la so'z yasovchi qo'shimchasi qaysi so'z turkumidan fe’l yasaganda yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi? ***/// **sifat**

1072. Mag‘lubni tepib o‘tmak mardlik emas. Ushbu gapda fe’lning nechta vazifa shakli qo'llangan? ***/// **1 ta**

1073. Mashhur qora qashqa ayg‘irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. Berilgan gapda qaysi nisbatdagi fe’llar ishtirok etgan? 1) aniq nisbat; 2) orttirma nisbat; 3) o‘zlik isbat; 4) majhul nisbat; 5) birgalik nisbat ***/// **1, 2, 3**

1074. Men u odamga bergan bahoyimda yanglishmadim, to'g'ri so'zladim. Ushbu gapda fe’lning vazifa shakllari qaysi gap bo'lagi bo'lib kelgan? ***/// **aniqlovchi, kesim**

1075. Mirzo Ulug‘bek belidagi serbar kamariga osilgan kalitni olib eshikning qulfini jaranglatib ochdi. Ushbu gapdagi orttirma nisbat qo‘shirnchasi qatnashgan so‘z haqida berilgan hukmlarning qaysi biri noto’g‘ri? ***/// **Orttirma nisbat qo'shimchasini olgan so’z tarkibida faqat portlovchi, jarangli va til oldi undoshlari bor.**

1076. Mirzo Ulug'bek, go‘yo Ali Qushchining fikrlariga tushunganday, ohista xo‘rsinib qo‘ydi. Ushbu gapda fe’lning qaysi nisbat shakli qo'llangan? ***/// **aniq**

1077. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma’no-mazmuni bilan boyitadigan va

to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Ushbu gapda qo'llangan fe’llar haqidagi barcha to‘g‘ri hukmlarni belgilang. 1) buyruq maylidagi fe’l mavjud; 2) aniq va orttirma nisbatdagi fe’l mavjud; 3) yasama fe’l mavjud; 4) fe’lning sifatdosh shakli aniqlovchi vazifasida kelgan ***/// **1, 2, 3, 4**

1078. Mudir xalatining tugmalarini yechib yuborgan, ingichka bo‘ynidagi guldor galstugini bo‘shatib qo‘ygan, tez yurganidan bo‘lsa kerak, yanoqlari turtib chiqqan yuzi qizarib ketgan edi. Ushbu gapda nechta ko'makchi fe’l qatnashgan? ***/// **4 ta** 1079. Nadir millat qudratining tamadduni? Amir Temur haykalidan so'rang buni, Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni? Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada orttirma nisbatdagi fe’llar sonini aniqlang. ***/// **2 ta**

1080. Namozboyga o‘q o‘tmas emish, e tavba, qilich ham chopmas emish. (X.To'xtaboyev) Ushbu gapdagi emish to‘liqsiz fe’li qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **bo‘lishli, III shaxs shaklida, qisqarmagan, fe’lga bog'langan**

1081. Navoiy asarlari lug‘atidan keltirilgan boshdin quymoq fe’lining izohi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang. ***/// **bahridan o‘tmoq, kechmoq**

1082. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan bosh chiqarmoq fe’lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang. ***/// **o'zini tortmoq, o'zini ayamoq**

1083. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan bosh tortmoq fe’lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang. ***/// **ko'tarilmoq, yuqorilashmoq**

1084. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan bosh uchurmak fe’liga ma’nodosh bo‘la oladigan javobni belgilang. ***/// **bosh tushirmoq**

1085. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan bosh ura kirishmoq fe’lining izohi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang. ***/// **ko'rina boshlamoq**

1086. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan boshidin quymoq fe’lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang. ***/// **esidan chiqarmoq**

1087. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki, vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe’llar ishtirok etgan? 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat ***/// **1, 3, 4**

1088. Noto’g‘ri hukmni aniqlang. ***/// **-la fe’l yasovchi qo'shimchasi bilan yasalgan sodda yasama fe’llar har doim qo'shma fe’llar bilan sinonim bo'la oladi**

1089. Noto'g'ri hukmni aniqlang. ***/// **-dir fe’l nisbati yasovchi qo'shimchasi jarangli va jarangsiz undosh bilan tugagan barcha bir bo'g'inli fe’llarga qo'shiladi.**

1090. O‘tgan zamon shakllaridan qaysi biri so‘zlovchining bevosita o‘zi ko‘rgan harakat va holatni ifodalaydi? ***/// **-di**

1091. O‘tgan zamon shakllaridan qaysi biri so'zlovchining ko‘z o'ngida yuz bergan harakatni emas, boshqalardan eshitilgan (yoki boshqa manbalar orqali ma’lum bo'lgan) harakat va holatni yoki oldindan kutilgan harakatning

amalga oshganligini bildiradi? ***/// **-(i)b** 1092.O’n olti martaba to‘plandik bizlar, Rejalar tortishdik yangi ishlarga,

Nima deyishni bilmaydi dushman,

Bir reja bo’yicha yugurishlarga! (Cho‘lpon) Ushbu she’riy parchada qaysi nisbat fe’llari ishtirok etgan? 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat ***/// **2, 5**

1093.O’tgan zamon shakllaridan qaysi biri o‘zidan keyin shaxs-sonning -man, -san, -miz, -siz shakllarini qabul qila olmaydi? ***/// **-di**

1094.O’timli fe’llar qatorini aniqlang. ***/// **ichdi, ko‘rdi, almashdi, quvontirdi**

1095.O’zingni yig‘ishtir, ularni noumid qilma, shu ikki buyuk xaridoring uchun baxtli yashab bergin, o‘g‘lonim! Ushbu gapda nechta yasama fe’l mavjud? ***/// **2**

1096.O’zlik nisbati qo’shimchasi boshqa nisbat qo’shimchalari bilan birga kelganda, uning o’rni qanday bo’ladi? ***/// **O’zlik nisbati qo’shimchasi har doim asosdan keyin qo’shiladi.**

1097.O’zlik nisbati shaklidagi fe’l qaysi gap tarkibida qo‘llangan? ***/// **Feruza katta yo‘lning toshlariga qoqilib, idora binosiga yetib keldi.**

1098.Odamlar g'urur, chegarasiz manmansirash tufayli ne-ne kulfatlarga duchor bo'lmagan deysiz, shuning uchun ham Islom tafakkurining buyuk natijasi hisoblangan so'fizmda inson o'z "men"idan kechmay turib Ollohni tanimaydi degan aqida bor edi. Ushbu gapda nechta yasama fe’l bor? ***/// **3**

1099.Omon-eson keldilaringmi? – dedi Anvar do‘stiga. Ushbu gapdagi fe’l mazmunan nechanchi shaxsni ifodalagan? ***/// **II shaxs ko'plik**

1100.Omonlik tilasang, agar sen o‘zing,

Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing. (Yu. X. Hojib) Ushbu baytdagi tilasang (a) hamda chiqarma (b) fe’llariga to'g'ri izoh berilgan javobni toping. 1) bo'lishli; 2) bo'lishsiz; 3) o'timli; 4) o‘timsiz; 5) xabar mayli; 6) shart mayli;7) buyruq-istak mayli; 8) tub so'z; 9) yasama so'z ***/// **a-l,3,6,8; b-2,3,7,8**

1101.Orttirma nisbat ma’noni kuchaytirgan so’zni toping. ***/// **o‘qittirdi**

1102.Orttirma nisbat qo‘shimchasi -dir haqida bildirilgan qaysi hukm noto‘g‘ri? ***/// **jarangli undosh bilan tugagan bir bog'inli va ko'p bog'inli fe’llarga doim -dir tarzida qo'shiladi**

1103.Orttirma nisbat shakli yetakchi fe’lga qo'shilgan gapni toping. ***/// **Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi.**

1104.Orttirma nisbatning qaysi qo'shimchalari bir so'zga qo'shilib paronimlik hosil qiladi? ***/// **-kaz, -qaz**

1105.Paxta va zig‘ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dazmollanadi. Ushbu gapda qaysi nisbat fe’llari ishtirok etgan? 1) aniq nisbat; 2) o’zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) orttirma nisbat; 5) birgalik nisbat ***/// **1, 3, 4**

1106.Paxta va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dazmollanadi. Ushbu gapda nechta yasama fe’l bor va

fe’lning qaysi vazifa shakllarida kelgan? ***/// **3 ta: sifatdosh, ravishdosh, sof fe’l**

1107. Qaysi fe’l nisbatida harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi? ***/// **o'zlik nisbati**

1108. Qaysi fe’l(lar)da kelasi zamon sifatdoshi ikkita nisbat qo‘shimchasidan so‘ng qo‘shilgan? 1) bajariladigan ish; 2) olinadigan ko'ylak; 3) haydaladigan yer; 4) chaqiriladigan mehmon; 5) yoziladigan bayon; 6) pishiriladigan ovqat ***/// **6**

1109. Qaysi fe’llar fe’ldan anglashilgan harakatga so’zlovchining munosabatini bildirishiga ko‘ra farqlanadi? ***/// **o’qiy, o’qisa, o’qisin**

1110. Qaysi fe’llar fe’ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildirishiga ko‘ra farqlanadi? ***/// **o'qiyapman, o‘qibman, o'qimoqchiman**

1111. Qaysi fe’llar fe’ldan anglashilgan harakatning shaxslarga munosabatmi bildirishiga ko‘ra farqlanadi? ***/// **o'qidim, o'qiding, o'qidi**

1112. Qaysi fe’llar harakat bilan, shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalashiga ko‘ra farqlanadi? ***/// **o'qidim, o'qiding, o‘qidi**

1113. Qaysi fe’llar so’zlovchining fe’ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirishiga ko’ra farqlanadi? ***/// **o’qiydi, o’qisa, o’qisin**

1114. Qaysi gap tarkibida 2 ta mustaqil fe’l ishtirok etgan? ***/// **Maslahatingni qo‘y, o'rtoq, dedi-dedilardan charchab ketdim**

1115. Qaysi gap tarkibida sifatdosh mavjud? ***/// **Bilib qo'y, oqqan daryo oqaveradi.**

1116. Qaysi gapda "Turmoq" so‘zi ko‘makchi fe’l vazifasida qo’llangan? ***/// **Hammasini aytib turibdi.**

1117. Qaysi gapda asosi ot bo’lgan yasama ravishda tovush o’zgarishi mavjud? ***/// **Kamol o’g’rincha nazar bilan tezgina unga qarab oldi.**

1118. Qaysi gapda bo'lishli, bo'lishsiz shakldagi ravishdosh uyushib kelgan? ***/// **Og'zidan ko'pik sochib, bosar-tusarini bilmay, yo'lida duch kelganni bosib yanchib, urib-yiqitib, ayamay, qulatib boravergan ekan.**

1119. Qaysi gapda fonetik hodisaga uchragan sifatdosh berilgan? ***/// **Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.**

1120. Qaysi gapda holat ravishdoshi berilgan? ***/// **Chol labini tishlagancha o'ylanib qoldi.** 1121. Qaysi gapda hozirgi zamon qo‘shimchasini olgan fe’l ko‘makchi fe’lli so'z qo'shilmasi bo'lib, yetakchi fe’l tarkibidagi so‘z yasovchi morfema, ko'makchi fe’l tarkibidagi asos morfema omonimlik xarakteriga ega? ***/// **Yomg'ir tobora kuchayib boryapti.**

1122. Qaysi gapda ijro mayli, o‘tgan zamon ma’nosini ifodalagan bosh nisbatdagi fe’l ishtirok etgan? ***/// **Vodil qishlоglining choyxonasi yo'l boshidagi ikkita katta keksa chinorning soyasida joylashgan**.

1123. Qaysi gapda kelasi zamon fe'li qatnashgan? ***/// **Oddiy haqiqatni kimga isbot etmoqchisan?**

1124. Qaysi gapda ko'makchi fe'l harakatning bir marta bajarilishini bildirgan? ***/// **U kelganini bildirish uchun yo'talib qo'ydi.**

1125. Qaysi gapda maqsad ravishdoshi berilgan? ***/// **Guliston dugonasini ko'rgani kasalxonaga kelgan edi.**

1126. Qaysi gapda miqdor-daraja ravishi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasiga ergashib keladi? ***/// **Xadicha xola xiyla o'ylanib turdi.**

1127. Qaysi gapda otlashgan sifatdosh berilgan? ***/// **Uning aytgani aytgan, degani degan edi.**

1128. Qaysi gapda ravishdosh berilmagan? ***/// **Uning aytgani aytgan, degani degan edi.** 1129. Qaysi gapda ravishdosh qatnashgan? ***/// **Ko'klam ko'katlari gurkirab o'sadi.** 1130. Qaysi gapda ravishdosh qo'shimchasi orttirma nisbat shaklidan keyin qo'shilgan fe'l ishtirok etgan?1. O'sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko'rsatib, o'quvchilarimni hayratda qoldirdim. 2. Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdaman. 3. Aka-uka maslahatlashib, tong otguncha, shu yerda qolishga qaror qilishdi. 4. Boysariboy o'n ming uyli Qo'ng'irot eli bilan ko'chib borgach, Ko'kqamish ko'li atrofida mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotadi**.** ***/// **1,4**

1131. Qaysi gapda ravishdosh yasama so'z orqali ifodalangan? ***/// **Chol lab'ini tishlagancha o'ylanib qoldi.**

1132.Qaysi gapning kesimi o'tgan zamon ijro maylidagi fe'l bilan ifodalangan? ***/// **Tushimda qayerlargadir borib qolibman.**

1133.Qaysi javobda bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari to'g'ri ko'rsatilgan**?** ***/// **-in, -t, -ir, -ish, -il**

1134.Qaysi javobda birdan ortiq nisbat qo'shimchasiga ega bo'lgan fe'llar berilgan? ***/// **chaqirtirilmoq, jo'nattirmoq, bezatilmoq**

1135.Qaysi javobda gapda fe'l tarkibida ko'makchi fe'l ishtirok etgan? ***/// **Onam bilan suhbatlashib turibmiz.**

1136.Qaysi javobda kelasi zamon ma'nosini ifodalay oladigan fe'l mayl(lar)i ko'rsatilgan? 1) xabar mayli; 2) buyruq-istak mayli; 3) shart mayli ***/// **2,3**

1137.Qaysi javobda o'zlik nisbatida qo'llanmaydigan fe'llar berilgan**?** ***/// **uxlamoq, o'qimoq, minmoq**

1138.Qaysi javobda qo'shma fe'llar berilgan? ***/// **kirib chiqmoq, borib kelmoq, oh urmoq**

1139.Qaysi javobda tafakkur fe'llari berilgan? ***/// **xayol surmoq, xayolga bormoq, o'ylamoq**

1140.Qaysi maqolda nisbat qo'shimchasini olgan fe'l ikki o'rinda ishtirok etgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

1141.Qaysi maqolda sifatdan yasalgan fe'l ishtirok etgan? ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**

1142. Qaysi nisbat shakllarini olganda o‘timli fe’llar o‘timsizlashadi**?** ***/// **o'zlik va majhul nisbat shakllarini**

1143. Qaysi nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar bir fe’lga birdan ortiq orinda qo'shilishi mumkin? ***/// **orttirma nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar**

1144. Qaysi qatorda "Ko‘r" fe’li ko'makchi fe’l vazifasida qo'llangan? ***/// **Bilgan she’rlaringni aytib ko‘r.**

1145. Qaysi qatorda aniq nisbatdagi harakat nomi qatnashgan fe’l berilgan? ***/// **Abdulla Avloniy o'z ishini maktab ochishdan boshladi.**

1146. Qaysi qatorda kelasi zamon fe’llari berilgan? ***/// **ishlayman, o'sadi, o‘qiysiz**

1147. Qaysi qatorda nutq fe’llari qatnashgan? ***/// **pichirlamoq, shipshitmoq, ming‘illamoq, bayon qilmoq**

1148. Qaysi qatorda o‘timli fe’l berilgan? ***/// **sayratmoq**

1149. Qaysi qatorda qo'shma fe’l hozirgi zamonda? ***/// **Majnuntol suvga egilib, salom berayotir.**

1150. Qaysi qatorda qo'shma fe’llar berilgan? ***/// **javob berdi, olib keldi, sotib oldi**

1151. Qaysi qatorda ravishdan yasalgan fe’l berilgan? ***/// **Dunyoda pok odamlar qanchalik ko'paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi.**

1152. Qaysi qatorda shaxs-son shakllarining xususiyatlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **fe’lni kesim sifatida shakllantiradi**

1153. Qaysi qatorda sifatdoshning takroriy shakli berilgan? ***/// **"Hozirgi yoshlar qariyalarni kuydirgani- kuydirgan ", -deb oh chekdi.**

1154. Qaysi qatordagi fe’llarda -la qo’shimchasi so’z yasovchi qo'shimcha hisoblanmaydi? ***/// **quvla, savala, silkila**

1155. Qaysi qatordagi gapda sodda – yasama fe’l qo‘llangan? ***/// **Seni hur va ozod kuylaymen.**

1156. Qaysi qatordagi sifatdan yasalgan fe’l asosida faqat til orqa undoshlari qatnashgan?

***/// **Uning gapi og‘zida qolib, ko'zlari xiyol kengaydi.**

1157. Qaysi qatordagi yasama fe’llar asos qismdan anglashilgan narsani yuzaga keltirish ma’nosini bildiradi? ***/// **urug‘la, bolala**

1158. Qaysi qo'shimchalar so‘zlarga zamon qo'shimchalaridan keyin qo'shilishi mumkin? ***/// **faqat shaxs-son**

1159. Qaysi so‘zdan fe’l yasalganda, asos (o‘zak) fonetik o‘zgarishga uchramaydi? ***/// **boy**

1160. qo‘lla, qo‘l-la, kelib-la ketibdi. Ushbu so'zlardagi -la qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri? ***/// **1 – so'z yasovchi, 2 – bilan ko'makchisi, 3 –oq (-yoq) yuklamasining ma’nodoshi**

1161. qo‘lla, qo‘l-la, kelib-la, ketibdi. Ushbu so‘zlardagi –la qo‘shimchasi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri? ***/// **1 - so‘z yasovchi, 2 - bilan ko‘makchisi, 3 – -oq (-yoq) yuklamasining ma’nodoshi**

1162. Qo‘shma fe’llar haqidagi to‘g‘ri fikrlarni aniqlang. 1) Qo‘shma fe’lning birinchi qismi -b, -ib shaklida bo‘ladi. 2) Qo‘shma fe’lning birinchi qismi ba’zan -a ravishdosh shaklida bo‘ladi. 3) Shaxs-son, zamon qo’shimchalari qo‘shma fe’lning ikkinchi qismiga qo‘shiladi. 4) Bo‘lishsizlik qo‘shimchasi qo’shma fe’ining har ikkala qismida kelishi mumkin. ***/// **1, 2, 3, 4**

1163. Qoshini uchirdi, qosh qoqdi, ko‘zini qisdi. Berilgan fe’llar harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra qaysi guruhga mansub? ***/// **ishora fe’llari**

1164. Qo'shma fe’llar qaysi qator berilgan? ***/// **olib bermoq, borib kelmoq, tarbiya qilmoq** 1165. Quyida berilgan fe’llardan fonetik tamoyil asosida yoziladigan yasama fe’llarni ajrating. 1) sanamoq; 2) o’ynamoq; 3) ko‘karmoq; saylamoq; 5) susaymoq; 6) o'ylamoq; qiynamoq; 8) qaynamoq ***/// **1, 2, 5, 7**

1166. Quyida berilgan fe’llarning qaysilari fonetik tamoyil asosida yozilgan? 1) gurulla; 2) o'yna; 3) yashna; 4) yasha; 5) sayla; 6) angla ***/// **1, 2, 4, 6**

1167. Quyida berilgan gapdagi fe’lning vazifa shakllari qanday gap bo'lagi bo‘lib kelgan? Orqa tomonda o‘tirgan Dilbar o‘zini tutolmay qiqirladi. ***/// **aniqlovchi, hol, fe’lkesim**

1168. Quyida berilgan gaplarning qaysi birida bo'lishsizlik fe’li harakatning bir martalik inkori ma’nosi ifodalangan? ***/// **Salima uyga berilgan inshoni yozib qo'ymadi.** 1169. Quyida berilgan parchadagi ravishdoshlar qaysi nisbatda kelgan? ... O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchaiar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirar edi**.** ***/// **o'zlik va aniq**

1170. Quyida berilgan qaysi qo'shimchalar zamon, shaxs-son, mayl ma’nolarini ifodalay oladi? ***/// **-(a)y, -ing, -sin**

1171. Quyida berilgan shakldosh (omonim) so'zlarga -di o'tgan zamon qo'shimchasi qo'shilsa, shakldoshlik munosabati qay tarzda bo'ladi? 1) bitmoq (tugamoq); 2) bitmoq (hosil bermoq); 3) bitmoq (yozmoq). ***/// **Har uch so'z doirasida o'zaro shakldoshlik saqlanadi.**

1172. Quyida berilgan sinonimik munosabatdagi qo'shma fe’llar haqidagi qaysi hukm to'g'ri? 1) javob qildi; 2) javob berdi; 3) javob etdi; 4) javob ayladi ***/// **1, 2, 3 - uslubiy betaraf, 4 - uslubiy xoslangan**

1173. Quyidagi birliklardan qaysi biri yasama so'z hisoblanmaydi? ***/// **o’qib chiqmoq**

1174. Quyidagi fe’llardan payt ravishdoshi yasalganda ularning qaysi biri fonetik (yozuv) qoida asosida yoziladi? 1) ekmoq; 2) ko'rmoq; 3) chiqmoq; 4) tikmoq ***/// **1, 3, 4**

1175. Quyidagi fe’llardan qaysi biri, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilgan, so‘zlovchining bevosita o’zi ko‘rgan holatni ifodalaydi? ***/// **ikkilandi**

1176. Quyidagi fe’llardan qaysi biri, umuman, harakatning nutq mornentidan oldin bajarilgan, so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan holatni ifodalaydi**?** ***/// **ikkilandi**

1177. Quyidagi fe’llarning qaysi biri omonimlik (shakldoshlik) xususiyatiga ega emas? ***/// **chalg'imoq**

1178. Quyidagi gapda fe’lning qaysi nisbat shakli berilgan? Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi. ***/// **orttirma nisbat**

1179. Quyidagi gapda mustaqil lug'aviy ma’no anglatmaydigan nechta so‘z bor? Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmagan edi. ***/// **5 ta**

1180. Quyidagi gapda qaysi so’z turkumlariga oid so’zlar bor? Bilim, ma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog’i lozim ***/// **ot, sifat, fe’l, modal so’z, ko’makchi**

1181. Quyidagi gapda qo‘llangan sifatdoshni aniqlang. Sirojiddin ikki cheti pishiq g‘ishtdan ishlangan naqshinkor darvoza burchagidagi qo‘ng‘iroq tugmasini bosdi. ***/// **ishlangan**

1182. Quyidagi gaplardagi cho'zildi so'zining nisbatini aniqlang. 1) U yuziga belbog'ini tashlab ko'rpachaga cho'zildi. 2) Lag'mon ingichka qilib cho'zildi. ***/// **1-gapda o‘zlik nisbat, 2gapda majhul nisbat**

1183. Quyidagi gaplardagi fe’llarning nisbatini aniqlang. 1) Gul ochildi. 2) Yig‘ilish ochildi. ***/// **1-gapda o'zlik nisbat, 2-gapda majhul nisbat**

1184. Quyidagi qaysi fe’llarga -q qo'shimchasi qo'shib so'z yasalganda tovush o'zgarishi yuz bermaydi? ***/// **og'rimoq, ilimoq, qavimoq**

1185. Quyidagi qaysi qo'shma fe’llar -la fe’l yasovchi qo‘shimchasi bilan yasalgan sodda fe’llarga sinonimik munosabatda bo‘la oladi? 1) silliqla;2) tez qil; 3) uf de; 4) gumbur et; 5) tekis qil; 6) taraq etdi ***/// **1, 3, 4, 5, 6**

1186. Quyidagi qo'shimchalardan qaysilari o‘tgan zamonning –di va kelasi zamonning shart maylidan keyin qo'shiladi? ***/// **-m, -k, -ng, -ngiz**

1187. Quyidagi so'zlarning qaysi biri yordamida sifatning orttirma darajasi hosil qilinadi? 1) juda; 2) picha; 3) nihoyatda; 4) behad; 5) xiyol ***/// **1, 3, 4**

1188. Ravishdan yasalgan fe’l berilgan javobni toping. ***/// **Mirtursun Xalifaning terakzoriga yetib kelgach, qadamini sekinlatdi.**

1189. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko‘p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo'lgan ne’mat - Tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog‘iga talpinapmiz. Ushbu gapdagi yasama so'zlar qaysi turkumlarga tegishli**?** ***/// **ot, sifat, ravish, fe’l**

1190. Shakldosh so‘zlardan qaysi biri bir so'z turkumi doirasida shakldoshlikni vujudga keltirishi mumkin? 1) kul; 2) quymoq; 3) o‘sma; 4) o'rmoq; 5) mushak. ***/// **3, 4, 5**

1191. Shart maylidagi fe’llar qatorini ko‘rsating. ***/// **ochilsa, ko‘rsangiz, sezmasak**

1192. Shaxs-son ma’nosini ifodalovchi -m, -ng, -k, -ngiz qo’shimchalari fe’lning qaysi shakllaridan keyin qo’shiladi? ***/// **o’tgan zamonning -di, shart maylining -sa shakllaridan keyin**

1193. Shaxs-son qo’shimchalari haqida qaysi hukm to’g’ri emas**?** ***/// **III shaxs qo’shimchasi o’rnida I shaxs qo’shimchasi qo’llanishi mumkin.**

1194. Shaxs-son, zamon, bo'lishsizlik qo'shimchalari qo'shma fe’llarga qanday tartibda qo'shiladi? ***/// **Shaxs-son, zamon qo'shimchalari qo'shma fe’lning ikkinchi qismiga, bo'lishsizlik qo'shimchasi har ikki qismiga qo'shila oladi**

1195. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,

Bir bor nazar solgin bosgan
izingga sen, Shu savolni
berib ko‘rgin o‘zingga sen,

Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? (Iqbol Mirzo) Ushbu she’riy parchada buyruq maylidagi fe’llar necha marta qo’llangan? ***/// **4**

1196. Sifatdan yasalgan fe’l qatnashgan gapni toping? ***/// **Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.**

1197. Sifatdosh qatnashgan gapni toping. ***/// **Men o‘ylaymanki, bugungi kun sizning hayotingizda o'chmas iz qoldiradi.**

1198. Sifatdosh qo‘shimchalari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang. ***/// **-r (-ar), -adigan, gan, -vchi**

1199. Sifatdosh va harakat nomi egalik qo‘shimchasini qabul qilganda nima sababdan qaratqich kelishigini olgan so‘zga ehtiyoj bo‘lmaydi? ***/// **egalik qo‘shimchasi harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildirgani uchun**

1200. Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi. Ushbu gapda morfologik usul bilan hosil bo'lgan fe’l qaysi so'z turkumidan yasalgan? ***/// **sifatdan**

1201. So‘zlashuv uslubiga mansub yasama fe’llarni belgilang. 1) ming‘irlamoq; 2) ozod etilmoq;

3) e’tiroz etmoq; 4) valdiramoq; 5) masxaralamoq; 6) izhor qilmoq. ***/// **1, 4, 5**

1202. Sobiq dengizchi Rinaldo Seldstrem gazetalarda "dengiz kasalligi"dan qutulishning bezarar, oson, arzon, yuz foiz kafolatlangan usulini bilishini yozgan va bor-yo‘g‘i uch kronaning bahridan kechishga rozi bo‘lganlarning barchasiga yuborishni va’da qilgan. Berilgan matnda fe’lning vazifa shakllari miqdorini toping. ***/// **8 ta**

1203. So'zlar qaysi xususiyatiga ko‘ra mustaqil va yordamchi so'zlarga bo'linadi? 1) ma’lum bir so'roqqa javob bo‘lish-bo‘lmasligiga ko‘ra; 2) atash ma’nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko‘ra; 3) gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kelish-kelmasligiga ko‘ra. ***/// **1, 2, 3**

1204. So'zlarni turkumlarga ajratishda quyidagilardan qaysi biri asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi? 1) so'zlarning leksik ma’nosi; 2) so'zlarning umumiy grammatik ma’nosi; 3) sintaktik vazifasi; 4) boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasi ***/// **2**

1205. So'zlovchining o‘zi ko'rgau ish-harakatni bildirgan fe’l qatnashgan gapni toping**.** ***/// **Oq yer ochdim, qora bug‘doy sochdim.**

1206. Tarkibida fe’l turkumiga oid so‘z mavjud bo'lmagan qo'shma otni toping. ***/// **kaltakesak**

1207. Tasviriy insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi. Ushbu gapda tarkibida nisbat qo‘shimchalari qo'llangan yasama fe’llar nechta? ***/// **3 ta**

1208. Teng bog‘lovchilarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari qaysi javobda berilgan? ***/// **biriktiruvchi bog‘lovchilar, zidlov bog‘lovchilar, ayiruvchi bog‘lovchilar**

1209. Tengdosh, o‘qish, olqish, qurilish, qamish, qo‘llash. Berilgan so‘zlardan qaysilariga fe’lning munosabat shakllaridan birini qo‘shib tuslash mumkin? ***/// **o‘qish, qo‘llash**

1210. To’liqsiz fe’llar haqidagi to’g’ri hukm(lar) to’liq berilgan javobni aniqlang.1) to’liqsiz fe’l qo‘shilib kelgan yetakchi fe’l tarkibida zamon qo’shimchasi bo‘ladi; 2) shaxs-son qo’shimchalari to'liqsiz fe’lga qo’shiladi; 3) edi, ekan to’liqsiz fe’llari fe’lning shart mayli shaklidan keyin kelib orzu-istak ma’nosini ifodalaydi ***/// **1, 2, 3**  1211. Turnalar samoda chizsalar guldasta, Qoyadek bo‘lsa-da burgut viqori.

Toshlar orasidan mo‘ralab asta,

Ko‘kargan maysani ko‘rdim yuqori.

Ushbu parchada fe’lning sifatdosh shaklini hosil qiluvchi nechta qo‘shimcha qo‘llangan? ***/// **1ta**

1212. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi. Ushbu gapdagi fe’llar haqidagi ro’g’ri hukmni aniqlang. ***/// **1 ta mustaqil fe’l, 3 ta ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasi**

1213. xastalandi, sog‘aydi, kuchaydi. Berilgan fe’llar harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra qaysi guruhga kiradi? ***/// **jismoniy holat fe’llari**

1214. Yasama fe’l berilgan gapni toping. ***/// **Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.**

1215. Yasama fe’l ishtirok etmagan gapni toping. ***/// **Ikki qavatli kollej hovlisi stolstullar bilan bezatilgan.**

1216. yetakchi, ham ko‘makchi fe’llarga qo‘shila oladigan qo‘shimchalarni aniqlang. 1) nisbat qo‘shimchasi; 2) bo‘lishsizlik shakli; 3) zamon qo‘shimchasi; 4) shaxs-son qo‘shimchasi ***/// **1,2**

1217. Yo‘q demang, aka. Biz ham tushunadigan odammiz. Xafa qilmaymiz,- Alimardonning o‘ylanib turganini o‘zicha tushundi. Ushbu gapda ostiga chizilgan birlikning shaxs-soni haqida ifodalangan to‘g‘ri hukmni aniqlang. ***/// **I shaxs ko‘plik shakli I shaxs birlik ma’nosida**

1218. Yo‘q, eshon aka! Ko‘nglingiz qanday choy tilasa, hojingiz muhayyo qiladi. Ushbu gapdagi fe’l mazmunan nechanchi shaxsni ifodalaydi? ***/// **I shaxs birlik**

1219. Yoshlarni bekor, behuda qo'ymaslik, ishlarini so'rab-surishtirib turish shart. Ushbu gapdagi bo‘lishsiz fe’l fe’lning qaysi vazifadosh shaklida kelgan? ***/// **harakat nomi**

1220. Yozma nutq uslubiga xos bo‘lgan fe’lning hozirgi zamon qo‘shimchalarini aniqlang. ***/// **-moqda, -yotir**

1221. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko'ra egalik qo‘shimchasi qaysi qatordagi so‘zlarga qo’shilganda, ikkitasida fonetik o’zgarish yuzaga keladi, bittasida kelmaydi? ***/// **tilak, bek, tayoq**

1222. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995) ga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda yetakchi va ko’makchi morfemalar qo’shilish joyida o’zgarish yuzaga kelmaydi? ***/// **qorin, o'g'il, singil**

1223. “-m” egalik qo‘shimchasining vazifasini belgilang. ***/// **unli bilan tugagan otlarga qo‘shilib, qarashlilikni ifodalaydi**

4) Issiqko‘l; 2) Yangibozor; 3) Yangiyer; 4) Atirgul; 5) Kichik Osiyo; 6) Oltiariq; 7)

Yangiobod; 8) O’rta Chirchiq; 9) Markaziy Osiyo. Berilganlardan sifat+ot qolipidagi joy nomini bildiruvchi lug‘aviy birliklarni aniqlang. ***/// **1,2,3,5,8,9**

1224. a unlisi bilan tugagan fe’l asoslariga qaysi qo‘shimcha qo'shilsa a unlisi o ga aylanadi va shunday yoziladi? ***/// **-q**

1225. Adl qulog‘i-la eshit holimi. (Muqimiy) Ostiga chizilgan qo'shimcha turini aniqlang. ***/// **belgili tushum kelishigi**

1226. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda nechta so'z tarkibida ot yasovchi qo'shimcha ikki marta qo'llangan? ***/// **2**

1227. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda ot yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan? ***/// **8**

1228. Aqldan g’amginlik, shodlik, o’ktamlik,

Aqldan borlig-u yo’qlig-u kamlik. Ushbu baytda ot turkumiga oid nechta so‘z ishtirok etgan? ***/// **6 ta**

1229. Aqlliga aytdim, augladi - bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi. Ushbu gapda otlashgan so'zlar soni nechta? ***/// 2

1230. Asos qismda ifodalangan narsaning uch shaxsdan biriga qarashliligini bildirgan qo‘shimcha qatnashgan birliklar qaysi qatorda berilgan? ***/// **Saidiyning hujrasi, yomg'ir tomchilari**

1231. Asos qismda ifodalangan narsaning uch shaxsdan biriga qarashliligini ifodalamagan egalik qo'shimchalari qatnashgan birliklar qaysi qatorda berilgan? ***/// **o'qish kitobi, Orol dengizi**

1232. Belgi xususiyat ifodalovchi mavhum otni belgilang ***/// **yaxshilik**

1233. Belgi- xususiyatni bildirgan mavhum otni toping. ***/// **yaxshilik**

1234. Berilgan matnda nechta shaxs oti bor va ular qanday sintaktik vazifani bajargan? Kampir

Tolibjonni bag‘ridan bo‘shatib hovli tomonga qichqirdi: Nima qilib turibsanlar, ayangni chaqirmaysanlarmi? Dadalaringga xabar qilmaysanlarmi? Yugur, pochchangga chop, tog‘am keldi, deb ayt. ***/// **5 ta; ega va to‘ldiruvchi**

1235. Berilgan qaysi so‘zlarga egalik qo'shimchasi qo‘shilganda tovush almashishi vujudga keladi? 1) o‘roq; 2) bilak; 3) yoq; 4) ermak; 5) yuk ***/// **1, 2, 3, 4**

1236. Berilgan qo‘shimchalardan qaysi biri otlarga qo‘shilganda uni kuchaytirib ko‘rsata olmaydi? ***/// **-cha**

1237. Berilgan qo'shimchalarning qaysi biri atoqli otlarga qo'shilishi mumkin? ***/// **-lik, -lar**

1238. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning **qabristonga** yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi ajratilgan so'z asosi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ot**

1239. Birlik shaklda jamlik ma’nosi ifodalangan ot qaysi gapda qatnashgan? ***/// **Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam.**

1240. bog'lama (ot) so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri tahlil qilingan? ***/// **bog’- asos,-la, -ma-so'z yasovchi qo'shimchalar**

1241. Bu jahonning mazmunin bilmoqchi bo’lsang, o'rtoq,

Yuragingga kitobning zavqli mash’alini yoq. Ushbu misralardagi qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **2 ta belgili qaratqich, 2 ta belgili tushum**

1242. Bu yuksak insoniylik **barqaror** ekan, bizni hech qanday dushman yengolmaydi.Ajratib ko‘rsatilgan so‘z qaysi so‘z turkumi asosida yasalgan? ***/// **ot**

1243. Bunim yo‘q, unim yo‘q, Uyimda unim yo‘q.

Ishimda unum
yo‘q,
Aytishga
unim yo‘q.

Ushbu she’riy parchada ot turkumiga tegishli nechta so‘z qatnashgan? ***/// **4**

1244. Chiqish kelishigidagi ot gapda holning qaysi turlari vazifasida kela oladi? ***/// **o'rin, payt, sabab holi**

1245. Egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, o‘zakda o‘zgarish bo‘ladigan so‘zlar qatorini toping. ***/// **istak, og‘iz, eshik, botqoq, burun**

1246. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda fleksiya hodisasi yuz bermaydigan so’z qaysi qatorda mavjud? ***/// **parvo, obro‘, mavqe**

1247. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz bermaydigan ko‘p bo‘g‘inli so'zlar qatorini belgilang**.** ***/// **ittifoq, huquq**

1248. El g`amiga **dardkash** bo'lgan inson hech qachon hayotda qoqilmaydi. Bu yuksak insoniylik barqaror ekan, bizni hech qanday dushman yengolmaydi. Ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi so'z turkumi asosida yasalgan**?** ***/// **ot**

1249. Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang. ***///

**chorvachilik, ko'rik, chopiq, terim, g'allachilik**

1250. Faoliyat-jarayon oti yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni aniqlang. ***/// **-lik, chilik, -garchilik, -(i)m, -(i)k, -iq**

1251. Fe'l asosli otni toping. ***/// **ochqich**

1252. Fe'l asosli yasama faoliyat-jarayon oti berilgan gapni belgilang. ***/// **Kuzdagi to'kinsochinlikdan qalbing zavqqa to'ladi.**

1253. Gapdagi yasama otlar miqdorini aniqlang. Qayerda tinchlik hukm sursa, u joyda sotqinlik, aldamchilik, g'am-g'ussa bo'lmaydi. ***/// **3 ta**

1254. gina qo'shimchasi qaysi gapda urg'u oladi? ***/// **Bo'taloqqina har qancha ildam yursa ham, onasiga yetolmas edi.**

1255. Giyohvandlik - insoniyat kushandasi, shu tufayli unga qarshi dunyo xalqi ommaviy kurash olib bormoqda. Berilgan gapdagi yasama so'zlarning eng kichik ma'noli qismi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ot**

1256. Har bir farzand ona nasihatlarini jon qulog'i bilan eshitishi, tosg'ri yo'lga targ'ib etsa, qarshiiik qilmasligi, ota yoki onadan birortasi ish buyursa, shu buyurilgan ishda xatolik borligini sezsa ham yuragini tor qilib, qattiq gapirmasligi, kulib turib, bu ishda xatolik borligini yumshoqlik bilan isbot qilib, ularni ko'ndirishi lozim. Ushbu gapdagi tushum va qaratqich kelishiklari sonini toping**.** ***/// **3 ta qaratqich, 6 ta tushum kelishigi**

1257. Harakat-holatni bildirgan mavhum otni toping**.** ***/// **urush**

1258. Hayotdan ham qadrliroq narsa bor bo'lsa, bu — sog'liq, o'limdan ham qo'rqinchliroq narsa bor bo'lsa, bu — kasallik, hayotga teng narsa — boylik, o'lim bilan barobar narsa — faqirlik. Ushbu gapdagi yasama so'zlarning nechtasi ot turkumiga mansub? ***/// **6**

1259. Jamlik ma'nosi ifodalangan donalab sanalmaydigan narsa oti qaysi gapda qatnashgan**?** ***/// **Ko'chaga qum to'kilgan**.

1260. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlar gapda qanday bo'lak vazifasini bajaradi?

***/// **vositali to'ldiruvchi, o'rin holi, payt holi**

1261. Jo'nalish kelishigidagi so'z qanday holatda gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi? ***/// **jo'nalish kelishigi shaxs va narsa otlariga qo'shilganda**

1262. k, q undoshlari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda qanday tovush o'zgarishi yuz beradi? ***/// **ayrim so'zlarda tovush almashadi, ayrim so'zlarda o'zgarish kuzatilmaydi.**

1263. Kaltafahmligi o'ziga pand berdi. Gapdagi yasama otning yasalishi uchun tuzilishiga ko'ra qanday so'z asos bo'lgan? ***/// **qo'shma so'z**

1264. Kelganiga xursand bo'ldik. Ushbu so'z birikmasi o'rnida –ga kelishigini qaysi kelishik bilan almashtirsa bo'ladi? ***/// **-dan**

1265. Kelishik qo‘shimchalari xato qo‘llangan gapni toping. ***/// **Shahrimizni bir chetidan yer ajrataylik, o‘sha yerga mevali ko‘chatlar o‘tkazaylik.**

1266. Kelishik shakllari haqidagi to’g’ri fikrni aniqlang. 1) ot va otlashgan so’zga qo’shiladi; 2) tobe so’zni hokim so’zga bog’laydi; 3) kelishik qo’shimchalari ko’makchilar bilan sinonim bo’la oladi; 4) kelishik qo’shimchalari qo’shilganda so’z asosida fonetik hodisa kuzatilmaydi ***/// 1, 2, 3

1267. Kelishiklar haqida berilgan noto‘g‘ri hukmlarni toping. 1. Qaratqich kelishigi qaralmishni qaratqichga tobelantirib bog'laydi. 2. Qaralmishda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatning qaratqichga qarashli ekaniligini bildiradi. 3. Qaratqich kelishigi qaralmishga nisbatan tobe munosabatda bo'ladi. 4. Qaratqich egalik qo'shimchasi, qaralmish qaratqich kelishigi qo'shimchasi shaklida keladi. ***/// **1,4**

1268. Ko‘plik shakli III shaxs egalik qo'shimchasi bilan qo'llanib, hurmat ma’nosini ifodalaganda egalik va ko‘plik shakllari qay tarzda o‘rinlashadi? ***/// **ko'plik shakli oldin, egalik shakli keyin keladi**

1269. Ko'plikdagi kishilik olmoshlarining qaysi bir(lar)i uslubiy talab bilan birlikni ko'rsatuvchi olmosh o'rnida kelishi mumkin? ***/// **har uchala shaxs ma’nosini ifodalovchi ko'plikdagi kishilik olmoshlari**

1270. kulgi, qadimgi, sezgi, yozgi, tepki, chopqi. Ushbu so‘zlardan ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lmaganlarini ajrating. ***/// **yozgi, qadimgi**

1271. -lar qo‘shimchasi hurmat ma’nosini bildirganda qaysi qo‘shimcha bilan birgalikda qo‘llanadi? ***/// **egalik qo‘shimchasi bilan**

1272. -lar qo‘shimchasi taxmin ma’nosini anglatgan gapni toping. ***/// **Tegirmongacha o‘n chaqirimlar yuriladi.**

1273. -lar qo'shimchasi hurmat ma’nosini anglatganda egalik qo'shimchasiga nisbatan qanday holatda joylashadi? ***/// **II shaxslarda egalik qo'shimchasidan keyin, III shaxsda egalik qo'shimchasidan oldin qo'shiladi.**

1274. -lar qo'shimchasi tasviriylik, ifodalilikni uchaytirgan javobni belgilang. ***/// Ko‘z yoshlarini artdi. 1275. Laylaktepa(?) o‘tib Qozirabot(?) borgan(?) qaynama buloq(?) muzday tiniq suv ichdik.

Ushbu gapda so‘roq belgilari o‘rnida mos ravishda qaysi kelishik qo‘shimchalari qo’llaniladi? ***/// **chiqish, jo’nalish, o’rin-payt, chiqish**

1276. -lik qo’shimchasi haqidagi qaysi fikr noto’g’ri? ***/// **o’rin-joy oti yasaydi**

1277. Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo'jaboy degan pudratchi bor, Matyoqubboy degan ko‘nchi bor. Ushbu gapda nechta shaxs oti qatnashgan? ***/// **4 ta**

1278. Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar bilan yasalgan ot ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Vujudimda hokimlik qilayotgan osha tuyg’ular ornini shafqat, odamiylik egallab oldi.**

1279. Mehnat bilan topilgan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il pulni o‘ylab ishlatadigan, xayrli yo‘llarga sarflaydigan bo‘ldi. Ushbu gapda nechta ot so‘z turkumiga oid so‘z bor? ***/// **6**

1280. Mehnat bilan topilgan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il pulni o‘ylab ishlatadigan bo‘ldi. Ushbu gapda nechta yasama so‘zning asosi ot turkumiga oid? ***/// **2**

1281. Morfologik usul bilan yasalgan otlarni aniqlang. ***/// **manmanlik, to‘rtlik**

1282. Morfologik usul bilan yasalgan otni aniqlang. ***/// **sanchqi** 1283. Morfologik usul bilan yasalgan otni aniqlang. ***/// **arizaboz** 1284. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so’rang buni,  Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada qaratqich hamda tushum kelishigi qo’shimchalarining qo‘llanishi haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang. ***/// **qaratqich kelishigi - 1 ta belgili, 1 ta belgisiz; tushum kelishigi - 2 ta belgili, 1 ta belgisiz**

1285. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash yo’li bilan hosil qilingan qo’shma otlar ko’rsatilgan qatorni toping 1) sheryurak; 2) toshbaqa; 3) oybolta; 4) tokqaychi; 5) suvilon; 6) otquloq; 7) bodomqovoq**.** ***/// **2,3,6,7**

1286. Noto‘g‘ri yozilgan so‘z qaysi qatorda qo‘llangan. ***/// **Turon ishlab chiqarish birlashmasi**

1287. o‘rtoq va yoq (tomon) so‘zlariga qaysi qo‘shimcha qo‘shilsa qo‘shimchada fonetik o‘zgarish bo'ladi? ***/// **kelishik qo'shimchasi**

1288. O‘zbekiston – go'zal diyor,
Saodatga mehnati yor,
O'zgacha bir hikmati bor,
Halollikka aytar alyor. Ushbu berilgan she’rda nechta ot turkumiga mansub so'z qo'llangan? ***/// **8 ta** 1289. O’g‘lining uchinchi marta olib kelgan pulini olovga otmoqchi bo‘lganida, bola uning qo‘liga yopishib, yondirmasligini so‘raydi. Ushbu gapda necha o‘rinda egalik qo‘shimchasi ishtirok etgan? ***/// **4**

1290. O’z tilini unutgan xalqning
Mozorida
ajdodlar qabri
Uzra qo‘yar
bolalar tikan.

Ushbu gapda qaysi kelishik qo‘shimchasi belgisiz qo‘llangan? 1) qaratqich; 2) tushum; 3) jo‘nalish; 4) o‘rin-payt; 5) chiqish ***/// **1**

1291. Odil podshohning asosiy vazifasi – kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iborat. Ushbu gapdagi otlashgan sifatlar sonini belgilang. ***/// **2**

1292. Orol dengizi, Bobur bog'i birikmalarida nima uchun oldingi qism qaratqich kelishigi shaklida qo‘llanmaydi? ***/// **egalik qo'shimchasi xoslik, umumdan ajratilganlik ma’nosini ifodalagani uchun**

1293. Osmon go'zal oyi, quyoshi bilan, Inson go'zal mardlik, bardoshi bilan. Fazilati odobi, xulqi bilan, Chin xislati - noyob qalb mulki bilan. Ushbu gapda nechta ot so'z turkumiga mansub so‘zlar mavjud? ***/// **12 ta**

1294. Ot so'z turkumi qatnashmagan gapni toping. ***/// **Hech qayerda, hech kimga umuman gapirmang, jim bo'ling.**

1295. Ot so'z turkumidan yasalgan sifatlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **hiylagar, vafodor**

1296. Ot va fe’l qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma ot qaysi qatorda berilgan? ***/// **husnbuzar**

1297. Ot yasovchi qo’shimchalar qo’shilgan so’zlarni aniqlang. 1) to’lin; 2) ilin; 3) erkin; 4) tiqin; 5) yig’in; 6) yashirin; 7) chaqin; 8) qishin yozin; ***/// 4,5,7

1298. Otdan yasalgan otlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **toshloq, qalamdon**

1299. Otlarda ko'plik ma’nosi qanday hosil qilinadi? 1) -lar qo'shimchasi orqali; 2) birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo'lgan sanoq sonlarni qo'shish bilan; 3) birlikdagi ot oldidan darajamiqdor ravishlarini qo'shish bilan; 4) so'zlarni juftlash bilan ***/// **1, 2, 3**

1300. Otlarda ko'plik shakli ko'plik ma’nosidan tashqari qanday ma’nolarni ifodalashi mumkin? 1) hurmat; 2) umumlashtirish; 3) kuchaytirish; 4) narsa va hodisaning xilma-xil ekanligi ***/// **1, 2, 3, 4**

1301. Otlardagi ko'plik shakli haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri? ***/// **Donalab sanalmaydigan otlar ko'plik shaklini olganda jamlik ma’nosini bildiradi.**

1302. Otlarning erkalash shaklini hosil qiluvchi qo’shimchalar to’g’ri berilgan javobni toping. ***/// **-chak, -jon, -xon, -oy**

1303. Otlarning kichraytirish shaklini hosil qiluvchi qo’shimchalar to’g’ri berilgan javobni toping. ***/// **-cha, -choq, -chak**

1304. Otlarning ma’no turlaridan qaysi biri nima? so‘rog‘i bilan birga qayer? so‘rog‘iga ham javob bo'ladi? ***/// **o‘rin-joy otlari**

1305. Otlarning qaysi turi -lik, -chilik, -garchilik, -(i)m, -(i)k, -(i)q qo’shimchalari yordamida yasaladi? ***/// **faoliyat-jarayon otlari**

1306. Otlashgan sifatlar qaysi javobdagi qo'shimchalarni qabul qilmaydi**?** ***/// **so‘z yasovchi qo'shimchalar**

1307. Otlashish hodisasi quyidagi qaysi gap(lar) tarkibida kuzatilmaydi? 1)Yotlaring seni shu kunlarga soldilar! 2) Zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar. 3) Yuz yillardan beri jafo chekib kelayotgan turkning qonli yoshlarin etaklaringga to‘karga keldim. 4) O’lim sening o’limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga. ***/// **3**

1308. ovunch oti qaysi so'z turkumidan yasalgan? ***/// **fe’ldan**

1309. Ozod va obod, erkin va farovon hayotni barpo etish har bir yurtdoshimizning e’tiqodiga aylangan. Gapdagi yasama ot haqida

bildirilgan qaysi fikrlar to‘g‘ri? 1) shaxs oti; 2) qaratqich aniqlovchi bo'lib kelgan; 3) egaga boglanib kelgan; 4) sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan. ***/// **1, 2**

1310. Qadriyat atamasi keng bo‘lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu gapda necha marta ot yasovchi qo'shimcha ishlatilgan?
***/// **2 ta**
1311. Qaratqich kelishigi qaysi so'zlarga qo'shilganda tushib qolmaydi? ***/// **atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga**
1312. Qaratqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin bo'lgan so'z qatnashgan gapni toping. ***/// **Mehmonlarning yoshi ulug‘i gapirdi.**
1313. Qaysi bir xalqning ichida jinoyat va gunoh ish qiladiganlardan ko'ra qilmaydiganlar ko'p va kuchli bo'laturib ularni tiyib qo‘ymasalar Tangrining ofati hammalariga barobar bo‘ladi. Matndagi otlashgan so'zlar sonini toping. ***/// **2**
1314. Qaysi gapda -dan qo'shimchasi o'rnida -ning qo‘shimchasini qo‘llasa bo'ladi? ***/// **Odamlardan biri bu haqda aytgan edi.**
1315. Qaysi gapda egalik qo‘shimchasi shaxs-son ma’nosini ifodalagan? ***/// **Bu yerda ko‘rganingni hech kimga aytma o‘rtoq.**
1316. Qaysi gapda egalik qo’shimchasi so‘z asosi bilan yaxilitlanib, o‘z vazifasini yo’qotgan? ***/// **Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi**.
1317. Qaysi gapda egalik qo'shimchasi asos qismda ifodalangan narsaning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi? ***/// **Vatan tuprog'i muqaddas.**
1318. Qaysi gapda egalik qo'shimchasi qo‘shilishi natijasida jarangsiz tovush jarangliga aylangan? ***/// **Ro‘parasida tiniq suvday zilol ko‘zguni ko'rdiki, uning go'zalligidan to'xtab qoldi.**
1319. Qaysi gapda –gina qo‘shimchasi otga xos lug‘aviy shakl yasovchi vazifasini bajargan? ***/// **Tarvuz va qovunginalar suvsizlikdan qovjirab turibdi.**
1320. Qaysi gapda -gina qo‘shimchasining oxirgi bo‘g‘ini kuchli urg‘u bilan aytiladi? ***/// **Zumradginam dalada qolib ketdi.**
1321. Qaysi gapda -lar qo’shimchasi uslubiy ma’no ifodalamagan? ***/// **Shu payt qayerdandir ayol kishilarning shivir-shiviri eshitildi.**
1322. Qaysi gapda -lar qo'shimchasi grammatik (morfologik) ma’no ifodalagan? ***/// **Sinfimizdagi Salimalarning ikkalasi ham matematikadan "a’lo" baho olishdi.**
1323. Qaysi gapda -lar tasviriylik, ifodalilikni kuchaytirgan? ***/// **Ko'z yoshlarini artdi.**
1324. Qaysi gapda lug’aviy shakl yasovchi morfema uslubiy vazifa bajargan? ***/// **Jo'shqin xotiralar xayolimni olib ketdi.**
1325. Qaysi gapda mavhum ot ishtirok etgan? ***/// **Butun falokat va razolat ana shunda. (S. Ahmad**

1326. Qaysi gapda mavjum otlaк soni nisbatan ko’p? ***/// **Vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi.**

1327. Qaysi gapda -ni o‘rnida -da kelishigini qo‘llasa bo‘ladi? ***/// **Karvon dashtni ancha kezib yurdi.**

1328. Qaysi gapda -ni o‘rnida -dan kelishigini qo‘llasa bo‘ladi? ***/// **Mehmon choyni ho‘pladi.**

1329. Qaysi gapda -ni o‘rnida -ga kelishigini qo‘llasa bo‘ladi? ***/// **Shirin otni mindi.**

1330. Qaysi gapda ot turkumiga oid yettita so‘z qatnashgan? ***/// **Kenglik ayolning manglayida, ko'zida, ko'ksida, chehrasida bo'lishi husnni oshiradi.**

1331. Qaysi gapda otlashgan so’zlar tarkibida ochiq bo’g’in uchramaydi? ***/// **Bermasning oshi pishmas.**

1332. Qaysi gapda qaratqich aniqlovchi beligili qo‘llanishi kerak? ***/// **Bolalarimiz kattasi o‘n oltiga qadam qo‘ydi.**

1333. Qaysi gapda qaratqich kelishigini olgan so‘z qo‘llangan? ***/// **O’qiganning oshig‘i olchi.**

1334. Qaysi gapda shaxs oti berilmagan? ***/// **Yana bir necha kun turib kelmoq uchun Otabek Marg'ilonga jo'nadi.**

1335. Qaysi gapda sodda yasama mavhum ot qo'llangan? ***/// **Saxiylik va olijanoblik ulug'vor fazilatdir.**

1336. Qaysi gapda so'z takroridan ko'plik ma’nosi anglashiladi? ***/// **Bozordan nima-nima olding?**

1337. Qaysi gapdagi juft ot qismlari yasama otlardan tuzilgan? ***/// **Mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surayotgani bizning baxtimizdir.**

1338. Qaysi gapdagi so’zda egalik qo'shimchasi xoslik, umumdan ajratilganlik ma’nosini ifodalagaa? ***/// **Toshkent sbahri osmono'par zamonaviy binolar bilan sayqal topgan.**

1339. Qaysi gapdagi yasama shaxs otining asosi faqat sirg’aluvchilardan iborat? ***/// **To'g'ri, dehqonchilik qilish sizday shaharliklarga yarashmaydi.**

1340. Qaysi gaplarda kelishiklar noto‘g‘ri qo‘llangan? 1. Ba’zi yoshlar sevgining shunchaki ko‘ngilxushlik deb yengil-yelpi qaraydilar. 2. Ba’zi keksalar sevgini bog'lovchi, yaratuvchi, baxt-saodat keltiruvchi kuchini tan olmaydilar. 3. Ustoz-shogirdlik o‘rtasidagi munosabatlar azaldan oson kechmasligini pisanda etmoqchimasmiz. 4. Tushuntirishni hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix va falsafa, mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko‘rsatmoqda**.** ***/// **1, 2, 4**

1341. Qaysi gaplarda tushum kelishigini belgisiz qo'llash mumkin? 1. Botirlari kanalni qazadi. 2.

Men seni qutlayman. 3. Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim. 3. Yaxshini maqtaydilar. 4.

Birpasda ovqatni yeb bo'ldim. 5. Ozni ko'p yengibdi. ***/// **1, 5**

1342. Qaysi hukm noto'g'ri? ***/// **Qaratqich kelishigini tushum kelishigi bilan almashtirsa bo'ladi.**
1343. Qaysi javobda egalik qo‘shimchasini qo‘shish natijasida tovush o‘zgarishiga uchrashi mumkin bo‘lgan yasama so‘zlar berilgan**?** ***/// **qayroq, chanqoq**
1344. Qaysi javobda qismlari o‘zaro ma’nodosh bo'lgan juft otlar berilgan? ***/// **o'y-xayol**
1345. Qaysi javobda sifatdan yasalgan otlar berilgan? ***/// **go'zallik, ezgulik, yaxshilik**
1346. Qaysi javobdagi yasama ot fe’ldan yasalmagan? ***/// **to‘kinlik**
1347. Qaysi joy nomlari imlo qoidalariga ko'ra to'g'ri yozilgan? 1) Kavkazorti; 2) Samarqand Chinni zavodi; 3) Boltiqbo’yi; 4) O'rta Saroy; 5) Baland machit ***/// **1, 3**
1348. Qaysi kelishik boshlanish vaqti va joyi ma’nosini vazifadosh bildiruvchi ko'makchi bilan qo’llanishi mumkin? ***/// **chiqish**
1349. Qaysi kelishik qo'shimchasi ba’zan egalik qo'shimchasi bilan omonimlik hosil qiladi? ***/// **qaratqich**
1350. Qaysi kelishik shaklidagi so‘z doim bir xil sintaktik vazifada keladi? ***/// **tushum kelishigi**
1351. Qaysi maqolda kelishik qo'shimchasi belgisiz qo'llangan**?** ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**
1352. Qaysi maqolda otlashgan so’zda fleksiya hodisasi mavjud? ***/// **Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma.**
1353. Qaysi qatorda -chilik qo’shimchasi bilan yasalgan faoliyat-jarayon otlari bor? ***/// **ustachilik, dehqonchilik, kamchilik**
1354. Qaysi qatorda egalik qo’shimchasi qo’shilganda asosda tovush almashish hodisasi kuzatiladigan, portlovchi jarangsiz til orqa undoshi bilan tugagan so’zlar berilgan**?** ***/// **tilak, bilak**
1355. Qaysi qatorda imloviy xatoga yo‘l qo‘yilgan**?** ***/// **Davlat Test Markazi**
1356. Qaysi qatorda otlarning kichraytirish shakli berilgan**?** ***/// **toychoq, kelinchak**
1357. Qaysi qatorda otlashgan so'z qo'llangan? ***/// **Dunyoda el va yerga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi?**
1358. Qaysi qatorda qaratqich kelishigi belgili qo'llanadigan so'zlar berilgan? ***/// **har kim, kerilgan, Bobur**
1359. Qaysi qatorda qismlari mavhum otlardan iborat bo‘lgan juft otlar berilgan? ***/// **o‘yxayol, his-tuyg‘u, aql-idrok**
1360. Qaysi qatorda qismlari o'zaro ma’nodosh bo'lmagan juft otlar berilgan? ***/// **ota-ona**

1361. Qaysi qatorda shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar berilgan? ***/// **-xon, -chi, -dosh, -boz**
1362. Qaysi qatorda turdosh otlardan hosil bo'lgan atoqli otlar berilgan? ***/// **Asal, Lola**
1363. Qaysi qatordagi atoqli otlar imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan? ***/// **Katta Farg‘ona kanali, Boltiqbo'yi davlatlari**
1364. Qaysi qatordagi gapda hurmat ma’nosi – ifodalangan? ***/// **Zoti shariflari ijozat etsalar.**
1365. Qaysi qatordagi gapda -i, -si egalik qo'shimchalari o‘z vazifasini yo'qotgan? 1) Kechasi
yomg‘ir yog'di. 2) Ona tuni bilan uxlamadi. 3) O’tgan yili hosil yaxshi bo'lgan edi. ***/// **1, 2, 3**
1366. Qaysi qatordagi gapda kelishik qo’shimchasi bilan bog‘liq xatolik mavjud? ***/// **Qo'lingga kelgancha yaxshi ot chiqar.**
1367. Qaysi qatordagi gapda -ni qo'shimchasi uslubiy noto‘g‘ri qo'llangan? ***/// **... fikrni ravon uslubda izchil bayon etish, orfografik va punktuatsion jihatdan savodli ifodalash hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.**
1368. Qaysi qatordagi gapda qaratqich kelishigi o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘llangan? ***/// **Latifjonning adasi so‘zining ustidan chiqdi.**
1369. Qaysi qatordagi gapda shaxsning hududga mansubligini bildiruvchi qo‘shimchali so‘z qatnashgan? ***/// **Bittasi toshkentlik Yuusufbek hojining o‘g‘li Otabek!**
1370. Qaysi qatordagi otlarda ko'plik morfologik yo'l bilan hosil qilingan? ***/// **uylar, do'stlar**
1371. Qaysi qatordagi otlarga egalik affiksi qo'shilganda, so‘z oxiridagi k yoki q tovushi o'zgarmaydi? ***/// **ishtiyoq, firoq, tuk**
1372. Qaysi qatordagi yasama otlarda hosil bo'lish usuliga ko‘ra bir guruhga kiruvchi undoshlar ishtirok etgan**?** ***/// **donolik, tiqin, kitobxon**
1373. Qaysi qatordagi yasovchi qo‘shimcha ta’sirida fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilsa tovush almashadi? ***/// **qayroq, chanqoq**
1374. Qaysi qo'shma otlar boshqaruvli so'z birikmasidan kelib chiqqan? 1) muzyorar; 2) beshiktervatar; 3) cho'lquvar; 4) tinchliksevar; 5) otboqar; 6) ishyoqmas; 7) o'rinbosar ***/// **2, 3, 5, 7**
1375. Qaysi so'zda mavhum ot yasovchi -inch qo'shimchasi qo'llangan? ***/// **qo'rqinch**
1376. Qaysi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa fonetik o'zgarish bo'lmaydi? ***/// **orzu, qulun, huquq**
1377. Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g‘am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim. Ushbu misralardagi kelishiklar soni va turini aniqlang.
***/// **2 ta bosh, 2 ta qaratqich, 1 ta jo'nalish, 1 ta chiqish kelishigi**

1378. Qurboning bo‘layin, ey onajonim
Sening faryodlaring, mening fig‘onim.
(M. Yusuf) 1379. Qurboning bo‘layin, ey onajonim
Sening faryodlaring, mening fig‘onim. (M. Yusuf) Ushbu she’riy parchada nechta egalik qo‘shimchasi qo‘llangan? ***/// **4**

1380. Quyida berilgan gapda nechta rnavhum ot qatnashgan? Shu sevinch ikkovlariga ham kuchg‘ayrat, ham dadillik baxsh etgandek bo’ldi**.** ***/// **3 ta**

1381. Quyida berilgan gapda nechta shaxs oti qatnashgan? Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi**.** ***/// **2 ta**

1382. Quyida berilgan gapdagi shaxs va narsa otlarining miqdorini aniqlang. Men o‘qimay turib ham, boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, artist ham bo‘la olaman, deb qattiq ishonardim. (X.To'xtaboyev) ***/// **3 ta shaxs oti, 2 ta narsa oti**

1383. Quyida berilgan gaplarning qaysilarida sifatdan yasalgan ot ishtirok etgan? 1)To’g’ri so‘z qilichdan o’tkir, shuning uchun hamisha rost so’zlashga odatlan. 2) Kamtar bo’l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi. 3) O’z fikrini o’ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi. ***/// **2, 3**

1384. Quyida berilgan so'zlarning qaysilariga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, bu so'z fonetik yozuv asosida yozilmaydi? 1) o'rin; 2) park; 3) rizq; 4) kapalak; 5) bo'g'iz; 6) nutq; 7) qorin; 8) butoq; 9) farq; 10) tuproq ***/// **2, 3, 6, 9**

1385. Quyida berilganlardan shaxa otlarini aniqlang. 1) yaxshilik; 2) cho’ponlik; 3) she’rxon; 4) zargar; 5) qassob; 6) mirob ***/// **3,4,5,6**

1386. Quyidagi berilganlardan qaysi birlariga III shaxs sifatida qaraladi?1) nutqdan tashqari barcha shaxs; 2) nutqdan tashqaridagi predmet; 3) voqea-hodisa; 4) tinglovchi ***/// **1,2,**

1387. Quyidagi gapda egalik qo'shimchalari bilan qo'llangan so'zlar nechta? Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim sultonim. ***/// **6 ta**

1388. Quyidagi gapda raqamlar o'rnida qaysi kelishik shakllari qo'llanadi? Ba’zi yoshlar sevgi(l) shunchaki ko'ngilxushlik deb yengil-yelpi qarashsa, ba’zi keksalar u(2) bog‘lovchi, yaratuvchi, baxt-saodat keltiruvchi kuchi(3) tan olmaydilar**.** ***/// **1-jo‘nalish, 2qaratqich, 3-tushum**

1389. Quyidagi she’riy misralarda nechta ot so'z turkumiga mansub so‘z qatnashgan? Yashash, bu - orzular qanotin kermoq, Yashash, bu - muhabbat gullarin termoq, Yashash, bu- umrning gulgun damlari, El uchun yashamoq, el uchun bermoq**.** ***/// **8 ta**

1390. Sening xotirangni unutmas aslo, Mening yuraklarim, O‘rta Osiyo. Ushbu parchada -lar qo'shimchasi qanday ma’no anglatgan? ***/// **kuchaytirish**

1391. Sharifa xolaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qib, ulg‘ayib yana bag‘riga qaytdi. Ushbu gapdagi necha so‘zda egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan? ***/// **2 so‘zda**

1392. Shaxs otlari shaxslarni quyidagi qaysi jihatlariga ko'ra nomlab keladi? 1) yoshiga; 2)yashash joyiga; 3) mansab-unvoniga; 4) kasb-koriga; 5) ijtimoiy holatiga; 6) qarindoshlik darajasiga; 7) nasl-nasabiga ***/// **1,2,3,4,5,6,7**

1393. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov). Ushbu parchada nechta bo’g’in yon tovushi bilan tugagan? ***/// **5**

1394. Shu so‘zlar og‘zimdan chiqar-chiqmas, do‘stim etagimga yopishib xitob qildi: “Karam sohibi bo‘lgan odam va’da berdimi, va’dasiga vafo qilishi lozim!” (Sa’diy) Ushbu gapda egalik qo‘shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang**.** ***/// **2 ta**

1395. Shu so’zlar og‘zimdan chiqar-chiqmas, do‘stim etagimga yopishib xitob qildi: “Karam sohibi bo’lgan odam va’da berdimi, va’dasiga vafo qilishi lozim!” (Sa’diy) Ushbu gapda egalik qo'shimchasi qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar sonini aniqlang. ***/// **2 ta**

1396. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,

Bir bor nazar solgin bosgan
izingga sen, Shu savolni
berib ko’rgin o’zingga sen,

Aytgil, do’stim, nima qildik Vatan uchun? (Iqbol Mirzo) Ushbu she’riy parchada turdosh otning qaysi turlari qo’llangan? 1) shaxs oti; 2) narsa oti; 3) o’rin-joy oti ***/// **1, 2, 3**

1397. Sifat asosli yasama mavhum otlar berilgan gapni belgilang. ***/// **Hasad-yurakning zanglashi, qaysarlik mag‘lubiyat sababchisidir.**

1398. Sinalmagan do'stga sir aytgan kishining ishi go‘yo o‘zini o‘zi daryoga otib, do‘stiga xitob qilgan holda: "Meni g‘arq bo‘lishdan qutqar!" degan kishining ishiga o'xshaydi. Ushbu gapda egalik qo'shimchasi necha marta qo’llangan? ***/// **5**

1399. Sodda yasama faoliyat-jarayon otlari ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) chopiq; 2) terim; 3) ko'rik; 4) g'allachilik; 5) loygarchilik; 6) sayr; 7) shoferlik ***/// **1, 2, 3, 4, 5, 7**

1400. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad - milliy o'zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar qaysi turkumga tegishli? ***/// **ot, fe’l**

1401. Tarkibida egalik qo‘shimchasi yaxlitlanib qolgan so‘z qatnashgan gapni toping. ***/// **Tuni bilan mijja qoqmadi.**

1402. Tarkibidagi barcha bo'laklar ot turkumiga mansub bo'lgan gapni toping. ***/// **Til – dil kaliti.**

1403. Tarkibidagi -lar qo'shimchasi ko'plik ma’nosini ifodalagan ot qatnashgan gapni toping. ***/// **Hamma ishlarning boshi halollikdir.**

1404. Tayog‘i yo‘g‘on birni urar, so‘zi yo‘g‘on mingni urar. Ushbu maqolda otlashgan birliklar qaysi bo'lak vazifasini bajargan**?** ***/// **ega, to'ldiruvchi**

1405. Tayog‘i yo‘g‘on birni urar, so‘zi yo‘g‘on mingni urar. Ushbu maqoldagi otlashgan birliklar sonini aniqlang**.** ***/// **4 ta**

1406. Tinglash ham so’zlashga kam baholanmaydigan mehnat bo’lib, uni qonun qoidalariga amal qilsangiz, yaxshi suhbatdosh bo’lishni birinchi va eng muhim shartiga amal qilgan bo’lasiz. Ushbu gapda kelishik qo’shimchalari necha o’rinda noto’g’ri qo’llangan? ***/// **3**

1407. to‘kinchilik yasama otining yasalish asosi qaysi so'z turkumi**?** ***/// **sifat**

1408. Tug'ilgan kun bilan bog‘liq ismni toping. ***/// **Odina**

1409. Turdosh otlar qatorini aniqlang. ***/// **qalam, bola, terak, ko‘ylak**

1410. Tushum kelishigi qaysi holatlarda so‘z tarkibidan tushib qolmaydi? 1) tushum kelishigidagi so‘z o‘timli fe’llar bilan bog‘langanda; 2) tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe’l yonma- yon turganda; 3) tushum kelishigi bilan o‘timli fe’l o‘rtasida boshqa so‘z ishlatilganda; 4) tushum kelishigidagi so‘z taqlid so‘z bilan ifodalanganda; 5) tushum kelishigidagi so‘z atoqli ot, olmosh va sifatdosh bilan ifodalanganda. ***/// **3,4,5**

1411. Tushum kelishigi shaklida qo‘llangan otlar qatorini toping. ***/// **kitobni, sardorni, odamni, o‘qituvchini**

1412. Tushum kelishigiga xos xususiyatlar to‘g‘ri qayd etilgan javobni belgilang. 1) tushum kelishigidagi so‘z faqat o‘timli fe’llarga bog‘lanadi; 2) tushum kelishigidagi so‘z bilan o'timli fe’l yonma-yon turganda kelishik tushib qolmaydi; 3) tushum kelishigi bilan o'timli fe’l o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llana oladi; 4) tushum kelishigidagi so‘z taqlid so‘z bilan ifodalanganda kelishik tushib qolmaydi; 5) tushum kelishigidagi so‘z atoqli ot, olmosh va sifatdosh bilan ifodalanganda kelishik tushib ' qolmaydi. ***/// **1, 3,4,5**

1413. Tushum va chiqish kelishigidagi so'zlar munosabatida qaysi so'z butunni, qaysi so'z qismni anglatadi? ***/// **chiqish kelishigidagi so'zlar qismni, tushum kelishigidagi so'zlar butunni anglatadi**

1414. tuyg‘u, cholg‘u, mangu, orzu, uyqu, ezgu. Berilgan so‘zlar qatoridan yasama otlarni toping. ***/// **tuyg‘u, cholg‘u**

1415. Umidaning “sen” degani Hafizaga juda yoqdi – bu juda yaqinlik belgisi. Tilning barcha o‘rinlarida hosil bo‘luvchi undoshlargina ishtirok etgan so‘z qaysi so‘z turkumiga mansub?

***/// **ot**

1416. Unim yo‘q, bunim yo‘q,

Uyimda
unim yo‘q.
Ishimda
unum yo‘q,
Aytishga unim yo‘q. Ushbu she’riy parchada egalik qo'shimchasi nechta o'rinda qo'llangan?

***/// **6 ta**

1417. Unim yo‘q, bunim yo‘q,
Uyimda unim yo‘q.
Ishimda unum yo‘q,
Aytishga unim yo‘q. Ushbu she’riy parchada egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida nechta so‘z fonetik yozuv asosida yozilgan? ***/// **2**

1418. Voqea-hodisani bildirgan mavhum otni toping. ***/// **urush**

1419. Xalq (tabobat) qulupnay (meva) terlatuvchi, bezgak (xuruj) qarshi omil sifatida tavsiya etiladi. Ushbu gapda qavs ichidagi so’zlarga qo’shilishi kerak bo'lgan qo'shimchalarni so’zda joylashish tartibi bo'yicha aniqlang. ***/// **egalik, o‘rin-payt kelishigi, egalik, egalik, jo'nalish kelishigi qo'shimchalari**

1420. Xalq (tabobat) qulupnay (meva) terlatuvchi, bezgak (xuruj) qarshi omil sifatida tavsiya etiladi. Ushbu gapda qavs ichidagi so’zlarga qo‘shilishi kerak bo‘lgan egalik va kelishik qo‘shimchalar sonini aniqlang. ***/// **2 ta kelishik, 3 ta egalik qo'shimchasi**

1421. Xato yozilgan birliklarni aniqlang. 1) Malika ishlab chiqarish birlashmasi; 2) Temuriylar
Tarixi davlat muzeyi; 3) Guliston davlat universiteti; 4) Toshkent agrar universiteti; 5)
Damas avtomashinasi; 6) O'zbekiston Oliy Majlisi ***/// **2,5,6**

1422. Xato yozilgan so'zlar qatorini toping. ***/// **Amudaryo jurnali, Shuhrat medali**

1423. Yakka va jamlovchi ot ishtirok etgan gapni belgilang. ***/// **Xurosonda bir davr**
**yaratmoq lozimki, o’zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (Oybek)**

1424. Yarog', dog', tog' so'zlariga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, qaysi yozuv asosida yoziladi? ***/// **morfologik**

1425. Yasama mavhum ot qatnashgan gapni toping. ***/// **Kezib-kezib topganlarim sog‘inch bo'ldi**

1426. Yasama shaxs oti ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **U bolalikdan dorbozlarning o'yinlarini yoqtirar edi.**

1427. yigit, erkak, qari, chol. Berilgan otlar qaysi xususiyatga ko‘ra farqlanadi? ***/// **yoshiga ko‘ra**

1428. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov) Ushbu gapda ot yasovchi qo‘shimcha necha o‘rinda qo’llangan? ***/// **2**

1429. Qaysi qatorda otning munosabat shakllaridan biri mavjud? ***/// **bilan, ham, na ..., na., -u(-yu), -da,**

1430. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning "Al-Jome’ as-Sahih" to'plami necha yilda yozilgan va nechta kitob va bobdan iborat? ***/// **16 yilda; 97 ta kitob (fasl), 3405 bob**

1431. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar.Ushbu gapda nechta otlashgan sifat ishtirok etgan? ***/// **2ta**

1432. Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili esa yuragidadir. Berilgan gapda otlashgan sifat nechta o‘rinda qo‘llangan? ***/// **2ta**

1433. Amr qildimki, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishi lozim: birinchisi

– asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapdagi nechta so‘z tarkibida sifat yasovchi qo'shimchadan so‘ng ot yasovchi qo'shimcha qo'shilgan? ***/// **5**

1434. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida ot yasovchi qo'shimchadan so'ng sifat yasovchi qo'shimcha qo'shilgan? ***/// **1**

1435. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u el ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu gapda sifat yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan? ***/// **6**

1436. Asliy sifatlar berilgan qatorni toping. ***/// **baland, go‘zal** 1437. Asliy sifatlar berilgan qatorni toping**.** ***/// **go’zal, aqlli, yuzaki**

1438. Asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiragan, no-,siz-, be- qo'shimchalariga zid ma'noli sifat yasovchi qo’shimchalarni aniqlang. ***/// **-li, -dor, ba-, ser-**

1439. Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga o’xshaydi. Ushbu gapdagi sifatlar haqida berilgan to'g‘ri hukmlarni toping. 1) yasama sifatlar qatnashgan; 2) qo'shma va sodda sifatlar qatnshgan; 3) aniqlovchi va hoi vazifalarida kelgan; 4) sifatlar mustaqil hol vazifasini ham bajargan; 5) xususuyat bilduruvchi sifatlar ham ishtirok etgan. ***/// **1, 2, 5**

1440. Belgining ortiqlik darajasini ko‘rsatuvchi ko‘pdan ko‘p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq kabi so‘zlar qanday yoziladi? ***/// **ajratib yoziladi**

1441. Berilgan juft sifatlarning qaysi biri yangi imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan? ***/// **yaxshi-yu yomon**

1442. Berilgan qaysi so‘zlarda be– va –siz qo‘shimchalarini o‘zaro ma’nodosh qo‘shimcha sifatida qo‘llab bo‘lmaydi? ***/// **bosh, chora**

1443. Bobur tadbirli va jasur lashkarboshi, dono va adolatli hokim, fozil va o'qimishli inson, ajoyib shoir, ilmning turli sohalaridan xabardor bo'lgan yetuk shaxs edi. Ushbu gapda nechta yasama sifat bor? ***/// **6**

1444. Bu bog‘lar ichida qizg‘ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko‘rkam binolar, ko‘shklar, kichik-kichik saroylar ko‘zga tashlanadi. Ushbu gapdagi sifatlar haqida bildirilgan qaysi hukm noto‘g’ri? ***/// **gapdagi uchta sifat rang-tus bildiradi.**

1445. Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo’lsa ham, kechagidan ko’ra qo’rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. Ushbu gapda nechta sifat yasovchi qo’shimcha bor? ***/// **4 ta**

1446. Chopib kirar sovuq shaharga

Yalangoyoq yashil daraxtlar. (Sh.Rahmon) Parchadagi yasama sifatlarni ko'rsating. ***/// **sovuq, yalangoyoq**

1447. Fe’ldan yasalgan sifatlarni toping.1) ko’tara; 2) egik; 3) jannati; 4) ayrim; 5) g’amxo’r; 6) iliq ***/// **1, 2, 4, 6**

1448. Fe’llardan yasalgan sifatlar qatorini ko'rsating. ***/// **qarimsiq, qaynatma(taom), sezgir**

1449. Hamma nopok, hamma egri, yolg'iz siz to’g’ri. Gapdagi sifatlar haqidagi noto‘g‘ri hukmni belgilang ***/// **sifatlar tarkibidagi yopiq bo'g'inlar jarangli undoshlar bilan tugagan** 1450. Hindubek turkiy, forsiy tillarni mukammal o’rgangan ilmli, ma’rifatli, dilkash kishi bo’lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi. (P.Qodirov) Ushbu gapda nechta sifat mavjud hamda ulardan nechtasi yasama sifat hisoblanadi? ***/// **6 ta sifat; 5**

**tasi yasama**

1451. –i qo‘shimchasi quyidagi qaysi so‘zga qo‘shilsa, sifat yasovchi bo‘lishi mumkin? ***/// **jannat**

1452. Ism asosli sodda yasama sifatlar qaysi javobda berilmagan? ***/// **o'ynoqi, yashirin, dastlabgi**

1453. javobda "ravish+ot" tarzida yasalgan qo'shma sifat berilgan? ***/// **hozirjavob**

1454. Kerakli toshning og‘irligi yo‘q. Gapdagi yasama otning asosi qaysi so'z turkumiga taalluqli? ***/// **sifat**

1455. -li qo‘shimchasi yordamida yasalgan sifatlar o‘zakdan anglashilgan tushunchaga nisbatan qanday ma’noni anglatishi qaysi qatorda to‘g‘ri va to‘liq berilgan? ***/// **o‘zak ifodalagan narsaning mavjudligini va me’yordan ortiqligini bildiradi.**

1456. –li yasovchi qo‘shimchasiga sinonim bo‘la oluvchi qo‘shimchalar qaysi javobda berilgan? ***/// **-ser, -dor, -ba**

1457. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ushbu gapdagi sifatlar sonini ko’rsating. ***/// **4**

1458. Mehnatkash, zahmatkash insonlar odamlarning ko’rki, ishyoqmaslar esa ularning og’riq joyidir. Ushbu gapdagi sifatlar sonini toping. ***/// **3ta**

1459. Nisbiy sifat qo'llangan gapni toping. ***/// **Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda, g'ishtin uycha bor.**

1460. Nisbiy sifatlar berilgan qatorni toping. ***/// **kuzgi, chillaki, ro’molli**

1461. O’z onamni elas-elas xotirlayman. Ko‘zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. Ushbu gapda nechta sifat bor va ular qanday tuzilishga ega? ***/// **3ta: takroriy va sodda**

1462. Orttirma darajadagi sifat qo'llangan gapni toping**.** ***/// **Hovli ham, uy ham bo‘mbo‘sh, hamrna yoq suv quygandek jim-jit edi.**

1463. Otlashgan sifat berilgan qatorni toping. ***/// **Ahmoqlarning yuragi og‘zida, donolarning tili yuragidadir.**

1464. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Shu yaqindan o'tib ketayotgan ikkita ovchi urishqoqni aravaga ortib ketishdi.**

1465. Otlashgan sifat qatnashgan gapni toping. ***/// **Otni eng yaxshisi uloqda bilinadi.** 1466. Otlashgan sifat qaysi gapda keltirilgan? ***/// **Bilimli biladi bilim hurmatin.**

1467. Ovi yurgan, dili pora kabi iboralar qaysi so‘z turkumiga yaqin turadi? ***/// **sifat**

1468. Predmetning o‘rin va paytga ko‘ra belgisini bildiruvchi sifatlar qatorini toping. ***/// **ichki, ertalabki, kuzgi**

1469. Qaysi gap tarkibida belgiga ega emaslikni bildiruvchi qo'shimcha bilan antonimlik hosil qilmaydigan sifat yasovchi berilgan? ***/// **Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalmand, rangpar kishi**

1470. Qaysi gap tarkibida ikki o‘rinda yasama sifat qo‘llangan? ***/// **Ayniqsa, Nasriddinning quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi.**

1471. Qaysi gap tarkibida qatnashgan yasama sifat 2 ta fonetik o’zgarishga uchragan? ***/// **Ariqlarda suv emas, o’ynoqi nur oqadi.**

1472. Qaysi gapda hosil bo'lish usuliga ko‘ra bir guruhga kiruvchi undoshlardan tashkil topgan yasama sifat berilgan? ***/// **Bu xushovoz xonandaning yoqimli qo‘shiqlari barchaga manzur.**

1473. Qaysi gapda ikkita o'rinda yasama sifat mavjud? ***/// **Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda – o'sgan archalar yo‘g‘on va bo‘ydor bo'ladi.**

1474. Qaysi gapda juft sifat o‘rin-joy otiga bog‘lanib kelgan? ***/// **Daryo bo’yida kattakichik ko’llar, to’qayzorlar ko’p edi.**

1475. Qaysi gapda sifat otlashmagan? ***/// **Axir, musulmonman, aylanay! – dedi Hoji xola.**

1476. Qaysi gapda sifatning bir ma’noviy guruhiga kiruvchi so'z boshqa bir ma’noviy guruh o'rnida qo'llangan? ***/// **Tuzsiz she’rlarim deb shirindan shirin Bolalarim yurar oyoq uchida.**

1477. Qaysi gapda -siz, be-, no- sifat yasovchi qo’shimchalarining uchchalasini ham sinonimik munosabatda qo’llab bo’ladi? ***/// **umid**

1478. Qaysi gapda til orqa undoshi sifat yasovchi qo‘shimcha vazifasini bajargan? ***/// **Mevalarni saralayotganda chiriklarini alohida ajratib oling.**

1479. Qaysi gapda uchta yasama sifat ishtirok etgan? ***/// **Atrofdagi hovlilardan ko’tarilgan tutunlar ko’kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi.**

1480. Qaysi gapda yasama sifat yo’q? ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**

1481. Qaysi gapda yasama takroriy sifat mavjud? ***/// **Yo'lovchi issiq-issiq choy ichdi.**

1482. Qaysi gapdagi sifat paytga xos belgini ifodalovchi qo‘shimcha bilan yasalgan? ***/// **Shahzodaning dilini ma’yus, har kungi mudhish tuyg'ularga o’xshamagan, allaqandav pokiza hislar chulg'ab oldi.**
1483. Qaysi gapdagi sifatlar bir xil gap bo'lagi vazifasida kelgan? ***/// **Pastakkina tandiri bilan katta uyda kichkina bir chol yashardi.**
1484. Qaysi gapdagi yasama sifat asosida faqat portlovchi tovushlar ishtirok etgan? ***/// **Nomus jondan ham qimmatliroq.**
1485. Qaysi javobda faqat asliy sifatlar berilgan? ***/// **keng, baland, alli, badjahl**
1486. Qaysi javobdagi birikmada li qo'shimchasi o'zak ifodalagan narsaning me’yoridan ortiqligini bildirgan? ***/// **suvli olma**
1487. Qaysi javobdagi gapda yasama sifat mavjud? ***/// **Otin bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin.**
1488. Qaysi maqolda fe’ldan yasalgan sifat ishtirok etgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
1489. Qaysi maqoldagi yasama sifat fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
1490. Qaysi qatorda asosi faqat yopiq bo‘g‘indan iborat yasama sifatlar berilgan? 1) batafsil; 2) noaniq; 3) qadrdon; 4) to’lin; 5) achchiq; 6) toshloq ***/// **1, 3, 4**
1491. Qaysi qatorda ma’nodosh so‘zlar sifat turkumiga mansub? ***/// **ulug‘, buyuk, ulkan**
1492. Qaysi qatorda morfologik usul bilan yasalgan sifat yo'q? ***/// **Bu dunyoda qayg'urishga arziydigan bitta yo'qotish bor, u ham bo'lsa iymondan ayrilmoqdir.**
1493. Qaysi qatorda ot so’z turkumidan yasalgan nisbiy sifatda tovush o’zgarishi mavjud?

***/// **Imtihonlarimning og’zakilari tugadi,endi yozmasidan o’tsam bas!**

1494. Qaysi qatorda ot+ot shaklidagi qo'shma sifatlar berilgan? ***/// **bodomqovoq, sheryurak, devqomat**
1495. Qaysi qatorda qo‘shma sifatlarning birinchi qismi bir bo’gindan iborat? ***/// **erksevar, sheryurak, devqomat**
1496. Qaysi qatorda qo'shma sifatlarning ikkinchi qismi ochi+yopiq bo’g’inlardan iborat? ***/// **erksevar, sheryurak, devqomat**
1497. Qaysi qatorda ravish+ot shaklidagi qo'shma sifatlar berilgan? ***/// **kamhosil, hozirjavob, kamxarj**
1498. Qaysi qatorda sifat belgini ta’kidlab kuchaytirib ifodalagan**?** ***/// **Uzun-uzun arg'amchi yerda yotsa, maylimi.**
1499. Qaysi qatorda sifat harakatning belgisini bildirmagan? ***/// **O’zbek xalqi mehmondo’st va ko’ngli ochiq xalq.**
1500. Qaysi qatorda yasama sifat berilgan? ***/// **qo‘rqoq, yumuq, siniq**
1501. Qaysi qatordagi barcha qo'shma sifatlar tarkibida shakldosh so’zlar mavjud? ***/// **bodomqovoq, qirqoyoq, kunbotar**

1502. Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat berilgan? ***/// **Tushki ovqatni yedik.**

1503. Qaysi qatordagi qo’shma sifatlar bitishuvli birikma asosida paydo bo’lgan? ***/// **toshbag'ir, sofdil, uzunquloq**

1504. Qaysi qatordagi qo'shma sifatlarning barchasida qator undosh mavjud? ***/// **erksevar, balandparvoz, tinchliksevar**

1505. Qaysi qatordagi so‘zlar sifat so‘z turkumiga mansub? ***/// **qo‘rqoq, yumuq, siniq**

1506. Qaysi qo'shimchalar rang-tus sifatlariga qo'shilib, belgining me’yordan kamligini bildiradi? ***/// **-mtir (-imtir), -ish**

1507. Qismlaridan biri yasama so‘z bo'lgan qo‘shma sifatlarni aniqlang. 1) sovuqqon; 2) ko'ngilochar; 3) betgachopar; 4) tinchliksevar ***/// **1, 4**

1508. Qo‘llari ketmon, o‘roq, ayri ushlayverganidan g‘adir-budir, haqiqiy dehqon edilar. Ushbu gapda sifatlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? ***/// **kesim, aniqlovchi**

1509. Qo‘llari ketmon, o‘roq, ayri ushlayverganidan g‘adir-budir, xaqiqiy dehqon edilar. Gapdagi imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan so‘z qaysi turkumga tegishli? ***/// **sifat**

1510. Quyida berilgan gapda nechta yasama sifat bor? Tutunlar ko’kimtir, mayin, mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi. ***/// **2 ta**

1511. Quyidagi gapda sifat qanday gap bo‘lagi vazifasida kelgan? Siz bilan olam go‘zal. ***/// **kesim**

1512. Quyidagi gapdagi sifatlar qaysi so’z turkumidan yasalgan? Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo’lsa ham, kechagidan kora qo’rqinchliroq tuyular edi. ***/// **fe’l, ravish, ot**

1513. Quyidagi qaysi fe’llardan -iq qo‘shimchasi orqali sifat yasash mumkin? 1) buz; 2) pish; 3) yul; 4) yum ***/// **2**

1514. Quyidagi qaysi grammatik hodisalar tarkibida sifat mavjud. 1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go‘zal; 5) o'qishda ilg‘or; 6) osmon beg'ubor. ***/// **1, 2, 3, 4, 5, 6**

1515. Quyidagi qaysi sonlar o'zaro omonimlikni yuzaga keltiradi? 1) qirq; 2) yuz; 3) to'rt; 4) uch; 5) o'n; 6) bir; 7) yetti. ***/// **1, 2, 4**

1516. Quyidagi so‘zlarning qaysilarida sifat yasovchi qo‘shimcha jarangli undoshdan so‘ng qo'shilgan? 1) iliq; 2) siniq; 3) egik; 4) tiniq; 5) ochiq; 6) yoyiq; 7) yopiq; 8) teshik ***/// **2, 3, 4, 6**

1517. -roq qo‘shimchasi berilgan so‘zlarning qaysi biri bilan sinonim bo‘lishi mumkin? 1) sal; 2) liq; 3) biroz; 4) tim; 5) och; 6) behad ***/// **1,3,5**

1518. Sifat darajalarini ko‘rsatuvchi qo‘shimchalarning sinonimik qatori qaysi**?** ***/// **-roq, shi, -itir, -imtir**

1519. Sifat qaysi qatorda otlashmagan? ***/// **Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi.**

1520. Sifat so'z turkumi otlashmasa, qaysi gap bo'lagi vazifalarini bajaradi? ***/// **sifatlovchi aniqlovchi, ot-kesim, ravish holi**

1521. Sifat tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho‘zish yo‘li bilan sifatning qaysi darajasi hosil qilinadi? ***/// **orttirma daraja**

1522. Sifat turkumiga oid so'zlar berilgan qatorni aniqlang. ***/// **qo'rqoq, yumuq, siniq**

1523. Sifat yasovchi qo‘shimchalardan qaysilari lug‘aviy shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik qiladi?1) -gi; 2) -siz; 3) -ma; 4) –in. ***/// **3, 4**

1524. Sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ayrim so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari kuzatiladi? ***/// **tovush tushishi, ortishi va almashishi**

1525. Sifat yasovchi –siz qo‘shimchasi quyidagilardan qaysi birlari bilan zid ma’noli hisoblanadi? 1) -li; 2) -dor; 3) ba-; 4) -mand; 5) ser-; ***/// **1,2,3,5**

1526. Sifat+ot ko‘rinishidagi qo‘shma sifatlarni belgilang**.** ***/// **balandparvoz, sofdil**

1527. Sifat+ot shaklidagi qo‘shma sifatlar qatnashgan gapni toping. ***/// **Shirinsuxan, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi.**

1528. Sifatlarning yozilishi haqida berilgan noto‘g‘ri hukmni toping. ***/// **Juft sifatlar -u (yu) vositasida bog‘lansa, qismlar o‘rtasida chiziqcha qo‘yiladi.**

1529. So‘lg‘in-so‘lg‘in lablaringdan ucharkan shu so‘z Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.

Ushbu gapdagi takroriy sifatning yasashga asos qismi qaysi so‘z turkumiga mansub? ***/// **fe’l**

1530. Tarkibida faqat til oldi undoshlari bo‘lgan qo‘shma sifat qaysi gapda mavjud? ***/// **Qo'shiqning diltortar navolari hammani o’ziga rom qildi.**

1531. Tongda suv sepilgan asfalt yo’lkalar salqin, ozoda, tovsilib qolgan kuzak gullari sof

havoda xush bo’y taratib turadi. Ushbu gapda qaysi sifatlar otga bog’langan? ***/// **sof, xush**

1532. Tub sifatlar qatorini toping. ***/// **baland, bedor, yangi, qizil**

1533. -viy sifat yasovchi qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarni aniqlang. 1) ashyoviy; 2) hajviy; 3) samoviy; 4) xayoliy; 5) kimyoviy; 6) mafkuraviy. ***/// **1, 2, 3, 4, 5, 6**

1534. Xato yozilgan sonlarni toping. ***/// **uchchala, to'rttala**

1535. Xoslik belgisini bildiruvchi sifat yasaydigan qo‘shimchani toping. ***/// **-iy (-viy)**

1536. Yarqirama sifati qaysi qatorda morfemalarga to‘g‘ri ajratilgan**?** ***/// **yarq - o‘zak morfema, -ira va -ma so‘z yasovchi morfema**

1537. Yasama sifat berilmagan qatorni toping. ***/// **chiniqqan, o'qigan, toliqqan**

1538. Yasama sifatdan yasalgan ot qaysi qatordagi gapda qo‘llangan? ***/// **Sergaplik dushmaningizdir, chunki u sening aybingni ochib tashlaydi.**

1539. Yasama sifatlar miqdorini toping. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi. ***/// **2 ta**

1540. Yasama sifatlar qanday hosil qilinadi va ular gapda asosan qaysi bo'lak vazifasini bajaradi? ***/// **asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan; aniqlovchi**

1541. Yaxshi so'zlash degani o'zining gaplarini maqol-u matallar, she'riy parchalar bilan bezab gapirish degani emas, balki ko'ngliga kelgan gaplarni o'rinli va foydali tarzda, yumshoqlik hamda bosiqlik bilan so'zlash deganidir. Ushbu gapda so'zlarda ishtirok etgan sifat yasovchi qo'shimchalarni belgilang. ***/// **-li, -iy, -q, -iq**

1542. Yomg'irda cho'milgan ko'z ilg'amas ulkan bog', qizil qum sepilgan xiyobonlar, hilol va yulduz shaklidagi gulzorlar yanada go'zalroq, yanada so'limroq ko'rinardi. Ushbu gapda sifat turkumiga mansub nechta so'z bor, ularning nechtasi orttirma darajada? ***/// **5 ta; 3 ta**

1543. Qaysi qatorda sifat so'z turkumiga mansub so'z bor? ***/// **avvalambor, xullas, masalan, shubhasiz**

1544. "Al-Jome' as-Sahih" to'plamining nashr etilgan nusxalaridan birining nomi va jildlar soni to'g'ri keltirilgan javobni belgilang. ***/// **6 jilddan iborat "Kutub as-sitta" nomli nusxa**

1. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar. 2. To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undirar. 3.

Mingta shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi. 4. Ikkalasi ham boshini quyi solib tinglashdi.

Berilgan gaplarning qaysilarida tovush o'zgarishiga uchragan son qatnashgan? ***/// **1, 3,**
**4**

1545. 5 tup, 2 gramm kabilar sonning qaysi turiga mansub? ***/// **dona sonlar**

1546. Asosga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda qanday fonetik hodisa yuz beradi? ***/// **tovush tushishi**

1547. Berilgan qaysi gapda tartib son "dastlabki", "ilk" degan ma'noda ishlatilgan? ***/// **Atirgullar, ko'rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg'irinlarini pisand qilmaydi.**

1548. Birinchi so'zi berilgan so'zlarning qaysilari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi? 1) bosh; 2) to'ng'ich; 3) muhim; 4) dastlabki; 5) dolzarb; 6) katta; 7) ilk ***/// **2, 4, 7**

1549. Burda, shingil, qultum kabi hisob so'zlari qanday ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. ***/// **butunning qismini hisoblash**

1550. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan quyidagi so'zlarning qaysilari yasama so'z hisoblanadi? 1) tomchi; 2) to'g'ram; 3) bo'lak; 4) chimdim; 5) siqim; 6) burda; 7) shingil ***/// **1, 2, 3, 4, 5**

1551. chaqirim tarixiy o'lchov so'zi hisob so'zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **uzunlik o'lchovi**

1552. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma son tarkibiy qismlarining joylashish o‘rinlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan**?** ***/// **Yuzlik va minglik sonlarda birlik va o'nlik sonlarning oldin yoki keyin kelishi so'z ma’nosini farqlamaydi.**
1553. Misqol tarixiy o'lchov so‘zi hisob so‘zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **og‘irlik o‘lchovi**
1554. O‘lchov so'zlar haqidagi noto‘g'ri hukmni aniqlang**.** ***/// **O'lchov so'zlar sanalayotgan prcdmetdan keyin keladi.**
1555. Paysa tarixiy o'lchov so‘zi hisob so‘zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **og‘irlik o‘lchovi**
1556. Qalam tarixiy o'lchov so‘zi hisob so‘zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **uzunlik o'lchovi**
1557. Qaysi gapda hisob so‘zi qo'llangan? ***/// **Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loy tashishdi;**
1558. Qaysi sonlar “sehrli sonlar” sifatida talqin qilinadi? ***/// **uch, yetti, to‘qqiz, qirq**
1559. Qo‘shma sonlar qatorini aniqlang. ***/// **o‘n besh, yigirma olti, ikki yuz to‘qson**
1560. Quyida berilganlardan uzunlik o‘lchovlarini aniqlang. 1) chaqirim; 2) qarich; 3) tanob; 4) yog‘och; 5) botmon; 6) gaz; 7) qalam**.** ***/// **1, 2, 4, 6, 7**
1561. Quyidagi qaysi gap(lar)da sonlar otlashmagan? 1. Uchalasi qalin o‘rtoq. 2.Oltovlon ola bo’lsa o’zidagin oldirar. 3. Ikkala kishi darvozadan kirib keldi. 4. Siznikiga yigirmanchida boramiz**.** ***/// **3**
1562. Quyidagi qaysi hukmlar to‘g‘ri? 1. Jamlovchi sonlar otlashish xususiyatiga ega bo'ladi 2. Jamlovchi son shakllari otlashganda ko'plik va egalik qo‘shimchalari bilan birga qo'llanadi.

3. -ala qo'shimchasini olgan son egalik qo‘shimchasini olmasligi mumkin. 4. -ala qo‘shimchasini olgan son har doim otlashgan holatda bo'ladi. 5. -ovlon jamlovchi sonning eski shakli ***/// **1, 2, 3: 5**

1563. Quyidagi tarixiy o’lchov so'zlardan qaysi biri maydon o'lchovi hisoblanadi? ***/// **tanob**
1564. Quyidagi tarixiy o’lchov so'zlardan qaysi biri uzunlik o'lchovi hisoblanadi**?** ***/// **yog'och**
1565. Shundan keyin beshala qit’adan minglab oshig’i shaydo o’z sevgisini unga izhor eta boshladi. Berilgan gapda sonning qaysi turlari ishtirok etgan? ***/// **jamlovchi va chama**
1566. Sonlarga “-lar” qo‘shimchasi qo‘shilganda, sonlarning qaysi turi hosil bo‘ladi? ***/// **chama son**
1567. Tanob tarixiy o'lchov so‘zi hisob so‘zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **maydon o'lchovi**
1568. Uzunlik o‘lchovini bildiruvchi hisob so‘zlar qaysi qatorda keltirilgan? ***/// **qadam, chaqirim, quloch**

1569. Yog'och tarixiy o'lchov so‘zi hisob so‘zlarning qaysi turiga mansub? ***/// **uzunlik o'lchovi**

1570. Quyidagi tarixiy o‘lchov so‘zlardan qaysi biri pul hisobini bildirmaydi? ***/// **dahsar** 1571. "Alpomish" dostonida Ko‘kaldosh qaysi shart jarayonida Alpomishga "O‘zbak! Sen bunday bo‘yni yo‘g‘onlik qilma, g'aribi go‘riston bo‘lib o‘lma. Hali ham qo‘ygin. Halak bo‘p kelgan yo‘lingdan qolma", deb aytadi? ***/// **kurash**

1. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar. 2. Yaqin fursatlarda diydor ko’ishmoqni orzu qilarmish. 3. Shaharga yaqin joylashgan qishloqda yashaymiz. Berilgan gaplarning qaysilarida yaqin ravishi bir xil ma’noni anglatgan? ***/// **1, 3**

1572. Agar so‘z tarkibidagi -cha qo'shimchasi o'rniga –dek, kabi, singari ko'makchilarni qo'shish mumkin bo'lsa, u qanday qo'shimcha hisoblanadi? ***/// **so'z yasovchi qo'shimcha**

1573. Berilgan gapdagi bot so'zi qaysi so'z turkumiga mansub? Tez yongan bot soviydi. ***/// **ravish**

1574. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga **yaqinlashganda** otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapdagi ajratilgan so'z asosi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ravish**

1575. Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan qanday olmoshlar hosil bo'ladi**?** ***/// **juft olmoshlar**

1576. Daraja-miqdor ravishi ishtirok etmagan gapni toping. ***/// **Kecha boshlangan yomg'ir ertalabgacha tinmay quydi.**

1577. Ertasiga ertalab Nayman ona yana yo‘lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o‘tib, uzoq yo‘l bosdi. Ushbu gaplardagi ravishlarning ma’no turlarini aniqlang. ***/// **payt, o‘rin, daraja-miqdor, holat**

1578. Ertasiga ertalab Nayman ona yana yo‘lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o‘tib, uzoq yo‘l bosdi. Ushbu gaplardagi ravishlar miqdorini aniqlang. ***/// **6**

1579. Fe’llarni juftlash orqali yasalgan ravish qatnashgan gapni toping. ***/// **Bu tashvishdan uzil-kesil qutuldim.**

1580. Holat ravishlarini aniqlang. ***/// **tez, darhol**

1581. Ilgari ustalar pichoqqa sop izlab, atay sayg'oq oviga chiqisharkan. Ushbu gapda ravishning ma’no jihatdan qaysi turi ifodalangan? ***/// **payt va maqsad**

1582. Men har kuni o‘zimni-o‘zim tergayman, maslahatlarim yetarlicha samimiymikan? Do‘stlarimga yetarlicha sadoqatlimanmi? Ushbu parchadagi ravishlar miqdorini aniqlang**.** ***/// **3 ta**

1583. Miqdor-daraja ravishlarini aniqlang. ***/// **xiyol, oz**

1584. Olg’a so’zi tarixan qanday morfemik tarkibga ega bo’lgan? ***/// **ol(d)+ga**

1585. Otga bog‘lanib kelgan ravish qaysi gap tarkibida qo‘llangan? ***/// **Yigitning ko‘ngli tinchidi va aybdorlarcha tabassum bilan qizga qaradi.**
1586. Pavt ravishlarini aniqlang. ***/// **dastlab, hanuz**
1587. Pavt ravishlarini aniqlang**.** ***/// **dastlab, hanuz**
1588. Payt ravishlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang. 1) bugungi; 2) buguncha; 3) hozirgi; 4) hozirgacha; 5) so'nggi; 6) so'ngra ***/// **2, 4, 6**
1589. Qaysi egalik qo'shimchasi ravish tarkibida yaxlitlanib kelishi mumkin? ***/// **III shaxs birlik qo'shimchas**
1590. Qaysi gapda asos qismi ot bo'lgan yasama ravish qatnashgan? ***/// **Kimdir uni qadam-baqadam ta’qib qilayotgan edi.**
1591. Qaysi gapda daraja-miqdor ravishi ko‘makchi fe’lli so’z qo‘shilmalariga ergashgan?

***/// **U raqibining yutug’ini ko’rib biroz o’ylanib qoldi.**
1592. Qaysi gapda holat ravishi berilgan? ***/// **Gulbahor bu gapni dugonasidan tasodifan eshitdi.**
1593. Qaysi gapda holat ravishi berilgan? ***/// **Gulbahor bu gapni dugonasidan tasodifan eshitib qoldi.**
1594. Qaysi gapda maqsad ravishi qo'llangan? ***/// **Ovozingizni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim.**
1595. Qaysi gapda payt ravishi qo'llangan? ***/// **Ertagayoq Abduxalilni Quvasoyga jo'nataman** .
1596. Qaysi gapda qo‘shma ravish qo‘llangan? ***/// **O’lmas har gal tog‘dan mamnun qaytar edi.**
1597. Qaysi gapda ravish arabcha so’zdan yasalgan? ***/// **Gulbahor bu gapni dugonasidan tasodifan eshitdi.**
1598. Qaysi gapda ravish ifodalangan? ***/// **Kamtarinlar ko‘p gapirmaydilar.**
1599. Qaysi gapda ravish ishtirok etmagan? ***/// **Boyning himmati tutib ketib, moshxo’rdani tog’orada olib chiqib, dasturxonga qo’ydi. (G’.G’ulom)**
1600. Qaysi gaplarda so’z asosida qo’shimcha qotib qolishi kuzatiladi? ***/// **Mashina dovondan o’tib olg’a intildi**
1601. Qaysi javobda ravish yasovchi qo’shimcha omonimnligi asosida so‘z omonimligi vujudga, kelgan? ***/// **terma**
1602. Qaysi javobda sifatlarning takrorlanishi bilan yasalgan ravishlar berilgan? ***/// **to'g'ridan-to'g'ri, uzundan-uzoq**
1603. Qaysi qatorda yasama ravish qatnashgan? ***/// **yillab, botmonlab**
1604. Qaysi qatordagi juft so'z qismlarining o'rnini almashtirib qo'llash mumkin? ***/// **sekinasta**
1605. Qaysi qatordagi ravishlarni tarkibiy qismlarga ajratish mumkin? ***/// **yillab, erkakchasiga, do'stona**
1606. Qismlari o'zaro zid ma’noli so'zlardan tuzilgan juft ravishni aniqlang. ***/// **kechakunduz**

1607. Quyida berilgan qaysi kelishik qo'shimchalari qo'shilganda olmoshlarda tovush tushishi hodisasi ro'y beradi? ***/// **qaratqich, tushum kelishiklari**

1608. Quyidagi gapda qo'llangan "nari-beri" so'zi qanday so'z? U gazetani nari-beri o'qigan bo'ldi-yu, hech narsa demay chiqib ketdi. ***/// **holat ravishi**

1609. Quyidagi gapdagi ajratilgan so'z qaysi turkumga oid? Hozirdan vahimaga tushma-yey! ***/// **payt ravishi**

1610. Quyidagi misollarda ravish + ravish juftlanishi orqali yasalgan yasama ravishlar soni nechta? tez-tez, nari-beri, qo‘yarda-qo‘ymay, unda-bunda, uzil-kesil ***/// **1 ta**

1611. Quyidagi misollardan nechtasi yasama ravish? hamisha, dastlabki, ustma-ust, galma-gal, do‘stona, shu payt, taxminan, nari-beri ***/// **6 ta**

1612. Ravish qatnashgan gapni aniqlang. ***/// **Bitta emas qo'ling, qizim, Ikkita-ku, sanab boq: Sanab ko'rar, yana jim ... (T.To'la)**

1613. Ravish sifatga xos sintaktik vazifa bajargan qatorni toping. ***/// **Uzoqdan, kun botish tomondan, g'ira-shira uchqun sal-pal ko'zga tashlandi.**

1614. Ravishlar haqidagi barcha to‘g‘ri fikrlarni aniqlang. 1) qo‘qqisdan, to‘satdan, birdaniga, birdan singari ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelishini bildiradi; 2) to’satdan ravishi ayrim shevalarda to'sindan holida talaffuz qilinadi; 3) yaqinda, uzoqda ravishlari harakatning bajarilish paytini yoki o‘rnini bildiradi; 4) ravishlar tub va yasama bo‘ladi ***/// **1, 2, 3, 4**

1615. Ravishning ma’no jihatdan barcha turi berilgan qatorni aniqlang. ***/// **qardoshlarcha, erta-indin, olg'a, qittay, ataylab, noilojlikdan**

1616. Ravishning ma’no jihatdan uch turi ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **Keyin sal hushimni yig'ib qarasam, oyoqlarim o'zidan-o'zi yurib ketyapti.**

1617. Sodda yasama ravishlar uchun yasashga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha so‘z turkumlarini ko‘rsating. 1) ot; 2) sifat; 3) olmosh; 4) ravish ***/// **1, 2, 3, 4**

1618. To’g’ri fikrlarni aniqlang. 1. Ravish yasovchi -larcha qo‘shimchasidagi -cha qismi kabi singari ko‘makchilari bilan sinonim bo'ladi. 2. -cha ravish yasovchi qo‘shimchasi omonimligi asosida leksema omonimligi hosil bo’ladi. 3. -cha qo’shimchasi urg’u olmagan holatda uning o‘rniga kichkina so’zini qo’yish mumkin. 4. -cha qo'shimchasinig urg’u olgan holati bilan dek, kabi, singari ko’makchilarni almashlirish mumkin**.** ***/// **1.2,**4

1619. Tuyaga minib uzoqni ko’zla. 2. Bu jang uzoqqa bormaydi. 3.Uzoq yondi. Berilgan gaplarning qaysi birida uzoq ravishi payt ma’nosini bildirgan? ***/// **2, 3**

1620. U zinalardan ohista chiqib borar edi. Berilgan gapda ohista so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub? ***/// **ravish**

1621. Yasama ravish qo'llangan gap qaysi javobda berilgan? ***/// **Choyni naridan beri ichib, oshxonaga yugurdim.**

1622. Yasama ravishlar berilgan qatorni aniqlang. 1) minglab; 2) yillab; 3) rostdan; 4) rasman; 5) erkakchasiga; 6) hozirgina ***/// **2, 4, 5**

1623. Yasama ravishlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **yangicha, eskicha, o'zicha**

1624. 1 Nega uni otdami, aravadami eltib qo'ymadi? Xudoyo, tavba qildim, bu qanday kun? 2. Yo qudratingdan, bu qanday odam? 3 Nega muncha g'amgin nayning navosi, nega qalbim to'la o'kinch va malol? 4 Nima ishlari bor ekan, - so'radi Zulayho xola. Berilgan gaplarning qaysilarida olmosh hol vazifasini bajargan? ***/// **1, 3**

5) belgilash; 2) bo'lishsizlik; 3) gumon; 4) kishilik; 5) ko'rsatish. Ushbu olmoshlarning qaysilariga qo'shimcha qo'shilganda tovush tushish va ortish hodisasi yuz beradi? ***/// **4**

1625. 1Ajratilgan to'ldiruvchi ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Ilmiy yig'ilishda, kengashda, chet elliklar ham qatnashdilar.**

1626. anglashga bel bog'lagan har bir xalq buyuk ajdodlari xizmatlarini e'zozlaydi, uni hech kimga oyoqosti qildirmaydi. Ushbu gapda olmoshning ma'no jihatdan qaysi turlari qo'llangan**?** ***/// **belgilash, ko'rsatish, bo'lishsizlik**

1627. Baxtni har kim o'zicha tushunadi. Kimlarningdir qorni to'q, ust-boshi but. Shuni baxt sanaydi. O'zi uchun, qorni uchun yashaydiganlar jamiyat uchun ortiqcha odamlardir. Bunday odamlarning bor-yo'qligidan hech kimga hech qanday foyda yoki zarar yo'q. Komil inson esa hammaning joni. Ushbu matnda nechta olmosh bor? ***/// **8 ta**

1628. Belgilash olmoshlari qanday hosil qilinadi? ***/// **so'roq olmoshlari va har so'zi qo'shilmasidan**

1629. belgilash; 2) ko'rsatish; 3) bo'lishsizlik; 4) gumon; 5) kishilik. Ushbu olmoshlarning qaysilarida so'roq olmoshi ishtirok etadi? ***/// **1, 3. 4**

1630. Berilgan gaplarning qaysi birida kishilik olmoshi o'rnida so'z qo'llangan? 1) Kechirasiz, rais, kamina bugun emas, o'g'lingizni shogirdlikka olgandayoq aytganman. 2) Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda ko'chki bosgan buloq, balki, shu yerga kelib, qayta ko'z ochgandir. 3) – Janoblarini qoshimga chaqirishdan maqsad, — dedi Husayn Boyqaro rasmiy

tus bilan, – xotirimga kelgan bir mulohazani bildirmoq edi. 4) Sizni hamisha duo qilib qoluvchi bandayi ojizingiz. ***/// **1, 2, 3, 4**

1631. Berilgan gapning egasi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? Siz eski shaharga tushib, kechgacha bir aylanib keling**.** ***/// **olmosh bilan**

1632. Bir kishi orqamdan kelayotgan edi, shuning uchun to'xtadim. Ergash gap tarkibida qanday olmosh qatnashgan? ***/// **gumon**

1633. Bir so'zi olmoshning qaysi ma'no turini hosil qilishda ishtirok etadi? ***/// **gumon, belgilash, bo'lishsizlik**

1634. Bir so’zi quyidagi so‘zi qaysi so‘zlarga qo‘shilib, gumon ma’nosini yuklaydi? 1) kishi; 2) narsa; 3) nima. ***/// **2, 3**

1635. Bu olmoshiga quyidagi qo'shimchalardan qaysilari qo'shilganda tovush ortishi hodisasi yuz beradi va fonetik yozuv qoidasi asosida yoziladi? 1) -ga, -da, -dan; 2) -day, -aqa, -cha; 3) -im, -ing, -si. ***/// **1, 2, 3**

1636. Gapdagi gumon olmoshi anglatgan ma’noni aniqlang. Tog‘ yo‘lidan allaqancha yo‘l bosishi kerak. ***/// **miqdor**

1637. Gumon olmoshi qo'llanmagan gapni toping? ***/// **Vaqt allamahal bo'lib qolgan edi**

1638. Gumon olmoshlariga xos xususiyatlar to‘g‘ri aks etgan javobni belgilang. 1) gumon olmoshlari so‘roq olmoshlariga alla- yoki -dir qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi; 2) gumon ma’nosini anglatuvchi birov so‘zi kimdir so‘zi bilan erkin almashinib qo‘llansa da gumon olmoshi hisoblanmaydi; 3) narsa so‘zi faqat alla- qo‘shimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi; 4) gumon olmoshlari gap tarkibida faqat ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarida keladi; 5) bir so‘zi kishi, narsa, nima so‘zlariga qo‘shilib, bu so‘zlarga gumon ma’nosini yuklaydi. ***/// **1,3,5**

1639. Hamma jim qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib, shunga ko‘z tikkan, bu narsada Zebi o‘z otasini, Qurbonbibi o‘z erini ko‘rardi. Ushbu parchada jami nechta olmosh ishtirok etgan? ***/// **8 ta**

1640. Hamma jim qoldi. Har-kim o'z oldida bir narsa topib, shimga ko'zini tikkan va u narsada Zebi o'z otasini, Qurvonbibi o'z erini, Salti qovog'idan qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi. Ushbu gapda olmoshning qaysi turlari ishtirok etgan? ***/// **o'zlik, ko'rsatish, belgilash, gumon**

1641. Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir. Misralardagi olmoshlar qanday ma’no ifodalagan?
***/// **to'pdan ajratilgan shaxs ma’nosini ifodalagan**

1642. Har uchchala shaxs birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida ma’nodosh (sinonim) sifatida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan olmosh turini toping. ***/// **o‘zlik olmoshlari** 1643. Hech kimdan kam emassan, kam bo’magaysan,
Yerda qolsang, oftob bo‘lib
kulmagaysan, Qachon belni
mahkam tortib bog‘lagaysan?
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she’riy parchada olmoshning necha turi qatnashgan**?** ***/// **2**

1644. Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan, Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan, Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?
– Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she’riy parchada olmosh turkumiga mansub so'zlar necha marta ishtirok etgan? ***/// **2**

1645. Kimdir eshikni taqillatdi. Kimdir bu? - so'rayman eshikka yaqinroq kelib. Ushbu matnda kimdir so'zi... ***/// **birinchisi - gumon, ikkinchisi - so‘roq olmoshi**

1646. Kishilik olmoshlari o'zlik olmoshi bilan bog'langanda, kishilik olmoshlariga qanday ma’no yuklanadi? ***/// **ta’kid ma’nosi**

1647. Kishilik olmoshlari turlanganda qanday fonetik hodisa kuzatiladi? ***/// **tovush tushishi va orttirilishi**

1648. Kishilik olmoshlarining qaysi biri uslubiy talab bilan birlikni ham, ko'plikni ham ko'rsatuvchi olmosh o'rnida kelishi mumkin? ***/// **biz va siz**

1649. Ko‘rsatish olmoshlari haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri? ***/// **So‘z ma’nosini aniqlab keluvchi ko‘rsatish olmoshlari o‘zi aniqlayotgan so‘zdan oldin yoki keyin qo‘llanadi.**

1650. Mana shu, o‘sha-o‘sha, siz-biz, hech kim, allaqaysi, har bir. Yuqoridagi qo‘shma olmoshlar olmoshning ma’no jihatdan qaysi turiga mansub? ***/// **ko'rsatish, kishilk, bo'lishsizlik, gurnon, belgilash**

1651. Meni, seni olmoshlari qaysi kelishik shaklida qo‘llangan? ***/// **tushum kelishigi** 1652. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so‘rang buni, Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada necha o'rinda olmoshlar qo'llangan? ***/// **5**

1653. Nadir millat qudratining tamadduni? Amir Temur haykalidan so‘rang bini, mindirib kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada olmoshning necha turi qo‘llangan? ***/// **3**

1654. Narsa hodisa so’rog’ orqali ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan gapni toping**.** ***/// **Nima ishlari bor ekan? – so’radi Zulayho**

1655. Nima eksang, shuni o‘rasan. Berilgan gapda olmoshning qanday ma’no turlari qo‘llangan? ***/// **so‘roq, ko‘rsatish**

1656. O‘zlik olmoshi qaysi qatorda ta’kid ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan? 1. Rostini aytsam, men o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. 2. O‘zi dumaloq, qor kabi oq. 3. Ikromjon xotinini qoldirib, o‘zi idora tarafga qarab ketdi. 4. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil. ***/// **1**

1657. Olmosh bilan ifodalangan ega qaysi gapda qo‘llangan? ***/// **Hech kim hamma narsani bilolmaydi.**

1658. Olmosh turkumiga mansub so‘zlar qatorini aniqlang. ***/// **mening, o'zim, hamma, ana shu**

1659. Olmoshga xos bo‘lmagan xususiyat qaysi qatorda berilgan? ***/// **shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qiladi**

1660. Olmoshlar asosida yasalgan sifatlar berilgan javobni aniqlang. ***/// **o‘zboshimcha, o'zbilarmon**

1661. Olmoshlar qaysi birliklar o'rnida almashib kelishi mumkin? ***/// **so'zlar, so'z birikmasi, gaplar o'rnida**

1662. Olmoshlarning qaysi turi iboralarning yasalishiga asos bo'la oladi? ***/// **o'zlik**

1663. Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo‘shma, juft va takroriy shakllarga ega? ***/// **ko‘rsatish olmoshlari**

1664. Olmoshning qaysi turida kelishik va egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush orttiriladi? ***/// **ko'rsatish, kishilik**

1665. Olmoshning qaysi turida qo‘shma olmoshlar bir turdagi olmoshlardan tashkil topgan? ***/// **ko‘rsatish**

1666. Olmoshning qaysi turini hosil qilishda so‘roq olmoshlari ham ishtirok etadi? 1) ko'rsatish olmoshi; 2) gumon olmoshi; 3) belgilag olmoshi; 4) kishilik olmoshi; 5) bo‘lishsizlik olmoshi ***/// **2, 3, 5**

1667. Olmoshning qaysi turlari olmosh+ot shaklidagi bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan otli birikmalarda, tobe so‘z vazifasida kela oladi? ***/// **ko‘rsatish, so‘roq va belgilash olmoshlari**

1668. Otasi bomdoddan kirsin, - dedi u Saltiga qarab, - men o‘zim yotig‘i bilan aytib ko‘ray, yo‘q demas, - so'ngra Zebiga yuzlandi: Sen, qizim, uyga joy qil, o‘rtog‘ingni o‘tqiz, dasturxon sol. . . Biz otang bilan choyni so‘rida ichib haligi gapni gaplashamiz. Ushbu gapda nechta kishilik olmoshi qatnashgan va ular qanday sintaktik vazifani bajargan? ***/// **4 ta: faqat ega**

1669. O'zlik olmoshi bog'lanib kelgan ot tarkibida, asosan, qanday qo'shimcha bo'ladi? ***/// **egalik qo'shimchasi**

1670. O'zlik olmoshi hurmat ma’nosida qo‘llanilgan gapni aniqlang. ***/// **Rais amakim o'zlari kelib ketdilar.**

1671. Qaysi gap tarkibida ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan? ***/// **Bu tushmi yo xayol, bu na turli kuy, qayerdan bu qadar qushlar sayrashi.**

1672. Qaysi gapda belgilash olmoshi ot o'rnida qo'llangan? ***/// **Hamrna perronda, hamma o‘z jigarini qidiradi.**

1673. Qaysi gapda kishilik olmoshiga ta’kid ma’nosi yuklangan**?** ***/// **Biz o'zimiz vatan tuprog'ini ko'z qorachig'iday asraymiz.**

1674. Qaysi gapda narsa-hodisa so'rog'i belgi-xususiyat so'rog'i o'rnida qo'llangan? ***/// **Nima ishlari bor ekan? – so'radi Zulayho xola**

1675. Qaysi gapda o‘zlik olmoshi predmetni ko‘rsatish uchun qo‘llangan? ***/// **Olma o’zi pishib, o'zi to’kildi.**

1676. Qaysi gapda olmosh fonetik o‘zgarishga uchragan? ***/// **Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi.**

1677. Qaysi gapda olmosh shaxs otiga tobelanib kelgan? ***/// **Sinfimizdagi barcha o‘quvchilar sport to’garaklariga qatnashadilar.**

1678. Qaysi gapda olmosh so'z ma’nosini aniqlab kelgan? ***/// **Bu cholni butun yurt izzat qilardi.**

1679. Qaysi gapda olmosh turkumiga mansub so’zlar faqat ega va aniqlovchi vazifasida kelgan?

***/// **Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u o’z maqsadlariga oson erishadi.**

1680. Qaysi gapda olmoshning to’rtta turi qatnashgan ***/// **Har kim o'z og'zining qorovuli bo’lsa, uning nafasi hech qachon bo’g’ilmaydi.**
1681. Qaysi gapda to‘rtta o‘rinda olmosh qo'llangan? ***/// **Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan hech narsadan xafa emasman.**
1682. Qaysi gapdagi kishilik olmoshiga ta’kid ma’nosi yuklangan**?** ***/// **Bu masala bilan men o'zim jiddiy shug'ullanmoqchiman.**
1683. Qaysi javobda belgilash olmoshi berilgan? ***/// **har yerda**
1684. Qaysi olmosh kishilik olmoshlari o'rnida qo‘llanib, ko‘pincha shaxsni, ba’zan predmetni ko‘rsatadi? ***/// **o'zlik**
1685. Qaysi olmoshlar juft holda ham ishlatiladi? ***/// **kishilik va ko'rsatish olmoshlari**
1686. Qaysi olmoshlar yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma’nosini ham bildiradi? ***/// **siz, ular**
1687. Qaysi qatorda olmosh gap o'rnida kelgan? ***/// **Shuni bilingki, urush qurbonsiz bo’lmaydi.**
1688. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi bor? ***/// **uni ko’chada bir kishi chaqiryapti.**
1689. Qaysi qatordagi gapda olmosh yasama narsa oti o'rnida qo'llangan**?** ***/// **Bolaning qo'lidagi o‘yinchog‘i tushib ketdi, bola tinmay uni olishga intildi.**
1690. Qiziq, nimaga asoslanib, siz bunday qarorga keldingiz? Ushbu gapda olmoshning ma’no jihatdan qaysi turlari mavjud emas? ***/// **gumon, o'zlik, belgilash, bo'lishsizlik**
1691. Quyida berilgan gapdagi olmoshlarga xos xususiyatlarni va gapning tuzilish jihatdan turini aniqlang. Toshkentning qayeriga qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda. 1) ko‘rsatish olmoshi; 2) kishilik olmoshi; 3) so‘roq olmoshi; 4) sodda gap; 5) qo'shma gap ***/// **3, 5**
1692. Quyida berilgan gaplarda olmosh qaysi gap bo'lagi bo'lib kelganini aniqlang. 1. Bilimdon o'z bilimi tufayli ofatlardan omon qoladi. 2. U kishi o'tirganlar bilan qo‘l berib so'rashib chiqdi. 3. Ko'p harakat qilgan qolib, yutuq ham o'shaniki bo'ldi. 4. Biz kelajagi buyuk yurt farzandimiz. a) to'ldiruvchi; b) aniqlovchi; c) ega; d) kesim. ***/// **1 –b; 2 – b; 3 – d; 4 – c**
1693. Quyidagi gapda olmoshning qaysi turi qo'llangan? Saida bunga ham e’tibor qildi. ***/// **ko'rsatish olmoshi**
1694. Quyidagi gapda qo'llangan olmoshlar soni va turini aniqlang. Noshukurlik, - debdi u, – noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu illatga o'ralgan kishi his etish, jamiyki narsadan lazzatlanish, bahramand bo'lish qobiliyatinl yo'qotadi**.** ***/// **4 ta: 1 ta kishilik, 2 ta ko'rsatish, 1 ta belgilash**

1695. Quyidagi matnda qo’llangan olmosh qaysi birlik o‘rnida kelgan? Yaxshilik qo’lingdan kelmasa, yomonlik qilma. Bu hech qachon yodingdan chiqmasin. ***/// **qo’shma gap o’rnida**

1696. Quyidagi olmoshlardan qaysi biri egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanmaydi? ***/// **biz**

1697. Quyidagi qaysi qo‘shimchalar so‘roq olmoshlariga qo'shilishi mumkin? ***/// **egalik qo'shimchasi**

1698. Quyidagi qaysi so'zlar ba’zan nutqda men kishilik olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin? 1) kamina; 2) qulingiz; 3.) faqir; 4) bandayi ojizingiz. ***/// **1, 2, 3, 4**

1699. Quyidagi she’riy parcha nechta sodda gapdan tashkil topgan?

O‘zbekning kurashi hamisha halol,
Unda yo‘qdir g‘irrom, yo‘qdir yomonlik,
Doimo do‘stlarga tilaydi kamol,
Tilaydi barchaga do‘stlik, omonlik**.** ***/// **5 ta**

1700. Saidni bilmayman, mening yuragimda qo'rquv. U-bu desam Said: "Menmi seni baliq oviga boshlagan", - deb ta’na qiladiganday nazarimda. Gapdagi olmosh turlarini aniqlang. ***/// **kishilik, ko'rsatish**

1701. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas,
Seni xato baholagan - kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo‘lmay qolmas. Ushbu she’riy parchadagi olmoshlar sonini aniqlang**.** ***/// **6 ta**

1702. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga, Bandalari yo’qotolmas, tortib lolmas, Seni xato baholagan - kulgi har kimga, Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo’lmay qolmas. Ushbu she’riy parchada olmoshlarning necha turi ishtirok etgan**?** ***/// **3ta**

1703. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,
Bandalari yo'qotolmas, tortib ololmas,
Seni xato baholagan - kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko’r bo‘lmay qolmas. Ushbu she’riy parchada fonetik hodisaga uchragan olmoshlar sonini aniqlang. ***/// **3 ta**

1704. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko‘rgin o‘zingga sen,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she’riy parchada olmoshning necha turi qo'llangan? ***/// **3**

1705. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko’rgin o’zingga sen,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she’riy parchada “ichi bo‘sh” so‘zlar necha marta ishtirok etgan? ***/// **6**

1706. Sizga ne bo'ldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo‘ydingiz. Ushbu gapda ishtirok etgan olmoshlarning sonini va turini aniqlang ***/// **2 ta: kishilik, so‘roq**

1707. So‘roq olmoshlari yordamida qaysi olmosh turlarini hosil qilishi mumkin? ***/// **belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlarini**

1708. So‘z ma’nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o‘zi aniqlayotgan so‘zga nisbatan qay holatda joylashadi? ***/// **oldin keladi**

1709. So'roq olmoshlari ravishga xos sintaktik vazifa bajargan qatorni toping. ***/// **Nega qalbim to‘la o'kinch va malol?**

1710. To‘pdan ajratilgan predmet ma’nosini ifodalovchi olmosh qatnashgan gapni aniqlang.

***/// **O’g‘limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir.**

1711. To'pdan ajratilgan shaxsni ifodalagan olmosh qo‘llangan gapni toping. ***/// **Har kim ekkanini o‘radi.**

1712. Yaxshilik qo’lingdan kelmasa, yomonlik qilma. Bu hech qachon yodingdan chiqmasin. Mazkur gapda bu olmoshi qaysi birlik o‘rnida almashinib kelgan? ***/// **oldingi butun gap o'rnida kelgan**

1713. “Go‘ro‘g‘li” dostoni qanday dostonlar turiga kiradi? ***/// **ishqiy-sarguzasht**

1714. "Bilan" so'zi bog’lovchi o'rnida ishlatilgan gapni toping**.** ***/// **Ishchi bilan dehqonning mehnati teng emas.**

1. Sen ham men xatni yozdik. 2. Karim ham xatni yozdi. Gaplar tarkibidagi ham so'zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **birinchisi bog’lovchi, ikkinchisi yuklama**

1715. Agar -da yordamchisi yuklama vazifasida kelsa, ko'pincha uning o'rniga qaysi yuklamani qo‘yish mumkin? ***/// **ham**

1716. Agar so‘z tarkibida -gina sintaktik shakl yasovchidan keyin kelsa, u qanday qo'shimcha hisoblanadi?. ***/// **qo'shimcha emas yuklama hisoblanadi**

1717. asarlarda uchraydigan bilan va uchun ko'makchilari o'rnida ishlatiladigan -la, -chun shakllari qanday yoziladi? ***/// **o'zi birikib kelgan so'zdan keyin chiziqcha bilan yoziladi**

1718. Atash ma’nosini tamoman yo’qotib, faqat o’zi birikkan so’zni boshqa so’zga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan so’zlar**...** ***/// **sof ko‘makchi sanaladi**

1719. Atash ma’nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlarni toping. ***/// **sari, qadar, uzra**

1720. Balki so'zi vazifadosh bog'lovchi sifatida qo'llangan gapni toping. ***/// **Xalqni qo'rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir.**

1721. Barcha yordamchi so’z turkumlari ishtirok etgan gapni aniqlang. ***/// **Bu zanjir ila zamonga daxldorsan va sen ham ahli olam qatori uchinchi ming yillikday ashamoqdasan**. 1722. Berilgan gapda qo‘llangan

yordamchi so'z turkumlari haqidagi qaysi hukm to‘g’ri? Biroq Zavqiy Mo‘minboy bilan uzoq muddat ishlay olmadi, chunki boy va uning ukalarini hajv qilganligi sababli u vazifasidan ozod etiladi**.** ***/// **3 ta bog‘lovchi, 2 ta ko‘makchi mavjud.**

1723. Berilgan gaplardagi bog‘lovchi vazifasidagi ko‘makchi yordamida bog‘langan uyushiq bo‘laklarini toping. ***/// **Siz bilan biz o‘z e’tiqodimizga sodiqmiz.**
1724. Berilgan qaysi gaplarda ko‘makchi qatnashmagan? 1. Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim. 2. Devor usti yorng‘irdan iviy boshladi. 3. Avval o'yla, keyin so‘yla. 4. Orqadan chuqur soy oqadi. ***/// **2, 3, 4**
1725. Berilganlardan kuchaytiruv-ta’kid yuklamalarini aniqlang. 1) -gina; 2) hatto; 3) ham; 4) ku; -5) nahot; 6) atigi; 7) -yu; 8) g‘irt ***/// **2, 3, 4, 5, 7, 8**
1726. Bilan, singari, kabi ko'makchilari quyida berilgan qaysi kelishikdagi so'zlar bilan birga qo'llanadi? ***/// **bosh kelishikdagi so'zlar bilan**
1727. Bog’lovchi-yuklamalar qanday bog'lovchilar guruhiga mansub bo'ladi? ***/// **teng bog'lovchilar**
1728. Bog'lovchilarning vazifasiga ko‘ra turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar**
1729. Borib-borib menga gap tegmasa edi deyman-da! Ma’no jihatdan ushbu gapda qo'llangan yuklama yuklamaning qaysi turiga oid? ***/// **kuchaytiruv va ta’kid yuklamasi**
1730. Bosh kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shilib keladigan ko‘makchilarni aniqlang. ***/// **bilan, kabi, sayin**
1731. Bosh kelishik shaklidagi ismlar bilan birga kela oladigan vazifadosh ko’makchilarni aniqlang**.** ***/// **bo’ylab, tomon**
1732. Bosh kelishik shaklidagi ismlarga qo'shiladigan ko'makchilarni aniqlang. ***/// uchun, sari, bo'ylab, bilan
1733. Bosh kelishikdagi ismlar bilan birga qo’llaniladigan sof ko'makchilar berilgan qatorni toping. ***/// **bilan, uchun, sari, sayin**
1734. Bosh kelishikdagi so‘z bilan birikadigan ko‘makchilar qatorini aniqlang. ***/// **bilan, uchun, singari, haqida, tarzida**
1735. chegara ma’nosini ifodalagan ko'makchi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Kechga qadar tinimsiz ishladik.**
1736. Ergashtiruvchi bog'lovchi qaysi gapda qo'llanmagan? ***/// **Mevani gullata bilishgina**

**emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san’atdir.**

1737. Ergashtiruvchi bog'lovchilar berilgan javobni belgilang. ***/// **ya’ni, garchi, negaki**
1738. Faqat kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari berilgan qatorni toping. ***/// **hatto, -ku, ham, nahotki**
1739. Faqat vazifadosh ko‘makchilar berilgan qatorni toping. ***/// **deb, atab, deya**

1740. Garchi bog'lovchisi bog'lovchilarning qaysi turiga mansub? ***/// **shart bog’lovchi**

1741. Garchi shuncha mag‘rur tursa ham... Ushbu misradagi ajratilgan so'z qaysi so'z turkumiga oid? ***/// **bog'lovchi**

1742. -gina (-kina, -qina) shakllari qaysi so'z turkumlariga qo'shilib, ma’noni kuchaytirish, erkalash, ta’kidlash uchun ishlatiladi? 1) ot; 2) sifat; 3) ravish ***/// **1, 2, 3**

1743. Ham yordamchisi ishtirok etgan jumla tarkibida hatto yordamchisini ham qo‘llash mumkin bo‘lsa, ham yordamchisi qanday vazifani bajaradi? ***/// **yuklama, ya’ni o'z vazifasida qo'llanilgan bo'ladi**

1744. Ham yordamchisi qo'llanilgan jumla tarkibida qaysi yuklamani qo'llash mumkin? ***/// **hatto**

1745. Harakatning yo‘nalish nuqtasi aniq ifodalangan so‘z birikmasini aniqlang. ***/// **maktabga ketdi**

1746. Inkor bog‘lovchisi ishtirok etgan gaplarning kesimi qanday shaklda bo‘ladi? ***/// **tasdiq shaklida**

1747. Jo‘nalish kelishigidagi ismlar bilan birga qo‘llana oladigan ko‘makchilar berilgan qatorni toping. ***/// **tomon, ko‘ra, yarasha, asosan, doir, qaramay**

1748. Jo‘nalish kelishigidagi ismlarga birikuvchi ko'makchilar qatorini belgilang. ***/// **asosan, doir, muvofiq**

1749. Jo'nalish kelishigi shakli bilan birga qo'llanadigan vazifadosh ko'makchilarni aniqlang. ***/// **tomon, ko'ra**

1750. Kelishik qo‘shimchasi bilan almashadigan sof ko‘makchi qatnashgan gapni toping**.** ***/// **Mehnatsevarligi uchun el-u yurtda obro'-e’tibor topdi.**

1751. Ko‘makchi-bog‘lovchi berilgan qatorni toping. ***/// **bilan**

1752. Ko‘makchilar asosan qaysi kelishiklar bilan vazifadosh hisoblanadi? ***/// **jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishiklari bilan**

1753. Ko‘makchilar haqidagi noto‘g‘ri fikrni aniqlang**.** ***/// **Ko'makchilar bosh, jo'nalish, o‘rin-payt, kelishigidagi so'zlar bilan bog‘lanib keladi.**

1754. Ko'makchilar qaysi kelishik shaklidagi so'zlarga birikib kelishi mumkin? ***/// **bosh, qaratqich, jo'nalish va chiqish kelishik shakllariga**

1755. Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari ko‘rsatilgan qatorni belgilang. ***/// **g'irt, -u(-yu), -da**

1756. Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor. Ushbu gapda qo‘llangan yordamchi so‘zlar haqida berilgan noto‘g‘ri hukmni toping**.** ***/// **biriktiruv bog'lovchi va inkor yuklama bor**

1757. Na..., na inkor bog‘lovchisi qo‘llangan gaplarning kesimi qanday shaklda bo‘ladi? ***/// **bo‘lishli shaklda**

1758. O'zbekistonning kelajagi yorug', ertasi porloq. Uning oltin kaliti yoshlar qo'lida. Ular shu kalit bilan yo'llardagi muammolarni yechadilar. Berilgan matnda mustaqil lug'aviy ma’no anglatilmaydigan nechta so'z qo'llangan? ***/// **4 ta**

1759. qarab ko‘makchisiga ko‘rsatilgan ko‘makchilardan qaysi biri ma’nodosh (sinonim) bo‘la oladi? 1) doir; 2) tomon; 3) sari ***/// **2,3**
1760. Qaysi bog‘lovchilar faqat yozma nutq uslubida qo‘llanadi? ***/// **aniqlov bog'lovchilari**
1761. Qaysi bog‘lovchilar yozma nutq uslublari uchun xoslangan**?** ***/// **hamda, va, yoinki**
1762. Qaysi ergashtiruvchi bog‘lovchilar ajratilgan bo‘laklarni ajratilmish bo‘lakka bog‘laydi? ***/// **aniqlov bog‘lovchilar**
1763. Qaysi gap tarkibida vazifadosh ko‘makchi qo'llangan? ***/// **Bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tib, ra’yingizni bilishga to‘g‘ri keldi.**
1764. Qaysi gapda ayiruv-chegaralash yuklamasi qo'llangan? ***/// **U sinfdagina emas, butun maktabda eng yaxshi o'quvchi edi.**
1765. Qaysi gapda bilan ko'makchisi bog'lovchi vazifasida qo'llangan? ***/// **Qishning sovuq kunlarida Dilbar bilan Aziza buvilarinikida yashab turishdi.**
1766. Qaysi gapda gumon yuklamasi qo'llanmagan? ***/// **Suv hayot manbaidir.**
1767. Qaysi gapda harakat nomiga bog‘langan vazifadosh ko'makchi qatnashgan? ***/// **Siz bilan suhbatlashishdan oldin shu qarorga kelgan edim.**
1768. Qaysi gapda inkor yuklamasi qo'llangan? ***/// **Hayosizda or bo'lmas, aslo vafodor bo’lmas.**
1769. Qaysi gapda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini ko‘makchi bilan almashtirib bo‘lmaydi? ***/// **Xalq maqollarida chuqur zukkolik bor.**
1770. Qaysi gapda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra bir guruhga kiruvchi undoshlar qatnashgan vazifadosh ko'makchi mavjud? ***/// **Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar.**
1771. Qaysi gapda ustida so'zi ko'makchi vazifasida qo'llangan? ***/// **U kechgacha ish ustida o'tirdi.**
1772. Qaysi gapda vazifadosh bog’lovchi ishtirok etmagan? ***/// **Uni yotoq ham stipendiya bilan ta’minlashdlar**
1773. Qaysi gapda vazifadosh bog’lovchi qatnashgan? ***/// **Bu yutuqlar uni nafaqat quvontirar, balki yanada g’ayrat bilan ishlashga undardi.**
1774. Qaysi gapda vazifadosh ko'makchi otlashgan so'zdan keyin qo'llangan? ***/// **Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas.**
1775. Qaysi gapda vosita ma’nosini bildiruvchi ko’makchi ishtirok etgan**?** ***/// **Avtobus bilan to’ppa-to’g’ri shaharga g’izillab borib kelishga nima yetsin.**
1776. Qaysi gapda yuklama odatiy o'rinda qo'llanmagan? ***/// **@ Yo zardo'zi to'ning to'zibmi qoldi, Yoki so‘kildimi suvsar telpaging.**
1777. Qaysi gapda yuklama qo'llangan? ***/// **Azizning bu yerga kelganiga atigi bir hafta bo'ldi.**

1778. Qaysi gapda zidlov bog‘lovchisi vazifasidagi so‘z qo‘llangan? ***/// **Bo‘rondan so‘ng Olimjon brigadasidagi ishlar o‘zaymadi, balki yana ko‘paydi.**

1779. Qaysi gapda zidlov bog'lovchisi ishtirok etgan? ***/// **Dunyoda yaxshi kitoblar ko‘p, lekin bu kitoblar uni o‘qib biladigan kishilar uchungina yaxshidir.**

1780. Qaysi gapdagi yasama so‘zning asosi taqlid so‘zdan iborat? ***/// **Nizomjon konvertni dadasiga berdi-yu, g'izillagancha chiqib ketdi.**

1781. Qaysi gaplarda sinonim ko‘makchilar qo‘llangan? 1. Bolalar uy tomon ketadilar. 2. Dalaga qarab yo‘l oldik. 3. Ko‘zlarim bu manzaraga qarab to‘ymasdi. 4. Har ikki tomon ham o‘yinda

o‘zini ko‘rsata oldi. 5. Qarab tur, bu ishing yaxshilikka olib kelmaydi. ***/// **1,2** 1782. Qaysi gaplarda yordamchi so‘zlar turkumiga xos birliklarning barcha turi ishtirok etmagan? 1. Usmon Nosir nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari iulmi ajralib turardi. 2. Halollik buvuklik sari dastlabki qadamgina bo’lib qolmay, buyuklik va insoniylikning ayni o'zidir. 3. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdida, gurullab yondi. ***/// **1, 3**

1783. Qaysi javobda ergashtiruvchi bog'lovchi qo‘llangan gap berilgan? ***/// **Bizda yaxshi rahbar eng yaxshi tarbiyachi bo'lishi kerak, chunki tarbiyaning ham, rahbarlikning ham markazida odam turadi...**

1784. Qaysi javobda faqat ergashtiruvchi bog'lovchilar berilgan. ***/// **negaki, basharti, garchi, agar**

1785. Qaysi javobda gumon yuklamasi, orttirma nisbat qo'shimchasi, kesimlik shakli bo'lib kela oladigan qo'shimcha berilgan? ***/// **-dir**

1786. Qaysi javobda sof ko‘makchilar berilgan? ***/// **tufayli, kabi, singari**

1787. Qaysi javobda vazifadosh ko’makchi berilgan? ***/// **ustida, ichida, qoshida, tomon**

1788. Qaysi kelishik bilan qo’llanuvchi ko’pincha ko’chma ma’noda keladi? ***/// **qaratqich**

1789. Qaysi kelishik davomiylik ma’nosini bildiruvchi ko'makchi bilan qo’llanishi mumkin? ***/// **bosh**

1790. Qaysi kelishik mustasnolik ma’nosini bildiruvchi ko'makchi bilan qo’llanadi? ***/// **chiqish**

1791. Qaysi kelishik qo‘shimchasini fikr mavzusi ma’nosini bildiruvchi ko'makchi bilan ma’nodosh holda almashtirish mumkin? ***/// **chiqish**

1792. Qaysi kelishik qo‘shimchasini yo’nalish ma’nosini bildiruvchi ko'makchi bilan ma’nodosh holda almashtirish mumkin? ***/// **jo'nalish**

1793. Qaysi kelishik qo'shimchasini haqida, orqali ko'makchi bilan ma’nodosh holda almashtirish mumkin? ***/// **chiqish**

1794. Qaysi kelishik qo'shimchasini ko'makchi bilan ma’nodosh holda almashtirib bo’lmaydi? ***/// **qaratqich**

1795. Qaysi kelishik qo'shimchasini sabab, maqsad ma'nosini bildiruvchi ko'makchi bilan ma'nodosh holda almashtirish mumkin? ***/// **jo'nalish**

1796. Qaysi kelishik to'siqsizlik ma'nosini vazifadosh bildiruvchi ko'makchi bilan qo'llanishi mumkin? ***/// **jo'nalish**

1797. Qaysi qatorda ayiruv bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog'lamagan? ***/// **Polvonlar epchillikda bir-biridan o'tadi, goh unisi, goh bunisi yutadi.**

1798. Qaysi qatorda bilan so'zi ko'makchi vazifasida qo'llangan? ***/// **Aql birla qul bo'lmish ozod.**

1799. Qaysi qatorda boglovchi-yuklama berilgan? ***/// **ham ... ham**

1800. Qaysi qatorda harakatning chiqish nuqtasi noaniq bo'lgan so'z birikmasi berilgan? ***/// **maktab tomondan chiqdi**

1801. Qaysi qatorda ko'makchilarga xos xususiyat noto'g'ri izohlangan? ***/// **Ko'makchilar ravishdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi.**

1802. Qaysi qatorda sof ko'makchilar berilgan? ***/// **sayin, sari, haqida, qadar**

1803. Qaysi qatorda sof ko'makchilar berilgan? ***/// **qadar, uchun**

1804. Qaysi qatordagi gapda -u, -yu yuklamasi zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan? ***/// **Qiziq, odamning umri shuncha qisqa – yu, tipirchilashi olamni tutadi.**

1805. Qaysi qatordagi ko'makchilar jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi? ***/// **asosan, muvofiq, ko'ra, qaramay**

1806. Qaysi qatordagi o'xshatish qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin? ***/// **Bunday odamlarni kim yoqtirmaydi deysiz?**

1807. Qaysi so'z birikmasi tarkibida ravish o'rnida kelgan sifat mavjud? ***/// **yaxshi kiyingan**

1808. qaysi xususiyat yordamchi so'z turkumlariga oid so'zlarga xos emas? ***/// **lug'aviy**

**ma'noga egalik**

1809. Qaysi yuklamalar qo'llanganda gapning kesimi, asosan, inkor shaklida bo'ladi? ***/// **sira, aslo, hech, na ...**

1810. Qaysi yuklamalar so'zga qo'shib yoziladi? ***/// **-mi, -yoq, -oq** 1811. Qo'shimcha-yuklamalar quyidagi qaysi qo'shimchalar bilan shakldosh bo'lishi mumkin? 1) fe'l yasovchi; 2) bog'lama; 3) otlarda erkalash shakli; 4) otlarda kichraytirish shakli;5) ot yasovchilar; 6) kelishik shakli; 7) ravishdosh; 8) harakat nomi qo'shimchalari ***/// **1, 2, 4, 5**

1812. Quyida berilgan gapdagi bog'lovchi - yuklamani qaysi bog'lovchi bilan almashtirish mumkin? Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman. ***/// **zidlov bog'lovchi**

1813. Quyida berilgan gapdagi ibora qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? Traktor paxta dalasidagi g'o'za poyalarini yer bilan yakson qildi. ***/// **kesim**

1814. Quyida berilgan gapdagi vazifadosh ko'makchi haqida qaysi fikr to'g'ri? Siz bilan suhbatlashishdan oldin shu qarorga kelgan edim**.** ***/// **harakat nomiga bog'langan**

1815. Quyida berilgan gapdagi yordamchi so'z turkumiga kiruvchi birliklar sonini aniqlang. U o'zini yo'qotib, shu qadar ayanchli bo'lib ko‘rindiki, Fotima to'xtab qoldi-da, kuchli odamlar singari uni avaylab bag'riga bosdi. ***/// **3 ta**

1816. Quyida berilgan yuklamalardan kuchaytiruv-ta’kid yuklamalarini belgilang. 1) naq; 2) hatto; 3) g'irt; 4) hech; 5) sira; 6) -oq (-yoq); 7) -u (-yu); 8) ham; 9) -a (-ya); 10) nahotki ***/// **2, 5, 6, 7, 8**

1817. Quyida keltirilgan xususiyatlardan qaysilari yordamchi so'z turkumlariga xos? 1) atash ma’no anglatish; 2) grammatik ma’no anglatish; 3) grammatik vazifa, bajarish. ***/// **3**

1818. Quyidagi gap tarkibida yuklamaning qaysi turi qo'llangan? Tiq etgan ovoz eshitilmas,

faqat shamolda tebrangan terak barglarigina shitirlardi. ***/// **ayiruv-chegaralov yuklamasi**

1819. Quyidagi gapda bo'ylab so'zi qaysi so'z turkumiga mansub? Daryo bo'ylab yurdik**.** ***/// **ko'makchi**

1820. Quyidagi gapda ko‘makchining qanday ma’no uchun xizmat qilayotganini aniqlang. Bahorga qadar sabr qilishga to‘g‘ri keladi. ***/// **chegara**

1821. Quyidagi gapdan yordamchi so‘z turkumlariga kiruvchi birliklar soni va turini aniqlang. Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to‘g‘rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko‘rsatgan holda bajaradi. ***/// **1 ta bog’lovchi, 2 ta ko'makchi**

1822. Quyidagi parchada nechta o‘rinda yordamchi so'z turkumiga kiruvchi birliklar qatnashgan? Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do’st bo'l. Hunarsiz kishilarda hech qachon xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o'rganishdan aslo uzoqlashma. ***/// **4 ta**

1823. Quyidagi qatorda nechta sof ko’makchi mavjud? bilan, sari, kabi, uchun, ko’ra, bo’ylab, keyin, muvofiq, ichida, qadar, deya, tufayli, sayin ***/// **7 ta**

1824. Quyidagi qatorda nechta vazifadosh ko‘makchi mavjud? bilan, sari, kabi, uchun, ko‘ra, bo‘ylab, keyin, muvofiq, ichida, qadar, deya, tufayli, sayin**.** ***/// **6 ta**

1825. Quyidagi qaysi gapda -da yordamchisi o‘rnida ham yuklamasini qollash mumkiu? ***/// **Choy qaynatib ichishni-da unutdi.**

1826. Quyidagi qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan? ***/// **Salima kitob ustida uzoq ishladi.**

1827. Quyidagi qaysi gapda vazifadosh ko’makchi ishtirok etgan? ***/// **Qish o’tib bahor kelishi bilan Qorabog’da o’tkazilgan qurultoyda Boyazidning ustiga yurishga qaror qilindi.** 1828. Quyidagi qaysi ko’makchi(lar) jo’nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo’shiladigan

vazifadosh ko’makchi hisoblanadi? 1) ko’ra; 2) sari; 3) tomon; 4) qadar; 5) muvofiq; 6) bo’ylab ***/// **1, 3, 5**

1829. Quyidagi qaysi ko'makchi(lar) bosh va jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo‘shiladi?

1) ko‘ra; 2) sayin; 3) tomon; 4) qaramay; 5) muvofiq; 6) bo'ylab ***/// **3**

1830. Quyidagi qaysi so’z birikmalarida kelishik qo’shimchalarini ko’makchilar bilan almashtirish mumkin? 1) chapga burilmoq; 2) shoshmasdan yurmoq; 3) olchaning guli; 4) mashinada kelmoq; 5) ukasiga olimoq; 6; uyalganidan kelmoq ***/// **1: 4, 5, 6**

1831. Ra’no shu kunga qadar o'z hayoti to'g'risida hatto do'stiga ham gapirmadi. Ushbu gapda qo'llangan ko'makchilarni toping**.** ***/// **qadar, to'g'risida**

1832. So‘roq, buvruq, iltimos, xohish, ta’kid, uqtirish ina’nolarini ifodalovchi yuklamani belgilang**.** ***/// **2 -chi**

1833. So‘roq, buyruq, iltimos, xohish, ta’kid, uqtirish ma’nolariui ifodalovchi yuklamani belgilang. ***/// -chi

1834. So‘zga qo'shib yoziladigan yuklamalar yuklamaniug ma’no turlaridan qaysi bir(lar)iga kiradi? 1) so‘roq-taajjub; 2) kuchaytiruv-ta’kid; 3) ayiruv-chegaralovj 4) gumon; 5) inkor ***/// **1, 2, 3, 4**

1835. So’zlashuv uslubida birikka holda qo’llanuvchi bog’lovchilar bog’lovchilarning qaysi turiga kiradi? ***/// **zidlov**

1836. Sof ko’makchilar qatorini toping**.** ***/// **bilan, uzra, qadar**

1837. Sof ko’makchilar, asosan, qaysi kelishikdagi so’zlar bilan qo’llanadi**?** ***/// **bosh kelishikdagi**

1838. Sof ko'makchilar haqida bildirilgan quyidagi fikrlarning qaysi biri noto‘g‘ri? ***/// **Sof ko'makchilar so'zlarga kuchaytirish, ayirish-chegaralash, qiyoslash kabi** qo'shimcha ma’nolarni kiritishga xizmat qiladi.

1839. So'roq, buyruq, iltimos, xohish, ta’kid, uqtirish ma’nolarini ifodalovchi yuklamani belgilang**.** ***/// **-chi**

1840. So'zlashuv uslubida biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida quyidagilardan qaysi biri ko‘proq ishlatiladi? ***/// **bilan**

1841. Taqlid so'z otlashgan gapni belgilang. ***/// **Tashqarida ot tuyoqlarining dukurdukuri eshitildi.**

1842. tashqari, bo‘lak singari ko‘makchilar qaysi kelishik shaklidagi so‘zlarga qo‘shiladi? ***/// **chiqish kelishigi**

1843. Teng bog'lovchilar haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang. 1) bilan ko‘makchisi ba’zau uyushiq bo'laklarni bog‘lab kelganda bog‘lovchi vazifasini bajaradi; 2) teng bog‘lovchilar uyushiq bo‘lak va gaplarning mazmuniy munosabatlarini ham ro‘yobga chiqaradi; 3) vazifadosh bog'lovchilar ko‘makchi, yuklama, modal so‘z vazifalarida kelishi mumkin; 4) mazmuniy munosabat ifodalashiga ko‘ra bog'lovchilar teng va ergashtinivchi bog‘lovchilarga bo‘linadi; 5) zidlov bog'lovchilari uyushiq bo‘laklarni einas, qo'shma gap qisrhlarini bog'laydi ***/// 1, 2, 3

1844. U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi. Mazkur gapda atash ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘zlar miqdorini toping. ***/// **6 ta**

1845. U ilonni aldagani ..., ... unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, ... qurbaqaning go‘shti ekanligini aytgani ... ta’qibga uchragan emish. Ushbu gapda nuqtalar o‘rniga qanday yordamchilar qo‘llaniladi**.** ***/// **ko'makchi, aniqlov bog'lovchisi, zidlov bog'lovchisi, ko'makchi** 1846. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko‘p xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o‘z ustida ko‘p ishlardi... Usmon she’rlarida jimjimadorlik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi. Ushbu parchada yordamchi so‘z turkumlariga xos birliklar qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **ko'makchi - 5 ta, bog'lovchi - 1 ta, yuklama -1 ta**

1847. Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko‘p xislatlarga ega bo‘lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o‘z ustida ko‘p ishlardi. Usmon she’rlarida jimjimadorlik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi. Ushbu parchada yordamchi so‘z turkumlariga xos birliklar nechta? ***/// **7**

1848. Vazifadosh bog'lovchi qaysi gapda qo'llangan? ***/// **Badia bilan Ma’suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi.**

1849. Vazifadosh bog'lovchilar yana qanday vazifada kelishi mumkin? 1) ko'makchi; 2) yuklama; 3) modal so'z; 4) undov so'z ***/// **1, 2,3**

1850. Vazifadosh ko‘makchi qo‘llangan gapni toping. ***/// **Usmon Nosir o‘z ustida ko‘p ishlar edi.**

1851. Vazifadosh ko‘makchilar qatorini aniqlang**.** ***/// **qosh, deya, ro'para**

1852. Vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Bu kitob qo'liga tushgandan keyin bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi.**

1853. Vazifadosh ko'makchilar qaysi qatorda berilgan? ***/// **orqali, qadar**

1854. Voqea-hodisalarning faqat bittasi yuzaga chiqadigan qo'shrna gapni aniqlang**.** ***/// **Yo zardo‘zi tolling to'zibrni qoldi,Yoki so'kildimi suvsar tclpaging.**

1855. Xolbibi cholning so'zlarini qunt bilan tinglab, yana o‘rnidan turishga intildi. Ko‘makchi qaysi bo‘lak tarkibida kelgan? ***/// **hol**

1856. Xuddi so'z kabi gapning ham tun va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p. Ushbu gapda nechta yordamchi so’z ishtirok etgan? ***/// **5 ta**

1857. Yil bo‘yi qo‘shilmasida urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi? ***/// **yil bo‘yi birikuvida faqat yil so‘ziga**

1858. Yo‘nalish ma’nosini ifodalagan sof ko‘makchi(lar)ni aniqlang. 1) tomon; 2) sari; 3) qarab; 4) qadar; 5) sayin; 6) bo‘ylab ***/// **2**

1859. Yordamchi so‘zlarga xos xususiyatlar to‘g‘ri aks etgan javobni belgilang. 1) atash va umumiy grammatik ma’noga egalik; 2) o‘zidan oldin kelgan

so‘zga grammatik shakl sifatida qo‘shilish; 3) alohida lug‘aviy urg‘uga egalik; 4) o‘zidan oldin kelgan so‘z bilan bir lug‘aviy urg‘u ostida birlashish; 5) gap tarkibida sintaktik vazifa bajarish. ***/// **2,4**

1860. Yordamchi so’zlar quyidagi qaysi vazifalarni bajaradi? 1) mustaqil so’zlarni va gaplarni tobe munosabatda bog’lash; 2) mustaqil so’zlar va gaplarni teng munosabatda bog’lash; mustaqil so’zlarga qo’shimcha ma’no yuklash; 4) gaplarga qo’shimcha ma’no yuklash; 5) so’zlarga yangi ma’no berish ***/// **1, 2, 3, 4**

1861. Yozma nutq uchun xoslangan biriktiruv bog‘lovchilarini aniqlang. 1) bilan; 2) va; 3) hamda; 4) lekin ***/// **2, 3,**

1862. Yuklama-bog’lovchilar haqidagi to’g’ri fikrlarni aniqlang. 1) ular biriktiruv bog’lovchilariga kiradi; 2) ular zidlov bog’lovchilariga kiradi; 3) yuklama-bog’lovchilar faqat qo’shimcha shaklda bo’ladi; 4) ular faqat uyushiq bo’laklarni teng munosabatda bog’laydi. ***/// **1, 2**

1863. Yuklamalar berilgan javobni belgilang**.** ***/// **atigi, sira, faqat**

1864. Yuklamalar berilgan javobni belgilang. ***/// **atigi, sira, faqat**

1865. Yuklamaning qaysi tur(lar)i vazifadosh bog‘lovchi bo‘lib kelishi mumkin? ***/// **ta’kid va inkor**

1866. Yuklamaning qaysi turlari faqat qo'shimcha yuklamalardan iborat? ***/// **so'roqtaajjub, gumon**

1867. Yuklamaning qaysi turlari faqat so‘z yuklamalardan iborat? ***/// **o'xshatish-qiyoslash, inkor**

1868. Yuklamaning qaysi turlari so‘z va qo'shimcha yuklamalardan iborat? ***/// **ayiruvchegaralov, kuchaytiruv-ta’kid**

1869. Inkor yuklamasi qatnashgan gapni belgilang. ***/// **Sen hayotda sira bo'shashma.**

1870. “Atrofdagi ovozlarga gala-gala chug‘urchuqlarning vijir-vijiri qo‘shilib ketmoqda” gapidagi taqlid so‘zning turini aniqlang. ***/// **tovushga taqlid**

1871. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z haqidagi to'g‘ri hukmni toping. <u>Qur-ey! Qur-ey!</u> Jimgina quloq soldi. ***/// **undov so'z**

1872. Balli, ofarin kabi so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi? ***/// **undov**

1873. Berilgan gapdagi mayli so‘zi to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang. Ha, mayli, buni hozircha ochiq qoldiramiz. ***/// **tasdiq so‘z**

1874. Berilgan qaysi gapda otlashgan taqlid so‘z mavjud? ***/// **Tokchaga in qurgan musichaning g‘uv-g‘uvi eshitildi.**

1875. Berilgan qaysi taqlid so‘zlarning qismlari alohida-alohida qo‘llanadi? ***/// **jiz-jiz**

1876. Bizning g‘olib chiqishimiz shubhasiz. Ushbu gapda modal so‘z orqali qanday ma’no ifodalangan? ***/// **modal so'z ishtirok etmagan**

1877. Buyruq-xitob undovlari ishtirok etgan gapni toping**.** ***/// **Qur-ey! Qur-ey! Jimgina quloq soldi. “Ba” degan javob yo’q.**

1878. Darhaqiqat, chang-to‘zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi. Ushbu gapdagi modal so‘z qanday ma’noga ega? ***/// **tasdiq**

1879. Eshikni taqqillatishga ham ulgurmadi. Hashamatli eshik shiddat bilan ochildi. Gapdagi taqlid so‘zning vazifasini toping. ***/// **taqlid so‘z ishtirok etmagan**

1880. Fikridan qaytarish uchun qo'llanilgan undov so‘z qatnashgan gapni toping. ***/// **Hayhay, shoshqaloqlik qilmang.**

1881. Fikrning tartibi ma’nosini ifodalovchi modal so'zlarni aniqlang. 1) avvalo; 2) darhaqiqat; 3) haqiqatan; 4) masalan; 5) xayriyat; 6) demak ***/// **1**

1882. Fikrning tasdig’ini ifodalovchi modal so'zlarni aniqlang. 1) avvalo; 2) darhaqiqat; 3) haqiqatan; 4) masalan; 5) xayriyat; 6) demak. ***/// **2, 3**

1883. Fikrning yakunlanish ma’nosini bildiruvchi modal so‘zlar qatorini ko'rsating. 1) aftidan; 2) shekilli; 3) darhaqiqat; 4) haqiqatan; 5) xullas; 6) demak ***/// **5, 6**

1884. Gumon ma’nosini bildiruvchi modal so‘zlar qatorini ko'rsating. 1) aftidan; 2) shekilli; 3) darhaqiqat; 4) haqiqatan; 5) xullas; 6) demak. ***/// **1,2**

1885. Holatga taqlid so‘z berilgan gapni toping. ***/// **Tokchadagi chiroq lip-lip yona boshladi.**

1886. Issiq havo damini g‘ir-g‘ir esgan shamol kesar edi. Ushbu gapdagi g‘ir-g‘ir so‘zi qanday so‘z? ***/// **taqlid so‘z**

1887. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz

Sochlarim oqargan shunda, ehtimol. Berilgan she’riy parchada alohida so’z turkumiga kiruvchi so’zlar soni nechta? ***/// **2 ta**

1888. Kishilarning undov so’zlar orqali ifodalangan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so’zlarga qanday so’zlar qo'shilib kelib, qo’shma fe’llar hosil qiladi? ***/// **demoq, solmoq, urmoq, tortmoq**

1889. Modal so‘z berilgan qatorni toping. ***/// **Ehtimol, bu onasidan yagona esdalik.**

1890. Modal so‘z berilgan qatorni toping. ***/// **O’sha go‘shtga hammasining og‘zi tekkan ekan, chamasi.**

1891. Modal so‘z berilgan qatorni toping. ***/// **Onajonim, balki bir kun Men ham shoir bo‘larman. (A. Oripov)**

1892. Modal so‘z berilgan qatorni toping. ***/// **Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib, xaltaga solaman. (G’. G’ulom)**

1893. Modal so‘z qatnashgan gapni toping. ***/// **- Nachora, kuni bitganda, - dedi dadam tomog'ini bo'g'gan ko'z yoshidan ovozi xirillab.**

1894. Modal so‘zlarni toping. 1) attang; 2) faqat; 3) birdan; 4) aftidan; 5) masalan; 6) nihoyat; 7) nahotki; 8) xayriyat; 9) biroq; 10) ehtimol ***/// **1,4,5,6,8,10**

1895. Modal so'z ishtirok etmagan gapni toping. ***/// **Imtihondan a’lo baho bilan o'tishim shubhasiz.**

1896. Modal so'z mavjud bo'lgan gaplarni aniqlang. 1. Albatta, jon shirin, lekin odamning yuragida boshqalarga mehr bo'lishi kerak. 2. Azamatlar, ishni

do'ndiribsizlar. 3. Yo'lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do'st edi. 4. Xayriyat, bizning mojarolardan qayin otam xabardor bo'ldi. 5. Ammo xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro'yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. ***/// **1,3,4,6**

1897. Oh zolim falak yiqil boshimga! (Uyg'un) Berilgan gapda undov so‘zdan qanday tinish belgisi qo'yilishi lozim? ***/// **hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi**

1898. Qanday so‘zlar ko‘pincha gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi? ***/// **modal so‘zlar**

1899. Qaysi birikma tarkibidagi hokim so'z vazifadosh modal so'z bo'lib kela oladi? ***/// **asar mazmuni**

1900. Qaysi gap tarkibida modal so‘z ishtirok etgan? ***/// **Ota-onam, avvalo, bu ishni boshlashdan ilgari men bilan maslahatlashishadi.**

1901. Qaysi gapda buyruq-xitob undovi kishilar diqqatini tortish uchun ishlatilgan? ***/// **Hoy, aylanay, o’g’rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko’zimga uyqu keladimi?**

1902. Qaysi gapda buyruq-xitob undovlari kishilar diqqatini tortish uchun qo‘llanilgan? ***/// Haminasi o'tkinchi, xo'sh, nima o'tmas?

1903. Qaysi gapda fikrni xulosalash ma’nosini ifodalovchi sof modal so'z qatnashgan? ***/// **Xullas, qora kunga asrab qo'ygan bug'doyimiz g‘am, jo'xori ham ko‘p edi.**

1904. Qaysi gapda ishonch munosabatli modal so‘z ishtirok etgan? ***/// **- Xo‘p, eshoni mirza, xo’p. Albatta, aytaman, albatta. Endi menga ruxsatmikin?**

1905. Qaysi gapdagi yasama so‘zning asosi taqlid so‘zdan iborat? ***/// **Qo‘qqisdan o‘rmon kaptarlari g‘uv-g‘uvlab qolishdi.**

1906. Qaysi javobda faqat buyruq-xitob undovlari berilgan? ***/// **hey, xo’sh, tss**

1907. Qaysi javobda gumon munosabatini bildiruvchi sof modal so‘z berilgan? ***/// **shekilli** 1908. Qaysi javobdagi buyruq-xitob undovlari insonga nisbatan ham qo’llanish mumkin?

***/// **ey, hoy, xo’sh**

1909. Qaysi qatorda holatga taqlid so'zlar berilgan? ***/// **yilt-yilt, dik, lip-lip**

1910. Qaysi qatorda modal so'zlarning morfologik belgisi berilgan? ***/// **yasalmasligi**

1911. Qaysi qatorda modal so'zlarning sintaktik belgisi berilgan? ***/// **kirish so'z vazifasida kelishi**

1912. Qaysi qatordagi gapda modal so‘z bilan bog'liq tinish belgisi noto‘g‘ri qo'llangan? ***/// **Poytaxt bo‘lish uchun, avvalo poytaxtlik maqomi kerak.**

1913. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh modal so'z ishtirok etmagan? ***/// **Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.**

1914. Qaysi so’z turkumida so’zlovchining yoshi, amali nuqtayi nazariga qarab farqlanuvchi so’zlar mavjud? ***/// **undov**

1915. Qaysi turkumga oid so'zlarning rasmiy va ilmiy uslubda qo‘llanish doirasi nihoyatda cheklangan? ***/// **undov so‘zlar**

1916. Quyida berilgan gapda tagiga chizilgan so'z qanday so‘z? Avvalo, asarning lirik qahramoni mazkur she’rda nega aynan Mirrix yulduziga murojaat etayotganiga e’tiborni qarataylik. ***/// **modal so'z**

1917. Sifat so‘z turkumi bilan vazifadosh bo‘lgan modal so‘z qatnashgan gapni toping. ***/// **To'g'ri, shuncha harakat bckorga ketdi.**

1918. Sof modal so'zlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **haqiqatan, afsuski, attang**

1919. Tasdiq ma’nosini bildiruvchi modal so‘zlar qatorini ko'rsating. 1) aftidan; 2) shekilli; 3) darhaqiqat; 4) haqiqatan; 5) xullas; 6) demak. ***/// **3, 4**

1920. Tovushga taqlidni bildiruvchi taqlid so’z qaysi gapda mavjud? ***/// **Namiqqan shuvoqlar oldin to‘xtab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi.**

1921. Undov so‘zlar otlashib, gapda qaysi bo‘lak bo'lib kela oladi? 1) ega; 2) kesim; 3) to‘ldiruvchi; 4) aniqlovchi. ***/// **1, 2, 3, 4**

1922. Undov so’z qaysi gapda buyurishni ifodalagan? ***/// **Hay-hay, tegma!**

1923. Undov so’zlar haqidagi qaysi fikr noto’g’ri? ***/// **Undov so’zlar yakka holda gap bo’lib kela olmaydi.**

1924. Undov so'zlar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang. ***/// **Kishilar diqqatini tortish uchun ishlatiladigan undovlar his-hayajon undovlari hisoblanadi.**

1925. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **vergul**

1926. Undov so'zlarning qo'llanish darajasi qaysi uslubda cheklangan? 1) so'zlashuv; 2) badiiy; 3) publitsistik; 4) rasmiy; 5) ilmiy. ***/// **4, 5**

1927. Undovlar haqidagi noto‘g‘ri fikrni aniqlang. ***/// **Buyruq-xitob undovlari faqat jonivorlarga qarata ularni haydash, chaqirish, to'xtatish uchun qo'llanadi.**

1928. Vazifadosh modal so’z qatnashgan gapni toping. ***/// **Chamasi, hammasining og’zi teggan ekan o’sha go’shtga.**

1929. Vazifadosh modal so'zlar berilgan javobni belgilang. ***/// **umuman, ehtimol, chamasi, shubhasiz**

1930. Aqlliga aytdim, angladi - bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi. Ushbu parchada ismlar tarkibida qaysi qo‘shimcha(lar) mavjud? 1) kelishik; 2) egalik; 3) zamon; 4) shaxs-son ***/// **1, 2, 3,4**

1931. Aqlliga aytdim, angladi, bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi. Ushbu parchadagi ismlar guruhiga mansub so‘zlar qaysi turkum(lar)ga tegishli? 1) ot; 2) sifat; 3) fe’l ***/// **2**

1932. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko'ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi. Ushbu gapda asosi ism bo'lgan nechta yasama so'z bor? ***/// **2**

1933. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo‘yniga olmaslik ayb. Ushbu gapda ismlar soni nechta? ***/// **5 ta**

1934. Bir oz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘radilar. Ushbu gapda ismlarning nechta munosabat qo’shimchalari bor? ***/// **8 ta**

1935. Birdan chehrasidagi quvonch o’rnini hayrat egalladi. Ushbu gapda ismlar qaysi kelishik shakllarida qo’llangan? ***/// **bosh, qaratqich, tushum**

1936. Bog‘lama qatnashgan gapni toping. ***/// **Har kim o‘z oldiga, maqsad qo'yishi joiz.**

1937. Bog'lama qatnashmagan gapni toping. ***/// **Menga, albatta, kitob, daftar, qalamlar – hammasi kerak.**

1938. Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o‘rindiqqa o‘tqazdi. Ushbu gapda ishtirok etgan ismlarning munosabat shakllarini aniqlang. ***/// **-ning, -i, -qa**

1939. Egalik qo‘shimchasi harakat bajaruvchining shaxsi va sonini bildirgan qatorni ko‘rsating. ***/// **Boqqaning ikki echki, o'shqirganing yer tebratar.**

1940. Faylasuf olimlar qadriyatiarni turlicha tasnif etadilar, ular uch guruhga bo‘linib qadriyatiarni asoslaydilar. Ushbu gapda ismlarning munosabat shakli nechta? ***/// **5 ta**

1941. Ism asosli sodda yasama sifatlar qaysi javobda berilgan? ***/// **hajviy, qishlik, devoriy**

1942. Ism asosli sodda yasama so'zlar berilgan qatorni aniqlang. ***/// **bolalik, varrak, eslamoq**

1943. Ismlarni boshqa so‘zlarga bog‘lash va gap bo‘laklarini shakllantirishda xizmat qiluvchi shakllarga nima deyiladi? ***/// **munosabat shakllari**

1944. Ismlarning munosabat shakllari berilgan qatorni aniqlang. ***/// **egalik, kelishik shakllari, kesimlik bog'lamalari**

1945. Ismlarning qaysi qo'shimchalar bilan o'zgarishi turlanish deyiladi? ***/// **egalik va kelishik qo'shimchalari**

1946. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ushbu gapdagi ismlar sonini ko‘rsating. ***/// **6 ta**

1947. Men kutubxonada qadimiy kitoblarning ro‘yhatini ko‘rdim va o‘qib chiqib o‘zimga kerakli kitoblarni so‘radim. Berilgan gapdagi turlovchi qo‘shimchalar sonini aniqlang. ***/// **7**

1948. Meni men istagan o’z suhbatig’a arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko’nglim pisand etmas. Baytdagi nechta ism turlangan? ***/// **7**

1949. munosabat shakllarini hosil qiladigan qo'shimchalar qaysi javobda? ***/// **kelishik qo'shimchalari**

1950. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan so’rang buni… (Sirojiddin Sayyid) Ushbu she’riy parchadagi ismlarning munosabat shakllari haqida bildirilgan to’g’ri hukmni belgilang. ***/// **7 ta belgili, 1 ta belgisiz**

1951. Qadimda arablar so'zlarni qanday turkumlarga ajratganlar? ***/// **ismlar, fe'llar, yordamchilar**

1952. Qanday so'zlar ismlar hisoblanadi? ***/// **egalik va kelishik shakllari bilan o'zgaradigan so'zlar**

1953. Qaysi gapda bog'lama ishtirok etmagan? ***/// **Bu masala arifmetik usul bilan hisoblanadi**

1954. Qaysi gapda bog'lama ishtirok etgan**?** ***/// **Men u uchun kimman**

1955. Qaysi gapda bog'lama mavjud? ***/// **Deydilarki, sog'liq hayot bergan ehson ekan.** 1956. Qaysi gapda egalik qo'shimchasi harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini ifodalagan? ***/// **Bo'zchi bilganin to'qir.**

1957. Qaysi gapda egalik qo'shimchasi harakat, bajaruvchisining shaxsi va sonini ifodalagan?

***/// **Bo'zchi bilganin to'qir.**

1958. Qaysi gapda egalik qo'shimchasi shaxs-son ma'nosini ifodalagan? ***/// **"Mening bu yerda yurishim unga yoqmasmish ", - dedi kulib Naima.**

1959. Qaysi gapda ismlarning lug'aviy shakli qatnashmagan? ***/// **Ekin ek, bog' yarat.**

1960. Qaysi gapda ovozga taqlid so'z turlangan? ***/// **Tuyoqning dupuridan navkarlar bir safga chizilishgan edi.**

1961. Qaysi javobda ismlarning munosabat shakli qo'shimchalari berilgan? ***/// **-ning, -ni, im, -man, -i**

1962. Qaysi javobda ismlarning munosabat shakllari berilgan? 1) -lar; 2) -im; 3) -imiz; 4) -jon; 5) -da; 6) –cha ***/// **2, 3, 5**

1963. Qaysi javobda ismlarning munosabat shakllari noto'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **ismlarning kichraytirish-erkalash shakli**

1964. Qaysi javobda tarkibida kelishik qo'shimchasi bilan turlangan so'z mavjud? ***/// **Laziz**

**tezlikka e'tibor berdi.**

1965. Qaysi qatorda ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi qo'shimchalar berilgan? ***/// **-man, -san, -dir**

1966. Qaysi qatorda ismlarning munosabat shakllari berilgan? ***/// **egalik, kelishik shakllari**

1967. Qurboning bo'layin, ey onajonim

Sening faryodlaring, mening fig'onim. Ushbu she'riy parchada ismlarning munosabat shakllari necha marta qo'llangan? ***/// **6**

1968. Qurboning bo'layin, ey onajonim, Sening faryodlaring - mening fig'onim. O'tmishingni o'ylab qiynalar jonim

Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor. M.Yusuf she'ridan olingan ushbu parchada ismlarning munosabat shakllariga oid qo'shimcha nechta? ***/// **10 ta**

1969. Quyida berilgan gapdagi ismlarning munosabat shakllarini toping. Kimni ma'qul ko'rsangiz, roziman. ***/// **-ni, -man**

1970. Quyida berilganlardan ism asosli yasama so‘zlarni toping. 1) sarg‘ay; 2) tilagi; 3) singlisi; 4) turli; 5) qonamoq; 6) tarog‘im; 7) to‘shaklar; ***/// **1,4,5**

1971. Quyidagi gapda necha o'rinda ismlarning munosabat shakllari qatnashgan? Jon do‘sting jonidan kechsa ham, mol do‘sting molidan kechmas**.** ***/// **7 ta**

1972. Quyidagi gapda qo’llangan ism asosli yasama so’zlarda qanday tovush o’zgarishlari sodir bo’lgan? Yigitga qo’yilgan ayblovlar shundan dalolat beradiki, tergovchilar uning o’rnatilgan tartibni yaxshi anglamaganini hisobga olmasdan xulosa chiqarishga shoshilishgan.

(Gazetadan) ***/// **1 ta tovush tushishi va 2 ta tovush almashinishi** 1973. Shivirlading yonimda xushhol:

"Mangu birmiz, do‘stim, ikkimiz". Ushbu parchadagi -miz qo'shimchalariga qaysi qatorda to‘g‘ri ta’rif berilgan? ***/// **birinchi so'z tarkibida bog'lama, ikkinchi so'z tarkibida egalik qo'shimchasi hisoblanadi**

1974. Shivirlading yonimda xushhol: "Mangu birmiz, do‘stim, ikkimiz". (A.Oripov) Ushbu parchada nechta so'z turlangan? ***/// **2**

1975. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) ". Ushbu parchada ismlarning lug'aviy shakllari necha marta qatnashgan**?** ***/// **2**

1976. So‘z birikmasi tarkibida kelishik qo'shimchalari va ko‘makchi birgalikda qo‘llangan vaqtda kelishik qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi? ***/// **kelishik qo'shimchasi tobe so'z oxiriga yoki ko'makchi oxiriga qo'shilishi mumkin**

1977. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,

Ochgil, – deydi. – Bu – men, qadrdon,

Bilmoq bo‘lsang – Bardoshdir otim. (A.Oripov) Ushbu she’riy parchadagi nechta gapda bog'lama ishtirok etgan? ***/// **2**

1978. Tarixni o‘rganishdan asosiy maqsad – milliy o‘zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapdagi ismlarning munosabat shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **-ni, -dan, -imiz, -ni**

1979. "ravishdosh + fe’l" shaklidagi so‘z birikmalarini ajrating. 1) o'ylab turdi; 2) turib gapirdi; 3) yig‘lab turdi; 4) baqirib chaqirdi. ***/// **2, 4**

6) daftarning varag‘i; 2) daftar varag‘i; 3) bizning daftar; 4) daftar varaq. Berilgan qaysi birikma(lar)da so‘zlovchi va tinglovchi uchun aniq daftarga qarashli bo‘lgan varaq ma’nosi ifodalangan? ***/// **1**

1) daftarning varag‘i; 2) daftar varag‘i; 3) bizning daftar; 4) daftar varaq. Berilgan qaysi birikma (lar) da umuman daftarga qarashli varaq ma’nosi ifodalangan? ***/// **1,2**

1) suvchi qiz; 2) tabib ayol; 3) charm etik; 4)o'rgatuvchi mashina; 5) oshpaz shogird; 6) temir qoshiq. Qaysi bitishuvli so'z birikmasidagi hokim so'zga egalik qo'shimchasini qo'shish orqali uni moslashuvli birikmaga aylantirish mumkin? ***/// **1, 2, 4, 5**

1980. Agar hokim bo‘lak egalik qo‘shimchasidagi ot bilan ifodalangan bo'lsa, tobe bo'lak qaysi kelishik shaklida bo'ladi? ***/// **qaratqich kelishigi shaklida**

1981. Agar hokim bo'lak belgi bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so'z qaysi kelishik shaklida bo'ladi? ***/// **chiqish kelishigi shaklida**

1982. Aniqlovchili so’z birikmasi berilgan javobni belgilang. ***/// **bog’lar manzarasi**

1983. Berilgan atamalarning qaysilari grammatikaning sintaksis qismiga tegishli? ***/// **izohlanmish, boshqaruv, tobe so'z**

1984. Berilgan atamalarning qaysilari grammatikaning sintaksis qismiga tegishli? ***/// **izohlanmish, boshqaruv, tobe so'z**

1985. Berilgan gap tarkibida nechta so‘z birikmasi bor? Do‘stlik qanchadan qancha xilma-xil imtiyozlarni o‘zida jamlagan. ***/// **4 ta**

1986. Berilgan gapda nechta fe’lli birikma mavjud? Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi. ***/// **3 ta**

1987. Berilgan gapda tobe bog’lanishlarning qaysi turlari mavjud? Mehnat bilan topganing osonlikcha qo‘lga kiritganlaringdan azizroqdir. ***/// **1 ta bitishuv; 2 ta boshqaruv**

1988. Berilgan gapdagi qulog‘iga quydi birikmasi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan? 1. Shifokor dorini bolaning qulog'iga quydi. 2. Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog‘iga quydi. ***/// **1-gapda: qulog'iga – to'ldiruvchi, quydi – sodda kesim; 2gapda qulog'iga quydi – murakkab kesim**

1989. Berilgan qaysi so‘z juftligidan so‘z birikmasi va gap hosil qilish mumkin? 1. berilgan, topshiriq; 2. vazifa, bajarmoq; 3. qiziqarli, mashg‘ulot; 4. o‘qishli, asar; 5. samarali, ishlamoq. ***/// 1,3,4

1990. Berilgan so‘zlardan qaysilari bir-biriga tobe bog‘lanishi mumkin? 1) tol, terak; 2) hikoya, o’qimoq; 3) telefon, gapirmoq. 4) katta, oshqovoq. 5) uy, eshik. 6) o'rik, g‘alla**.** ***/// **2, 3, 4, 5**

1991. Berilgan so'z birikmalaridan hokim so'z ravishdosh bilan ifodalangan fe’lli birikmani toping. ***/// **onasini o'ylab**

1992. Berilgan so'z birikmalarining qaysi birida bosh so'z fonetik qoida asosida yozilgan? ***/// **dostonchilikdagi o'rni**

1993. Berilganlardan bitishuvli birikmalarni belgilang. 1) yoppasiga salomlashmoq; 2) birga ishlamoq; 3) opasi uchun olmoq; 4) uyalganidan qizarmoq; 5) to'satdan kirmoq; 6) rnaktab sari ***/// **1 2, 4**

1994. Bir turga mansub so‘z birikmalari berilmagan qatorni aniqlang. ***/// **qiziqarli mashg'ulot, maktab bog'i, hikoya o'qimoq**

1995. Bitishuvli so‘z birikmasi qaysi qatorda berilgan? ***/// **birdan gapirmoq**

1996. Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda nechta bitishuv munosabatli otli so‘z birikmasi mavjud? ***/// **3 ta**

1997. Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda tobe bog'lanish nechta? ***/// **6 ta**

1998. Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda nechta fe’lli so’z birikmasi mavjud? ***/// **2 ta**

1999. Daftarning varag'i va daftar varag'i birikmalari o'rtasida qanday farqlanish bor? ***/// **aniqlik-noaniqlik ma’nosi bor yoki yo'qligiga ko'ra**

2000. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi. Ushbu gap tarkibida nechta aniqlovchi birikma bor? ***/// **3ta**

2001. Ertalabki kuchli shamol maktab bog'idagi daraxtlarning mevalarini to'kib yubordi. Ushbu gapda sintaktik aloqaning qanday turlari bor? 1) boshqaruv; 2) moslashuv; 3) bitishuv ***/// **1, 2, 3**

2002. Gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **atrof ko‘m-ko‘k**

2003. Gap va so‘z birikmasining farqi qaysi javobda xato berilgan? ***/// **kesimlik beligisiga ega yoki ega emasligiga ko‘ra farqlanadi**

2004. Grammatik vosita orqali bog‘langan so‘z birikmasini toping. ***/// **ertak haqida so'zlamoq**

2005. Har ikki qismi yasama so'zlardan iborat bo'lgan fe’lli birikmani belgilang. ***/// **unumli ishlab**

2006. Har yumushning fasli bor, ishning asli bor. Kechikkanga qishboyning yomon hazili bor.

Ushbu misralarda nechta moslashuvli birikma qo'llangan? ***/// **3**

2007. Hokim so‘z fe’lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan so‘z birikmasini belgilang. ***/// **ifodali o'qigan (bola)**

2008. Hokim so‘z sifat bilan ifodalangan boshqaruvli birikmalar berilgan javobni aniqlang. 1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go‘zal; 5) o'qishda ilg‘or; 6) osmon beg'ubor. ***/// **2, 5**

2009. Hokim so‘z sifat bilan ifodalangan so‘z birikmalari qatorini toping. ***/// **hammadan katta, hayot uchun kerakli, yurishga qulay**

2010. Hokim so’z ot bilan ifodalangan so’z birikmalarini toping. 1) harbiy ishlar; 2) zavqlanib gapirish; 3) ibratli tashabbus; 4) men o’quvchi ***/// **1, 3**

2011. Hokim so'z ot bilan ifodalangan so'z birikmalarini toping. ***/// **o'quvchining kitobi, o'rik hidi, qattiq aziyat**

2012. Ikki tomonlama bog'lanish ro'y bergan birikmani toping. ***/// **o'z uyim**

2013. itishuv yo‘li bilan hosil qilingan so‘z birikmasi berilgan qatorni aniqlang. ***/// **tirishqoq o‘quvchi**

2014. Kechqurunlari oy yorug'ida buvimdan turli rivoyatlar eshitar edim. Ushbu gapda nechta so'z birikmasi bor? ***/// **6 ta**

2015. Kelishik qo'shimchasi belgisiz qo'llangan fe’lli so'z birikmasini toping. ***/// **she’r yodlamoq**

2016. Kengaygan ravishdosh birikmali gapni toping. ***/// **Derazalar ochilgach, xonaga toza havo kirdi.**

2017. Koinotdagi barcha narsa mayy;ui va ma’lum qonunga bo‘ysunadi. Ushbu gapda nechta boshqaruvli birikma bor? ***/// **1 ta**

2018. Koinotdagi barcha narsa muayyan va ma’lum qonunga bo'ysunadi. Ushbu gapda olmosh qaysi turdagi so'z birikmasi tarkibida kelgan? ***/// **bitishuv**

2019. Maktab bog‘ida bodom va o'rik gulladi. Ushbu gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi qaysi hukm to'g'ri? ***/// **5 ta grammatik bog'lanish: 2 ta tobe bog‘lanish, 1 ta teng bog‘lanish, 2 ta tobe bog'lanishli so'z birikmasi bor**

2020. Mana shu tirranchalarni himoya qilmaganim uchun boya rosa po’stagimni qoqishdi. Ushbu gapda nechta so’z birikmasi mavjud? ***/// **5 ta**

2021. Mana shu tirranchalarni himoya qilmaganim uchun boya rosa po’stagimni qoqishdi.

Ushbu gapda nechta boshqaruv munosabatli fe’lli so’z birikmasi mavjud? ***/// **2 ta**

2022. Mashina uchun ehtiyot qismlar birikmasidagi hokim qismni aniqlang. ***/// **ehtiyot qismlar**

2023. Moslashuv yo‘li bilan hosil qilingan so‘z birikmasi berilgan qatorni aniqlang. ***/// **mening oilam**

2024. Moslashuvli so‘z birikmasi berilgan qatorni toping**.** ***/// **gap bo‘lagi**

2025. Noto'g'ri hukmni toping. ***/// **So'z – tushuncha, so'z birikmasi esa fikr ifodalaydi.**

2026. Noz-ne’matlar sarasi

Va tabiat ne’mati.

Bu ne’matni yaratar

Oltin qo’llar mehnati. Ushbu she’rda nechta moslashuvli so’z birikmasi bor? ***/// **3 ta**

2027. O‘rik guli, uy tomi birliklari qaysi qatorda to'g'ri izohlangan? ***/// **1, 2-moslashuv**

2028. O’z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi. Ushbu gapda qatnashgan so‘z birikmalaridagi so'zlarning bog'lanish usullari va ularning sonini aniqlang.

***/// **3 ta bitishuvli, 2 ta boshqaruvli, 2 ta moslashuvli so'z birikmasi**

2029. olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda nechta otli so’z birikmasi mavjud? ***/// **4 ta**

2030. Paxta gulli chinni piyola so‘z birikmasi zanjirida nechta so‘z hokim bo‘lak vazifasini bajargan? ***/// **2 ta**

2031. Paxtu gulli chinni piyola so‘z birikmasidagi tobe qismni aniqlang. ***/// **paxta gulli**

2032. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasisiz hosil bo‘lgan moslashuvli birikmani toping. ***/// **Bu yil yoz havosi issiq bo‘ldi.**

2033.Qaysi birikmada qaratqich kelishigi qo‘shimchasi butunning qismini anglatgan otlarni bog‘lagan? ***/// **daraxtning shoxi**

2034.Qaysi gap tarkibida fe’l boshqaruvi mavjud emas? ***/// **U bir hafta dam oldi.**

2035.Qaysi gap tarkibida olmoshga nisbatan hokim, sifatdoshga nisbatan tobe munosabatda bo’lgan so’z qatnashgan? ***/// **O'z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.**

2036.Qaysi gapda 6 ta so'z birikmasi qatnashmagan? ***/// **Tarixni anglash orqali insonda o'zining inson ekanligini anglash qobiliyati shakllanadi.**

2037.Qaysi gapda bitishuv aloqali so'z birikmasi qatnashgan? ***/// **Yozgi ta’tilda cho'milib dam oldik.**

2038.Qaysi gapda bitishuvli so‘z birikmasi tarkibidagi hokim so‘z ega vazifasini bajargan? ***/// **Sabrsiz odam o'z boshiga kulfat keltiradi.**

2039.Qaysi gapda ham teng bog'lovchi, ham ergashtiruvchi bog’lovchi ishtirok etgan? ***/// **Ipak kiyim-kechak dazmollanmasligi ma’qul, agar zarur bo’lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi**

2040.Qaysi gapda ko'makchi vositasida bog'langan boshqaruv munosabati mavjud? ***///

**O’quvchi bolalarga, yigit va qizlarga bag'ishlab yozilgan qo'shiqlar ko'p.**

2041.Qaysi gapda so‘z birikmalarining birikish usuliga ko‘ra barcha turi ishtirok etgan? ***/// **Polvonning qo’li kuchliroq o’ziga tortadi.**

2042.Qaysi gapdagi so‘z birikmalari soni 3 ta emas? ***/// **Bitmas-tuganmas bilimnning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.**

2043.Qaysi gapdagi teng bog'langan so'zlar vazifadosh bog'lovchi yordamida bog'langan?

***/// **Qayg'u bilan shodlik yonma-yon bo'lishini unutmang.**

2044.Qaysi javobda berilgan so'z birikmalarini gapga aylantirish mumkin? ***/// **qattiq sovuq, shirin qovun, chiroyli gul**

2045.Qaysi javobda bitishuv bog’lanishli so’z birikmalari berilgan? ***/// **chiroyli kiyinmoq, mehribon buvi, oltin soat, shirin olma**

2046.Qaysi javobda hokim so'z ham, tobe so'z ham yasama so'zlardan iborat bo'lgan otli birikma berilgan? ***/// **insoniy kamolot**

2047.Qaysi javobda so’z birikmasi berilmagan? ***/// **qanotli do’stlar**

2048.Qaysi javobda so’z birikmasi berilmagan? ***/// **qanotli do’stlar**

2049.Qaysi javobdagi barcha turg‘un birikmalar so'z birikmasi bo‘la oladi? ***/// **yaxshi ko'rmoq, boshiga yetmoq, bo'yniga ilmoq**

2050.Qaysi maqolda ikkita bitishuvli birikma mavjud? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

2051.Qaysi maqolda ikkita bitishuvli birikma mavjud? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

2052.Qaysi maqolda to’rtta erkin birikma ishtirok etgan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**

2053. Qaysi qatorda berilgan so‘z birikrnalaridagi barcha so‘z yasovchi qo‘shimchalar shakldoshlariga ega? ***/// **bilimdon yoshlar, o'rinsiz gap, suvsab kelmoq**
2054. Qaysi qatorda bir necha hokim so'z bir tobe so'zga aloqador bo'lgan zanjirli birikma berilgan? ***/// **o'z Vatanini sevgan kishi**
2055. Qaysi qatorda bitishuv yo’li bilan birikkan so’z birikmalari berilgan? ***/// **shoshganidan unutmoq, qo’qqisdan kelmoq**
2056. Qaysi qatorda bosh so'z ravish bilan ifodalangan otli birikma berilgan? ***/// **hammadan sekin**
2057. Qaysi qatorda hokim so‘zi ot bilan ifodalangan bitishuvli so‘z birikmasi berilgan? ***/// **tiniq daryo**
2058. Qaysi qatorda kelishik qo'shimchalari yordamida birikkan so'z birikmalari berilgan? ***/// **tog' cho'qqisi, kitob o'qimoq**,
2059. Qaysi qatorda moslashuvli birikmalar berilgan? ***/// **tong yellari, istiqlol odimlari, bahor elchisi**
2060. Qaysi qatorda qiyoslashgan asos vazifasini bajaruvchi birliklar berilgan? ***/// **guldan nozik, temirdan qattiq**
2061. Qaysi qatorda son moslashuvli birikmaning ergash so‘zi vazifasida kelgan? ***/// **ikkalasining uchrashuvi, birinchilarning tanlovi**
2062. Qaysi qatorda so'zning so‘z birikmalari bilan berilgan ma’nosi noto‘g‘ri berilgan? ***/// **jayron – yovvoyi tog‘ echkisi, nor – urg'oqchi tuya**
2063. Qaysi qatordagi birliklar erkin birikma sanaladi? ***/// **ko'rikdan o'tkazmoq, ko'prikdan o'tkazmoq**
2064. Qaysi qatordagi gapda olmosh boshqaruvli so‘z birikmasiga ishora qilgan? ***/// **Farzand kulgusi har narsadan aziz. Uning qahqahasidan dil yayraydi.**
2065. Qaysi qatordagi gapda tushum kelishigidagi ot fe’l bilan birikma hosil qiladi? ***/// **Rais terimchilarga mukofot berdi.**
2066. Qaysi so‘z birikmasida ko‘chma ma’nodagi so‘z berilmagan? ***/// **qushning boshi**
2067. Qaysi so’z birikmalari tarkibida yasama so’z mavjud? 1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go‘zal; 5) o'qishda ilg‘or; 6) osmon beg'ubor. ***/// **1,3**
2068. Quyida berilgan gapd nechta so'z birikmasi mavjud? Tarixni anglash orqali insonda o'zning inson ekanligini anglash qobiliyati shakllanadi. ***/// **7 ta**
2069. Quyida berilgan gapda nechta so’z birikmasi bor? Xanjarini ikkinchi urishda Sodiq bo’shashdi va qo’lidan xanjari tushdi. ***/// **4 ta**
2070. Quyida berilgan gapda nechta tobe bog'lanish bor? Tarixni anglash orqali insonda o'zning inson ekanligini anglash qobiliyati shakllanadi**.** ***/// **7 ta**
2071. Quyida berilganlardan so'z birikmasini toping. ***/// **qotib-qotib kulmoq**

2072. Quyidagi birliklarni farqlang. 1) Ozodlik ushaldi; 2) Ozodlikning ushalishi ***/// **1birlik gap; 2-birlik so'z birikmasi**
2073. Quyidagi birliklarning qaysi biridan nutqda har gal tayyor material sifatida foydalanmaymiz? 1) so‘z; 2)qo'shma so'z; 3)so'z birikmasi; 4)ibora (frazeologik birlik) ***/// **3**
2074. Quyidagi gapda nechta so‘z birikmasi bor, ularning nechtasi bitishuvli birikmaga mansub? Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi. ***/// **6 ta; 3 ta**
2075. Quyidagi gapda nechta so‘z birikmasi bor? Vohid, Mahmud do’stlari bilan sinfdoshining so‘nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. ***/// **6 ta**
2076. Quyidagi gapda nechta so'z birikmasi bor? O'z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi. ***/// **6 ta**
2077. Quyidagi gapda otli so‘z birikmalarning soni nechta? Muzaffarning lo‘ppi yuzidagi tushkunlik alomati xushnud tabassum bilan almashdi. ***/// **5 ta**
2078. Quyidagi gaplardan qaysi birida so‘zlar o‘rnini o‘zaro almashtirsak, gap yo‘qoladi? 1. So‘rading sen. 2. Biz studentmiz. 3. O’ttiz kun – bir oy. 4. Zamira yozgan. 5. Havo toza. ***/// **4,5**
2079. Quyidagi grammatik vositalarning qaysi biri so‘z birikmasi doirasida qo‘llanmaydi? 1) bog‘lovchilar; 2) kelishik qo‘shimchalari; 3) egalik qo‘shimchalari; 4) shaxs-son qo‘shimchalari; 5) yuklamalar; 6) ko‘makchilar ***/// **1,4,5**
2080. Quyidagi qaysi gapda moslashuv va boshqaruv aloqasi mavjud? ***/// **Umidsizlik uyini buzsang, umidingga yetarsan.**
2081. Quyidagi qaysi gapda so'zlarning teng bog’lanishi mavjud? ***/// **Vatan mung'aygan tandirli va pastakkina tomli kulbangdan boshlanadi.**
2082. Quyidagi vositalardan qaysi biri tobe bog‘lanish hosil qilmaydi? ***/// **bog'lovchi**
2083. Shu payt darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo‘itig‘idan tushib Alijon kirib keldi. Ushbu gapda nechta so'z birikmasi mavjud? ***/// **5 ta**
2084. Shu payt darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib Alijon kirib keldi. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi mavjud? ***/// **3 ta**
2085. Shu payt darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo’ltig’idan tushib Alijon kirib keldi. Ushbu gapda nechta bitishuvli so’z birikmasi mavjud? ***/// **3 ta**
2086. Shu paytda mehmonxonaning eshigini birov qattiq taqillatdi. Ushbu gapdagi so’z birikmalari haqidagi to’g’ri ma’lumotni belgilang. ***/// **3 ta fe’lli, 1 ta otli so’z birikmasi**
2087. Sifat boshqaruvi qaysi qatorda berilgan? ***/// **o‘qdan tez, haqiqatga yaqin**
2088. So‘z birikmalari, tarkibida so'zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiluvchi vositalarni aniqlang. ***/// **kelishik shakllari, ko'makchilar**
2089. So‘z birikmasi haqida quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri? 1) Tobe so‘z, odatda, hokim so‘zdan oldin keladi. 2) Hokim so‘z, odatda, tobe

so‘zdan oldin keladi. 3) Hokim so‘z tobe so‘z orqali beriladigan so'roqqa javob bo'ladi. 4) Tobe so‘z hokim so'z orqali beriladigan so‘roqqa javob bo'ladi. ***/// **1, 4**

2090. So‘z qo‘shilmasi ishtirok etgan qatorni toping. ***/// **Biz rostgo‘ylik va halollikni hamisha ulug‘laymiz.**

2091. So’z birikmasi haqidagi noto’g’ri fikrni aniqlang**.** ***/// **narsalarning umumlashgan otini bildiradi**

2092. So'z birikmasi qaysi qatorda berilgan? ***/// **sozni chalib**

2093. So'z birikmasi qaysi qatorda berilgan? ***/// **pushti gul**

2094. So'z birikmasida hokim so'z kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zni talab qilib, tushum kelishigidagi so'zga bog'lansa, hokim so'z qaysi so'z turkumi bilan ifodalanadi? ***/// **fe’l**

2095. Tarkibda fe’l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan otli birikmani toping. ***/// **yo‘qotilgan yillar**

2096. Teng bog'lanish berilmagan qatorni belgilang. ***/// **ko'z bilan ko'rish**

2097. Teng bog'lanish haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang. ***/// **Teng bog'lanishda nechta so'z bog'lanishidan qat’iy nazar ular bitta tushunchani ifodalaydi.**

2098. Teng bog'lanish qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang. 1) biriktiruv bog'lovchilari; 2) zidlov bog'lovchilari; 3) bog'lovchi vazifasidagi inkor yuklamasi; 4) bog'lovchi vazifasidagi kuchaytiruv va ta’kid yuklamasi; 5) sabab bog'lovchilari; 6) ayiruv bog'lovchilari. ***/// **1, 2, 3, 4, 6**

2099. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka vazifadosh ko'makchi yordamida bog‘langan so‘z birikmasini toping**.** ***/// **undan ko’ra kuchli**

2100. Tobe bo‘lakni hokim bo‘lakka bog‘lovchi vositalar haqidagi noto‘g‘ri hukmni aniqlang. ***/// **Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda ko‘makchiga kelishik qo‘shimchasi qo‘shilib kela olmaydi.**

2101. Tobe bog’lanishni ko’rsating. ***/// **Saida bilan kelmoq**

2102. Tobe bog'lanish haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang. ***/// **Tobe bog’lanishda tobe bo‘lak hokim bo‘lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchi, ohang yordamida bog'lansa, so'z birikmasi hosil bo'ladi.**

2103. Tobe so`zida faqat til undoshlari ishtirok etgan otli birikmani toping. ***/// **anglatadigan so'**

2104. Tobe so‘z qismlari yasama bo'lgan juft so‘zlardan iborat birikmani toping. ***/// **ilmiytanqidiy matn**

2105. Tobe so‘z yasama bo'lgan bitishuv munosabatli otli birikmani toping. ***/// **muammoli suhbat**

2106. Tobe so‘zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiluvchi so'zlar qanday nomlanadi**?** ***/// **ko'makchilar**

2107. Tobe so’z fonetik o’zgarishga uchragan so’z berilgan birikmalar qaysi javobda berilgan?

***/// **o’rnatilgan qoida, atalgan sovg’a**

2108. To'rtta qora ko'zoynakli semiz kishi so'z birikmasi zanjiridagi tobe so'zni toping. ***/// **to'rtta qora ko'zoynakli**

2109. Uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol so'z birikmasi zanjiridagi hokim so'zni toping. ***/// **mayin shamol**

2110. Ukasi Husan esa qanday qilib baxtli bo'lgani, o'z harakatlari, tadbirkorligi haqida so'zlab beribdi. Mazkur gapda nechta ko'makchili boshqaruv ishtirok etgan? ***/// **3 ta**

2111. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilishdi. Ushbu gapda tobe bog'lanishlar soni nechta? ***/// **6 ta**

2112. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilishdi. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi bor? ***/// **6 ta**

2113. Xashakdan xasham bichma, Yolg‘ondan qasam ichma. Ushbu maqolda qanday munosabatli so‘z birikmalari qo'llangan? 1) boshqaruv; 2) moslashuv; 3) bitishuv. ***/// **1,3**

2114. Xashakdan xasham bichma, Yolg‘ondan qasam ichma. Ushbu maqolda qanday munosabatli so‘z birikmalari qo'llanmagan? 1) boshqaruv; 2) moslashuv; 3) bitishuv. ***/// **2**

2115. Xashakdan xasham bichma, Yolg'ondan qasam ichma. Ushbu chiqish kelishigi qaysi so'z birikmalari tarkibida kelgan?1) boshqaruv; 2) moslashuv; 3) bitishuv. ***/// **1, 3**

2116. Xashakdan xasham bichma, Yolg'ondan qasam ichma. Ushbu maqolda so'z birikmalaridagi so’zlar o’zaro qaaysi vosita orqali bog’langan? 1) kelishik; 2) egalik; 3) ohang. ***/// **1, 3**

2117. Yasama so'zlar teng bog'langan javobni toping. ***/// **jo‘shqin va serqirra**

2118. Yasama va tub so'zlar teng bog'langan javobni toping. ***/// **keskin va murakkab**

2119. Yig’ilishda hayotiy tajribasi va obro’-e’tibori bilan yurtimizda tanilgan keksalar ishtirok etishdi. Berilgan gapda so’z qo’shilmasini bog’lovchi vositani toping. ***/// teng bog’lovchi

2120. Yozuvchilar uyushmasining a’zolari birikmasidagi hokim so‘z qaysi qatorda berilgan? ***/// **a’zolari**

2121. Yozuvchilar uyushmasining a’zolari birikmasidagi tobe qism qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan? ***/// **yozuvchilar uyushmasining**

2122. Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir. Gapda fonetik qoida asosida yozilgan so’z hokim bo’lakka qaysi usulda tobelangan? ***/// **bitishuv**

2123.. Quyida berilgan gapda nechta soz birikmasi bor? Kecha Hamida ota-onalar majlisi bcrlishi to‘g‘risida maktabidan qog’oz olib keldi. ***/// **4 ta**

— Nodonsan-da, — debdi Luqmon. — Shuning uchun qulsan. Tariq eksang, bug‘doy o‘rasanmi? Ushbu parchada nechta kesim ishtirok etgan? ***/// **5**

–

Sog‘ligi ngiz yaxshimi? - Rahmat. Tuzukman.

- Eratalab uchrashamiz-da.

- Albatta. Bekatda. Soat sakkizda.

Berilgan suhbat matnida nechta so‘z-gap ishtirok etgan? ***/// **2 ta**

1. Bu-tushmi, ongmi, yoki bir ro‘yo! 2. Bu-siz uchun katta sinovidir. 3. Bu cholni butun yurt izzat qiladi. 4. Buning odam bo‘ladigan emas. Berilgan gaplarning qaysilarida olmosh ega vazifasini bajargan? ***/// **1,2,4**
1. Hayotimda kim uchundir foydali inson bo'lsam, bu mening eng katta yutug‘imdir. 2. Ikkinchi masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi. 3. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o‘tkazmaslik lozim. 4. Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman. Ushbu qo'shma gaplarning qaysilarida ergash gapning kesimi ot-kesim hisoblanadi? ***/// **1, 2,3, 4**
1. Maqsadimiz o‘qish. 2. Har narsaga qiziqish biz uchun eski odat. 3. Baquvvat xotiraning mohiyati unutmaslikdir. 4. Yashashning asl mazmuni yaratmoq. Berilgan gaplarning qaysilarida gap kesimi harakat nomi bilan ifodalangani uchun ega va kesim orasida tire qo'yilishi lozim? ***/// **1, 4**
1. Ochiq yuzlilik – bekning yaxshi fazilatlaridan biri. 2. Xotira baquvvatligi – elchiga ziynat. 3. Ko'ngli chopmagan ishni qilish – xatar. 4. Ko'p so'zlash donolik belgisi emas. Berilgan gaplardan qaysilarining kesimi fe’l kesim emas? ***/// **1, 2, 3, 4**

2124. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. Ushbu gapdagi otlashgan so’zlarning sintaktik vazifasini aniqlang**.** ***/// **ega, to’ldiruvchi**
2125. Agar tarkibida aslo, sira, hech kabi yuklamalar ishtirok etgan bo'lsa, gapning kesimi, asosan, qanday shaklda bo'ladi? ***/// **inkor shaklida**
2126. Asosiy bo’lak mavjud bo’lgan birliklarni aniqlang. 1) gulday chiroyli; 2) choynakdan kattaroq; 3) bolalarning aqllisi; 4) hayot go‘zal; 5) o'qishda ilg‘or; 6) osmon beg'ubor. ***/// **4, 6**
2127. Atov gap ishtirok etgan qatorni aniqlang. ***/// **Hunar. Hunardan rizqing unar.**
2128. Atov gaplar haqidagi to‘g‘ri hukmlarni aniqlang. 1) atov gaplar sodda aniqlovchilar bilan kengayadi; 2) atov gaplar murakkab aniqlovchilar bilan kengayadi;3) kengaygan harakat nomi bilan ifodalana olmaydi. ***/// **1, 2**
2129. Atov gaplardan keyin qanday tinish belgisi qo'llanilmaydi? ***/// **vergul**
2130. Balki buyuk farzandiga Terib kelgan chechaklar.

Balki tunlar unga bedor

Aytib bergan ertaklar. Mazkur she'riy parchaning bosh bo'laklari to'g'ri izohlangan qatorni aniqlang**.** ***/// **terib kelgan, aytib bergan — kesim, ega ifodalanmagan**

2131. Berilgan gapda kesim vazifasida kelayotgan fe'l qaysi turkumdan yasalgan? Naqadar ajoyib qush! - deyishdi bir og'izdan barcha amaldorlar va shu zahoti Yaponiya imperatorining elchisini "Imperatorning favqulodda bulbullar yetkazib beruvchi vakili" degan unvon bilan mukofotlashdi. ***/// **otdan**

2132. Berilgan gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan? Tasavvuf ahli sig'ingan ideal - komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi**.** ***/// **kesim**

2133. Berilgan gapdagi egani toping. Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. ***/// ega ifodalanmagan

2134. Berilgan gapning egasi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? Siz eski shaharga tushib, kechgacha bir aylanib keling.**D)** ***/// **olmosh bilan**

2135. Berilgan qo'shma gaplarning qaysi birida ergash gapning kesimi qo'shma fe'ldan iborat? ***/// **Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin.**

2136. Berilgaulardan egasi noma'lum gaplarni aniqlang. 1. Mana uy ham qurildi, suv quvurlari o'tkazildi. 2. Yo'lda ukam menga tog'ri kelib qoldi. 3. To'garakka borish kerak. 4. Yo'lni kesib o'tishga to'g'ri keladi. ***/// **3, 4**

2137. Bilim mehnat bilan, tilak g'ayrat bilan go'zal. Ushbu gapda ega vazifasini bajargan so'zlarni belgilang**.** ***/// **bilim, tilak**

2138. Bilmam, qanday ayol bo'lgan Alisherning onasi. Ushbu parchadagi kesimning turini aniqlang. 1) sodda fe'l-kesim; 2) murakkab fe'l-kesim; 3) sodda ot-kesim; 4) murakkab otkesim. ***/// **1, 4**

2139. Bilmam, qanday ayol bo'lgan Alisherning onasi. Bedki uning aqliga ham lol qolgan zamonasi. Mazkur she'riy parchadagi kesimlarni aniqlang. ***/// **bilmam, ayol bo'lgan, lol qolgan**

2140. Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,

Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular ...

Men seni esladim entikib, yonib,

Men seni izladim baridan tonib. (Nazira as-Salom) Ushbu she'riy parchadagi egalarni aniqlang. ***/// **uyqular, tuyg'ular, men, men**

2141. Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,

Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular.

Men seni esladim entikib, yonib,

Men seni izladim baridan tonib. (Nazira as-Salom) Ushbu she'riy parchadagi kesimlarni aniqlang. ***/// **qochdi, ochdi, esladim, izladim**

2142. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh,

Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh! Ushbu she'riy parchadagi gaplarning egasini aniqlang. ***/// **oqil, bosh**

2143. Biror chaqirim yurilsa, bu yo’l katta guzarga olib chiqadi. Ushbu gapda majhul nisbatdagi fe’l shakli qanday sintaktik vazifada kelmoqda? ***/// **kesim** 2144. Birovning do’stlar-u xorijlari bor,

Mening hech kimim yo‘q - o‘zingdan boshqa. (Usmon Azimov) Ushbu she’riy parchadagi kesimlarni aniqlang. ***/// **bor, yo’q**

2145. Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Gapdagi egani toping. ***/// **yoz kechalari**

2146. Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur. Ushbu maqolda qo‘llangan antonimlarning gapdagi sintaktik vazifasini belgilang. ***/// **ega**

2147. Bu tuproqning farzandlari bek bo'ladi, Topgan-tutgan davlatlari erk bo'ladi.

Ildizlari Hazrati o'zbek bo'ladi. Berilgan she’riy parchadagi egalarni ko'rsating. ***/// **farzandlari, davlatlari, ildizlari**

2148. Bunday gaplar, asosan, xabar maylining hozirgi-kelasi, ba’zan esa o'tgan zamon shakllaridagina keladi. Bunday gaplar bir so'zdan iborat bo'lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin. Berilgan ta’rif gapning qaysi turi haqida? ***/// **atov gaplar**

2149. Dadam kasalxonaning bosh vrachi hisoblanadi. Gapning kesimi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **kasalxonaning bosh vrachi hisoblanadi**

2150. Ega bilan kesim orasiga tire noto‘g‘ri qo‘yilgan gapni toping. ***/// **Hunarlining qo‘liegri.**

2151. Ega ergash gapli qo'shma gapni aniqlang. ***/// **Kim mehnat qilsa, u rohat ko‘radi.**

2152. Ega ifodalangan gapni toping**.** ***/// **Uquvi yo'q har qadamda yiqilar.**

2153. Ega tarkibida quyidagi qo'shimchalardan qay biri bo‘lmaydi? ***/// **kelishik**

2154. Ega va kesimli gap berilgan qatorni aniqlang. ***/// **Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu.**

2155. Egasi noma’lum gap tarkibida qo'llangan belgilash olmoshini toping. ***/// **Har qanday ishda mashaqqat borligini yodda tutish kerak.**

2156. Egasi umumlashgan gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang, yaxshilik bilan unasan.**

2157. Egasi yashiringan gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Manzilga mana shu yo’ldan boriladi.**

2158. Gapdagi egani aniqlang. Xushbo'y hid sochar ekan Har xil gul va g'unchalar. ***/// **gul, g'unchalar**

2159. Gapning fikriy mundarijasi nimada ifodalanadi? ***/// **grammatik asosda**

2160. Har bir yangi narsada lazzat bor. Gapda ega qaysi so’z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ot**

2161. Har bir yangi narsada lazzat bor. Gapda ega qaysi so’z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ot**

2162.Hayot go‘zal, yashash maroqli. Ushbu gapda qaysi gap bo‘laklari mavjud? ***/// **ega, kesim**

2163.Hayotda go'zallik, quvvat va saodatning manbayi soddalikdir. Ushbu gapning kesimi haqidagi noto'g'ri hukmni belgilang. ***/// **fonetik yozuv asosida yozilgan so'z**

2164.Hayotdan ham qadrliroq narsa bor bo'lsa, bu — sogliq, o'limdan ham qo'rqinchliroq narsa bor bo'lsa, bu — kasallik, hayotga teng narsa — boylik, o'lim bilan barobar narsa — faqirlik. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan yasama so'zlarning nechtasi ot kesim vazifasida kelgan**?** ***/// **4** 2165. Illat izlaganga illatdir dunyo, G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo,

Kim neni izlasa topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (E.Vohidov) Ushbu she’riy parchada ega vazifasida kelgan so'zlarni belgilang? ***/// dunyo, dunyo, kim, dunyo

2166.Kamina so‘zi men olmoshi o'rnida kelib, ega vazifasida qo‘llanganda gap kesimi qanday shaklda bo‘ladi? ***/// **kesim asosan III shaxs shaklida bo‘ladi**

2167.Kelgan mehmonlardan biri oltmishlarda, ikkinchisi yetmishlarda edi. Berilgan gapda chama sonining sintaktik vazifasini aniqlang. ***/// **kesim**

2168.kesim shakli qaysi qatorda qo'llangan? ***/// **Agar shu ko`rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar.**

2169.Kesim vazifasida kelgan undov so‘z qatnashgan so‘zni toping. ***/// **Endi ishlarimiz voy.**

2170.Kesimi yasama so‘z bilan ifodalangan bog‘langan qo’shma gapni belgilang. ***/// **Odam bahosizdir, ammo uni mehnat baholaydi.**

2171.Kesimi yasama so‘z bilan ifodalangan gaplarni toping. 1. To‘g‘ri so‘z qilichdan o‘tkir, shuning uchun hamisha rost so‘zlashga odatlan. 2. Kamtar bo‘l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi. 3. O‘z fikrini o‘ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi. ***/// **1,2**

2172.Kesimi yasama so’z bilan ifodalangan ergash gapli qo’shma gapni belgilang**.** ***/// **Mehnatni hurmatlasak, u bizni e’zozlaydi.**

2173.Kesimlarning asosi omonim xarakterga ega bo’lgan bog’langan qo’shma gapni toping.

***/// Po’lat qoplangan zalvorli eshik g’ichirlab ochildi-yu, qorong’i bo’shliq ko’rindi.

2174.Koinotdagi barcha narsa muayyan va ma’lum qonunga bo'ysunadi. Ushbu gapda olmosh qanday bo’lak vazifasida kelgan? ***/// **barcha bo’lak tarkibidagi bo’lak**

2175.Men shu uzundan-uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanchli ahvolga tushmagandim. Berilgan gapda kishilik olmoshi qaysi bo‘lakka tobelangan? ***/// **kesim** 2176. Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand

etmas. Baytda qo‘llanilgan sifatdoshlarning sintaktik vazifalarini ko‘rsating**.** ***/// **faqat ega**

2177. Mingbuloq o‘zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz. Gapning kesim(lar)ini toping. ***/// **yaxshi, serob, qarovsiz**

2178. Muruvvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,

Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasi. Berilgan gapda ostiga chizilgan so’z qaysi gap bo’lagi vazifasida kelgan? ***/// **kesim** 2179. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so‘rang buni, Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada ot kesimli gaplar sonini aniqlang**.** ***/// **2 ta**

2180. Nadir millat qudratining tamadduni? Amir Temur haykalidan so'rang buni, Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada nechta murakkab kesimli gap bor? ***/// **1 ta**

2181. Nomustaqil kesim shakli qaysi gapda qo'llanmagan? ***/// **Mehnat qilsang, baxting ochiladi.**

2182. Noto'g'ri hukmni belgilang. ***/// **Ega yo kesim ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganda qo'yilmaydi.**

2183. O’z nafsini mag’lub etgan marddir, G’iybatdan uzoq ketolgan marddir.

Nomard tegib o’tar yiqilganlarga,

Ojizlar qo‘lini tutolgan marddir. (Rudakiy) Ushbu she’rdagi ot-kesimli gaplar sonini aniqlang. ***/// **3ta**

2184. Odobli va go‘zal xulqli odamlar – ko‘payaversa, xalqning do‘stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Ushbu gapdagi qaysi so'zlar ega vazifasida kelgan? ***/// **odamlar, do‘stligi, mehr-muhabbati**

2185. Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz. Gapning kesimlari qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ravish**

2186. Ota-ona duosi o'tga, suvga botirmas. Ushbu gapning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan va kesimda nechta lab undoshi ishtirok etgan? ***/// **sifatdosh; 2 ta**

2187. Ot-kesim qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganda bog‘lama ishtirok etmasa ham tire qo‘llanilmaydi? ***/// **sifat**

2188. Ot-kesimli gap berilgan qatorni toping. ***/// **Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf yuksak qalb sohibidir.**

2189. Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. Berilgan gap haqida qaysi hukm to‘g‘ri? ***/// **egasi noma’lum gap**

2190. Qars ikki qo‘ldan chiqadi. Ushbu gapda ega qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **taqlid so‘z**

2191. Qavsi javobda shaxsi ma'lum gap berilgan? ***/// **Nazardan qochirmasliging kerak**
2192. Qaysi gap kesimi sifat so'z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **Go'zallikdan ezgulik yaxshiroqdir.**
2193. Qaysi gap kesimida lablangan unli ishtirok etmagan? ***/// **Mehnat va o‘qish — og‘aini.**
2194. Qaysi gap tarkibida ikkita ega qatnashmagan? ***/// **Hozirgi kunda xalq hunarmandchiligiga katta e’tibor berilmoqda, xalq hunarmandlariga shart-sharoitlar va qulayliklar yaratilmoqda.**
2195. Qaysi gap tarkibida kesimlik shakllari to‘liq aks etgan? ***/// **Men ham yozmasaydim.**
2196. Qaysi gap tarkibidagi qo'shma sifat egaga bog'lanib kelgan? ***/// **Baxtiyorning shalpangquloq, jajji kuchukchasi bor.**
2197. Qaysi gapda faqat ot turkumiga mansub so'zlar ishtirok etgan bo‘lib, kesimi yasama mavhum ot bilan ifodalangan? ***/// **Baxtsizlikning belgisi nodonlikdir.**
2198. Qaysi gapda ibora bilan ifodalangan kesim ishtirok etgan? ***/// **Ishingiz o'ngidan kelavermayaptimi, demak, birovlarga qilgan baxilligingiz uchun javob beryapsiz.**
2199. Qaysi gapda kesim kengaygan birikma bilan ifodalangan? ***/// **Tarixni o’ganishdan asosiy maqsad - milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.**
2200. Qaysi gapda olmosh ega vazifasida kelgan? ***/// **Hamma o'z jigarini qidiradi.**
2201. Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat egaga bog’lanib kelgan? ***/// **Hozir ular uchun eng bexatar yo’l Toshkent edi.**
2202. Qaysi gapda ot bilan ifodalangan ot-kesim qatnashmagan? ***/// **Do‘stlik bilan ellar obod.**
2203. Qaysi gapda ot-kesim ifodalangan? ***/// **Bola shirin uyquda edi.**
2204. Qaysi gapda otlashgan sifat bilan ifodalangan ega ishtirok etdi? ***/// **Eng qiyini o‘zingni anglay bilishingdir.**
2205. Qaysi gapda so‘z birikmasi zanjiri gap egasi atrofida birlashgan? ***/// **Badanimni junjituvchi sovuq shamol izg'ib qoldi.**
2206. Qaysi gapdagi kesim sodda yasama so‘zdan iborat? ***/// **Yaxshi topib gapiradi.**
2207. Qaysi gapdagi kesim yasama so‘z bo'lib, faqat til undoshlaridan tashkil topgan? ***/// **Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.**
2208. Qaysi gapning egasi otlashgan sifat bilan ifodalangan? ***/// **Kamtarinlar ko‘p gapirmaydilar.**
2209. Qaysi gapning egasi sifatdosh shaklidagi yasama so‘z bilan ifodalangan? ***/// **Birlashgan o‘zar, birlashmagan to'zar.**
2210. Qaysi gapning kesimi faqat ohang bilan shakllangan? ***/// **Samarqand – azim shahar.**

2211. Qaysi gapning kesimi yasama so‘z bilan ifodalangan? ***/// **Kamtarinlar ko‘p gapirmaydilar.**

2212. Qaysi javobda atov gap berilmagan? ***/// **Hovli jimjit. Uydagilar ketib qolishgan.**

2213. Qaysi javobda inkorni bildiruvchi so'z-gap qo'llangan? ***/// **-Sen metroda borasanmi? - Yo'q.**

2214. Qaysi javobda shaxssiz gap berilgan? ***/// **Yutuqlarga asta-sekin erishiladi.**

2215. Qaysi maqolda yasama so‘z bilan ifodalangan ikkita ega mavjud? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**

2216. Qaysi qatorda atov gap berilgan? ***/// **Registon. Qo’shiq tanlovi yakuni. Barcha hayajonda.**

2217. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan? ***/// **Dam olish kuni kitobxonlar yig‘iniga borish kerak.**

2218. Qaysi qatorda gap kesimining qo’shimchlaridan anglashilib turgan bo’lak gap tarkibida ishtirok etgan? ***/// **Topshiriqni o’z vaqtida bajaring.**

2219. Qaysi qatorda shaxsi umumlashgan gap berilgan? ***/// **Birovning izidan gapirma, yuziga gapir.**

2220. Qaysi qatorda tasdiq ma’nosini ifoda etuvchi gap berilgan? ***/// **Sevgi sening shirin tilingdan kim o’pmagan, kim tishlamagan?**

2221. Qaysi shaxsda ega bilan kesim ba’zan son jihatdan mos bo‘lmaydi? ***/// **III shaxs ko‘plikda**

2222. Qo'rqoq keta turib maqtansa, jasur kelib maqtanadi. Ushbu gapda zid ma’noli so'zlar qaysi gap bo'lagi bo'lib kelgan? ***/// **ega**

2223. Qulog'im sizlarda, mehmonlar.Gapning egasini toping. ***/// **ega ifodalanmagan**

2224. Qutidor har kuni Yusufbek hojining muxlislaridan birining uyida mehmon va hojining suhbatidan mamnun. Ushbu gapdagi faqat sonor tovushlardan iborat bo'lgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? ***/// **kesim**

2225. Quyida berilgan gap haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang. Sog‘liq tilasang, ko‘p yema. ***/// **shaxsi umumlashgan gap**

2226. Quyida berilgan gap haqidagi to’g’ri fikrni aniqlang. Sog’liq tilasang, ko‘p yema. ***/// **shaxsi umumlashgan gap**

2227. Quyida berilgan gapdagi ibora qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? Daladagi hosilni ko‘rib, raisning boshi osmonga yetdi. ***/// **kesim**

2228. Quyida berilgan gapning kesimini toping. Ular besh kishidan iborat edi. ***/// **besh kishidan iborat edi**

2229. Quyida berilgan she’riy parchada nechta olmosh kesim vazifasini bajargan? O‘zimniki emas bu umr, To’la menikimas, sezib turibman. Bir vaqtlar meni deb halok bo‘lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman. ***/// **2 ta**

2230. Quyidagi gapda asosi hosil bo’lish usuliga ko’ra birlashturuvchi belgiga ega bo’lgan sodda yasama so’z qaysi gap bo’lagiga bog’lanib kelgan?

Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolarni, qon to‘kishlarni unutar, olamda mehr-u saxovat poklik va ezgulik g‘olib bo‘lar. ***/// **kesim**

2231. Quyidagi gapda kesim qanday so‘z turkumi bilan ifodalangan? Brigada yerlarida kultivatsiya ham, sug‘orish ham jaded. ***/// **sifat**

2232. Quyidagi gapda o‘zlik olmoshi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? Bu gaplarni boshlagan — o‘zi. ***/// **ot-kesim**

2233. Quyidagi gapda qo’llangan iboralar soni va gapdagi vazifasini aniqlang. Qoratoy o‘zini tuta olmadi, boyni so‘kib, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqa boshladi. ***/// **2 ta: kesim, kesim**

2234. Quyidagi gapila ega vazifasida kelgan otlar miqdorini aniqlang. Takabburlik va zulm – ulug‘likning ofati, muloyimlik va tavoze – insonning ziynati, sharm-hayo uning go‘zal, yoqimli libosidir. ***/// **5 ta**

2235. Quyidagi gaplarning qaysi birida ot-kesim qo'llangan? ***/// **Biroq inson uchun eng aziz bo'lgan umr qisqa.**

2236. Quyidagi gapning kesimi nima bilan ifodalanganligini aniqlang. Ammamning zardali ovozini eshitib, damim ichimga tushib ketdi. ***/// **ibora bilan**

2237. Quyidagi qaysi gap tarkibida chuqur til orqa tovushi bor qator undoshli so’z ot-kesimga bog’lanib aniqlovchi vazifasida kelgan? ***/// **Narzi uzoqdagi ota-onasi kabi, bu yerdagilar uchun ham aziz va qadrli jigarbanddir.**

2238. Quyidagi qaysi gapda ot-kesim qo'llangan? ***/// **Tarix g'ildiragini orqaga aylantira oladigan kuch dunyoda yo‘q.**

2239. Quyidagi qaysi maqolda yasama so'z bilan ifodalangan ega ishtirok etgan? ***/// **Birlashgan daryo bo'Iur, tarqalgan irmoq bo'lur.**

2240. Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas,
Seni xato baholagan - kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo’lmay qolmas. Ushbu she’riy parchada berilgan kesimlar sonini aniqlang ***/// **6 ta**

2241. Shaxsi noma’lum gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Fikrni misollar bilan dalillash zarur.**

2242. Shaxsi noma’lum gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Qunt qilsa hamma narsaga erishsa bo'ladi.**

2243. She’r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir, uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov) Ushbu qo'shma gap tarkibidagi nechta sodda gapning kesimi yasama so‘z bilan ifodalangan? ***/// **4** 2244. Shivirlading yonimda xushhol:

“Mangu birmiz, do‘stim ikkimiz”. (A. Oripov) Ikkinchi gap tarkibidagi egani aniqlang. ***/// **ikkimiz**

2245. Shivirlading yonimda xushhol:

“Mangu birmiz, do‘stim ikkimiz”. (A. Oripov) Ikkinchi gap tarkibidagi kesimni aniqlang. ***/// **birmiz**

2246. Shoshilmay sovib qolgan kaboblarni yig'ib oldi, so'ng, indamay orqasiga tisarilarkan, patirga imo qilib ko'zini qisdi. Berilgan gap turini toping. ***/// **egasi ma'lum gap**

2247. Shoshqaloqlik niholin eksang,
Bergusi meva pushaymonlik. Ushbu gapdagi egani toping. ***/// **ega ishtirok etmagan**

2248. Shovulladi tun bo'yi shamol,
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor". (A. Oripov) Ushbu parchada nechta gapning kesimi yasama so'zdan iborat? ***/// **2**

2249. Shovulladi tun bo'yi shamol,
Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlarding yonimda xushhol
"Yana keldi, do'stginam, bahor". (A. Oripov)Ushbu parchadagi gaplarning egalari qaysi javobda to'g'ri berilgan? ***/// **shamol, qaldiroqlar, bahor**

2250. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchada nechta ot kesimli gap mavjud?
***/// **ot kesimli gap mavjud emas**

2251. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchadagi egali gaplar sonini aniqlang**?** ***/// **3**

2252. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov) Ushbu parchadagi egasiz gaplar sonini aniqlang? ***/// **1**

2253. Shu soylarda suvlar urgil yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan
izingga sen, Shu savolni
berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? (Iqbol Mirzo) Ushbu she'riy parchada egalarni aniqlang**.** ***/// **sen, sen, sen**

2254. Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi. Ushbu gapdagi tovush o'zgarishiga uchragan so'z qaysi bo'lak vazifasida kelgan? ***/// **ega**

2255. So'z - ulug' qudrat, eritgay toshni ham, muzlarni ham. Gaplarning kesimiga qaysi qatorda to'g'ri izoh berilgan? ***/// **qo'shma ot-kesim, sodda fe'l-kesim**

2256. Sodda fe’l-kesim qatnashgan qatorni toping. ***/// **Durdona uy ishlarini berilib bajardi.**

2257. Sodda ot kesim qo'llangan gapni toping. ***/// **Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi – shu.**

2258. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,
-Ochgil, -deydi. -Bu - men, qadrdon,
Bilmoq bo‘lsang - Bardoshim otim. (A. Oripov) Ushbu she’riy parchada nechta egali gap mavjud? ***/// **3**

2259. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,
Ochgil, – deydi. – Bu – men, qadrdon, Bilmoq bo‘lsang – Bardoshdir otim. (A.Oripov) Ushbu she’riy parchada ega ishtirok etmagan nechta gap mavjud? ***/// **5**

2260. Tarkibga ajralmaydigan, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega ' bo'lmagan, dialogik va ba’zan nionologik nutqqa xos bo'Igan bir so‘zdan iborat gaplar qanday gaplar hisoblanadi? ***/// **so‘z-gap**

2261. Tez hal qilish kerak, talabgorlar ko‘p. Ushbu gapning kesimi haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang**.** ***/// **1 ta murakkab ot-kesim, 1 ta sodda ot-kesim**

2262. Toshlar orasidan mo’ralab asta,
Ko’kargan maysani ko’rdim yuqori. (Sh.Qosimov) Ushbu she’riy parchada gapning qaysi bo‘lagi ishtirok etmagan? ***/// **ega**

2263. Tunning sokinligini chigirtkalarning chirillashi buzardi. Berilgan gapda ega qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **fe’l bilan**

2264. U o’quvchi. Ushbu gapda kesim nima yordamida shakllangan? ***/// **ohang**

2265. Ular besh kishidan iborat edi. Ushbu gap bo'laklari haqida berilgan to'g'ri hukmni toping. ***/// **ega, murakkab kesim**

2266. Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog‘i yo‘q. Berilgan gapda fonetik qoida asosida yozilgan so‘z qanday bo‘lak bo‘lib kelgan? ***/// **ega**

2267. Yam-yashil vohalarga, Badiiy lavhalarga, She’riy sarlavhalarga
Boy ekansan, Farg‘ona. Ushbu she’riy parchadagi egani toping. ***/// **ega ifodalanmagan**

2268. Yaxshi so‘z birla topursan eng yaxshi do‘stlarni ham. Berilgan gapning kesimi haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri. ***/// **sodda fe’l-kesim**

2269. Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg‘on yomon. Ushbu gapda yasama sifat qaysi gap bo‘lagiga bog‘langan? ***/// **egaga**

2270. Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan. Berilgan gapdagi fonetik yozuvda yozilgan so‘z qaysi bo‘lakka tobelangan? ***/// **kesimga**

2271. Yurak shod, go‘yo ikki qush ko‘kka parvoz qilish oldida qanot yozgandek. Ushbu gapda son qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan? ***/// **ega** 2272. 6060Nadir millat qudratining tamadduni? Amir Temur haykalidan so'rang buni, Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada fe’l kesimli gaplar sonini aniqlang. ***/// **3 ta**

2273. “Dorini yotishimda ichib olarman” gapidagi harakat nomi qaysi bo‘lak vazifasida qo‘llangan? ***/// **hol**

1. U xatni darrov yozdi. 2. Nega Oyqiz qichqirib yig'laydi. 3.Ular qushdan ham yengil uchardilar. Gaplardagi hollar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **1–ravish, 2– ravishdosh, 3–sifat**

2274. Adirdagi olmalar g‘arq pishibdi. Berilgan gapda ostiga chizilgan so‘z qanday bo‘lak bo‘lib kelgan? ***/// **aniqlovchi**

2275. Afsuski, endi men ketaman. Berilgan gap qaysi so'z turkumlaridan tashkil topgan? ***///

**modal so'z, ravish, olmosh, fe’l**

2276. Berilgan gapdagi yasama so'z qanday sintaktik vazifani bajargan? Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga urilib, shovullab oqyapti. ***/// **hol**

2277. Berilgan gaplardagi o‘z yog'iga qovurildi birikmasi tarkibidagi so‘zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelgan? 1. Semiz qo‘y go‘shti o‘z yog‘iga qovurildi. 2.Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida o‘z yog‘iga qovurildi. ***/// **1-gapda: aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim; 2gapda: kesim**

2278. Berilgan gaplarning qaysi birida mavhum ot aniqlovchi bo'lib kelgan? ***/// **Hozir ayni damda shu zulm va adolat tikanlari ilk nishonasini berdi.**

2279. Berilgan gaplarning qaysi birida to'ldiruvchi ravish so‘z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **Ko'pdan ko'p aql chiqar.**

2280. Berilgan qaysi gapda sifatlovchi aniqlovchi qaratqich aniqlovchiga bog‘lanib kelgan?

***/// **Yaxshi do‘stning qo‘li hainisha ochiq**

2281. Beva-bechora, mayib-majruh, xor-u zor insonlarga ko‘ngildan chiqarib berilgan moddiy yordam: pul-non, mayiz-yong‘oq, kiyim-bosh va hokazolar xayr-sadaqadir. Juft so'zlarning gapda qanday bo‘lak bo‘lib kelganligini aniqlang. 1) ega; 2) kesim; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol. ***/// **1, 2, 4**

2282. Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. Gap bo‘laklarini aniqlang. ***/// **ega, to'ldiruvchi, kesim, ega, to'ldiruvchi, kesim**

2283. Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqeyi, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim. Ushbu gapda qaysi bo‘laklar uyushgan? ***/// **vositali to'ldiruvchi, o‘rin holi**

2284. Borlig‘im-la farzandingman, sodiq, mehribon, Ozarbayjon, Ozarbayjon! Ushbu gapda qaysi bo‘lak ajratilgan? ***/// **sifatlovchi aniqlovchi**

2285. Boshqaruv yo'li bilan bog'langan so'z birikmasi qaysi qatorda berilgan? ***/// **qo’l bilan termoq**

2286. Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan. Ushbu gapda nechta aniqlovchili so‘z birikmasi mavjud? ***/// **4 ta**

2287. Bugun kun bo‘ladi, ravshan va bedog‘. Ushbu gapda qaysi bo‘lak ajratilgan? ***/// **aniqlovchi**

2288. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir. Ushbu gapda turlangan so'zlar qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan? ***/// **aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi**

2289. Butoqlarda minglab qushlar chax-chax sayraydi. Ushbu gapda tagiga chizilgan so‘z qaysi turkumga mansub va qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan? ***/// **taqlid so'z, hol**

2290. Chiqish kelishigi sabab holini yuzaga keltirgan gap berilgan qatorni toping. ***///

**Tipratikanni tutsangiz, tikanini hurpaytirib olganidan unga qo‘l tekkizib bo’lmaydi.**

2291. Fe’l-kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildirgan bo‘lak qaysi gapda qo‘llangan? ***/// **Do‘stlar ko‘maklashganda, har qanday omadsizlik ham asta chekinadi.**

2292. gapda asosi yasama sifat bo‘lgan ot aniqlovchi vazifasida kelgan? ***/// **Andishasizlikning hosili – xijolat.**

2293. Gapda to‘ldiruvchi vazifasida kelgan so'z qanday shakllarda bo'lishi mumkin? ***///

**tushum, chiqish, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishigini yoki ko’makchini olgan holda** 2294. Gaplarning qaysi birida yasama sifat to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan? **.** ***/// **Dorilomon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z, O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.**

2295. Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati, - deb yozadi A.Avloniy, - yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir. Ushbu gapdagi olmoshning sintaktik vazifasini aniqlang. ***/// **aniqlovchi**

2296. Holli birikmalar qaysi qatorda berilgan? ***/// **tez termoq, yoppasiga jonlanmoq**

2297. Holning ma’no jihatdan ikki turi ishtirok etmagan gapni aniqlang ***/// **U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab gap boshladi.**

2298. Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohat va e’tibor manziliga yetkazadi. Bosh gap tarkibidagi sifatlovchi-aniqlovchi qaysi bo‘lakka tobelangan? ***/// **ot-kesimga** 2299. Illat izlaganga illatdir dunyo, G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo,

Kim neni izlasa topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (E.Vohidov) Ushbu she’riy parchada otlashgan so‘zlar qaysi bo'lak vazifasida kelgan? ***/// **to'ldiruvchi**

2300. Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo‘stonida. Ushbu gapda o'rin holi me’yoriy tartibga ko'ra qaysi bo'lakdan oldin, qaysi bo'lakdan keyin joylashishi lozim? ***/// **egadan keyin, to'ldiruvchidan oldin**

2301. Izohlovchi berilgan javobni aniqlang. ***/// **Suvori ekansan - zahmating ezgu, Zamona Barchini - mehnatkash, dildor.**

2302. Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma’nolarini bildirganda izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qanday tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **tire**

2303. Jahongashta odam birikmasi haqidagi to‘g‘ri fikrnni toping. ***/// **aniqlovchili so'z birikmasi**

2304. Juft olmosh vositasiz to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan gapni aniqlang. ***/// **Hech qanaqa sharti yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q.**

2305. Kelishiklar haqida berilgan to‘g‘ri hukmlarni toping. 1. Qaratqich kelishigi qaralmishni qaratqichga tobelantirib bog‘laydi. 2. Qaralmishda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatning qaratqichga qarashli ekanligini bildiradi. 3. Qaratqich kelishigi qaralmishga nisbatan tobe munosabatda bo‘ladi. 4. Qaratqich egalik qo'shimchasi, qaralmish qaratqich kelishigi qo'shimchasi shaklida keladi**.** ***/// **2, 3**

2306. Kimga Olloh davlat berdi, Kimga obro'-savlat berdi.

2307. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech do‘stlashmaydi. Ushbu gapning bosh gap qismidagi yasama so‘zlar qanday sintaktik vazifani bajargan? ***/// **aniqlovchi, kesim**

2308. Kuchli shamol maktab bog'idagi daraxtlarni mevalarini to’kib yubordi. Qaysi bo'lak bilan bog‘liq uslubiy xatoga yo‘l qo'yilgan? ***/// **qaratqich aniqlovchi**

2309. Mabodo shunaqa xayol boshiga kelsa qo'rqib ketardi. Ushbu gapda olmosh qanday bo'lak vazifasida kelgan? ***/// **aniqlovchi**

2310. Men hech qachon hech kimga arz qilgan emasman gapidagi bo‘lishsizlik olmoshlari qanday vazifa bajaryapti? ***/// **hol, to‘ldiruvchi**
2311. Menga sizdek bir baxt berdi,
Olloh bergan farzandlarim. Ushbu she’riy parchadagi to'ldiruvchilar sonini aniqlang. ***/// **6 ta**

2312. Nadir millat qudratining tamadduni? Amir Temur haykalidan so'rang buni, Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni ahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchada holning necha turi ishtirok etgan? ***/// **2**

2313. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyiigini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki, vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. Ushbu gapda shaxs otlari qaysi bo‘lak(lar) vazifasida kelgan? ***/// **to'ldiruvchi**

2314. O’rin-payt kelishigi bilan ifodalangan so‘z gapda qanday to‘ldiruvchi bo‘lishi mumkin? ***/// **vositali to‘ldiruvchi**

2315. Onamdan eshitgan gaplarni aytdim. Gapdagi to‘ldiruvchilarning soni va turini toping. ***/// **1 ta mustaqil, 1 ta nomustaqil**

2316. O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin. 2. Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi. 3. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam. 4. Yakshanba kuni tog'ga dam olishga bordik. Berilgan gaplarning qaysilarida to'ldiruvchili birikma qatnashgan? ***/// **1, 2, 3** 2317. Payt holi qo'llangan gapni toping. ***/// **Ahror qovun pishig'ida o'n ettiga kiradi.**

2318. Qaratqich kelishigiga xos xususiyatlar to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang. 1) qaratqich kelishigidagi so'z qaratqichni qaralmishga tobelantirib bog'laydi; 2) qaratqich kelishigidagi so'z qarashlilik va egalik

ma’nolarini anglatadi; 3) qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa so'z qo'llansa, qaratqich kelishigi tiklanadi; 4) qaratqich kelishigidagi so'z harakat nomi bilan ifodalanganda kelishik tushib qolmaydi; 5) qaratqich kelishigidagi so'z atoqli ot, olmosh va sifatdosh bilan ifodalanganda kelishik tushib qolmaydi. ***/// **1, 3, 4, 5**

2319. Qaysi gap bo'lagi barcha bo’laklarga bog'lanib, ularning ma’nosini izohlab keladi? ***/// **aniqlovchi**

2320. Qaysi gap ega+aniqlovchi+kesim qolipida bo'lib, tarkibida faqat ot turkumiga mansub so'zlar qatnashgan? ***/// **Kitoblar aqlning farzandlaridir.**

2321. Qaysi gapda belgisiz qaratqich kelishigi xato qo'llangan? ***/// **Ahyon-ahyonda polizdan qovunlar tars-turs yorilgani eshitilyapti.**

2322. Qaysi gapda belgisiz qo'llangan aniqlovchi fonetik yozuv asosida yozilgan to'ldiruvchiga birikib kelgan? ***/// **Biz o‘z tuprog‘imizni ko‘z qorachig'idek asraymiz.**

2323. Qaysi gapda daraja-miqdor holi ishtirok etgan? ***/// **Paxta to’g‘risida ko’p yozdi.**

2324. Qaysi gapda egaga birikkan aniqlovchi yasama so‘z bilan ifodalangan? ***/// **Daraxtlarning so‘nggi yaproqlari qishning ilk izg‘irinlaridayoq to‘kildi.**

2325. Qaysi gapda harakat bajaruvchisi to‘ldiruvchi vazifasida kelgan? ***/// **Xat qizil qalam bilan yozilgan edi.**

2326. Qaysi gapda harakat nomi hol vazifasini bajargan? ***/// **Jo'yakda cho'zilib, soya-**
**salqinda dam olish uchun ariq bo’yiga ketdi**

2327. Qaysi gapda hol maqsad ravishdoshi bilan ifodalangan? ***/// **Siz bilan suhbatlashgani keldik.**

2328. Qaysi gapda izohlovchi ishtirok etgan? ***/// **Professor Salimxon Obidiy paxta**
**haqida gapirdi.**

2329. Qaysi gapda izohlovchi qo'llangan? ***/// **Rassom Alisher Mahbubaning sevimli farzandi bo'ladi.**

2330. Qaysi gapda kishilik olmoshi to'ldiruvchi vazifasida kelgan? ***/// **Parizod bo'lgan voqeani unga aytib berdi.**

2331. Qaysi gapda o‘zlik nisbatdagi sifatdosh aniqlovchi vazifasini bajargan? ***/// **O'tloqdagi chirsillayotgan olov, chaylaga to‘shalgan o‘t-o‘lanlarning shirin, yoqimli, toza isi bilan aralash-quralash bo'lib ketgandekman.**

2332. Qaysi gapda o’rin holi uyushib kelgan? ***/// **Alisher Hirotda, Mashhadda ko'p yil tahsil ko'rdi.**

2333. Qaysi gapda o'rin-payt kelishigidagi so'z to'ldiruvchi vazifasida kelgan? ***/// **Mineral suvlar chiroyli idishlarda sotuvga chiqarildi.**

2334. Qaysi gapda ot bilan ifodalangan payt holi berilgan? ***/// **Yoshlikda o'qishning izidan qolmadi.**

2335. Qaysi gapda ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan? ***/// **Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.**

2336. Qaysi gapda ot bilan ifodalangan sifatlovchi-aniqlovchi qollangan? ***/// **Kumush qish havosini hech unutolmadim.**

2337. Qaysi gapda qaratqich tobelangan gap bcrlagi yasama so'z bilan ifodalangan? ***/// **Yaxshi kitob muaallifning odazmod uchun atalgan tortig'idir.**

2338. Qaysi gapda ravish bilan ifodalangan hol qo'llangan? ***/// **U o'ychan ko'zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi.**

2339. Qaysi gapda sifat hol vazifasida kelgan? ***/// **Chakalakzor qoronglilikda vahimali va sirli ko’rinardi.**

2340. Qaysi gapda takror sifat vositasiz to‘ldiruvchiga bog‘langan? ***/// **Yangi-yangi ariqlar kavlab, qo‘riqlar ochamiz.**

2341. Qaysi gapda to‘ldiruvchining ikki turi ham uyushib kelgan? ***/// **Siz-u bizga bu taxt va toleni istiqlol berdi.**

2342. Qaysi gapda to'ldiruvchi qo'llangan? ***/// **Bog'imizga olma, o'rik va nok kabi mevali daraxtlar o'tqazdik.**

2343. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan otlashgan sifatdosh bor? ***/// **Bo'linganni bo'ri yer.**

2344. Qaysi gapda vositali to’ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifodalangan? ***/// **Olib kelingan mollar sovuqqa chidamadi.**

2345. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchi belgisiz qo'llangan? ***/// **Tadbirkorlar ariq bo'yiga charxpalak o'rnatdilar.**

2346. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan? ***/// **Qiziq bir hikoya o'qidim.**

2347. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan? ***/// **Bizni sog'inganlarni sog'ining.**

2348. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchini shakllantiruvchi vosita noo'rin qo‘llangan? ***/// **Men shu kunga qadar tinglagan, tinglayotgan saboqlarimni yurtni o'ziga asar sifatida taqdim etyapman.**

2349. Qaysi gapdagi daraja-miqdof holining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega? ***/// **Ba’zi vaqtlarda sen yig'gan bolingdan ham to'ygunimcha yeyman.**

2350. Qaysi gapdagi kelishik qo‘shimchali to‘ldiruvchini ko‘makchi to‘ldiruvchiga almashtirib bo‘lmaydi? ***/// **Bekorchidan xudo bezor.**

2351. Qaysi gapdagi payt holi munosabat qo‘shimchali fe’l bilan ifodalangan? ***/// **Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi.**

2352. Qaysi javobda chiqish kelishigidagi so'z sabab holi vazifasida qo'llangan? ***/// **Ona shodligidan yig'lardi.**

2353. Qaysi javobda nomustaqil to'ldiruvchi aniqlovchiga bog'langan? ***/// **O'zidan keyin kelayotgan avlod zakovati va shijoatiga ishonmagan jamiyatning ishi mo'rt bo'ladi.**

2354. Qaysi javobda otlashgan so'z bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi qo'llangan? ***/// **Yaxshining nasihatiga kirmagan yomonning yo'liga yurar**.
2355. Qaysi javobdagi gapda qaratqich aniqlovchi qo'llangan? ***/// **Ko'chalardagi yangroq qo'shiq va do'mbira sadolari bizni erta tongda uyg'otib yubordi.**
2356. Qaysi javobdagi gapda to'ldiruvchi shaxs oti bilan ifodalangan? ***/// **"Qo'shiq aytolsa, demak, cho'ponlikka yaraydi", - debdi otam cho'lig'iga.**
2357. Qaysi maqol kesim, ega, to‘ldiruvchidan tashkil topgan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do'stini suyar.**
2358. Qaysi maqolda aniqlanmish otlashgan yasama so’z bilan ifodalanib harakatning bajaruvchisi vazifasini bajargan? ***/// **Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do‘stini suyar.**
2359. Qaysi maqolda aniqlovchi yasama so‘z bilan ifodalangan? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so‘z jonni ilitar.**
2360. Qaysi maqolda otlashgan sifatdosh to’ldiruvchi vazifasida kelgan? ***/// **Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?**
2361. Qaysi qapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan ravish qatnashgan? ***/// **Oz so'z -**
**soz so‘z.**
2362. Qaysi qatorda harakat nomi bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan gap berilgan? ***/// **Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.**
2363. Qaysi qatorda murakkab hol so'z birikmasi bilan ifodalangan? ***/// **Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi.**
2364. Qaysi qatorda olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi ishtirok etgan? ***/// **Bizning butun qadr-qimmatimiz tafakkurda jamlangan.**
2365. Qaysi qatorda o'rin hollari uyushib kelgan gap berilgan? ***/// **Bolalar yaslilari va bog'chalarida farzandlarimiz tarbiyalanmoqda, kamol topmoqda.**
2366. Qaysi qatorda otlashgan so‘z bilan ifodalangan to'ldiruvchi qatnashgan? ***/// **Bolaning toza qalbi yaxshi-yomonni darrov biladi.**
2367. Qaysi qatorda vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gap berilgan? ***/// **Faridaning onasi billur savatchada shokolad, kumush taqsimchada asal, mayiz keltirib qo'ydi.**
2368. Qaysi qatorda yasama sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan? ***/// **Samig' aka ellikdan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso'z odam.**
2369. Qaysi qatordagi gapda olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan? ***/// **Bu o'lkada har narsa bordir.**
2370. Qaysi qatordagi gapda taqlid so‘z vaziyat holi vazifasini bajarmagan? ***/// **Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlab qolishdi.**

2371. Qismlari juft so‘z bilan ifodalangan uyushiq to‘ldiruvchili gapni toping. ***/// **Mol-u davlatingiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go‘zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning.**

2372. Quyida berilgan gapda fe’lning vazifa shakllari qanday gap bo'lagi vazifasini bajargan? Or – bu o'ziga nomunosib yoki ep ko’rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish va nomus qilish tuyg‘usidir. ***/// **aniqlovchi**

2373. Quyida berilgan gapda nechta aniqlovchi qatnashgan? Mustaqillik chinakam fidoyilar tufayli boqiydir. Chunki bu ozod kunlarni orzu qilgan, buning uchun kurashgan, jonini fido qilgan insonlar nomini tarix hech qachon unutmaydi. ***/// **7 ta**

2374. Quyida berilgan gapda tagiga chizilgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? Shunda it g'ingshib, sapchib turdi-da, devordan <u>lippa</u> oshib o'tdi. ***/// **ravish holi**

2375. Quyida berilgan gaplarni sabab va maqsad holi qatnashgan gaplarga ajrating. 1) Eshik oldi gul hovuz, Gul tergani kelganmiz. 2) Qoratoy do‘stining dov-daragini surishtirish uchun yelib yugurdi. 3) Bir chimdim uxlab olish uchun ko'zini yumdi. 4) Qul Tarlon shodligidan,

To'xtolmadi yig'idan. ***/// **1, 2, 3 - maqsad holi; 4 - sabab holi**

2376. Quyidagi gapda nechta murakkab hol mavjud? Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi, dona-dona gapirdi, vazifaning muhimligini takror-takror ta’kidladi, jon kuydirib tushuntirdi. ***/// **4 ta**

2377. Quyidagi gapda nechta o'rinda aniqlovchi qo'llangan? Uning nurlarida qishning poyonsiz oq ko'rpasi mayda oltin uchqunlatib, hammayoqni chuqur jimjitlik bilan o'rab yotardi. ***/// **5 ta**

2378. Quyidagi gapda teng munosabatdagi bo'laklar qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?

O'quvchilar Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilib o‘tirishardi. ***/// **aniqlovchi**

2379. Quyidagi gapdagi juft so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang. Mehmonlar osh-suv taraddudiga yo'l qo'ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar. ***/// **aniqlovchi,**

**to’ldiruvchi**

2380. Quyidagi gapdagi otlashgan sifatning sintaktik vazifasini aniqlang. O'zingdan kattani hurmat qil. ***/// **to'ldiruvchi**

2381. Quyidagi qaysi gapda sifatlovchi sifatdosh bilan ifodalangan? ***/// **Usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillardi.**

2382. Quyidagi she’riy misra gap bo'laklariga to‘g‘ri ajratilgan qatorni belgilang. Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin. ***/// **aniqlovchi, aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim, hol**

2383. Quyidagilarning qaysi birida mansub so‘zlarni gap tarkibida hol vazifasida kelishida ko‘makchilar asosiy o‘rin egallaydi? 1) ot; 2) harakat nomi; 3) sifatdosh; ***/// **1,2,3**

2384. Ravish holi uyushgan gapni belgilang. ***/// **Hamma issiqdan bo‘shashib jim, yalqovgina ishlaydi.**

2385. Ravishdosh bilan ifodalangan hol qatnashgan gapni aniqlang**.** ***/// **Nodir ko'zani avaylab oldi.**

2386. Sabab va maqsad holi ishtirok etgan gapni toping**.** ***/// **Bog'bon charchaganidan bir chimdim uxlash uchun uyga kirdi.**

2387. Samarqandda kecha ming kishilar jamoa fuqaroligini orzu etib, bizni hujra eshigini qoqdilar. Gapdagi qaysi bo'lakda xato yozilish mavjud? ***/// **qaratqich-aniqlovchi**

2388. Sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdosh qaysi gapda mavjud? ***/// **Lobar –**

**hamisha izlanuvchi, o‘z ishiga ko‘ngil qo‘ygan qiz.**

2389. Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar qaysi gap bo’laklari vazifasida kelgan? 1) kesim; 2) ega; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol ***/// **2, 2,3** 2390. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,

Ochgil, – deydi. – Bu – men, qadrdon,

Bilmoq bo‘lsang – Bardoshdir otim. (A.Oripov) Ushbu she’riy parchadagi nechta gapda hol ishtirok etgan? ***/// **2**

2391. Tarkibi o‘zaro qarama-qarshi ma’noli juft so‘z bo‘lgan qaralmish ishtirok etgan gapni toping. ***/// **Har nechuk, shu narsaga iqrormanki, muhabbat savdosining kattakichigi bo‘lmas.**

2392. To'ldiruvchili birikmalar qaysi qatorda berilgan? ***/// **otdan baland, kitobni o‘qib chiqmoq**

2393. Tong ochar ko'zlarin erinib. Berilgan gapda qaysi bo'laklar odatdagi tartibga ko'ra joylashadigan o'rnidan keyinga o'tib qolgan? ***/// **to'ldiruvchi, hol**

2394. Toshlar orasidan mo‘ralab asta,

Ko‘kargan maysani ko‘rdim yuqori. (Sh.Qosimov) Ushbu she’riy parchada yasama so‘z qavsi bo‘lak vazifasida kelgan? ***/// **aniqlovchi**

2395. Umidaning "sen" degani Hamzaga juda yoqdi - bu juda yaqinlik belgisi. Tilning barcha o‘rinlarida hosil bo'luvchi undoshlargina ishtirok etgan so‘z qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelgan? ***/// **aniqlovchi**

2396. Uning yoqimli qo‘shiqlarini eshitsam, o‘y-xayollarim uzoq-uzoqlarga uchib ketadi.

Berilgan gapda hol qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan? ***/// **ravish**

2397. Ushbu ko’chirma gap sodda gapga aylantirilganida so’roq olmoshi qanday sintaktik vazifa bajaradi? Luqmoni Hakimdan so’radilar: "Odamlarning dahosi kim?" Javob berdilar: "Hayot tashvishidan diltang bo’lmagani". ***/// **to’ldiruvchi**

2398. Vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan gapni toping. ***/// **O'zingga o'zingni maqtagandan, qo'rq.**

2399. Yakshanba kuni birin-ketin og'il-qiz, nevara-kelinlar yig'ila boshlashdi. Ushbu gapdagi juft so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang. ***/// **hol, ega**

2400. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. Belgisiz qo'llangan qaratqich aniqlovchi qaysi gap bo'lagiga bog'langan? ***/// **kesimga**

2401. Yo'qolgan pichoqning sopi – oltin. Ushbu gapdagi sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchi tarkibida nechta portlovchi tovush bor? ***/// **3 ta**

2402. 7070Yaxshining yaxshiligi har yerda tegar. Gapdagi otlashgan sifatning sintaktik vazifasini aniqlang. ***/// **aniqlovchi**

2403. Ayiruv bog'lovchilari uyushiq aniqlovchilarni bog'lagan javobni aniqlang. ***/// **Inson ruhiyatida goh mahzun, goh sho'x ohanglarga ehtiyoj seziladi goyo.**

2404. Ayiruv bog'lovchilari uyushiq egalarni bog'lagan javobni aniqlang. ***/// **Qurilishga dam g'isht, dam sement yetishmaydi.**

2405. Aziz ustozlar, do'stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharafli ishda barchamiz mas'ulmiz. Ushbu parchada ... ***/// **undalma uyushgan**

2406. Berilgan gapda holning qaysi tur(lar)i ishtirok etgan? Hammani kuldirish uchun ataylab shunday kiyindi. ***/// **maqsad holi,**

2407. Berilganlardan uyushiq bo'lak va umumlashtiruvchi so'z haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang. 1) uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarni, belgi va xususiyatlarni alohida-alohida ifodalaydi; 2) umumlashtiruvchi so;z uyushgan bo'laklarning hammasini jamlagan holda ifodalaydi; 3) uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi; 4) ma'nosi umumiyroq bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun uning yonida keltirilgan konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'z umumlashtinivchi so'zdir ***/// **1, 2, 3**

2408. Bir inson taqdirida o'n yil mobaynida ne-ne o'zgarishlar bo'lmaydi. Berilgan gapdagi qaratqich qaysi bo'lakka tobelangan? ***/// **to'ldiruvchiga**

2409. Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi, haqiqatan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Ushbu gapdagi uyushgan bo'laklar gapning qaysi bo'lak(lar)iga ergashib kelgan? ***/// **kesim, aniqlovchi**

2410. Firdavs, Jaloliddin va Ahmad biz bilan o'qishadi. Ushbu gapda uyushiq bo'laklar tarkibida kelgan va bog'lovchisi haqida bildirilgan qaysi hukm to'g'ri**?** ***/// **sanashning tugallanganligini bildirgan**

2411. Gapda qaysi bo'lak uyushganini toping. Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi**.** ***/// **uyushiq ega**

2412. Ikkidan ortiq uyushgan bo‘laklar tarkibida va, hamda, bilan bog'lovchilari bir marta qo'llansa, qanday ma’no anglashiladi? ***/// **Sanashning tugallanganligi anglashiladi.**

2413. Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir. Ushbu gapda uyushib kelgan so‘zlar qaysi gap bo‘lagi hisoblanadi? ***/// **kesim**

2414. Inkor kesimli uyushiq bo‘laklar tarkibida qo‘llangan na... yuklamasi qanday vazifa bajaradi? ***/// **uyushgan bo'laklarni bog'lash va ularning ma’nosini ta’kidlash**

2415. Kesimi uyushgan gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo'lamiz.**

2416. Kesimi uyushgan gapni belgilang. ***/// **Biz voqea sodir bolgan joyga borishirniz, hammasini o‘z ko‘zimiz bilan ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak.**

2417. Nomustaqil to’ldiruvchi uyushgan barcha gaplarni ko’rsating. 1. Insonlar ongida yer, suv, olovni e’zozlash ustuvor bo’lgan. 2. Respublikamiz o’quvchilari darsliklar va o’quv qo’llanmalari bilan ko’ngildagidek ta’minlangan. 3. "Avesto"da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo’lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o’rganishlari shartligi aytiladi. 4. Milliy qadriyatlarimizning mazmuni va mohiyatini chuqur, batafsil o’rganishga va o’rgatishga harakat qilaylik. ***/// **1, 3**

2418. Qaysi gapda bog'lovchi vazifasidagi ko'makchi uyushiq bo'laklarni bog'lagan? ***///

**Endi buva bilan nevara teng odamdav gaplashishadi. (O’. Umarbekov)**

2419. Qaysi gapda ikki xil gap bo‘lagi uyushgan? ***/// **Bilimdonlikning sir-u asrori g'ayrat hamda matonat bilan o’qish va o’rganishdadir.**

2420. Qaysi gapda murakkab hollar uyushib kelgan? ***/// **Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang yoqasi ochiq ko'chaga otildi.**

2421. Qaysi gapda sabab holi uyushgan**?** ***/// **Shanbada toy keladigan, el-yurtgu osh beriladigan bo'lgani uchun erta tongdanoq hovli gavjum edi.**

2422. Qaysi gapda teng bog‘lovchi uyushiq bo'laklarning birini tasdiqlab, ikkinchisini inkor etib bog’lagan? ***/// **Yo olma, yo anor olaman.**

2423. Qaysi gapda teng bog'langan so'zlar faqat sanash ohangi yordamida birikkan? ***/// **Bugun ma’naviyat, mafkura davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.**

2424. Qaysi gapda uyushgan bo‘lakning biri shaxs oti, biri shaxs nomi bilan ifodalangan**?.** ***/// **Qizlar goh Saiddan, goh ukasidan gapirib o'tirishdi.**

2425. Qaysi gapda uyushiq bo‘laklarni bog‘lagan yuklama-bog’lovchi mavjud? ***/// **Farhod bilan Shirin, Layli ila Majnun, Vomiq va Uzro, Bahrom hamda Dilorom, Gul-u Navro‘z mumtoz adabiyotimiz qahramonlaridir.**

2426. Qaysi gapda uyushiq bo‘laklarning navbatma-navbatligi ifodalangan. ***/// **Goh kuladi, goh yigiaydi.**

2427. Qaysi gapda uyushiq bo’laklar tarkibida fonetik o’zgarish bo’lgan so’zga bog’lanib kelgan? ***/// **So’z belgi va ma’noning birligidir.**

2428. Qaysi gaplarda vositali va vositasiz nomustaqil to'ldiruvchilar uyushgan? 1. Respublikamiz o'quvchi va o'qituvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta’minlashni ko'ngildagidek yo'lga qo'yaylik. 2. “Avesto”da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytiladi. 3. Men kitoblarni va daftarlarni ukam va singlim uchun oldim. 4. Siz va bizga bunday baxt va toleni bergan istiqloldan o'rgilay. ***/// **1, 2, 4** 2429. Qaysi javobda ayiruv bog'lovchisi bilan bog'langan uyushiq to'ldiruvchili gap berilgan?

***/// **Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib, hovli aylanishdi.**

2430. Qaysi javobdagi gapda ham bog'lovchisi uyushiq kesimlarni bog'lagan? ***/// **Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar.**

2431. Qaysi qatorda berilgan gapda uyushiq hol ot va fe’l so‘z turkumlari bilan ifodalangan?

***/// **Podsho goh kulib, goh jiddiy o'y bilan quloq soldi.**

2432. Qaysi qatorda bog’lovchi uyushiq bo’laklarni bog’lab kelmagan? ***/// **Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oddiy martabasini ham o'z ichiga oladi.**

2433. Qaysi qatorda uyushgan sifatlovchi-aniqlovchi gap qo‘llangan? ***/// **Olimlarning mehnati natijasida tezpishar, serhosil yangi paxta navlari yetishtirildi.**

2434. Qaysi qatordagi gapda uyushiq bo'laklar mavjud? ***/// **Ma’ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi**

2435. Qaysi sodda gapda uyushiq aniqlovchi mavjud? ***/// **Menga to‘yib-to‘yib kuladigan, yig‘lagandn esa to‘yib-to‘yib yig‘laydigan qalb ato etdingiz.**

2436. Quyida berilgan gapda qaysi gap bo‘lak(lar)i uyushgan? Olgan bilim va tajribangiz, odobaxloq, kasb-hunar bobidagi kamolingiz faqat yaxshilikka, bunyodkorlikka buyursin, avvalo. ***/// **ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi**

2437. Quyida berilgan gaplarning qaysi biri uyushiq bo'lakli gap emas? ***/// **U kunlarni tiklar xayolim, Yodga kelar barcha, barchasi.**

2438. Quyida berilgan grammatik vositalardan qaysilari uyushib kelgan fe’l kesimlarni bog'lash uchun ishlatilmaydi? 1) va; 2) hamda; 3) na ... na; 4) bilan ***/// **4**

2439. Quyida berilgan grammatik vositalardan qaysilari uyushib kelgan egalarni bog'lash uchun ishlatilishi mumkin? 1) va; 2) hamda; 3) na ... na; 4) bilan ***/// **1, 2, 3, 4**

2440. Quyida berilgan grammatik vositalardan qaysilari uyushib kelgan to'ldiruvchilarni bog'lash uchun ishlatilishi mumkin? 1) va; 2) hamda; 3) na ... na; 4) bilan. ***/// **1, 2, 3, 4**

2441. Quyidagi gaplarning qaysi birida uch marta uyushish hodisasi mavjud emas? ***/// **Kitoblarni, daftarlarni, qalam-ruchkalarni ukam va singlim uchun sotib oldim.**

2442. Sodda yasama so'zlar bilan ifodalangan uyushiq bo'laklar berilgan gapni toping. ***/// **Adolatli va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'rmagan bir ishni o'zgalarga ravo ko'rmaydilar.**

2443. ulardan yosh bo'lgani, paranji yopinmagani sababli, suhbat mavzusining mag'ziga uncha yetib bormadi. Gapda qaysi bo'lak uyushib kelgan? ***/// **hol**

2444. Uning manfeaaatlarini, fikr-uy doiralarini, g'oya va maqsadlarini yaxshi bilamiz. Ushbu gapda qaysi bo'lak uyushib kelgan? ***/// **to'ldiruvchi**

2445. Ushbu gapda qo'llangan uyushiq va umumlashtiruvchi bo'laklar gapning qaysi, bo'lagi hisoblanadi? Issiq bilan sovuq, qor bilan yomg'ir, suv bilan havo, o'simliklar bilan hayvonlar – bularning bari tabiatning kuchlari hisoblanadi. ***/// **ega**

2446. Uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasidagi munosabat to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **Uyushgan bo'laklar xususiylikni, jinsni; umumlashtiruvchi so'z umumiylikni, turni bildiradi**

2447. Uyushib kelgan yasama sifatlar faqat sanash ohangi bilan bog'langan gapni toping. ***/// **Hindubek turkiy, forsiy tillarni mukammal o'rgangan ilmli, ma'rifatli, dilkash kishi bo'lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi.**

2448. Uyushiq bo'laklar haqida berilgan hukmlarning qaysi biri to'g'ri? 1) uyushiq bo'laklar bir umumiy bo'lakka tobelanadi; 2) uyushiq bo'laklar bir xil sintaktik vazifa bajaradi; 3) uyushiq bo'laklar ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'ladi; 4) uyushiq bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanadi; 5) gap bo'laklari uyushish xususiyatiga ega; 6) gap bo'lagining bo'lagi uyushishi xususiyatiga ega ***/// **1,2,3,4,5,6**

2449. Uyushiq bo'laklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganda va bog'lovchisining o'rniga bilanni almashtirib bo'lmaydi? ***/// **fe'l**

2450. Uyushiq bo'laklar faqat yasama so'zlar bilan ifodalangan gapni belgilang. ***/// **Mana shu gullayotgan, yasharayotgan yurt uchun jonimiz nisor.**

2451. Uyushiq bo'laklar haqidagi barcha to'g'ri fikrlarni aniqlang. 1) har bir uyushiq bo'lakning o'z ayrim urg'usi bo'ladi; 2) agar uyushiq bo'laklarning har birida grammatik shakllar takrorlansa, bunday vaqtda uyushiq bo'laklarning har biri sanab ko'rsatiladi; 3) agar grammatik vositaiar uyushiq bo'laklarning oxirgisi tarkibida kelib, hammasi uchun tegishli bo'lsa, uyushiq bo'laklarning har qaysisi ta'kidlanadi ***/// **1, 2**

2452. Uyushiq bo’lakli gaplarda umumlashtiruvchi so’z oid bo’ladigan barcha so’z turkum(lar)ini ko’rsating. 1) ot; 2) olmosh; 3) fe’l ***/// **1, 2, 3**

2453. Uyushiq bo’lakli gaplarda umumlashtiruvchi so’z qanday ifodalanishi mumkin? To’liq va aniq javobni belgilang. 1) umumlashtiruvchi ma’noli so’z bilan; 2) so’z birikmasi bilan; 3) kengaygan birikmalar bilan ***/// **1,2,3**

2454. Uyushiq bo’lakli gaplardagi umurnlashtiruvchi so‘zlar haqidagi noto’g‘ri fikrni aniqlang.

***/// **Uyushgan bo'laklar xususiylikni va turni, umumlashtiruvchi so'z esa umumiylikni va jinsni bildiradi.**

2455. Uyushiq bo'laklar tarkibida qanday holatda va bog‘lovchisi o‘rnida bilan yordamchisini qo‘llab bo‘lmaydi? ***/// **uyushiq bo'laklar fe’llar bilan ifodalansa**

2456. Vatanning kun sayin obod bo’layotgani, yangi yo’llar, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda. Ushbu gapda qaysi gap bo’laklari uyushgan? ***/// **ega**

2457. Yaxshi xislati bor: oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo’shni o’g’ilqizlarni ham, xullas, barchani sizlab gapiradi. Ushbu gap haqida berilgan to’g’ri hukmlarni aniqlang. 1) bog’lovchisiz qo‘shma gap; 2) uyushiq bo’laklar qatnashgan; 3) kiritma qatnashgan; 4) umumlashtiruvchi bo’lak qatnashgan; 5) ikki nuqta uyushiq bo’laklardan oldin kelgani uchun qo’yilgan; 6) umumlashtiruvchi bo’lak qatnashgan sodda gap ***/// **1, 2, 3, 4**

2458. Yig‘ilishda hayotiy tajribasi va obro’-e’tibori bilan yurtimizda tanilgan keksalar ishtirok etishdi. Ushbu gapda qaysi bo’lak uyushib kelgan? ***/// **vositnli to'ldiruvchi**

– Safar kim? – yana so‘radi Akramboy. Mening inim — mana bu odam. Ushbu gapda qaysi bo‘lak ajratilgan? ***/// **kesim**

2459. Ajratilgan bo‘lak qo'llangan gapni toping. ***/// **Bu o‘zbek yigiti – tanti, mehribon** 2460. Ajratilgan bo’lak qatnashgan gapni aniqlang. ***/// **Yo’lim boshladi to kezdim tanho dala-tog‘, Kezdim ne yurtlarni - chiroyli tengsiz.**

2461. Ajratilgan bo’laklar qanday tinish belgilari bilan ajratiladi? ***/// **vergul, tire va ba’zan qavs bilan ajratiladi**

2462. Ajratilgan bo’laklar qaysi yo’llar orqali ajratiladi? 1) so’z takrori orqali; 2) gap bo’laklari tartibini o’zgartirish orqali; 3) bir nomni boshqacha nomlash orqali. ***/// **2, 3**

2463. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'lak mavjud bo'lmagan gapni belgilang. ***/// **Ayniqsa, hech narsa o'qimaydigan, johil kimsalar faqat bugunini o'ylaydilar.**

2464. Biz sizning do‘stlaringiz yo‘l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha jim turarmidik. Gapda qaysi so'zlardan so‘ng vergul qo'yilishi lozim? ***/// **biz, do'stlaringiz**

2465.Dadam shu atrofdan — qishloqning chiqaverishidan — do‘kon qidirdi. Gapda tire nima uchun ishlatilgan? ***/// **ajratilgan bo'lak qatnashganligi uchun**

2466.Gapda ajratilgan bo’laklar qanday vazifalarni bajaradi? 1) gapdagi biror bo‘lak ma’nosini jamlash; 2) gapdagi ma’lum bir bo’lak ma’nosini ta’kidlash; 3) gapdagi ma’lum bir bo‘lak ma’nosini bo’rttirish; 4)gapdagi ma’lum bir bo’lakning umumiy ma’nosini izohlash; 5) gapdagi bir bo‘lakning umumiy ma’nosini konkretlashtirish, tushunarsiz ma’nosini tushuntirish ***/// **2, 3, 4, 5**

2467.Kanal bo‘yidagi soya-salqin choyxonada, avtobus bekatida, A’zamjon uchrab qoldi.

Ushbu gapda qaysi gap bo‘lagi ajratilgan? ***/// **hol**

2468.Mavjud ikki vazir – Xo'ja Ato va Abduxoliq – devondagi ishlarni boshqarib ulgurmas edilar. Ushbu gapda ostiga chizilgan birlikni aniqlang. ***/// **ajratilgan bo'lak**

2469.Qo'llar ishlar tez –mo'jizakor. Ushbu gapda qaysi bo'lak ajratilgan? ***/// **hol**

2470.Quyidagi gap haqidagi eng to'g'ri hukmni aniqlang. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatiga – Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga – Sattor bir lahzada yetdi. ***/// **uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap**

2471.Uyushiq bo‘laklar va ajratilgan bo‘laklarning o'xshash jihatlarini aniqlang. 1) bir xil so’roqqa javob bo‘lishi; 2) bir xil grammatik shaklga ega bo‘lishi; 3) turli tushunchalarni ifodalashi; 4) sanash ohangi bilan talaffuz qilinishi ***/// **1, 2**

2472.1Ajratilgan bo‘lak qatnashgan barcha gaplarni aniqlang. 1. U do’stim “Nima bo’ldi ekan?” deb o‘ylamadi ham, tushib qaramadi ham. 2. Manzura dasturxon yozib mezbonni, ukasini, yana o‘n daqiqa kutdi. 3. Men bor joyda senga, chaqimchi bir insonga, nima bor? 4. Suvori ekansan – zahmating ezgu, Zamona Barchini - mehnatkash, dildor. ***/// **2,3,4**

2473.Albatta, mehmonsiz siz bizga. Ushbu gapdagi kesimni aniqlang. ***/// **mehmonsiz**

2474.Aytishlaricha, ona qalbi juda sezgir bo‘lar ekan. Ushbu gap tarkibida “aytishlaricha” so‘zi qanday vazifada kelgan? ***/// **kirish so‘z**

2475.Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligi qaysi gapdagi kirish so'z orqali ifodalangan? ***/// **– Menimcha, sanoat qurilishini to'xtatib, turarjoy solishni davom ettirish kerak.**

2476.Kirish gap berilgan qatorni ko‘rsating. ***/// **Bolaligimda, es-es bilaman, bu yer katta, obod qishloq edi.**

2477.Kirish so'z qatnashgan ajratilgan bo‘lakli gapni toping**.** ***/// **Bu ariqlarning suvlari** allaqachon, aniqrog'i, bundan to‘rt yillarcha oldin qurib qolgandi.

2478.Kirishlar haqidagi barcha to‘g‘ri fikrlar ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) kirishlar orqali so'zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga ishonch,

gumon, achinish kabi munosabatlari ifodalanadi; 2) kirishlar so'z va birikma holatida bo'ladi; 3) kirishlar uslubiy xoslanish xususiyatiga ega emas; 4) kirishlar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi ***/// **1, 2, 4**

2479. Kiritma gaplar nutqning qaysi ko'rinishida ko'proq qo'llanadi? ***/// **dramatik nutqda**

2480. Kishilar o‘rtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so‘z yoki ibora (birlik) lar qanday grammatik hodisani yuzaga keltirishga xizmat qiladi? ***/// **so‘zgaplarni**

2481. Muhayyo, Surayyo, Ra’no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas. Ushbu gapdagi uyushiq bo‘laklar qanday so‘z hisoblanadi? ***/// **undalma**

2482. Navbatchi, xushmuomalagina, uyqusiragan bir kampir, choy damlash uchun objo‘shni qayerdan olishni ham ko’rsatib qo’ydi. Berilgan gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri? ***/// **ajratilgan bo'lakli gap**

2483. Nega yig’layapsan, Yolg‘izim, qo’zim?

Tun uzoq, uxlay qol Ko‘zlaringni yum. She’riy parchada gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo’lakni toping. ***/// **yolg‘izim, qo‘zim**

2484. Qanday holatda undalma gap boshida qo'llanadi? ***/// **so'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa**

2485. Qanday holatda undalma gap o'rtasi va oxirida qo'llanadi? ***/// **so'zlovchi tinglovchiga murojaat qilish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa**

2486. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar hisoblanadi? 1. O'ziga qarashli aniqlovchisi bor undalmalar. 2. O‘ziga qarashli izohlovchisi bor undalmalar. 3. O’ziga qarashli to‘ldiruvchisi bor undalmalar. 4. Undalmadan oldin undov so'z ishlatilsa. ***/// **1, 2**

2487. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar hisoblanadi? ***/// **o'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar**

2488. qatorda undalmali gap berilgan? ***/// **Voy, bolam, bir o'zing qiynalib qolmagin.**

2489. Qaysi gapda gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmagan bo‘lak mavjud? ***/// **Shu bilan, qarabsizki, shinamgina kutubxona paydo bolldi.**

2490. Qaysi gapda gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'lak mavjud**?** ***/// **Kim biladi, taqdirning xohishi, jilvasi yana qanday kutilmagan o‘yinlar ko‘rsatar ekan!**

2491. Qaysi gapda gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so‘z qo'llangan? ***/// **Mayli, sizga yana bir imkoniyat beramiz.**

2492. Qaysi gapda grammatik jihatdan boshqa so'zlarga bog'lanmagan so'z qatnashgan**?** ***/// **Do'stlar, navqiron yoshlikni qadrlang.**

2493. Qaysi gapda ham undalma, ham ega qatnashgan. ***/// **O'zbekiston! Sen bizning faxrimizsan.**

2494. Qaysi gapda II shaxs uyushib kelgan? ***/// **Chashmalar, buloqlar, maftunman sizga.**
2495. Qaysi gapda ishtirok etgan undalma orqali so‘zlovchi tinglovchiga subyektiv munosabati aks etgan**?** ***/// **Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag‘rimni, ohang**
2496. Qaysi gapda vergul yoyiq undalmadan keyin ishlatilgan? ***/// **Qo'ng'ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling.**
2497. Qaysi gapdagi kirish so'z alohida olinganda moslashuvli birikma bo'la oladi? ***/// **Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga.**
2498. Qaysi gapdagi undalmada faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan? ***/// **Ko’ngil olding,**

**begim, yoshurmog’ing ne?**
2499. Qaysi gapdagi undalmada faqat til undoshlari ishtirok etgan? ***/// **Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqg'ani!**
2500. Qaysi javobda kirish gap qo'llangan? ***/// **Biz (bu safar menga Maktuba ham hamroh bo'ldi) qishloqqa ertasiga kechqurun bordik.**
2501. Qaysi qatorda ko‘chma ma’nodagi undalma berilgan? ***/// **Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz.**
2502. Qaysi qatorda menimcha, fikrimcha, aytishlaricha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan? ***/// **fikrning kimga qarashli ekanligini ko'rsatadi**
2503. Qaysi qatorda so‘zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olgan undalma qatnashgan**?** ***/// **Zulfiya, biror narsaga muhtoj bo’lsang, yashirma**
2504. Quyidagi gapda qo'llangan avvalo so'zi qanday sintaktik vazifa bajargan? Avvalo, mana bu kitobni o‘qib chiqing. ***/// **kirish so'z**
2505. Quyidagi gapda qo'llangan undalmani toping. O'-o', boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't! ***/// **boylik, boylik**
2506. To’ldiruvchi ajratilgan gapni belgilang. ***/// **U kitoblar orasidan taxlanib yotgan varaqni, bir paytlar yozgan qaydlarini, topib oldi.**
2507. Undalma haqidagi barcha to‘g‘ri fikrlar ko‘rsatilgan javobni belgilang. 1) undalma egalik qo'shimchalarini olmaydi; 2) undalmada I shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasi bo’lishi mumkin; 3) ba’zan undalma III shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchalarini olishi mumkin; 4) undalma bosh kelishik shaklida bo‘ladi. ***/// **2, 3, 4**
2508. Undalma haqidagi noto’g’ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **Gap tarkibidagi ma’lum bo’lak ma’nosini ta’kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo’laklardan to’xtam va ohang jihatdan ajralib turuvchi so’zlar undalmalardir.**
2509. Undov so'zlar undalmadan so'ng kelganda qanday yoziladi? ***///

**undalma va undov so'z o'rtasida hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi**
2510. 1001Qaysi gapdagi ajratilgan bo’lakni sanash ohangi orqali uyushiq bo’lakli gapga aylantirish mumkin? ***/// **Unda, Halimning ukasida,**

**qiziqarli kitoblar ko'p.** – Dorug'a Mironshoh qayda? Darvozada bormi?

– Yo'q, onhazratim! Dorug'a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi. Ushbu parchadagi yo'q so'zi so'z-gaplarning qaysi turiga kiradi? ***/// **inkor so'z-gap**

– Mingboshi suvni o'zi so'radimi? - Ha, o'zi so'radi. To'liqsiz gapdagi ifodalanmay qolgan bo'lakni toping. ***/// **ega, to'ldiruvchi**

– Sen bola, menga ish o'rgatma, bor, jo'na! Berilgan gapda gap bo'laklarining tartibini ko'rsating**.** ***/// **undalma, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, kesim, kesim, kesim**

2511. Berilgan gap qaysi javobda to'g'ri izohlangan? Majlis ishtirokchilaridan biri – ularning soni uncha ko'p emas edi – ko'zoynakli kishi qo'l ko'tarib so'z so'radi. ***/// **tarkibida ajratilgan bolak va, murakkab kiritma bo'lgan sodda gap**

2512. Berilgan gapda ismlar qanday sintaktik vazifani bajargan? Hunari va odobi bo'lmagan kishidan baxt va omad ketadi. ***/// **aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega**

2513. Berilgan gapdagi sintaktik bo'laklar tartibini to'g'ri ko'rsating. Urush boshlanganda u hali ko'krakdan ajralmagan go'dak edi**.** ***/// **payt holi, ega, payt holi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim**

2514. Berilgan gaplarning qaysi biri istak gapga mansub emas? 1. Qani endi, dunyodagi barcha bolalar baxtli bo'lsa. 2. Hammamiz o'quv yilini muvaffaqqiyatli yakunlaylik. 3. Millatning dardiga darmon bo'linglar. 4. Xorijiy tillarni o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam. ***/// **2,3**

2515. Berilgan so'roqlarning qaysi biriga ham hol, ham aniqlovchi javob bo'la oladi? ***/// **qanday?, nechta?, qancha?**

2516. Bir oqil aytarmish, tingla, qarindosh,

Siringni fosh etma kerak bo'lsa bosh. Ushbu gapda nechta sodda gap bor? ***/// **3 ta** 2517. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh,

Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh! Ushbu she'riy parchada nechta gap mavjud. ***/// **4**

2518. Bobo Temur, tirigingda o'zing va so'zing

Ulkanlikda sig'mas edi shu yer yuziga. Ushbu gap . ***/// **sodda gap**

2519. Bular yonidan ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnoddir. Ushbu gapda yasama so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan? ***/// **hol, aniqlovchi**

2520. Darak gap haqidagi quyidagi qaysi hukmlar to'g'ri? 1). darak gap kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan tashkil topadi; 2). gap bo'laklari me'yoriy tartibda joylashgan bo'ladi; 3). darak ohangi gap oxiriga qarab kuchayib boradi; 4) yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisani tasdiq yoki inkor yo'li bilan ifodalaydi. ***/// **1, 2, 4**

2521. Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,

Aytgil, do’stim, nima qildik Vatan uchun? (Iqbol Mirzo) Ushbu she’riy parchada gapning ifoda maqsadiga ko’ra qaysi turlari ishtirok etgan? 1) darak gap; 2) so’roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap ***/// **1,2,3**

2522. Gap bo‘laklari haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri**?.** ***/// **Istak gaplar kesimi shart maylida bo'lsa, nomustaqil kesimdir.**

2523. Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlilni amalga oshirishda quyidagi vazifalardan qaysilarini bajarish kerak? 1) gapning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlash; 2) gap bo'laklarini belgilash, gapda uyushiq bo‘laklar bor yoki yo'qligini aniqlash; 3) gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishmagan "bo‘laklar" bor yoki yo‘qligini aniqlash; 4) gap bo‘laklari qanday so'z birikmalari tarkibida kelganini izohlash; 5) gap bo'laklarining joylashuv tartibini

izohlash. ***/// **2, 3, 5**

2524. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo’lib qolmay, buyuklikning ayni o’zidir. Ushbu gapda ayni so’zi qaysi gap bo’lagi vazifasida kelgan**?** ***/// **bu so’z gap bo’lagi bo’la olmaydi.**

2525. Hech kimdan kam emassan, kam bo‘lmagaysan,

Yerda qolsang, oftob bo‘lib
kulmagaysan, Qachon belni
mahkam tortib bog‘lagaysan?

Aytgil, do’stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she’riy parchada gapning ifoda rnaqsadiga ko‘ra qaysi turlari ishtirok etgan? 1) darak gap; 2) so‘roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap; 5) qo’shma gap ***/// **1, 2, 3**

2526. Insoniyat qadimdan go‘zallikni ulug‘lab kelgan. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar qaysi bo‘lak vazifasida kelgan? ***/// **kesim, ega, to‘ldiruvchi**

2527. Jahongiri bexonumon yurt edi bu. (Sirojiddin Sayyid) Ushbu she’riy parchadagi gaplar haqida bildirilgan to’g’ri hukmni belgilang. ***/// **2 ta so’roq gap, 1 ta buyruq gap, 1 ta darak gap**

2528. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so‘rang buni, Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

Jahongiri bexonumon yurt edi bu. Ushbu she’riy parchaning nechanchi misrasida kesim, ega, to'ldiruvchi, hol ishtirok etgan? ***/// **2** 2529. Nadir millat qudratining tamadduni?

Amir Temur haykalidan
so’rang buni, Ot mindirib
kim qaytardi yurtga uni?

2530. O’qishli kitob go’zallikdir, lekin go’zallikda ham go’zallik bor. (A.Qahhor) Ushbu gapda yasama so'zlar qaysi gap bo’laklari vazifasida kelgan? 1) ega; 2) aniqlovchi; 3) to’ldiruvchi; 4) hol; 5) kesim ***/// **1, 2, 3, 5**

2531. O’z nafsini mag‘lub etgan marddir, G‘iybatdan uzoq ketolgan marddir. Nomard tegib o‘tar yiqilganlarga, Ojizlar qo‘lini tutolgan marddir. Ushbu she’rning nechanchi misrasida inversiya yuz, bergan?
***/// **3**

2532. O’z nafsini mag’lub etgan marddir, G’iybatdan uzoq ketolgan marddir.
Nomard tegib o’tar yiqilganlarga,
Ojizlar qo‘lini tutolgan marddir. ***/// **ega, to'ldiruvchi**

2533. O’z nafsini mag’lub etgan marddir, G’iybatdan uzoq ketolgan marddir.
Nomard tegib o’tar yiqilganlarga,
Ojizlar qo‘lini tutolgan marddir. (Rudakiy) Ushbu she’rda inversiya (gap bo’laklar tartibining buzilishi) qaysi bo’laklar hisobiga yuz bergan**?** ***/// **kesim, to’ldiruvchi**

2534. Olam keng, ellar ko‘p, Yurtlar beshumor:
Har yurt o‘z ahliga go'zal va ajib. Ushbu she’riy parchada nechta gap mavjud? ***/// **4 ta**

2535. Qani endi dunyoda vafo bo’lsa, har kim tilagiga yetsa. (A.Qahhor) Berilgan gap gapning ifoda maqsadiga ko’ra qaysi turiga mansub? ***/// **istak gap**

2536. Qani endi, dunyoda vafo bo‘lsa, har kim tilagiga yetsa. (A.Qahhor) Berilgan gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turiga mansub? ***/// **istak gap**

2537. Qaysi javobda to'liqsiz gap berilgan**?** ***/// **O'zining kimi bor? Bobosi, ammasi.** 2538.Qaysi qatorda inversiya mavjud emas? ***/// **Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elingda.**

2539. Qaysi qatordagi gapda asosiy bo’lak o’z o’rniga nisbatan oldinga o’tgan? ***/// **Shovulladi tun bo`yi shamol.**

2540. Qaysi qatordagi gapda gapning o'zgargan tartibi ega va kesimga tegishli? ***/// **Shovulladi tun bo‘yi shamol.**

2541. Quyida berilgan gapda gap bo'laklarining joylashish tartibi to‘g‘ri berilgan javobni toping.
Til bor, bol keltirar,
Til bor, balo keltirar**.** ***/// **ega, kesim, to'ldicuvchi, kesim, ega, kesim, to'ldinivchi, kesim**

2542. Quyida berilgan gaplarning qaysisida ohang o‘zgarishi orqali farqli fikr hosil qilishi mumkin? ***/// **Haligi sumka ko‘targan qizni chaqirdi.**

2543. Quyidagi gap gap bo’laklari bo’yicha to’g’ri tahlil qilingan javobni toping. Suvoriylar
Mirzo Ulug’bek bilan Hojining yuklarini hovliga olib kirib berdilar**.** ***/// **ega+aniqlovchi+aniqlovchi+to’ldiruvchi+hol+kesim**

2544. Quyidagi gap qanday gap bo'laklaridan iborat? Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi. ***/// **sifatlovchi aniqlovchi, ega, sabab holi, ravish holi, kesim**

2545. Quyidagi murakkab qo'shma gap tarkibida nechta sodda gap bor? "Oltin makre — kamyob baliqlarning biri, - dedi Edigey, - u dengiz tubida yashaydi, jussasi xiylagina katta, lekin uning xosiyati go‘zalligida: boshidan to dumining uchigacha oltin singari tovlanib turadi, shuning uchun ham uni oltin makre deb aytishadi." ***/// **7 ta**

2546. Quyidagi she’riy parchada nechta gap mavjud?

Yoshliging g‘animat,
bolam, o‘sib, un,
Chiqarma behuda sado
hamda un,  Ko‘r, quyosh
tig’ida va tegirmonda
Ezilib so’ng aziz bo’ldi bug‘doy-un ***/// **5ta**

2547. Quyidagi to‘liqsiz gapda qaysi gap bo‘laklari ifodalanmagan? – Siddiqjon nimalar to‘g‘risida so‘zladi? – Yangi loyihalar haqida. ***/// **ega va kesim**

2548. Rejani yana qaytadan ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Ushbu gap – ***/// **shaxsi noma’lum gap**

2549. Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

"Yana keldi, do'stginam, bahor".(A.Oripov). Ushbu she’riy prachada nechta gap mavjud mavjud? ***/// **4**

2550. Sifat aniqlovchi ot-kesimga bog’langan gapni toping. ***/// **Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat.**

2551. So‘z - gap qaysi qatorda qo'llangan? ***/// **–Sening bundan xabaring bormi, Ali? – Yo‘q.**

2552. Sodda gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Kuchli shovqin nafaqat katta yoshdagi kishilar, shuningdek, o'quvchilarning faoliyatiga ham zarar keltiradi:**

2553. Sodda gapning to‘liq sintaktik tahlilida quyida berilgan vazifalardan qaysilarini amalga oshirish kerak? 1) gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi bo'yicha tahlil; 2) gap bo'laklarini aniqlash; 3) gapda qaysi so'z turkumiga oid so'zlar borligini aniqlash; 4) gap qurilish bo'yicha tahlil; 5) gapda nechta tinish belgisi borligini aniqlash ***/// **1,2, 4**

2554. So'roq gaplarning qanday tuzilishdagi turida savolga aniq javob talab etiladi? ***/// **so'roq olmoshlari bilan shakllangan so'roq gaplarda**

2555. So'roq gaplarning qanday tuzilishdagi turida savolga ha yoki yo'q javobi talab etiladi? ***/// **faqat so'roq yuklamalari bilan shakllangan so'roq gaplarda**

2556. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,

Ochgil, – deydi. – Bu – men, qadrdon,

Bilmoq bo‘lsang – Bardoshdir otim. Ushbu she’riy parchada nechta gap mavjud? ***/// **8**

2557. Taqillaydi eshik nogahon, Kimsan? – deyman tugab sabotim,

Ochgil, – deydi. – Bu – men, qadrdon,

Bilmoq bo‘lsang – Bardoshdir otim. (A.Oripov) Ushbu she’riy parchada gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari mavjud? 1) darak gap; 2) so'roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap ***/// **1, 2, 3**

2558. Tog‘liklarning biron to’yi, ma’rakasi, gap-gashtagi usiz o’tmaydi.Ushbu gapdagi turdosh otlarning miqdorini va qanday vazifa bajarganligini aniqlang. ***/// **4 ta; aniqlovchi, ega**

2559. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko‘zlari dumaloq shakl olgan edi. Ushbu gap tarkibidagi sodda gaplar sonini aniqlang**.** ***/// **4 ta**

2560. Ushbu parchada nechta sodda gap mavjud? Luqmoni Hakimdan so’radilar: “Odamlarning dahosi kim?” Javob berdilar: “Hayot tashvishidan diltang bo’lmagani”. ***/// **4**

2561. Vatanimizni jon-dildan sevamiz. Ushbu garda nechta gap bo‘lagi mavjud? ***/// **3 ta**

2562. Xalil ota halol va mehnatsevar kishiga xos izzat-obro‘sini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi. Ushbu gap qaysi javobda gap qurilishi bo'yicha to‘g‘ri tahlil qilingan? ***/// **darak gap, his-hayajonsiz gap, sodda yoyiq gap, to'liq gap, egali gap**

2563. Yurtga ega bo‘lish oson ish emas,

Yur, o‘g‘lonim, elni ko‘tlarish uchun. Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o‘g’lonirn, elni ko’tarish uchun. (M. A’zam) Ushbu parchada nechta sodda gap bor? ***/// **5 ta**

7) bo'lsa, esa; 2) goh..., goh..., dam..., dam...; 3) -u(-yu), -da; 4) ammo, lekin, biroq Ushbu bog’lovchi vositalarining qaysilari orqali bog'langan qo'shma gaplar ma’nodoshlik hosil qiladi? ***/// **1, 2, 3, 4**

2564. Biriktiruv bog’lovchili bog’langan qo'shma gap mavjud bo'lgan qatorni toping. ***/// **Havo sovudi hamda yerlar muzladi.**

2565. Bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan? ***/// **Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.**

2566. Qaysi javobda qo’shma gap berilgan? ***/// **Ayt, kirsin.**

2567. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan? ***/// **Yaxshilik qilmoqlik ulug‘ fazilatdir, uning qadriga yetmaslik esa illatdir.**

2568. Tovus o‘zini chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa sharafu-shonini asraydi. Berilgan qo‘shma gap qismlari o‘rtasida qanday mazmuniy munosabat mavjud? ***/// **qiyoslash munosabati**

2569. yo …, yo qolipli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang. ***/// Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o'zini bilmaganlikka soladi.

2570. Zidlik munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gapni aniqlang. ***/// **Uydagilar xursand edi, ammo bu xursandchilik unga tatimadi.**

2571.1003Balki so‘zi o‘zaro gaplarni bog‘lasa qanday gap hosil bo‘ladi? ***/// **bog'langan qo'shma gap**

2572.1003Bulbul gulzorni izlaydi, boyo‘g‘li esa hamisha vayronani ko‘zlaydi. Bog'lovchi vositalarning ishtirokiga ko‘ra, berilgan gap qanday gap turiga kiradi**?** ***/// **bog'langan qo'shma gap**

2573.1003Navoiy qaysi asarida mutasavvuf shoirlar haqida ma’lumot bergan? ***/// **"Nasoyim ul-muhabbat"**

2574.1003Qaysi gap qismlari zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan vosita orqali bog'langan?

***/// **Ba’zilar hordiq chiqarishga kirishadilar-u, ba’zilar podalari izidan cho'lga qarab ketdilar.**

2575.1003Qaysi gapda esa so‘zini zidlov bog'lovchilariga almashtirib bo’lmaydi**?** ***/// **Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi.**

2576.1003Qaysi javobda ayiruv bog‘lovchili bog‘langan qo'shma gap berilgan? ***/// **Ba’zan sho‘x musiqa yangraydi ba’zan zo'r qahqaha olamni buzadi.**

2577.1003Qaysi javobda uyushiq bo'lakli gap va qo'shma gap juftligi berilgan? ***/// **Pulemyot, miltiqlarning ovoziga xotin- xalaj, bola chaqalarning yig'isi, dod- voyi qo'shilib ketdi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so'nggilari esa uni vahimaga soldi.**

2578.1003Qaysi javobda zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap mavjud? ***/// **Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg'u unutilmaydi.**

2579.1003Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan? ***/// **Yo yerning kuchi yo‘q, yo urug’ yaxshi emas.**

2580.1003Qaysi qatorda qiyoslash va zidlash munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gap berilgan? ***/// **Yaxshilik qilmoqlik ulug‘ fazilatdir, buning qadriga yetmaslik esa illatdir.**

2581.1003Qaysi qatorda qo‘shma gap berilgan? ***/// **Tashqarida bo‘ron uvvillaydi, shamolda chayqalgan daraxtlar vahimali shovillaydi.**

2582.1003Qaysi qatorda zidlov munosabatli bog‘langan qo'shma gap berilgan? ***/// **Voajab, Rim namoyishi tugadi-yu, hech kim joyidan qimirlamadi.**

2583.1003Qaysi qatordagi gap ikki grammatik asosga ega? ***/// **Kampirning ko‘zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.**

2584.1003Qismlar o‘rtasida zidlash munosabati bo‘lmagan qo‘shma gap qaysi javobda berilgan? ***/// **Ot tunda kerak, aql esa kunda kerak.**

2585.1003Qismlari yuklama yordamida birikkan zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping. ***/// **Tongdayoq yog’a boshlagan yomg'irning tinganiga ancha bo‘ldi-yu, osmon pardasi ochilmadi.**

2586.1003Qo‘shma gap berilmagan qatorni toping. ***/// **Omon laganning tagini non surkab yalab turganda, ko‘cha-ko‘yni to‘ldirib, ayqirib-**

**chaqirib besh kishi kirib keldi.** 2587. 1003Qo'shma gaplardagi shart munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

***/// **bog'lovchisiz, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan**

2588. 1003Quyida berilgan gaplardan qaysi biri bog'langan qo'shma gap? ***/// **Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog' qoladi.**
2589. 1003Quyida berilgan qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalangan? Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. ***/// **payt munosabati**
2590. 1003Quyidagi gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri? Yomg'ir tindi-yu, shamol to‘xtamadi.

***/// **zidlash munosabati ifodalangan qo‘shma gap**

2591. 1003Quyidagi gap qo‘shma gaplarning qaysi turiga mansub? Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo‘lsa faqat dam olaylik deysan. ***/// **bog‘langan qo'shma gap**
2592. 1003Quyidagi gap turini aniqlang. Qor yog'di – don yog'di. ***/// **bog'lovchisiz qo'shma gap**
2593. “Ta’limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur’oni karimni yod oldi”. Ushbu ta’rif “Xamsa”dagi qaysi qahramonga nisbatan aytilgan**?** ***/// **Farhod**
2594. Amr qildimki, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishi lozim. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub? ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**
2595. Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap berilgan javobni aniqlang. ***/// **Ayrim shunday ishyoqmas odamlar bo’ladiki, ularning hech qachon biri ikki bolmaydi.**
2596. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang. ***/// **Bu shunday bir daraki, Rahimxon qirq ming askari bilan kelib yo'l topolmay ketgan.**
2597. Ayrim kishilar borki, onasini unutadi gapi qanday ergash gapli qo‘shma gap? ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap**
2598. Berilgan bog'lovchi vositalardan qaysi biri ergashgan qo'shma gaplarda hokim gap tarkibida keladi? ***/// **shuning uchun**
2599. Berilgan bog'lovchi vositalardan qaysi biri ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap tarkibida keladi? ***/// **agar**
2600. Berilgan gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub? Ona biladiki, endi har nahor Butun Vatan bo'ylab to'lishar bahor. ***/// **to'ldiruvchi ergash gap**
2601. Berilgan qo'shma gapning turini aniqlang. Kimda-kim uni ko‘rishga jur’at qilar ekan, uning kallasini oldiraman. (ertakdan**)** ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**
2602. Berilgan qo'shma gapning turini aniqlang. Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabulxonasiga kichkina telefonogramma tushibdi. ***/// **kesim ergash gapli qo'shma gapli**

2603. Birinchi qaldirg‘och parvozini ko‘rgan odam qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? ***/// **hol ergash gapli qo'shma gap**

2604. Biz istar edikki, yana go‘zal hayotimizni aks ettiradigan rasmlar chizsangiz. Ushbu gap haqidagi qaysi javob to‘g‘ri? ***/// **To‘ldiruchi ergash gapli qo‘shma gap**

2605. Bolaga e’tibor bermasangiz, uning tarbiyasi buzilishi mumkin. Berilgan qo'shma gap turini belgilang. ***/// **shart ma’nosini ifodalagan hol ergash gapli qo'shma gap**

2606. Bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlab kelgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang. ***/// **Abror bildiki, oson yo'l bilan maqsadga erishilmaydi.**

2607. Bu shunday bir daraki, Rahimxon qirq ming askari bilan kelib yo'l topolmay ketgan.

Ushbu gap… ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

2608. Bu suvni ichgandan so‘ng kim yolg‘on gapirsa, qulog‘i o‘sib ketarmish. Ushbu qo‘shma gap turi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap**

2609. Chog’ishtiruv bog’lovchilaridan qaysi biri uslubiy betaraf hisoblanadi? ***/// **xuddi**

2610. Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi. Ushbu gap hol ergash gapning qaysi turiga mansub? ***/// **payt ergash gap**

2611. Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma’naviy qiyofasi o‘zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi. Ushbu gapda vergulning qo'yilish sabablari qaysi javobda to'g'ri izohlangan? 1) gapda kirish so'z ishtirok etganligi uchun; 2) gapda ajratilgan bo'lak mavjudligi uchun; 2) so'z-gapdan keyin kelgan bo'laklar bo'lgani uchun; 3) uyushiq bo'laklar ishtirok etgani uchun; 4) sodda gaplar bog'lovchisiz bog'langani uchun; 5) bog'langan qo'shma gaplar bo'lgani uchun ***/// **1, 4, 5**

2612. Ergash gap bosh gapdan oldin kelgan javobni toping. ***/// **Kimning ichi nog’ora singari bo’sh bo‘lsa, uning behuda so'zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi.**

2613. Ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turida bosh gapning kesimi har doim ot-kesim bilan ifodalanadi? ***/// **kesim ergash gapli qo'shma gap**

2614. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **chunki, shuning uchun, -ki**

2615. Ergashdan qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar ning qaysilari bosh gap tarkibida bo'ladi? 1) chunki;2) shuning uchun; 3) go'yo, 4) negaki; 5) -ki; 6) toki ***/// **2 5**

2616. Ergashgan qo`shma gaplarda hokim gap boshida qoluvchi vositani toping. ***/// **shu sababli**

2617. Ergashgan qo‘shma gapda ergash gap bosh gapga nisbatan o‘rnini almashtirgan qatorni toping. ***/// **Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elingda.**

2618. Ergashgan qo‘shma gaplarda hokim gap tarkibida keladigan bog`lovchi vositani aniqlang**.** ***/// **– ki**

2619. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gap oxirida keladigan bog’lovchini toping. ***/// **deb**

2620. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap boshida keladigan bog'lovchini toping. ***/// **agar**

2621. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap boshida keluvchi bog‘lovchilarni toping**.** ***/// **chunki, agar**

2622. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap oxirida keladigan bog'lovchini toping. ***/// **deb**

2623. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan quyidagi vositalarning qaysilari bosh gap boshida keladi? ***/// **shuning uchun, shu tufayli**

2624. Ergashgan qo'shma gaplarda hokim gap boshida keluvchi vositani toping. ***/// **shu sababli**

2625. Ergashgan qo'shma gaplarda hokim gap tarkibida keladigan bog'lovchi vositani aniqlang**.** ***/// **–ki**

2626. Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan? 1. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,

Bobolardan qolgan noyob bu tortiq

Toki avlodlarga yetolsin omon. 2. Misralarda so‘zlar gavhar kabi yonadi, go‘yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. 3. Mabodo boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir. 4. Siz Hindistonda neniki ko‘rgan bo‘lsangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmoq darkor. ***/// **1,2,3**

2627. Faqat bir narsani aytmoq joizki, savob ishlar, shu jumladan, Vatan ravnaqi yo‘lidagi yumushlar hech qachon avvaldan tasdiqlangan ro'yxat bo‘yicha qilinmaydi. Qo'shma gap turini aniqlang. ***/// **ergashgan qo'shma gap**

2628. Faqat hol ergash gapli qo'shma gaplar qaysi javobda berilgan? ***/// **Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi. Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladit** 2629. Gapning turini aniqlang.

Angladimki, olamda

Yurt tanho, vatan tanho. ***/// **to’ldiruvchi ergash gapli qo’shma gap**

2630. Havola bo’lak ishtirok etgan aniqlovchi ergash gapli qo’shma gapni aniqlang**.** ***/// **Sevgi shunday navbahorki, u tikondin gul qilur.**

2631. Havola bo’lak ishtirok etgan hol ergash gapli qo’shma gapni aniqlang. ***/// **Birinchi qaldirg’och parvozini ko’rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.**

2632. Havola bo’lakli qo’shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog’lovchi vositalar qaysi javobda to’g’ri berilgan? ***/// **-ki yuklamasi va nisbiy so’zlar, fe’lning shart mayli qo’shimchasi –sa**

2633. Hokim gap oxirida keladigan bog'lovchi vosita(lar)ni belgilang. ***/// **-ki, -kim** 2634. Hokim gap oxirida keladigan bog'lovchini aniqlang**.** ***/// **-ki**

2635. Hol ergash gapli qo'shma gap haqidagi to'g'ri fiklarni aniqlang. 1) hol ergash gapli qo'shma gapdagi deb bog'lovchisi uchun ko'makchisi bilan erkin almasha oladi; 2) hol ergash gapli go'shma gaplarda har doim oldin bosh gap, keyin ergash gap keladi; 3) hol ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar yordamida bog'lana oladi; 4) hol ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan sinonim bo'la olmaydi. ***/// **1, 3**

2636. Hol ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping**.** ***/// **Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.**

2637. Insonlar qanday yashashi lozim bo'lsa, shunday yashanglar. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub? ***/// **hol ergash gap**

2638. Ishonchim komilki, uning bilaklariga quvvat bag'ishlovchi buyuk, baquvvat suyang'ichi bor. Ushbu qo'shma gapning ergash gap qismida qaysi bo'lak uyushgan? ***/// **aniqlovchi**

2639. Istasangiz-istamasangiz, men shu uyda yashayman. Hol ergash gap qanday ma'noni bildirgan? ***/// **to'siqsizlik ma'nosini**

2640. Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi tushadi. Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub? ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2641. Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping. ***/// **Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.**

2642. Makrlar kitobin har kim qilsa fosh, uni olqishlaydi butun koinot. Ushbu gap… ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.**

2643. Mehmonga borsang, mezbonga ko'proq yengillik kiritishga intil. Ushbu qo'shma gapning qaysi turiga mansub**?** ***/// **hol tobe gapli qo'shma gap**

2644. Nisbiy so'zlar yordami bilan birikkan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni toping.

***/// **Kim tushunib o'qisa, uning bilimi mustahkam bo'ladi.**

2645. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang. ***/// **nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdan keyin keladi**

2646. O'rin ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang. 1. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo'ldan yuradi. 2. Qayerda ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi. 3. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi. 4. Ahillik bor yerda temir suvga cho'kmaydi. ***/// **2,3**

2647. Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, hayvon undan yaxshidir. Ushbu gapning turini toping**.** ***/// **aralash murakkab qo'shma gap**

2648.qatorda nisbiy so'zlar yordamida bog‘langan hol ergash gapli qo'shma gap berilgan? ***/// **Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi.**

2649.Qayerda bekorchilik bo‘lsa, o‘sha yerda be’manilik ham avj oladi gapi qanday ergash gapli qo‘shma gap? ***/// **hol ergash gapli qo‘shma gap**

2650.Qaysi bog’lovch bosh gap+ ergash gap qolipli qo'shma gap turida ishtirok etmaydi? ***/// **shart**

2651.Qaysi bog’lovchilar hokim gap tarkibida keladi? ***/// **shuning uchun, shu sababli, shu bois, -ki, -kim**

2652.Qaysi bog'lovchi tobe gap tarkibida keladi? ***/// **agar**

2653.Qaysi gap ergashgan qo‘shma gapning aniqlovchi ergash gapli turiga mansub? ***/// **So'z shunday qurolki, u bilan eng yuksak cho'qqilarni zabt etish mumkin.**

2654.Qaysi javobda barcha ega ergash gapli qo‘shma gaplar ko‘rsatilgan? 1. Kimki bu uzumni yemabdi, dunyoga kelmabdi. 2. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir. 3. Kim birinchi bo‘lib kelsa, biz mukofot topshiramiz. 4. Shunisi ajablanarliki, hech kim e’tiroz bildirmadi. ***/// **1, 2, 3, 4**

2655.Qaysi javobda ega ergash gapli qo‘shma gap berilgan? ***/// **Shunisi quvonarliki, sinfdagi o’quvchilarning hammasi bir-biri bilan juda ahil.**

2656.Qaysi javobda ega ergash gapli qo‘shma gap berilgan? ***/// **Kimki rostgo'y, samimiy bo‘lsa, u el o'rtasida qadr topadi.**

2657.Qaysi javobda kesim ergash gapli qo‘shma gap berilgan? ***/// **Qizig’i shundaki, shu ko‘rinishiga ovozi muloyim edi.**

2658.Qaysi javobda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilgan? ***/// **Ko'chatlarning bir tekis ko'karib turishidan sezdikki, bog'bon astoydil mehnat qilgan.**

2659.Qaysi javobdagi nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gap bor? ***/// **Kimki ajdodlar yaratgan boyliklarni bilmasa, demak, u nafosatdan bebahra yashagan.**

2660.Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan? ***/// **Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi.**

2661.Qaysi qatorda berilgan ergashgan qo'shma gap tarkibida bosh gap ergash gapdan oldin qo'llangan**?** ***/// **Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.**

2662.Qaysi qatorda bosh gapda qollanmagan to’ldiruvchini izohlagan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilgan**?** ***/// **Aytib qo'yki, undan umidimiz katta**.

2663.Qaysi qatorda ega ergash gapli qo'shma gap berilgan? ***/// **Shunisi ayonki, kitobsiz inson hayoti bo'm- bo'sh.**

2664.Qaysi qatorda ega ergash gapli qo'shma gap berilgan? 1. Kim ko'p o'qisa, dunyoqarashi keng bo'ladi. 2. Kim alam chekmaydi umrida bir bor, U meni anglamas, anglamas aslo. 3. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor. 4. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan. ***/// **2, 4**

2665.Qaysi qatorda ergash gap hokim gapdan oldin kelgan? ***/// **Dangasaga mehnat yoqmaydi, shuning uchun u bahona izlaydi.**

2666. Qaysi qatorda ergashtiruvchi gaplarni bog'lab kelgan? ***/// **O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmas edi**

2667. Qaysi qatorda qatnashgan bir necha ergash gapli qo'shma gap ega ergash gapli qo'shma gap sanaladi? ***/// **Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa,** kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi.

2668. Qaysi qatorda qo'shma gap qismlari va sodda gap bo'laklari orasida inversiya hodisasi mavjud? ***/// **Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elingda.**

2669. Qaysi qatordagi qo'shma gap qismlari ko'makchili qurilma vositasida bog'langan? ***/// **Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma.**

2670. Qaysi qatordagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda uyushgan to'ldiruvchi mavjud?

***/// **Kimki pok muhabbat, mehri daryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol.**

2671. Qaysi qo'shma gapda ergash gapning kesimi III shaxs buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanmagan? ***/// **Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga.Sen otash ichida urasan javlon,**

2672. Qaysi qo'shma gapning ergash gap qismida ikkita yasama so'z ishtirok etgan? ***/// **Odob ulug'lik va yuksaklik qasrining narvonidir, shuning uchun u orqali barcha maqsad va manzillarga yetish mumkin.**

2673. Qaysi qo'shma gapda ergash gapning kesimi qo'shma fe'ldan iborat? ***///

**Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a'zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritishmoqda.**

2674. Qaysi vosita orqali birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi buyruqistak maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi? ***/// **deb so'zi**

2675. Qaysi vositalar bilan bog'langanda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadi yoki sababini bildiradi? ***/// **deb bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida**

2676. Qaysi vositalar ergash gapni bosh gapga bog'lashga xizmat qiladi? ***/// **-ki, shuning uchun, negaki**

2677. Quyida berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Maktab va oila shunday pokiza gulshan bo'lishi kerakki, unda birorta ham begona o't-o'lan bitmaydigan bo'lsin. ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

2678. Quyida berilgan gap turini aniqlang. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat o'rniga aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar ahamiyat kasb etadi. ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

2679. Quyida berilgan gap turini aniqlang. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharki, uni ko‘rgan kimsa nazarini olib qochadi. ***/// **ergashgan qo’shma gap**

2680. Quyida berilgan gapda ergash gap bosh gapga qaysi gramrnatik vosita orqali bog'langan? Ikkinchi masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi. ***/// **ko’makchili qurilrna**

2681. Quyida berilgan qo‘shma gapdagi bog'lovchi vosita qaysi gap bo'lagi tarkibida kelgan? Shunday yashaginki, ketar chog‘ingda... (Shuhrat) ***/// **kesim**

2682. Quyida berilgan vositalarning qaysi biri bilan bog‘langanda qo'shma gap "ergash gap + bosh gap" shaklida bo‘ladi? 1) chunki; 2) shuning uchun; 3) negaki; 4) agar; 5) mabodo; 6) – ki yuklamasi. ***/// **2, 4, 5**

2683. Quyida berilganlardan ega ergash gapli qo’shma gap(lar)ni aniqlang. 1. Barchamizga ma’lumki, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib boradi. 2. Kimning qalbi pok bo‘lsa, to‘g‘ri va baxtli hayot kechiradi. 3. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi. 4. Vatanni sevishimning boisi shuki, u mening kindik qonim to'kilgan muqaddas zamindir. ***/// **l,2** 2684. Quyidagi berilganlardan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar qatorini aniqlang. 1. Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim, Qo‘lidan davlati ketmasin uning. 2. Bu suvni ichgandan so‘ng kim yolg’on gapirsa, qulog‘i o‘sib ketarmish. 3. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi. 4. Vaziyat shundayki, hamma og‘irlik bizga tushgan. ***/// **2, 3**

2685. Quyidagi ergash gaplarning turini aniqlang. 1. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo‘lsang, shuni bilmoq bizga farzrdir. 2. Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa, Bulbulg‘a tikondek oshyon bo'lmas emish. 3. O’zingga nima tilasang, birovga ham ravo ko‘r. 4. Kimga mehr bermoqchi bo‘lsam, mendan o‘zini olib qochadi. ***/// **1, 3 - to'ldiruvchi ergash gap, 2 - hol or gush gap, 4 - ega ergash gap**

2686. Quyidagi gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turi ekanini ko'rsating. Kim yaxshilikni o'ylasa, u baxt topadi. ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2687. Quyidagi gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub? Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi. ***/// **kesim ergash gapli qo'shma gap**

2688. Quyidagi gap haqida to’g’ri fikrni aniqlang. Kishi dardiga kim hamdard emasdur, Kishi nazdida ul mard emasdur ...

***/// **ega ergash gapli qo’shma gap**

2689. Quyidagi gap qo‘shma gapning qaysi turiga mansub? Biz istaymizki, kadrlarimiz rivojlangan davlatlarning mutaxassislaridan kam bo‘lmasin. ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**

2690. Quyidagi gap qo‘shma gapning qaysi turiga mansub? Shunday muammolar borki, ularni butun jahon xalqlari birgalashib hal qilishi kerak. ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

2691.Quyidagi gapda ifodalanmay qolgan olmoshning sintaktik vazifasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan? Kimki o'z nafsiga banda bo'lsa, taqdiri xurjun bo'ladi. ***/// **aniqlovchi**

2692.Quyidagi gapning turini aniqlang. Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal**.** ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**

2693.Quyidagi maqol ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub? Qozonga nima tushgan bo'lsa, cho'michga ham o'sha chiqadi. ***/// **Ega ergash gapli qo'shma gap**

2694.Quyidagi qaysi gap(lar)da aniqlov bog'lovchisi gaplarni tobelantirib bog'lashga xizmat qilgan? 1. Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi. 2. Tilning bilish borasidagi ahamiyati, oddiy bilim bilan cheklanmaydi, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oddiy martabasini ham o'z ichiga oladi. 3. O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmas edi. 4. U ilonni aidagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan edi**.** ***/// **3**

2695.Quyidagilardan kesim ergash gapli qo'shma gaplar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga, musht tushdi. 2) Eng keraklisi shuki, ana shu miqqiyni ham boqish kerak. 3) Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi.
4) Umidim uldurkim, so'zim martabasi avjdan quyi inmagay. ***/// **1, 2, 3, 4**

2696.–sa shart mayli qo'shimchasi yordamida bosh gapga bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? 1. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan. 2. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda bo'ladi. 3. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. 4. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam. ***/// **1,2,3,4**

2697.Sen yonimda bo'lsang, yetarli. Ushbu gap haqidagi qaysi fikr to'g'ri? ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2698.Senga ola qarabdi kim, ko'r bo'lmay qolmas. Ushbu gap **...** ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2699.Shunisi ma'lumki, u Gulnozaning fikriga qo'shilmaydi. Ushbu gap — ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2700.Shunisi qiziqki, ularning ko'p odatlari bir-biriga o'xshab ketardi. Ushbu gap - ... ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**

2701.To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilmgan qatorni toping. ***/// **Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani nasl nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi.**

2702.To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang. ***/// **Bilib qo'yki, sening ulug' noming bor.**

2703. Tobe gap boshida keladigan bog‘lovchilarni belgilang. ***/// **agar, agarda, chunki, negaki, toki**
2704. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping. ***/// **Naql qiladilarki, bir kishi sahroda borayotgan ekan.**
2705. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub? Kim devorning narigi tomonida bo‘lsa, u omon qoldi. ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**
2706. Ushbu gapning turini aniqlang. Inson nimagaki erisholmasa, o'sha aziz tuyuladi. ***/// **ega ergash gapli qo'shma gap**
2707. Ushbu qo'shma gapning turini aniqlang. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. ***/// **hol ergash gapli qo'shma gap**
2708. Vatanimiz kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Ushbu gap ergash gapli qo‘shma gapning qaysi turiga mansub? ***/// **hol ergash gapli qo'shma gap**
2709. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq,
Toki avlodlarga yetolsin omon. (A. Oripov). Ushbu ergash gapning qanday ma’no ifodalayotganini aniqlang. ***/// **maqsad ma’nosi**
2710. Yordam shundan iboratki, seni boshliq bilan uchrashtirib qo'yaman. Ushbu gap –. ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap**
2711. Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolarni, qon to’kishlarni unutar, olamda mehr-u saxovat poklik va ezgulik g’olib bo’lar. Ergash gaplar tarkibida qaysi gap bo’laklari uyushgan? ***/// **to’ldiruvchi, ega**
2712. Zangori osmon shunday tiniq, shunday beg‘uborki, ko‘zni oladi. Ushbu gapda ergash gapni bosh gapga qaysi vosita bog‘lab kelyapti? ***/// **yuklama**
2713. Akrom qafasni ochdi // kaklik o‘zicha "qiyq" deb qo‘ydi. Gapning turini va // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yilishini aniqlang. ***/// **bog'lovchisiz qo'shma gap; vergul**
2714. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalangan bo'lsa, ular orasiga qanday tinish belgi qo'yiladi? ***/// **tire**
2715. Ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarning qaysi birida lekin, shuning uchun bog‘lovchilarini qo‘llash mumkin. ***/// **Shaharlar boqiydir, umr o‘tkinchi, daryolar sobitdir, suvlar ko‘chkinchi.**
2716. Polvonlar epchillikda bir-biridan o‘tadi, kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub? ***/// **bog'lovchisiz qo'shma gap**
2717. Qaysi gapda vergul bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida qo'llangan emas? ***/// **Yo biz boraylik, yo siz keling.**
2718. Qaysi maqolda bog’lovchisiz qo’shma gap mavjud emas? ***/// **Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.**
2719. Qaysi qatorda kesimlari murakkab bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap berilgan? ***/// **O'zingga ehtiyot bo‘l, qo'shningni o‘g‘ri tutma.**

2720. Qismlari ohang yordamida bog'langan qo‘shma gaplarga xos xususiyatlar to‘g‘ri qayd etilgan javoblar mosligini belgilang. 1. Ko‘prikni biz qurdik, dushmanlar o‘tdi. 2. Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi. 3. Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. 4. Oy tunda kerak, aql – kunda. 5. payt munosabati aks etgan; b) qiyoslash munosabati aks etgan;

c) zidlik munosabati aks etgan; d) sabab munosabati aks etgan. ***/// **1 – c; 2 – d; 3 – a; 4 – b**

2721. Qo‘shma gaplardagi payt munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin? ***/// **bog‘lovchisiz, bog‘langan va ergashgan qo’shma gaplar bilan**

2722. Qo'shma gaplardagi zidlik munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin? ***/// **bog'lovchisiz, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan**

2723. Quyida berilgan gapda vergulning qo‘yilish sababini izohlang. Yurgan - daryo, o‘tirgan – bo‘yra. ***/// **bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lgani uchun**

2724. Sabab-natija munosabati qanday gaplarda ifodalanadi? 1) ergashgan qo'shma gap; 2) bog'langan qo‘shma gap; 3) bog'lovchisiz qo‘shma gap ***/// **1, 2, 3**

2725. Sabr bila bog‘liq ish ochilur // Ishga oshiqqan ko‘p toyilur. Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi? ***/// **vergul**

2726. Tilagim shu: hamma bilan yaxshi muomalada bo’ling. Ushbu gap grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra qanday gap? ***/// **bog'lovchisiz qo'shma gap**

8) Tog‘ va osmon shunday tiniq, nafas olish shunday yengilki, keksa odam ham bu yerda musaffo bolalik paytlarini eslaydi. 2. Agar ahil bo‘lsak, o’zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim yenga olmaydi. 3. Hayot qaysi biriga qattiq tegib ketsa, o’shanisi kuchliroq tovush beradi. 4. Umr o‘tar, vaqt o’tar, Omad o‘tar, taxt o‘tar... (O. Matchon) 5. Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir. Berilgan gaplar haqidagi qaysi fikrlar noto‘g‘ri? 1) 1-gap bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap; 2) 2-gap bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap; 3) 3-gap to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap; 4) 4, 5-gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap. ***/// **3,4**

1. Agar kishi o‘z hirslaridan ustun tura olsa, u o‘zidagi bor nuqsonlarni yo'q qila oladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi. 2. Boshimda o‘ynar qamchilar, Qon ko'zlarimdan tomchilar, Bir benavo gul yanchilar, ozodkorirn kelmasa. 3. Shunday odamlar borki, ular qisqa umr ko‘radilar, lekin qisqa umrlari asrga tatigulikdir. 4. Yong‘oqlarimiz qanchalik ko‘paysa, tabiat shuncha ko‘rkam, beqiyos bo‘ladi. Berilgan gaplar haqidagi qaysi fikr(lar) noto'g'ri? 1) 1, 3-gaplar aralash turdagi murakkab qo'shma gap; 2) 2-gap qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap; 3) 4-gap hol ergash gapli qo'shma gap; ***/// **2**

2727. Agar Alloh oldida javobgar bo‘lsang, bilib qo‘y: boshing, shaksiz, kesilgay. Ushbu gap haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang. ***/// **aralash murakkab qo'shma gap**

2728. Aralash murakkab qo'shma gap tarkibida qo'shma gapning qaysi turi bo'lmaydi? ***/// **barcha turi bo'lishi mumkin**

2729. Avliyolar bosgan tuproq aziz derlar,
Qat-qatidan chiqaverar
ekan sirlar, Har tuproqdan
har kun o‘tmas axir pirlar,
Ko‘kragimni hayrat tiklar,
Temur bobo.
Ushbu she’riy parcha murakkab qo‘shma gaplarning qaysi turiga mansub? ***/// **qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap**

2730. Bilgilki, bolalarim uch kundan buyon hech bir taom yemas edilar va men hech iloj topmay yurdim. Ushbu gap... ***/// **murakkab qo'shma gap**

2731. Bir necha ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang. ***/// **Reja bajarilsa, dasturxon mo‘l bo‘lsa, yor-u do‘st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etadi.**

2732. Bir necha ergash gapli qo'shma gapda qanday tinish belgilari qo’llanishi mumkin? ***/// **faqat vergul**

2733. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gap**...** ***/// **murakkab qo'shma gap**

2734. Ko‘lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida titrayotgan ikki- uchta o‘rdak ko’rindi. Ushbu gap **...** ***/// **aralash murakkab qo'shma gap.**

2735. O‘z ishiga usta shunday odamlar borki, ularning mahorati, san’atini ko’rib, beixtiyor kishining havasi keladi, xuddi ularday bo’lishni orzu qiladi. Ushbu gap haqida berilgan noto’g’ri hukmni toping**.** ***/// **bir necha ergash gapli murakkab qo’shna gap**

2736. Ona - u, bag’rida millat beshigi,
Qalbida yopilmas qadr eshigi,
Allasi oromdir - hayot qo’shig’i,
Ayol omon bo’lsa, dunyo go’zaldir. (Mahmud Toir) Ushbu she’riy parcha murakkab qo’shma gapning qaysi turiga mansub**?** ***/// **aralash murakkab qo’shma gap**

2737. Qaysi javobda berilgan juftliklarning har ikkalasi qo'shma gap sanaladi? ***/// **U shunday yalinib gapirdiki, ra’yini qaytarishning sira iloji qolmagan edi. U yalinib gapirdi, shuning uchun ra’yini qaytarishning sira iloji bo‘lmadi.**

2738. Qaysi murakkab qo’shma gap tarkibida ega va aniqlovchi ergash gapli qo’shma gap qatnashgan? ***/// Kim ko’p kitob o’qisa, o’sha ko’p biladi, el ichida obro’si bo’ladi.

2739. Qaysi murakkab qo'shma gaplar tarkibida ega va to’ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap qatnashgan**?** ***/// **Shu narsa esingizda bo'lsink, shuni unutmangki, bilimli kishi hanusha boshqalardan oldinda yuradi.**

2740. Qaysi qatorda aralash murakkab qo'shma gap berilgan**?** ***/// **Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, sen esa akangga yordamchilik qilasan**.

2741. Qaysi qatorda berilgan bir necha ergash gapli qo’shrna gap aniqlovchi ergash gapli qo’shma gap sanaladi? ***/// **Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qiladilar, odamlar ularga ishonadilar.**

2742. Qaysi qatorda bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar to‘g‘ri ko‘rsatilgan? 1.

Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo‘lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin. 2. Tol ekdir suv bo‘yiga, Soya-salqin bo‘lsin deb, G'ayrat qilgan botirlar Yotib damin olsin deb. 3. G‘anim kelsa, xonumoni kul bo‘lur, o‘z yurtida pachaqlash ma’qul bo‘lur. ***/// **1, 2**

2743. Quyidagi gapning tuzilishiga ko‘ra turi, kesimi(lar) haqida qaysi fikr to‘g‘ri? Mingbuloq o‘zi yaxshi, suv serob, lekin u qarovsiz**.** ***/// **murakkab qo'shma gap, sodda ot kesim**

2744. Quyidagi murakkab qo'shma gapda o‘zaro bog'langan gaplarning va bog‘lovchi vositalarning soni nechta? Tol ekdik suv bo‘yiga, soya-salqin bo‘lsin deb, g‘ayrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb. ***/// **3 ta gap, 2 ta bog'lovchi vosita**

2745. Quyidagi qo'shma gap turini aniqlang. Quvishga quvdim-u, hali ham ichim achiydi, bola bechora nima gunoh qilibdi. ***/// **aralash murakkab qo'shma gap**

2746. Sen – Navoiy, sen – Furqat,

Sen – ruhlar osmonisan,

Sen buyuk munajjimning

Yulduzga narvonisan,

Boburning Andijonga

Yetmagan karvonisan,

Bosh qo‘yib suyanganim –

Makkamsan o‘zing, elim,

Izlab-izlab topganim,

Yakkamsan o‘zing, elim. Ushbu she’riy parcha murakkab qo'shma gapning qaysi turi hisoblanadi? ***/// **qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap**

2747. Siz o‘z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko‘z qarog‘larisiz, ammo unutmang-ki, tanbal, daqqi, bezori kishi ma’naviy nogiron degan so’z. Ushbu gap qo’shma gapning qaysi turiga kiradi? ***/// **aralash murakkab qo’cshma gap**

2748. Tarkibida uchta ergash gap mavjud bo‘lgan bir necha ergash gapli qo‘shma gap berilgan qatorni toping. ***/// **To‘g‘risi shuki, keksa professor**

**unga yoqib qolgan edi, uning maslahatlaridan doimiy qonoqardi, doim bu oqil odamga munosib bo'lishga tirishar edi.**

2749. Uni tanib olish qiyin edi, chunki qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko‘zlari dumaloq shakl olgan edi. Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turi hisoblanadi? ***/// **aralash murakkab qo'shma gap**

2750. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va

katta ko‘zlari dumaloq shakl olgan edi. **Ushbu gap...** ***/// **aralash murakkab qo'shma gap**

2751. "Yur, bo‘tam, senga bitta muzqaymoq olib beray!" - dedi to’satdan. Muallif gapining kesimini toping. ***/// **dedi**

2752. Agar darak gap shaklidagi ko'chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, darak gap egasi qanday shaklda bo‘ladi? ***/// **qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi**

2753. Agar ko'chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, ko'chirma gapdagi undalma o'zlashtirma gapda qanday sintaktik vazifa bajaradi? ***/// **to'ldiruvchi**

2754. ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, darak gap shaklidagi ko'chirma gapning egasi qaysi gap bo’lagi vazifasini bajaradi? ***/// **qaratqich aniqlovchi**

2755. Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarning ishlatilishi qaysi qatorda noto‘g‘ri izohlangan? ***/// **ko‘chirma gap darak gap bo‘lsa, nuqta qo‘shtirnoq yopilmasidan oldin qo‘yiladi.**

2756. Muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, muallif gapidan so‘ng ko'chirma gapning qolgan qismi qanday tinish belgilari bilan davom etadi**?** ***/// **vergul va tire yoki nuqta va tire**

2757. Qaysi qatorda ko’chirma gapli qo’shma gapning ko’chirma gap qismida qo’llangan gap payt ma’nosini bergan? ***/// **Nazira ukasiga qarab dedi: "Dutor chalib o’tirsam, tori uzilib ketdi”.**

2758. Quyida berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirganda ko'chirma gap kesimida bo‘ladigan shakliy o‘zgarish to‘g‘ri berilgan javobni toping. “Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi”, - deydi Tog‘ay Murod. ***/// **tushum kelishigidagi to'ldiruvchiga aylanadi**

2759. Quyidagi gapda nima uchun ko'chirilgan gapdan so‘ng qo'shtirnoq yopilib, vergul va tire qo'yilgan? "Yer – xazina, suv – gavhar", - deydi xalqimiz. ***/// **Ko'chirilgan gap darak gap bo'lganligi uchun.**

2760. Quyidagi gaplarning qaysi birida ko’chirma gap qismida tovush orttirilishi sodir bo’lgan yasama so’z ishtirok etgan? ***/// **Savol berdilar: Ul qanday achchiqlikki, oxiri shirin bo’lur?**

Javob berdilar: Sabr.

2761. Sen do’st emassan dedi Iskandar, aka do’st o’rtog’ini yengilning ostidan, o’g’irning ustidan yurishga o’rgatmaydi. Ushbu ko’chirma gapli qo’shma gapda ishlatilishi zarur bo’lgan tinish belgilari sxemasi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan? ***/// **"K, – m, – k".**

2762."Mastura! Uning qo’llariday mayin, iliq, mehribon qo’llar bormi olamda? Uning barmoqlariday nozik, kishining boshini silaganda qalbini nurga to’ldirib, dilini ravshan qiladigan barmoqlar bormikin dunyoda?" Ushbu parcha qanday ataladi, uni hosil qiluvchi vosita qaysi hamda birinchi gap egasi ishtirok etmagan gaplarning qaysi turiga kiradi? ***/// **mikromatn, olmosh; atov gap**

2763."Yotoqxonada yashovchilar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi". Ushbu gap nutq uslublarining qaysi turiga mansub? ***/// **rasmiy-idoraviy**

2764.“Qonun barchaga barobarmi?”, “Kafolat va’da emas”, “Chetlatilgan mutaxassis”, “Tuya ko‘rdingmi, yo‘q”, “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin” kabi sarlavhali materiallar qaysi uslubga xos? ***/// **publitsistik uslub**

2765.1) ilmiy uslub; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub. Ushbu uslublardan qaysilari ijodiytavsifiy matnning ko‘rinishi sanaladi? ***/// **1, 2, 3**

2766.Ariqlardagi suvlar qaymoq bog‘lagan. Berilgan gap qaysi uslubga xos? ***/// **badiiy**

2767.Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar qanday nomlanadi? ***/// **uslubiy xoslangan so'zlar**

2768.2012-yil 20-iyun soat $13^{00}$ da O’zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti sotsiologiya kafedrasida konferensiya bo’ladi. Ushbu jumla qaysi uslubga mansub? ***/// **rasmiy uslub**

2769.AZIZ HAMYURTLAR! Agar Andijonning eng xushhavo va xushmanzara go’shasi bo’lmish Bog’ishamolga yo’lingiz tushsa, albatta, “Bir zumda” oshxonasiga kirib o’ting. Bu yerda tayyorlanadigan turli-tuman milliy taomlar, qulay shart-sharoitlar va yuqori darajada ko’rsatilayotgan xizmatimiz sizga, so’zsiz, manzur bo’ladi. Ushbu matn qaysi uslubga mansub? ***/// **so’zlashuv uslubiga**

2770.–Hay, hay, yiqitvoray deding-ku... oyog‘ingda oyoq qolmabdi-ya? Kel, qo‘lingni ber, jonim. Ko‘taray desam, jonim yarimta... Ushbu parcha qaysi uslub namunasi hisoblanadi?

***/// **so‘zlashuv**

2771.Badiiy uslubning ekspressiv vazifasi deganda nima tushuniladi? ***/// **o'quvchiga**

**ta’sir qilish**

2772.Badiiy uslubning kommunikativ vazifasi deganda nima tushuniladi? ***/// **ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berish**

2773.Berilgan birikmalardan qaysi biri ko'proq so'zlashuv uslubiga xosligi bilan farqlanadi? ***/// **daftar varaq**

2774.Daliliy ma’lumot, ilmiy xulosa, fikrning aniqligi, mantiqiy izchillik. Ushbu so’z birikmalari qaysi uslubga xos, undagi so’zlar o’zaro qanday birikkan? ***/// **ilmiy uslub**

2775. Endi istiqlol tug’ini zabardast qo’llarda mahkam ushlab, Vatan ravnaqi uchun kurashish eng oliy baxtdir. Ushbu gap qaysi uslubga xos? ***/// **publitsistik**

2776. Guvohnoma, nizom kabi hujjatlar qo’llanishi, maqsad va vazifasiga ko'ra qanday turdagi hujjat hisoblanadi? ***/// **tashkiliy hujjatlar**

2777. Har bir fan sohasining o‘ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday nomlanadi? ***/// **ilmiy uslub**

2778. Ijtimoiy-siyosiy atamalar qatlami qaysi uslubni shakllantiruvchi vositalar hisoblanadi? ***/// **publitsistik (ommabop) uslub**

2779. Ijtimoiy-siyosiy atamalar va atama birikmalari (fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, hukumat tangligi va h.k.) qaysi uslubni shakllantiruvchi vositalar sanaladi? ***/// **publitsistik uslub**

2780. Kinoya, qochirim, pichinglarga boy bo’lgan uslubni belgilang. ***/// **so’zlashuv**

2781. Makromatnga to’g’ri ta’rif bering. ***/// **Mazmuniy yaxlitlikka ega bo’lgan qo’shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og’zaki nutq parchasi**.

2782. Milliy mafkuraning negizlaridan biri- tilga bo‘lgan munosabatimizdadir. Til – millat vakillarini mustahkam birlashtiruvchi, tutib turuvchi belbog‘. Ushbu parcha qaysi uslub namunasi hisoblanadi? ***/// **publitsistik**

2783. Nastarin gullashi bilan qizlar undan "baxt" qidirishadi // niyati amalga osharmish. Ushbu gapda // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi qo'yiladi**?** ***/// **ikki nuqta**

2784. Nutq uslublariga xos xususiyatlar aks etgan javoblar mosligini belgilang. 1) badiiy uslub; 2) ilmiy uslub; 3) publitsistik uslub; 4) so'zlashuv uslubi; a) ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik; b) axborot uchun eng kerakli so'zlarni ishlatish, nutqiy vositalarni tejash va ortiqcha qo'llashga intilish; c) axborot berishdan tashqari, estetik ta’sir ko'rsatish vazifasini bajarish; d) fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish ***/// **1 – c; 2 – d; 3 – a; 4 – b** 2785. Publitsistik uslubning belgilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping. 1) muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo‘lishlik; 2) hozirjavoblik; 3) ta’sirchanlik; 4) fanning ma’lum sohasiga oid atamalarni keng qo‘llash ***/// **1,2,3**

2786. Qaysi fanlar uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi? ***/// **tarix, adabiyotshunoslik**

2787. Qaysi hujjatlarda gap kesimlari "tayinlansin", "topshirilsin" kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe’llar orqali ifodalanadi**?** ***/// **farmoyish hujjatlari**

2788. Qaysi javobda ilmiy uslub namunasi berilgan? ***/// **Ikkinchi darajali bo'laklar fikrni to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi.**

2789. Qaysi javobda publitsistik uslub naumnasi berilgan? ***/// **Milliy mafkura millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishga va himoya qilishga da'vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir.**
2790. Qaysi javobda publitsistik uslubga to'g'ri ta'rif berilgan? ***/// **ommaviy axborot vositalari uslubi**
2791. Qaysi javobda rasmiy uslub namunasi berilgan? ***/// **Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G.Mo'minov, haqiqatan ham, O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi.**
2792. Qaysi qatorda ilmiy uslubga xos gap berilgan? ***/// **Ega va kesim gapning grammatik asosi hisoblanadi.**
2793. Qaysi uslub asosini atama, ta'riflar, qoidalar tashkil etadi? ***/// **ilmiy uslub**
2794. Qaysi uslubda "muxbirimiz xabar berishicha", "elchixona xodimining so'ziga ko'ra", "muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi" kabi iboralar qo'llaniladi? ***/// **publitsistik uslub**
2795. Qaysi uslubda atamalar faqat bir ma'noda qo'llanib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi? ***/// **ilmiy uslub**
2796. Qaysi uslubda atamalar hamda deyiladi, ataladi, kifoya, zarur kabi so'zlar, mazmunan aniq, ravshan, qat'iy iboralar ishlatiladi? ***/// **ilmiy uslub**
2797. Qaysi uslubda barcha uslublarning elementlari namoyon bo'ladi? ***/// **badiiy**
2798. Qaysi uslubda nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yilishi mumkin? ***/// **so'zlashuv**
2799. Qaysi uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlandi kabi qoliplashgan so'z va so'z birikmalari keng qo'llaniladi? ***/// **rasmiy uslubda**
2800. Qaysi uslubda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanadi? ***/// **badiiy, so'zlashuv**
2801. Qaysi uslublar ham og'zaki, ham yozma shakllarga ega? 1)publitsistik uslub; 2) badiiy uslub; 3) rasmiy uslub; 4) ilmiy uslub; 5) so'zlashuv uslubi. ***/// **1, 2, 3, 4**
2802. Qaysi uslubni monografiya, ilmiy maqola, dissertatsiya, avtoreferat kabilar tashkil etadi? ***/// **ilmiy uslub**
2803. Quyida berilgan ish yuritish hujjatlaridan qaysilari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra xizmat yozishmalari hisoblanadi? ***/// **taklifnoma, telegramma, xatlar**
2804. Quyidagi hujjatlarning qaysi biri rasmiy uslubning diplomatik uslub turida yoziladi? ***/// **konvensiya**
2805. Quyidagi hujjatlarning qaysi birida da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi? ***/// **buyruq**

2806. Quyidagilardan qaysilari publitsistik uslubning yozma shakliga mansub? 1) ijtimoiysiyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar; 2) felyetonlar; 3) pamfletlar; 4) murojaatnomalar; 5) ilmiy xulosalar; 6) deklaratsiyalar; 7) chaqiriqlar. ***/// **l, 2, 3, 4, 6, 7**

2807. Rasmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlang. 1. ... ning belgisi qisqalik, soddalik, aniqlikdir. 2. ... atamalar, ta’riflar, qoidalar asosida ish ko‘radi. 3. ... da ibora va jumlalar bir qolipda bo‘ladi. 4. ... fan va texnika tili sanaladi. 5. ... da so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilmaydi. ***/// **1, 3, 5**

2808. Siz tiklagan Turonzamin halihanuz turadur, og‘a-ini turkiyingiz bir-birini suyadir. Ushbu parcha qaysi uslub namunasi hisoblanadi? ***/// **badiiy**

2809. Usluban noto‘g‘ri qo‘llangan so‘z qaysi qatorda berilgan? ***/// **paxta gulladi**

2810. Uslubiy betaraf so‘zlar berilgan qatorni toping. ***/// **so‘zlamoq, gapirmoq**

2811. Uslubiy betaraf so‘zlar qatorini belgilang. ***/// **yaxshi, qalam, keldi**

2812. Uslubiy xoslangan so‘zlar haqidagi to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **ayrim nutq uslubi doirasidagina qo’llanadigan so’zlar**

2813. Uslubiy xoslangan so‘zni belgilang. ***/// **nigoh**

2814. Yozma nutq haqida berilgan qaysi hukm noto‘g‘ri? ***/// **Yozma nutq og‘zaki nutq kabi kishilar o‘rtasidagi bevosita aloqa vositasidir.**

2815. “Shohnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Saddi Iskandariy” dostonlari qaysi xususiyati bilan o‘zaro mushtarak? ***/// har uchalasi bir xil vaznda yozilgan

2816. Adovat kishiga uch kishidan yetar // avval kishiga mol- dunyo tama qilmoq bo’lsa, ikkinchi xaloyiqdan izzat va ikrom tama qilmoq, shuningdek, xalq o’rtasida ma’qul bo’lmoqni tama qilmoqdir. Ushbu gapda // belgisi o’rniga qaysi tinish belgisi. ***/// **ikki nuqta**

2817. Agar sifatlovchi-aniqlovchi uyushgan bo‘lib, vergul bilan ajratilgan bo‘lsa, ajratilgan bo‘lak boshqa bo‘laklardan qanday ajratiladi? ***/// **tire bilan**

2818. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir // agar oshkor bo‘lsa, sen siringni asirisan. Ushbu gapda // belgisi o‘rniga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **vergul**

2819. Ahmad va sen – ikkovingiz ertaga vaqtli kelingiz. Ushbu gapda nima uchun tire qo‘yilgan? ***/// **uyushiq bo‘laklardan so‘ng umumlashtiruvchi so‘z kelganligi uchun**

2820. Ajratilgan bo‘lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **tire**

2821. Alisher Navoiyning quyidagi baytida qo‘llangan badiiy san’atni belgilang.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u, kelmadi. ***/// **tazod**

2822. Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon// O‘zbekning chamani, bog‘u bo‘stoni.

(G‘.G‘ulom) // o'rniga qanday tinish belgisini qo'yish kerak**?** ***/// **tire ko‘p nuqta**

2823. Arabcha so‘zdan olinib “uy” degan ma’noni bildiruvchi atamani belgilang. ***/// **bayt**

2824. Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas balki es-hushi va kasbhunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. Gapda qaysi so'zlardan so'ng vergul qo'yilishi kerak? ***/// **do'stlar, emas**

2825. Bandlardagi misralarning soniga ko‘ra musammatlarning nechta turi bor? ***/// **8 ta**

2826. Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko'rsatilgan? Birov sening aybingni yuzingga aytsa so‘zini qaytarma chunki u sening uchun ko'zgudir ko'zgu xira bo‘lib qolsa boshqa aybingni ko'rsatadimi ***/// **vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so'roq belgisi**

2827. Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? Qiz avval qo‘rqdi uning Sidiqjon bilan so‘zlashib turganini emas bog‘ga tushganini bilsa ham terisiga somon tiqadi bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi keyin yangi olamga kirib otasining qamchisini ham jingul ostida pisib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. ***/// **vergul, vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta** 2828. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi // yuragim gursullagancha o‘rnimdan turib ketaman. Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi? ***/// **vergul**

2829. Bog‘lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart munosabatlari ifodalanganda, ular orasida qanday tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **tire**

2830. Bor so‘zni so‘z sanab tebranmasin til

Ko‘rib o‘ylab so‘zla keragini bil. (So‘fi Olloyor) Nechta o'rinda vergul ishlatilishi kerak? ***/// **3**

2831. Bor so'zni so'z sanab tebramnasin til

Ko'rib o'ylab so'zla keragini bil. (So'fi Olloyor) Nechta o'rinda vergul ishlatilishi kerak? ***/// **3**

2832. Bora-bora shunga odatlanib qoldim // hamma darsdan a’lochi bo‘ldim. Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi? ***/// **ikki nuqta**

2833. Bu dunyoda uning qo’lidan kelmaydigan ish yo’q // duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik- hammasini eplaydi. Ushbu gapdagi // belgisi o’rniga qaysi tinish belgisi qo’yiladi? ***/// **ikki nuqta**

2834. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir // tun yarmidan og‘ganda birdan uyg'onib ketasiz. Ushbu gapda // belgisi o‘rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **ikki nuqta**

2835. Faqat bitta shartim bor menga xo’jayinlik qilmaysiz dedi yana qanday hohlasam shunday yashayman. Gapda qo’llaniladigan tinish belgilarining

to’g’ri tartibini aniqlang. ***/// **qo’shtirnoq, ikki nuqta, vergul, tire, vergul, tire, vergul, qo’shtirnoq, nuqta**

2836. Gapda quyidagi qaysi yordamchi so‘zlardan oldin vergul qo‘yiladi? ***/// **ya’ni**

2837. gapda vergul so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun qo'llanmagan?

***/// **Uka, o‘qishning erta-kechi bo'lmaydi.**

2838. Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda quyosh boshoqlar paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuv tillarangda g'o'za shoxlari va barglar vodiylar yashil rangda tog'lar havorangda chanoqdagi paxta daryolar. yarimoy va yulduz oq rangda beriladi. Ushbu gapda nechta o'rinda nuqtali vergul qo'llaniladi? ***/// **3 o'rinda**

2839. Hamma sizning tarafingizda chunki mana buni bajaruvchi siz. Ushbu gapda qanday tinish begilari ishlatilishi kerak? ***/// **vergul, tire, nuqta**

2840. Hayhotday hovli fayzsiz daraxtlar ostini o‘t-o‘lan bosgan hovlining etak tomonidan bir juft yirik-yirik qarg‘a loqayd kezib yuribdi. Berilgan gapda qanday tinish belgilari tushirib qoldrilgan? ***/// **nuqtali vergul, vergul**

2841. Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik g‘oyalar tashuvchi og‘zaki hikoyalar nima deyiladi? ***/// **ertak**

2842. His-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan, ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, o‘lchovli, ta’sirchan ritmik nutq nima? ***/// **She’r**

2843. Ilm ikki xil bo’ladi // biri // qalbdagi ilm // ikkinchisi // tildagi ilm. Ushbu gapda // belgisi o’rnida qaysi tinish belgilari qo’llanishi lozim? ***/// **ikki nuqta, tire, vergul, tire**

2844. Ishlatilishi odat tusiga kirmagan kesatiq, piching, do‘q-po‘pisa ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar qo‘llanishida qanday tinish belgisi ishlatiladi? ***/// **qo‘shtirnoq**

2845. Javoblarning qaysinisida hajmi katta janr ko‘rsatilgan? ***/// **doston**

2846. Jismimiz yo‘qolur

O’chmas nomimiz kabi zid ma’noli gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **tire**

2847. Kelinga ko‘zimiz tushdi // yumaloq qip-qizil loladay yuzli, ko‘zlari uchqunli, yaxshigina,

go‘zalgina qiz. Ushbu gapda // belgisi o‘rniga qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **ikki nuqta**

2848. Ko’z bila qoshing yaxshi, qabog’ing yaxshi, Yuz bila so’zing yaxshi, dudog’ing yaxshi,

Eng bila menging yaxshi, sadog’ing yaxshi,

Bir-bir ne deyin, boshdin ayog’ing yaxshi. (A.Navoiy) Ushbu ruboiyda qo’llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tanosub**

2849.Kovushini to’g’irlab qo’yish kerak // qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. Berilgan // belgisi o’rniga qaysi tinish belgisi qo’yiladi? ***/// **ikki nuqta**

2850.Kurashda bir tabiat qonuni bor // polvon davrada mag‘lub bo‘lsa, taqdirga tan berib ketmaydi. Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qaysi tinish belgisi qo‘llanadi? ***/// **ikki nuqta** 2851. Kurashda bir tabiat qonuni bor polvon davrada mag‘lub taqdirga tan berib ketmaydi. Berilgan gapda qanday tinish belgilari tushirib qoldirilgan? ***/// **ikki nuqta, vergul, vergul**

2852. Lekin avtor shu kichkina hikoyada katta ish qiladi o‘quvchining ko‘z oldiga odamning havasi keladigan har qanday kishining muhabbatini o‘ziga qaratadigan har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o‘zining jafokashligi g‘ayrati farosati el-yurt uchun qayg‘urishi bilan sazovor bo‘lgan bir chol keladi. Ushbu gapda nechta vergul qo’yiladi? ***/// **5 ta** 2853. Lekin me’morning avvalo raiyat qolaversa saltanat oldidagi mavqeyi Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko‘rishga yo‘l qo‘ymas edi.

(Mirmuhsin). Berilgan gapda qo‘yiladigan vergullar nima bilan bog‘liq? ***/// **kiritma, uyushiq bo‘lak**

2854.Matn ichida alohida ta’kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so‘zlardan keyin qavs ichida qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **undov belgisi**

2855.Men yetim o'sganman oh u yetimlik Voy bechora jonim desam arziydi. (G‘.G‘ulom) Berilgan gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini tiklang? ***/// **vergul, nuqta, vergul, undov**

2856.Mumtoz she’riyatda “begona bayt” tushunchasi nimani anglatadi? ***/// **maqta’dan oldingi bayt**

2857.Na kecha na kunduz beradi tinchlik,

Yoz deydi azizim ma qalam daftar! Ushbu gapda qo’yilishi kerak bo’lgan vergullar soni to’g’ri berilgan qatorni toping. ***/// **6 ta**

2858.Navbahor(l) ochildi gullar(2) sabza bo'ldi bog'lar(3)

Suhbat aylaylik(4) kelinglar(5) jo'ralar(6) o‘rtog‘lar(7) (Muqimiy) Ushbu parchada qavs ichidagi raqamlar o'rniga qaysi tinish belgilari qo'llanishi lozim? ***/// **1 – ikki nuqta, 2 – vergul, 3 – vergul, 4 – vergul, 5 – vergul, 6 – vergul, 7 – nuqta**

2859.Nodon aytur // g'olib chiqdim // dono aytur // yo‘l berdim. Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qanday tinish belgilari qo‘llanadi? ***/// **ikki nuqta, vergul, ikki nuqta**

2860.O’zbek yozuvida ko‘p nuqta tinish belgisi sifatida qachondan boshlab ishlatilgan? ***/// **XIX asrning ikkinchi yarmidan**

2861.O’zbek yozuvida qavs tinish belgisi sifatida qaysi davrdan boshlab ishlatilgan? ***/// **XIX asrning oxirgi choragidan**

2862.Olamni quyosh yoritadi, insonni - ilm. Berilgan qo'shma gapda tire qo'yilishining sababi qayd etilgan to'g'ri javobni belgilang. ***/// **Ikkinchi qismida kesim tushirilganligi sababi tire qo'yiladi**

2863. O'zbek tilidagi matnlarda vergul qaysi davrdan boshlab ishlatilgan? ***/// **XX asr boshlari**

2864. O'zbekcha matnlarda qo'shtirnoq qachondan boshlab ishlatilgan? ***/// **XIX asrning 80-yillaridan**

2865. O'zbekcha matnlarda tire qachondan boshlab ishlatilgan? ***/// **XIX asrning 70yillaridan**

2866. O'zbekiston Vatanim manim (A.Oripov) Ushbu gap oxirida tinish belgilari qay tarzda qo'yiladi? ***/// **Qavsga olingan manbadan oldin nuqta qo'yilib, qavsdan so'ng tinish belgisi qo'yilmaydi.**

2867. Qanday asarlarda lirik qahramon kechinmalari beriladi? ***/// **she’riyatda**

2868. Qaysi gapda ikki nuqta noto’g’ri qo'llangan? ***/// **Daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan: hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi.**

2869. Qaysi gapda tinish belgisi noto'g'ri qo'llanilgan? ***/// **Bora-bora shunga odatlanib qoldim – hamma darsdan a’lochi bo’ldim.**

2870. Qaysi gapda tire bog'lovchisiz qo'shma gap orasida qo'llangan? ***/// **Vaqting ketdi — baxting ketdi.**

2871. Qaysi gapda tire noto’g’ri qo’llangan? ***/// **Har narsaga qiziqish biz uchun – eski odat.**

2872. Qaysi gapda tire to‘g‘ri qo‘llanilgan? ***/// **Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi — shu.**

2873. Qaysi gapda vergul qo'shma gap qismlari orasida qo'llangan? ***/// **Bu gaplarimdan cho'chimang, qo'rqmang, hali boshingizda ne savdolar bordir.**

2874. Qaysi hukm noto‘g‘ri? ***/// **Ega bilan kesim bu, u, mana bu so‘zlari bilan ajratilganda tire ishlatilmaydi.**

2875. Qaysi javobda mumtoz adabiyot janrlari ko‘rsatilgan? ***/// **Tuyuq, g‘azal, ruboiy**

2876. Qaysi olim qo‘shtirnoqni amaliyotga tatbiq etgan? ***/// **A.A.Barsov**

2877. Qaysi qatorda ega va ot kesim orasida tire qo‘yilishi lozim? ***/// **Urush // quyon ovi emas**

2878. Qaysi qatordagi gapda ega bilan kesim orasida tire qo'yiladi? ***/// **Bilim va hunar egizak.**

2879. Qaysi qatordagi gapda tire to‘g‘ri qo'llangan? ***/// **Qodir, Aziz, Nodir – hammasi sinfimizning a’lochilari hisoblanadi.**

2880. Qaysi qaysi qatordagi inversiya tinish belgilariga ham ta’sir qilgan? ***/// **Kamalakdek rango-rang bo'lsin deb, san’at, tillar, asrlarcha qildim jang.**

2881. Qaysi she’riy shaklda voqea-hodisalarni epik ko‘lamda aks ettirish imkoni kuchli**?** ***/// **masnaviy**

2882. Qissa hayot hodisalarini badiiy qamrash ko’lami nuqtayi nazaridan epik janrning qaysi shakliga mansub? ***/// **o‘rta epik janr**

2883. Qiz uni ushlab olgani urindi// juda qiynalib ketdi// qo‘llariga tikan kirdi// yuzi va bilaklari tirmalandi. Belgilar o‘rniga qanday tinish belgilari qo'yiladi? ***/// **vergul, ikki nuqta, vergul**
2884. Qo‘shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo‘lmagan voqealarni bildirsa, ular orasida qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **nuqtali vergul**
2885. Qo'shma gaplarning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa qanday tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **nuqta**
2886. Quyida berilgan gapda nechta o‘rinda vergul ishlatilishi kerak? Respublikamiz hayotida muhim bir voqea yuz bersa biz sabrsizlik bilan Abdulla Qahhor nima der ekan deb kutardik ustoz yozuvchi albatta hammani hayratga soladigan ko’pchilikka ma’qul bo’ladigan bir gapni aytardi**.** ***/// **5**
2887. Quyida berilgan gapda vergulning ishlatilishi qanday so'zlar bilan bog‘liq? To‘g‘ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg’izlanib qolish, ming bir ta’nalarni eshitishdan ham qo‘rqdim, shekilli. (Sh.Xolmirzayev) 1) ajratilgan bo‘lak; 2) uyushiq bo!lak; 3) kirish so‘z ***/// **2, 3**
2888. Quyida berilgan javoblarning qaysi birida tinish belgisini qo‘yish bilan ma’noda o‘zgarish yuz beradigan (yangi ma’noli gaplar hosil bo‘ladigan) gaplar to’liq ko'rsatilgan? 1) Bu gaping yomon bo‘lmadi. 2) Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko‘rmaydi. 3) To‘g‘ri yo'llarda ham mashaqqat bor. 4) Gullar chiroyli stolni bezab turibdi. ***/// **1, 2, 3, 4** 2889. Quyidagi baytda mumtoz adabiyotimizga xos qanday she’riy san’at qo‘llangan? “She’rdin topmog‘lig‘ig‘a Sanjaru Sulton Husayn Nomi boqiy – Anvariy birla Navoiydir guvoh.” ***/// **talmeh**
2890. Quyidagi berilgan gaplarning qaysi birida vergul ishlatiladi? ***/// **Pazandasi yopadi shirmon Qarilari kutadi mehmon.**
2891. Quyidagi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo’yilishi kerak? Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar // qizlar maktab hovlisini supurdilar. ***/// **vergul**
2892. Quyidagi gapda // belgilari o'rnida qanday tinish belgilar qo'yish kerak? Yaxshi so'z // jon ozig'i, yomon so‘z // bosh qozig'i. (Maqol) ***/// **tire va tire**
2893. Quyidagi gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo‘llanadi? Tinish belgisining qo‘yilish sababini aniqlang. O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar // axloqiy teranlik, mehr-oqibat ulug'lanib kelingan. ***/// **Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelganligi uchun ikki nuqta qo'yiladi.**
2894. Quyidagi gapda nechta vergul qo'llanilishi kerak? O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar do'stlik mehr-oqibat odamgarchilik axloqiy teranlik ulug‘lanib kelingan. ***/// **3 ta**

2895. Quyidagi gapda qaysi so‘zlardan keyin vergul qo‘yilishi kerak? Yo‘q faqat meni bilishmaydi lekin boshqalarni jumladan seni ham yaxshi bilishadi. ***/// **yo‘q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan**

2896. Quyidagi gapda uyushgan bo’lak va umumlashtiruvchi qism orasiga qanday tinish belgilari qo‘yiladi? Oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo‘shni o‘g‘ilqizlarni ham, ko‘cha-ko‘ydagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi. ***/// **uyushgan bo'laklardan keyin tire, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul qo'yiladi.**

2897. Quyidagi gapdagi ko'rsatish olmoshidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi? Aziz vatandoshim, bu sening imzong. ***/// **tire qo'yiladi**

2898. Quyidagi gaplarning qaysi birida vergul ajratilgan bo‘laklarni ajratish uchun qo‘llanilmagan? ***/// **Illat izlaganga illatdir dunyo, G’urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo.**

2899. Quyidagi gaplarning qaysinisida tinish belgilari to‘g‘ri qo‘yilmagan? ***/// **O’n yil! O’n yildan beri kasal ekanmi!?**

2900. Quyidagi qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi? El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat. ***/// **vergul**

2901. Quyidagilardan qaysi biri roman janrida yozilmagan? ***/// **“Jar yoqasidagi chaqmoq”**

2902. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **vergul**

2903. She’rning o‘zaro qofiyalangan to‘rt va undan ortiq misradan tashkil topgan bo‘lagi nima deyiladi? ***/// **band**

2904. Siz (1) o‘z xalqingiz Vataningiz, millatingizning ko‘z qarog‘larisiz (2) ammo unutmang

(3) tanbal (4) daqqi (5) bezori kishi ma’naviy nogiron (6) degan so’z. Berilgan gapda qaysi o‘rinlarda tinish belgilari ishlatiladi. ***/// **1, 2, 3, 4, 5**

2905. Suhbatdoshlarning gapi javobsiz qoldirilganda yozuvda qanday tinish belgisi qo'yiladi?

***/// **ko’p nuqta**

2906. Sulton Abu Said otasining ketidan quvmadi // uch kun Sherozda qolib ketdi. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi tinish belgisi qo'yiladi? ***/// **tire**

2907. Tajnis san’ati nima? ***/// **omonim so‘zlar vositasi bilan original so‘z o‘yinlari yasash**

2908. Tinish belgilarini qo’llash bilan bog’liq xatoga yo’l qo’yilgan javobni toping. ***/// **Shu fe’llari yaxshi; hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.**

2909. Tinish belgilarining qo'llanishi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri? ***/// **Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng nuqtali vergul ishlatiladi.**

2910. Tire qaysi gapda noto‘g‘ri qo'yilgan? ***/// **Bu qovun – shirin.**

2911. Toshkentda "Mustaqil O’zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari" mavzusida uchinchi an’anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiya bo’lib o’tdi. Ushbu gapda nima uchun ikki nuqta ishlatilgan**?** ***/// **uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida**

2912. Turkiston o‘lkamiz vodiylari (?) sahrolari keng (?) tog’lari buyuk (?) aholisi turk (?) o‘zbekdir. (?) belgisi o‘rniga qo’yiladigan tinish belgilarini toping**.** ***/// **vergul, vergul, nuqtali vergul, tire**

2913. U oppoq soqoli bilan farzandlarini ham. nevaralarini ham. qo‘shni o‘g‘il-qizlarni ham. ko‘cha-ko‘ydagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi. Ushbu gapda umumlashtiruvchi so‘zdan oldin qanday tinish belgisi qo‘yilishi kerak? ***/// **vergul**

2914. UIug‘bek rasadxonasida — bir paytlari bu yerdan turib ulug‘ bobomiz osmon ilmini o‘rgangan edi — katta ko‘lamda ta’mirlash ishlari boshlab yuborildi. Tirening qo‘yilish sababi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan? ***/// **gapda kirish gap (kiritma) bo'lgani uchun**

2915. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida turli xil rasmiy ma’lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan so‘ng qanday tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **ikki nuqta**

2916. Uyushiq bo‘laklar gruhlanib, vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yiladi? ***/// **nuqtali vergul**

2917. Vasldin so‘z derga yo‘q yoro manga,
Hajr aro rahm ayla, yoro,
manga O’qung etti xo‘p
yamon yoro manga,
Marhami lutfing bilan
yoro manga.

Bobur qalamiga mansub bo‘lgan ushbu tuyuqdagi omonimlar qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **1) quvvat, mador; 2) ey yor; 3) yara-jarohat; 4) yaramoq**

2918. Vergul tinish belgisi sifatida qayerda va qachondan boshlab yozma nutqqa kiritilgan?

***/// **G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab qo'llangan**

2919. Voy-bo’ deb yubordi u Yerimiz muncha chiroyli Globusning o‘zginasi-ya (N.Fozilov) Berilgan gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini tiklang. ***/// **vergul, tire, nuqta, tire, undov, undov**

2920. Yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxirida... ***/// **nuqtali vergul qo‘yiladi**

2921. Yaxshi xislati bor// oppoq soqoli bilan farzandlarini ham// nevaralarini ham// qo’shni o’g’il qizlarni ham// kocha-ko’ydagi begona bolalarni ham// xullas// barchani sizlab gapirardi. Ushbu gapdagi // belgilari o’rniga mos tinish belgilarini qo’ying**.** ***/// **ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul**

2922. Yaxshi xislatlari bor oppoq soqoli bilan farzandlarini ham nevaralarini ham qo‘shni ko‘chadagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi. Berilgan gapda qo‘yilishi kerak bo‘lgan tinish belgilari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta**

2923. yillarning o’rtalarida bolaligimni o’ylaganimda chalakam-chatti tush ko’rganday edim dumli yulduz chiqqan edi Babar Bobur bo’lsa kerak degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o’lmagan edi...Ushbu gapda qo’yilishi kerak bo’lgan tinish belgilarini aniqlang**.** ***/// **ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs**

2924. Yozuvda qaysi bog‘lovchilardan oldin vergul qo'yiladi? ***/// **lekin, ya’ni, balki, chunki, negaki**

2925. Yulduzlarni xayolida har xil ranglarga bo‘yab ko‘rdi // yulduzlar o'z rangida miltillab turaverdi. Ushbu bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi? ***/// **vergul**

2926. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o’zini eng avvalo O’zbekiston fuqarosi deb shundan keyingina muayyan hudud vakili aytaylik xorazmlik samarqandlik yoki Farg’ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (I.Karimov) Ushbu gapda necha o’rinda vergul qo’llanilishi lozim**?** ***/// **6**

2927. "... maqol-matallar bejizga paydo bo‘lmagan, ular ham ma’lum bir haqiqatning ifodasi", degan fikrlar kimning qaysi asarida keltirilgan? ***/// **Islom Karimov, "Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch"**

2928. "... tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'. Ro‘zg‘orda bo'lsa, ko‘z ko'rib, qo‘l tutguday arzigulik buyura qolgani yo‘q. Bir chekkadan sotib eb turibmiz. "Turib yeganga turumtog’ chidamas", deganlar. Zamon qattiq ... bolam, zamon qattiq!" Ushbu parcha qaysi adibning asaridan olingan? ***/// **G'afur G'ulom**

2929. "Gulliverning sayohatlari" asarida "Ohu" kemasining kapitani kim edi? ***/// **Vilyam Prichard**

2930. "Gulliverning sayohatlari" asarida Gulliverning liliputiya tilida o'rgangan dastlabki jumlasi qanday ma’noni ifodalar edi**?** ***/// **ozod etishlarini so'rash istagi**

2931. "Gulliverning sayohatlari" romanida olimlar mamlakati ... deb ataladi. ***/// **Laputa**

2932. "Kichkina shahzoda" ertagidagi (Antuan de Sent-Ekzuperi) asteroidlar aslida nimaning ramzi? ***/// **odamlarga xos fazilat va nuqsonlarning**

2933. "Muqimiy bayozi" deb nomlangan Muqimiyning asarlari jamlangan to'plam kim tomonidan tuzilgan? ***/// **G'afur G'ulom**

2934. "Nur qidirib" asarining muallifi kim**?** ***/// **Oybek**

2935. "She’rim! Yana o'zing yaxshisan,

Boqqa kirsang gullar sharmanda" misralari bilan boshlanuvchi she’rni kimni yozgan**?** ***/// **Usmon Nosir**

2936."Sher va Durroj" masalida qanday g'oya ifodalangan? ("Hayrat ul-abror" dostoni) ***/// **yolg'on so'zlashning yomon oqibat keltirishi**

2937."Susambil" ertagidagi bo'rilarning taqdiri nima bilan tugaydi? ***/// **yetti tog'ning narigi yog'iga qochib ketishibdi** 2938. "Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko‘paydi.

Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi... " Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **O'. Hoshimov "Urushning so‘nggi qurboni"**

2939. "Uch og‘a-ini botirlar" ertagida botirlarga tortilgan nonni kim tayyorlagan edi? ***/// **podshoh**

2940. "Uch og‘a-ini botirlar" ertagida dastlab ikki dona yashartiruvchi mevani kimlarda sinab ko‘rishadi? ***/// **zindondagi 2 nafar odamda**

2941. .Rodarining "Uchtadan oxiri bor ertaklar" turkumiga kirmagan ertagini toping. ***/// **"Osmondagi tort"**

2942. “Gulliverning sayohatlari” asarida liliputlar nega ibodatxonaga kirmay qo‘ygan edilar? ***/// **qotillik yuz bergani uchun** 2943. “O’lim” deyish mumkinmi axir,

Yengib o’tgan bunday o’limni? Ushbu she’riy misralar qaysi shoirning butun hayoti va ijodiga qo'yilgan go‘zal badiiy obidadir? ***/// **Musa Jalil**

2944.“Oygul bilan Baxtiyor” ertagida xon qayerda qo‘lga olinadi? ***/// **og‘ilda**

2945.“O'zbegim” qasidasida muallif Erkin Vohidov “Ko‘ksim osmon, o’zbegim” deya yakunlangan bandda qaysi shoirlar nomini tilga, olgan? ***/// **Pushkin, Bayron, Navoiy**

2946.“Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdir”. Ushbu parcha qaysi ertakdan olingan? ***/// **“Uch og‘a-ini botirlar”**

2947.“Safarga ketayotganda ko‘plab kitob olar va bo‘sh vaqtlarimni qadimiy hamda yangi eng yaxshi yozuvchilarning kitoblarini o‘qishga bag‘ishlardim, qirg‘oqqa chiqqanda esa yerli aholining urf-odatlarini kuzatardim, tillarini o‘rganardim...” Parcha qaysi asardan olingan? ***/// **J. Svift, “Gulliverning sayohatlari”**

2948.“Uch og‘a-ini botirlar” ertagida bog‘bon uzum o‘g‘irlayotgan o‘g‘rini qanday o‘ldiradi? ***/// **shashvar to‘qmoq bilan boshiga uradi**

2949.“Zulmat ichra nur” asarida Alisher Shohrux mirzoning o‘limi haqida kimdan eshitadi? ***/// **tog’asidan**

2950.“Zulmat ichra nur” asarida bid‘at va xurofotdan yiroq, sog‘lom fikrli kishi kim edi? ***/// **Kichkina Bahodir**

2951.“Zulmat ichra nur” asarida xipcha bel, yag‘rini keng, qirg'izqovoq qahramon kim? ***/// **Husayn Boyqaro**

2952.«Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasida qora buvi kimni «bola-chaqasining egiligini ko‘rsin» deya alqaydi? ***/// **ellikboshi Rahmonxo‘jani**

9) "Qishloq bolalari"; 2) "Oq bayroqlar" 3) "Quyosh kechasi" 4) "Men, buvim, Iliko va Illarion"

5) "Quyoshni ko’ryapman" 6) "Abadiyat qonuni" 7) "Kukaracha" Berilgan asarlardan Nodar Dumbadzening romanlarini aniqlang. ***/// **2, 3, 4, 6**

2953. 926-1930-yillarda “Mushtum” jurnalida chop etilgan felyeton, hikoya, hajviy asarlari ostiga Abdulla Qahhor qanday taxallus qo‘yar edi? ***/// Norin shilpiq, Sarimsoq

A. Muxtorning bolalarga bag'ishlangan hikoyalar to‘plamini aniqlang. ***/// **"Hayotga chaqiriq ”**

2954. A.Qahhorning "O'g’ri" hikoyasida bitta kulangir, bitta farang tovuq, uch so‘m pul qaysi arbobga pora sifatida beriladi? ***/// **pristavga**

2955. A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida qaysi amaldor amalga erishish uchun mingboshining o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergan? ***/// **ellikboshi**

2956. G‘.G‘ulomning qaysi she’rida Odess dahshati, Kerch fojiasi tilga olinadi? ***/// **"Sen yet ini emassan"**

2957. G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **"Netay", "Tirilgan murda", "Yodgor"**

2958. Haqorat yemrilur, Zulm yanchilur, Jahonda bo’lurmiz

Ozod, muzaffar. Ushbu mashhur misralar G’afur G’ulomning qaysi she’ridan olingan? ***/// **"Sen yetim emassan"**

2959. Har qanday zamonda ham insonning qadri oddiy ashyolardan baland turadi, har qanday davrda ham kimgadir yaxshilik qilish eng go'zal fazilat bo'lib qolaveradi, degan fikr qaysi asarda ilgari surilgan? ***/// **"Shahzoda Plombir"**

2960. Iskandar Zulqarnayn haqida doston yozmagan ijodkorni belgilang. ***/// **H.Olimjon**

2961. J.Rodarining qaysi ertagi zamonaviyligi bilan ajralib turadi? ***/// **"Shahzoda Plombir"**

2962. Jonatan Svift qaysi xalq adibi? ***/// **ingliz**

2963. Karim qori degan chitfurush, Odilxo’jaboydegan pudratchi, Matyoqubboy degan ko’nchi nomlari qaysi asarda uchraydi? ***/// **“Mening o’g’rigina bolam”**

2964. M.Osimning "Zulmat ichra nur" asarida Alisherning tog'alari qaysi podshoning betobligi va vafoti haqida gaplashib o'tirishar edi? ***/// **Shohrux Mirzoning**

2965. M.Osimning "Zulmat ichra nur" qissasida "bid’at va xurofotdan yiroq, sog'lom fikrli kishi" deb ta’riflangan qahramon kim**?** ***/// **G'iyosiddin Kichkina**

2966. Maqsud Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi she’riy to'plamlarini yaratgan? ***/// **"Jang va qo'shiq", "Kapitan Gastello", "Jaloliddin Manguberdi", "Kurash nechun"**

2967. Masalchilar haqida keltirilgan qaysi ma’lumotlar to‘g‘ri? 1. Fedr Ezop masallarini lotin tiliga she’riy yo‘l bilan o‘girgan. 2. Babriy Ezop masallarini lotin tiliga she’riy yo‘l bilan o‘girgan. 3. Lessing germaniyalik masalchi bo‘lib, XVIII asrda yashagan. 4. Lafonten fransiyalik masalchi

bo‘lib, XVII asrda yashagan. 5. Gellert fransiyalik masalchi bo‘lib, XVIII asrda yashagan. ***/// **1,4,5**

2968. Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasida Farididdin Attorning hayotini bir qop somon berib qutqarib qolgan dehqon haqidagi hikoyatni kim kimga aytib beradi? ***/// **Navoiy Boyqaroga**

2969. Muqimiy «Sayohatnoma»sida keltirilgan qaysi qishloqlar nomi A.Qahhor tarjimayi holida ham uchraydi? 1) Buvayda;2) Yayfan; 3) Oqqo’rg‘on; 4)Qudash; 5) Olqor ***/// **2, 4**

2970. Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish va chop etishga kim boshchilik qilgan? ***/// **G'.G'ulom**

2971. Muqimiy ijodiga tegishli asarlarni belgilang. ***/// **“Maskovchi boy ta’rifida”,**
**“Tanobchilar”**

2972. Muqimiyning "Sayohatnoma" asarida qaysi joy firdavs bog'iga o'xshatiladi? ***/// **Roshidon**

2973. Musa Jalilning "Maobit daftari" she’riy to'plamini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan? ***/// **Mamarasul Boboyev**

2974. N. Dumbadzening zamonaviy mavzudagi qaysi asarlarida insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlar ulug‘langan? ***/// **"Oq bayroqlar", "Quyosh kechasi"**

2975. Navoiyning "Hiloliya" asari kimga bag‘ishlangan? ***/// **Husayn Boyqaroga**

2976. Nechun Vatan deya yer-u osmonni, Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida, dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydirni o’zga elda yo? Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **Abdulla Oripov**

2977. Nima uchun J.Svift "Gulliverning sayohatlari" asarida dunyo xaritasida yo‘q mamlakatlarni tasvirlaydi? ***/// **adib yashagan davrda tanqidiy fikr bildirish xavfli bo'lgani uchun**

2978. Nodar Dumbadzening qaysi asarlarida Ikkinchi jahon urushi yillarida gruzin qishloqlaridagi og’ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o’xshamaydigan taqdir egalari obrazi aks etgan? ***/// **"Quyoshni ko’ryapman", "Men, buvim, Iliko va Illarion"**

2979. O’tirg’il och-u bechora, yalang’och
Vale nokasga aslo bo‘lma muhtoj. Misralar muallifini toping. ***/// **Sa’diy Sheroziy**

2980. O’z hikoyalarida xalq maqollariga eng ko‘p murojaat qiluvchi adib kim? ***/// **A. Qahhor**

2981. O’zbek adabiyotida "Sayohatnoma"lar yaratgan shoir(a)larni aniqlang. ***/// **Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliy**

2982. Oybekning "Navoiy" romanida keltirilishicha, Alisher to'rt yoshlarida mehmonlarga kimning baytini biyron tili bilan o'qib beradi? ***/// **Mirzo Qosim Anvariy**

2983. Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida uchta tovuq, yuzta tuxum kimga pora sifatida beriladi? ***/// **tilmochga**

2984. Qaysi asar qahramonlari tuxumni qaysi tomonidan chaqish kerakligi haqida bahslashadilar? ***/// **“Gulliverning sayohatlari”**

2985. Qaysi asarda dunyo xaritasida yo'q mamlakatlar tasvirlanadi? ***/// **"Gulliverning sayohatlari"**

2986. Qaysi asarda hamma kasblarmng ham bozori kasod bo‘lgani haqida gap boradi? ***///

**«Mening o'g'rigina bolam»**

2987. Qaysi asarda juda jo‘n bo'zdan to‘n kiyadigan adolatli podsho haqida hikoyat bor? ***///

**«Bo'ston»**

2988. Qaysi dostonlar E.Vohidov qalamiga mansub? ***/// **"Nido", "Quyosh maskani"**

2989. Qaysi ijodkor birinchi haftalik gazeta - "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati"ga asos solgan? ***/// **A. Muxtor**

2990. Qaysi ijodkor otasining o’limidan keyin moddiy yetishmovchilik tufayli bolalar uyiga topshiriladi? ***/// **Asqad Muxtor**

2991. Qaysi ijodkor XX asr boshlarida o‘zbek xalqi har jihaldan og’ir ijtimoiy jarayonni boshidan kechirayotganligi, johillk bilan butun jamiyatni, kishilar ongi-yu shuurini butunlay qamrab olgani holatini millat "tanasidan qon oldirgan bemor" holida deb la'riflaydi? ***/// **Hamza**

2992. Qaysi javobda Erkin Vohidov qalamiga mansub dostonlar berilgan**?** ***/// **“Orzu chashmasi”, “Quyosh maskani”**

2993. Qaysi javobda shoir Hamid Olimjonning ilk she’riy to‘plami ko‘rsatilgan? ***///

**“Ko‘klam”**

2994. Qaysi o'zbek shoiri yosh qalamkash do'stlariga bag'ishlab "Kipriklarim" she’rini yozadi? ***/// **Mirtemir**

2995. Qaysi qatorda ertaklarning qisqa boshlanmasiga misol keltirilgan? ***/// **"Sizga bog' bo'lsin, bizga**... "

2996. Qaysi qatorda ertakning tugallanmasiga misol keltirilgan? ***/// **“Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y berib ...”**

2997. Qaysi qatorda Maqsud Shayxzoda to‘plamlarining nomi to‘g‘ri berilgan? ***///

**"Kapitan Gastello", "Chorak asr devoni", "Kurash nechun "**

2998. Qaysi shoir o’z bolaligini «gul bog‘larni ko‘rolmagan, g‘arib bo‘lib mungshib yurgan ko‘chalarda» deya eslaydi**?** ***/// **Usmon Nosir**

2999. Qaysi shoir qamoqxonaning tikanli simiga kelib qo‘ngan erkin qushchaga murojaat qilib:

"Uch qushcha, hur
qo‘shig‘im bo‘lib! Shudir
sendan so'nggi tilagim.

Tanim qolsin bunda (Tan nima?)

Ona yurtga borsin yuragim", deb yozadi? ***/// **Musa Jalil**

3000. Qaysi shoir Yo'ldosh Oxunboboyevning to'rtinchi kotibi bo‘lib ishlagan? ***/// **Mirtemir**

3001. Qaysi so’zlar tarkibida ikkitadan so’z yasovchi qo’shimcha ishtirok etgan? 1) sug’urtalash; 2) insoniylik; 3) tekislash; 4) bilimdonlik; 5) aqllilik ***/// **2,5**

3002. Quvonch bilan o‘lim yonma-yon tasvirlangan, insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydigan, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma’rifatga, ma’naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasi ilgari surilgan asar qaysi? ***/// **A.Qodiriy; "Uloqda" hikoyasi**

3003. Quyida berilgan parcha qaysi asardan olingan? “ Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz**”.** ***/// **G‘. G'ulom “Meniug o'g'rigina holam “** 3004. Quyidagi hikmat muallifini toping.

Fildek zo'r bo'lsang, sherdek urishqoq,

Nazdimda jangdan sulh ming bor afzalroq.

***/// **Sa’diy Sheroziy**

3005. Quyidagi qaysi asarda o‘g‘rini insofga keltirgan, uning ko‘ngliga yo‘l topgan qari buvi obrazi tasvirlangan. ***/// **"Mening o’g’rigina bolam "**

3006. Rivoyat qilishlaricha, Ezopning xo'jayini safarga otlanar ekan, o'z qullariga yuklarni bo'lib olib, ko'tarib kelishni buyuradi. Shunda Ezop nimani ko'tarib oladi? ***/// **non solingan og'ir qutini**

3007. Sa’diy Sheroziy "Guliston" asaridagi bir hikoyatda nimani "oqar chashma", "davlati bepoyon" deb ataydi? ***/// **hunarni**

3008. Sahoba Ammor aytganlar: "Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lg‘aydir". Sahoba Ammor aytgan 3 xislat qaysi qatorda berilgan? 1) insofli va adolatli bo'lmoq; 2) barchaga salom bermoq; 3) ochga taom bermoq; 4) kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq; 5) ilm o‘rganmoq; 6) g'azabini yashira olmoq. ***/// **1, 2, 4**

3009. She’r muallifini toping. Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding. ***/// **U.Nosir**

3010. Shoir Abdulla Oripovning “O’zbekiston” she’ri qanday misralar bilan yakunlangan? ***/// Mangu yorug’ maskanim manim, O’zbekiston Vatanim manim.

3011. Shoir Mirtemirning qaysi she’rida lirik qahramon erta tongda osma ko'prikdan o'tib, jar ketiga chopardi? ***/// **"Shudring" she’rida**

3012. Susambil bilan bog‘liq sujetlar qaysi asar(lar)da uchraydi? 1. "Susambil", 2."Oygul bilan Baxtiyor", 3."Uch og‘ayni botirlar". ***/// **1,2**

3013. Turmush qiyinchiliklaridan cho’chimasdan 11 yoshida amakisiga qo‘shilib, Toshkentga qochib keladi va Beshyog‘ochdagi «Almaiy» nomidagi ishmaktabga joylashgan ilmga chanqoq ijodkor kim? ***/// **Mirtemir**

3014. Usmon Nosir qaysi she’rida yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o'limni afzal ko'radi? ***/// **"Yana she’rimga"**

3015. Xo'jandiy haqidagi ma’iumotlar bizga qaysi manba orqali yetib kelgan? ***/// **adibning o'z asari “Latofatnoma “ orqali**

3016. "Aql sehrga bo'ysunmaydi. .. Ilm, aql degan narsalar qalin jildli kitoblarda bo‘ladi. . . degan fikrni qaysi asarda uchratishimiz mumkin**?** ***/// **X. To'xtaboyev "Sariq devni minib"**

3017. "Do'nan" hikoyasida tilga olingan soyning nomini ko'rsating. ***/// **Matansoy**

3018. "Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo'lmasa yuzakiroq bo'lsa ham bilmaslik bu odamgarchilikdan emas. Shuni ham bilmagandan keyin, bu odam — odam emas, balki hayvondan hech farqi yo'qdir". Berilgan parcha qaysi asardan olingan**?** ***/// **Abay, "Nasihatlar"**

3019. "Hurishini eplolmagan kuchukcha" ertagida kuchukcha nimaning ovozini eshitib timsoh bo’lsa kerak deb o’ylaydi? ***/// **kuchukning**

3020. "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l!", "Odam bolasi — elning bolasi", "Ishning omadi o'z vaqti" kabi o'gitlar muallifini belgilang. ***/// **Abay**

3021. "Qani endi odoq bo’lmas puling bo‘lsa-yu, yuraversang, Qovunchiga borsang, Turkistonga borsang, Maskovga borsang, hech kim churq etmasa, keta bersang, yana keta bersang, mazza... " Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan? ***/// **"Shum bola"da Omon**

3022. "Qizbuloq", "Nodirabegim", "Momo yer" asarlari muallifi kim va ular qaysi janrda yaratilgan? ***/// **Turob To‘la, pyesa**

3023. "Sariq devni minib" asarida Hoshimjon Mirzacho'lga borganda Hayitvoyga nimasini Shokir degan o‘rtog‘i tikib bergan deb yolg'on gapiradi? ***/// **ko’ylagini**

3024. "Shum bola" qissasida shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan, o'zini xudojo'y qilib ko'rsatadigan, biroq qilayotgan ishlari shariatga mutlaqo teskari bo'lgan qahramon kim? ***/// **Hoji bobo**

3025. "Shum bola" qissasida Shum bola Kalasdan ketayotganida o‘zini nimaga o‘xshatadi? ***/// **qo'ndoqdan ajragan kakku bolasiga**

3026. "Shum bola" qissasida shum bolaning Sariboy huzurida to'qigan yolg'on xabarlari ketmaketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang. 1) dandon sopli pichoqning sinishi; 2) To'riq qashqaning o'limi; 3) yong'in; 4) tozi itning o'limi va terisining shilinishi; 5) boyning

o'rtancha qizi Adolning o'g'illi bo’lishi; 6) Bo'riboyvachchaning o'limi ***/// **1, 4, 2, 3, 6, 5**

3027. "Shum bola"qissasida Shum bola kimning eshagini so'yib, rosa kaltak yeydi? ***/// **eshonning**

3028. "Shura bola" qissasida Omon kimga cho'ponlk qiladl? ***/// **toshkentlik boyga** 3029. "Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko'paydi.

Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi... Xadicha og'iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo'lib, bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko‘cha eshik lang ochiq, yong'oqqa bog'loqliq sigir yo'q". Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **"Urushning so'nggi qurboni"dan**

3030. "Uning jahon minbarlaridan yangragan she’rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan." Shoira Zulfiya haqidagi ushbu fikr muallifini aniqlang**.** ***/// **I. Karimov**

3031. "Yetti zog'ora qissasi" asarida "Navoivni mahlivo etgan donishmand" deya ta’riflangan shaxs kim? ***/// **Yassaviy**

3032. “Avlodlar dovoni” romanida Humoyunga sodiq, poraga sotilmaydigan, Agraga kutvol qilib tayinlangan vijdonli inson kim bo’lgan**?** ***/// **Amir Bahlul**

3033. “Bizning shirkatimizning bosh direktori keksa odam. Nufuzli pirga qo‘l bergan. “Pirimning olti ming muridi bor”, deb maqtanardi. U pirni ko‘rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***///

**“Sariq devni minib”**

3034. “Boshginarn og‘riydi” xalq qo’shig‘ida qizning bo‘yin og‘rig‘iga nima davo sifatida ko‘rsatiladi? ***/// **bo'yintumor**

3035. “Dalada bir kun”, “Tong qo’shig’i” nomi she’riy to’plamlar muallifi kim? ***/// **Zulfiya**

3036. “Do‘nan” hikoyasida kelayotgan mehmonning ko‘zi yomonligi haqida kim ogohlantiradi? ***/// **Fayzi dasturxonchi**

3037. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagida kuchukcha qaysi hayvonga duch kelganda barcha hayvonlar tilini o‘rganib olib, sirkda tomosha ko‘rsatishni, boy bo‘lib ketgach, kuchuklar shohining qiziga uylanishini aytadi**?** ***/// **sigirga**

3038. “Maydagul” qo‘shiqlari qanday qo‘shiqlar turkumiga kiradi? ***/// **dehqonchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlariga**

3039. “Qadrdon so‘qmoqlar” she’rining (I.Yusupov) 1-misrasida sholr tolning nima bilan shivirlashayotgani haqida yozadi? ***/// **qizil kendir bilan**

3040. “Saxovatsiz kishi - yog'insiz abri bahor”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz”, “Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur” kabi hikmatli so'zlarni Navoiyning qaysi asarida uchratamiz? ***///

**“Mahbub ul-qulub”**

3041. “Tong qo’shig‘i”, “O‘ylar”, “Shalola” kabi she’riy to‘plamlar muallifini belgilang. ***/// **Zulfiya**

3042. 1970-yillar boshidan boshlab bolalar, o‘smirlar dunyosiga ziyo sochib kelayotgan, 19801998-yillar davomida “Oltin meros” xalqaro xayriya jarng'armasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatgan yozuvchi nomini belgilang. ***/// **X. To‘xtaboyev** 3043. A.Navoiy ushbu hasbu holini qaysi asarida bitib ketgan?

Gahi topdim falakdin notavonlig‘,

Gahi ko‘rdum zamondin komronlig'.

Base, issiq-sovug' ko'rdim zamonda,

Base achchiq-chuchuk totdim jahonda ***/// **"Mahbub ul-qulub"**

3044. A.Navoiyning qaysi asari uch qism: har xil odamlarning fe’l-atvori va ahvoli; yaxshi fe’l xosiyati va yomon xislat kasofati; turli foydali kuzatishlar va misollar haqida? ***///

“Mahbub ul-qulub”

3045. Abay bastalagan nechta o'lan kuyi hozirgacha oqinlar tomonidan sevib ijro etilmoqda? ***/// **17 ta**

3046. Abayning "Nasihatlar"ida yomon do'st nimaga o'xshatiladi? ***/// **soyaga**

3047. Abayning “Nasihatlar” kitobida “Dunyoda hech bir narsa yo'qki, u mening ishtirokimsiz kamol topsin. Avvalo, mana, sening o'zingni bilish ham, erinmay, sabot va matonat bilan izlab, o'rganib, yana uni o'z o'rnida ishlatish ham-mening ishim.” deya **...** ***/// **g’ayrat aytadi**

3048. Abayning “Nasihatlar” kitobida “Mensiz inson na o'z foydasini biladi va na o'z zararidan qochib qutula oladi. Hatto Ilmni ham o'qib o'rgana olmaydi” deya **...** ***/// **aql aytadi**

3049. Abayning “Nasihatlar” kitobidagi “O’n to'qqizinchi so‘z” nima haqida yozilgan? ***/// **aql kasalligi**

3050. Abdulla Qahhor "Otning o‘limi – itning bayrami" maqolini qaysi hikoyasiga epigraf qilib olgan**?** ***/// **"O’g‘ri"**

3051. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida nimaga nisbatan “Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi, achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvchi” deya ta’rif bergan**?** ***/// **safar**

3052. Axloqiy-falsafiy yo‘nalishdagi nasihatnoma deb ataluvchi A.Navoiy qalamiga mansub asarni belgilang**.** ***/// **“Mahbub ul-qulub”**

3053. Bo'ri polvon, Tilovberdi, Nasim - qaysi asar qahramonlari? ' ***/// **“Yulduzlar mangu yonadi”**

3054. Bu — qadim dunyoda yangi bir olam,

Bunda orqa tog‘siz bir tirik jon yo‘q.

Tayanch bo’lmasaydi odamzod albat,

O‘zi kashf etardi, kashf etganday baxt. Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **Zulfiya**

3055. Buyuk donishmand adib A.Navoiyning oltmish yillik umri davomida ko‘rgankuzatganlarini teran tahlildan o‘tkazib, kelgusi avlodga qoldirgan ma’naviy merosi nomini belgilang**.** ***/// **“Mahbub ul-qulub”**

3056. Chuqur ma’noli va quyma shaklda kelgan hikmatli so’zlar, ibratli hikoyalar asosida qurilgan asarlar nomi keltirilgan javobni belgilang. ***/// **"Sadoqatnoma", "Zarbulmasal"**

3057. G. J.Jabborovning "Farg'oniy monologi" she’rida Ahmad al-Farg‘oniy qaysi yulduzni

"mening qadrdonim" deb ataydi**?** ***/// **Yetti qaroqchi**

3058. G'afur G'ulom asarlaridan qaysi biri qissa janriga xos emas? ***/// **"Mening o'g'rigina bolam"**

I. Yusupovning "Qadrdon so'qmoqlar" she'rida sobiq sho'ro davrining siyosati o'z aksini topgan misralarni belgilang. ***/// **Bizning joylar o'rni hozir paxtazor.**

3059. Ikkinchi jahon urushi yillarida e'lon qiliungan "Shodligim", "Tabassum" nomli to'plamlar muallifini aniqlang**.** ***/// **T. To'la**

3060. "Sibirni ko'rib keldik", "Oyoqni berib keldik", "Tinchlikni olib keldik" kabi jumlalar kimning she'rida uchraydi? ***/// **Mirmuhsin**

3061. J. Jabborov qalamiga mansub dostonlar berilgan qatorni aniqlang**.** ***/// **"Quyosh yurti", "Tog'lar sadosi"**

3062. J.Jabborovning "Farg'oniy monologi" she'rida Ahmad al-Farg'oniy qaysi yulduzni

"mening qadrdonim" deb ataydi? ***/// **Yetti qaroqchi**

3063. J.Jabborovning "Kitob javonim" she'rida Miyol surib turgan holda tasvirlangan olim kim? ***/// **Lermontov**

3064. J.Jabborovning "Kitob javonim" she'rida xayol surib turgan holda tasvirlangan obraz qaysi? ***/// **Lermontov**

3065. J.Jabborovning asarlaridan qaysi biri doston janrida yozilmagan? ***/// **"Cho'l chaqmog'i"**

3066. J.Jabborovning ilk she'riy to'plami qanday nomlangan**?** ***/// **"Vatanimni kuylayman"**

3067. Jumaniyoz Jabborovning "Kitob javonim" she'rida qaysi asarlar nomi keltirilgan? ***/// **"Jahannam", "Shohnoma", "Guliston"**

3068. Kimning qaysi asarida hindlarning ehtirosli shoiri Iqbol, XIX asr fransuz adabiyotini cho'qqiga ko'targan Balzak, "Zarbulmasal" muallifi Guilxaniy sog'inch bilan esga olinadi? ***/// **J.Jabborov "Kitob javonim" she'rida**

3069. Mas'uliyat tuyg'usini hech qachon unutmaslik, bu imkoniyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagani, uni asray bilish ham jiddiy sinov ekanligi qaysi asar mohiyati hisoblanadi? ***/// **J.Jabborov, "Sizniki"**

3070. Murodning qadimiy xalq musobaqasi – kurash san'atining butun qonun-qoidalari eng mayda jihatlarigacha batafsil tasvirlangan asarini toping. ***/// **"Yulduzlar mangu yonadi "**

3071. O'z otasi misolida qatag'on davrining dahshatlarini badiiy talqin etgan adibni va hikoya nomini aniqlang. ***/// **O.Yoqubov, "Muzqaymoq"**

3072. O'ttiz gektar yerdagi mevazor bog' hosilining yarmini yeb, yarmini bozorga chiqarib sotishlarini maqtanib gapirgan Hayitvoy qaysi asar qahramoni? ***/// **X. To'xtaboyev "Sariq devni minib"**

3073. O'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi qaysi hikoyada berilgan? ***/// **"O'g'ri"**

3074. O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla! O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!

Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,

Bir- birini ovlashgan yurtim, tingla! Ushbu satrlar muallifi kim? ***///
**Abay**

3075. Ochiq ko‘ngil, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biroz yaxshilik qilishga tayyor, har kimning xizmatiga hozir-u nozir, hammaga sadoqatli qahramonni aniqlang. ***/// **Baxshilla maxsum (“Do‘nan”)**
3076. Oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan haydamaydigan, ming tanoblab olmazor kim va qaysi asar qahramoni? ***/// Sariboy “Shum bola”
3077. P. Qodirov qaysi asarida neft konlarini izlovchilar hayotini qalamga olgan? ***///
**“Qadrim”**
3078. P. Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanida kim yarador holda halokat yoqasida turgan Humoyunni ajal komidan xalos etgan? ***/// **Nizom**
3079. P.Qodirovning dastlabki tarixiy asari qanday nomlangan? ***/// **“Yulduzli tunilar”**
3080. Qanday kasb egalarining hayoti P. Qodirovning "Meros" asarida aks ettirilgan**?** ***/// **paxtakorlarning**
3081. Qaysi asar jahondagi 24 tilga tarjima qilingan va italyan yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan? ***/// **X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib"**
3082. Qaysi asarda turli sabablar jamuljam bo’lib yuzaga kelgan murakkab vaziyatga tushib qolgan odamlar va hayvonlarning kechinmalari ifodalangan? ***/// **“Do’nan”**
3083. Qaysi hikoyasini Said Ahmad kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida andisha-mulohazaga bormay, surbetlarcha ish tutish, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko‘rsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlagan**?** ***/// **"Qoplon"**
3084. Qaysi ijodkor 1981-yilda yosh o'quvchi do'stlariga “Yetti zog‘ora qissasi” nomli o‘ziga xos nasriy asarni tuhfa qilgan**?** ***/// **T. To’Ia**
3085. Qaysi ijodkor o'z she’rida Nepal, Veytnam, Xitoy, rus, tojik, hindni mushoiraga chorlaydi? ***/// **Zulfiya**
3086. Qaysi javobda Abayning she’rlari berilgan? ***/// **“Sho’rlik qozog’im”, “Boy bolasi bilan kambag’al bolasi”, “Ilm o’rgan”, “O’lan”**
3087. Qaysi javobda hajviy yo‘nalishda yozilgan roman berilgan? ***/// **N.Gogol, "Revizor"**
3088. Qaysi javobda O‘. Hoshimov qalamiga mansub asarlar berilgan**?** ***/// **“To'ylar muborak”, “Inson sadoqati”**
3089. Qaysi javobda Pirimqul Qodirov qalamiga mansub qissalar berilgan? ***/// **“Qadrim”,**
**“Meros”**
3090. Qaysi javobda Pirimqul Qodirov qalamiga mansub romanlar berilgan? ***/// **“Uch ildiz”,** “Olmos kamar”
3091. Qaysi javobda shoira Zulfiya qalamiga mansub poemalar berilgan? ***/// **“Mushoira”,**

**“Quyoshli qalam”**

3092. Qaysi javobda Turob To'laning dramaturgiya sohasi rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan pyesalaridan birining nomi keltirilgan? ***/// **“Momo yer”**

3093. Qaysi qatorda chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari to'g'ri sanalgan? ***///

**"xo'sh-xo‘sh"lar, "turey-turey" qo'shiqlari, churiyalar**

3094. Qaysi shoir o'z she’rida mosh paykalda chug'urlashib turgan bir gala chumchuqlarni she’r o'qishayotgan yosh shoirlarga o'xshatadi? ***/// **I.Yusupov**

3095. qo'shiqlarini belgilang. 1) “Xo‘p hayda”; 2) “Chittigul”; 3) “Boychechak”; 4) Maydagul”; 5) “Churey-churey” ***/// **2, 3**

3096. Quyida berilgan asarlardan qaysilari sarguzasht asar hisoblanadi? 1) D. Defo “Robinzon Kruzo”; 2) J.Svift “Gulliverning sayohatlari”; 3) A. Navoiy “Farhod va Shirin”; 4) H. Andersen “Bulbul”; 5) X. To’xtaboyev “Sariq devni minib”; 6) J. Vern “O‘n besh yoshli kapitan”; 7) T. Murod “Ot kishnagan oqshom” ***/// **1, 2, 3, 5, 6**

3097. Quyida berilgan qaysi asarda fantastik va detektiv holatlar uyg'unlashgan tarzda lfoda etilgan**?** ***/// **X.To‘xtaboyev “Sariq devni minib**

3098. Quyidagi berilgan parcha qaysi ijodkorning qaysi asaridan olingan? Orazidin shamsu qamardur xijil, So'zlaridin shahd-u shakar munfail.

Hosili umri edi ul boyni,

Oti Gunashbonu o‘shal oyni**…** ***/// **Gulxaniy, "Zarbulmasal”**

3099. Quyidagi hikmatli so'zlarning qaysi biri A.Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida uchramaydi? ***/// **Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshiliging boshingga balo bo'lib tushadi.**

3100. Quyidagi masnaviy A.Navoiyning qaysi asaridan keltirilgan?

Gahi topdim falakdin notavonlig’,

Gahi ko‘rdim zamondin kamronlig’,

Base issig‘, sovug’ ko‘rdum zamonda,

Base achchiq, chuchuk totdim jahonda. ***/// **“Mahbub-ul qulub”**

3101. Quyidagi o’git kimning qaysi asaridan olingan? Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n - saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon - yaramaslikdir. ***/// **A.Navoiy “Mahbub ul-qulub”**

3102. Quyidagi qaysi asar Tog'ay Murodning tarjimalari sirasiga kiradi**?** ***/// **E. SetonTomson “Yovvoyi yo‘rg‘a”**

3103. Savol-javob tarzida aytiladigan xalq qo‘shig‘i nomini aniqlang. ***/// **"Boshginam og'riydi"**

3104. shoirning nasrdagi dastlabki asari qissa janrida edi? ***/// **Turob To‘la**

3105. Shum bolani o‘g‘ri bo‘lishga undagan, har gapida xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi qahramon kim? ("Shum bola", G‘.G‘ulom) ***/// **Eshon**

3106. T. To'laning "Yetti zog'ora qissasi" asari qahramonlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang**.** ***/// **Toshtemir, Baxshilla maxsum**

3107. T.Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi Abray kimning o'g'li? ***/// **Nasim polvon**

3108. T.To'laning “Do'nan” hikoyasi kimning tilidan aytilgan? ***/// **Toshtemir**

3109. Tog‘ay Murodning qaysi asarida Qoplonbek va Oymomo kabi qahramonlar uchraydi? ***/// **"Oydinda yurgan odamlar**"

3110. Turob To’la qalamiga mansub pyesalarni ***/// **“Oromijon”, “Momo yer”,**
**“Qizbuloq”**

3111. Turob To'laning bolalar uchun yozgan hikoyalr to'plami qanday nomlanadi? ***/// **"Yetti zog'ora qissasi"**

3112. Ulki iflosdin ayog’inda
Kavsh yo’li azmi chog’i yo’qtur oning,
Shukr qildik boqib birav sori,
Ki yururg’a ayog’i yo’qtur oning. Navoiyning ushbu qit’asida qanday hayotiy-timsoliy misol keltirilgan? ***/// **Mingni ko’rib fikr qil, birni ko’rib shukr qil.**

3113. Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim, Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim.
Ruhim u yoqlarga qush bo‘lib uchar... Ushbu parcha muallifi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Zulfiya**

3114. Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz, Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?
Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo. Ushbu she’r muallifiui aniqlang. ***/// **Zulfiya** 3115. X. To‘xtaboyev qalamiga mansub romanlarni belgilang. 1. “Sariq devni minib”. 2. “Sariq devning o‘limi”. 3. “Omonboy va Davronboy sarguzashtlari”. 4. “Besh bolali yigitcha”. 5. “Qasoskorning oltin boshi”. 6. “Shirin qovunlar mamlakati”. 7. “Jannati odamlar”. ***/// **1,2,4,5,6,7**

3116. Yomon do‘st bir ko'lankadir, quyoshli kunda qochsang ham qutula olmaysan, bulutli kunda istasang ham topa olmaysan. Ushbu fikr kimning qaysi asaridan olingan? ***/// **Abayning "Nasihatlar" asaridan**

3117. "... bir xazinadirki, naqdinasi kundan kun ortar". Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan olingan ushbu parchada nuqtalar o’rniga qaysi so‘zni qo'yish lozim? ***/// **qanoat**

3118. "... shunday ot: to‘rt oyog‘i teng tushgan, biqini yoyiq keng tushgan, qarchig‘ayning havosi tekkan". Ushbu ta’rif xalq dostonlaridagi qaysi ot haqida? ***/// **Jiyronqush**

3119. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir". Tarbiya haqida aytilgan ushbu ta’rif qaysi ijodkor qalamiga mansub? ***/// **Avloniy**

3120. "Besh kunlik kuyov", "Qo‘sha qaringlar" komediyalari bilan teatr san’ati rivojiga munosib ulush qo'shgan ijodkor kim? ***/// **Shuhrat**

3121."Besh kunlik kuyov", "Qo‘sha qaringlar" komediyalari muallifi kim? ***/// **Shuhrat**

3122."Dahshat" (A.Qahhor) hikoyasi qahramoni Unsinga bir odamchalik yordam bergan jumlani aniqlang**.** ***/// **"O'likning joni yo'q"**

3123."Dardiga darmon istamas" she’rida (Hamza) takrorlanib keluvchi – naqorat misra qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? ***/// **Uxlama ko‘p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.**

3124."Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi. Bachalar birdan ikkiga kirdi, ota-ena deguday bo‘ldi.. . Ikkidan uchga, to‘rtga kirdi, ikkovini bir maktabga berdi. Ikkovi ham o‘qib mulla bo‘ldi". Ushbu parcha qaysi folklor asaridan olingan? ***/// **"Ravshan"**

3125."Ha to’xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo’lsa, maishat yo’lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir". Ushbu parcha qaysi adib qalamiga mansub**?** ***/// **Avloniy**

3126."Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab turadigan" qahramon qaysi? ***/// **Zulxumor**

3127."Mehr va Suhayl" dostonida Suhayl nima maqsadda yo'lga tushadi? ***/// **nikoh orzusida**

3128."Mehr va Suhayl" qahramonlarini yurti bilan juftlab ko'rsating. 1) Jobir; 2) Suhayl; 3) Mehr; 4) No’mon; a)Adan; b) Yaman; c) Behishtsaro; d) Chin. ***/// **1 – a, 2 – b, 3 – c, 4 – b**

3129."Qizi borning nozi bor" maqoli qaysi folklor asarida qo'llanilgan? ***/// **"Ravshan"**

3130."Ravshan" dostonida Go‘ro‘g‘libek Yunus va Misqol parilarni qayerdan olib kelgan?

***/// **Ko'hi Qof, bog‘i Eramdan**

3131."Ravshan" dostonida qalpoq bozori qaysi bozordan keyin joylashgan edi? ***/// **pichoq va qin bozordan**

3132."Ravshan" dostonida Qoraxon Zulxumorni qo'riqlash uchun qancha sarboz qo'yadi? ***/// **500 ta**

3133."Ravshan" dostonida shirvonlik kampir Ravshanni qutqarish uchun kimdan yordam so'raydi? ***/// **Aynoq kaldan**

3134."Ravshan" dostonidagi bosh obrazlar qaysi javobda ko‘rsatilgan? 1) Kampir ena; 2) Oqqiz;

3) aka-uka kallar; 4) Hasanxon; 5) Maston ona; 6) Zulxumor; 7) Ravshan ***/// **4, 6, 7**

3135."Ravshan" dostonidagi masxaraboz kal nomini aniqlang. ***/// **Jaynoq kal**

3136."Sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar" xalq dostonlaridagi qaysi qahramonlar? ***/// **Avazxon, Hasanxon**

3137."Siyovush qissasi" (Firdavsiy "Shohnoma") va "Ona tilim" (R.Hamzatov) asarlarini bog'lab turuvchi badiiy tasvir usuli qaysi qatorda to‘g‘ri

ko‘rsatilgan? ***/// **tasvirlashda tushdan badiiy unsur sifatida foydalanilgan**

3138."Suhayl va Guldursun" asari muallifining ismi qanday ma’noni bildiradi? ***/// **qilich** 3139. "Taka, yovmit, yazir, go'klang, ahal di bir bo’lib, Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gullolasi", deb o'z she’rlarida millat birligi, yakdilligi yurt uchun eng katta saodat ekanligini alohida ta’kidlagan shoir nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **Mahtumquli**

3140."Yetimcha – yetti ko'cha" maqoli qaysi asar qahramonlariga nisbatan ishlatilgan? ***///

**"Oq kema"**

3141."Yolg‘iz bola yovdan yomon" maqoli qaysi xalq dostonida uchraydi? ***/// **"Ravshan"**

3142."Yovvoyi yo‘rg‘a" asarida qaysi timsol "Menga qarang, bordi-yu la’nati yo‘rg‘aga duch kelib qolsangiz, ayamay otib tashlang", - deydi? ***/// **Foster**

3143.... mindi ... ning beliga, Haybat qiilb yigit sog‘-u so’liga.

Otasi Takali Yovmit yurtidan,

Talab qildi, ko‘ring, Shirvon eliga "Ravshan" dostonidan olingan ushbu parchadagi nuqtalar o'rnini to'ldiring. ***/// **Ravshan, Jiyronqush** 3144. ... mindi ... ning beliga, Haybat qilib yigit sog‘-u so’liga.

Otasi Takali Yovmit yurtidan,

Talab qildi, ko‘ring, Shirvon eliga. "Ravshan" dostonidan olingan ushbu parchadagi nuqtalar o'rnini to'ldiring. ***/// **Ravshan, Jiyronqush**

3145.“Badarg’a”, “Astrobod”, “Singan setor” asarlari muallifi kim? ***/// **Mirkarim Osim**

3146.“Dunyodan faqat ezgulik qidirgan va yaxshilikka intilgan, ammo hayotning shafqatsizligi tufayli erta bo'lgan norasta bolalining taqdiri qaysi asarda ifoda etilgan? ***/// **“Oq kema”**

3147.“Hijron” taxallusi bilan she’rlar yozgan ijodkorni aniqlang. ***/// **Abdulla Avloniy** 3148. “Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmag‘on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma’naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so’rayman” Ushbu suddagi nutq qaysi ijodkorga tegishli? ***/// **A. Qodiriy**

3149.“Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni

O’g’irlik mol deyman,qilaman hazar.

Qalbimning parchasi singmasa agar,

Rozimasman, birov hadya etsa zar.” Ushbu she’riy parcha kimga tegishli? ***/// **Saida Zunnunova**

3150.“Mehrobdan chayon” romanida “sa’bnoma” (tahqirlab yozilgan) xat kim tomonidan kimga yozilgan edi? ***/// **Anvar Sultonaliga yozgan**

3151.“Mehrobdan chayon” romanida Anvar Muhammad Rajab poygachi yordami bilan saroyda qanday lavozimda ishlaydi? ***/// **mirzo**

3152.“Mehrobdan chayon” romanida Anvarning do‘sti bo‘lgan Nasim kimning o‘g‘li edi? ***/// **xon mirzaboshisining**

3153.“Mehrobdan chayon” romanida Anvarning do‘sti Nasim nima sababdan erta vafot etadi? ***/// **chechak kasalidan**

3154.“Nayman ona qissasi” Chingiz Aytmatovning qaysi asarida berilgan? ***/// **“Asrga tatigulik kun” romanida**

3155.“Ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko‘chirmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi”. Ushbu tasvir qaysi epik qahramon haqida? ***/// **Aynoq kal (“Ravshan” dostoni)**

3156.“Qo’li bog’liq yashashdan o’lim a’lodir” Ushbu misra qaysi asardan olingan va kimning xitobi? ***/// **“Mardlik afsonasi”da To’marisning**

3157.“Ravshan” dostoni haqidagi to’g’ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **Doston birinchi marta Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulb o’g’li og’zidan yozib olingan**

3158.“Ravshan” dostonida “shashti qaytmagan” ma’nosida qaysi ibora ishlatilgan? ***/// **sovuq shamol yemagan**

3159.“Ravshan” dostonida Go‘ro‘g‘li Ravshanga qaysi qizni so‘rab borganida rad javobini oldi? ***/// **Gulanor**

3160.“Ravshan” dostonida Go‘ro‘g‘lining qaysi eldan ekani aytib o‘tiladi? ***/// **Yovmitdan**

3161.“Ravshan” dostonida Qoraxon podsho kimdan qo’rqar edi? ***/// **Kampirning olti o’g’lidan**

3162.“Ravshan” dostonida Qoraxonning taqdiri nima bo‘ladi? ***/// **o’ldiriladi**

3163.“Ravshan” dostonida Ravshan maktabda o‘qib yurganda qaysi qizni “ko‘zining ostiga bosib qo‘yar edi”? ***/// **Gulanorni**

3164.“Ravshan” dostonida Shirvon bozorining tasviri necha misrada berilgan? ***/// **145**

3165.“Ravshan” dostonida Xasanxon Shirvongacha bo‘lgan uch oylik yo‘lni qancha vaqtda bosib o‘tadi? ***/// **yigirma kunda**

3166.“Ravshan” dostonidagi "vallamat" so’zi kimga nisbatan aytilgan? ***/// **Go’ro’g’liga**

3167.“Ravshan” dostonini Ergash shoir kimlardan o‘rgangan? ***/// **Ergash shoir otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozi Kichik Bo‘rondan o‘rgangan.**

3168.“Ravshan” dostonoda “Men o’lmasam, o’z elimdan kechmayman” deya, eli bilan dinini muqaddas va daxlsiz, hatto o‘z havotidan azizroq deb bilgan timsoini toping. ***/// **Ravshan**

3169.“Sab’ayi sayyor” dostonida Navdar qizining Jobir qo‘lida asir ekanligini qanday biladi? ***/// **Jobir yuborgan elchilaridan**

3170.“Shunda o‘rda arbobi bukun peshinda bir oz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog‘urak bir yigit va o‘lim sari kulib keluvchi bir arslonni o‘z tarixida

birinchi marotaba ko‘rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug‘ jasorat bir necha daqiqalargacha zulm itlarini sukutga soldi, ularni ishdan to‘xtatdi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon”**

3171.“Shunday niginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida barcha parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor, har yerda suluv barno qiz bo‘lsa, oti bor...”. Ushbu tilsimli ashyo uchraydigan dostonni ko‘rsating. ***/// **“Ravshan” dostoni**

3172.“Tong ochar ko‘zlarin...” she’rida shoir Shavkat Rahmon qaysi hasharotni parilarga qiyoslagan? ***/// **ninachi**

3173.“Yigitlar ichida menman o‘dag‘a, Bedovga yarashar oltindan to‘g‘a... “ deya o'ziga yuqori baho bergan badiiy qahramon kim? ***/// **“Ravshan “da Avazxon**

3174.1) raqib; 2) soqiy; 3) ag‘yor; 4) rind. Ushbu berilgan lirik timsollarning qaysi biri lirik qahramon darajasiga ko‘tarila olmaydi? ***/// **2, 4**

3175.A. Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “insonlarning madori hayoti, rahbari najoti” deb ta’riflangan narsa nima? ***/// **ilm**

3176.A. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan quyidagi parchada nuqtalar o’rniga qaysi so’z qo’yiladi? “... dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdur” ***/// **Hayo**

3177.A. Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi Olimjon dodxo Unsinni qanday kasb egasining qizi ekanligini aytib masxara qiladi? ***/// **tegirmonchi**

3178.A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining “Yaxshi xulqlar” qismida nechta fazilatga va “Yomon xulqlar” qismida esa nechta illatga ta’rif beradi? ***/// **31 ta va 20 ta**

3179.A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasidagi "Hamma o‘tirgan yerida bir qarich cho'kkanday bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi" degan tasvir qaysi voqeadan keyin yuz beradi? ***/// Shamol bir xuruj qilganida nimadir kelib darchaga urilganda

3180.Abdulla Avloniyning qaysi she’rida quyidagi misralar mavjud?

Men ketsam-da, sen bo’l omon!

Omon - Vatan, Vatan - omon! ***/// **“Hijron so’zi”**

3181.Abdulla Qahhorning qaysi qahramoni "hozir go‘riston qanaqa vahimali bo‘lsa ekan, - deb o‘ylaydi-yu, qo‘rquvdan tiligacha sovuq ter chiqaradi"? ***/// **"Dahshat" da – Olimxon dodho**

3182.Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida Xudoyorxonning "Sen bizg‘a xiyonat qilding, it uvli" - deb boshlagan muloqotida Anvar uning qaysi illatini yuziga soldi**?** ***/// **adolatsizligi, xotinbozligini**

3183.Alisher Navoiy "Hayratul-abror"ning birinchi maqolotini qaysi mavzuga bag'ishlagan? ***/// **iymon**

3184.Alisher Navoiy “Xamsa”sining qaysi dostonida darveshning shohga qo‘ygan to‘rt sharti keltiriladi? ***/// **“Saddi Iskandariy”**

3185. Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi qaysi asarlar Mirkarim Osimga tegishli? ***///

**"Badarg'a", "Astrobod", "Alisher Navoiy va Darvishali"**

3186. Alisher Navoiy rasmiy devonlarining to'g'ri xronologik tartibi qaysi javobda to'g'ri berilgan? ***/// **"Badoe' ul-bidoya", "Navodur un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy"**

3187. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida o'zining qanday tushunchalaridan so'ng

"Salotin bobida" maqolatini keltiradi? ***/// **adolatli shoh haqidagi**

3188. Alisher Navoiyning "Xamsa"si tarkibidagi dostonlar qanday she'riy shaklda yozilgan? ***/// **masnaviy**

3189. Alisher Navoiyning asari ko'rsatilmagan javobni aniqlang. ***/// **"Yusuf va Zulayho "**

3190. Alisher Navoiyning o'zi tuzgan dastlabki ikki devoni nima deb nomlangan? ***/// **"Badoye' ul-bidoya", "Navodirush-shabob"**

3191. Alisher Navoiyning qaysi adabiy qahramoni muhabbat uchun o'z kanizlari oldida yer o'padi? ***/// **Layli**

3192. Alisher Navoiyning qaysi asarida XV asrdagi adabiy hayot, poeziya va san'at turlariga doir fakt va ma'lumotlar berilgan? ***/// **"Majolis un-nafois"**

3193. Anda bir shohi hokim-u voliy,

Mulk ma'mur-u himmati oliy. Ushbu misralar "Xamsa"dagi qaysi shoh haqida? ***/// **No'mon**

3194. Baytning sahih variantini aniqlang.

***/// **Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidan yo'q nishon,**
**Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.** Baytning to'g'ri variantini aniqlang.

***/// **Sindurub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar, Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon.**

3195. Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarida bolani kimdir xafa qilganda, yiglagisi kelsa qayerga borar edi? ***/// **shiroljinlar oldiga**

3196. Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarida bolaning qaysi o'simliklarga rahmi kelardi? ***/// **shiroljinlarga**

3197. Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasida o'rmondagi bir g'aroyib qush "Katta baxtsizlik bo'ladi" deb sayraganda qanday voqea sodir bo'ladi? ***/// **qabila oqsoqoli Botir Qulchi vafot etadi** 3198. Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarida bola quyidagi gaplarni kimga (nimaga) qarata aytadi? "Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo'q, shuning uchun ham undan kulishgani kulishgan". ***/// **portfeliga**

3199. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi rivoyatda dushman qabiladan qolgan qizcha va bolani o'ldirib, qirg'iz zotini yo'q qilish kimga topshirilgan edi? ***/// **Cho'tir**

**Baymoq kampirga**

3200. Cho'lponning "Go'zal" she’rida qaysi obraz(lar) go'zalni tushdamas, o'ngda ko'rganini aytadi? ***/// **kun**
3201. Cho'lponning "Go'zal" she’rida qaysi obrazlar go'zalni tushda ko'rganini aytadi? ***/// **yulduz, oy**
3202. Ernest Seton-Tompsoiming “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasida yovvoyi yo‘rg‘aga kim birinchi bo‘lib tamg‘a bosadi? ***/// **Tom**
3203. Ernest Seton-Tompson qalamiga mansub bo'lmagan asarlar qaysi qatorda berilgan?

***/// **"Kanada qushlari", "Bo‘lgan voqealar"**

3204. Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asarida qaysi timsol "yovvoyi yo'rg'ani tutib kelgan odamga ming dollar beraman", deb va’da beradi? ***/// **Montgomer**
3205. Ernest Seton-Tompsonning qaysi asari eng yaxshi ilmiy ishlar uchun (Amerikada) beriladigan "Eliot" oliy darajali oltin medaliga sazovor bo'lgan? ***/// **"Yovvoyi hayvonlar hayoti"**
3206. Garchi shuncha mag’rur tursa ham Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan manmanlik nechun

Kibr-u havo nimaga kerak? (Erkin Vohidov) Ushbu she’rning turog’ini aniqlang. ***/// **4+5**

3207. Har kishikim birovga qozg'ay choh

Tushgay ul choh uzra o'zi nogoh. Ushbu misralar qaysi asardan olingan. ***/// **"Sab’ayi sayyor"**

3208. Hasbi hol ruhidagi quyidagi she’r muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Xush zamonlar Yuz qazoni boshida sarxush yiq edim,

Bu zamon yuvg’an qazon ostida qolg’on yundiman. ***/// **Turdi Farog'iy**

3209. Haynrix Haynening she’riy to‘lami qaysi javobda berilgan? ***/// **“Qo‘shiqlar kitobi”**
3210. huhratning “Mardlik afsonasi” asari qaysi janrda yozilgan? ***/// **ballada**
3211. I.Frankoning "Feruza" asarini kim o‘zbek tiliga tarjima qilgan? ***/// **Cho'lpon**
3212. Ikki oylik yo‘lni G‘irko‘kda yigirma kunda bosib o‘tgan qahramon nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **Hasanxon**
3213. Ikki shah kirdilar xudo yo'liga, Mulklarin solib aning qo'liga.

Mulk eli shukr qildiku: bori,

Aylabon shodmonli izhori. Ushbu misralar "Xamsa"ning qaysi dostonidan olingan? ***///

**"Sab’ayi sayyor"**

3214. Kasbiga ko'ra transport injeneri bo’lishiga qaramay, adabiyotga qiziqishi katta bo'lganligi sababli respublika Yozuvchilar uyushmasiga ishga kirgan ijodkor kim? ***/// **Shuhrat**

3215.Kinoya tashbeh nima? ***/// **O'xshamish tushib qolgan, o'xshatilmish o'xshamishga ishora qilgan o'xshatish san'ati.**

3216.Kitob qo'lma-qo'l o'qildi, tik turib o'qildi, ovoz qo'yib o'qildi, kecha-yu kunduz o'qildi. Kitobni butun dunyo o'qidi. Ushbu satrlar Ernest Seton-Tompsonning qaysi asari haqida bitilgan? ***/// **"Jonivorlar haqida hikoyalar"**

3217.Maxmur asarlari ko'rsatilgan qatorni toping. ***/// **"Qozi Muhammad Avj haqida hajviya"**

3218.Maxmur asarlari ko'rsatilgan qatorni toping. ***/// **"Vazir", "Hapalak", "Qozi**

**Muhammad Rajab Avjning o'zi to'g'risidagi g'azali"**

3219.Maxtumquli qaysi she'rini faxriya bilan yozib yurt uchun eng katta saodat millat birligi, yakdilligi ekanligini alohida ta'kidlaydi? ***/// **"Turkman binosi"**

3220.Maxtumqulining "Adolat yaxshi" she'rida qaysi xalq dostoni qahramoni nomi keltirilgan?

***/// **Go'ro'g'li**

3221.Maylni qo'yki, vola-u zor ul,

Jon berib vaslig'a xaridor ul.

Bo'ylakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',

Manzil o'lmish edi anga ul bog'.Ushbu misralar "Mehr va Suhayl" dostonida qaysi qahramon ruhiy holatini aks ettirgan? ***/// **Mehr**

3222.Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman! Aziz boshing oyog'imga teng emas... "Ravshan" dostonida Ravshan ushbu so'zlarni kimga qarata aytadi? ***/// **Shirvon amaldorlariga**

3223.Mirtemirning "Shu kungacha men o'zni cheklab bo'ldim" tarzidagi iqrori uning qaysi she'rida aks etgan? ***/// **" Betobligimda"**

3224.Mutlaq tashbeh nima? ***/// **Baytda asos va vositaning qo'llanish yoki qo'llanmasligidan qat'i nazar o'xshamish va o'xshatilmish ishtirok etgan o'xshatish san'ati**

3225.Navoiyning lug'atshunoslikka oid asarini belgilang. ***/// **"Sab'ati abhur"**

3226.O'zbek adibi Mirkarim Osimning qaysi asarlarini maishiy mavzudagi asarlar sirasiga kiritish mumkin? 1) "O'tror"; 2) "Mohlaroyim va Xonposhsha"; 3) "Zulmat ichra nur"; 4) "Singan setor"; 5) "To'maris"; 6) "Jayhun ustida bulutlar"; 7) "Karvon qo'ng'irog'i"; 8) "Ibn Sino qissasi"; 9) "Elchilar"; 10) "Temur Malik"; 11) "Aljabrning tug'ilishi"; 12) "Aleksandr va Spitamen" ***/// **2, 7, 9**

3227.Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan! Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!

Seni sotmoq mumkinmidir, o'zing o'yla

Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla. Ushbu she'riy parcha qaysi adib ijodiga tegishli? ***/// **A.Avloniy**

XXXXX

3228. Oppoq qayindan yasalgan, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turgan beshik tasviri qaysi asarda aks ettiriladi? ***/// **"Oq kema", Ch.Aytmatov**

3229. Ot chopilar balarid tog‘ning pastida, Quloq soling gapimning payvastiga, Shu ot kepti Qoraxonning qasdida, Endi maydon bek Ravshanning ustida.

Kesgir isfihonni olib dastiga.

Qarab bo'lmas chin botirniug bastiga,

Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,

Shu o'tirgan Hasau shunqor ekandi. "Ravshan" dostonidan olingan parclia kiniga tegishli? ***/// **Tersak**

3230. O'zbek mumtoz shoirasi Jahon otin Uvaysiy qayerda tug'ilgan? ***/// **Qo’qonda**

3231. O'zbek tilidagi aruz vazni haqida yozilgan birinchi asar qaysi? ***/// **Navoiy, "Mezon ul-avzon "**

3232. Paydo bo‘lding ikki gavhar donadan, Parvoz qilib uchding manzil-xonadan.

Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,

Kechsang yomon bo‘lar ota-onadan! “Ravshan” dostonidan olingan ushbu she’riy parcha kimning tilidan aytilgan? ***/// **Hasanxon**

3233. Qahhorning "Dahshat" hikoyasida Olimjon dodxo Unsinni qanday kasb egasiuing qizi ekanligini aytib masxara qiladi? ***/// **tegirmonchi**

3234. Qaysi adib adabiyot o‘qituvchisi Yunus Latifning ta’sirida badiiy adabiyotga mehr qo‘ygan? ***/// **Shuhrat**

3235. Qaysi asar qahramoni "ko'zimiz ochiq ekanligi bilan ojiz ekanmiz", deya iqror bo'ladi? ***/// **Sh.XoImirzayev, "O'zbeklar"**

3236. Qaysi asar qahramoni ikki asrandi o‘g‘ilni tarbiyalab katta qiladi? ***/// **Go'ro'g'li**

3237. Qaysi asar qahramoniga xalq tomonidan “Aqling - daryo, mehring - ko‘l, har bir so‘zing - dur!” deya ta’rif berilgan**?** ***/// **“Mardlik afsonasi”da To’marisga**

3238. Qaysi dostorming bosh qahramoni oddiy darvozabon bilan do‘st tutingan edi? ***/// **“Ravshan” dostonida Hasanxon**

3239. Qaysi ijodkor o’zini muhit erkiga topshirgan va o’zini muhit girdobida bir somon parchaga qiyoslaydi? ***/// **Cho’lpon**

3240. Qaysi ijodkor Qo'qon poyabzal rastasining xo'jayini Mo'minboy qo'lida mirzalik qilgan**?** ***/// **Zavqiy**

3241. Qaysi ijodkor she’rida front orqasida qolayotgan qizlar kuz og'ushida unutilgan mevalarga o'xshatiladi? ***/// **Sh.Rahmon, "Urush suvrati"**

3242. Qaysi ijodkor she’riyatga qarata "Qaroli bo'lmading zo‘ravonlarning" deb yozadi? ***///

**R.Hamzatov**

3243. Qaysi ijodkor she’rlaridan birida "Maorifsiz kishilar murda dildir", deb yozadi? ***/// **Abdulla Avloniy**

3244. Qaysi ijodkor taxallusi Muhammad alayhissalomga hali payg’ambarlik berilmay turib, daragini ilohiy kitoblardan eshitib, unga g’oyibona muhabbat qo’ygan valiy zot nomi bilan bog’liq? ***/// **Uvaysiy**

3245. Qaysi ijodkorning jonini bir dehqon bir qpo somon evaziga qutqarib qolgan? (“Zulmat ichra nur”) ***/// **Sharafiddin Ali Yazdiyning**

3246. Qaysi javobda Abdulla Avloniy pyesalari nomi berilgan? ***/// **“Pinak”, “Portugaliya inqilobi”, “Advokatlik osonmi?”**

3247. Qaysi qatorda Abdulla Qahhor asarlari ko‘rsatilgan**?** ***/// **"O’tmishdan ertaklar",**

**"Bemor”, "O’g‘ri"**

3248. Qaysi qatorda Sh.Xolmirzayevning bir janrda yozgan asarlari berilgan? ***/// **"Tabassum", "Xumor"**

3249. Qaysi shoir "Firog‘iy" taxallusi bilan she’r yozgan? ***/// **Maxtumquli**

3250. Qo‘shma vaznda yozilgan quyidagi misralar muallifini aniqlang.  Alisherga alla aytib uxlatgan  Sen - ona.

Og‘ushida Bobur kamolga yetgan

Sen - ona**.** ***/// **Mirtemir**

3251. Qoraxonni yenggan Hasanxon Shirvon eliga kimni podsho qilib qaytadi? ("Ravshan" dostoni) ***/// **Aynoq**

3252. Quyida berilgan Uvaysiy chistonining javobi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida, Qish yalag'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.

Barcha qushlarning so'ngaki ichida,

Ul na qushdurkim, so'ngaki toshida**.** ***/// **yong'oq**

3253. Quyidagi bayt kimning qalamiga mansub va u kim haqida yozilgan?

Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin,

Ko‘z-u ko'nglum ziyosi, mohi tobonimni sog'indim. ***/// **Uvaysiy, o‘g‘li haqida**

3254. Quyidagi fikrlar qaysi asardan olingan? ". Bosqinchi hech qachon bosib olgan fuqarosi boshini silamaydi! Silasa, aldash uchun silaydi. .. Lekin yomon aldangansan, jigar." ***/// **"Qora kamar"**

3255. Quyidagi ma’lumotlardan Maxtumquli hayoti va ijodiga oidlarini belgilang. 1.

Maxtumquli XVIII asrda yashab ijod etgan. 2. Otasi Davlatmamad Ozodiy taxallusi bilan qo‘shiq va g‘azallar yozgan. 3. Maxtumqulining asosiy hayotiy mashg‘uloti zargarlik edi. 4. Maxtumqulining Buxorodagi Mirarab madrasasida o‘qiganligi haqida ma’lumot bor. 5.

Maxtumquli she’rlaridan – javonmardlik tariqati nafasi yaqqol ufurib turadi. ***/// **1,3**

3256. Quyidagi maqollardan qaysi bin Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobining "Vatanni suymak" qismida keltirilgan? ***/// **Kishi yurtida sulton bo’lguncha,**

**o’z yurtingda cho’pon bol.**

3257. Quyidagi maqollardan qaysi biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobining “Vatanni suymak” qismida keltirilgan? ***/// **Kishi yurtida sulton bo’lguncha, o’z yurtingda cho’pon bo’l.**

3258. Quyidagi parchaning turoqlar tartibi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? Yigitlar maktubin bitganda qondan, Kelinlar firoqdan chekkanda yohu.

Uning ham panohi qaytmadi jangdan,

O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u. (A.Oripov, "Ayol") ***/// **3+3+5=11 tartibida**

3259. Quyidagi qaysi asarlarda mard qiz – ma’shuqalar bandilikdagi (zindonband) oshiqlarini qutqarib olgani hikoya qilingan? ***/// **"Suhayl va Guldursun" , "Sab’ayi sayyor"**

3260. Quyidagi qaysi ijodkor birinchi o'zbek teatr truppasi - "Turon" to'garagini ochib, o'zi va zamondoshlari asarlarini sahnalashtirgan, ayrim rollarni o'zi ham ijro etgan? ***/// **Abdulla Avloniy**

3261. Quyidagi qaysi qahramon “Yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko‘krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm” deya tasvirlangan? ( “Ravshan” dostoni) ***/// **Gulanor**

3262. Quyidagi qaysi she’rini Erkin Vohidov qo'shma vaznda yozgan? ***/// **“Majnuntol”**

3263. Quyidagi she’riy parcha qaysi ijodkor qalamiga mansub? Hayo, nomus iymona dalildir Hayosiz doimo xor-u zalildir.

Uyalma ma’rifat hosil qiluvdan

Maorifsiz kishilar murda dildir. ***/// **Avloniy**

3264. Quyidagi she’riy parcha qaysi ijodkor qalamiga mansub? Hayo, nomus iymona dalildur, Hayosiz doimo xor-u zalildur.

Uyalma ma’rifat hosil qiluvdan,

Maorifsiz kishilar murda dildir» ***/// **A. Avloniy**

3265. Quyidagi she’rlarning qaysilarida lirik qahramon oradan bir necha yillar o‘tib qishlog‘ini ziyorat qilishga kelganida o‘z bolalik xotiralarini esga oladi? ***/// **"Qishlog'im", "Qadrdon so'qmoqlar"**

3266. Rasul Hamzatov she’rlaridan birida nimani “Jonimga Masihdir” deb e’zozlaydi? ***/// **ona tilini**

3267. Ravshan tomonidan Avazxonning qizi Gulanorga kim sovchi bo'lib bordi? ("Ravshan") ***/// **Go'ro'g'li**

3268. Ravshan Zulxumorni qayerdan qidiradi? ("Ravshan" dostoni**).** ***/// **Qalpoq bozoridan**

3269. Sen bo‘lmasang otang holi ne kechar?

Sensiz menga falak kafan

to‘n bichar, Dunyoning

bolini zahar deb ichar,

Harna yo‘g‘-u borim,

senga yo‘l bo‘lsin.

Ushbu parcha qaysi asarda uchraydi? ***/// **“Ravshan”**

3270. Sh. Xolmirzayevning “O’zbeklar” hikoyasida “Men bu yerda oddiy-jaydari, sodda o‘zbekning kengligi to‘porligini ko‘rdim”, - degan hayrat qaysi badiiy qahramon nutqida uchraydi? ***/// **Ergash**

3271. Sh.Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasidagi: “Biz ablahmiz! Ko‘ra-bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o‘zbekmiz-a?” degan iztirobli nido kimga tegishli? ***/// **Azimjonga**

3272. Shavkat Rahmon qaysi chet el adibi she’rlarini o‘zbekchaga tarjima qilib, “Saylanma” nomi bilan chop ettirdi? ***/// **Federiko Garsiya Lorka**

3273. Shavkat Rahmonning qaysi she’rida tabiat tasviri kishi ruhiyatiga mahzunlik uyg’otadi? ***/// **“Tunggi manzara”**

3274. Shoira Uvaysiyning "Anor" chistonidagi qofiyadosh so‘zlar tartibi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan? ***/// **nishon, makon, qon**

3275. Shuhrat frontdan qaytgach, urush mavzusidagi qaysi asarlarini yozgan? ***/// **"Shinelli yillar ", "Farzand", "So’lmas chechaklar”**

3276. Shuhrat qalamiga mansub dostonlarni toping. ***/// **“Farzand”, “So'lmas chechaklar”**

3277. Shuhratning "Farzand", "So’lmas chechaklar" nomli asarlari qaysi janrda yozilgan? ***/// **doston**

3278. Shuhratning 1958-yilda yozgan birinchi romanining nomini ko'rsating. ***/// **“Shinelli yillar”**

3279. Shuhratning 1965 yilda yozgan qaysi asari uning nomini elga mashhur qilgan?

***/// **“Oltin zanglamas”**

3280. Shuhratning ballada janrida yozilgan asarlari nomini belgilang. ***/// **“Ona va farzand”. “Jamila”, “Raymonda”**

3281. Shuhratning qaysi asarida sho’ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo‘lmish qatag’on davri mahorat bilan aks ettirilgan? ***/// **“Oltin zanglamas”**

3282. Shuhratning tugallanmay qolgan "Mashrab" asarining janrini toping. ***/// **roman**

3283. Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen

Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni. Bayt muallifi qaysi javobda berilgan? ***/// **Nodira**

3284. So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,

Rost navo nag'maga tahsin degil. Ushbu bayt Alisher Navoiyning qaysi asaridan olingan? ***/// **"Sher bilan Durroj"**

3285. Suvloqda chanqog‘ini qondirayotgan otlar, sevinchdan yig‘layotgan qiyoqlar, ovozini qayrayotgan chigirtka, bosh ko‘tarmay mehnat qilish bilan dunyoni masxaralayotgan chumoli timsollari qaysi shoir she’rida tasvirlanadi? ***/// **Sh. Rahmon**

3286. Taniqli adib Shuhratning asl ismi sharifi qaysi qatorda berilgan? ***/// **G’ulom Alimov**

3287. Tog‘asi Muhammad Siddiq bilan haj safariga chiqib, Turkiya, Arab mamlakatlarida bo'lgan shoir kim? ***/// **Zavqiy**

3288. Tog'ay Murod qaysi asari uchun Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan?

***/// **“Otamdan qolgan dalalar”**

3289. Tokchadagi chiroq lip-lip yonib turar edi. Gap bo’laklari to’g’ri izohlangan javobni toping. ***/// **aniqlovchi, ega, hol, kesim**

3290. Tuproq ko‘chalardan chopgan bolalik,

Yillar changi uzra asta yo‘qoldi.

Bolalik ketdi-yu sho‘x suhbatlarda,

Uni kula-kula eslamoq qoldi. Ushbu she’r misralari qay tarzda turoqlangan. ***/// **6+5=11**

3291. Turdi qaysi g’azalining bir baytida «bir» so‘zini bir maromda besh marta takrorlaydi? ***/// **“Tor ko’ngillik beklar”**

3292. Turdining "Tor ko'ngillik beklar" g'azalida qanday ma’no ifodalanadi? ***/// **92 o'zbek urug'i tenglik qilishini so'raydi.**

3293. Unsin A. Qahhorning qaysi hikoyasi qahramoni? ***/// **“Dahshat”**

3294. Urush! Noming o’chsin jahonda sening, Hamon bitmas sen solgan alam. Ushbu misralar muallifini toping**.** ***/// **Zulfiya**

3295. Uvaysiy tarjibandining har bandida quyidagi qaysi misralar takrorlanadi?

***/// **Qutqar, ev xonim, Hasan baqqol balosidin meni..**

**Qilg’on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.**

3296. Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azalining yaratilishi haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

***/// **O‘g‘li Muhammadxonning sarbozlikka, yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari, sog‘inchini aks ettirib yozgan.**

3297. Uvaysiyning qaysi chistonida raviy qo'shimcha tarkibida qo'llangan? ***/// **"Кun va tun"**

3298. Vazndan vaznga ko‘chishga asoslangan she’riy tizim... ***/// **erkin vazn sanaladi**

3299. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonni bir to’da qizlar qip-qizil tentakka chiqarishadi? ***/// **Ravshan**

3300. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonning otiga “Ishrat devonaning otidan ham yomon” deya ta’rif beriladi? ***/// **Hasanxonning oti G‘irko‘k**

3301. Yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib zindonga tashlangan, ammo qo’rqoqlik qilmasdan dinini o’zgartirish haqidagi taklifni rad etib, o’z e’tiqodidan, dinidan kechmasligini aytgan badiiy qahramon kim? ***/// **“Ravshan” dostonidagi Ravshan** 3302. Yuzidin barqi gul xijil edi, Qaddidin sarv munfail edi.

Borcha fazl-u hunarga yo'q misli,

Ko'zguga boqsa o'zi yo'q misli. Ushbu ta’rif "Xamsa"ning qaysi qahramoniga tegishli? ***/// **Suhaylga**

3303. Yuzing go'zallikda gul kabidur. Ushbu misradagi tashbeh unsurlari qaysi javobda to'g'ri berilgan? ***/// **yuz - o'xshamish, gul - o'xshatilmish, go'zallik - asos, kabi – vosita**

3304. "... Xolbekaning jamolini ko'rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo'lib, ixtiyori qo'lini oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo'ya berdi". "Kuntug'mish" dostonidan olingan ushbu parchadagi nuqtalar o'rnini to'ldiring. ***/// **Buvraxon**

3305. "Analhaq deb Mansur senga osildi, Assalomu alaykum, dorning og'ochi", - degan nola kimga tegishli va bu nolaga kim qarshi chiqadi? ***/// **Xolbeka; Gurkiboy**

3306. "Aruz haqida" kitobi muallifi kim? ***/// **Fitrat**

3307. "Atlas" dramasining muallifini ko'rsating. ***/// **U.Nosir**

3308. "Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar", "Fayzullodek mardi maydonlar", "Jayrondek termulgan Cho'lponlar", "Olislarda qolgan Usmonlar", "Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar" kabi ifodalarni o'z she’rlarida qo'llagan shoirni aniqlang. ***/// **M.Yusuf**

3309. "Bizlarga farzand bersa, o’g’il bo’lsa qo’lqanot bo’lsin, qiz bo’lsa do’st bo’lsin". Ushbu fukrlar qaysi dostondan olingan? ***/// **"Kuntug’mish"**

3310. "Chinor" romani (Asqad Muxtor) qahramonlari to'g'ri berilgan javobni toping. ***/// **Ochil buva, Azimjon, Akbarali, Bektemir**

3311. "Da’vogar sust bo‘lsa, qozi muttaham" maqoli qaysi asar mazmuniga mos keladi? ***/// **"Nur va soyalar"**

3312. "Eng eski turkiy adabiyot namunalari", "O‘zbek adabiyoti namunalari", "Sharq shaxmati", "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "Fors shoiri Umar Xayyom" singari ilmiy asarlar yaratgan adib kim? ***/// **Fitrat**

3313. "Farg‘ona tong otguncha" roman-dialogiyasi muallifi kim? ***/// **Mirzakalon Ismoiliy**

3314. "Hamma sukutda, shunday fursatda gunohkorni odobsiz so'zlar bilan so'kib turuvchi

Xudoyor ham jim. Chunki a’yon nazarida har bir odobsizligiga Anvar tarafidan kuchli haqorat olish ehtimoli bor. ... ta’biri bilan aytganda, dunyoda hayotidan qo'l yuvguchidek tili uzun kishi bo'lmas ". A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan olingan ushbu parchadagi nuqtalar o'rniga kerakli shoir nomini to'g'ri qo'ying. ***/// **Shayx Sa’diy**

3315. "Iltijo" nomli she’r yozgan shoirlarni toping. ***/// **M. Yusuf, T.Sulaymon** 3316."Iqror", "Tilak" kabi vatanparvarlik ruhida yozilgan she’rlarning muallifini toping. ***/// **M. Yusuf**

3317. "Jim! ... Ufqdan botar quyoshni Shart kesilgan boshga o‘xshatdim.

Parcha-parcha kuygan shafaqlar

Tirqiragan qonni eslatdi!" Ushbu misralar qaysi shoirning qaysi asaridan olingan? ***/// Usmon Nosirning "Monolog" she’ridan

3318. "Jonga chun dermen: ne erdi o’lmakim kayfiyati?" A.Navoiy nomli g'azalida oshiq qahramon nimalarni so‘roqqa tutadi? ***/// **jon, jism, bag’ir, ko’ngil, ko’z**

3319. "Kuntug’mish" dostonida qaysi qahramon xarakterida o’ziga bino qo’yganlik, qahri qattiqlik, ammo shu bilan birga ko’ngilchanlik belgilari ham namoyon bo’ladi?. ***/// **Buvraxon**

3320. "Kuntug'mish" dostonida Gurkiboy bilan Mohiboy Zangar shahridan chiqishda kim bilan janjallashib, uni o'ldirib ketishadi? ***/// **cho'pon**

3321. "Kuntug'mish" dostonida karvonboshi Azbarxo'ja qanday kishi edi? ***/// **xasis, xudbin, razil**

3322. "Kuntug'mish" dostonida Xolbeka dorga qarab aytgan nolasida kimdan madad so'raydi? ***/// **Bobo Zangi podachidan**

3323. "Mehrobdan chayon" romanida qaysi qahramon o'z nutqida "pala’nat" so'zini ko'p ishlatadi? ***/// **Sharif**

3324. "Mehrobdan chayon" romanida Solih maxdum qachon Anvar haqida "odam bo'laturgan ko'rinasan", deb o'ylaydi? ***/// **Anvarga Muhammad Rajabbek sarpolar olib berganida**

3325. "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Javohirlar sandig'i" asarlari qanday xususiyati bilan mushtaraklikni hosil qiladi? ***/// **har uchalasi didaktik yo'nalishda yozilgan**

3326. "Mirzo Ulug‘bek" (M.Shayxzoda) fojiasida "toj boshdagi flkrga qafas" degan gap qaysi qahramonga qarata aytilgan? ***/// **Mirzo Ulug'bekka**

3327. "Mirzo Ulug‘bek" (Maqsud Shayxzoda) fojiasidagi Piri Zindoniyning ismi kim**?** ***/// **Hasan Ohangar**

3328. "Mirzo Ulug'bek" (Maqsud Shayxzoda) dramasida Ulug‘bek Mirzo bilan: Eshitganman, o‘taketgan fozil ekansiz, Ammo, asli shoh o‘g‘lisiz, shu uchun har dam, Ko'zingizni qamashtirar toj yaltirog‘i ... deya jiddiy munozara qilgan qahramon nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko'rsatilgan? ***/// **Hasan ohangar**

3329. "Monolog" (Usmon Nosir) she’rida "guldan yaralgan pari", "tosh ko"ngilli" deb kimga ta’rif berilgan? ***/// **Biatriche**

3330. "Monolog" she’ri (Usmon Nosir) qaysi misralar bilan boshlanadi? ***/// **Sevgi! Sening shirin tilingdan Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?** 1) suvchi qizi; 2) oshpaz shogirdi; 3) maktab bog'i; 4) o‘rgatuvchi mashinasi; 5) tabib ayoli; 6) zardo'z xotini; 7) bola tilagi. Ot+ot qolipida berilgan moslashuvli birikmalardan egalik qo'shimchasi tushirib qoldirilganda bitishuvli birikma hosil qilish mumkin bo'lganlarini ajrating. ***/// **1, 2, 4, 5, 6**

3331. "Muxtasar islom tarixi", "O'qu" singari bolalar ta’lim tarbiyasida muhim rol o'ynagan maktab darsliklari muallifi kim? ***/// Fitrat

3332. "Pushkinga", "Gurjiston shoirlariga" kabi she’rlar muallifini aniqlang**.** ***/// **S. Yesenin** 3333. "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas" maqoli qaysi asarda keltirilgan? ***/// **"Mehrobdan chayon"**

3334. "Qush tilini qush biladi" maqoli qaysi asarda uchraydi? ***/// **"Mehrobdan chayon”** 3335."Qutadg'u bilig" dostonidagi O'zg'urmish,

O'gdulmish, Oyto'ldi, Kuntug'di qanday obrazlar hisoblanadi? ***/// **ramziy obrazlar**

3336."Qutadg'u bilig" ni eronliklar va turonliklar qanday atashgan? ***/// **Eronliklar -**
**"Shonomayi turkiy", turonliklar - "Qutadg'u bilig"**

3337."Qutadg'u bilig"da qaysi qahramonlar aql, adolat timsoli? ***/// **O'gdulmish-aql timsoli, Kuntug'di- adolat timsoli**

3338."Said Ahmadning "Ufq" romanini kitobxon boshdan oyoq shavq bilan, ishtahasi bo'g'ilmasdan, diqqati susaymasdan o'qib chiqadi". Mazkur fikr muallifi kim? ***/// **Abdulla Qahhor**

3339."Tarjimayi holim"ga Xayolim bir uchib ketib qoladir. Kimning qaysi asari yuqoridagi misralar bilan boshlangan? ***/// **Cho'lpon, "Men shoirmi?"**

3340."Xudoynoma" ("Hukmdorlar haqida kitob") asari haqidagi to'g'ri fikrni belgilang. ***/// **III-VII asrlarda hukmronlik qilgan sosoniylar amri bilan eski fors tilida yozilgan.**

3341."Yevgeniy Onegin" she'riy romani (A.S.Pushkin) qaysi asar ta'sirida yaratilgan? ***/// **"Don Juan"**

3342."Yomg'ir suvi to'lganda, tog' lolasin jom etsin" deb yozgan adib qaysi javobda ko'rsatilgan? ***/// **Furqat**

3343."Yusuf va Zulayho" nomli dostoni yoki shunday doston yozganligi haqidagi ma'lumotlar yetib kelgan ijodkorlar qaysi qatorda berilgan**?** ***/// **Firdavsiy, Durbek**

3344."Zafar", "Dushman" kabi dramalarning muallifini toping. ***/// **U.Nosir**
3345. ... ma'naviy suhbatlar chog'ida bodaxo'rlik qilishni xush ko'rganlar. Lekin har gal ichkilikbozlikdan keyin Yaratganga iltijo qilib, mayxo'rlikdan tavba berishini so'raganlar... Ushbu fikr qaysi asardan olingan, bu fikr kim haqida? ***/// **"Holoti Sayyid Hasan Ardasher", Sayyid Hasan Ardasher haqida**

3346..Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida Anvar necha yoshida uchinchi oilani ko'rdi? ***/// **12**

3347." ...o'zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko'ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi." Ushbu ta'rifda quyidagilardan qaysi biri tilga olingan? ***/// **Anvar**

3348."... bir tush ko'rdi: chiltanlar va mardon g'oyiblar bir tongda suhbat qilib o'tirib edi, bir chiltan kelib qizning ruhini olib bordi, bittasi kelib yigitning ruhini olib bordi... " Ushbu tush voqeasi qaysi dostondan olingan? ***/// **"Kuntuglmish"**

3349."... qoshini kerib. Labini burib, chikka bel bo'lib shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo'ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi". Ushbu ta'rif qaysi qahramonga berilgan? ***/// **Xolbeka**

3350."Bu dunyoda men bir yo'lovchi" (S. Yesenin) she'ri haqidagi tog'ri fikrni toping. ***/// **She'rda sof insoniy sevgi-muhabbat haqida so'z ochilib, u vatanga mehr-muhabbat tuyg'usini ulug'lash bilan yakun topdi.**

3351.“Kuntug‘mish” dostonida Azbarxo‘ja karvonidagi Qosim qanday yigit edi? ***/// **insofli, diyonatli**

3352.“Kuntug‘mish” dostonida Bahragul Xolbekaga kim deb murojaat qiladi? ***/// **oybibim**

3353.“Kuntug‘mish” dostonida Gurkiboy bilan Mohiboy Zangar shahriga kirib kelganida dastlab kimga duch kelishadi? ***/// **Xolmo'nun yasovulboshiga**

3354.“Kuntug‘mish” dostonida Qoraxon yolg‘iz farzandi behush bo‘lib yotganda kimga halqa qildirib qaratdi? ***/// **eshon**

3355.“Kuntug‘mish” dostonida Zangor podshosi Xolbekani o‘ziga turmushga chiqishi uchun... . ***/// **Xolbekani tilga olgan kishini jazoga mahkum etadi.**

3356.“Kuntug‘mish” dostonidagi Mohiboy bilan Gurkiboy Zangar shahrida onalarini birinchi marta qayerda ko‘radilar?**B)** ***/// **Xolmo‘min yaslvulboshinikida**

3357.“Kuntug‘mish” dostonining bosh qahramonlari Kuntug‘mish va Xolbeka orqali qanday ishonch ko‘rsatib berilgan? ***/// **sof sevgi va adolat tantanasiga bo‘lgan ishonch**

3358.“Kuntug’mish” dostonida qaysi qahramon Xolbekaga “Kofirmisan, dorga yalinasan?” deya tanbeh beradi? ***/// **Gurkiboy**

3359.“Mash’al” roman-dialogiyasi muallifi kim? ***/// **Hamid G‘ulom**

3360.“Mehrobdan chayon” romanida Anvarning mirzaboshi qilib tayinlanishiga sabachi bo‘lgan kishi kim edi? ***/// **Muhammad Rajab poygachi**

3361.“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Piri Zindoniy kimning bir kitobida yozilganki, donishmandlar kengashib turib, mamlakatni boshqarsalar, el bo‘lur obod deydi. ***/// **Abu Nasr Forobiyning** 3362. “O’zingdan kattani uchratsang pir bil,

O’zingni er bilsang birovni sher bil” Ushbu hikmatli so’z darajasiga ko’tarilgan bayt qaysi dostondan olingan? ***/// **“Kuntug’mish”**

3363.“Osmon sahnasida faqat ikki aktyor o‘ynamoqda – bulut va quyosh, ularning har biri o‘z rolini bajaradi, ammo yer sahnasida, ayni bir vaqtda necha joyda, qancha pyesalar o‘ynalayotganini hisoblash mumkin emas” Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***///

**“Nur va soyalar”**

3364.“Qirga chiqqan xotinning bolasi”, “mo‘ltonining bolasi”, “qozoqning bolasi” deb taxmin qilingan obrazni toping. ***/// **Gurkiboy**

3365.“Tun qancha qorong‘u bo‘lsa, oy shuncha yorug‘” misrasi qaysi shoir qalamiga mansub? ***/// **U. Nosir**

3366.“Xandon pista”, “Bir o’pichning bahosi”asarlari haqida qaysi javobda to’g’ri ma’lumot berilgan? ***/// **S. Ahmadning qissalari**

3367.«Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi va turkcha devoni mashhurdir». Lutfiyga berilgan ushbu ta’rif kim tomonidan aytilgan? ***/// **Alisher Navoiy**

3368. 1981-yilda Turob To'laning yosh o‘quvchi do'stlariga atab e’lon qilingan ajoyib, o‘ziga xos nasriy asarini belgilang. ***/// **"Yetti zog'ora qissasi"**

3369. A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she’riy romanini o'zbekchaga tarjima qilgan shoirni aniqlang. ***/// **Oybek**

3370. Abdurauf Fitrat dramalari nomi berilgan qatorni toping. ***/// **"Chin sevish", "Abulfayzxon", "Arslon"**

3371. Adabiyotimizda qaysi oshiq o'z sevgilisiga "Ardoqli millatim, g'unchayi muhabbatim, suyukli afandim... " deya xat yozadi? ***/// **Maryamxon Mahmudxonga**

3372. Alisher Navoiy "Deyin" radifli 7 baytli g'azalida "deyin" so'zini badiiy maqsad uchun necha marta qo‘llagan**?** ***/// **8 marta**

3373. Alisher Navoiy g'azallaridan olingan quyidagi baytlarning qaysi birida Allohning sirlariga yetishishga ishora qiluvchi tasavvufiy timsol bor?

***/// **Yuzing visoliga yetsin desang ko'ngul g’ami Sochingni boshtin ayoq chin ila shikan qilg'il.**

3374. Alisher Navoiyning "Jonga chun derman: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati? ..." g'azali maqta’sida... ***/// **lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekanligini tan oladi**

3375. Alisher Navoiyning “Munshaot” asarida “... umm ul-xabois”, ya’ni “yararnasliklar onasi” deb hisoblangan narsa nima? ***/// **chog'ir**

3376. Alisher Navoiyning faqat xatlardan (boshqalar bilan yozishmalardan) tashkil topgan asari qaysi? ***/// **“Munshaot”**

3377. Alisher Navoiyning ilk she’riy devonlari... ***/// **“Badoye’ul-bidoya”, “Navodirunnihoya”**

3378. Alisher Navoiyning lirik asarlari jamlangan devoni qanday nomlanadi? ***/// **"Xazoyin ul-maoniy"**

3379. Aql-u, fahrn-u, hush-u idrokim sazovor o‘ldikim,

Mijmari bardosh ichinda nordurman ishqida. Ushbu baytdagi tagiga chizilgan so‘zlar qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **mijmar - cho'g'don, nor – olov**

3380. Aruzga oid asar ko'rsatilgan qatorni belgilang. ***/// **"Mezonul - avzon"**

3381. Asqad Muxtor asarlarining janrini to‘g‘ri belgilang. 1) “Karvon qo‘ng‘irog‘i”; 2) “Insonga qulluq qiladurmen”; 3) “Opa-singillar”; 4) “Buxoroning jin ko‘chalari”;a) roman; b) qissa; s) she’riy to‘plam; d) hikoyalar to‘plami ***/// **a-3; b-4; s-1; d-2** 3382. Barcha nomunosib ishlardan tiyuvchi uyatdir,

Barcha xayrli ishlarga yo‘llovchi uyatdir.

Ushbu she’riy parcha kimning qaysi asaridan olingan? ***/// **Yu. X. Hojib, “Qutadg‘u bilig”**

3383. Bayroqning qulashi mag'lubiyat belgisi ekanligi qaysi asar(lar)da keltirilgan? A.Oripov,

"Sohibqiron" ***/// **R.Thokur, "Nur va soyalar"Firdavsiy, "Shohnoma", S. Yesenin, "Ona ibodati"**

3384. Baytlardagi mantiqiy bog'liqlik nuqtayi nazaridan bir-biriga o'xshash bo'lgan g'azallarni toping. ***/// **"Jong'a chun derman: Ne erdi o'lmakim kayfiyati" va "Yo'q" radifli g'azallar**

3385. Beklikka tekkan dard davosi aql va bilim, Uni aql bilan emla, ey xalqi muloyim. kabi didaktik baytlar muallifi kim**?** ***/// **Yusuf Xos Hojib**

3386. Bir tola soch, uzuk, surat, sandiq kabi detallar qaysi asarda uchraydi? ***/// **"Kuntug'mish"**

3387. Bitta non uchun o‘zini va oilasini vaqtincha qiyinchilik hamda ayriliqlarga duchor qilgan qahramon qaysi dostonda uchraydi? ***/// **"Kuntug’mish" da** 3388. Bormi sendan o'ksuz yo‘qsulning qonin?

Gurunglashib, chog‘ir kabi ichkanlar. "Mirrix yulduziga" she’ridan olingan ushbu parchadagi ostiga chizilgan so'zning ma’nosi qaysi qatorda berilgan? ***/// **baxtsiz**

3389. Boshqaruv ilmi, rahbarga qo'yiladigan talablar yuksak darajada tahlil etilgan, bundan 10 asr ilgari yaratilgan asarni belgilang**.** ***/// **Yu.X.Hojib, "Qutadg'u bilig",**

3390. Chaman ichinda bir gul, Gul bir yon, chaman bir yon,

Sarv-u Sanobarimdir,

Soch bir yon, suman bir yon. Ushbu misralar muallifini toping. ***/// **To'ra Sulaymon**

3391. Davlat ishlaridagina emas, balki dunyoning barcha ishlarida aql, idrok bilan ish ko'rishni targ'ib qilgan didaktik asar qaysi qatorda to'g'ri berilgan? ***/// **"Qutadug u bilig"** 3392. E.Vohidov S.Yesenin she’riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri bo'lmish qisqa-qisqa vaznlarda yozish odatiga qat’iy amal qilib, qaysi she’rini yetti bo‘g‘inlik vaznda tarjima qilgan? ***/// **"Ona ibodati"**

3393. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo’raboy o’g’li, Nurmon Abduvoy o’g’li,

Egamberdi Ollamuroddan qaysi doston yozib olingan? ***/// **“Kuntug’mish”**

3394. Ey odami(y)lar joni, parig‘a ne bo‘lursan? Bu jism ila gulbargi tarig‘a ne bo‘lursan? Ushbu parcha muallifini belgilang. ***/// **Lutfiy**

3395. Firdavsiydan oldinroq somoniy hukmdorlar topshirig‘i bilan "Shohnoma" yozishga kirishgan, ammo tugatolmagan shoirni toping. ***/// **Daqiqiy** 3396. Fitrat she’rlaridan qaysi biri quyidagi misralar bilan tugaydi?

Bormi senda qorin — qursoq yo‘lida

Elin, yurtin, borin — yo‘g‘in sotqonlar**?** ***/// **"Mirrix yulduziga"**

3397. Folklorshunoslarning ma’lumotlariga ko‘ra nechanchi asrda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan? ***/// **XV – XVI asrda**

3398. Furqatning Istambulda yozilgan, Vatanni qo'msash, do'stlar sog'inchi maktub shaklida ifoda etilgan she’ri qaysi? ***/// **"Sabog'a xitob"**

3399. G'afur G'ulom "Vaqt" she’rida g'uncha ochilguncha o'tgan fursatni nimaga tenglashtiradi? ***/// **kapalak umriga**

3400. G'afur G'ulomning "Sog'inish" she’rida ta’kidlashicha, qaysi shoirning she’rlari otaga dalda bo'ladi, loyqa xayolotlarini chashmaday tindiradi? ***/// **Bedil**

3401. Hamdam xumdonchi qaysi asarda tilga olingan? ***/// **“Jinlar bazmi”**

3402. Hamza “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” to‘plamini qanday taxallus bilan bitgan? ***/// **Nihoniy**

3403. Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” fojiasida Maryamxonim bilan

Mahmudxon orasida xat yurituvchi 60 yoshlardagi kampir kim? ***/// **Zaynab**

3404. Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” fojiasida Mirzo Hamdamboyning oshnasi, uzun bo‘ylik, qora soqol, rasmiy kiyingan, Mahmudxonga muhabbatlik, bir ozgina zamondan xabardor kishi kim edi? ***/// **Abduqodirboy**

3405. Haydar Xorazmiy o’zining «Gulshan ul-asror» asarini kimning qaysi asari asosida yozgan? ***/// **Nizomiy Ganjaviy, «Maxzan ul-asror»** 3406. Ibo bilan suv oynasiga

Sekin boshin egdi nilufar. Ushbu go‘zal badiiy tasvir kimning qalamiga mansub? ***/// **Haynrix Hayne**

3407. Ijtimoiy-falsafiy mavzuda yozilgan romanni toping**.** ***/// **“Davr mening taqdirimda”**

3408. Jahonda erdi tanho men yetimga hamnishin, dildor,

G‘ariblikning diyorida adashgan notavon yig‘lar. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **"Mehrobdan chayon"**

3409. javobda Muhammad Yusuf dostoni to'g'ri berilgan? ***/// **"Osmonning oxiri"**

3410. Kayoniylar, peshdodiylar, ashkoniylar va somoniylar sulolalari haqida yozilgan asarni ko‘rsating. ***/// **Firdavsiy; "Shohnoma"**

3411. Kim Sharq ko'proq nasihat yo‘li bilan, G‘arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligni qayd etgan? ***/// **Abu Ali Ibn Sino**

3412. Kimning she’rida "Hasharchi qo'shni qizning ma’yus odim bosishi" ifodasi berilgan? ***/// **G'afur G'ulom**

3413. Kolxozlashtirish tufayli o'zbeklar hayotida ro‘y bergan o'zgarishlar aks ettirilgan asarni toping. ***/// **"Obid ketmon"**

3414. Ko'nglidagi armonlarini "ulab bo'lmas tor"ga o'xshatgan shoirni toping. ***///

**T.Sulaymon**

3415. Kuntug'mish Zangar yurtiga necha yigit bilan keladi? (“Kuntug'mish” dostoni) ***/// **qirq yigit bilan**

3416. Labing bag‘rimni qon qildi,

Ko‘zimdin qon ravon qildi,

Nechun holim yomon qildi, Men ondin bir so‘rorim bor.Ushbu parchada "iyhom" san’ati qaysi so‘z orqali aks etgan? ***/// **so‘rorim**

3417.Lermontovning "Iblis" dostonini kim yuksak badiiy mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan? ***/// **U. Nosir**

3418.Lutfiy g'azalidan olingan quyidagi baytlardagi radifni aniqlang.

"Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,

Xoru rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko‘ngul.

O’qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun,

Muttasil yo qiladurg'on bu ko‘nguldur, bu ko'ngul." ***/// **qiladurg'on bu ko‘nguldur, bu ko'ngul** 3419. Lutfiyning "Ayoqingga tushar har lahza gisu" g‘azalida keltirilgan maqollar tartibini to‘g‘ri toping. 1) "Chiroq tubi qorong'u". 2) "Kishining ko‘zidir ore tarozu". 3) "Qo‘rqar qaydakim qon ko‘rsa hindu". 4) "Oqqan ariqqa oqar suv".5) "Tiloganni - tilogu" ***/// **1, 2, 4, 3, 5**

3420.Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azalida qofiyaga olingan so'zlar qaysi til(lar)ga xos? ***/// **arabiy, forsiy**

3421.Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" radifli g‘azali ta’sirida g‘azal yaratgan shoir kim**?** ***/// **Mashrab**

3422.Lutfiyning boshdan oxirigacha irsoli masal san’atiga asoslangan “Ayoqingg!a tushar” deb boshlanuvchi g‘azalining so'nggi baytida qaysi maqol qo'llangan? ***/// **“Tilaganni tilogu”**

3423.Lutfiyning boshdan oxirigacha irsoli masal san’atiga asoslangan “Ayoqingg‘a tushar” deb boshlanuvchi g'azalining “Yuzingni tuttum ortiq oy-u kundin”deb boshlanuvchi baytida qaysi maqol qo‘llangan? ***/// **“Kishining ko'zidur, ore, tarozu”**

3424.Lutfiyning boshdan oxirigacha irsoli masal san’atiga asoslangan “Ayoqingg‘a tushar” deb boshlanuvchi g‘azalining “Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur”deb boshlanuvchi baytida qaysi maqol qo'llangan?» ***/// **“Qo'rqar, qaydakim qon ko‘rsa hindu “**

3425.Lutfiyning boshdan oxirigacha irsoli masal san’atiga asoslangan “Ayoqingg‘a tushar” deb boshlanuvchi g‘azalining “Tutarmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni"deb boshlanuvchi baytida qaysi maqol qo‘llangan? ***/// **“Oqqan ariqqa oqar suv”**

3426.Lutfiyning boshdan oxirigacha irsoli masal san’atiga asoslangan “Ayoqingg’a tushar” deb boshlanuvchi g'azalining matla'sida qaysi maqol qo'llangan**?** ***/// **“Charog‘ tubi qarong'u”**

3427.Lutfiyning qaysi g‘azalida radifga olingan so‘z hozir ham Afg’oniston va Buxoro viloyatidagi ayrim o’zbeklar shevasida XV asr shaklidagi kabi saqlangan? ***/// **“Xoh inon, xoh inonma”**

3428.Lutfiyning qaysi g’azalida tanosib san’atiga qat’iy amal qilingan? ***/// **“Ne bo’lursan”**

3429.M. Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida elchilar bilan muloqotda rus elchisi Ulug‘bekdan nimani iltimos qiladi? ***/// **Turkistonning shohi matolari yuklangan karvonlar safi uzilmasligini**

3430.M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasida qaysi yurt elchilari Mirzo Ulug'bek bilan bo'lgan muloqotda Turkistonda din va millat ixtiloflari yolg'onligi, "Sharq vahshati" degan gap bo'hton ekanligini bilgani, bu haqda mag'ribdagi insonlarga rostini aytajagini ma'lum qiladi? ***/// **farang**

3431.M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasida qaysi yurt elchilari Mirzo Ulug'bek bilan bo'lgan muloqotda Samarqand va Buxoro olimlari kitoblaridan nusxa olishni so'raydi? ***/// **Misr**

3432.M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasidagi

"Yetim qolgan el dardiga kuyib yig'layman,

Bosh qo'yaman tuprog'iga ulug' insonning" misralari kimning tilidan aytilgan? ***/// **Piri Zindoniyning**

3433.Majnuntol tagiga o'tqazing meni,

Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,

Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim.

Ushbu she'riy parcha kimning qalamiga mansub? ***/// **Mirtemir**

3434.Maqsud Shayxzoda asarlarining janrini to'g'ri belgilang. 1) "Loyiq soqchi"; 2) "Oqsoqol";

3) "Jaloliddin Manguberdi"; 4) "Kurash nechun"; 5) "Kapitan Gastello"; 6) "Meros"; 7) "Chiroq"; 8) "Mirzo Ulug'bek"; a) doston; b) she'riy to'plam; c) drama. ***/// **a – 2, 6, 7; b – 1, 4, 5; c – 3, 8**

3435.Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asaridan olingan quyidagi so'zlarni kim aytgan? "Endi nega maydalandi Temur urug'i, Endi nega razillashdi hokimlar ruhi.

Endi nega mirzolarning ko'zlari ojiz,

Qulog'i kar, idroki bo'sh, iroda kuchsiz... " ***/// **Ulug'bek**

3436.Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasida tasvirlanishicha, Mirzo Ulug'bek ajnabiy elchilarga nimani tuhfa qiladi? ***/// **yulduz jadvalini**

3437.Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen, Vah qachon yetkaymen ul dilbanda men.

Bevafolarg'a meni qilding asir,

Sen menga sultonsen, ey dil, banda men. Ushbu tuyuq muallifini belgilang. ***/// **Lutfiy** 3438. Meni ishqdin ma'n etar soda shayx

Dema soda shayx, aytkim loda shayx. Ushbu baytdagi "loda shayx" birikmasining ma'nosini aniqlang. ***/// **ahmoq, aqlsiz, befahm, hayosiz**

3439.Muhammad Yusufning "Mehr qolur, muhabbat qolur" nomli she'ri qaysi shaklda yozilgan? ***/// **murabba (to'rtlik)**

3440.Muxtor qalamiga mansub romanlarni aniqlang. ***/// **"Tug'ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor", "Amu", "Opa-singillar"**

3441.Navoiy yoshlik chog'larida mashhur o'zbek va fors shoirlaridan 50 ming bayt yod olgani haqida qaysi asarida aytib o'tadi? ***/// **"Muhokamat ul-lug'atayin"**

3442. Navoiyning "Jong'a chun dermen ..." deb boshlanadigan g'azalida lirik qahramon bilan munosabatda bo'lgan tan a’zolari qaysi qatorda to'g'ri tartib bilan berilgan? ***/// **jon, jism, bag'ir, ko'ngil, ko'z**

3443. Navoiyning "Jong'a chun dermen ..." deb boshlanuvchi g'azali shoirning qaysi devoniga kirgan**?** ***/// **"Favoyid ul-kibar"**

3444. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni tuzilgan paytida necha devondan iborat bo‘lgan? ***/// **to'rtta**

3445. Navoiyning “Shayx” radifii g'azalida qo’llangan “soda shayx” birikmasi qanday ma’noda kelgan? ***/// **soxta shayx**

3446. Navoiyning qaysi g'azalida Odam Atoning loydan yaratilganiga ishora bor? ***/// **"Qilg'il" radifli g'azalida**

3447. Nodira muashsharining 10-bandida kimga murojaat etiladi? ***/// **mug'anniyga**

**(sozandaga)**3. Salim juda o‘tkir bola ekan. ***/// **ko‘p ma’noli so‘zlar**

3448. Nodiraning “Firoqnoma” asari qaysi she’riy shaklda yaratilgan? ***/// muashshar

3449. Nodiraning “Firoqnoma” muashsharida nechanchi bandlarida hasbi hol yetakchilik qilgan, yanada kuchaytirilgan? ***/// **7-9-bandlarida**

3450. Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,

Olaming zulmoti tundir, odaming nodori ilm.Ushbu parcha Hamzaning qaysi she’ridan olingan? ***/// **"Ilm ista"**

3451. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan ko‘ra, duosiz yeb-ichishni a’lo ko‘rgan qahramon kim? ***/// **Anvar**

3452. Ona yurtidan tashqari Arabiston, Hindiston, Turkiya, Tiflis, Bokuda ilm-u dunyoqarashini boyitgan qaysi ma’rifatparvar shoir ma’lum vaqt Hindistonda o'qituvchilik ham qilgan? ***/// **So'fizoda**

3453. Orqadoshlar, to‘planaylik jahlning uyin yiqqali,

El ko‘zin olgan qorong‘u pardalarni yirtqali.

Ushbu she’riy parcha mullifini belgilang**.** ***/// **Fitrat**

3454. O'zbek adabiyoti tarixida masnaviy yoli bilan yaratilib, bizgacha toliq holda saqlanib qolgan didaktik asarni belgilang. ***/// **"Qutadg'u bilig"**

3455. O'zbek adabyoti tarixida masnaviy yo'li bilan yaratilib, bizgacha to'liq holda saqlanib qolgan didaktik asarni belgilang. ***/// **"Qutadg'u bilig"**

3456. Qadimgi urf-odatlarga ko‘ra, kimning boshiga saroydan uchirilgan qush uch marta qo‘nsa, o‘sha odamni oq kiygizni chiqarib, saroy ayonlari chir tevaragidan ko‘tarib, taxtga o‘tqazish va jarchilarning: - zamon kimning zamoni, qalandarxonning zamoni. – deb ko‘chalarda jar solish marosimi qaysi dostonda berilgan? ***/// **“Kuntug‘mish”da**

3457. Qanotni chimirib qo‘nib ustiga, Amri xudo bo’ldi, cho’qidi, teshdi.

Qo’lin solib ikkalasi yirtishdi,

Sog’ salomat shu quduqdan chiqishdi. Ushbu parcha qaysi dostondan olingan? ***///

**«Kuntug‘mish»**

3458. Qaysi asarda "quv og'och" detali keltirilgan? ***/// **"Kuntug'mish" dostonida** 3459. Qaysi asarda bek o'zida ko'p fazilatlarni kamolga yetkazish bilan birga, shoshqaloqlik, ochko'zlik, jaholat, buzuq fe'llilik, yolg'onchilik kabi illatlardan ehtiyot bo'lmog'i zarurligi ta'kidlangan? ***/// **"Qutadg'u bilig**

3460. Qaysi asarda Mansur Halloj bilan Bobo Zangi nomi birga keltirilgan? ***/// **"Kuntug'mish" dostonida**

3461. Qaysi asarda shohning taxti "Bir taxt edi, undan past kelardi Moh" deya tasvirlanadi?

***/// **"Shohnoma"da Kaykovusning**

3462. Qaysi ijodkor "Tug'ilish" nomli ham she'r, ham roman yozgan? ***/// **A.Muxtor**

3463. Qaysi ijodkor Vatan haqida "Axir bu go'zal Vatan Allohning el qatori menga ham atagan buyuk tuhfasi" deydi? ***/// **O.Sharofiddinov**

3464. Qaysi ijodkor Vatan haqida "Axir bu go'zal Vatan Allohning el qatori menga ham atagan buyuk tuhfasi" deydi? ***/// **O.Sharofiddinov**

3465. Qaysi ijodkor: "Zulm yonib turgan o'tdir, yaqinlashsang kuydiradi, adolat suv kabidir, oqsa ne'mat unadi" deb yozadi? ***/// **Yusuf Xos Hojib**

3466. Qaysi ijodkorning asosiy taxallusi "tug'ma tabiat", yana bir taxallusi "xushbo'y o't yoqiladigan cho'g'don" degan lug'aviv ma'nolarni anglatadi? ***/// **Abdurauf Fitrat**

3467. Qaysi ijodkorning she'rlaridan birida soya insonga do'st bo'lolmasligi orqali do'stlik muqaddasligi ochib berilgan? ***/// **A.Muxtor**

3468. Qaysi janrda dilogiya, trilogiya, tetrologiya yaratiladi? ***/// **roman**

3469. Qaysi javobda nasriy-she'riy (aralash) yo'lda yozilgan asarlar to'g'ri berilgan? ***/// **"Guliston", "Mahbub ul-qulub"**

3470. Qaysi qatorda Asqad Muxtor pyesasining nomi berilgan? ***/// **"Samandar"**

3471. Qaysi shoir ijodida o'y-xayollar "yaralangan qanotday og'ir" deb tasvirlangan? ***///

**U.Nosir**

3472. Qaysi shoir Yusuf payg'ambarning bir muddat Misrda yashaganida ishora qilib, yoriga: "Misrning nabot-u shakariga kim bo'lasan?" degan savolni beradi? ***/// **Lutfiy** 3473.Qaysi shoir(a)ning turkiy devonidan 189 ta g'azal o'rin olgan? ***/// **Nodira**

3474. Qodiriy yozuvchilik faoliyatiga birinchi qadamni qaysi asari orqali qo'ygan? ***/// **"Yangi masjid va maktab" sarlavhali xabar**

3475. Quyidaagi romanlarning qaysi biri o'n jildlik roman? ***/// **Rollan «Jan Kristof»**

3476. Quyidagi asarlarning qaysi birida bahorni ta'riflab aytilgan "har turli chechaklar ochildi, xuddi (sernaqsh) ipak gilamlar yozilganday" kabi fikrlar uchraydi? ***/// **"Qutadg'u bilig"da**

3477.Quyidagi g'azallarning mualliflari qaysi javobda to‘g‘ri ko'rsatilgan? "Shayx"; 2) "Jong'a chu dermen. .. "; 3) "Ne bo'lursan"; 4) "Bo'ldum sanga"; 5) "Haq ul kunkim... 6) "Ayoqingga tushar har lahza gisu" ***/// **1, 2, 4 - A.Navoiy; 3, 5, 6 - Lutfiy**

3478.Quyidagi parcha muallifi kim va qaysi asardan olingan? "Shayx Sa’diy aytgancha, dunyoda hayotidan qo’l yuvguvchidek tili uzun kishi bo‘lmas. Darhaqiqat, insonni razolatga solguvchi uning manfaati taqozosi, qola bersa o‘limdir. Bu ikkisidan kechguvchiga esa na podshohning qahri na jahannamning qahri farqsizdir". ***/// **Abdulla Qodiriy, "Mehrobdan chayon".**

3479.R.Thokurning hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi kurashi, mustamlaka siyosatiga nisbatan keskin noroziligi ifodalangan va o'zbek tiliga tarjima qilingan hikoyalarini belgilang. ***/// **"Hisob-kitob", ".lazo", "Nur va soyalar"**

3480.R.Thokurning Hindiston milliy madhiyasiga aylangan she’ri qaysi? ***/// **"Xalq qalbi"**

3481.Respublikamizda “tahrir maktabi” iborasi qaysi shoir nomi bilan bog‘liq? ***/// **A. Muxtor**

3482.Ro'zi davlatlik bo'lsa ham, ilm-ma’rifatdan yiroq, olti yildan baqqa qancha pullar sarf qilib o‘g‘lini nega, nima maqsadda o'qitganini o‘zi ham deyarli tushunmaydigan shaxs obrazi qaysi asarda tasvirlangan? ***/// **Hamza, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari"**

3483.S. Yesenin qaysi she’rida A. S. Pushkinning “Baxtlidir jomini ichib bo‘lmagan” misrasini keltirgan? ***/// **“Singlimga xat”**

3484.S. Yeseninning “Singlimga xat” she’ri nimadan boshlanadi? ***/// **Aleksandr Delvig haqidagi she’rining xuddi gulbog’ ko’ngliga yaqinligini qayd etishdan boshlanadi**

3485.S. Yeseninning qaysi she’rida, tinch erkalovchi oy timsoli berilgan? ***/// **“Bu dunyoda men bir yo’lovchi”**

3486.S.Yeseninning “Xurosonda bir darvoza bor” she’ri haqida to‘g‘ri fikrni toping. ***///

**She’rning har bir bandidagi takrorlar she’rning o‘ziga xos ohangi, jarangi va ta’sirchanligini ta’minlagan.**

3487.S.Yeseninning qaysi she’rida badiiy takror asarning o‘ziga xos ohangi, jarangi va ta’sirchanligini ta’minlagan? ***/// **"Xurosonda bir darvoza bor"**

3488.T.Sulaymon qaysi she’rida "Maysadagi shudiringlar kimlarning ko‘z yoshlari?" degan falsafiy ifoda yaratgan? ***/// **"Iltijo"**

3489.Toshkent yerlari gimnaziyasi direktori “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri N. Ostroumov qaysi shoirning haytida katta rol o‘ynagan? ***/// **Furqat**

3490.Toshkentni sevmoqlik yurakning ishi, Shu uchun shartmikan bunda tug'ilmoq! deya qaysi ijodkor o'z she’rida ta’kidlab o'tadi? ***/// **M.Shayxzoda**

3491. Tragediya (fojia) janridagi asarlar nomi qayd etilgan qatorni toping. ***/// **"Mirzo Ulug'bek", "Abulfayzxon", "Otello"**

3492. Tug'ilgan yurtini Quz O‘rdu deb eslatgan turkigo'y adib nomini belgilang. ***/// **Yusuf Xos Hojib**

3493. Tusiy nomi bilan shuhrat topgan shoirni belgilang. ***/// **Firdavsiy**

3494. Usmon Nosir “Nil va Rim” she’rida Rimni qanday ta’riflaydi? ***/// **o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr deb**

3495. Usmon Nosir ijodida 1927-1932 villarda qaysi yo'nalish ko'proq ko‘zga tashlanadi? ***/// **pulitsistika**

3496. Usmon Nosir qaysi she’rida "Ufqdan botar quyoshni, Shart kesilgan boshga o'xshatdim", - deb yozgan? ***/// **"Monolog"**

3497. Usmon Nosirning “Nil va Rim” she’rida “Mana menman, u qullarning hech so’nmas yodi”, – degan hayqirig’i nechanchi bandlarda o’z aksini topgan**?** ***/// **Uchinchi va oltinchi bandlarida**

3498. Uvaysiyning hasbi hol tarzida yozilgan g'azallarini belgilang. 1) "Uvaysiyman"; 2) "Sog'indim"; 3) "Anor"; 4) "Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi"; 5) "Kun va tun". ***/// **1, 2, 4**

3499. V.I.Kirshon "Ulug' kun" asarini qaysi janrda yozgan va uni o'zbek tiliga kim tarjima qilgan? ***/// **drama; U.Nosir**

3500. Xalq dostonlarida asosan necha bo‘g‘inli she’riy ifodalar uchraydi? ***/// **7, 8,** 11.

3501. Xalq dostonlaridagi qaysi qizni yigitlar bir marta ko‘rish uchun bir la’lidan tilla hadya qilib, so'ng uni tomosha qilishar edi? ***/// **Zulxumor**

3502. Xalq dostonlariga mos xususiyat qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?1. Xalq dostonlari qahramonlari favqulodda xususiyatga ega bo‘ladi. 2. Xalq dostonlari qahramonlari qaltis sinovlarga duch keladi. 3. Xalq dostonlari she’riy va nasriy yo‘lda yaratiladi. 4. Xalq dostonlari asosan yozma dostonlar ta’sirida yaratiladi. 5. Xalq dostonlari yirik hajmli va muallifi noma’lum bo‘ladi. 6. Halq dostonlari aytilish usuliga ko‘ra qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy va kitobiy dostonlarga bo‘linadi. ***/// **1,2,3,5**

3503. Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni qaysi xalq orasida "Amin ul mamlakat" nomi bilan shuhrat topgan? ***/// **mochinliklar**

3504. Yeseninning qaysi she’ri lirikaning yuksak talablariga javob berib, unda makon, zamon, holat va manzara aks etgan? ***/// “Dog’lar ketmish majruh ko’gildan”

3505. Yozuvchi S.Ahmadning "Ufq" asari haqidagi to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **uch kitob – trilogiya**

3506. Yusuf degan o'g'lidan ayrilgani uchun ko'zlari ko'r bo'lib qolgan Ya’qub payg'ambar nomi kimning qaysi g'azalida tilga olinadi? ***/// **Lutfiy, "Xoh inon, xoh inonma"**

3507. Yusuf Xos Hojib "Qutadg‘u bilig"da nimalarni el uchun mahkam bog‘ich deb hisoblaydi? ***/// **hushyorlik va siyosat**

3508. Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarida “qora bosh yovi” deb nimani aytadi? ***/// **tilni**

3509. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida qaysi toifa kishilarni “mutlaqo kerakli kishilar” deb ta’riflaydi? ***/// **dehqonlarni**

3510. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarida aytilishicha, bek xalqini nima bilan zabt etadi? ***/// **bilim bilan**

3511. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarining XV asrda Hirotda ko‘chirilgan nusxasi qaysi yozuvda bitilgan? ***/// **uyg‘ur yozuvida**

3512. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan nusxasi mavjudligi haqida dastlab kim ma’lumot beradi? ***/// **Valizoda**

3513. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni haqidagi birinchi ma’lumot qachon e’lon qilingan? ***/// **XV asrda**

3514. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni qaysi xalq orasida "Adab ul-muluk" nomi bilan shuhrat topgan? ***/// **chinliklar**

3515. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari mazmunan qanday asar hisoblanadi? ***/// **Pandnoma asar**

3516. Quyidagi baytning ikkinchi misrasini toping. Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma ...

(Lutfiy) ***/// **Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.**

3517. "... adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxir bir kun hissiyotidan, o'ydan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur". Ushbu fikrlar muallifini belgilang. ***/// **Cho'lpon**

3518. "Alpomish" dostonida aka-ukalarning farzandsizligini kim ularning yuziga soladi? ***/// **Bir chapanitob boyvachcha**

3519. "Alpomish" dostonida Alpomish, Qorajon, Barchinga tushlari vositasida nimaga ishora qilinadi? ***/// **kelajak taqdirga**

3520. "Alpomish" dostonida bir qancha xotinlar marosimi badiiy talqin etilgan. Shu marosim nomlarini ko'rsating. 1) "It irillar"; 2) "Kampir o’ldi"; 3) "Soch siypatar"; 4) "Qo‘l ushlatar";

5) "To'qqiz tovuq"; 6) "Surpa soldi"; 7) "Ko‘rpa bichdi" ***/// **1, 2, 3, 4**

3521. "Alpomish" dostonida biylar to‘ydan izza bo'lgach, chupronga qancha tilla tashlab chiqib ketadi? ***/// **80 tilla**

3522. "Alpomish" dostonida Boybo‘ri Boysaridan zakot so‘rab nechta mahramni yuboradi? ***/// **14 ta**

3523. "Alpomish" dostonida Boybo’rining mahramlari Boysaridan zakot olish uchun borganida Boysari o’n ming uyli qo’ng’irot eli bilan qaysi ko’lda dam olishayotgan edi? ***///

**Ko’kqamish ko’lida**

3524. "Alpomish" dostonida Boybo'ri o'g'lining yetti yoshida qaysi ilmni o'rgatish uchun uni mulladan chiqarib oladi? ***/// **shohlik, sipohlik ilmi**

3525. "Alpomish" dostonida poyga oxirida Boychibor qaysi ot bilan quvlashib, yo‘l talashib, poyganing oldini oladi**?** ***/// **Kokdo'nan**

3526."Alpomish" dostonida Surxayil kampir qaysi xususiyati bilan tanilgan edi? ***/// **buzg'unchiligi va janjalkashligi bilan**

3527."Alpomish" dostonida tasvirlanishicha, "Bir kam to'qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo'l qovushtirib" kimga ta’zim qildilar? ***/// **Alpomishga**

3528."Alpomish" dostonidan olingan quyidagi parchada tagiga chizilgan so’z qanday ma’no anglatadi? Biz ham borsak, nazri niyozimizni bersak, Shohimardon pirning ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab borsak. ***/// **g’or, bog’**

3529."Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda,

3530."Boburnoma"da Samarqand shahrini qaysi uluslar "Semiskand" deb ataganlari yozilgan?

***/// **mo‘g‘ul va turk**

3531."Do‘xtur Muhammadiyor" (Cho‘lpon) asari qaysi janrda yozilgan? ***/// **hikoya**

3532."Egam rahm aylasin qonli yoshima,

Sabab bo’lib qo’ngin teng-u to’shima" "Alpomish" dostonidan olingan ushbu nola kimning tilidan Boychiborga nisbatan murojaat tarzida aytilgan? ***/// **Barchin**

3533."Ey, Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O‘zing o‘lsang, molingga har merosxo‘r chiqadi... "

"Alpomish" dostonida ushbu so‘zlarni qayerda aytiladi? ***/// **to’yda**

3534."Farhod va Shirin" (Alisher Navoiy) dostoni qahramoni Farhod ota-onasi, Mulkoro va

Bahromga vasiyatlarini kimga(nimaga) aytgan? ***/// **Bodi saboga**

3535."Kecha va kunduz" romani (Cho‘lpon) qahramoni Zebini harbiy sud necha yilga surgun qiladi? ***/// **7**

3536."Kecha va kunduz" romanida Zebining ko'ngil qo'ygan kishisi kim edi? ***/// **O'lmasjon**

3537."Kimyo", "Mabdayi Nur" asarlarining muallifi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Mashrab**

3538."Ko'kning shuncha guldurosi ayt-chi, ey iflos. Bitta momoqaldiroqning o‘zi uchunmi?"

"Otello" tragediyasidan olingan ushbu jumlani Yagoga kim aytadi? ***/// **Otello**

3539."O‘tkan kunlar" (A.Qodiriy) romanida ota-onani haqsiz tashlab qo'ymaslik va ota-ona orzusiga ham haq berish masalasini Otabekka kim tushuntirgan edi? ***/// **Yusufbek hoji**

3540."Oshiqqa chamanzorda sarv daraxti bilan yosuman gulini nozik va ko'rkam deyishlari g'alati tuyuladi, chunki yorning qomati sarvdan, ko'ylagi guldan nozik", degan tasvir qaysi ijodkor g'azalida uchraydi**?** ***/// **Furqat**

3541."Otello" tragediyasida Emiliya "Erkak bo'lsang, sharmanda qil bu vijdonsizni" degan gapni kimga aytadi? ***/// **Yagoga**

3542."Otello" tragediyasida qaysi qahramon Dezdemonaning otasi bu dahshatni ko’rmay vafot etib ketganiga shukur qiladi? ***/// **Gratsiona**

3543."Otello" tragediyasida ro’y bergan fojia oqibatlari xabarini Venetsiyaga yetkazishni kim o‘z bo'yniga oladi? ***/// **Lodoyiko**

3544."O'tkan kunlar" romanida Otabekka xat yozgan Kumush uni qanday ataydi? ***/// qochoq

3545."O'tkan kunlar" romanida Otabekni chiroylik yigit, aqllik yigit deb maqtagan, maqtaymaqtay ichagi uzilgan ayol kim? ***/// **To‘ybeka**

3546."O'tkan kunlar" romanida quyidagi maqollardan qaysi biri qo'llangan? ***/// **Bilgan topib, bilmagan qopib so'zlar.**

3547."Oybek shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan". Oybek haqidagi ushbu fikrlar muallifi kim? ***/// **H.Yoqubov**

3548."Qarshisidagi daraxtga tirmashib, telefon simini qirquvchi qora choponli bir yigitni - ... ko‘rdi". Oybekning "Qutlug’ qon" romanidan olingan ushbu parchada Yo‘lchining ko‘zi tushgan kishining ismini belgilang. ***/// **O'roz**

3549."Qissai Rabg’uziy" asarida Ukoshaning payg’ambarimiz (s.a.v.) dan qasos talab qilishidan maqsadi nima edi? ***/// **payg’ambarlik muhrini ko’rmoqchi edi**

3550."Qiz suratida ko'ringan malak" – deya ta’riflangan qahramon nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **"O'tkan kunlar"da – Kumush**

3551."Qutlug‘ qon" (Oybek) romanida Olimxon ellikboshi kimning taklifi bilan Yo‘lchini jazolashni rejalashtiradi? ***/// **Salimboyvachcha**

3552."Qutlug’ qon" (Oybek) romanida Unsinning onasidan yodgor qolgan yagona zeb-ziynati nima edi? ***/// **kumush bilaguzuk**

3553."Sab’ayi sayyor" dostoni bosh qahramonlari to‘g‘ri ko'rsatilgan javobni belgilang. ***/// **Bahrom va Dilorom**

3554."Sab’ayi sayyor" dostonidagi (A.Navoiy) nechanchi iqlim yo'lidan kelgan musofir suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni haqida hikoya qiladi**?** ***/// **beshinchi iqlim**

3555."Sab’ayi sayyor"da Bahrom qayerlik musofirdan Sa’d haqidagi hikoyani tinglaydi? ***/// **shahrisabzlik**

3556."Samarqand qal’asining ichida bir qadimiy imorattur, ... ul gumbazning o‘rtasida yerga tepsalar, tamom gumbazdin ... un kelur, g'arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas". "Boburnoma"dan olingan ushbu parchada qaysi masjid nazarda tutilgan? ***/// **"Masjidi Laqlaqa"**

3557."Sohibqiron" dramasida qo'llangan axtarshunos so'zining ma’nodoshi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **munajjim**

3558."Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo‘lubtur. To‘qqiz tarnov suv kirar, bu ajabturkim bir yerdin chiqmas... " "Boburnoma"dan olingan ushbu ajib tasvir qaysi shahar haqida? ***/// **Andijon**

3559."Xalq orasida rasm bor, do'st do'stga safar qilib yonar (qaytar) bo'lsa, bir hadya ola borurlar", degan urf-odatlar haqidagi ma'lumot kimning qaysi asarida keltirilgan? ***/// **Rabg'uziy, "Qissasi Rabg'uziy"**

3560."Xamsa" asarining qaysi qahramonlari go'zal yor husniga toqat qilolmay hushdan ketadilar? ***/// **Farhod, Majnun, Jobir**

3561."Xamsa" yaratmagan ijodkor nomini aniqlang. ***/// **Hofiz Sheroziy**

3562."Xamsa" yozishda o'ziga xos yo'riqlar bayon etilgan quyidagi misralar Navoiyning qaysi dostonidan olingan?

Ani nazm etki tarhing toza
bo'lg'ay, Ulusqa mayl
beandoza bo'lg'ay.

Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq

Muqarrar aylamak sendin ne loyiq**?** ***/// **"Farhod va Shirin"**

3563."Xamsa"ning qaysi dostonida ruhiyat tasviriga alohida e'tibor berilgan? ***/// **"Layli va Majnun"**

3564."Zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak" degan fikr "Qutlug' qon" romanidagi qaysi qahramonga tegishli? ***/// **Yo'lchi**

3565."... bu shaharda bir xususiyate borkim, c'zga kam shaharda andoq bo'l'ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birilariga maxlut emastur, tavr rasmedur."

"Boburnoma"dan olingan ushbu parchada qaysi shahar ta'riflangan**?** ***/// **Samarqand**

3566."Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" asarida "Ikkita narsa bor, agar ko'zlarim ular haqida qon to'kib yig'laganda, ularga halokatdan xabar qilingan bo'lardi va ular yashashi kerak bo'lgan vaqtning o'ndan birini ham ko'rmagan bo'lardilar", deb yozilgan. Bu parchada ko'zda tutilgan ikki narsa nima? ***/// **yoshlikning o'tishi, do'stlardan judo bo'lish**

3567."Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti"ni tilga olib, "Jasur bobolarning tengsiz saboti" ruhimizga singganligini Abdulla Oripov qaysi she'rida ifodalagan? ***/// **" Genetika"**

3568."Alpomish" dostonida Barchinning kanizlari kimni gilamning ustiga solib, bardor-bardoq qilib, baxmal uyga kirgizib ketishadi? ***/// **Alpomishni**

3569."Alpomish" dostonida Barchinoy uchun to'riq yo'rg'a otni tabladan olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal, parquvlardan solib... otning jilovidan ushlab olib ketgan kim edi? ***/// **Barchinning enasi**

3570."Alpomish" dostonida boylovli Qorajon va Boychibor ikkovi avliyolarni shafe keltirib nola qilganlarida, ularga kim yordam beradi**?** ***/// **Rajabxo'ja pir**

3571."Alpomish" dostonida dunyodan o'tgan bir kam to'qson alpning boshlig'i kim edi? ***/// **Rustam**

3572."Alpomish" dostonida kim Qorajonni "Ajal yetsa, paymonasi to'lar, bo'shalsa, bir kun o'zi borar, shumg'ut bo'ldi bu juvarmak o'lar", deb boylab tashlaydi? ***/// **Ko'kaldosh**

3573.“Alpomish” dostonida poyga odidan Alpomishning Boychibor otini ko‘rib, o‘zidan g‘olib kelishini bilib, vahm bosib, yemini yemay qo‘ygan Ko‘kdo‘nan tulpor qaysi alpniki edi? ***/// **Ko‘kaldosh**

3574.“Alpomish” dostonida Shohimardon pir Boybo‘ri bilan Boysariga ularning farzandlari to‘yida qaysi qiyofada borishini aytadi? ***/// **qalandar**

3575.“Asrga tatigulik kun” asarida Sobitjonga “Otang-ku seniki, ammo sen o‘zingniki bo’lmay qolibsan” deb tanbeh bergan qahramon kim? ***/// **Edilboy daroz**

3576.“Asrga tatigulik kun” romanida Nayman onaning jo‘ngjanglar manqurtga aylantirib qo‘ygan o‘g‘lining ismi kim? ***/// **Jo‘lomon**

3577.“Boburnoma”da “oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas” deb qaysi viloyat ta’riflangan? ***/// **Andijon**

3578.“Boybo‘ri, senga xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi, yolg‘iz emas, egiz berdi: Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi... Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqlarni yig‘sang, to‘ytomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman”. (Alpomish). Bu kimning karomati? ***/// **Shohimardon pir**

3579.“Bu juda katta o‘lim. Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. U zalm ildiziga bolta urdi. Inshollo, zulm daraxti quriydi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **“Qutlug‘ qon”**

3580.“Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqni yig‘sang, to‘y-tomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman”, deb va’da bergan “Alpomish” dostonidagi qalandarsifat kishi aslida kim? ***/// **Shohimardon pir**

3581.“Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema” degan chaqiriqni Qorajonga qarata kim aytgan? ***/// **Rajabxo‘ja eshon**

3582.“Devoni lug'ot it-turk” asarida M.Koshg'ariy turkiy tillardagi so‘zlar izohini qaysi tilda izohlagan? ***/// **arab tilida**

3583.“Hamid Olimjon tug’ma va nodir talant edi” deya shoirni ta’riflagan ijodkor kim? ***/// **Oybek**

3584.“Hikoya ichida hikoya” usulida yozilgan asar qaysi javobda ko'rsatilgan? ***///
**“Sab’ayi sayyor”**

3585.“Ilmli donishmandlarni izladim. O’zimni odamlar orasidan qidirdim. Buning uchun oq yolli otim yechiladi”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **“Devoni lug‘otit-turk”**

3586.“Ishqqa o‘lim-tabiatning qonuniga zid.” Ushbu so‘zlar “Otello” fojiasining qaysi qahrmoniga tegishli? ***/// **Dezdemona**

3587.“O, muhabbat, haqoratga bo’lmish masxara!” Shekspirning “Otello” fojiasida ushbu so‘zlar kimning tilidan aytilgan? ***/// **Emiliya**

3588.“O’tgan kunlar” romanida kim soxta xatlar uyushtiradi? ***/// **Homid**

3589.“Qissai Rabg‘uziy” dagi “Uzum hikoyati”da uzum urug‘ini o‘g‘irlagan Shayton uni Nuh payg‘ambarga qaytarib berishdan oldin uch marta sug‘orish imkonini berishni so‘raydi. Shayton uzumni uch marta nimalar bilan sug‘organ? ***/// **tulki qoni, sher qoni, to‘ng‘iz qoni**

3590.“Suhayl va Guldursun” dostonidan keltirilgan quyidagi fikr kim tomonidan aytilgan?

Turib tez chiqib chohdin uzoqlarg‘a qochaylik,
Bu yerda ag'lamay ko‘ngil ochaylik**.** ***/// **Guldursun**

3591.“Ulug‘ otliq, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorug‘lig‘, odamiylar ishonchi, mo‘minlar quvonchi...” deya ta’riflangan hukmdor nomini toping. ***/// **Nosuriddin To‘qbug‘abek**

3592.“Xamsa” dostonlaridagi qaysi qahramon ovga, maishatga o‘ch, urushlarda hamisha g‘olib keladigan shoh sifatida talqin qilinadi? ***/// **Bahrom**

3593.“Xamsa” qahramonlaridan qaysi birining “O’qub o’tmak, uqib o’tmak shiori” ekanligi ta’kidlanadi? ***/// **Farhod**

3594.“Yatimat ad-dahr” (Abu Mansur as-Saolibiy) asarining 4-qismi kimlarga bag'ishlanadi? ***/// **xurosonlik va movarounnahrlik ijodkorlarga**

3595.“Yo‘q erdi mayl qilsa har so‘zga, Tangriga e’tirozdir o‘zga” (Navoiy) deb ta’riflangan sabr qilishni bilmaydigan, shukronalikdan uzoq bo‘lgan timsolni belgilang. ***/// **Sa’d**

3596.1958 yilda yozilgan, jahondagi Ch. Aytmatovning 40 dan ortiq tilga tarjima qilingan va unga jahonshumul obro‘ keltirgan asar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **“Jamila”**

B. S. Pushkin o‘zining qaysi asarida bir qizning soddagina dil izhorini pokiza bir sevgi zorini va keyinchalik bir o‘ktam ayolga aylanishini badiiy talqin etgan. ***/// **“Yevgeniy Onegin”** 3597. A.Oripovning "Sohibqiron" asarida Amir Temur Buqalaminga qanday topshiriq beradi? ***/// **farangiylarni, ularning shohlarining maqsadlarini o'rganishni**

3598.A.Oripovning “Sohibqiron” dramasida “Niyat qancha jozibali bo‘lsa ham, Temur, qilich bilan murod hosil bo‘lmog‘i gumon” degan so'zlar qaysi personajga tegishli? ***/// **Yassaviy**

3599.A.Oripovning 90-yillarda yaratgan asarlarini belgilang**.** ***/// **"Haj daftari", "Saylanma", "Sohibqiron"**

3600.Abdulla Oripovning "Kuz manzaralari" she’rida xazonlar nimaga qiyoslangan? ***/// **lirik qahramon yuragidan to’kilgan olovga**

3601.Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Amir Temurning haddidan oshgan kimsani jazosiz qoldirmasligi qaysi obraz orqali aks etgan**?** ***/// **Amir Husayn**

3602.Abdulla Oripovning qaysi she’rida Alisher Navoiy va Umar Xayyom nomlari tilga olingan? ***/// **"Munojot"ni tinglab"**

3603.Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan asarni aniqlang**.**

***/// **Mahmud Koshg'ariy “Dcvonu lug'otit-turk”**

3604. Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. 1) mutasavvuf olim Arslonbobo qo‘lida tarbiyalangan; 2) uning she’riyatidagi obrazlar tuzilishi tasavvuf ta’limoti va og‘zaki ijod an’analari bilan chambarchas bog’langan; 3) po‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik bilan shug’ullangan; 4) “Kanz ul-haqoyiq” nomli masnaviy yozgan; 5) uning ruboiylari qabri ustiga o‘rnatilgan maqbara devorlari, peshtoqlariga badiiv naqsh sifatida tushirilgan. ***/// **1, 2**
3605. Alisher Navoiy "Xamsa"si dostonlari qaysi javobda to'g'ri tartibda sanalgan? ***/// **"Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab’ayi sayyor", "Saddi Iskandariy"**
3606. Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi "Sab’ayi sayyor" dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **Shoir dostonga Shahrisabz, Xorazm haqidagi maxsus hikoyalar kiritgan.**
3607. Alisher Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostonida "Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyati" keltiriladi**?** ***/// **"Sab’ayi sayyor**"
3608. Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **Aruzning hazaji musaddasi mathzuf vaznida yozilgan.**
3609. Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi “Hayrat ul-abror” dostoni haqidagi to’g’ri ma’lumotni aniqlang. ***/// **Aruzning sari’ bahrida yozilgan.**
3610. Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi “Layli va Majnun “ dostoni haqidagi to’g’ri ma’lumotni aniqlang**.** ***/// **Bu doston bilan shoir o’bek adabiyotida , ruhiyat tasviri mavzusini boshlab bergan.**
3611. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar xalqni ya’jujlardan saqlash uchun Saddi Iskandariy (Iskandar devori)ni qayerda qurdiradi? ***/// **Qirvonda**
3612. Alisher Navoiyning qaysi dostoni falsafiy-ta’limiy doston bo’lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritilgan**?** ***/// **“Hayrat ul-abror”**
3613. Anvar yosh bo'lsa ham, jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushgan baxtsizlikdan ham mutaassir bo'luvchi edi. "Mehrobdan chayon" romanida keltirilgan ushbu ta’rifdagi "mutaassir" so'zining ma’nosi qaysi qatorda berilgan? ***/// **ta’sirlanuvchan, ko'ngliga oluvchan**
3614. As’hobg‘a mayli lolayu bog‘, Ul ikki ichinda loladek dog‘.

As’g‘obg‘a
g‘uncha sari ohang,
Bu ikki nechukki
g‘uncha diltang.

Navoiy ushbu tasvirda “ul ikki”, “bu ikki” deb talmeh yordamida o‘zining qaysi qahramonlariga ishora qilgan? ***/// **Layli, Majnun**

3615. Asqad Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarni belgilang**.** ***/// **"Avesto"** 3616. Ay, tutqinlar, ay ezilgan, Ay, qiynalgan, yo'qsil ellar, Ay, umidsiz, ay chizilgan

Dor oldida oppoq dillar! Ushbu parcha Cho'lponning qaysi she'ridan olingan? ***/// **"Vijdon erki"**

3617. Aytdi: "Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?"

Man dedim: "Furbatda Furqat bor ekan taqdirda." Ushbu bayt keltirilgan Furqat g'azali qaysi misra bilan boshlanadi? ***/// **"Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda"**

3618. Berilgan gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi? Kimki tashlandiq yerni obod qilsa, bu yer crshaniki bo'ladi. ***/// **kesim ergash gapli qo'shma gap** 3619. Berilgan savol-javoblar kimlar o'rtasida bo'lgan?

"Dedi: nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunluq hamesha ...

Dedikim: ishqig'a ko'nglung o'rundur?

Dedi: ko'nglumda jondek yoshurundur." ***/// **Xusrav-Farhod**

3620. Bilamanki, g'isht qolipidan ko'chgan. Ushbu gap – ***/// **to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gup**

3621. Bo'sh xayollar chekinmish olis,

Dilda yana sevgi havasi

Yana hokim nozik ezgu his,

Simiraman bahor havosin. Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **H. Hayne**

3622. Boboxon tog'iga yetgach, poyga boshida qalmoqlar Qorajon bilan Boychiborni boylab, o'zlari jo'nab ketdilar. Qorajon va Boychiborni kim ozod qilgan? ***/// **Rajabxo'ja eshon** 3623. Boburning topilmagan asari - ... ***/// **"Harb ishi".**

3624. Boqay desa, dog'i quvvati yo'q,

Boqmay desa, dog'i toqati yo'q. Ushbu misralar "Xamsa" ning qaysi dostoni qahramoninig ruhiy holatini aks etirgan? ***/// **"Sab'ayi Sayyor"da Bahrom** 3625. Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,

Bo'lub tarki toji bila baxtiyor. Toj tarkini ixtiyor aylagan qahramon Alisher Navoiy

"Xamsa"sining qaysi dostonida uchraydi? ***/// **"Saddi Iskandariy"**

3626. Boshidin evrulur armoni birla o'ldim, ey Bobur,

Mening na'limni bori ul pari qo'yidin aylandur. » Bobur g'azalidan olingan ushbu misrada qo'llangan na'l so'zining ma'nosi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **tobut**

3627. Bu bo'lg'ay dard-u ishq oyini, vah-vah -Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah! Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay!

G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay! "Xamsa" dostonida ushbu baytlar kimga qarata aytilgan? ***/// **Xisravga**

3628. Bu bo'lg'ay dardu ishq o'yini, vah-vah! Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah!

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay!

G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay! Bu tanbehlar Navoiyning qaysi asaridan olingan va kimning kimga aytgan tanbehi? ***/// **"Farhod va Shirin "dan, Farhodning Xusravga**

3629. Chingiz Aytmatov asarlari qaysi javobda ko‘rsatilgan? ***/// **“Oq kema”, “Jamila”, “Yuzma-yuz”, “Somon yo‘li”**
3630. Chingiz Aytmatov qalamiga mansub qissalarni aniqlang. 1) “Jamila”; 2) “Qizil durrali sarviqomatim”; 3) “Qiyomat”; 4) “Bo‘tako‘z”; 5) “Erta qaytgan turnalar”; 6) “Asrga tatigulik kun”; 7) “Momo yer”; 8) “Alvido, Gulsari” ***/// **1, 2, 4, 5, 7, 8**
3631. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanida “Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro‘yli odamlarini himoya qiladi. Obro‘y davlat bilan topiladi, muni bilasan... Sen xomsan siyosatga...” degan fikrlar qaysi amaldor tilidan aytilgan? ***/// **noyib to‘ra**
3632. Cho'lpon taxallusi berilmagan qatorni belgilang. ***/// **Mirza Andijoniy**
3633. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida "o‘q otib mo'ljaliga tegizolmagan" qahramon kim? ***/// **Poshshaxon**
3634. Cho'lponning drama janrida yozilmagan asarini toping. ***/// **"Qalandar ishqi"**
3635. Chu o’n sakkizga yetti yoshing, ol burqa jamolingdin,

O’n sakkiz ming olam o’n sakkiz yoshingdin aylansun. Ushbu bayt muallifi kim? ***/// **Ogahiy**

3636. Demonki, meni tarabg‘a xos et,

Yoxud g‘ami ishqdin xalos et!

Dermenki, menga bu o‘tni har dam

Afzun qil-u, qilma zarraye kam! Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan olingan ushbu she’riy parchadagi so‘zlarni Majnun qaysi vaqtda aytgan? ***/// **otasi uni Ka’baga olib borganida**

3637. Eliboylar nomi bilan qanday ijtimoiy tabaqa tilga olinadi? ("Alpomish") ***/// **chorvadorlar**
3638. Farhodga hunar o'rgatgan ustozlar nomi qaysi javobda ko'rsatilgan? ***/// **Boniy, Moniy, Qoran**
3639. Farhodning ichi-tashini dard batamom asir qilganda necha yoshda edi? ***/// **14**
3640. Firoqu rashku hajru oh ila dard, Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi ushbu bayt qaysi dostondan olingan va unda qaysi bir qahramonning ismi zikr etilgan? ***/// **“Farhod va Shirin”. Farhod.**

3641. Furqatning adabiyot havaskorlari uchun qo’llanma sifatida tuzilgan, aruz vazni qoidalari bayon etilgan ilmiy asarini aniqlang. ***/// **“Ilmi ash’orning qoidayi avzoni”**
3642. Furqatning ishqiy kechinmalar, oshiqona savol-javoblar shoir hayoti bilan bog’liq qismat chizgilariga ulanib ketgan g’azalini belgilang. ***/// **“Bir qamar siymoni,ko’rdim baldayi Kashmirda”**

3643.G’afur G’ulom qalamiga mansub "Vaqt" she’rining yakunlovchi misralari qaysi javobda berilgan? ***///

**Quyoshki Falakda kezib yuribdi, Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.**

3644.H. Hayneuing ikkinchi kitobini toping. ***/// **"Yo’l lavhalari"**

3645.H.Haynening “Germaniya”. “Qish ertagi” asari qaysi janrda yozilgan? ***/// **doston** 3646. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasining yutuqlari bo'lgan asarlar berilgan qatorni aniqlang.

***/// **"Jek London hikoyasidan so‘ng", "Dugohi Husayniy", "Arabmuhammad Bahodirxon"**

3647.Hukmdor Mahmudxon sultonga bag‘ishlangan asarni toping. ***/// **Latofatnoma”, Xo'jandiy**

3648.Insonni madh etib qasida yozgan shoir kim? ***/// **A. Oripov**

3649.Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas, Ishq lofiga shoh sodiq emas. (“Xamsa”) Ushbu bayt “Xamsa” qahramonlaridan qaysi biriga qarata aytilgan? ***/// **Bahrom**

3650.Janobi shahg'a keldim bu jihatdan,

Ko'zim yoshiga toya-toya navro'z. (Ogahiy) Ushbu she’riy baytda qo'llangan badiiy san’atni toping. ***/// **mubolag'a**

3651.Kim "o'zbakning otini maqtading", - deb qalmoq sinchining ko'zini o'yib olgan edi? – ("Alpomish" dostoni) ***/// **Ko'kaldosh**

3652.Kofir bilan itning farqi yo‘q, Itdan qochmaysizmi? Shunday bo‘lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo‘ladi. “Kecha va kunduz” romanida ushbu so‘zlar kimning tilidan aytilgan? ***/// **domla**

3653.Kurashda Ko‘kaldoshni yiqitishda qiynalgan Alpomishga ma’naviy madad bergan inson kim? ***/// **Barchin**

3654.Ma’lumki, "Xamsa"ning beshinchi dostoni Iskandar haqida yozilmog'i shart bo‘lgan. Har bir xamsanavislar beshinchi dostonlariga Iskandar bilan bog'liq qanday nom qo'yishgan? 1) Navoiy "Saddi Iskandariy"; 2) Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnoma"; 3) Xisrav Dehlaviy

"Oinayi Iskandariy"; 4) Nizomiy Ganjaviy "Iskandar sarguzashti"; 5) Navoiy "Iskandar; 6) "Xisrav Dehlaviy "Iskandar Zulqarnayn" ***/// **1, 2, 3**

3655.Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" falsafiy dostonida qaysi zamondosh shoirlar nomi tilga olingan? ***/// **H.Olimjon, Oybek, G'.G'ulom**

3656.Mashrab ijodida targ‘ib qilingan qalandarlik maslagi qaysi tariqat shoxobchasi hisoblanadi? ***/// **Yassaviylik**

3657.Mashrab qaysi g‘azalida dunyo mayining achchig‘ligini bilish uchun bir yalab ko‘rganini aytadi? ***/// **“Mashrabman”**

3658.Mashrabning boshqa so‘fiy shoirlardan farqi nimada edi? ***/// **Mashrab Allohga bo’lgan muhabbatini oshkora kuylaydi**

3659. Mashrabning duch kelgan ojiz-bechoralarga kiyimlarini yechib berib, o'zi yalang'och yurishi qaysi badiiy qahramonning holatiga o'xshatiladi**?** ***/// **Farhod**

3660. Millatning o'ziga xosligini tayin etadigan eng katta belgi, bu — ... ***/// **til** 3661. Milliy poeziyamiz tarixida ikkigina so'zdan iborat she'r yozgan, ikki so'z yordamida o'ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyat ifodalay oladigan tugal she'r yaratgan shoir nomini belgilang. ***/// **Faxriyor**

3662. Milliy poeziyamizning tarixida qaysi shoir ikki so'zdan iborat: Oy Bolta degan she'rini yozdi? ***/// **Faxriyor**

3663. Muhammad Alining "Boqiy dunyo" asari bilan bir janrda yozilgan asarni belgilang. ***/// **A.S.Pushkin, "Yevgeniy Onegin**"

3664. Muhammad Rizo Ogahiyning musoviyattarafayn shaklida yozilgan she'ri qaysi javobda berilgan? ***/// **"U1 sho'xki ochildi xat-u ruxsori"**

3665. Mumtoz shoirlardan qaysi birining g'azali quyidagi matla bilan boshlanadi?

"Mushkin qoshini hay'ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun "nas" kelturur, "nun" eltibon "sod" ustina".

***/// **Ogahiy** 3666. Nafs itin qilsang zabun

Olamda yo'q sendek shujo. Ushbu misralar muallifi kim**?** ***/// **Alisher Navoiy**

3667. Navoiy "Xamsa" dostonlarining qaysi biri muqaddimasida "Xamsa" yozishdagi o'ziga xos yo'riqlarini bayon etgan? ***/// **"Farhod va Shirin"da**

3668. Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonida oltinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning hikoyasi kim(lar) haqida edi? ***/// **Muqbil va Mudbir haqida**

3669. Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonida yetti iqlim shahanshohi Bahrom shanba kuni qaysi rangdagi qasrda qaysi hikoyani tinglaydi? ***/// **qora qasrda Farrux va saxiy Axiy hikoyasini**

3670. Nayman ona dafn etilgan joy "Asrga tatigulik kun" romanida qanday nomlanadi? ***/// **Sariozakdagi Ona Bayt qabristoni**

3671. Nazar Eshonqul hikoyalari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan? ***/// **"Quyun", "Tobut shahar", "Shamolni tutib bo'lmaydi"**

3672. Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur, qilich bilan hosil bo'lmog'i gumon.

"Sohibqiron" dramasida Amir Temurga ushbu jumlani kim aytadi? ***/// **Ahmad Yassaviy**

3673. Nizomiy Ganjaviyning "Layli va Majnun" dostoni kimning buyrug'i bilan yozilgan?

***/// **Iroq hukmdori To'rg'ul II ning**

3674. Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" nomli hamdnoma asarini qaysi hukmdorga bag'ishlagan? ***/// **Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga**

3675.Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostoni kimning iltimosiga ko’ra yozilgan? ***/// **Iroq hukmdori To’rg’ul II ning**

3676.Nizomiy Ganjaviyning Shoh Bahromga bag’ishlangan "Haft paykar" dostoni kimning topshirig’iga ko’ra yozilgan? ***/// **Alovuddin Ko’rpa Arslonning**

3677.Nosiriddin Rabg’uziyning “Qissayi Rabg’uziy” asarida “... payg‘ambar alayhissalom ul umri ukush, diydori ko‘shish, Azroilg‘a qotishg‘an, rizvon birla yanashg‘an, dunyodin qushtek uchg‘an, tamug‘g‘a kirib chiqqan” kabi ta’riflar qaysi payg’ambarga tegishli? ***/// **Idris alayhissalomga**

3678.Nosiriddin To’qbo‘g‘aning topshirig’i asosida yozilgan asami belgilang**.** ***/// **"Qissayi Rabg'uziy"**

3679.O. Yoqubovning mustaqillik davrida yozgan romanini toping**.** ***/// **“Adolat manzili”** 3680. O’zbak! Sen bunday bo‘yni yo‘g‘onlik qilma, haribi g‘oriston bo‘lib olma. Hali ham qo‘ygin. Halak bo‘p kelgan yo‘lingdan qolma. . . “ Alpomish” dostonida Ko'kaldosh ushbu gapni kimga qaysi shartni bajarish oldidan aytadi? ***/// **Alpomishga, kurash**

3681.Odil Yoqubovning "Ulug‘bek xazinasi" romanida Mirzo Ulug'bek kim haqida "Burgut! Qora burgut!" deb o‘ylaydi? ***/// **Abdullatif haqida**

3682.Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida jang maydonlaridan lashkarni tashlab qochgan sotqin kim? ***/// **Amir Sulton Jondor**

3683.Odil Yoqubovning asarlaridan qaysi biri drama janriga mansub? ***/// **"Olma gullaganda"**

3684.Odil Yoqubovning romanlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang. ***/// **"Diyonat",**
**"Adolat manzili”**

3685.Ogahiy kimning "Yusuf va Zulayho" asarini tarjima qilgan? ***/// **Abdurahmon Jomiy**

3686.Ostidagi Chibor otin o‘ynatib,
Qorajon chiqdi ... tog‘ining
ustiga. Qalmoqdan ilgari
ketib boradi Ko‘rinmaydi
qalmoqlarning qorasi,
Yaqin qoldi . .. ning orasi. "Alpomish" dostonidan olingan ushbu parchadagi nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo'ying. ***/// **Zil, Boboxon**

3687.Oybek gapirolmay qolgani, harakatlari cheklangani, xotirasi susayganiga qaramay o'zining qaysi romanini yozgan**?** ***/// **”Ulug‘ yo‘1"**

3688.Oybek kimni "Sochlari potila, ko‘zlari maxmur, Ko‘zlarda sachraydi qora kuchli nur", deya ta’riflaydi? ***/// **Mashrabni**

3689.Oybekning "Tog‘ sayri" she’rida qaysi timsolning chashmalarga muhabbat izhor etishi tasvirlangan? ***/// **shamol**

3690.O'z asarini “Misr qandi” deb atagan shoir kim edi? ***/// **Xorazmiy**

3691.O'z yurtidan turli sabablar bilan chiqib ketib, xorijiy ellarda yashab ijod etgan ijodkorlar nomini belgilang. ***/// **Bobur, Furqat**

3692. O'zini “jahon oriflarining xoki poyi” deb atagan shoir kim? ***/// **Sayfi Saroyi**

3693. Pushkinning “Ruslan va Lyudmila” asari qo‘lyozmasi bilan tanishgan qaysi mashhur shoir Pushkinga: “G’olib shogirdga mag‘lub ustozdan” degan yozuv bilan o‘z portretini sovg‘a qilgan? ***/// **Jukovskiy**

3694. Qatorga tirkalgan lo‘k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha. Kamlikni ko‘rmagan satta boybachcha,

Yo‘1-yo‘lakay uloq chopib boradi. “Alpomish” dostonidan berilgan parchdagi ostiga chizilgan so’zlarning ma’nosi to’g’ri berilgan qatorni toping. ***/// **lo'k – yuk tashiydigan tuya, nor – erkak tuya**

3695. Qaysi adib 1996-2004-yillarda Atamashunoslik qo‘mitasi raisi, 2005-yilgacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vitse prezidenti lavozimlarida faoliyat yuritgan?

**O. Yoqubov**

3696. Qaysi asarda "La’natlar bu yurtga, yolg'on Vatanga, Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik" misralari uchraydi? ***/// **"Sileziya to'quvchilari"**

3697. Qaysi asarda cho'ri qiz Hanifa personaji mavjud? ***/// **"O'tkan kunlar"**

3698. Qaysi asarda kuchi, g’ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo’lgan ezgu mo’ljalning yo’qligi tufayli qiynalayotgan yigit iztiroblari aks etgan? ***/// **“Yevgeniy Onegin”**

3699. Qaysi asarda xalq qo’li egri odamlarning qo'lini kesib «to‘g‘rilashi» haqidagi fikrlar bor? ***/// **«Hayrat ul-abror»**

3700. Qaysi ijodkor g'azallaridan birida ma’shuqasining husnini bashariyat tarixidagi eng go‘zal inson bo'lmish misrlik Yusuf (a.s.) dan ustun qo‘yadi? ***/// **Furqat**

3701. Qaysi ijodkorning adabiy-tarixiy asari "Qisas ul anbiyoi turkiy" deb ham yuritiladi?

***/// **Rabg‘uziy**

3702. Qaysi javobda “O’tkan kunlar” romani personajlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **O’zbek oyim, Yusufbek Hoji, Mirzakarim Qutidor, Otabek**

3703. Qaysi javobda Odil Yoqubov pyesalari to‘g‘ri berilgan? ***/// **“ Yurak yonmog‘i kcrak”, “Olma gullaganda”**

3704. Qaysi javobda Odil Yoqubov pyesalari to‘g‘ri berilgan? ***/// **“Yurak yonmog'i kerak”, “Olma gullaganda “**

3705. Qaysi javobda xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan “epik qolip”dagi misralar keltirilgan? 1. Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yet mas dunyo mol. 2. Dushmanlarim to‘plab olib, Yetganiga qilich solib. 3. Qulon yurmas yerlardan Quvib o'tib boradi. 4. Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema.

***/// **1, 4**

3706. Qaysi qahramon "O‘tkan kunlar" romanida "Kiroyi kuyoving shundog' bo‘lsa" deya orzu qiladi? ***/// **Mirzakarim qutidor**

3707. Qaysi qahramonga tug‘ilganidayoq:

"Yuzinda ishq asrori yozilg‘on,

Ichinda dard ta’vizi qozilg'on", — deya ta’rif berilgan? ***/// **"Farhod va Shirin "da — Farhodga**

3708.Qaysi qatorda anbiyolar hayotidan hikoya qiluvchi asar nomi berilgan? ***/// **"Qisasi Rabg'uziy"**

3709.Qaysi shahar "Boburnoma"da "... ajab orasta shahredur, bu shaharda bir xususiyate borkim, o‘zga kam shaharda andoq bo‘lg‘ay... Xub nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur. Olarda yaxshi qog‘oz bu shaherdin chiqar". deb ta’riflangan? ***/// **Samarqand**

3710.Qaysi shaxslar Xorazm tarixini birgalikda yozishgan? ***/// **Munis, Ogahiy** 3711. Qaysi shoir bir she’rida:

Ne xush bo’lg’ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg’otsam, Kechalar tori mo’yidek belig’a chirmashib yotsam, – deya o’z baxtini uyquda deb biladi? ***/// **Bobur**

3712.Qaysi shoir harflardan so‘z yasab va uni mazmunga, tasvirga tadbiq etish yangiligini kiritgan? ***/// **Ogahiy**

3713.Qaysi shoir o‘z masnaviysida ijodkorlarning turli guruhlari mavjud ekanligini (bulbul, zog‘), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to‘ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlar haqida to'xtab o‘tgan? ***/// **Atoyi**

3714.Qaysi shoir suvni "suzuk" deb sifatlab, adabiyotda yangilik yaratgan? ***/// **Ogahiy**

3715.Qaysi shoir Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan ilhomlanib, unga javob tariqasida asar yozgan**?** ***/// **Xo‘jandiy**

3716.Qaysi shoirning g‘azalida bahoriy yel rayhonlarga Masihdek "toza jon" ato etgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-u shaydo bo'lganlari, lola soqiysi qo‘lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar berilgan? ***/// **Ogahiy**

3717.Qaysi so'fiy shoir g'azallarida tariqat odobi, maqsadi va mazmun-mohiyatini bayon qilgan? ***/// **Mashrab**

3718.Qo‘shma gaplarning qaysi turida shart mayli qo‘shimchasi bog‘lovchi sifatida ishtirok etmaydi? 1) ergashgan qo'shma gap; 2) bog'langan qo‘shma gap; 3) aralash murakkab qo‘shma gap; 4) bog‘lovchisiz qo‘shma gap. ***/// **2, 4**

3719.Quyidagi gaplarni Alpomish kimga aytgan? Tikilsam, quriydi daryoning gumi, Na’ra tortsam, qular qo'rg'onning timi. O'zi o'lmay, kishi yorin berarmi, Hech bir elda senday tentak yurarmi**?.** ***/// **Ko'kaldosh**

3720.Quyidagi matnda nuqtalar o'rniga qaysi so‘zni qo'yish kerak? "Toychi viloyatida

Ko'kaldoshning Ko‘kdo‘nani tulpor edi, o'zidan g'olib ...ni ko‘rib, vahm bosib, yemini yemay qoldi" ("Alpomish"). ***/// **Boychibor**

3721.Quyidagi parchada qaysi shoh tasvirlangan? Anda bir shoh hokim-u voliy

Mulki ma’mur-u himmati oliy**.** ***/// **No’mon**

3722. Quyidagi qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelgan? Kim insonlikni o'zida sinab ko'rmagan bo'lsa, hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi. ***/// **egani**

3723. Quyidagi she’riy misralar "Xamsa"ning qaysi dostoni xotimasida beriladi?

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu afsonani hikoyat,
Kim shuhrati chun jahonga to'lg'ay,
Turk eliga bahra bo'lg'ay. ***/// **"Layli va Majnun"**

3724. Quyidagilardan qaysi biri tragediya janrida yozilmagan? ***/// **"Yoz kechasidagi tush"**

3725. S.Yesenin qaysi she’rida Pushkin she’riyatidan bir satr keltiradi? ***/// **"Singlimga xat"** 3726. sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va

Shohruhiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz” “Boburnoma”dan olingan ushbu parchada Zahiriddin Muhammad Bobur qayerni tavsiflagan? ***/// **Samarqandni**

3727. She’riy asarlarning yarmini ruboiylar tashkil qilgan shoir... ***/// **Bobur**

3728. Shekspir qaysi asarida Odam rolini o’ynagan? ***/// **"Sizga bu yoqadimi?"**

3729. Shekspirning "Otello" dramasini kim o'zbekchaga o'girgan? ***/// **G‘.G‘ulom**

3730. Shoir Furqatning "Ilm xosiyati" asari qaysi she’riy shaklda yozilgan? ***/// **masnaviy** 3731. Suqrot "Xamsa" dostonlaridagi qaysi qahramonga yordam beradi? ***/// **Farhod**

3732. Tasavvufda o‘zini Olloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson qaysi istiloh orqali beriladi? ***/// **tarso**

3733. Taxallusi taqdiriga aylangan shoir nomini aniqlang. ***/// **Zokirjon Xolmuhammad o'g'li**

3734. Tunyuquq bitiklarida Tunyuquq Eltarish xoqon bilan birgalikda qaysi joyga o‘n yetti marta hujum qilgani haqida yozilgan? ***/// **Tabg'achga**

3735. U yerga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o‘g‘lini otib tashlagan oqshomni ekar va so‘ng yolg‘iz o‘zi hosilini ham yig‘ib olardi... . Parcha qaysi asardan olingan? ***/// **Nazar Eshonqul “Shamolni tutib bo‘lmaydi”**

3736. Xalq dostonlarining qaysi birida kitob orqali o'g'il bilan ota o'rtasida saxiylik va baxillik haqida suhbat bo'lib o'tadi? ***/// **"Alpomish"**

3737. Xalq orasida mashhur bo'lgan "Devoni hikmat" asarining muallifini toping**.** ***/// **Ahmad Yassaviy**

3738. Xo'jandiyning “Latofatnoma” asari Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga javob-nazira tarzida yozilgan bo‘lsa-da, undan keskin farq qiladi. Ana shu farqni aniqlang. ***///

**“Latofatnoma” boshdan-oyoq masnaviy shaklida yozilgan**

3739. Xolmuhammad o'g'li Furqatning, “Gimnaziya”, “Ilm hosiyati”, -”Akt majlisi xususida”,

“Suvorov” kabi she’rlari qaysi shejriy shaklda yozilgan? ***/// **masnaviy**

3740. Yer ostig‘a qochib kirdim nodonlardin, Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin.

Farib jonim yuz tasadduq donolardin, Dono topmay, yer ostig‘a kirdim mano. She’r muallifi qaysi javobda to‘g‘ri ko'rsatilgan? ***/// **Ahmad Yassaviy**

3741. Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo’ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig’ini chulg’ab oldi. Ergash gapning turini toping. ***/// **aniqlovchi ergash gapli qo’shma gap**

3742. Yozma dostonlardan qaysi biri Chin hoqonning farzandsizligidan va uning so'ngsiz iltijolari qabul bo'lib, Tangri unga bir o'g'il hadya etgani bilan boshlanadi? ***/// **"Farhod va Shirin"**

3743. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Alisher Navoiyni kim Hirotdan badarg'a qilgan deydi? ***/// **Abusaid Mirzo**

3744. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da keltirgan tasvirda "Elining orasida husn xayli bordur" deb san’atkorlariga alohida urg‘u beradi. Bu tasvir qaysi shahar haqidadir? ***/// **Andijon**

3745. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qaysi radifli g'azalning yozilish tarixini keltirgan? ***/// **"topmadim"**

3746. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qaysi shaharni erkalab "baldayi mahfuza" degan ta’rifni keltiradi? ***/// **Samarqand**

3747. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qaysi shaharning o'ziga xos bozori haqida yozib o'tadi**?** ***/// **Andijon**

3748. Zahiriddin Muhammad Bobur musiqa ilmi bilan shug'ullanib, qaysi maqomga "savt"lar bitgan? ***/// **"Chorgoh"**

3749. Zahiriddin Muhammad Bobur Xo'ja Ahror Valining qaysi asarini she’riy yo'l bilan tarjima qilgan? ***/// **"Volidiya"**

3750. Zahiriddin Muhammad Boburning soliq ishlarini tartibga soluvchi asarini belgilang.

***/// **“Mubayyin"**

3751. Zayniddin Vosifiyning ko‘plab tarixiy ya adabiy, badiiy asarlarga manba bo'lgan "Badoye ul-vaqoye" asarini o'zbekchaga o'girgan shoir nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **Ogahiy**

3752. Zulfidin sunbul aylabon yuz pech,

Og‘zidin g‘uncha aytmay
hech so‘z. Orazi mash’al
jahonafro‘z,

Parvati shu’lasi kelib jonso‘z.

Ushbu misralar “Xamsa”ning qaysi qahramoni ta’rifidir? ***/// **Layli**

3753. "Masnaviy" nomli mashhur asar muallifi kim? ***/// **Jaloliddin Rumiy**

3754."Me’rojnoma" asari o'zbek tili taraqqiyot bosqichining qaysi davriga oid? ***/// **eski o'zbek tili (XII-XIII asrlar)**

3755."Men Pushkinning she’rlarini yoddan bilar edim va uni o’rtoqlarimga ham o’qib berardim". Ushbu fikrlar muallifi kim? ***/// **H.Olimjon**

3756."Odam bolasi tug’ilgan paytda pokiza bo’ladi. Uning umrbod pokiza bo’lib qolishi hammaga bog’liq". "Bahor qaytmaydi" qissasidagi ushbu fikrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan? ***/// **Mutal**

3757."Rustam otasini chopibdi", degan Lanqa gapni, qo'zim, o‘zingga olma. "Rustamxon" dostonidan olingan ushbu parchadagi ajratib ko'rsatilgan so‘z qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan? ***/// **ta’na**

3758."Rustamxon" dostoni qachon, kimdan va kim tomonidan yozib olingan? ***/// **1937 yilda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan Xodi Zarif yozib olgan**

3759."Rustamxon" dostonida ikki kundosh Xuroyimdan qutulish evaziga mastonga nima va’da qilishadi? ***/// **1 qop tilla**

3760."Rustamxon" dostonida Rustam qaysi shaharni ajdahodan ozod qiladi? ***/// **Bujul**

3761."Rustamxon" dostonida Rustam va Huroyimning tirikligini kim eshitib, ularni qalandar qiyofasida qidiradi? ***/// **Sultonxon**

3762."Rustamxon" dostonida Sultonxon safarga otlanganda taxtni kimga topshirib ketadi? ***/// **Xuroyimga**

3763."U yoshligidan hayotning bor mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Iqtisodiy ahvoli sabab universitetni tashlagan". Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan? ***/// **Jek London**

3764."Valiytarosh", "abuljannob" kabi nom va laqablari bo’lgan zot kim? ***/// **Najmiddin Kubro**

3765."Yoshligimda badiiy adabiyotga oshno bo‘lgan edim, shu boismi, maktabda erkin mavzulardagi insholarni bajonidil yozardim." Berilgan tarjimayi hol kimniki? ***///

**A.Oripov**

3766.“Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir”, - deya e’tirof etgan adib kim? ***/// **Ch. Aytmatov**

3767.“Haqiqat qalbda. Qalb esa Ollohning mulki” fikrlari muallifi kim? ***/// **Ahmad Yassaviy**

3768.“Ishq dardi g‘arib tanimdagi jon bolg‘ay,

Dard cheksa kishi axiyri inson bo‘lg‘ay” baytining tnuallifini toping. ***/// **Najmiddin Kubro**

3769.“Rustamxon” dostonida “Ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilgudek, aqli ketib otdan yiqilib qolgudek” degan ta’rif kimga tegishli? ***/// **Xuroyim**

3770.“Rustamxon” dostonida onasini jallodlar qo’lidan qutqargan Rustamxon nima deb yo’lga chiqadi**?** ***/// **“Adashganning oldi yo’l”**

3771.“Rustamxon” dostonida Rustam Bujulda qancha vaqt podsho bo‘ladi? ***/// **3 kun**

3772.“Rustamxon” dostonida Rustam qaysi shaharga 3 kun podsholik qiladi? ***/// **Bujul shahriga**

3773.“Rustamxon” dostonida Sultonxon necha yilda qaytaman deb qayerga safarga otlanadi? ***/// **14 yil, Qurudum**

3774.“Rustamxon” dostonida Sultonxon qaysi viloyatda yashar edi? ***/// **Oqtosh**

3775.“Rustamxon” dostonida Sultonxon Rustam va Xuroyimning daragini eshitib kimning qiyofasida ularni izlaydi**?** ***/// **Qalandar qiyofasida**

3776.“Rustamxon” dostonida Ximcha kim edi? ***/// **Xuroyimning kanizi**

3777.«Alloh Taoloning rozi bo‘lishi otaning rozi bo‘lishiga va uning g‘azabi ham otaning g‘azabiga bog‘liqdir» Ushbu adabiy parcha qaysi asardan olingan**?** ***/// **“Al-adab almufrad”**

3778.Al-Buxoriy asarlari nomi to’g’ri ko’rsatilgan javobni aniqlang. 1. “Al-jomi’ as-sahih”. 2.

“Al-adab al-mufrad”. 3. “Kanz ul-haqoyiq”. 4. “Nafohat-ul uns” ***/// **1,2**

3779.Dardim ko‘pdur kim biladi ishimni,

Qo‘limdan qochirdim olg‘ir qushimni? Ushbu satrlar kimning tilidan aytiigan? ***///

**“Rustamxon” dostonida Sultonxon**

3780.Huroyim qaysi doston qahramoni? ***/// **“Rustamxon”**

3781.Imom al-Buxoriy qabri va uning atrofidagi tuprog’ini vazniga teng oltin barobarida sotib olish istagini aytgan shayx nomini aniqlang**.** ***/// **Shayx Nadim al-Jisr**

3782.Imom Buxoriy yaratgan asar qaysi javobda ko‘rsatilgan? ***/// **“Al jami’ as-sahih”**

3783.J.Londonning qaysi asarida londonlik ishchilarning qashshoq hayoti tasvirlanadi? ***/// **"Sovuq bolalari"**

3784.Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalar ravshan va sodda shaklda tushuntirib berilgan asar qaysi**?** ***///

**“Ichingdagi ichingdadir”**

3785.Jaloliddin Rumiyning ruboiylarini qaysi ijodkor mahorat bilan o'zbek tiliga o'girgan? ***/// **Jamol Kamol**

3786.Jek London o’zining qaysi hikoyasida tabiatning asov kuchlariga qarshi mardona kurashuvchi kishilar hayotini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi? ***/// **“Hayotga muhabbat”**

3787.Jek Londonning qaysi asari 1903-yilda Angliyaga qilgan sayohatidan so‘ng nashr ettirilgan? ***/// **“Tubanlik kishilari”**

3788.Krossvord so’zining ma’nosi qaysi javobda to’g’ri berilgan**?** ***/// **inglizcha "cross" - "aylanma", "word" - "so’z"**

3789.Movarounnahrda birinchi bo’lib hadis to’plamini jamlagan muhaddis kim edi? ***/// **Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy**

3790.Najmiddin Kubroga tegishli bo’lgan asar va uning izohini to’gri toping. ***/// **"A1 usul al- ashara" ( "O’n usul")**

3791.O'limdan qo'rqarmi, bilgil, mard kishi, Bundan qo'rqib ketmoq nomardning ishi. Ushbu so'zlar qaysi doston qahramoniga tegishli**?** ***/// **Rustamxonga**

3792.Olti yoshda ekanida tengqurlari bilan o’ynay turib, tomdan havoga ko’tarilgan Jaloliddin Rumiy haqidagi ma’lumot kimning asarida uchraydi**?** ***/// **Alisher Navoiy "Nasoyim ulmuhabbat"**

3793.Oybekning "Navoiy" romanida ta’riflangan "belidan yuqorisi kengayib borgan, qaboriq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali" kishi kim edi? ***/// **Husayn Boyqaro**

3794.Qaysi ijodkor akasi birinchi sinfligida unga “Mard yigit” ertaklar to’plamini sovg‘a qilganligini o’zining tarjimayi holida yozgan? ***/// **Tohir Malik**

3795.Qaysi qatorda ulug‘ alloma Najmiddin Kubro qalamiga mansub asar nomi keltirilgan? ***/// **“Al usul al-ashara”**

3796.Qaysi Yodgorlikda Sirdayo Inju o‘g‘uz deb nomlangan? ***/// **"To'nyuquq" bitiktoshi** 3797. Quyida benlgan parcha kinunng tarjimayi— holidan olingan? “... Balxda tug‘ilgan.

Uning otasi - Muhammad Bahouddin Valad zamonasining mashhur kishisi, notiq, voyiz (va’zxon) bo'lgan. U Najmiddin Kubroning yaqin shogirdlaridan bo‘lib, “Sultonul ulamo” darajasiga yetishgan. Mavqeyi baland bo‘lgan Bahouddin Valad Xorazmshoh bilan munosabati buzilgach, oilasi, yaqinlarini olib Balxdan Bag'dodga ko‘chib ketadi”. ***/// **Jaloliddin Rumiy** 3798. Quyida berilgan qahramonlardan qaysi biri “xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to‘rt bo‘lib otar edi... ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi... yomonlik izlab borgan odamning ishi undan bitar edi” deya ta’riflangan? ***/// **Maston kampir**

3799.Quyidagi parcha qaysi xalq dostoni qahramonining ruhiy holatini ifodalagan?

Qani mening borsam joni-dilim, deb,

Chamanda sayragan u bulbulim, deb,

O‘ldirsa o‘ldirsin yolg‘iz ulim» deb,

Tag‘i qaytib, Bahra toqqa jo‘nadi**.** ***/// **“Rustamxon”da Sultonxon**

3800.Rumiy odddiygina “Masanaviy” deb atagan asarini avlodlar nima deb tilga olishadi? ***/// **Forsiy Qur’on”**

3801.Tengqurlariga tomdan sakrash it va mushuklarning ishi ekanligini aytib “Agar sizning joningizda quvvate bo‘lsa, osmon tomiga sekreli”, - deya tomdan havoga ko’tarilgan zot kim? ***/// **Jaloliddin Rumiy** 3802. Toshlon o'ldi, degan kim axir? Gulday so'ldi, degan kim axir?

Nahot poymol qutlug' ishq ahdi,

Bol bo'lurmi shunchalar taxir? Mazkur she’riy matn qaysi asardan olingan? ***/// **Mirtemir, "Surat"**

3803. XII-XIII asrlarda yaratilgan asarlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **"Devoni hikmat",**
**"Muhabbatnoma", "O'g'uznoma", "Me'rojnoma"**
3804. Yoshligidan Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko'p eshitib ulg'aygan ijodkor kim? ***/// **Abdulla Oripov**
3805. "Avesto"da "yuz ming tuman ko'zli, tik qomatli, uyg'oq, o'tkir ko'z, shijoatkor" deya ta'riflangan qahramon kim? ***/// **Mitra**
3806. "Avesto"da keltirilgan Ranxa qaysi daryoning qadimgi nomi? ***/// **Sirdaryo**
3807. "Avesto"da Mitraning izidan yugurib boradigan g'azabnok qobon misoli serjahl, o'tkir tishli, xanjardek qoziq tishli deya ta'riflangan timsol kim? ***/// **Varaxran**
3808. "Avesto"da Sraosha kimning hamrohi sanaladi? ***/// **Mitraning**
3809. "Baxillik dori bilan tuzatib bo'lmaydigan kasallikdir. Baxillik hasislik (mol-dunyoga hirs qo'yish) bilan yonma-yon yuradi. Baxil mol-dunyoga quldir. Saxiyga esa mol-dunyo quldir" Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **"Hibat ul-haqoyiq"**
3810. "Devonu lug'ot it-turk" (M.Koshg'ariy) asarida keltirilgan "Alp Er To'nga" marsiyasini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan? ***/// **A.Qayumov**
3811. "Hibat ul-haqoyiq" asarida ikkinchi bo'lim nima haqida? ***/// **tilni tiyish va adabaxloq haqida**
3812. "Hoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan". Ushbu jumla qaysi bitigda qayta-qayta qo'llanilgan? ***/// **"To'nyuquq" bitigida**
3813. "Kimki quyoshni qo'li bilan bekitmoqchi bo'lsa, u xato qiladi. Quyoshni choyshab bilan yopib bo'lmaydi". Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan? ***/// **"Yatimat ad-dahr"**
3814. "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xorazmiy asarni "o'n noma qildim" deb yozadi? ***/// **masnaviyda**
3815. "Odam uchun eng yaxshi xursandchilik-o'z qo'li bilan ekkan daraxt mevalarini yeyish",
"Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo'lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi" Ushbu hikmatlar qaysi asardan olingan? ***/// **"Yatimat ad-dahr" tazkirasidan**
3816. "Oriq buqa va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov semiz buqa va oriq buqani ajrata olmas emish". Ushbu jumla qaysi asardan olingan? ***/// **"To'nyuquq" bitiktoshidan**
3817. "O'sha gapni eshitib, tun uxlagim kelmadi, kunduz o'tirgim kelmadi". Ushbu jumla qaysi bitigda qayta-qayta qo'llanilgan? ***/// **"To'nyuquq" bitigida**
3818. "Qisasi Rabg'uziy"dagi rivoyatda qaysi jonivor odamni ilonga yem bo'lishdan saqlab qolgan? ***/// **Qaldirg'och**
3819. "Qissayi Rabg'uziy"da Nuh alayhissalom uzumni nimalarning suvi bilan sug'oradi? ***/// **zanjabil va salsabil**

3820."Suvga tayanma, chunki dunyo ne’matlarining shirinligiga, bahor go'zalligiga suyangan kishilar suvga suyangan bo'ladilar" degan fikr qaysi asarda berilgan? ***/// **"Devonu lug'otit-turk**

3821."Yatimat ad-dahr" (as-Saolibiy) da odam uchun eng yaxshi xursandchilik sifatida nimalar tilga olinadi? ***/// **o‘z qo‘li bilan ekkan daraxt mevalarini yeyish, yozgan** she’rlarining kuylanganini eshitish, sevgan farzandlari uning xizmatida turganini ko‘rish

3822."Yiroq bo‘lsa, yomon ipak beradi, yaqin bo‘lsa, yaxshi debo beradi, deb shu xilda pishiqlar ekan". Ushbu jumla qaysi asardan olingan? ***/// **"Kultigin" bitiktoshidan** 3823. "Yodgorlik 2 ta ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm dan iborat. ". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so'z yuritilgan? ***/// **"To'nyuquq" bitiktoshi**

3824."Yodgorlik balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm bo‘lib, yuqoriga tomon torayib borgan". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so'z yuritilgan? ***/// **"Kul Tigin" bitiktoshi**

3825."Yodgorlik Kosho Saydam vodiysidagi Ko‘kshin-O‘rxun daryosi qirg‘og‘idan topilgan". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so‘z yuritilgan? ***/// **"Kul Tigin" bitiktoshi**

3826."Yodgorlik Kul Tigin bitiktoshidan 1 km janubi-g‘arbga o‘rnatilgan". Berilgan jumlada qaysi yodgorlik haqida so'z yuritilgan? ***/// **"Bilga hoqon " bitigi**

3827."Yodgorlik Ulan-Batordan 400 km janubda, Qora Balgasun shahri xarobalaridan 40 km shimolda joylashgan. Yozuvlar o‘ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab bitilgan". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so‘z yuritilgan? ***/// **"Kul Tigin" bitiktoshi**

3828."Yodgorlik Uning bo‘yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm, bitiktosh ag‘darilib,uchga bo‘lingan va ayrim satrlari nurab, yozuvlari ham zarar ko‘rgan. U 80 satrdan iborat". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so'z yuritilgan? ***/// **"Bilga hoqon " bitigi**

3829."Yodgorlikni rus ziyolisi N.M.Yadrinsev 1889 yili topgan". Berilgan matnda qaysi yodgorlik haqida so'z yuritilgan? ***/// **"Kul Tigin " bitiktoshi**

3830."Yolg’onchi kishilar vafosiz bo’lar, vafosiz kishi xalqqa tengsizlik qilar." Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan**?** ***/// **“Hibbat ul -haqoyiq”**

3831.“Aning ishida g‘arib nimalar manquldir (naql qilingan). Derlarki, ko‘zlari butov ermishki, aslo zohir ermas emish. Ammo bag‘oyat ziyrak, zakiy va mutaqqiy (parhezkor) kishi ermish”. (“Nasoyimul-muhabbat”). Ushbu parchada ta’riflangan so‘fiy adib nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **Ahmad Yugnakiy**

3832.“Avesto”da Zardushtiylik dinining yaratuvchisi, xalq yakka-yu yagona xudo sifatida tan olingan yorug‘lik va farovonlik xudosi, rostgo‘ylik va poklikni himoya qiluvchi timsol kim? ***/// Axura Mazda

3833.“Eshak balchiqqa yumalab (istagan) narsasiga erishdi va ishidan qutuldi”. Ushbu fikr qaysi asarda uchraydi? ***/// **“Yatimat ad-dahr”**

3834. “Eshak balchiqqa yumalab, istagan narsasiga erishdi va ishdan qutuldi”, “Dengiz suvi toshib tursa ham it undan tili bilan ichadi”, “Echki faqat ovqat bilan semiradi, muloyim gap bilan semirmaydi”. Ushbu pand-nasihat tarzidagi ijodiy namunalar qaysi ijodkorning qaysi asaridan keltirilgan? ***/// **Abu Mansur as-Saolibiy, “Yatimat ad-dahr”**

3835. “Hibat ul-haqoyiq” (Ahmad Yugnakiy) asarining bo'limlari nima haqida ekanligi to‘g‘ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping. a) ilm manfaati, jaholat zararligi haqida; b) dunyoning o'zgarib turishi haqida; c) tilni tiyish, odob-axloq haqida; d) saxovat va baxillik haqida. 1bo’lim; 2-bo’lim; 3-bo’lim; 4-ho’lim ***/// **2 - a, 2 - c, 3 - b, 4 - d**

3836. “Kanz ul-haqoyiq” nomli masnaviy yozgan ijodkorni toping**.** ***/// **Pahlavon Mahmud**

3837. “Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirilgan ekan” degan o‘y qaysi asar qahramonining o‘ylari? ***/// **“Yulduzlar mangu yonadi”**

3838. “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so’zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... “Ushbu parcha muallifi kim, qaysi asari haqida? ***/// **Mahmud Koshg'ariy “Devoni lug'ot it-turk”**

3839. “Piryoyvaliy (yoki Piryoyi Vali) xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, zo‘rxona pahlavonlarning boshlig‘i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi zo‘rxonaga kirmoqchi bo‘lsa, dastlab Piryoyvaliyning qadamiga (oyog‘iga) bosh qo‘yadi. Shu jihatdan piryoyvaliy so‘zi majozan aziz va mukarram ma’nosini ham bildiradi.” Ushbu ma’lumot quyida keltirilgan qaysi manbada uchraydi**?** ***/// **“G‘iyos ul-lug‘at”**

3840. “Qissayi Rabg’uziy” da yozilishicha, Odam Ato va Momo Havvoning jannatdan quvilishlariga sabab bo’lgan mojaro qaysi? ***/// **bug’doy mojarosi**

3841. “Qissayi Rabg'uziy” da yozilishicha, uzumni qaysi narsa bilan sug'orilgandan so'ng shinni paydo bo'lgan? ***/// **zanjabil suvi bilan**

3842. “Qissayi Rabg'uziy” da yozilishicha, uzumni qaysi narsa bilan sug'orilgandan so‘ng sirka paydo bo'lgan? ***/// **salsabil suvi bilan**

3843. “Shakardek til bila” olamni tutgan shoir kim edi? ***/// **Xorazmiy**

3844. “Yatimat ad-dahr” (as-Saolibiy) da odam uchun eng yaxshi xursandchilik sifatida nimalar tilga olinadi**?** ***/// **o'z qo'li bilan ekhm daraxt mevedarim yeyish, yozgan she’rlarmmg kuylanganini eshitish, Sevgan farzandlari uning xizmatida turganini ko'rish**

3845. «...» bitiktoshida «...» bitiktoshidagi 41 satr takrorlangan. Berilgan jumlada qaysi yodgorlik nomi tushirilgan? ***/// **"Kul Tigin" va "Bilga hoqon"**

3846. 50 dan ortiq ilmiy asarlar muallifi, tarixchi va shoir ismi qaysi javobda berilgan? ***/// **Abu Mansur as-Saolibiy**

3847. A.Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari hajmi qancha? ***/// **14 bob, 254 bayt**

3848.Abu Mansur as-Saolibiy tomonidan XI asrda yaratilgan "Yatimatud-dahr fi mahosini ahli asr" ("Zamona ahlining fazilatlari haqida yagona durdona") asarining janri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **tazkira**

3849.Adabiyot tarixida “kambag‘al xalqni boy” qilgan qahramon kim? ***/// **Kul tigin**

3850.Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asaridan olingan quyidagi parchada nuqtalar o'rniga qaysi so‘zlar qo`yilishi kerak? "Agar bir umrga yetadigan mol-dunyo yiqqan bo‘lsang, eng avval ... kerak". ***/// **bo’rk kiyuvchi bosh**

3851.Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarini ko’chirtirgan shaxs sifatida tarixda qolgan tarixiy shaxs kim? ***/// **Arslon Xo’ja Tarxon**

3852.Ajdodlarimizning turmush manzaralari bilan bog'liq mehnat va marosim qo'shiqlari qaysi asarda keltirilgan? ***/// **"Devonu lug‘otit-turk"**

3853.Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Gadoiyning qaysi matla’sini keltirgan? ***/// **Ohkim devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana, Bu ko‘ngulning ilgidin jonga balo bo‘ldi yana.**

3854.Alisher Navoiy qaysi asarida Ahmad Yugnakiy to‘g‘risida ma’lumot bergan? ***/// **“Nasoyimul-muhabbat”**

3855.Alisher Navoiy qaysi shoirni turkiyg‘o‘ylarning “mashohiri” (mashhuri) deb tilga olingan? ***/// **Gadoiyni**

3856.Berilgan asarlardan qaysi biri "Qutadg'u bilig" asaridan bir baravar miqdorida ortiq hajmga ega? ***/// **"Maslak ul muttaqiyn"**

3857.Beruniyning quyidagi fikrlari qaysi asarga tegishli? "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida uning o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi". ***/// **"Avesto" ga**

3858.Bitiklarning qaysi birida "uy, dunyogagina qaraydigan, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar",- deya yozib qo'yilgan? ***/// **Kul Tigin bitiktoshida**

3859.Borma aytmaganning dasturxoniga,

Qo’l uzatsang, qadring ketar, noniga.

Qo’shma o’zgalarning barra kabobin

Qotgan non-u, sovuq suvning soniga. Ushbu ruboiy muallifini aniqlang. ***/// **Pahlavon**

**Mahmud**

3860.Dehqonlarga "Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat bo'ladi, Hamma nafas oluvchi

tiriklar bularga hojatmand bo'ladi", - deb qaysi asarda ta’rif beriladi? ***/// **"Qutadg'u bilig"**

3861.Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo‘ldi?

Vey tishlari dur-u guharim, netti, ne bo‘ldi? Bayt muallifi qaysi javobda berilgan? ***/// **Atoyi**

3862.Gadoiyning devonida g’azaldan tashqari qaysi janrdagi she’rlar mavjud**?** ***/// **mustazod, qit’a**

3863.Gunohingg’a tavba qilib, yig’lab yurgil, Ketarmen deb ko’rub, sen ham ibrat olg’il,

Ketganlarni koʻrib sen ham ibrat olgil,

Ibrat olsang yotmish yering bo’lgay gulzor. Misralar muallifini toping. ***/// **A.Yassaviy**

3864.Ilonni har qancha qilsang tarbiyat, Oxir zahrin sochib, yetkazar zahmat.

Nokas tabiati ilon kabidir

Yuzin koʻrmaslikka etgil harakat. Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **Ro’dakiy**

3865.Islom ta’siri davridagi turkiy adabiyot namunalari qaysi javobda koʻrsatilgan? ***///

**“Qutadgʻu bilig”, “Hikmatlar”**

3866.Ismi "qilich" ma’nosini anglatgan shoir nomi— ***/// **Sayfi Saroyi**

3867.Kimning qaysi asarida “Sulaymon va chumoli”, “Ilon va qarlugʻoch” hikoyatlari uchraydi? ***/// **Rabg'uziy, “Qissasi Rabg'uziy”**

3868.M.Koshg'ariyning "Devonu lugʻotit-turk" asaridagi "Alp Yer Toʻnga" marsiyasini kim hozirgi oʻzbek tiliga tarjima qilgan? ***/// **Aziz Qayumov**

3869.Mumtoz adabiyotda qoʻllanilgan “Kalimulloh” (“xudo bilan so'zlashgan”) deb ataluvchi paygʻambar kim? ***/// **Muso alayhissalom**

3870.Navoiy "Majolisun-nafois"da qaysi shoirning oʻziga nisbatan katta muhabbati borligini

eslab: "Bu faqir borasigʻa koʻp iltifoti bor erdi va fotihalar oʻqur erdi" deb yozgan? ***/// **Lutfiy**

3871.Navoiy: "Haq subhonoho taolo, agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur",-deb kimga baho bergan**?** ***/// **Ahmad Yugnakiy**

3872.Nomi va asari bizgacha yetib kelgan eng qadimgi turk adibi kim edi? ***/// **Yo'llug' tigin**

3873.Oʻzini pahlavonlik sirlarini oʻrgatgan ustozidan ortiq bilib, u bilan kurash tushishga da’vo qilgan yigit haqida qaysi asarda hikoya qilingan? ***/// **Sayfi Saroyi, "Gulistoni bitturkiy"**

3874.O’rta Osiyodagi eng qadimgi tazkira muallifi kim edi? ***/// **Abu Mansur as-Saolibiy**

3875.Olam ikki asos, ikki ibtido, ya’ni yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat deya izohlangan asar nomini aniqlang. ***/// **"Avesto"**

3876.Oz ovqat yeyishga odatlanganligi tufayli o'limdan qutulib qolgan xurosonlik sayyoh haqida qaysi asarda hikoya qilingan? ***/// **Sayfi Saroyi, "Gulistoni bit-turkiy"**

3877. Pahlavon Mahmud haqida ma'lumot beruvchi "Qomus ul-a'lam" asarining muallifini aniqlang. ***/// Shamsiddin Somiy

3878. Pahlavon Mahmud haqida ma'lumot beruvchi "Qomus ul-a'lam" asarining muallifini aniqlang. ***/// **Shamsiddin Somiy**

3879. Pahlavon Mahmud Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan qaysi tariqatuing davomchisi hisoblanadi**?** ***/// **javonmardlik**

3880. Podshohga: "Qorong'u kechalarda sizga mute bo'lg'on xalqning holidan xabardormisiz?" - degan so'zlarni qaysi asar personaji aytgan? ***/// **"Qissasi Rabg'uziy"**

3881. Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xojaning "Miftoh ul-adl" asarida tolibul ilm yigit o'ziga qozilik lavozimini taklif qilgan Sultonga qaysi hikoyatni so'zlab beradi? ***/// **uch yildan beri yeri hosil bermayotgan kishi haqidagi hikoyatni**

3882. Qaysi adib o'z asarida "Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ekinzordan pishgan yaxshilik urug'ini ter"– deb yozgan? ***/// **Ahmad Yugnakiy**

3883. Qaysi adib shoirlarni "so'z bulbuli" deydi? ***/// **Sayfi Saroyi**

3884. Qaysi asar "Sir yaqosi"da bitilgan? ***/// **"Muhabbatnoma"**

3885. Qaysi asar Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan? ***///

**"Devonu lug'otit-turk"**

3886. Qaysi asar Dod Sipohsolorbekka atab yozilgan? ***/// **"Hibbat ul-haqoyiq"**

3887. Qaysi asar hajman 14 bobdan iborat bo'lib, 254 baytdan tashkil topgan? ***/// **"Hibat ul-haqoyiq"**

3888. Qaysi asarda "Bir kishida ikki narsa bo'lsa, unga muruvvat yo'li yopiladi. Birinchidan, behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zlari yolg'on bo'lsa... " degan fikrlar bor? ***/// **"Hibat ul-haqoyiq "da**

3889. Qaysi asarda "Bu dunyo avraydigan ilon kabidir, uni yuvosh deb yo'ysang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir. Ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir... " degan fikrlar bor? ***/// **"Hibat ul-haqoyiq"da**

3890. Qaysi asarda " Do'stqa ul qadar yori qilg'ilkim, dushman bo'lsa zafar topmag'ay" masali uchraydi? ***/// **S. Saroyi "Gulistoni bit turkiy'"**

3891. Qaysi ijodkor .. "uning ko'zlari kishi ko'nglini ovlaydigan sehrgardir. O'zi musofirdir, yuzi to'lin oydir. Qarashi bilan u meni otib, yuragimni yordi", deb yozgan ? ***/// **M. Koshg'ariy**

3892. Qaysi ijodkor o'z asarida Qaldirg'och obrazini insonning do'sti va himoyachisi sifatida talqin qilgan? ***/// **Rabg'oziy**

3893. Qaysi ijodkor o'z asarini o'qimishli va savodli kishilar undan foydansin deb yozganligini ta'kidlagan? ***/// **Ahmad Yugnakiy**

3894. Qaysi o'zbek shoiri Ulug'bekka bag'ishlab qasidalar yozgan? ***/// **Sakkokiy**

3895. Qaysi yodgorlik 1897- yil Shimoliy Mo'g'ulistondan topilgan? ***/// **"To'nyuquq" bitiktoshi**

3896. Qaysi yodgorlikni Yelizaveta Klemens turmush o‘rtog‘i Dmitriy Klemens bilan birgalikda izlab topgan? ***/// **"To'nyuquq" bitiktoshi** 3897. Qiloyin ikki bobin porsiy ham,

Kim atlas to‘n yarashur bo'lsa mu’lam. Ushbu parcha keltirilgan asar nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **"Muhabbatnoma "**

3898. Qur’onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan qaysi biri adabiyotda go'zallik timsoli sifatida ta’riflanadi? ***/// **Yusuf**

3899. Quyidagi adiblar yana qanday taxalluslar bilan ijod qilganliklari qaysi javobda to'g'ri berilgan? 1) Pahlavon Mahmud; 2) Maxtumquli; 3) A.Avloniy; 4) Fitrat; a) Hijron; b) Mijmar; c) Qitoliy; d) Firog'iy ***/// **1 – c; 2 – d; 3 – a; 4 – b**

3900. Quyidagi asarlar kimning qalarniga mansubligi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang. a)

"Hibat ul-haqoyiq"; b) "Qutadg'u bilig"; c) "Vasf ul-shuaro"; d) "Kanz ul-haqoyiq"; 1) Yusuf Xos Hojib; 2) Pahlavon Mahmud; 3) Ahmad Yugnakiy; 4) Sayfi Saroyi ***/// **a – 3; b – 1; c – 4; d – 2**

3901. Quyidagi asarlardan qaysi birini adabiy tanqidchilikning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida ham baholash mumkin? ***/// **Sayfi Saroyi, "Vast ul-shuaro"** 3902. Quyidagi bayt qaysi adib asaridan olingan?

Qayu beg to‘ru bersa elda ko‘ni

Elin etti qudti yarutti kuni. ***/// **Yusuf Xos Hojib**

3903. Quyidagi misralarda o’g so‘zi qandav ma’noda qo‘llangan?

Qaysi erda bo‘lsa
uqush birla o‘g,  Ani er
atagil, necha o‘gsa o‘g.

Uqush, o‘g, bilig kimda bo‘lsa tugal,

Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o‘g. ***/// **aql, maqta, ulug‘Ja**

3904. Quyidagi parcha muallifini va misralarda tilga olingan shoh nomini aniqlang.

Ayo til turat madh,
o‘tingil qani, Men
artut qilayin,
shohimga ani.

Shohim madhi birla bezadim kitob,

O‘qug‘li kishining sevinsin joni ***/// **Ahmad Yugnakiy; Dod Sipohsolorbek**

3905. Rabg’uziy qissalarida fikrni dalillash uchun Qur’on oyatlari, Payg‘ambar hadislari va boshqa mo‘tabar manbalardagi ma’lumotlarni qaysi tilda keltirgan**?** ***/// **arab tilida**

3906. Rus ziyolisi N.M.Yadrinsev tomonidan topilgan, marmardan ishlangan bitiktoshni aniqlang. ***/// “To'nyuquq”

3907. She’rning janri va kimga bag'ishlanganligini toping.

Salotin dunyoda ko‘p keldiyu kechti, seningdek bir,

Falakning gar tili bo‘lsa, ayitsunkim, qachon keldi? (Sakkokiy) ***/// **qasida, Ulug’bekka**

3908. Telpakdo'zlik va po'stindo'zlik bilan shug'ullangan, "Qitoliy" taxallusi bilan ham she’rlar yaratgan ijodkor nomini aniqlang. ***/// **Pahlavon Mahmud**

3909. To‘nyuquq: “Turk Bilga hoqon davlatida bu bitigni yozdirdim”, deydi. Bilga hoqon kim edi? ***/// **Eltarish hoqonning o‘g‘li**

3910. Tunyuquq bitiklarida yozilishicha Tunyuquq nechta kishini birlashtirib unvon oladi? ***/// **700**

3911. Tunyuquq qanday unvonga ega bo'lgan? ***/// **Shad**

3912. Turkiy adabiyotdagi qo'shiq, afsona, marsiya, maqol singari janrlar haqida ilk ma’lumot beruvchi asar nomini aniqlang. ***/// **"Devonu lug'otit-turk"**

3913. Xorazmiy “Muhabbatnoma” sining qaysi bobida ko‘rsatilishicha, adib ikki tilda ijod qilgan? ***/// **“Bayoni voqeyin aytur”**

3914. Xorazmiy quyidagi misralarini qaysi hukmdorga bag'ishlagan?

Agar desam seni Rustam, yararsen,
Qiliching birla saflarni
yorarsen, Agar
madhing bitisa ko‘k
dabiri,
Tuganmas ming yil ichra mingda biri. ***/// **Muhammad Xo'jabekka**

3915. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan olingan quyidagi

“Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz,
Shahanshoh Jonibekxonga yetansiz” misralarda Oltin O'rda xoni Jonibek bilan kim qiyoslanadi? ***/// **Muhammad Xo'jabek**

3916. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da’vat kabi qadimgi turmush tarzidan olingan qo'shiqlar qaysi asarda maxsus berilgan? ***/// **"Devonu lug'atit-turk"**

3917. yodgorliklar rus ziyolisi N.M.Yadrinsev topilgan? ***/// **"Bilga hoqon" "Kul Tigin" bitiktoshi**

3918. Yomon bilan ulfat bo’lma, yur yiroq, Yo’lingga don sochib, qo’yadi tuzoq.

Yoyni egri ko’rib, to’g’riligidan –
O’q undan qanchalik qochganiga boq. She’r muallifi kim**?** ***/// **Pahlavon Mahmud**

3919. Yuqorida ko‘k osmon, pastda qo‘ng‘ir yer yaratilganda, ikkisining o‘rtasida inson bolalari paydo bo‘lgan". Ushbu jumla qaysi asardan olingan? ***/// **"Kultegin" bitiktoshidan**

3920. Yurt osoyishtaligi, mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib borgan qahramonlarni belgilang. ***/// **To'nyuquq, Kul tigin**

3921. "Boburnoma"da kimning zamonidagi qaysi shahar haqida "zeb va ziynati birga o’n, balki yigirma taraqqiy qilib edi, ko’rmak orzusi xili bor edi",

degan fikr keltiriladi? ***/// **Sulton Husayn mirzo zamonidagi Hirot haqida**

3922."Hibat ul-haqoyiq" asarida birinchi bo‘lim nima haqida? ***/// **ilm manfaati, jaholatning zarari haqida**

3923."Qoraxonning ulug‘ xotinidan bir o‘g‘li bo'ldi. Ko‘rki oy, kundin ortiq ortiq, uch kechakunduz onasini emmadi, har kecha ul o‘g‘lon onasining tushiga kirib aytur erdi: ey ona, musulmon bo‘lg‘il, agar bo‘lmasang, o‘lsam, o‘laman, ammo emmasman, teb erdi... " Ushbu parcha qaysi asardan olingan**?** ***/// **"Shajarayi turk”**

3924."To‘g‘ri so'z asal kabidir, yolg‘on (so'z) sarimsoq piyozdir, sarimsoq piyoz yeb, og'izni achitma, asal yegin" mazmunidagi fikr qaysi asarda aytilgan? ***/// **Ahmad Yugnakiy, "Hibat ul-haqoyiq"**

3925."Tor ko‘ngullik beklar"ni, 92 bovli o‘zbek qavmlarini birlik, totuvlikka chaqirgan shoir nomi qaysi javobda ko‘rsatilgan? ***/// **Turdi Farog‘iy**

3926."Zarbulmasal"da keltirilgan "Yaxshi ishni bajarishi uchun fol ochib o'tirish shart emas" degan fikr qaysi shoirga tegishli? ***/// **Hofiz Sheroziy**

3927."Zoli zar" iborasi "Xamsa"ning qaysi dostoni qahramoniga tegishli? ***/// **"Hayrat ulabror"**

3928.“... turkiy aytur edi. Ba’zi baytlari yomon emastur, vale devoni tamom bir vazndadur...” Mazkur fikr kimga tegishli va u kim haqida aytilgan? ***/// **Bobur Husayn Boyqaro haqida**

3929.“Boburnoma”dan olingan quyidagi parchada kim haqida so‘z ketyapti? “...musohibi erdi. Kichikligida hammaktab ekandurlar... . Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaidmirzo Hiridin ixroj qildi. Samarqandg‘a bordi. Necha yilkim, Samarqandda edi. Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi.” ***/// **Navoiy**

3930.“Karimut tarafayin” e’tirofiga sazovor bo‘lgan adib kim edi? ***/// **Husayn Boyqaro**

3931.“Maqsad ul-atvor” dostoninmg muallifi kim? ***/// **Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li Xoja**

3932.“Men bu jangda shahid bo‘laman, menga kindik qonim to‘kilgan tuproqni. Xorazmni tark etishga ruhsat yo‘q”. Najmiddin Kubro haqidagi ushbu ma’lumot kimning qaysi asaridan olingan? ***/// **Aburahmon Jomiy, “Nafohot ul-uns”**

3933.“Qoraxonriing ulug‘ xotinidan bir o’g‘li bo'ldi. Ko’rki oy, kundin ortiq ortiq, uch kechakunduz onasini emmadi, har kecha ul o’g’lon onasining tushiga kirib aytur erdi: Ey ona, musulmon bo‘lg‘il, agar bo‘lmasang, o‘lsam, o‘laman, ammo emmasman teb erdi... “ Qoraxonning bu o’g‘liga qanday nom berilgan? ***/// **O‘g‘uzxon**

3934.“Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo‘lmoq istasa, yomonmi?” Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kim(lar) haqida? ***/// **“Kecha va kunduz”; Enaxon va uning kelinbibisi**

3935.«Boburnoma»da qaysi podsho haqida shariat hukmiga ko'p rioya qilishi aytilib, o'z o'g'li bir kishini o'ldirgani uchun “qonliqlarig’a topshurub, dorulqazog’a” yuborgani haqida ma’lumot keltirilgan? ***/// **Husayn Boyqaro**

3936.Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida qaysi el nomining ma’nosi “yopishqur temak bo‘lur” deb izohlanadi? ***/// **uyg’ur**

3937.Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq" asarida dunyoni nimaga o‘xshatadi? ***/// **ilonga**

3938.Alisher Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostonida Badiuzzamonga og’itlarini keltirib, "otani pir bil"ish lozimligini uqtiradi? ***/// **"Hayrat ul-abror"**

3939.Alisher Navoiyning qaysi g’azali matla’sida Sharqdan chiqqan quyoshning hidoyat nurlari piyolada aks etishi, may piyolasidan "yor aksini mayda ko’r" deb sado chiqishi ifoda etilgan? ***/// **"Ashraqat min... "**

3940.Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo. Berilgan g'azal matla’si qaysi shoir ijodidan olingan? ***/// **Navoiy**

3941.Boborahim Mashrabning "Va’da qildi bir kelay deb, ko'zga, uyqu kelmadi" deb boshlanuvchi asari qaysi janrda yozilgan? ***/// **muxammas**

3942.Bobur qaysi hukmdorni “karimut-tarafayn” (“ikki tomonlama ulug‘”) deb atagan edi? ***/// **Husayn Boyqaroni**

3943.Bozanda va Navozanda ismli personajlar qaysi asarda uchraydi? ***/// **"Zarbulmasal"**

3944.Charxi kajraftor elidin yozamen, Chiqmadim hijron qishidin yoza men.

Bir meni yorliq bilan yod etmas ul,

Har necha ul shohga qulluq yozamen. Ushbu tuyuqdagi qaysi omonim so‘zlar bir xil so‘z turkumiga oid? ***/// **1 va 4-misralardagi "yozamen" so'zlari**

3945.Chingizxonning nabiralari zamonida Movarounnahr, Xuroson va Iroqda devonlar va daftardorlar barchalari uyg’ur ekanligi qaysi asarda yozilgan? ***/// **"Shajarayi turkiy"**

3946.Dedi: Qay vaqtdin o‘lding ishq aro mast, Dedi: Jon ermas erdi tanga payvast.

Ushbu misralar Navoiy “Xamsa”sining qaysi dostonidan olingan? ***/// **“Farhod va**
**Shirin”**

3947.Farog’iyning "Mahbub ul-qulub", Faxriddin Ali Safiyning "Latoyif at-tavoyif" asarlarini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan? ***/// **Komil Xorazmiy**

3948.Feruz qalamiga mansub qaysi g'azal har bir baytida shoirlar nomi ketma-ket keltirilishi bilan ajralib turadi? ***/// **“La’li shiriningni ta’rif aylab o'lmish shahdkom» matla’li g'azali**

3949.G. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi aqrab obrazi qaysi asarda shaxs nomi –bo'lib kelgan? ***/// **T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar"**

3950. G‘unchani og‘zing desam, naylay aning guftori yo‘q, Sarvni qadding desam, netay aning raftori yo‘q. Ushbu bayt kimning g’azalidan olingan? ***/// **Husayniy**

3951. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida erki o'zida bo'lmagan ona tuya haqidagi hikoyani kim so'zlab beradi? ***/// **Ko'rqush**

3952. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida o'z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukrlik qaysi hikoyat orqali tanqid qilinadi? ***/// **"Dumsiz eshak"**

3953. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida qo‘lidan kelmagan ishga uringan maymun haqidagi hikoyani kim aytadi? ***/// **Hudhud**

3954. Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida keltirilgan “Tuya bilan bo'taloq” hikoyasidagi sorbon qayerlik edi? ***/// **farg’onalik**

3955. Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida keltirilgan najjorlik qilgan maymun haqidagi hikoyatdagi voqealar qayerda bo‘lib o‘tadi? ***/// **Kashmir**

3956. Gulxaniyning “Zarbulmasal» asarida Bozanda va Navozanda nomli ikki kabutar haqidagi hikoyani kim aytib beradi? ***/// **Kordon**

3957. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida Yodgor po‘stindo‘z haqidagi hikoyani kim aytib beradi? ***/// **Turumtoy**

3958. Har kishi dardi bo’lsa, yig’lasin yor oldida,
Qolmasin armon yurakda etsun izhor oldida. Ushbu bayt muallifi kim? ***/// **Mashrab**

3959. Ikki zulfingni banogo'shinda tebratmish sabo,
O'ylakim, ochib qanotin qor uza o'ynar g'urob. (Amiriy) Ushbu baytda qo'llangan "g'urob" so'zining ma’nosini toping. ***/// **qora qush**

3960. Jahondin menga g‘am bo‘lsa, ulusdin gar alam bo’lsa,
Ne g‘am yuz muncha ham bo‘lsa, seningdek g’amgusorim bor. Ushbu hasratli misralar muallifi kim? ***/// **Bobur**

3961. Kim Alisher Navoiyning "haq so‘z adosinda daler (botir, qo'rqmas)" ligini alohida ta’kidlagan? ***/// **Husayn Boyqaro**

3962. Kim: “Seni dev qilg‘usidir asir,
Solib ikki ayog‘ingga zanjir.” “Xamsa”dagi qaysi timsol qismati shunday belgilangan? ***/// **Mudbir**

3963. Komil Xorazmiyning "Dar bayoni ta’rif va tavsifi Toshkand" asari qaysi gazetada bosilib chiqqan? ***/// **"Turkiston viloyatining gazeti"**

3964. Komil Xorazmiyning “Qaysi falak burjining mehri puranvorisan... “ deb boshlanuvchi el orasida mashhur she’ri qaysi janrda yozilgan? ***/// **muxammas**

3965. Ko'zlari masxuru yuz jodu erur tasxirda" matla’li g'azal qaysi shoir qalamiga mansub? ***/// **Furqat**

3966. Kulgu bila qildi ishorat menga,
"Tuhfa" bilan berdi bashorat menga. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan ushbu parchada qaysi asar haqida so'z borgan? ***/// **Jomiy "Xamsa"sining birinchi kitobi haqida**

3967. M. Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” fojiasida “Boybucha” kim edi? ***/// **Boyning xotini – 35-40 yashar**

3968. Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas. Navoiyning ushbu baytidagi arjumand so‘zining ma’nodoshi qaysi javobda berilgan? ***/// **aziz qadrli**

3969. Nafs yo'lida halok bo'lgan uch qarindosh haqida qaysi adib yozgan edi? ***/// **Xo'janazar Huvaydo**

3970. Navoiyning "Bo'lmag'ay erdi jamoling muncha zebo koshki" deb boshlanuvchi she’ri qaysi janrda yozilgan? ***/// **muxammas**

3971. Ne navo so'z aylagay bulbul gulistondin judo,

3972. Nodira tarjibandining har bandida quyidagi qaysi misralar takrorlanadi?

***/// **Visolingdik ey jon, topolmay so'roq,**

Nelar tushti boshima sendin yiroq.

3973. O‘n to‘qqizinchi asr birinchi choragida Qo‘qon xonligida yuz bergan tarixiy voqealarni she’riy yo'lda aks ettiruvchi "Tarixi muhojiron" asari muallifini ko'rsating. ***/// **Dilshodi Barno**

3974. O‘z ismini radif qilib g‘azal yozgan shoirlar qaysi javobda to’liq ko’rsatilgan? 1) — Mashrab; 2) Turdi; 3) Uvaysiy ***/// **1, 2, 3**

3975. O’tka yoqqil sarvni ul qaddi ra’no bo‘lmasa, Yelga bergil gulni ul ruxsori zebo bo‘lmasa,

Sarv birla gul tamoshosig‘a maylim yo‘q turur,

Bog‘ aro ul s'arvi gulruhdin tamosho bo‘lmasa! Ushbu g‘azal kimning qalamiga mansub. ***/// **Husayn Boyqaro**

3976. Oybekning "Navoiy" ramonida "Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o‘zi ulug’ mukofotdir", degan nasihatini Navoiy kimga qarata aytgan? ***/// **Darveshaliga**

3977. Oyog'im yetgancha Boburdek ketar erdim, netay. Ushbu baytning ikkinchi misrasini toping. ***/// **Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana**

3978. Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor? Fasohatda, sabohatda, hama to‘g‘rida san nozik Yor go'zalligining mubolag'aviy tasviri berilgan ushbu bayt muallifi kim? ***/// **Furqat**

3979. Qaysi adib o’z asarida bilimli kishini qimmatbaholik dinor, ilmsiz, johil kishini qimmatsiz yemish (meva) dir, deb ta’riflaydi? ***/// **Ahmad Yugnakiy**

3980. Qaysi asarda “ ... podshohi oldiga uch toifadin guzir va chora yo'qdur. Avval, olimi boamalki, podshohning oxiratlik asbobini anga ko'rguzsa. Ikkinchi, vaziri sohib ra’yki, podshohning dunyolik yarog'ini taraddudida bo'lsa. Uchinchi, munshiyi rostnavis, kalamzani nigahdor na shamshirzan bo’lsa” degan fikr aytiladi? ***/// **Gulxaniy “Zarbulmasal”**

3981. Qaysi ijodkor bir muxammasida o‘zini bo'stonidan adashgan sho'rida bulbulga o‘xshatadi? “Nihoni kuydirib hajr o‘ti po‘st-u ustixon aylar”,

“Boshimda hushim yo'q”, “Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida” kabi misralar orqali holini sharh etadi? ***/// **Furqat**

3982. Qaysi mashhur shoir o‘zining ruboiylaridan birida jon qancha shirin bo'lmasin, lekin umr barchasidan azizroq, degan falsafani yoritib bera olgan? ***/// **Navoiy**

3983. Qaysi shoir o'z g'azalida uch xil rangni bildiruvchi so'zlarni radif sifatida qo'llagan? ***/// **Navoiy**

3984. Qaysi shoirning bir g‘azalida “Quyosh yorning oybek yuzini ko‘rib, xijolat chekkanidan to‘rtinchi osmonga chiqib ketgani” ifodasi berilgan? ***/// **Navoiy**

3985. Qaysi yodgorlikda Tuyg‘un Eltabar nomi keltirilgan? ***/// **"Kul Tigin" bitiktoshi**

3986. Qizim, umringni bekor o'tkazma, - dedi yo'lovchi. Ushbu ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi to'g'ri fikrni qaniqlang**.** ***/// **Qo'shma gap sodda gapga aylanadi.**

3987. Quyida berilgan parcha kimning qaysi asaridan olingan va unda kim haqida ma’lumot berilgan? "Mafosil zahmati jihatidan namoz qila olmas edi. Harrof va xushxulq kishi edi ... Bir qatla bir o‘g‘li bir kishini o'lturgani uchun ... dorulqazog'a yibordi**".** ***/// **Bobur, "Boburnoma", Husayn Boyqaro**

3988. Quyidagi bayf muallifi kim?

Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg'aydim,
Ko‘rub, rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrayi zardim. ***/// **Bobur**

3989. Quyidagi bayt muallifini va she’rning nomini aniqlang. Erur ilm-u adab, fazl-u hunar osor maktabdin, Yetar har rutbayi oliy esa takror maktabdin. ***/// **Hamza Hakimzoda Niyoziy “Maktab”**

3990. Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa" ning qaysi dostonidan olingan? Nafing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o'zingga ko'prak durur**.** ***/// **"Hayrat ul-abror"**

3991. Quyidagi baytda qaysi shoir taxallusi tushirib qoldirilgan? Bu ... dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma, Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rtar.
***/// **Mashrab**

3992. Quyidagi baytning ikkinchi misrasini toping.

Podshoh yo'qlatsalar nogoh, gado deb axtaring, … (Muqimiy) ***/// **Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.**

3993. Quyidagi berilgan qaysi shoirning g'azalida siniq ko'ngil vayron bo'lgan Ka’baga qiyoslangan**?** ***/// **Navoiy**

3994. Shahrni zindonidin ozod o‘lib, Tog‘ni Shiriniga Farhod o‘lib.
Sonur edi o‘zini tog‘ xisravi,

Tog‘ni uqub Dehlavii ma’navi(y). Ushbu parcha qaysi asardan olingan**?** ***///

**“Zabulmasal”**

3995. Sultonning bir soatlik adolatiga yigirmata haj ziyorati savobini almashtirmoqchi bo'lgan zohid haqida kimning qaysi asarida hikoya qilingan? ***/// **Poshshoxo'ja**

**Abdulvahobxo'ja o'g'li Xoja, "Miftoh ul-adl"**

3996. Tolibul ilm yigitning omonat qilib qoldirgan ming tillosini o'g'irlab qo'ygan qozi haqidagi hikoyat qaysi asarda keltirilgan? ***/// **Poshshoxo’ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xoja, "Miftoh ul-adl"**

3997. Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,

Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq,

Yoinki bir asr zindonda yotmoq,

Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq. Berilgan to'rtlik kimning qalamiga mansub? ***/// **Pahlavon Mahmud**

3998. Uvaysiyning "Qil amon, yo rab, aduvlar majorasidin meni... " deb boshlanuvchi she’ri qaysi janrda yozilgan? ***/// **tarjiband**

3999. Vasldin so‘z derga yo‘q yoro (1) manga, Hajr aro rahm aylagil, yoro, (2) manga. O‘qung etti ko‘p yamon yoro (3) manga, Marhami lutfing bilan yoro (4) manga. (Bobur) Ushbu tuyuqda keltirilgan yoro so‘zlarining ma’nolari to‘g‘ri keltirilgan javobni toping. ***/// **- mador, quvvat; 2 - ey yor; 3 - yara, jarohat; 4 - yordam ber** 4000. Xarobot aro kirdim oshuftahol,

May istarga ilgimda sing‘on safol. Ushbu misralar Alisher Navoiyning qaysi janrda yozgan asaridan olingan? ***/// **tarjiband**

4001. Xojaning “Miftoh ul-adl” asaridagi hikoyatda tolibul ilm yigit kimning ustidan shikoyat qilib keladi? ***/// **qozining**

4002. Xolboqi miskar haqidagi hikoyat quyidagi asarlardan qaysi birida keltirilgan? ***/// **Gulxaniy “Zarbulmasal”**

4003. Xorazmning sug'orish ishlariga doir "Arnalar" ("Anhorlar") risolasi muallifi kim? ***/// **Munis**

4004. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qayerlar "purshar (serjanjal, serg’avg’o) va sho’r yerlar edi" deb yozadi? ***/// **Kobul va G’azni**

4005. Zavqiyning "Ahli rasta hajvi" she’rida necha kishi hajv qilinib, she’r Mo'ymarak degan joyga osib qo'yiladi? ***/// **46 ta**

4006. 1017. “Maslakul-muttaqin”, “Sabotul-ojizin”, “Najotut-tolibin” singari asarlar bilan mashhur bo‘lgan zot nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **So‘fi Olloyor**

4007. "... kuldurguchi va ham yig‘latguchi nosih va nofe’ asardur", deya tabrik va taqrizlar yozilgan asar qaysi**?** ***/// **"Padarkush**"

4008. "... telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek edi. Har vaqt ikki qo’l bilan shatranj o’ynardi". Ushbu ta’rif Oybekning "Navoiy" romanidagi qaysi qahramonga tegishli?

***/// **Zulnun Arg’un**

4009."Aylar gazet" radifli g'azal yozgan shoir nomi qaysi javobda berilgan? ***///

**M.Sh.So'fizoda**

4010."Baxshiyona" turkumini yaratgan shoir nomi berilgan javobni belgilang. ***/// **U.Azim**

4011."Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishganlari nomli" she’r muallifi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **So’fizoda**

4012."Ishonchga kirgan tuhmatchilar" nomli bob qaysi romanda bor? ***/// **"Oltin zanglamas"**

4013."Jin charchaganni urar, dev tegirmonchini" maqoli qaysi asarda kimning tilidan aytilgan? ***/// **"Advokatlik osonmu?"da Egamberdi**

4014."Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshi Ostonaqul boyning qovun saylida kim bilan tanishadi? ***/// **Miryoqub**

4015."Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshini kim o‘z maqolasida yuksaklarga ko'tarib maqtab yozadi? ***/// **Mulla Rivojiddin a’lami Mulkobodiy**

4016."Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshining katta xotini kim edi? ***/// **Xadichaxon**

4017."Kuz yomg'iri", "Bahorni sog'indim... ", "Xazon" nomli she’rlar muallifini belgilang. ***/// **Cho'lpon**

4018."Odam bir umr esi past bo’lar ekan qizim. Yoshimizni yashab qariymiz, munkayib qolamiz, o’lim yelkamizdan qoqib turadi-yu, es-hushimiz ravshan tortmaydi. Ammo nihoyat, shunday bir zum keladiki, qizim, es-hushinggina emas, butun vujuding ravshan tortib.

Hamma narsani birdan tushunasan... " Ushbu so’zlar qaysi asar qahramoni tilidan aytilgan?

***/// **"To’qqizinchi palata", Bahromov**

4019."Oltin zanglamas" romanida kim Sodiqqa "... o'zingizni qiynab nima qilasiz, siz kuch bergan to‘nka endi ko'karmaydi", - deb aytadi? ***/// **Saydullayev**

4020."O'qing, onalar" nomli she’r muallifi kim? ***/// **So'fizoda**

4021."Oqsoqol" nomli she’r muallifi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Mirtemir**

4022."O'zbek ko'p butun Yer yuzida, ammo Olamda boshqa hech O'zbekiston yo'q", - deb yozgan shoir kim? ***/// **M.Kenjabek**

4023."Sayra, bulbul, sayra, chinorni shoxi sinsun, Yor ayrilaman dedi, ayrilib ko'ngli tinsun" ashulasi kimning maqolasida keltirilgan? ***/// **A.Avloniy**

4024."Sumbul qasidasi" nomli asar muallifini belgilang. ***/// **Mahmud Abdul Boqiy**

4025."Xushbo'y o‘t yoqiladigan cho‘g‘don" degan lug'aviy ma’no anglatuvchi taxallusni belgilang. ***/// **Mijmar**

4026."Yuragimga kirgil, umidim,

Ko’zlarimda turgil, umidim " misralari bilan boshlanadigan she’r muallifi va she’r nomini toping. ***/// **U.Hamdam "Munojot"**

4027..Shayxzoda "Toshkentnoma" she’rida kimni "xiyobonning chekkasida har galgidan xotirjam ko'rdim", deydi? ***/// **Hamid Olimjonni**

4028.“... savodsiz odam ko‘zi ila ko‘rib, ko‘zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar.” deb Behbudiy nimaga ta’rif beradi?**@2 teatrga**

4029.“Ikki emas, to’rt til lozim” maqolasida Behbudiy turkistoniylarga qaysi tillarni bilmoq lozimdur, deydi? ***/// **turkiy, forsiy, arabiy va rusiy**

4030.“Kecha va kunduz” (Cho‘lpon) romanidagi qahramonlardan qaysi biriga “... belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi”, deya ta’rif beriladi? ***/// **Akbarali mingboshiga**

4031.“Kecha va Kunduz” romanida kim Akbaraliga Zebining maqtovini “Shaharda bir xudo bandasining ikkala dunyoga arziydigan bir qizi bor ekan”-deb yetkazadi? ***/// **Miryoqub**

4032.“Kim nimani yaxshi ko'rar?”, “Sanoye Nafisa” maqolalarining muallifini toping. ***///

**A.Avloniy**

4033.“Kiprigimday azizlarim, nechog’liq ham suyuksiz” deya Mirtemir kimlarni ta’rifiaydi? ***/// **yosh qalamkashlarni**

4034.“Nafing qancha bo‘lsa — umring shuncha” Ushbu parcha qaysi asar epigrafi? ***/// **A.Muxtor, “To‘qqizinchi palata”**

4035.“Oltin zanglamas” romanidagi soxta, muttaham, razil, insofsiz tergovchi nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **Chuxanov**

4036.“Ota pichog‘i bilan bolalarni bo‘g‘izlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding... Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha insonlarni chuqurg yumalatmog‘ing zamoni hanuzgacha bitmadimi?” “Abulfayzxon” fojiasidagi Siyovush ruhi Xayolning ushbu ayblovi, monologi-murojaati kimga yoki nimaga qarata aytilgan? ***/// **taxtga**

4037.“Oybekning “Navoiy” romanida qaysi qahramon beklar begi, podshohga eng yaqin va yuqori o'rinni ishg‘ol etgan edi? ***/// **Muzaffar Barlos**

4038.“Yulduzli tunlar” romanida Boburning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga tomon uch oy yo’l yurgan qahramonlar kimlar? ***/// **Xondamir, Shihob Muammiy, Ibrohim Qonuniy**

4039.“Yulduzli tunlar” romanida keltirilgan «Habib us-siyar» (“Sevimli do'stning tarjimai holi”) asarining rnuallifi kim? ***/// **Xondamir**

4040.1913-yil "Oyna" jurnalining ilk sonida Mahmudxo’ja Behbudiyning qaysi maqolasi chop etilgan? ***/// **"Ikki emas, to’rt til lozim"**

Avloniyning “Advokatlik osonmi?” pyesasida Davronbek: “Bu mushtipar ma’sumaning butun umri azob-mehnatda, qayg‘u va kulfatda o‘tib dunyoga kelg‘oniga-da ming marotabadan pushmon yeb g‘am zindonida yashag‘on”, -deya kimni nazarda tutgan edi? ***/// **Mehrinisoni**

Qahhorning “Sarob” romanida Saidiy kimni “bilimga chanqoq yigit”,-deydi? ***/// **Teshani**

Qahhorning “Sarob” romanidagi Munisxonning akasi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Salimxon**

4041. A.Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "o‘risga yer sotib, keyin qiynalib" yurgan qahramon kim? ***/// **Xudoyberdi**
4042. A.Avloniyning "Advokatlik osonmu?" pesasida Davronbek kimning o‘g‘li edi? ***/// **Rustambekning**
4043. A.Avloniyning "Advokatlik osonmu?" pesasida Egamberdi kimdan pul qarz olgan edi? ***/// **Orifjondan**
4044. A.Oripov qaysi she’rida dunyoni bozorga o’xshatadi? ***/// **"Men anglab yetgan falsafa"**
4045. A.Qahhor “Sarob” romanida Saidiydan 11 tanga qarz olgan shaxs kim edi? ***/// **Ulfat**
4046. A.Qahhorning "Sarob" romanida "vaqti yo‘qligidan kitob emas, gazet, gazet emas, hatto bosilib chiqqan o‘z asarlarini ham ko‘rib chiqolmaydigan" qahramon kim? ***/// **Ulfat**
4047. A.Qahhorning "Sarob" romanida ... dilkash, ko‘nglida kiri yo‘q, madaniyatni sevadigan, o‘zbek xalqidan dohiylar chiqishini istaydigan qahramon nomi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Salimxon**
4048. A.Qahhorning "Sarob" romanida kim Saidiyning uyidagi kitoblarning nomini ham to‘g‘ri o‘qiy olmay, Saidiyni hayron qoldiradi? ***/// **Ulfat**
4049. A.Qahhorning "Sarob" romanida Saidiy o'zining qaysi she’r va hikoyasi bosilib chiqishi haqida maktub oladi? ***/// **"Vodiy", "Qalandar"**
4050. A.Qahhorning "Sarob" romanida Saidiyning yoshligidagi hammaktabi kim edi? ***/// **Tesha**
4051. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "eri bilan urishib, chiqmoqchi bo’lgan xotun" kim edi? ***/// **Mehriniso**
4052. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "mol yo’qotgan dudug’" kim edi? ***/// **Haydarali**
4053. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "ot yo’qotgan tojik" kim edi? ***/// **Xushvaqt**
4054. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasida "to‘y qilib qarzdor bo‘lg‘on arobakash" kim edi? ***/// **Egamberdi**
4055. Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O‘zbekistonni" she’rida qaysi o’zbek shoiri tilga olingan? ***/// **Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqat**
4056. Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida hikoyachi bolaning otasining ismi nima edi? ***/// **O’sar aka**
4057. Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida O’sar aka jinlar bazmida kim bilan raqsga tushadi? ***/// **bir qiz bilan**
4058. Alisher Navoiy ni “erk-u baxt timsoli” deb ta’riflagan ijodkor kim? ***/// **G‘afur G‘ulom**

4059. Aql egasi hiylaga aldanmagay, Hiylagarning hiylasi boshin yegay. Ushbu fikr A.Avloniyning qaysi kitobida keltirilgan? ***/// **"Ikkinchi muallim"**

4060. Asar oxiridagi “Ey qop-qora saodat sensan” degan fikr asarning fojiaviy pafosini belgilaydigan, “qop-qora saodat” deganda yangi tuzumning va’da qilgan “saodat” i Turkiston xalqi boshiga qora kunlarni keltirgani ramziy ishora tarzida ifodalangan asar va uning muallifi kim? ***/// **“Abulfayzxon”, Abdurauf Fitrat**

4061. asar qahramoniga "-Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!... Ashula aytsa, qulog‘ing mast bo'lib, o'ladi odam... " - deya ta’rif berilgan? ***/// **"Kecha va kunduz"da Zebiga**

4062. Avaz O‘tar nimani "foydayi kondir" deb ataydi? ***/// **chet tilini o'rganishni**

4063. Avaz O'tarning "Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildir" deb boshlanuvchi she’ri qaysi janrda yozilgan? ***/// **musamman**

4064. Bahorga burkangan sen sevgan elda, Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast. O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,

Men ham hali sensiz olmadim nafas. Ushbu parcha Zulfiyaning qaysi she’ridan olingan? ***/// **"Bahor keldi seni so'roqlab... "**

4065. Behbudiyning "Padarkush" dramasida boyning sandig'idan pul o'g'irlash uchun kimlar boradi? ***/// **Toshmurod, Tangriqul**

4066. Behbudiyning "Padarkush" dramasida Toshmurodga otasining sandig‘ini ko'rsatib qo‘yishni kim o‘rgatadi? ***/// **Davlat**

4067. Behbudiyning “Padarkush” fojiasidagi boyning qotili kim? ***/// **Tangriqul**

4068. Behbudiyning “Padarkush” pesasida sandiqdan pul o‘g‘irlash taklifi kimdan chiqadi? ***/// **Davlatdan**

4069. Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz. Nurlar qadami-la chopgan sekundning Barini tutolmas ayuhannos ovoz...

Ushbu she’riy parcha G’ofur G’ulomning qaysi she’ridan olingan? ***/// **“Vaqt”** 4070.Boburning

"Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,

Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen..." misralari bilan boshlanuvchi she’rining janrini aniqlang. ***/// **ruboiy**

4071. Cho‘lpon qaysi adibning “Osilgan yetti kishining hikoyasi” asarini tarjima qilgan? ***/// **Andreyev**

4072. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo’rg‘a chiqadigan gazetani topib kelib keyin afsus chekkan qahramon kim edi? ***/// **Hakimjon**

4073. Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi qaysi qahramonning laqabi “epaqa” edi? ***/// **Miryoqub**

4074. Chollarning o‘ziga xos obrazlari tasvirlangan hikoya qaysi javobda keltirilgan? ***/// **N.Norqobilov, "Olim o‘g‘li"**

4075.Cho'lponnig “Kecha va kunduz” asarida Miryoqubga kim “Sen amerikalikka o‘xshaysan, lekin shu sartiya ichida tug‘ilib qolgansan” deydi? ***/// **Noyib to'ra**

4076.Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramonlari qaysi qatorda berilgan? ***/// **Zebi, Miryoqub, Ummatali**

4077.Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida hali bola paytidanoq qishloqning podasini boqib, elning rahmatini olgan, qaynotasidan qolgan sholipoyada tinimsiz mehnat qilib, shu bilangina olti boshli oilani naridan beri tebratib kelayotgan timsol kim? ***/// **Xolmat**

4078.Daraxshon yulduzlar sari o’kirgan,

Bo’ynida zanjir-u, qalbi ozod sher. G’afur G’ulom ushbu misralarida kim haqida fikr bildirgan? ***/// **Alisher Navoiy**

4079.Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? ***/// **"Navoiy" romanidan**

4080.Dilni o'rtar hamon g‘am-u g'urbatlari,

Yot ellarda qolib ketdi turbatlari,

"Fig'onkim... " deb o‘tdi qancha furqatlari,

Yorkentlarda ko'zi jayron yurt edi bu. (S.Sayyid) She’riy parchada qo'llangan turbatlari so'zining ma’nosini belgilang. ***/// **tuproq, yer, ziyoratgoh**

4081.E.Vohidov o'z she’rlaridan birida qachon “paytavaning salla”, “aza chog'ida yalla” bo‘lishini qayd etib o‘tgan**?** ***/// **o'zbek Navoiyni o’qimay qo’yganda**

4082.Erur ilm-adab, fazl-u hunar maktabdin, Yetar rutbat oliy esa takror maktabdin.

Hama gulshan uza yomg‘ir yog‘ib chun sabzavor etsa,

Taraqqiy gulshaniy obod o‘lur anhor maktabdin.

Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **Hamza**

4083.Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko‘milgan. Ushbu ta’rif qaysi qahramon haqida? ***/// **Akbarali mingboshi**

4084.Fitratning " Abulfayzxon" fojiasida kim Farhod otaliqning yonini olib "... Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg'oni uchun uni o'ldirmoq nechun bo'lar ekan?" - deydi? ***/// **Qozi Nizom**

4085.Fitratning "Abulfayzxon" dramasida Abulfayzxonning o'g'li Abdulmo'minxonni kim zaharlaydi? ***/// **Rahimbiy**

4086.Fitratning "Abulfayzxon" dramasida qaysi personaj "Ulfat bilan Davlatni rozi qilsagina xon rozi bo‘lishini, ammo bu ikkovini rozi qilish mumkin ish emas"ligini aytadi? ***/// **Ibrohimbiy**

4087.Fitratning "Abulfayzxon" dramasida qaysi qahramon xondan Farhod otaliqning "kichkina erkaligi"ni kechirishni, ya’ni o'ldirmasligini so'raydi? ***/// **Qozi Nizom**

4088.Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida "xong'a yaxshi ko'runmak uchun qiz qurbon qilguvchilar ko'p, shularning qizlarini oldira beringiz", - deb qaysi personaj aytadi? ***/// **Farhod otaliq**

4089.Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida Buxoroning katta mullasi kim edi? ***/// **Oxun**

4090.Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida kim "Chingizxon avlodidan bo‘lmag‘on kishi xon bo‘la olmaydir, degan shariatni yo‘q qila olaman", - deydi? ***/// **Rahimbiy**

4091.Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida kim Farhod otaliqning qonga bo'yalgan boshini xon huzuriga olib kiradi? ***/// **Ulfat**

4092.Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida Farhod otaliqning o‘rniga xon kimni otaliq qilib tayinlaydi? ***/// **Ibrohimbiyni**

4093.Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida Hakimbiyning ukasi kim edi? ***/// **Doniyolbiy**

4094.Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida kim Abdumo‘minni zaharlab o‘ldiradi? ***/// **Rahimbiy**

4095.Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasida "Biz qul edik, hozir butun o‘lka qul", deb qaysi qahramon aytadi? ***/// **Otash**

4096.Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasida Otash kimni oq kiygan farishtaga o'xshatadi? ***/// **Muqanna**

4097.Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasida qaysi qahramon o‘zini "xudo ham men, payg'ambar mening o‘zim" degan? ***/// **Muqanna**

4098.Hech kimi yo'q cholning omonatiga xiyonat qilgan qassob obrazi qaysi asarda uchraydi? ***/// **Sh.Xolmirzayev, "Qariya"**

4099.Hijroning qalbimda, sozing qo’limda, Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham! Ushbu misralar Zulfiyaning qaysi she’ridan olingan? ***/// **"Bahor keldi seni so’roqlab"**

4100.Islom barlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir. Ushbu gapda ostiga chizilgan birlikni aniqlang. ***/// **ajratilgan bo'lak**

4101.Islomboy, Anzirat, O'rinboy, Salomat obrazlari qaysi asarda tasvirlangan? ***///
**X.Sultonov, "Yo, Jamshid!"**

4102.Jadidchilik harakatining Turkistondagi asoschisi va rahnamosi bo‘lgan adib nomi qaysi javobda keltirilgan? ***/// **Mahmudxo'ja Behbudiy**

4103.Kim o'z maqolalarining birida: "Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur", - deb yozadi? ***/// **M.Behbudiy**

4104.M. Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” fojiasining ikkinchi pardasi qanday manzara bilan boshlanadi? ***/// **pivaxona manzarasi bilan**

4105.M. Shayxzoda “Toshkentnoma” dostonida Toshkentning madhini o’zbekning necha vaznida ohangga solganini aytgan? ***/// **9**

4106.M. Shayxzoda “Toshkentnoma” she’rida kimni “asl shoir edi” deb aytadi? ***/// **Hamid Olimjonni**

4107.M. Shayxzodaning “Toshkentnoma” dostoni necha bobdan tashkil topgan? ***/// **18**

4108.M.Behbudiy "Ikki emas to‘rt til lozim" maqolasida "Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham ... uchun lozimdur", - deb nimani aytadi? ***/// **tiriklik va dunyo**

4109.M.Behbudiyning "Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi" fojiasida boyning qotili kim edi? ***/// **Tangriqul**

4110.M.Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" fojiasida kim odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qilishini aytadi? ***/// **Boy**

4111.M.Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" fojiasining birinchi pardasida Boy va domla nima haqida bahslashishadi? ***/// **Boylikning yoki ilmning ustunliklari haqida**

4112.M.Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" fojiasida domla "Bu badbaxtlik va musibatg'a sabab jaholat va nodonlikdur",-deb qachon kimga aytadi? ***/// **Boy pichoqlab o'ldirilgan paytda Boybuchaga aytadi**

4113.M.Shayxzoda "Toshkentnoma" she’rida kimning zamonasini "ko'zimni yumib sayr etar edim", deydi? ***/// **Navoiy**

4114.M.Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostonida lirik qahramon H.Olimjonni qayerda uchratadi? ***/// **Lohutiy ko’chasida**

4115.Maqsud Shayxzoda “Toshkentnoma” lirik poemasida:

“Biri - she’rimizning o’tli yuragi,

Biri - nasr uyining baland tiragi”, -- deb yozganida, kimlarni nazarda tutgan edi**?** ***///

**G‘afur G‘ulom va Oybekni**

4116.Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub quyidagi misralarida qaysi shahar ta’riflangan? Sen mangu shaharsan, kunday bezavol, Seni ta’rif qilgan dostonchining ham

Baytlari tugashi, bu - amri mahol,

Har qancha tarannum etsang, bu - kam!..**D)** ***/// **Toshkent**

4117.Mayli deyman va qilmayman rashk,

Xayolimni gulga
o‘rayman. Har
bahorda
chiqqanda
yakkash, Baxtim
bormi, deya
so‘rayman.

Ushbu misralar Hamid Olimjonning qaysi she’ridan olingan? ***/// **“O’rik gullaganda”**

4118.Men o'zbek she’rining to'qqiz vaznida Sening dostoningni ohangga soldim.

Qissaga keskinlik bermoq jazmida

Baxshi bisotidan o'lchovlar oldim. Ushbu misralar Maqsud Shayxzodaning qaysi asaridan olingan? ***/// **“Toshkentnoma”**

4119.Mirtemirning "Surat" asari qaysi janrda yozilgan? ***/// **lirik qissa**

4120.Muhammad Sharif So'fizoda nimani “Dil g‘unchasini yashnatib, fasli bahor aylovchi, ko‘ngil bog‘ini sabzavor aylovchi” deb ta’riflaydi? ***/// **gazetani**

4121.Nasrni – og'ir qadamga, nazmni – chopog'onga o'xshatgan ijodkor kim? ***///

**M.Shayxzoda**

4122.Navoiyning "O‘xshamas" radifli g'azaliga muxammas bag'ishlagan shoir nomi qaysi javobda berilgan? ***/// **O.Matchon**

4123.Nega kerak edi, shu chiroy, shu o‘t, Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq? Ushbu parcha Hamid Olimjonning qaysi she’ridan olingan? ***/// **"Ofeliyaning o‘limi"**

4124.O’zi gulday o‘g‘lonlarin saylab berib,

Nomlarini ro‘yhatlarga joylab berib,

Cho‘lponlarin o‘zi itday boylab berib,

Izlaridan o‘zi giryon yurt edi bu. (S. Sayyid) . Misradagi giryon so‘zining ma’nosi to‘g‘ri qayd etilgan javobni belgilang. ***/// **sarson bo‘lgan**

4125.O'tar kunlar, o'tar zamon, Ey, Vatanim, bo'lma hijron!

Men ketsam-da, sen bo'l omon!

Omon – Vatan, Vatan – omon! Ushbu misralar muallifi kim**?** ***/// **Avloniy** 4126.Oybekning "Navoiy" romanida Alisher Navoiyni kim "she’rning sheri" deb ataydi? ***/// **Husayn Boyqaro**

4127. Oybekning "Navoiy" romanida keltirilgan Xo'ja Afzal Navoiyga kim bo'lardi? ***/// **do'sti**

4128. Oybekning "Navoiy" romanida keltirilgan, "har vaqt ikki qo’li bilan shatranj o'ynaydigan" bek kim edi? ***/// **Zulnun Arg'un**

4129. Oybekning "Navoiy" romanida Majididdin kimni "Zamonaning Aflotuni", - deya Boyqaroga maqtaydi? ***/// **Shahobiddinni**

4130. Oybekning "Navoiy" romanida Mavlono Fasihiddin: "nodir iste’dod, zamonamizning Abu Ali ibn Sinosi bo'lishiga kaminada aslo shubha yo'q", - deb kimni nazarda tutadi? ***/// **Sultonmurodni**

4131. Oybekning "Navoiy" romanida Mirak Naqqosh Navoiy bilan qaysi ko'shkning naqshi haqida suhbatlashadi? ***/// **"Binafsha bog"'**

4132. Oybekning "Navoiy" romanida Mirak Naqqosh Navoiyga kimni "zehni behad baland, qo'li oltin ekan, san’atda juda tez ilgarilab ketdi",-deya maqtaydi? ***/// **Kamoliddin Behzodni**

4133. Oybekning “Navoiy” romanida “past bo‘yli, tiyrak ko‘zli, xushmuomala, daftardorlik, hisob-kitob ishlariga juda mohir”, deb tasvirlangan shaxsning ismi qaysi qatorda berilgan? ***/// **Darveshali**

4134. Oybekning “Navoiy” romanida Husayn Boyqaro Hirot qozisi lavozimiga Majiddidning maqtovlari sababli kimni tayinlashga va’da beradi? ***/// **mavlono Shahobiddinni** 4135. O'zini muhit girdobidagi bir somon parchasiga o'xshatgan shoirni toping. ***/// **Cho'lpon** 4136. P.Qodirov qalamiga mansub “Yulduzli tunlar” romanida Boburning butun mamlakatda may ichishni man etuvchi qarori haqida “bizga ma’qul kelmadi” deb munosabat bildirgan qahramon kim edi? ***/// **Ko'chkinchixonning elchisi**

4137. Qaysi adib o'zining "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasida "ikki emas to'rt - turkiy, arabiy, forsiy va rusiy tilda tahrir va taqriz etguvchilar lozim" ligi haqida yozib, hadisi sharifda payg'ambarimizning Zayd ibn Zobitga yahudiy xatini ham o'rganishni buyurganliklarini ham tilga olgan? ***/// **Behbudiy**

4138. Qaysi asar “Ikki dard”, “Ertak”, “Bugun yo’lda”, “Haftada oyda” kabi bo’imlarni o‘z ichiga oladi? ***/// **Mirtemir, “Surat”**

4139. Qaysi asar qahramoni “Olam yaxshi. Hayot go‘zal. Natijasiz mehnat bo‘lmaydi” degan fikrni bildiradi? ***/// **A.Qahhor “Sarob’’ romani**

4140. Qaysi asar qahramoni haqida "deraza orqasidan uzilgan o'q zarbidan ohistagina yerga yiqildi. Bir nafasdan so'ng ko'zlarini sekin ochdi. Tiniq zangori samo, azamat quyosh uning ko'zlariga kirdi" degan tasvirlar berilgan? ***/// **"Qutlug' qon", Yo'lchi**

4141. Qaysi asar qahramoni haqida "Qora sochim" kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirinshirin qilmoqda edi... " - deya aytishgan? ***/// **"Kecha va kunduz", Zebi**

4142. Qaysi asar qahramonining ikki chakkasida osilib turgan ingichka "kokil" (mo‘ylov)larini "ikki osilganlar" (L.Andreyevning "Yetti osilganlar" asari nazarda tutilyapti) deb piching qilar edilar? ***/// **"Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshining**

4143. Qaysi asarda Hofiz Sheroziyning "Yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o’tirishning keragi yo’q" degan hikmati keltirilgan**?** ***/// **“Zarbulmasal”**

4144. Qaysi ijodkor o‘z she’rida kitoblarni beg‘araz xayrixohlarga va kengashchilarga hamda mangu ishchilarga o'xshatadi? ***/// **M.Shayxzoda, "Toshkentnoma"**

4145. Qaysi ijodkorlar "Karvon qo'ng'irog'i" nomli asar yozgan? ***/// **M.Osim, A.Muxtor**

4146. Qaysi ijodkorning lirik qahramoni "za’faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur" kiygan holda tasvirlangan? ***/// **Furqat**

4147. Qaysi pyesada uyini garovga qo‘yib, qarz hisobiga uylangan va qarzni vaqtida to‘lolmay, uyidan mahrum bo‘lib, ko‘chada qolgan Egamberdi obrazi aks ettirilgan**?** ***///

**“Advokatlik osonmi?”**

4148. Qaysi qatorda shoira Zulfiyaning Hamid Olimjon xotirasiga bag‘ishlangan she’ri to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **"Bahor keldi seni so'roqlab**"

4149. Qaysi she’rda "quyoshga bir savat oq gul tutib xursand bo'lgan" lirik qahramon tasvirlanadi? ***/// **Oybek, "Na’matak"**

4150. Qaysi shoir Nodiraning "Firoqnoma" asariga yaqin mavzuda "Ayol" nomli she’r yaratgan? ***/// **A.Oripov**

4151. Qaysi taxallus “Tug‘ma tabiat” degan ma’noni anglatadi? ***/// **Fitrat**

4152. Qoradir garchi o'zi, nuri haqiqatdir o'zi, Chunki bosgan yerda zulmatni ziyo qildi qalam,

Ya’ni maydona har ish keldi, qalam xosiyati,

Hosili har maqsad-u har muddao qildi qalam. Ushbu misralar muallifi kim? ***/// **Hamza**

4153. Quyida berilgan she’riy parcha qaysi adib ijodiga mansub? Umrni sarf etmish ota-bobolar, Chekmish ilm uchun jabr-u jafolar.

Bizlar ham bo’lmaylik baxti
qarolar, Bitsin, yo’q bo’lsin
bu kayf-u safolar.

Ey millat, uxlama ilm olur chog’i,

Har millat ilm oldi – yondi chirog’i. ***/// **A.Avloniy**

4154. Quyidagi ijodkorlardan qaysi biri ayollarni, jumladan, onalarni o‘qishga chorlab, “O‘qing, onalar” she’rini yozgan? ***/// **So’fizoda**

4155. Quyidagi qaysi asarda O‘sar aka tilidan hikoya qilingan voqea tasvirlanadi? ***/// **Abdulla Qodiriy; “Jinlar bazmi”**

4156. Quyidagi she’r muallifini toping.

Shoirlik menda bir
soyami, deyman, Har bir
tushunchamni yoza
olmagach.

Rassomdek xayolga chiza olmagach,

Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman. ***/// **Cho'lpon**

4157. Quyidagi she’riy parcha qaysi shoir ijodidan olingan?

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon

Banga na g‘am, qolur avlodima uy-u vatanim. ***/// **Avloniy**

4158. Quyidagi ta’rif Oybekning “Navoiy” romanidagi qaysi qahramonga berilgan? “... sodda, dilovar, ov va qushlar ilmining piri. O’zining maxsus yoyini kuch bilan otib, o‘qni taxtadan o‘tkazar edi”. ***/// **Islim barlos**

4159. Quyidagi ta’rif Oybekning “Navoiy” romanidagi qaysi qahramonga berilgan? “G'oyat bilimli, sardor, ulug'vor odam. Lekin ovga, qushga shuncha o'ch ediki, mabodo qushlaridan biri o'lib qolsa, raso motam tutar, bu o'lgandan ko'ra, falon o'g'lim o'lsa bo'lmasmidi, derdi**”.** ***/// **Muhammad burinduq barlos**

4160. Rus mirza Sokolov va mirshab Mirzabobo qaysi asarning epizodik obrazlari hisoblanadi? ***/// **"Kecha va kunduz"**

4161. Shoir R. Musurmonning "Odam Otaning nasliga beshik bo‘lgan tog‘larim, Momo

Havoning vasliga oshiq bo'igan bog‘larim", - deb boshlanuvchi she’rining har bir bandi qaysi misra bilan yakunlanadi? ***/// **Ohuvva-hay, Vatanim.**

4162. Shoir Yo’ldosh Eshbekka bag’ishlangan she’r nomi va muallifini toping. ***/// **"Yutqiziq", M.Kenjabek**

4163. Siyosiy va mafkuraviy aqidalar to'riga ilinmagan cho'ri bo‘lsa ham o‘zini erkin qushdek

his etuvchi, pokiza qiz — Guloyim obrazi qaysi asar qahramoni? ***/// **Hamid Olimjon,**

**"Muqanna"**

4164. Sochilgan sochingday sochilsa siring, Anor yuzlaringni kimga tutasan?

O’zing-ku “Ularda vafo yo‘q!”

deding, Nimaga ularni tag‘in

kutasan?

Ushbu she’riy parcha muallifi kim? ***/// **Cho‘lpon**

4165. Teatrni ibratxona deb hisoblagan adib kim? ***/// **M.Behbudiy**

4166. Urush yillarida o‘n to‘rt bolani asrab olgan Shoahmad aka va mehribon Bahri opa kimning qaysi she’rida tilga olinadi? ***/// **M.Shayxzoda, "Toshkentnoma"**

4167. Ushbu misralar kimning qaysi she’ridan olingan? Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la,

Bezamoq chog'idir umr daftarin**.** ***/// **G'afur G'ulom "Vaqt"**

4168. Valentin Rasputinning “Rabbim!” de, Mariya” degan so’zlari epigraf qilib olingan asarni toping. ***/// **X.Sultonov “Yo, Jamshid”**

4169. Yashnatib dil g'unchasin, fasli bahor aylar gazet,

Suv berib ko'ngil bog'ini sabzavor aylar gazet. Gazeta to'g'risidagi ushbu she’r muallifi qaysi qatorda berilgan? ***/// **So'fizoda**

4170. Yodgor echki, Umarali puchuq kabi personajlar qaysi asarda keltirilgan? ***/// **“Kecha**

**va kunduz”**

4171. Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning,

Na’rasiga tengdir aksi sadosi.

Besh yuz yil yangradi tog'day vatanda, Buyuk Alisherning asriy nidosi. Navoiy ta’rifiga bag'ishlangan ushbu she’riy parcha muallifini belgilang. ***/// **G'.G'ulom**

4172. Yuksak tog‘ oralab o‘kirgan sherning

Na’rasiga tengdir aksi sadosi,

Besh yuz yil yangradi tog‘day Vatanda

Ulug‘ Alisherning asriy nidosi. Qaysi shoirning she’ri ushbu misralar bilan yakunlanadi?

***/// **G‘.Glulom**

4173. yurakning navkarlariga o'xshatgan ijodkor kim? ***/// **M.Shayxzoda**

4174. Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning "Sayding qo‘yaber, sayyod" asari qaysi janrga mansub? ***/// **musaddas**

4175. "U tentakcha sevar edi, biroq ko’p hali

Rashk qilishga uncha moyil emasdi". “Otello” tragediyasidan olingan ushbu fikriar kimning tilidan aytilgan? ***/// **Otello o’zi haqida aytgan**

4176. “...tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o‘zi suluv oyimcha” Ushbu parcha qaysi dostondan olingan va qanday badiiy san’at qo’llangan? ***/// “Rustamxon”; sa’j

4177. “O’n sakkiz ming olam oshibu agar boshindadur,

Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadur”.

Navoiyning ushbu bayt bilan boshlanuvchi mashhur g‘azali qofiyalaridagi raviyni toping. ***/// **“sh” harfi**

10) "Mening o’g’rigina bolam"; 2) "Yulduzlar mangu yonadi"; 3) "Shum bola"; 4) "Avlodlar dovoni"; 5) "Ikki karra ikki - besh"; 6) "Urushning so’nggi qurboni"; 7) "Sariq devni minib"; 8) "Qoplon". Berilgan asarlardan o’rta epik janrga mansub bo’lganlarini toping. ***/// **2, 3,**

**5**

4178. Agar g’azalning birinchi misrasi g’azalning so‘nggi misrasi sifatida yana bir bor kelsa, bu badiiy san’at mumtoz adabiyotda qanday nomlanadi? ***/// **radd ul-matla’**

4179. Alisher Navoiy va Boburning aruz vazniga bag'ishlangan asarlari nomini aniqlang.

***/// **“Mezon-ul avzon”, “Muxtasar’**

4180. Alisherga alla aytib uxlatgan Sen - ona.

Og‘ushida Bobur kamolga yetgan

Sen - ona. Mitemir ijodidagi ushbu misralar vaznini aniqlang ***/// **qo’shma vazn**

4181. Anvariy-u Fazliy-u Hoqoniyi Masnad mudom. (Feruz) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **talmeh**

4182. Aruz vaznida "foilotun" qaysi bahrning rukni hisoblanadi? ***/// **ramal**

4183. Aruz vaznidagi hazaj bahri qanday paydo bo'ladi? ***/// **mafoilun (V - ) rukni takroridan**

4184. Azim ayla sabo ul gul-u xandonimg’a,

Ne gulki, quyoshdek mohi tobonimga. Bayt misralaridagi qofiyadosh so‘zlarning ohangdoshligini ta’minlovchi tirgak tovushni toping. ***/// **“n” tovushi** 4185. Bayt vaznini belgilang. Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,

Visolim davlatidan benasibim ... (Navoiy, "Farhod va Shirin") ***/// **hazaji musaddasi mahzuf**

4186. Belining nozikligicha yo‘q tori gisuyi,

O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur quyi. Baytda qanday badiiy san’atlar qo'llangan? ***/// **tashxis, husni ta’lil, litota**

4187. Berilgan misralardagi badiiy san’at turini toping.

Oshar yeldin.seni yelganda oting,

Quyosh yanglig’ jahonni tutdi oting**.** ***/// **tajnis**

4188. Berilgan qaysi baytda raviy qo‘shimcha tarkibida berilgan? ***/// **Ikki mahbubni ko’rdim, bir-birisin ko’rmagan, Ikkisining o’rtasiga, do’stlar, qil ham sig’magan.** 4189. Bir ko‘rib chohi zaqan Xorud ila Morud ikov,

Chohi Bobil ichra qolmishlar bo‘lak tadbirda. (Furqat) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **talmeh**

4190. Bir oh ila kul bo’ldum, ey charx, tilab topib,

Farhod ila Majnung‘a oshiqlik ishin o‘rgat. (Navoiy). Baytda qo‘llanilgan badiiy san’atni aniqlang**.** ***/// **talmeh**

4191. Birgina voqaye asosida quriladigan kichik epik janr nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **hikoya**

4192. Bo’yung sarvu sanubardek,beling qil,

Vafo qilg’on kishilarg’a vafo qil. Byatda qanday san’atlar qo’llangan? 1) tazod; 2) talmeh; 3) tanosub; 4) tajnis; 5) ruju’: 6) tashbeh ***/// **3,4,6**

4193. Boburning qaysi g‘azali raddul-matla san’atiga asoslangan? ***/// **“Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana” deb boshlanuvchi g‘azali**

4194. Bog‘dan chiqish uchun bir necha odim yurgach, ishkom ichida suyanib turgan qizga ko‘zi tushdi // uyalganidan bir zumda qizarib- bo‘zarib ketdi, ketmonga tikilib qadamini tezlatdi. Ushbu gapda // o‘rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi**?** ***/// **nuqtali vcrgul**

4195. Boqib ko‘z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar,

Yo‘q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansin. Ushbu baytda qanday badiiy san’at qo‘llanilgan? ***/// **tazod**

4196. Bugun, ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,

Gado bo'lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim. (Uvaysiy) Baytda qanday badiiy san’at qo'llangan? ***/// **tazod**

4197. Bulbul o‘qig‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,

G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atlarni toping. 1) iyhom; 2) tashxis; 3) takrir; 4) husni ta’lil; 5) tanosub; 6) talmeh. ***/// **2, 4, 5** 4198. Buxl erur borcha saxovatdin xasis,

Lek saxo javhari asru nafis.(Navoiy, "Hayratul-abror") Baytda qanday badiiy san’at qo'llanilgan? ***/// **tazod**

4199. Chala (och) qofiyali misralarni aniqlang.

***/// **Shaharlarda ishga chiqib el, Odam bilan to’lar Tekstil.**

"Otello" tragediyasida Emiliya "Erkak bo'lsang, sharmanda qil bu vijdonsizni" deganda "vijdonsiz" deb kimni nazarda tutadi? ***/// **Otelloni** 4200. Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,

Bo‘yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur. (Sayfi Saroyi) Ushbu baytda qo’llanilgan she’riy san’atlar to’g’ri ko’rsatilgan javobni toping. ***/// **tashxis, tajnis** 4201. Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdim yamonliq asru ko'p,

Emdi ko'z tutmoq ne ma’ni har yamondin yaxshilig'? (Bobur) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping**.** ***/// **tazod**

4202. Ey ko'ngul, ul dilraboning o'zga yori bor emish,

Vah, senga dushman bo'lib, ul o'zgalarga yor emish. (Husayniy) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tazod**

4203. Filotun ishq darsida menga shogird erur, lekin

Xatingni ramzidin ogoh emas ta’bi xiradmandim. (Amiriy) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **talmeh**

4204. Fojia bilan tugaydigan hikoyalar keltirilgan qatorni aniqlang. ***/// **"Urushning so'nggi qurboni", "Dahshat".**

4205. G’azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Jong’a chun dermen: Ne erdi o’lmakim kayfiyati?... “ g’azali aruzning qaysi bahrida yozilgan? ***/// **ramali musammani maqsur**

4206. Ganja ganjurikim chekib ko‘p ranj,

Qo‘ymish erdi jahonda besh ganj. Alisher Navoiy "Xamsa"sidan olingan ushbu baytda qanday she’riy san’at qo'llangan? ***/// **ishtiqoq**

4207. G'azal unsuri ko'rsatilmagan javobni toping. ***/// **ruboiy** 4208. Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?

4209. Hajr sahrosin gulgun ayladim qon yosh ila,

Men kibi bu nav ko'zi xunfishonroq yo'q kishi. (Munis) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **mubolag'a**

4210. Bu nima deb so’rasam hatto Biyobondan Majnun berdi sado:

Bu yo’lda kiribsan–qilibsan xato

Xatoni sadoqat kechirmas aslo. Ushbbu bandda qanday badiiy san’at qo’llanmagan**?*****/// **tajnis**

4211. Hazaj bahrining turog‘i (rukni) va paradigmasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? ***/// **mafoiylun, V---**

4212. Ikki zulfingni banogo'shinda tebratmish sabo,

O'ylakim, ochib qanotin qor uza o'ynar g'urob. (Amiriy) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tashbeh**

4213. Irsoli masal qo’llangan baytni toping. ***/// **Sabr qilsang g’o‘radin halvo bitar, Besabrlar o’z oyog'idan yitar.**

4214. Irsoli masal san’ati o‘zbek yozma adabiyotining eng qadimgi namunalaridan kimlarning asarlarida uchraydi? ***/// **Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy**

4215. Kuyib, o‘rtanib sham suv bo‘ldi pok, Asar qildi so‘zi gudozim mening. (Nodira) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **husni ta’lil**

4216. Kuymas, dedilar, ma’murayi ganj,

Obod edim men, vayrona bo'ldim. (Mashrab) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tazod**

4217.Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘im kim,

Ranj-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar. (Furqat) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tazod**

4218.La’li shiriningni ta’rif aylab o'lmish shahdkom,

4219.Latifa, ertak, ocherk, esse hayot hodisalarini badiiy qamrash ko'lami nuqtayi nazaridan epik janrning qaysi shakliga mansub? ***/// **kichik epik janr**

4220.Layli andin qo’ydi Majnun ko’nglida taxti g‘amin,

Kim, yo’q erdi manzil ul vodiyda andin pokroq. (A.Navoiy) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping**.** ***/// **talmeh**

4221.Mani ishq ichra shaydo aylagan oromi jonimsan,

Nigori guljabinu mahvashi shirin zabonimsan. Ushbu keltirilgan baytda qofiyalangan so‘zlardagi raviyni belgilang. ***/// **jonimsan-zabonimsan so'zlaridagi birinchi "n" tovushi**

4222.Maylni qo‘yki, volau zor ul. Jon berib vasliga xaridor ul.

Baytda shoir qanday she’riy san’atdan foydalangan?
***/// **tanosib** 4223. Men bor joyda senga, chaqimchi bir insonga, nima bor?!

Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?

Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor? Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tajohuli orif**

4224.Mening ko‘nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur. (Bobur) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tashbeh**

4225.Mumtoz she’riyatda ko‘p qo‘llanadigan “shisha”, “ko‘za”, “ayog‘”, “kosa” kabi timsollar zamirida qanday tushuncha yashirilgan? ***/// **qalb va yurak**

4226.Munisning quyidagi tuyug‘ida qo‘llanilgan tajnislar ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Raxshi himmat men tutub
mahkam yolin, Yor izidin yet,
karam qil, deb yolin.

Yo‘qu borimni yoqib kill ayladi,

Ishq o‘tidin ko‘kka chirmashg'on yolin. ***/// **otning yoli, yalinmoq, yolqin**

4227.Muqimiyning “Emdi sendek jono, jonon qaydadir” asarining janrini belgilang**.** ***/// **murabba’**

4228.Musammatlardagi she’r bandining miqdori to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang. ***/// **muashshar - o‘n misra**

4229.Musofirman, g‘aribman, bekkas-u benavodurman,

Vujudim dardg‘a to‘ldi, endi darmonimni sog‘indim. (Uvaysiy) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **ta’did**

4230. Mutaqorib bahri qanday paydo bo‘ladi? ***/// **mafoiylun (V-) rukni takroridan** 4231. Mutlaq tashbih berilmagan baytni toping.

***/// **Bo'rini dog'i galadin dur qil, Suv beribon bog'ni ma’mur qil.**

4232. Nargis erkanmu va yo ul chashmi purafsunmudur? (Feruz) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping**.** ***/// **tajohuli orif**

4233. Nastarin yuvib, yuzni yosumon tuzib o'zni,

Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar. (Furqat) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tashxis**

4234. Nekxohim deganim barcha bor erkan badxoh,

Onikim anglar edim yaxshi, yomon topdim oni. (Munis) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tazod**

4235. O‘tdilar dunyodin dilxohlar, gumrohlar,

Qolmadi dunyoda boqiy ham gado, ham shohlar. (Huvaydo) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping**.** ***/// **tazod** 4236. O‘tig‘a kuygali keldim,

Oydek yuzingni ko'rgali keldim. (Mashrab) Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tashbeh**

4237. O’zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy janrlarni ko‘rsating. ***/// **musaddas, qissa, ballada**

4238. Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon,

Qildi sahrog’a tarovat o’zgacha paydo bahor. Ushbu baytda qanday she’riy san’at qo’llangan**?** ***/// **tashxis va tashbeh**

4239. Ogahiy qalamiga mansub quyidagi baytda qaysi san’at qo‘llangan?

Boqib ko‘z ichidin pinhon fosh etdilar tag‘ofillar

Yo‘g‘-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun. ***/// **tazod**

4240. **Oh ursa, olamni buzar dovushi,**

To'qson molning terisidan kovushi. ("Alpomishdan") Parchada qo’llangan badiiy san’atni aniqlang; matndagi yopiq bo‘g‘inlar sonini toping**.** ***/// **mubolag'a; 9 ta**

4241. Parchada qo‘llangan she’riy san’atni toping. Yaxshidur achchiq haqiqat, Lek shirin yolg’on yomon. (E.Vohidov) ***/// **tazod**

4242. Parchada qo’llangan she’riy san’atni toping. Bunda oq birla qaro, Zulmat, ziyo, shoh-u gado, Jang qilurlar doimo, UI yon o‘zing, bul yon o‘zing. (E.Vohidov) ***/// **tazod**

4243. Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor? Fasohatda, sabohatda, hama to‘g‘rida san nozik. Yor go'zalligining tasviri berilgan ushbu bayt qanday badiiy san’at qo’llangan? ***/// **talmeh**

4244. Qani Shirin bila Layliki sendin nor o'rgansa,

Qani Farhod-u Majnunkim, alarga ishq o'rgatsam. (Bobur) Ushbu baytda qanday she’riy san’at qo'llanilgan**?** ***/// **talmeh**

4245. Qaro zulfing firoqida parishon ro‘zgorim bor, Yuzingning ishtiyoqida ne sabr-u qarorim bor.

Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zimdin qon ravon qildi,

Nechun holim yamon qildi, men andin bir so‘rorim bor. Bobur g‘azalidan keltirilgan ushbu parchada qanday badiiy san’at qo'llangan? ***/// **iyhom**

4246. Qaysi baytda tazod san’ati ikkita juftlikda yuzaga chiqqan?

***/// Kuymasin bu savdoda ne uchun dimog'imkim,

Ranj-u g’unchada, dono kechsa shod nodonlar.

1) qunt bilan o'qimoq; 2) mehnatiga yarasha; 3) aytishlariga ko‘ra; 4) o‘qib turmoq; 5) kun sayin; 6) fikr bildirmoq. Berilganlardan so‘z birikmalarini aniqlang. ***/// **1,6** 4247. Qaysi baytdagi qofiya mutlaq qofiya sanaladi?

***/// **Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan, Ikkisining o'rtasig'a, do'stlar, qil ham sig'magan.**

4248. Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?

Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor? Ushbu baytda qo‘llangan she’riy san’atni toping. ***/// **tajohuli orif**

4249. Qaysi janrdagi asarlarda dialog va monologlar uchramaydi? ***/// **tuyuq**

4250. Qaysi javobda "Farhod va Shirin" dostonining taqte’si to'g'ri ko'rsatilgan? ***/// **- V--/V--/-V--**

4251. Qaysi misra "Irsoli masal" san’ati asosiga qurilgan?

***/// **Ximob ichar vaqtimda xush kelding, ko‘ngulkim, xalq aro Yaxshi masaldurkim: "Kelur yaxshi kishi osh ustina "**

4252. Qaysi she’riy janr g’azal kabi qofiyalanib, faqat unda matla’ yo’ q? ***/// **qit’a**

4253. Qo’shma vaznda yozilgan she’riy parchani aniqlang

***/// Ozmuncha jangler qilmadim men,

Ozmuncha qonlar kechmadim

Ozmuncha tog’lar oshmadim men, Ozmuncha suvlar ichmadim.

4254. Quyida berilgan misralar muallifi kim va unda qanday she’riy san’at qo'llangan?

Axiy erni o'ggil o'gar ersa sen

Baxilga qatig'ga o'qin kizlagil. ***/// **Ahmad Yugnakiy; tazod**

4255. Quyida men tosh boshimni urmagan ostona yo’q,

Elda bor shunday masal: jon chekmasang jonona yo’q. Ushbu baytda qanday badiiy san’at qo’llangan? ***/// **irsoli masal**

4256. Quyidagi baytda qanday she’riy san’at qo’llangan? Gurkiragan olov - dilim yo’ldoshi

To‘lqin urgan daryo ko‘zlarim yoshi

Ko‘zagarlar yasayotgan har ko’za Ko‘hna do’stlar xoki - qo‘li yo boshi. ***/// **tashbeh**

4257.Quyidagi baytlarda qo'llangan she’riy san’at qaysi javobda ko'rsatilgan?
Mirzo Bobur - sen, fig'oning
Soldi olam uzra o‘t.
Shoh Mashrab qoni senda,
Urdi tug'yon o'zbegim. (Erkin Vohidov) ***/// **talmeh**

4258.Quyidagi misralarda qanday badiiy san’at qo’llangan?
Barg ostidan muloyim boqqan iboli g’uncha,
Ne sirni saqlagaysan, bag‘ring necha tuguncha? ***/// **tashxis**

4259.Quyidagi misralarida Abdulla Oripov qanday she’riy san’at qo’llagan?
Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim
Yulduzday kulganim yo’q, oy kabi to‘lganim yo‘q. ***/// **tashbeh** 4260. Quyidagi misralarida Abdulla Oripov qanday she’riy san’at qo‘llagan?
Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,
Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q...
***/// **tashbeh** 4261. Quyidagi she’r qaysi janrda yozilgan? Qaysi erda bo’lsa uqush birla o’g, Ani or atagil, necha o’gsa o’g.
Uqush, o’g, bilig kimda bo’lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o‘g. ***/// **tuyuq**

4262.Quyidagi she’rning birinchi misrasida qanday she’riy san’at qo'llangan?
Og'la, og'la, Nihoniy, kecha bo'ldi kunduzlar,
Falakda ko'rinmayur mohtob ila yulduzlar. ***/// **tazod**

4263.Quyidagi she’rning janrini aniqlang.
Dedim: ayt, umrning ma’nosi nima?
Dedi: chaqmoq, yo sham, yoki parvona.
Dedim: bu dunyoga bino qo‘ygan kim? Dedi: yo go‘l, yo mast, yoki devona. ***/// **ruboiy**

4264.Raqiblarga qilur la’ling tabassum, Qonimni g‘ussadin toshurmog‘ing ne? Ko‘ngul shishasidan mehring mayidir Jafo birla anga tosh urmog‘ing ne?
Ushbu g‘azal parchasida qanday san’at qo‘llangan? ***/// **tajnis**

4265.Roman, epik doston hayot hodisalarini badiiy qamrash ko‘lami nuqtayi nazaridan epik janrning qaysi shakliga mansub? ***/// **katta epik janr**

4266.Sabo tahrikidin yo'q, balki og'zing sharmidin boshin
Quyi solmoqqa moyil bo'lg'usidir har zamon g'uncha. (Munis) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping**.** ***/// **husni ta’lil**

4267.Sarv qadlar suratin chekkanda naqqoshi azal
Bir alif shaklida yozmish qaddi zebo surating. (Furqat) Ushbu baytda qo'llangan she’riy san’atni toping. ***/// **Kitobot**

4268. Sendek menga bir yori jafokor topilmas,  Mendek senga bir zori vafodor topilmas. Ushbu baytda qanday badiiy san'atlar qo'llangan? 1) tazod; 2) iyhom; 3) talmeh; 4) tajnis. ***/// **1**

4269. She'riy baytda bir xil o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirish qanday badiiy san'at deyiladi? ***/// **ishtiqoq**

4270. She'rlarda misralarning o'zi ichki bo'linishlar asosida o'ziga xos ohangdorlikni tashkil etishi nima deyiladi**?** ***/// **turoq**

4271. T.Murod "Otamdan qolgan dalalar"; 2) T.To'la "Do'nan"; 3) P.Qodirov "Uch ildiz"; 4) S.Ahmad "Ufq"; 5) O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari"; 6) X.To'xtaboyev "Sariq devni minib"; 7) A.Qahhor "O'tmishdan ertaklar"; 8) O.Yoqubov "Oq qushlar, oppoq qushlar" Berilgan asarlardan katta epik janrga mansub asarlarni toping. ***/// **1, 3, 4, 6, 8**

4272. Tabibo, sharbati o'ynob icharga bermagin pandim,

Labidin talx-u shirin so'z erur dori-yu gulqandim. (Amiriy) Ushbu baytda qo'llangan she'riy baytni toping. ***/// **tazod**

4273. Tasavvufda may ta'rifida kelgan g'azllar qandy g'azallar hisoblanadi? ***/// **rindona** 4274. Tashbeh va talmeh san'ati birga qo'llangan baytni toping.   ***/// **Raiyat qo'y erur, sulton anga shubon-u yo bo'ri,  Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musotek shubon keldi.**

4275. To magarkim, Salsabil obina javlone qila,

Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur. Atoyi ijodidan olingan ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atlarni toping. 1) tazod; 2) talmeh; 3) tanosub; 4) ruju' ***/// **2, 3** 4276. To'rtlik qaysi janrga mansub? Yo rab, ul shahdu shakar yolabmudur,

Yo magar, shahdu shakar yolabmudur,

Jonima payvasta novak otqali. G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur? ***/// **tuyuq** 4277. Tovusi xurram edim man to'tilarg'a hamnishin,

Voy, netaykim, zog'-zag'ang'a oshno qildi firoq. (Huvaydo) Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping. ***/// **tanosub**

4278. Turfa qishloqi g'azabkardaki parrandalari,

Tovuqi ignachi-yu, o'rdag-u g'ozi kapalak. Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping. ***/// **mubolag'a**

4279. Tuyuq janr sifatida shakllangan dastlabki davrlarda unga qo'yilgan to'rt talabdan qaysi birining bo'lishi shart bo'lmagan? ***/// **Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli, ya'ni shakldosh so'zlar bo'lishi shart**

4280. Ul parivash ishqidinki, telbadurmen, goh sog',

Chunki bordur oramizda goh sulh-u gohi jang. (Furqat) Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping. ***/// **tazod**

4281. Ul sanamkim, suv yaqosinda paridek o'ltirur,

G'oyati nozuklukidin suv bila yutsa bo'lur. Atoyi g'azaliga mansub ushbu matla'da qanday she'riy san'at qo'llangan? 1) mubolag'a; 2) tashbeh; 3) tanosub; 4) tarse'; 5) tazod; 6) ishtiqoq**.** ***/// **1, 2, 3**

4282. Ushbu misralardagi raviylar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

Rozimasman bir yosh tomsa ko'zimdan,
Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan,
Yo'l yursamu, sal yashashdan adashsam,
Rozimasman unda tamom o'zimdan. (H.Olimjon) ***/// **Qofiyalangan "ko'zimdan - yuzimdan - o'zimdan" so'zlaridagi "z" tovushi.**

4283. Ushbu san'atning bir sharti shu: ikki yoki undan ortiq ma'noning biri aniq yuzaga chiqib turadi-yu, asl maqsad ana o'sha yashirinibroq yotgan ma'no bo'ladi. Yuqorida qaysi san'atga ta'rif berilgan? ***/// **iyhom**

4284. Usmon Nosir "Gulzor – chaman" she'rida nimaga nisbatan "kunday yorug', tunday qora" tashbehini ishlatgan? ***/// **ko'z**

4285. Xalq dostonlarning nasriy qismida badiiy usullardan qaysi biri ko'proq qo'llangan? ***/// **saj**

4286. Xos ishqingni ko'rsat manga shokir bo'lay, Arra qo'ysa Zikriyodek zokir bo'lay.

Ayyub sifat balosig'a sobir bo'lay,
Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor. (Ahmad Yassaviy) Ushbu she'rdagi qofiyalar tartibi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping. ***/// **shokir, zokir, sobir**

4287. Yor mehrin tilab, ag'yor jafosin ko'rdum,
Mayki gulgun talab ettim, qora qon topdim oni. (Munis) Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni aniqlang. ***/// **tazod**

4288. Yuksakda raqs etar bir tup, Quyoshga bir savat gul tutib xursand! "Na'matak" (Oybek) she'ridan olingan ushbu parchada qanday san'at qo'llangan? ***/// **tashxis**

4289. Ko'zung balosi bilan jonga tegdi, Sakkokiy,
Dag'i ne qilgusi bilmon, axir bu makkora. Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'at turini toping. ***/// **iyhom yoki tashbeh**

4290. "Karvon qo'ng'irog'i" nomli asar yozgan ijodkorlar qaysi javobda berilgan? ***/// **Asqad Muxtor, Mirkarim Osim**

4291. "Uch mushketyor" asarining muallifini belgilang. ***/// **J. Svift**

4292. Bir adabiy turga mansub asarlar qaysi javobda keltirilgan? ***/// **Cho'lpon "Kecha va Kunduz", X.Sultonov "Yo, Jamshid", Sh.Bo'tayev "Hisomiddin al-Yog'iy"**

4293. Bosh qahramonlari makr-hiyla bilan dushman tuzog'iga ilinib, zanjirband va zindonband qilingan asarlar qaysi qatorda berilgan? ***/// **"Farhod va Shirin", "Alpomish"**

4294. Qaysi asarda voqealar qahramon tilidan bayon etilgan? ***/// **"To'nyuquq" obidasi,**
**"Sariq devni minib"**

4295. Qaysi asarlar bir xil janrda yozilgan? ***/// **E.A'zamov "Ko'k eshik", N.Norqobilov**
**"Olim o'g'li"**

4296. Qaysi ijodkorlar ijodida yaxshi kuningda do'st bo'lib, yomon kuningda tashlab ketadigan do'stlar haqidagi asar uchraydi**?** ***/// **Abay, A.Avloniy, A.Muxtor**

4297. Qaysi javobda tarixiy shaxslarning memuar asarlaridan foydalanib yaratilgan romanlar nomi ko‘rsatilgan? ***/// **“Yulduzli tunlar”, “Navoiy”**

4298. Quyidagi she’riy to'plamlar mualliflarini to'g'ri belgilang. 1) "Sizga aytar so'zim"; 2) "Safarbar satrlar"; 3) "Sharqdan kelayotirman"; 4) "Ishq kemasi"; a) M.Yusuf; b) A.Muxtor; c) G'.G'ulom; 4) U.Nosir ***/// **a - 4; b - 1; c - 3; d - 2**

4299. Tarixiy sahna asarlari yozgan adiblarni belgilang. 1. M. Shayxzoda; 2. H. Olimjon;3. S. Ahmad; 4. O. Yoqubov; 5. J. Jabborov ***/// 1,2,4

4300. U choqda o'qiymiz biz lirik daftaring,

Kundalik emas, tundalik daftaring. M.Shayxzoda qalamiga mansub ushbu lirik parchadagi ostiga chizilgan so'zni qaysi adib o'z asarining ikkinchi nomi sifatida tanlagan? ***/// **Asqad Muxtor, "Uyqu qochganda**"

XXXXXX